2024-yil. 15-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

1 - OKTYABR – O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI !



2024-YIL 15-SON

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'lqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan
Gulsanam Xolikulova
Komiljon Qarshiyev
Svetlana Umirova
Nigoraxon Ro'zibayeva
Ra'no Mullaxodjayeva

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
Shabnam G'ANIYEVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Orzigul Hamroyeva. "Mashrab" jurnalining jadid matbuotidagi o'rni.....3
Dildora Ganiyeva, Zumradxon Xakimova. Speech act as an important function of communication.....6
Akramjon Mirzayev. PISA xalqaro baholash dasturining "raqamli dunyoda o'rganish" konsepsiyasi bo'yicha o'quvchilar media savodxonligini rivojlantirish modeli.....8

Tilshunoslik

To'lqin Mardiyev, Faxriddin Kulibayev. Ingliz tilida Vatan konseptining etimologik va semantik jihatlari.....11
Murodilla Yakubbayev. Linguistic and cultural competence: a foundation for cognitive communion.....13
Khurmatillo Ismoilov. On the pyscholinguistic study of defendants' speech.....15
Солиха Анорбаева. Формирование переводческой компетенции как одного из основных компонентов в общей структуре иноязычной профессиональной коммуникативной компетенции (на примеры вышего образования Узбекистана).....19

Adabiyotshunoslik

Dilrabo Kazakbayeva. O'zbek adabiyotida murakkab strukturali janrlar va qasida xususida.....24
Marjona Toshpulatova. Navoiy ijodini o'rgatishga doir tadqiqotlar.....27
Sharifa Usmonova. Istiqlol davri adabiyotida tarixiy shaxs obrazining yaratilishi.....29
Shahlo Rahmonova. O'zbek xalq og'zaki she'riyatida faol ayol tasviri.....32
Hafiza Axmedova. Shukur Qurbonning "Onam qoshidasan yoxud singlim Muhabbatga maktublar" maktub-dostoni haqida.....37
Muhabbat Boriyeva. XX asr rus va o'zbek she'riyatida tabiat tasviri masalasi.....40

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Oqiljon Mavlonov. Bu damki ko'z savodidin qaro ko'zdin davotim bor... yoxud Ul ne ko'zdururkim erur noz-u karashma jomidin.....42
Nasiba Javliyeva. O'quvchi va o'qituvchi hamkorligi asosida boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati.....46
Feruza Nabijonova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda qomusiy olimlarning ilmiy manbalaridan foydalanish metodikasi.....48
Farangiz Avazova. 5 – 6 - sinf ona tili darsligida mavjud tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi ba'zi topshiriqlar tahlili.....51
Dilorom Yakibova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining texnologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-nazariy jihatdan o'rganilishi.....54
Dilafruz Buranova. Mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'zlashtirish tibbiy oliy ta'limdagi kasbiy-innovatsion kompetentlikning muhim jihati sifatida.....57
Yulduz Usmonova. Hamkorlik texnologiyasini shakllantirishga oid yondashuv va tamoyillar.....60
Madina Ruziyeva. "Til, tafakkur va nutq munosabati" modulini o'qitishdagi

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir. https: //oak.uz/pages/4802

Ilmiy-metodik elektron jurnal

innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalar.....62
Gulruh Bozorova. Umumta‘lim maktablarida dramatik asarlarni o‘qitish usullari.....64
Dilshoda Il’yasova. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida mustaqil ishlashlarni tashkil qilish metodikasi.....66
Maftuna Jabborova. Tabiiy usullar yordamida bola shaxsidagi lingvistik ijodiy intellektni shakllantirish.....68
Дурдона Эгамназарова. Лингвистическая игра смыслов.....70
Gulbakhor Nazarova. Didactic principles of teaching and visibility.....73


Tadqiqot

Zilola Eshanova. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida alla janri modifikatsiyalari.....76
Sarvinoz Mustafayeva. O‘zbekiston yoshlarida til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari.....80
Sayyora Ataxanova. Zamonaviy ma’ruza mashg‘ulotlarining talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati.....86
Shohruh Abdiraimov. O‘quvchilarni baholash natijalari: til birliklarni o‘zlashtirishda genderning o‘rni.....89
Shahzoda Sobirova. “Hayrat ul-abror” asarining stilistik xususiyatlari.....92
Nilufarxon Maxmudova. O‘zbek xalq topishmoqlarining lingvokognitiv tadqiqi.....95
Salomat Matkarimova. Avaz O‘tarning masnu’ tatabbu’si.....97
Muxlisa Sabirova. Internet matnlarida evfemizm hodisasining ifodalanishi.....99
Munisa Karimova, Navruz Imamov. Ingliz va o‘zbek tillarida kesimning harakat tarzi funksional semantikasi.....101
Aziza Omanboyeva. Fuzuliyning “Rind va Zohid” asarida zuhd talqini.....103
Zohirjon Kenjayev. Boysun tuman oronimlarining hosil bo‘lishida konversiya va transonimizatsiya.....106
Shahlo Salimova. Xavfsiz ta‘lim muhitini shakllantirishda pedagogik metodikaning o‘rni.....108
Jamila Yunusova. Shavkat Rahmon she’rlarida fonetik vositalarning badiiy xususiyatlari.....112
Gulnora Umarova. “Hayrat ul-abror” dostonidagi munojotlarni sharhlab o‘qitish.....115
Sitora Ashurova. Termin tushunchasi va bog‘dorchilik terminlarining o‘rganilishi zarurati.....118
Kibriyo Sultonova. Botanik terminlarning shakllanish bosqichlari.....121
Mirzohid Muhammadaliyev. Zooporeyonimlar xususida.....124
Mohinur Rahimova. Ekologik matnlarni tarjima qilish muammolari va adekvat tarjima qilish usullari.....128
Feruza Temirova. Kichik yoshdagi bolalar latifalarining sotsiolingvistik tahlili.....130
Shohista Nazarova. Ogahiy taxmislarining o‘ziga xos xususiyatlari.....132
Vazira Alimbekova. O‘zbek tilining janubi-sharqiy Andijon arealiga xos ayrim xususiyatlar.....134
Fariza Ruzimurodova. O‘zbek-ingliz tarjimachiligining taraqqiyot bosqichlari.....137
Adolat Bekturdiyeva. O‘g‘uz lahjasi sintaksisining o‘rganilish tarixi.....139
Muxammad Nortojiyev. Uyg‘onish davri gumanizm g‘oyalarining Yevropa madaniyatiga ta’siri.....143
Mavluda Satiyeva. Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” asari tadqiqi.....144
Navruzgul Turdiyeva. Luqmon Bo‘rixon hikoyalarida xarakter badiiyati.....147
Maftuna Narziyeva. Adabiyot va tasviriy san’at darslarida portret namunalaridan foydalanish usullari.....150
Vazira Ubaydulloyeva. Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Maysaraning ishi” dramasida xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanishi.....153
Mohidilxon Shamatova. Morfopragmatikada grammatik vositalarning assotsiativ munosabati.....155
Feruza G‘aybulloyeva. Formativ baholash jarayonida 7-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini baholashning strategiyalari va mezonlari.....158
Мехрибону Арсланова. Художественно-стилистическое своеобразие рассказа Людмилы Петрушевской «Дом у фонтана».....160
Жавохирбек Жалилов. Значимость метафоры в творчестве В. Я. Шишкова, особенно в его зрелый период.....164
Aziza Davlatova. Phonetic analysis of linguacultural words in english and uzbek children's speech.....165
Susanna Mamadaliyeva. Characteristics of letters in fiction and their significant use.....168
Mehrangiz Kurbonova. Using cartoon fragments in english lessons to teach listening.....171
Iroda Saidova. Aspects of wordplay.....173
Zebuniso Abduganiyeva. Authorial voice in academic discourse: the role of genre awareness and culture.....175
Durdona Najmiddinova. Teaching Receptive Skills with Effective Methods.....178
Nilufar Saidova. Study of argot, jargon, and slang: terminological issues.....180

Kichik tadqiqot

G‘afurjon Tojiboyev. Til – biz uchun hamma narsa.182
Feruza Karimova. O‘zbek folklorida olov bilan bog‘liq epik motivlar talqini.....183
Marjona Rahimboyeva. Boshlang‘ich ta’limda she’riy matnni idrok etish va tahlil qilishning psixofiziologik jihatlari.....185

Muxayyo Valiyeva. Nominatsiya-lingvistikada nomlash jarayoni.....187
Dilzoda Saydaliyeva. Jahon tilshunosligida sistema tushunchasi va ahamiyati.....189
Bahtiyor Soyibnazarov. O'zbekiston Repsublikasi va xorijiy davlatlar qonunchiligida notariuslar faoliyatining moliyaviy va ijtimoiy ta'minoti tahlili...191
Shoira Xodjayeva. Uilliyam Shekspir asarlarining o'zbek va dunyo tillariga tarjimasi.....193
Shohsanam Suyunova. Alisher Navoiyni anglashda tasavvuf manbalarining o'rni.....195
Dilrabo Chorshanbiyeva. Abdulla Oripov she'riyatida globallashuv hodisasining makon va zamon vositasida yoritilishi.....197
Shahnoza Nazarova. O'zbek va nemis madaniyatida etiket birliklari va muloqot uslubi xususiyatlari.....198
Shodiyona Abdugapparova. "Qiyomat" (Chingiz Aytmatov)da obrazlar ma'naviy-axloqiy fojiasining obyektiv va subyektiv omillari.....200
Hayitgul Abdurahmonova. Balzak ijodida qishloq hayoti.....202
Lobar Aralova. "Devonu lug'otit turk" asaridagi ba'zi fe'llar xususida.....204
Nodirbek Ahmedov. Ijtimoiy media siyosiy nutqi ta'siri ostida xitoy tilining o'zgarish xususiyatlari.....206
Bo'ritosh Nurbadalova. Bobur g'azallarida mujarrad qofiyaning qo'llanilishi.....207
Shahribonu Abduvohidova. Kommunikativ-pragmatik yo'nalishning shakllanishi.....208
Gulsanam Qayumova. XXI asr qissa va hikoyalarida yangilanish tamoyillari.....210
Yulduz Shaymanova. Erkin Vohidov poeziyasida o'zlashma frazeologizmlarning qo'llanilishi haqida.213
O'g'iloy Naimova. Jahon kulgi madaniyatining badiiy adabiyot taraqqiyotiga ta'siri.....215
Мохчехра Абдусаломова, Савлат Гафурова. Методика преподавания русского языка в национальных группах вузов и в школе.....217
Баходир Дехконов. Типы классификации научно-технической терминологии по строительству.....219
Наргиза Абдураимова. Особенности изображения человеческой судьбы на историческом фоне в поздней прозе фазиля искандера.....221
Чарос Абдуллаева. Психологический анализ главного героя в романе Г. Пряхина «Мираж»....223
Nodira Qurbonova. Principles of choosing writing materials in teaching uzbek as a foreign language.225
Ayzek Azimov. O'qituvchi odam bo'lgan ekan... (hikoya).....227



Orzigul HAMROYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari doktori, professor. v.b.



“MASHRAB” JURNALINING JADID MATBUOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: “Mashrab” jurnali XX asr boshlarida “Zarafshon” gazetasiga qo‘shimcha tarzda e’lon qilingan jurnal bo‘lib, unda o‘z davrining yetuk shoir, nosir va publitsistlari turli taxalluslar ostida bir qancha ilmiy-publitsistik, ijtimoiy, adabiy maqola va badiiy ijod namunalari bilan muntazam ishtirok etgan. Maqolada “Mashrab” jurnalining tarkibiy tuzilishi va jurnal sahifalarida e’lon qilingan adabiy parchalar xususida to‘xtalinadi.

Kalit so‘zlar: *jurnal, gazeta, matbuot, adabiy parcha, adabiyotshunoslik, satira, yumor, taxallus.*

Аннотация: журнал «Машраб» издавался как приложение к газете «Зарафшон» в начале XX века, в котором зрелые поэты, прозаики и публицисты своего времени публиковали ряд научно-публицистических, общественных, литературных и художественных статей под разными псевдонимы регулярно участвовали с творческими образцами. В статье рассматривается структурная структура журнала «Машраб» и литературные произведения, публикуемые на его страницах.

Ключевые слова: *журнал, газета, пресса, литературное произведение, литературоведение, сатира, юмор, псевдоним.*

Annotation: “Mashrab” magazine was published as a supplement to "Zarafshon" newspaper at the beginning of the 20th century, in which mature poets, prose writers and publicists of their time published a number of scientific-journalistic, social, literary and artistic articles under different pseudonyms. participated regularly with creative samples. The article focuses on the structural structure of "Mashrab" magazine and the literary pieces published on its pages.

Key words: *magazine, newspaper, press, literary piece, literary studies, satire, humor, pseudonym.*

KIRISH

XX asr boshlarida badiiy adabiyot, asr boshlaridagi adabiy muhit, ijtimoiy-adabiy jarayonlar, adabiyotshunoslik kabi masalalarga oid tadqiqotlarning aksariyati jadid matbuoti orqali e’lon qilingan. XX asr boshlarida chiqa boshlagan jurnal va gazetalarning aksariyatida davr shoir va shoiralarining ijod namunalaridan tortib, adabiyotshunos olimlarning adabiy jarayon va adabiyot tarixiga oid ilmiy-nazariy fikrlari, tadqiqotlari, xulosalari aks etgan maqolalar e’lon qilingan. Jurnal va gazetalar o‘z yo‘nalishi va maqsadiga ko‘ra turli ijod namunalarini keng kitobxon ommasiga yetkazgan. XX asr boshlari, 1900-yildan 1930-yilgacha bo‘lgan davrlarda yuzdan ortiq gazeta, jurnallar nashr etilib, ma’lum muddatdan keyin turli sabablar bilan yopilgan. Bu gazeta, jurnallarning ba’zisi bir necha oy, ba’zisi 1-2 yil, ba’zilari esa 5 yildan ortiq davr mobaynida turli axborot materiallari bilan birga badiiy adabiyot va shu bilan birgalikda adabiyotshunoslikka oid ilmiy materiallarni ham e’lon qilgan. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, 1910-1930-yilgacha bo‘lgan davrda bosilib chiqqan gazeta, jurnallarda adabiyot materiallarining soni anchayin salmoqli. Ayni davrdagi gazeta va jurnallar soni ham ko‘p. Xususan, “Buxoro axbori”, “Sharq haqiqati”, “El bayrog‘i”, “Farg‘ona sahifasi”, “Cho‘lpon”, “Turk eli”, “Zarafshon”, “Aziya”, “Yulduz”, “Yangi Farg‘ona”, “Yangi Sharq”, “Yangi dunyo”, “Xurshid”, “Xorazm xabarlari”, “Tilchi”, “Taraqqiy”, “Samarqand”, “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Mehnatkash tovushi”, “Hurriyat”, “Najot”, “Xalq gazetasi”, “Xalq dorulfununi”, “Vaqt”, “Ulug‘ Turkiston”, “Ulfat”, “Turon”, “Toshkent viloyati gazetasi”, “Turkiston”, “Turk so‘zi”, “Tujjor”, “Rosta”, “Qizil yulduz”, “Qizil O‘zbekiston”, “Qizil bayroq”, “Ozod Buxoro”, “Farg‘ona”, “Haqiqat”, “Inqilob quyoshi”, “Ishtirokiyun”, “Kengash”, “Ko‘mak”, “Mehnat bayrog‘i”, “Samarqand”, “Ovozi tojik”, “Boshqirdiston xabarlari” kabi gazetalarda Turkistonda bo‘layotgan ijtimoiy hayot bilan hamohang ravishda badiiy ijod namunalari ham e’lon qilingan. “Dehqon”, “O‘zg‘arishchi yoshlar”, “Sho‘ro”, “O‘zbekiston adabiyoti”, “Qurilish”, “Maorif va o‘qitg‘uchi”, “Maorif va madaniyat”, “Chayan”, “Gulistan”, “Alanga”, “Al-Izoh”, “Yorqin turmush”, “Mash’ala”, “Mashrab”, “Mushtum”, “Yurt”, “Al-isloh”, “Oina”, “Inqilob”, “Inqilobchi - Sharq”, “Inqilobi madaniy”, “Sharq”, “Ayollar turmushi”, “Til ganji”, “Qizil Sharq yoshlari”, “Bilim o‘chog‘i”, “O‘zbekiston markaz axboroti”, “Kolxozchi bolalar”, “Yangi qishloq”, “Qizil yo‘l”, “Sovet pedagogikasi”, “Yangi yo‘l” kabi jurnallarda adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy jarayon

bilan bog‘liq ilmiy-nazariy, tanqidiy, tahliliy materiallar e’lon qilingan.

ASOSIY QISM

XX asr boshlarida chiqa boshlagan “Mashrab” jurnali ayni davr ijtimoiy-siyosiy ahvoli, adabiy jarayonini satirik, yumoristik maqola, satirik adabiy parcha, rasm, karikatura, chizmalar orqali ko‘rsatib beruvchi jurnal bo‘lib, jurnalning nomi majoziy xarakterga ega. Jurnalda e’lon qilingan materiallar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, Mashrab nomi jamiyatdagi voqealardan gangib, telbalik ahvoliga tushib qolgan shaxs ma’nosida ramziylikni ifoda etgan. Jurnalning deyarli barcha sonida Mashrab boboga murojaat shaklidagi, mazmunidagi adabiy materiallar borki, bu materiallarda Mashrab ham hayratga tushadigan jamiyatning ahvoli haqida hikoya qilinadi. “Mashrab” jurnali Samarqandda har o‘n besh kunda chiquvchi “Zarafshon” gazetasiga ilova – qo‘shimcha tarzida bosilgan. Jurnalning boshlang‘ich qismida bu izoh qayd etilgan. Bugungi kunda “Mashrab” jurnalining 1924-yildan 1930-yilgacha bo‘lgan sonlari Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida Pya 109 inventar raqami ostida yig‘ma jild holida saqlanadi. Biz maqolada ayni shu yig‘ma jilddan foydalandik.

Jurnalning doimiy yozuvchilari, ya’ni maqola va she’rlar mualliflari jurnalning turli sonlarida rasmlari keltirilgan holda tanishtirilgan. Xususan, jurnalning 1926-yilgi 40-sonida jurnalning mudiri sifatida Hoji Mu’in tanishtirilgan, A.Majidiy jurnalning doimiy a’zosi sifatida, jurnalning rassomi sifatida Bo‘ri nomi ostidagi shaxs surati keltirilgan. Jurnalda bosilib chiqqan har bir she’r, maqola, hikoya, karikatura, axborot materiallari kinoya asosida keltirilganki, bu parchalar zamirida mualliflarning asosiy maqsadlari yashiringan. Zukko kitobxongina bu kinoyaviy materialni anglab olishi va his qilishi mumkin. Jurnaldagi materiallar ma’lum tizim asosida, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi va shu bilan birgalikda jurnalning tarkibiy tuzilishi asosida ruknlarga ajratilgan holda berilgan. Jurnalning 2-3 sahifasi karikaturadan iborat. Karikaturada Turkistonda aks etgan ijtimoiy-siyosiy ahvol, insonlarning savodsizligi, bilimsizlik, qoloqlik, qo‘shxotinlik, eshonlarning ijtimoiy ahvoli, tibbiy savodsizlik kabi masalalar turmush hayotidan olingan rasmlar asosida kulguga olingan. Jurnalda maqola va she’rlari, hikoyalari e’lon qilingan mualliflar taxalluslari ham kinoyaviy: Qorni och, Qiltiq, Miltiq, G‘unda, Dog‘uli, Ajina, Jirqinbek, Mulla Junbul, Abu Tanbal, Telba tezak, Chaqchi, Boturbek, Tikon, Ko‘knori, Uchqun, Qarg‘ish, Nayza, Jording, A’rofiy, Mashrab, Shashpar, Gavron, kabi taxallus ostida e’lon qilingan turli adabiy parchalar va ularga yuklatilgan vazifalar kitobxonni sergak tortishga majbur qiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, she’rning mazmuniga qarab taxalluslar ham mos holatda keltirilgan.

Jurnalning 1924-yil 6-sonida:

1. “Ikki ko‘runish” sarlavhasi ostida Boturbek muallifligidagi ilmiy-tanqidiy maqola;
2. “Ishonmayman” sarlavhali “Hech kimga” bag‘ishlangani izoh sifatida keltirilgan iqrornoma;
3. Dog‘uli tomonidan yozilgan “Qalaysiz, Eshonpochcha” sarlavhali masnaviy shaklidagi o‘xshatma she’r;
4. “Bir shingil mendan ham eshiting” sarlavhali Abu tanbal muallifligidagi ijtimoiy maqola;
5. “Mashrab tog‘a”ga murojaat shaklida yozilgan “So‘rog‘larim”, “Mashrab bobo”ga atab “Tilaklarim” kabi axborot materiallari;
6. “Arabcha harflar yo‘qoldi” sarlavhali “Zarafshon” gazetasining imlosi, alifbosi bilan bog‘liq muammoga bag‘ishlangan Chaqimchi taxallusi ostida keltirilgan maqola;
7. “Boshqarmadan xabarlar” kabi ruknlar o‘rin olgan.

1924-yilning 7-sonida esa:

1. “Yuqma kasal” sarlavhali Mulla Junbul taxallusi bilan yozilgan xotin-qizlar muammosiga bag‘ishlangan maqola;
2. “Ijobat bo‘lgan duo” nomli Amir Olimxon haqidagi Boturbek tomonidan yozilgan fors tilidagi she’r;
3. Tikon taxallusi bilan yozilgan “Buxorodan muhim kashf” sarlavhali mozorlar bilan bog‘liq muammoga bag‘ishlangan tanqidiy maqola;
4. Mashrab boboga xat tarzida jamiyatdagi muammolarning ustidan kulib yozilgan “Hazrati Xizr ekan” sarlavhali maqola;
5. “Farg‘ona xabarlari” nomi ostidagi axborot materiali;
6. “Boshqarmadan xabarlar” ruknlari mavjud.

Jurnalning har bir sonida adabiy parchalar keltirilgan bo‘lib, ularni o‘rganish, tadqiq etish XX asr boshlaridagi adabiy jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda, davr she’riyatining janrlar va obrazlar tizimini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, jurnalda keltirilgan she’rlar masnaviy, murabba’, muxammas, musaddas shaklida bo‘lib, mumtoz shoirlar ijodiga o‘xshatma tarzida yozilgan she’rlar salmoqli hajmga ega. Jurnalning 1924-yilda chop qilingan 10-sonida Jirqinbek tomonidan yozilgan “To‘g‘ri maqtanish” nomli “Mashrab tilidan” izohi bilan keltirilgan she’r bosilgan. She’r g‘azal shaklida yozilgan bo‘lib, Mashrab uslubi ufurib turadi. Bu o‘rindagi Mashrab jurnalga ishora bo‘lib, jurnal o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini shu she’r orqali ko‘rsatib bergan.

Haqiqatning chirog‘i ustida parvona Mashrabmen
Adovat, shaxsiyatdan doimo begona Mashrabmen.

Qolib haq yo‘l bu yog‘da, egri yo‘lga yursa o‘rtoqlar
Aso birlan ularni urmog‘a mastona Mashrabmen.

Kim o‘z haddindan oshsa, tanqid etmaklik vazifamdir,
Falonchi erdi bu odam demam, haqqona Mashrabmen.

Qayerda bo‘lsa voqea, bir qiziq ish shunda men hozir,
Karomatlik, ajoyib ziyrak-u farzona Mashrabmen

Jaholat ham taassub birla ongsizliq balosidan,
Musulmonlarni qutqazmoq uchun mardona Mashrabmen.

Rioya, andisha, qo‘rqish, hayiqish menda yo‘q aslo,
Nechunkim, o‘zima loyiq otim “devona Mashrabmen”.

Jurnalda bosilgan har bir she’r mohirona yozilgan, she’r mualliflari mumtoz manbalar, adabiyot tarixi, mumtoz shoirlar ijodi bilan tanish bo‘lgan. Uslubdagi, vazndagi, qofiya va radifdagi o‘xshatmalar kamchiliksiz. She’r mualliflari xalq orasida mashhur bo‘lgan she’r qoliplaridan o‘z maqsadlari yo‘lida mohirona foydalanganlar, zamona muammolarini kuylaganlar. Masalan, jurnalning 1925-yil 10-sonida Ahmad Yassaviy hikmatlari ohangi va radifi, qolipi ostida “Eshon bobom haqida xotira” she’ri bosilgan.

Ayo do‘stlar, eshonimiz yo‘lga chiqdi,
Muridlarni ovlash uchun cho‘lg‘a chiqdi.
“Bog‘dan” sori yetolmasdan kechga qoldi,
Eshiklarga tamma qo‘yub, turdim mano.

So‘filari dedi: bizni qo‘ldan berma,
Eshiklaring orqasig‘a tamma qo‘yma.
Bor narsangni chiqarib ber, ayab turma,
Nodonlikdan eshigimni ochdim mano...

Jurnalning 1925-yilning 15-sonida ham Mulla Junbul tomonidan “Xizmatlarim” she’ri e’lon qilingan bo‘lib, bu she’r ham yassaviyona yozilgan.

Ey yoronlar, to‘g‘ri yo‘ldan qochdim mano,
Egrilikning urug‘larin sochdim mano,
Cho‘ntakkinam oqcha bilan to‘lsun, debon,
Makr-u, firib do‘konini ochdim mano...

Jurnalning 1925-yilgi 11-sonida Dog‘ulining “Kaltak” sarlavhali she’ri berilgan bo‘lib, she’r musaddasning an’anaviy a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a tarzida qofiyalanadigan shaklida yozilgan. Muallif mumtoz janr, mumtoz an’analardan mohirona foydalangan.

Gap o‘g‘risi, harf o‘g‘risi birdan o‘zi chiqdi,
Sarf etmak uchun ko‘chaga chopib ko‘zi chiqdi.

Dunyo buzulib ketsa – buzilsun, na g‘amim vor,
So‘zlar cho‘zulub ketsa – cho‘zulsun, na g‘amim vor!

Ishlar tuzulib ketsa – tuzilsun, na g‘amim vor!
Arqon uzulub ketsa – uzulsun, na g‘amim vor!
Yo‘ldosh bo‘lubon o‘zmaga, tuzmak o‘zi chiqdi.
Oshpaz akamiz shovla pishirdi, tuzi chiqdi...

Bu shaklda yozilgan she’rlar talaygina. Xususan, jurnalning 1926-yilgi 33-sonida ham Tikon taxallusi bilan yozilgan “Kamlik yo‘qdir” sarlavhali she’r ham ayni uslubda yozilgan. Biroq musaddasdagi bandlarni ulab turuvchi ikki misra o‘zaro qofiyadosh emas, naqarot tarzida keltirilgan

Yozay desam, mullalarda kamlik yo‘qdir,
Ummat shod-u, sira ko‘ngli g‘amlik yo‘qdir.

Jurnaldagi she’rlar uchun xalq qo‘shiqlari ohanglari va shakllari ham qolip vazifasini bajargan. Masalan, jurnalning 1926-yil 1-sonida “Voh, omon” nomli Uchqun mualliffigi ostida, 1926-yilning 33-sonida Arra taxallusi ostida “Ayrildim” kabi she’rlar e’lon qilingan bo‘lib, ularda xalqning maishat bilan ovora bo‘lib, savodsizlashishi, yengiltak ayollar bilan o‘ralashib qolishi kabi illatlar ustidan kulingan. Jurnalning 1927-yilgi 40-sonida Mulla Junbul tomonidan yozilgan “O‘rtoqliq hazili” nomli she’rda xalq qo‘shiqlarining 8 bo‘g‘inli qolipidan foydalanilgan.

Mashrab bobo to‘yida,
Mashrabchilar osh yesin.
Notavon bir dushmanlar
Zahar ichsun, tosh yesun.
O‘rtoqliq hazili qildiq,
Har kimga berdik o‘rnin.
Hazilg‘a achchig‘lang‘an,
Tishlagay o‘zin burnin...

XULOSA

Ko‘rinib turibdiki, “Mashrab” jurnalida bosilib chiqqan adabiy materiallarning barchasi satirik she’rlardan iborat. Unda mumtoz an’ana va zamonaviy muammolar birlashtirilgan. She’r mualliflari, taxallus egalarining adabiy jarayondagi faoliyatini tadqiq etish ham adabiyotshunoslikdagi muhim vazifalardan biridir. Afsuski, bu jurnal va uning faoliyati, materiallari xususida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Mashrab” jurnali va jurnal tarkibidagi har bir material davr ijodkorlarining adabiy maydondagi asosiy quroli bo‘lgan. Demakki, jurnal tarkibidagi manba va matnlar davrning ijtimoiy-siyosiy, adabiy ahvoli xususida yetarlicha ma’lumot bera oladi.

Dildora GANIYEVA,
Farg'ona davlat universiteti, ingliz filologiyasi kafedrasi professori;
Zumradxon XAKIMOVA,
Farg'ona davlat universiteti, lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi bo'yicha magistranti

SPEECH ACT AS AN IMPORTANT FUNCTION OF COMMUNICATION

Annotation: speech acts are important part of communication as we perform it when we offer an apology, greetings, request, complains, compliment and refusals. The author illustrates the idiosyncrasies of speech act analyzing different points of view of famous linguists.

Key words: *speech act, speech skills, content, illocutionary act, perlocutionary act.*

Аннотация: речевые акты являются важной частью общения, поскольку мы осуществляем их, когда извиняемся, приветствуем, просим, жалуемся, делаем комплименты и отказываемся. Автор иллюстрирует особенности речевого акта, анализируя различные точки зрения известных лингвистов.

Ключевые слова: *речевой акт, речевые навыки, содержание, иллокутивный акт, перлокутивный акт.*

Annotatsiya: nutq harakatlari muloqotning muhim qismidir, chunki biz buni kechirim so'rash, salomlashish, iltimos qilish, shikoyat qilish, iltifot va rad etishni taklif qilganimizda amalga oshiramiz. Muallif taniqli tilshunoslarning turli nuqtayi nazarlarini tahlil qilib, nutq aktining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi.

Tayanch iboralar: *nutq akti, nutq malakasi, illokutivniy akt, perlokatsion akt.*

INTRODUCTION

Speech act is a purposeful speech action performed in accordance with the principles and rules of speech behavior accepted in a given society; a unit of normative socio-verbal behavior considered within the framework of a pragmatic situation. Main features of a speech act are intentionality, determination, conventionality. Speech acts are always correlated with the face of the speaker. The sequence of speech acts creates discourse. A holistic and developed theory of speech acts developed within the framework of linguistic philosophy under the influence of L. Wittgenstein's ideas about the multiple purposes of language and their inseparability from forms of life: the interaction of language and life is formalized in the form of "language games" based on certain social regulations. The foundations of the theory of speech acts were laid by John Austin ("How to do things with words"). The speech act involves the speaker and the addressee, acting as bearers of certain mutually agreed upon social roles or functions. Participants in a speech act have a fund of general speech skills (speech competencies), knowledge and ideas about the world. The composition of a speech act includes the setting of speech and the fragment of reality that its content concerns. According to Austin, to perform a speech act one should pronounce articulate sounds belonging to the generally accepted language code, construct a statement from words of a given language according to the rules of its grammar, provide the utterance with meaning and reference, i.e. relate to reality by performing locution, give the speech purposefulness, turning it into an illocutionary act. John Serle highlights in the speech act act of utterance (utterance act), a propositional act that carries out reference and predication, an illocutionary act that realizes speaker's goal setting. Some illocutionary goals can be achieved through facial expressions and gestures. Main classes of speech acts:

1) representative (the train has arrived)

2) directives, acts of encouragement (Go away!) including the demand for information: (What time is it?)

3) commissions (acts of accepting obligations), E.g. I promise to come on time.

4) expressions (acts expressing an emotional state), including formulas of social etiquette E.g. Sorry to bother you.

5) declarative acts (acts of establishment: appointment to a position, assignment of titles, names, sentencing).

A speech act is characterized by conditions of success, non-compliance with which leads

to illocutionary failures. Situation + personal factors (social roles) (e.g. condition of sincerity → intentions). Success conditions presuppose that the addressee is able to recognize the illocutionary force of the speech act, which must be verbally or nonverbally expressed. Speech acts can be direct or indirect. Indirect speech acts are always conventional (e.g. modalized question).

Something is stuffy here - an indirect speech act.

I wish it wasn't stuffy here - a direct speech act.

MATERIALS AND METHODS

When we analyze communication, we must take into account not only all aspects of the generation mechanism, starting from the motivation stage, but also the entire range of factors that "provoke" the generation of speech and determine its perception and understanding. The focus should be on the communicative act in all its diversity of manifestations. Communication is a process unfolding in time and space. A speech act is understood as a communicative action, a structural unit of linguistic communication, a discretely allocated beat, a quantum of discourse. A communicative act has two "plans", two components: situation and discourse. A situation is a fragment of an objectively existing reality, a part of which can be a verbal act. Discourse is a verbalized activity that includes not only linguistic, but also extralinguistic components. The same understanding of the context by communicants is part of the presupposition. The presupposition is part of the context, being actualized in it. Problems in communication arise if one of the communicants does not understand the meanings relevant to a given communicative act, i.e.

-when for one of the communicants the communicative act remains closed (I can guess what you mean, but I don't understand what exactly);

-unconscious → non-existent (I don't understand at all what you are talking about and what you mean).

CONCLUSION

Thus, speech act theory raises questions about how utterances in the process of communication acquire meaning, expressing speech settings of communicants, and offers answers to these questions. To summarize, it should be emphasized that speech act theory has attracted attention to many problems related to the field of speech theory activities, and also made a significant contribution to resolving such issues, arising in connection with the presentation of the content of statements that are not could have been put forward by traditional linguistics. Considering the speech act, shows the need to take into account the speaker's goal to explain the specifics speech communication. Great importance has the development of a typology of illocutionary acts, which closely leads to the problem of determining the types of speech utterances.

References

1. John Austin "How to do things with words"1st ed. 2014 Edition P 59.
2. Krasnykh V.V. Ethno psycholinguistics and cultural linguistics: a course of lectures - M.: Gnosis, 2002. - pp. 176-180.
3. H. Parret. Linguoculturology: Textbook. Manual for students higher study institutions - M.: Academy, 2001. - 208 p.
4. Abbasova, N., & Xakimova, Z. (2023). DIALOGUES AS AN INTRGRAL PART OF HUMAN COMMUNICATION AND WAYS OF ITS LANGUAGE DESIGN. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 922-925.
5. Xakimova, Z. Q. Q. (2023). INTERROGATIVE SITUATION IN A DIALOGIC SPEECH. Scientific progress, 4(4), 356-362.
6. Lochinovna, U. S. (2023). Linguistic and Pragmatic Study of Word Combinations with Coronamic Elements in Modern Linguistics. Texas Journal of Philology, Culture and History, 16, 6-8.



Akramjon MIRZAYEV,
Andijon davlat universiteti dotsenti
akramjon.mirzayev008@gmail.com)

PISA XALQARO BAHOLASH DASTURINING “RAQAMLI DUNYODA O‘RGANISH” KONSEPSIYASI BO‘YICHA O‘QUVCHILAR MEDIA SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Annotatsiya: maqolada PISA xalqaro baholash dasturining “raqamli dunyoda o‘rganish” konsepsiyasi bo‘yicha o‘quvchilar media savodxonligini rivojlantirish va bu konsepsiyaning samaradorligini ta’minlash, o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlanganligini monitoring qilish va baholashni o‘rganish samaradorligini raqamli nazorat qilish tahlili bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli dunyoda, media savodxon, konsepsiya, raqamli kompetensiya, raqamli nazorat qilish, qayta aloqa qilish (feedback), muzokara, muloqot, o‘zini-o‘zi baholash.*

Аннотация: в статье описан анализ цифрового контроля развития медиаграмотности студентов и эффективности данной концепции, мониторинг развития цифровых компетенций у студентов, а также анализ эффективности обучения для оценки концепции «обучение». в цифровом мире» международной программы оценивания PISA.

Ключевые слова: *в цифровом мире, медиаграмотность, концепция, цифровая компетентность, цифровой контроль, обратная связь, переговоры, коммуникация, самооценка.*

Annotation: the article describes the analysis of the digital control of the development of students' media literacy and the effectiveness of this concept, the monitoring of the development of digital competencies in students, and the analysis of the effectiveness of learning to evaluate the concept of "learning in the digital world" of the PISA international assessment program. .

Key words: *in the digital world, media literacy, concept, digital competence, digital control, feedback, negotiation, communication, self-assessment.*

So‘nggi paytlarda ko‘plab manbalarda o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga jiddiy e’tibor qaratilishi va buning o‘z navbatida bilimli mutaxassislarni shakllantirishda alohida mustahkam o‘rni borligi alohida qayd etilmoqda. Shuningdek, zamonaviy manbalarda o‘qituvchining virtual va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kasbiy mahorat darajasini aniqlashda “raqamli kompetensiyalar” [1] atamasi qo‘llanilishi va uning bilim manbalarini o‘zlashtirishga ijobiy ta’sirlari tadqiqot usullari yordamida isbotlab berilmoqda. Bundan tashqari yangi avlod standartlarining ham kompetensiyaning shakllanishida – ma’lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni qo‘llash qobiliyatini belgilab berishi ham keltirib o‘tilmoqda.

PISA xalqaro baholash dasturining “raqamli dunyoda o‘rganish” konsepsiyasi bo‘yicha o‘quvchilar media savodxonligini rivojlantirishda tarixiylik, tanqidiylik, tizimli, raqamli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu konsepsiyaning samaradorligini ta’minlashda nafaqat o‘quvchilar balki bo‘lajak fan o‘qituvchilarining ham raqamli kompetensiyalari rivojlangan bo‘lishligi talab etiladi.

Zamonaviy o‘quv kurslari tahlil qilish, modellashtirish, maqbul qarorlar qabul qilish, bilimlarni egallash qobiliyatini o‘rgatish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlashi kerak. Shu munosabat bilan axborotni tashkil etishning turli kompyuter modellari (nazorat qilinadigan (supervised Learning) [2], nazorat qilinmaydigan (unsupervised Learning), yarim nazorat qilinadigan (semi-supervised Learning), kuchaytirilgan (Reinforcement Learning), transfer (Transfer Learning) hamda neyronal tarmoqlar) [1] dan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Rivojlantiruvchi, faoliyatga asoslangan va muammoli ta’lim texnologiyalarida aynan shu yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Bunday modellarni amalga oshirish murakkab tuzilishga ega bo‘lgan elektron taqdimot shaklida amalga oshirilishi mumkin. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlanganligini monitoring qilish va baholash o‘rganish samaradorligini raqamli nazorat qilish, qayta aloqa qilish (feedback), muzokara, muloqot, o‘zini-o‘zi baholash, o‘quvchilarning o‘quv potensialiga yo‘nalgan differensial, variativ o‘quv muhitiga tizimli va davriy takroriy munosabatda ergonomik qo‘llash imkonini beradi. Bu jarayonda fan o‘qituvchilari va o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish birdek muhim masala hisoblanadi.

Tadqiqot ishi doirasida PISA xalqaro baholash dasturining “raqamli dunyoda o‘rganish” konsepsiyasi [3] bo‘yicha o‘quvchilarning media savodxonligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Ushbu modelning asosiy mazmun-mohiyati maqsadli, metodik jarayonlar natijaviylik komponentlaridan iborat bo‘lib, ijtimoiy buyurtmachi sifatida PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha o‘quvchilarning media savodxonligini rivojlantirish olingan.


PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha o‘quvchilarda media savodxonlikni rivojlantirish modelining maqsadli komponentida PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish modeli PISA xalqaro baholash dasturi “Raqamli dunyoda o‘rganish“ [4] konsepsiyasiga muvofiq o‘zini-o‘zi boshqaradigan ta’lim bosqichlari (metakognitiv, kognitiv, bexavoristik, motivatsional, affektiv) hamda kompyuter yordamida ilmiy o‘rganish, raqamli ta’lim muhitida o‘rganishning samaradorlik preferensiyalariga ustuvorlik berish hamda o‘quv davrlari kesimida barqarorlashtirish asosida takomillashtirish vazifalari belgilab olingan. Shuningdek, o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlanganligini monitoring qilish va baholash o‘rganish samaradorligini raqamli nazorat qilish, qayta aloqa qilish (feedback), muzokara, muloqot, o‘zini-o‘zi baholash, o‘quvchilarning o‘quv potensialiga yo‘nalgan differensial, variativ o‘quv muhitiga tizimli va davriy takroriy munosabatda ergonomik qo‘llash asosida takomillashtirilgan.


Metodik jarayonlar komponentida PISA xalqaro baholash dasturi ustuvor tamoyillari kreativ fikrlash, mustaqil ta’lim olish, individuallik, hamkorlik, ma’lumotlarni saralash va baholashda raqamli kompetensiyani rivojlantirish omillari ya’ni texnologik, virtual, real olam, shuningdek, muammoni sharhlash va baholash, natijani ifodalash va qo‘llash ta’lim funksiyalari sifatida talqin etilgan.

Metodikjarayonlaro‘quv-uslubiy,faoliyatli-texnologik va tashkiliy-metodik jarayonlarni o‘z ichiga olib, PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha o‘quvchilarda media savodxonlikni rivojlantirishning metodik xususiyatlari, “Raqamli dunyoda o‘rganish” konsepsiyasi bo‘yicha o‘quvchilarning media savodxonligini rivojlantirish mexanizmlari, o‘quvchilarning media savodxonligini rivojlantirishda PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha raqamli topshiriqlar ifodalangan.

Natijaviy komponentda affektiv qobiliyat ya’ni o‘z ustida ishlay olish va yangi texnologiyalarga moslashish, metokognitiv qobiliyat ya’ni nazariy asosini bilish, samarali amaliy bilimga ega bo‘lishlik, operatsion qobiliyat ya’ni texnologiyalarni transformatsiyalash va ulardan foydalana olish kabi raqamli va media savodxonlikni baholovchi mezonlar ishlab chiqilgan. Raqamli va media savodxonlikka ega bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda media savodxonlik yuqori, o‘rta va past darajalarda izohlangan. 2025-yilda PISA xalqaro baholash dasturida chet tillarini o‘rganish ixtiyoriy komponent sifatida baholanadi.

PISA baholash dasturining kreativ firklash domeni o‘quvchilarning g‘oyalarni yaratish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyatini o‘lchaydi. PISA xalqaro baholash dasturining “raqamli dunyoda o‘rganish” konsepsiyasi bo‘yicha o‘quvchilarning media savodxonligini rivojlantirish modeli orqali o‘quvchilar turli xil o‘ziga mos bo‘lgan orginal g‘oyalarni yaratish, turli kontekstlar yoki “domenlar” bo‘yicha g‘oyalarni baholash va takomillashtirish imkoniyatlarini o‘rganadi. Baholash to‘rtta sohani o‘z ichiga oladi: yozma ifoda, vizual ifoda, ijtimoiy muammolarni hal qilish va ilmiy muammolarni hal qilish. Sinfdan tashqari, ijodiy fikrlash doimiy va tez o‘zgaruvchan raqamli dunyoga moslashishga yordam beradi. PISA xalqaro baholash dasturining “raqamli dunyoda o‘rganish” konsepsiyasi o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlarini qo‘llab-quvvatlash asosida ularga o‘zlari yashayotgan jamiyatning bugungi va kelajakdagi zamonaviy ishchilari sifatida rivojlanishiga yordam beradi.





1-rasm. PISA xalqaro baholash dasturining "raqamli dunyoda o'rganish" konsepsiyasi bo'yicha o'quvchilarning media savodxonligini rivojlantirish modeli.

PISA xalqaro baholash dasturining "raqamli dunyoda o'rganish" konsepsiyasi bo'yicha o'quvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari, mexanizmlari tahlil qilindi. Ushbu mexanizmlar sifatli ta'lim siyosati yo'nalishlarini belgilab beradi va sifatli ta'limdan kutilayotgan natijalar milliy ta'lim tizimidagi integratsion yondashuvlar asosida raqamli ta'lim texnologiyalari, innovatsion baholash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi, PISA xalqaro baholash dasturida muvaffaqiyatli ishtirok etish orqali maktablarning jamiyatdagi rolini oshirishni ta'minlaydi. Ta'lim sifati monitoringini tashkil etish va o'tkazishda xalqaro PISA baholash dasturidan foydalanish. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bates, A. W., & Sangrà, A. (2011). Managing Technology in Higher Education: Strategies for Transforming Teaching and Learning. Jossey-Bass.
2. Aliyeva N.M., Rasuleva M.R., Xalilova Sh.S., Yulgasheva Sh.U.. Blender-learning ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv. "Science and Education" Scientific Journal. February 2021 / Volume 2 Issue 2. 305 b.
3. Tapscott, D. (2009). Grown Up Digital: How the Net Generation is Changing Your World. McGraw-Hill.
4. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3-10.

To‘lqin MARDIYEV,
SamISI filol.(PhD), dotsent. Kafedra mudiri
tulkinmardiyev@.email.uz
Faxriddin KULIBAYEV,
SamISI 1-kurs magistranti



INGLIZ TILIDA VATAN KONSEPTINING ETIMOLOGIK VA SEMANTIK JIHATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilida Vatan-Homeland konseptining tarixiy-etimologik va semantik jihatlari manbalarda berilgan izohlarga tayanib uning mazmuni kengroq ochib berilgan. Jumladan, ingliz tildagi Homeland leksemasi aslida qadimgi grek va nemis tillaridan o‘zlashganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Qolaversa, ushbu leksema boshqa tillar kabi o‘zining keng va boy sinonimlari bilan va ularning inson tug‘ilib o‘sgan maskanini qanchalik teran ifodalashi bilan ham ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: *muqaddas, hurmat, sevish, madaniyat, turmush va urf-odatlar, munosabat, yagona, vatanparvarlik.*

Аннотация: в данной статье более широко раскрываются историко-этимологические и семантические аспекты понятия Ватан-Родина в английском языке, опираясь на аннотации, приведенные в источниках. Например, мы можем стать свидетелями того, что английская лексема Homeland фактически заимствована из древнегреческого и немецкого языков. Кроме того, эту лексему, как и другие языки, отличает широта и богатство синонимов и то, насколько глубоко они выражают место, где человек родился и вырос.

Ключевые слова: *святое, уважение, любовь, культура, быт и традиции, мироощущение, единство, патриотизм.*

Annotation: this article more broadly reveals the historical, etymological and semantic aspects of the concept of Motherland in English, based on the annotations given in the sources. For example, we can witness that the English lexeme Homeland is actually borrowed from ancient Greek and German. In addition, this lexeme, like other languages, is distinguished by the breadth and richness of synonyms and how deeply they express the place where a person was born and raised.

Key words: *sacred, respect, love, culture, life and traditions, attitude, unity, patriotism.*

Kirish. Ma’lumki, Vatan bu - kishilarning tug‘ilib o‘sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg‘usi, mas’uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo‘ladi. Bu so‘z hamma xalqlar uchun juda aziz. Kurrai zaminimiz unda yashayotgan 7,5 milliardga yaqin aholi uchun Vatandir. Har bir xalq uchun esa taqdiran va tarixan ato etilgan hamda chegaralangan hudud ona Vatandir. “Vatan” atamasi arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt ma’nosini bildiradi. Alisher Navoiy Vatan tushunchasini ona yurt, tug‘ilib o‘sgan joy, maskan, manzil ma’nolarida ishlatadi. O‘z davrining buyuk namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq" nomli asarida Vatan tushunchasiga quyidagi ta’riflarni berib o‘tgan: “Har bir kishining tug‘ulub o‘skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik, issig‘ cho‘llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz “Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l”, – demishlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hammamizga ma’lumki, “Konsept” atamasi tilshunoslikda eski va shu bilan birga yangi tushuncha bo‘lib, u S.A.Askoldovning 1928-yilda yozilgan “Концепт и слово” nomli maqolasida ko‘proq so‘zga bog‘langan. XX asrning o‘rtalariga kelib esa “konsept” tilshunoslikda atama sifatida qo‘llanila boshladi. Hozirgi kunda tilshunoslikda “konsept” atamasiga ikki yo‘nalish: kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik jihatdan yondashiladi[2,76].

Jumladan, A.P.Babushkin, N.N.Boldiyov, E.S.Kubryakova, I.A.Sterninva boshqalar kognitiv tilshunoslik bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarda “konsept”–bu ong birligi bo‘lib, qabul qilingan bilim, erishilgan tajriba, inson hayoti faoliyatidagi natijalari, muayyan madaniyatga taalluqli tasavvur va bilimlar majmuasi sifatida qaraladi [3,76]. Shuningdek, mashhur olim A.N.Tolstoyning quyidagi fikrlari o‘rinlidir: Vatanga nafi yo‘q Yashalgan har kun, inson hayotida qolur bemazmun. Vatan uchun chala ish qilish, uning uchun hech nima qilmaslik.

Shuningdek, I.S.Turgenevning quyidagi fikrlari

ham o‘rinli: Bizga ota-onalar, bolalar yaqin xesh-aqrabolarimiz qimmatlidirlar, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina “Vatan“ otli so‘zda mujassamlashgandir. Vatanga nafi tekkudek bo‘lsa,¬ axir qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkalanar ekan? Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo‘lida qurbon bo‘lishga hozir ekanliklarida aks etadi. Eng maqbul fazilat ¬Vatanga va odamzotga ko‘rsatilgan xizmatdir. Agar hayot go‘zalligi haqida so‘z boradigan bo‘lsa, Vatan uchun kurashda fidokorlik ko‘rsata bilish go‘zal hayotning eng yuksak namunasidir. Vatandan tashqari baxt yo‘q, har kim jonajon yerda ildiz otsin [1,76].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada asosan, tavsifiy, chog‘ishtima, konseptual tahlil usullaridan hamda til nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasida qo‘llaniladigan ilmiy metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ushbu o‘rinda biz Vatan konseptini ifodalovchi til birliklari haqida fikr bildirishdan avval bu konseptning ingliz tilida Motherland konseptning quyidagi ma’no va sinonimlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Odatda Vatan leksemasi ingliz tilida ham kishining kelib chiqish joyi, ona mamlakati anglatib, tug‘ilagan joy va fuqaroligi bo‘lgan maskanni anglatadi. Ingliz tilida ushbu konseptning sinonimi yoki unga ma’nodosh bo‘lgan bir qator so‘z va so‘z birikmalarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, old country, native land, fatherland, homeland, mother country, place of birth, country of origin, native country, native soil, home country, home town, nation, state, place of origin, God's country, birthplace, home, old world, terra firma, nation, cradle, government, kingdom, root, soil native, soil, aboriginal kabilar.

Shunindek, Vatan - Ona yurt leksemalari ingliz tilida ham boshqa tillardagi kabi turli xil semantik ma’nolarni ifodalab keladi. Jumladan, Vatan inson tug‘ilib o‘sgan joy, sevimli maskan, tengi yo‘q diyor sifatida keng bayon etiladi. Biz quyida ularning semantik jihatlarini ingliz tilida mavjud bo‘lgan yetakchi adabiyotlardan namuna sifatida keltirdik.

- The motherland is associated with objects that bring about familiarity, comfort and a sense of belonging. It is necessary to be aware that the thinking “Motherland” holds a unique location in the worldview of English and Uzbek peoples. Affection and love for the parental domestic to household and friends, to the internal circle is constantly in actuality witness in each countries every discipline mainly in their life style, art, literature. Any man that is acquainted with English and Uzbek cultures is aware of that idea “Motherland” in Uzbek lingua-culture much extra considerable, than in English: there are phrases of motherland and fatherland in English, however they practically are in no way used by means of Englishmen in relation to the very own motherland. Among Uzbek and English human beings the photograph of Motherland is represented with deep love, devotion and respect.

Студенты, получающие степень магистра, изучают процедуру перевод-ориентированного анализа [13, с.31], чтобы понять языковые структуры и их отношения в системе исходного текста и обеспечить прочную основу для каждого переводческого решения. Студенты и преподаватели признают, что процедура перевод ориентированного анализа является видом аналитической деятельности переводчика, которая предшествует созданию переводимого текста, направлена на понимание исходного текста, выявление доминирующего типа перевода, выбор инвариантов. и стратегии перевода. Он включает в себя несколько сложных этапов по выявлению коммуникативно-прагматических особенностей текста, их значимости для адекватного перевода (дейктические параметры текста: отправитель, получатель, цель (коммуникативная интенция сообщения); невербальные средства воздействия на получателя, используемые отправителем (рисунки, фотографии, формулы, графики, жесты и т. д.); выявить структурно-смысловые характеристики текста и их актуальность для адекватного перевода (извлечение «смыслового ядра» текста, состоящего из «основных предложений текста, определяя доминирующую тему-рему структуры); анализ языковых стилистических особенностей текста и их актуальность для адекватного

перевода (функциональный стиль, соответствующие стилевые признаки (лексика, стилистические приемы, типичные для определенного стиля); выбор стратегии перевода (виды перевода: инструментальный или документальный;) и трансформаций.

Такая сложность и многогранность магистерской программы подготовки письменных и устных переводчиков обусловлена современной профессиональной средой, для удовлетворения требований которой будущие специалисты должны получить широкие знания, навыки и умения для выполнения своих обязанностей, переводя письменный или устный материал разных типов из одного или более исходных языков на целевой язык, гарантируя, что переведенная версия максимально четко передает значение оригинала. Своего рода трудности часто является частью работы, и перевод превращается в смесь перевода, локализации и копирайтинга, где материал должен быть культурно и лингвистически адаптирован под целевую аудиторию или читателя.

Заключение

Мы проанализировали основные составляющие общей компетенции письменного и устного переводчика. Мы определили такие существенные компоненты в рамках общей переводческой компетенции, как языковая, дискурсивная, социолингвистическая, социокультурная и инструментальная; описаны их особенности и взаимосвязи. Мы представили содержание бакалаврских и магистерских программ подготовки переводчиков, установили актуальность предлагаемых курсов компонентам общей компетенции переводчика (языковой, дискурсивной и социокультурно-инструментальной).

В результате подготовительного этапа нашего эксперимента (высказывание студентами бакалавриата и магистратуры своего мнения об эффективности изучаемой программы и их актуальности для разделяемых компонентов компетенций переводчика) мы должны признать необходимость модернизации содержания переводчика программы бакалавриата и магистратуры переводчиков в соответствии с профессиональным спросом в регионе. Возможные пути решения рассматриваемых проблем можно увидеть в обновлении программ, введении специальных курсов по выбору, применении методики предметно-языкового интегрированного обучения, позволяющей дать больше практической деятельности, отвечающей потребностям современного спроса и ориентированной на глобальную интеграцию. В ближайшей перспективе мы собираемся рассмотреть каждый из компонентов компетентности переводчика, уточнить их содержание и создать инструменты измерения с учетом факторов воздействия профессиональной среды.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Алексеев Э.С. Профессиональная подготовка переводчика. Наука, Москва, 2001. – 201 с.
2. Белл Р.Т. Перевод и перевод. Логман, Лондон, 1991. – 124 с.
3. Бреус Е.В. Основы теории и практики перевода. Наука, Москва, 2000. – 147 с.
4. Кэмпбелл Стюарт Дж. На пути к модели переводческой компетенции. Журнал переводчиков, 36 (2–3) (1991), 329–343.
5. Хомский Н. Язык и разум. Издательство Кембриджского университета, Кембридж, Нью-Йорк, Мельбурн, Мадрид, Кейптаун, Сингапур, Сан-Паулу, 2006. – 135 с.
6. Шаффнер К. Развитие переводческой компетенции. Издательство John Benjamins Publishing Co, Амстердам, Нидерланды, 2000 г. – 95 с.
7. Хаймс Д. Х. О коммуникативной компетентности. Издательство Пенсильванского университета, Филадельфия, 1971. – 184 с.
8. Келли Д. Справочник для преподавателей-переводчиков. Руководство по рефлексивной практике. Сент-Джером, Манчестер, 2005 г. – 231 с.
9. Комиссаров В.Н. Теоретические основы методики обучения переводу. Издательство Рема, Москва, 1997. – 149 с.
10. Латышев Л.К. О некоторых аспектах переводческой компетенции и ее формирования. В: Региональный открытый социальный институт. Академические заметки. Серия: Языкознание. Межкультурное общение. Перевод, Том. 3. Изд-во Роси, Курск, 1999. – 247 с.
11. Мартинес М.Н. Оценка в переводоведение. Потребности в исследованиях. Журнал переводчиков, 46 (2) (2001), 272–287.
12. Мирам Г. Профессиональный перевод. Ника-Центр, Киев, 2003. – 114 с.
13. Норд С. Текстовый анализ в переводе. Родопи, Амстердам, 1991г. – 154 с.
14. Ороско М. Измерение приобретения переводческой компетенции. Журнал переводчиков, 47 (3) (2002), 375–402.
15. Соссюр Ф. де. Курс общего языкознания. Макгроу-Хилл, Нью-Йорк, 1966 год. – 198 с.



Dilrabo KAZAKBAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
kazakbayevadilrabo9@gmail.com

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MURAKKAB STRUKTURALI JANRLAR VA QASIDA XUSUSIDA

Annotatsiya: maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida murakkab strukturali janrlar, ularning xususiyatlari, tarkibi va o‘ziga xosliklari bayon qilinadi. Shuningdek, murakkab strukturali janr sifatida qasida janrining tabiati, qasidanavis shoirlar va ushbu janrning tarixiy taraqqiyoti asosli misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *mumtoz adabiyot, murakkab strukturali janrlar, tarkib, o‘ziga xoslik, qasida, qasidanavis shoirlar, tarixiy taraqqiyot.*

Annotation: the article describes complex structural genres in Uzbek classical literature, their characteristics, composition, and specific features. Also, the nature of the qasida genre as a complex structured genre, the poets who wrote qasidas, and the historical development of this genre are explained using reasonable examples.

Keywords: *classical literature, complex structural genres, composition, originality, ode, ode poets, historical development.*

Аннотация: в статье рассматриваются особенности, структура, своеобразие сложно-структуральнх жанров в узбекской классической поэзии. Также даётся анализ один из сложно-структуральных жанров касыда, при помощи основных примеров ее художественная природа, авторы касыд и историческое развитие жанра.

Ключевые слова: *классическая литература, сложно-структуральные жанры, структура, своеобразие, касыда, авторы касыд, историческое развитие.*

Har bir poetik janrning o‘z qat’iy strukturasi mavjud bo‘lgani kabi muayyan asarning badiiyatini o‘rganish bilan birga uning janr xususiyatlarini tadqiq etish dunyo adabiyotshunosligida qabul qilingan ilmiy muammolardan biridir. Mumtoz janrlar tarkibiy jihatdan turlicha bo‘lishiga qaramay, ularning tabiati, asosan, o‘sha janrda yaratilgan asarlarning vazn, qofiya va band xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mumtoz she’riy janrlarga xos bu kabi jihatlarni o‘rganish ham bevosita adabiyotshunoslik ilmining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Murakkab strukturali janrlar masalasi dastlab Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asarida ko‘rilgan. Alloma mumtoz she’rning asosiy 10 navini keltirish barobarida struktural jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan she’r shakllarini bir nav sifatida berishidir. Masalan, ruboiy va tuyuq, tarji’ va tarkibband, barcha musammat shakllarini bir navga birlashtirib taqdim etgan. Bular orasida ruboiy va tuyuqqa nisbatan struktural jihatdan murakkab deb qaralmasa-da, tarji’ va tarkibband, ayniqsa, musammat shakllarini bir nav orqali yuzaga kelganini o‘rinli asoslab ko‘rsatgan. “Musammat besh turluk bo‘lur: musammati murabba’, musammati musaddas, musammati muxammas, masammati musamman, musammati muashshar: ammo musammati murabba’ aningtek bo‘lurkim, she’rni to‘rt qism qilurlar. Uch qismning oxirinda saj’ rioyat qilibtur. To‘rtinchi qismda qofiya keltur(ur)lar”. Olim tomonidan ilgari surilgan, deyarli boshqa manbada uchramaydigan mutavval janri esa, murakkab strukturali janrlarning eng murakkabi bo‘lib, ham struktur jihatidan, ham vazn va qofiya xususiyatlaridan murakkab ekanini olim ko‘rsata bilgan: “Mutavval ul bo‘lurkim, hech bahr sekkiz juzvdan ortuq bo‘lmas. Shoir takalluf qilib, bu bahrlarda birisin ixtiyor etib, har misra’ni o‘n juzv qilurlar. Yo yigirma juzv. Haddu hududi yuz juzv bo‘lur. Andin ortiq bo‘lsa, lutfi qolmas va muning salosati andadurkim, musajja’ bo‘lsa”. Uning murakkabligi shundaki, bir misrada o‘n juzv (rukn) kelsa, baytda esa 20 rukn keladi. Biz hozirgacha o‘rgangan barcha mumtoz she’r namunalarida bir baytda sakkiz (musamman)dan ortiq rukn kelmaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Aruz risolasi”da ayni masalaga e’tibor qaratgan: “Burnaroq mazkur bo‘lub erdikim bayt to‘rt rukndin yo, olti rukndin yo, sekkiz rukndin bo‘lur. Agar baytning binosi sekkiz rukndin, ortuq bo‘lsa mutavval derlar. Bu mutavvalning miqdori muayyan emas. Har ne miqdor ortiq bo‘lsa shoir muxtordur. Aqalli o‘n ikki rukn kelibtur. Mutaqorib bahrining maqbuzi aslam vaznini o‘n olti rukn bila aytibturlar nechukkim Xoja Ismat Buxoriy Ulug‘bek Mirzoning otig‘a bu vaznda bir purkor qasida tugatibtur...” Demak, murakkab strukturali janrlar qatoriga qasidani ham kiritish

mumkinligini ushbu misol ko‘rsatib turibdi. Bobur yozadi: “Bir rukn asram, bir rukn solim vazni[da] dag‘i o‘n olti rukn bila aytibturlar:

Ey yuzi chobuk, vey ko‘zi usruk, vey tili chuchuk, lablari shakkar,

Ey xati sunbul, vey so‘zi chun mul, vey yuzi gul-gul, qomati ar’ar.

Fa’lu fa’uvlun fa’lu fa’uvlun fa’lu fa’uvlun fa’lu fa’uvlun”.

Boshqa bir o‘rinda boshqa bir bayt keltirib, bu “Rajaz bahrida bir rukn matviy, bir rukn maxbun vaznini yigirma rukn bila aytibturlar nechukkim, Tiroziyning bu bayti:

Ko‘rdi ko‘zim saxar chaman ichida bir parivashekim yuzi gul, tani suman, zulfi binafsha, qaddi sarvi saxiy erdi lab shakar.

Lola o‘zidin o‘tanib, da’vosidin suman tonib, erdi binafsha bosh solib, sarvu chinoru qoj ham bo‘ldi qadin ko‘rub digar”.

Misollardan ko‘rinadiki, mutavval shunchaki bir vazn turi emas, u vazn turi bo‘lganda bir vazn nomi bilan kelar edi. U bir necha vaznlarda kelayotgan she’r navi. Bu nav haqida dastlabki ma’lumot Shayx Ahmad Taroziydan keltirilgan bo‘lsa, ikkinchi muhim isbot Bobur tomonidan keltirilgan. Bobur keltirgan misollardan kelib chiqsak, bunday she’r navi fors she’riyati (Ismat Buxoriy)da ham uchraydi.

XX asr boshlarida butun mumtoz she’riyat sintez qilinar ekan, bu holatni biz Fitratning ilmiy asarlarida ko‘ramiz. Fitrat “Adabiyot qoidalari”, “Fors shoiri Umar Xayyom” va “Aruz haqida”gi asarlarida garchi mutavval janrini alohida ko‘rsatmagan bo‘lsa ham, ayrim adabiy janrlar, xususan, masnaviy va musammat turlarining murakkab strukturasiga ishora qilgan.

“Adabiyot qoidalari”da manbalarda murakkab strukturali janrlar sifatida qaralgan mumtoz she’r shakllaridan qasida, masnaviy, musammat, tarji’band, tarkibbandni umuman izohlash bilan cheklangan.

“Fors shoiri Umar Xayyom” risolasida esa masnaviy, qasida xususida kengroq to‘xtalib, ularning janr xususiyatlarini ko‘rsatar ekan, keng epik ko‘lamdagi mazmunni ifodalash uchun masnaviy shakli qulay bo‘lganini yozadi: “... nazmning bu shakli shoirg‘a ozodlik beradi (qofiya jihati nazarda tutilgan – D.Q.). Turli hikoyalar, dostonlar, va’z-nasihatlarga oid uzun asarlar yozish uchun nazmning masnaviy shakli boshqa shakllarga qarag‘anda qulayroqdir” .

Qasida xususida esa, “bir qofiya bilan aytilgan uzun manzumalardan iboratdir... qasida arab she’rining eski bir shaklidir... forsiy shoirlar bu shaklni arablardan oldilar” kabi umumiy ma’lumot berish bilan cheklangan.

Bu ikki qisqa ta’riflar ham shuni anglatadiki, Fitrat masnaviyning mazmun ko‘lamiga e’tibor qaratgan, qasidaning esa qofiya jihatini ustuvor bilgan. Ayni fikr esa bizga masnaviyni mazmun ko‘lamiga ko‘ra murakkab strukturali, qasidani esa qofiya jihatiga ko‘ra murakkab strukturali deb aytishga asos beradi.

Bu fikrni fors olimlari tomonidan bitilgan “Iranika” to‘plami ham asoslaydi.

Murakkab strukturali janrlar masalasini o‘zbek adabiyotshunosligida ko‘targan olimlardan biri prof. R.Orzibekovdir. Olimning tadqiqotlarida g‘azaldan tortib barcha faol janrlarga qisqa izohlar berilgan va o‘zbek she’riyatida qo‘llanilgan janrlar misralar miqdoriga ko‘ra tasnif etilgan. Olimning tasnifiga ko‘ra, toq misrali (musammati mastahzod, sadpora, bahri tavil), juft misrali (masnaviy, g‘azal, qasida, qit’a, fard, mustahzod), to‘rt misrali (ruboiy, tuyuq, murabba’), besh misradan o‘n misragacha musammat va uning xususiy navlari, so‘ngra esa murakkab strukturali qorishiq xarakterga ega bo‘lgan tarji’band va tarkibband tasnif qilingan. Ko‘rinadiki, bu yerda misralar soni nazarda tutilgan, murakkab strukturali deganda olim misralarga nisbatan janriy “qorishiq” xususiyatini asos qilib olgan. So‘ngra “sovet poeziyasida”gi ushbu janrlarning qo‘llanilishiga keng to‘xtalgan. Risolada janrlarning nazariy asoslari keltirilmagan, faqat soqiynoma, tarji’band va tarkibbandlarni o‘rganib, ularning misollarini keltiradi.

Qasida (arab. قَصِيدَةٌ – maqsadga qaratilgan) – arab she’riyatining qadimgi janrlaridan biri bo‘lsa-da, turk-o‘zbek she’riyatida va fors she’riyatida qat’iy o‘rin egallagan. Manbalarda qasida islomiyatdan avval johiliya davrida vujudga kelib, folyelor va mualliflik adabiyoti o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tagani aytiladi. Qadimgi arab qasidalarida badaviy arabning hayot tarzi aks etgan, uning hajmi 200 baytgacha davom etadi. Humaiyning yozishicha, qasida 20 baytdan 170 baytgacha bo‘lishi ham mumkin. Qasida aa ba ca da… tarzida qofiyalanishi aytiladi (bu hol g‘azalda ham kuzatiladi).

Qasida murakkab kompozitsiyali bo‘lgani uchun uning tarkibi – nasib (lirik kirish), vasf (bayon), raxil (safar, sayohat), qasd (madh) va faxr (o‘zini maqtash)dan iborat ekanligining o‘zi uni murakkab strukturali janr ekanligini anglatadi. Nasib (ayrim manbalarda tashbib va tag‘azzul), odatda, o‘quvchini bayon mazmuniga tayyorlaydi, unga ruhiy ta’sir etadi. Muallifning dunyoga yoki

o‘z obyektiga munosabati ham mana shu qismda aks etadi. Ayrim qasidalarda bu qism ixcham, bir-ikki bayt bilan ifodalanishi mumkin. Bu muqtazob (qisqartirilgan) deb nomlanadi. Ayrim qasidalarda nasib bilan asosiy qism o‘rtasida qisqa madh yoki taxallus keladi, bu esa kirishdan asar obyektiga o‘tish uchun o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi. Vasf va raxil ayrim qasidalarda uchramasligi mumkin.

Madh qasidaning asosiy qismi bo‘lib, u epik bayon xarakterida yoziladi. Odatda, qasida qahramonining xususiyatlari voqealar bayoni orqali tushuntiriladi.

Nihoyat, qasida shart qismga yetib keladi, bunda ayrim mualliflar faxr qilib, o‘zini maqtashga kirishsa, odatda, muallif duoyi ta’bid (abadiylik so‘rab duo qilish)ga o‘tadi.

Dastlabki qasidalar to‘plami sifatida Mu’allaqat (angl.) e’tirof etilgan. Shuningdek, ilk qasidanavis Ashi (570—629) ekani tilga olinadi (bu nom “Devonu lug‘atit turk”da ham uchraydi). Fors tilidagi ilk qasida shoir Abbas Marvoziy (809) ga tegishlidir. Demak, qasidaga murakkab strukturali janr sifatida yondoshganda uning qofiya tizimidagi izchil ketma ketlik va kompozitsion murakkab ekanligi nazarga olingan.

Qasida mazmuniy asosiga ko‘ra biror shaxs (ko‘pincha, hukmdor yoki taniqli shaxs) yoki voqea bayoniga bag‘ishlanadi. Lekin u mavzu jihatidan alqash, va’z, hikmat, taxniyat (tabrik), ta’ziyat (hamdardlik) yoki risa (mahzunlik), shikoyat, vasf, fathnoma (zafarnoma), hibsiyya (asirlik) va xamriyya (ichkilik) motivlarini o‘zida aks ettirishi mumkin. Fors she’riyatida Sa’diyga qadar madh asosiy o‘rin olgan bo‘lsa, Sa’diydan boshlab bu o‘rinda nasihat kelishi urf bo‘lgan. San’atkorlik nuqtayi nazaridan tajdidi matla’ (ilk baytning takrori) kelishi ham mumkin. Tabiat vasfiga bag‘ishlangan qasidalar anchagina bo‘lib, bu jihatdan Navoiyning “Fusuli arbaa” asari mukammal namunasi sanaladi. Ayrimlarida esa to‘rt fasl emas, birgina fasl – bahor (bahoriyya) yoki kuz (xazoniyya) qalamga olinadi.

Islom olamidagi qasidalar ichida eng mashhuri “Qasidayi burda” nomi bilan mashhur bo‘lgan Imam Busiriyning «Al-Kavakib ad-durriya fi madx xayr al-bariya» ham Payg‘ambar (s.a.v.) hayotining muhim voqealariga bag‘ishlangani bilan xarakterlidir. Eron adabiyotida Hazrat Alining shahidiga bag‘ishlangan risalar (elegiya) mavjud.

Qasida vazn jihatidan, asosan, hazaj, ramal va rajaz vaznlarida yozilishini e’tiborga olganda bu vazn keyinchalik g‘azal vazni sifatida mashhur bo‘lganini e’tirof etgan holda ayni shu jihat g‘azal uchun asos, dastlabki janr qasida bo‘lganini unutmaslik lozim. Demak, g‘azallarning biror shaxs (oshiqona yoki orifona g‘azal) yoki voqeaga (yakpora g‘azal) bag‘ishlangani tufayli ham u asosini qasidadan olganiga ishonish mumkin. Yuqorida ko‘rilgani kabi nafaqat vazn, balki qofiya tizimida ham g‘azal va qasidalar uchun umumiylik borligi kuzatiladi. Band nuqtayi nazaridan ham baytga asoslanilgani g‘azal va qasidaning umumiy jihatlarigina bo‘lib qolmay, balki ularning nisbatan qadimiyligini ham bildiradi.

Qasidaning strukturasi har jihatdan (mazmun, shakl, mavzu, motiv, san’atkorlik) murakkab bo‘lgani va arab she’riy janrlari ichida qadimgisi bo‘lishi bilan keyingi davr turk (o‘zbek) qasidalariga ham o‘ziga xos yo‘l ochgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog‘a. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2017.
2. Bobur Zahiriddin Muhammad. Muxtasar. – T.: Fan, 1971.
3. Fitrat A. Adabiyot qoidalari / Tanlangan asarlar. 4-jild. – T.: Ma’naviyat, 2006.
4. Fitrat A. Fors shoiri Umar Xayyom. Tanlangan asarlar. 4-jild. – T.: Ma’naviyat, 2006.
5. Reysner M.L. Persidskaya literatura IX–XVIII vekov. Tom 1. Persidskaya literatura domongolskogo vremeni (IX – nachalo XIII v.). Period formirovaniya kanona: rannyaya klassika, 2019.

Marjona TOSHPULATOVA,
TOSHDO‘TAU mustaqil izlanuvchisi



NAVOIY IJODINI O‘RGATISHGA DOIR TADQIQOTLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiyni maktabda o‘rganish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan. Tadqiqotchilarning nazariy qarashlari, pedagogik va metodik tavsiyalari tahlil qilinib, shoir ijodini umumta’limda bosqichlarida o‘qitishning nazariy asosi bo‘lib xizmat qilishi to‘g‘risida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Xamsa”, tahlil, tadqiqot, tajriba, tushunish, metodist, innovatsion texnologiya.*

Аннотация: в данной статье отражено исследование, проведенное в по изучению Алишера Наваи в школе. Проанализированы теоретические воззрения исследователей, педагогические и методические рекомендации и высказано мнение, что они служат теоретической основой обучения творчеству поэта на этапах общего образования.

Ключевые слова: *Алишер Наваи, «Хамса», анализ, исследовние, понимание, методист, инновационная технология.*

Annotation: this article reflects on the research carried out on the study of Alisher Navoi at school. The researchers' theoretical views, pedagogical and methodical recommendations were analyzed, and an opinion was expressed that it serves as a theoretical basis for the teaching of the poet's work at the stages of general education.

Key words: *Alisher Navoi, "Khamsa", analysis, research, experience, understanding, methodist, innovative technology.*

Navoiy ijodini o‘rganish, tadqiq qilish qariyb besh asrdan buyon davom etmoqda. Mutafakkirning hayotiy faoliyati, adabiy merosi yuzasidan ko‘pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad shoirning ma’naviy-axloqiy qarashlarini jamiyatga targ‘ib qilish, istiqbolli davlat qurish hamda komil insonni tarbiyalashdir. Navoiy ijodining amaliy faoliyatining eng asosiy markaziy masalasi, yo‘nalish nuqtasi har narsadan oldin inson taqdiri, baxt-u saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalasidir . Shunday ekan shoirning lirik merosi, asarlari, “Xamsa” dostonini maktab ta’limida o‘rganilayotganligi davr talabidir. Mutafakkir ijodini xalq ta’limida o‘rganish yuzasidan bir qancha ilmiy maqolalar, tadqiqotlar yozilgan. Bu borada amalga oshirilgan ilk tadqiqotlar haqida biroz fikrlashamiz.

Alisher Navoiy ijodi maktab dasturida 1937-1938-o‘quv yilidan boshlab o‘rganila boshlangan. Olim Sharafiddinovning 9-sinflar uchun “O‘zbek adabiyoti” darsligida Navoiy ijodiga keng o‘rin ajratilgan. Uning “Alisher Navoiyning hayoti va ijodi” monografiyasi o‘z davrida shoir ijodini o‘rganish uchun asosiy qo‘llanma vositasini o‘tadi. 1941-yildan e’tiboran mutafakkirning ijodini to‘liqsiz o‘rta, o‘rta va oliy maktablarda o‘rganish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘tgan asrda shoir ijodini o‘rganish metodikasiga oid ishlarni kuzatganimizda, asosan, V-IX sinflar kesimida shoirning asarlarini ta’lim bosqichlarida o‘rgatish muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu boradagi ilk qadam Xasanxo‘ja Imomxonning “Alisher Navoiy ta’lim-tarbiya haqida” mavzusidagi nomzodlik ishi hisoblanadi. Dissertatsiyasida shoirning “Xamsa” dostonidan olingan hikoyatlarni V-VII sinflarga o‘rgatish jarayonida ifodali o‘qish, obrazli hikoya qilish usullaridan foydalanishni, shuning bilan birga, mavzuni tushuntirish jarayonida Alisher Navoiyning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlaridan keltirib o‘tish va mazmunini izohlash shart ekanligini qayd etadi. “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishda asarning g‘oyaviy mazmuni, unda muhabbat, do‘stlik, vafo, insonparvarlik masalalari aks ettirilishi, obrazlar sistemasi, dostonda ijodkor xalq ommasining orzu-istaklari, xotin-qizlar ijtimoiy faoliyatining ko‘rsatilishi dostonning janriy kompozitsiyalari, tasviriy vositalari, shoirning badiiy mahorati haqida ham o‘quvchilarga yetarlicha tushuncha berish orqali tahlil qilishni nazarda tutgan. Navoiyning ijodini yolg‘iz sinf doirasida o‘rganib bo‘lmasligini inobatga olgan holda, adabiyot to‘garaklarida Navoiy haqida doklad tayyorlash; shoir ijodiga bag‘ishlangan kechalar tashkil etish; radio va televizion eshittirishlarni tinglash; Navoiyga bag‘ishlangan va uning asarlari bilan ishlangan pastonovkalar operalar (“Dilorom va Bahrom”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”) va kinofilmlarni ko‘rish katta ahamiyatga ega . Aslida shu kabi tavsiyalar ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda qo‘l keladi. O‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Natijada qisqa vaqt ichida katta axborot o‘zlashtiriladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, odamlar eshitgan

narsalarining 20 foizini, ko‘rganlarining 30 foizini va bir vaqtning o‘zida ko‘rgan va eshitgan ma’lumotlarining 50 foizdan ko‘pini eslab qolishar ekan. Bugungi ta’limda internet, televideniye, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari yaxshi samara bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchilarning diqqatini jamlashga, qiziqtirishga, mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik qobiliyatini yanada rivojlantirishga hamda sinfda vizualizatsiya tamoyilini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Olimning pedagogik qarashlari hozirgi kungacha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Zero, o‘qituvchining dars jarayonida darslikda berilgan parchani ifodali intonatsiya bilan o‘qib berishi badiiy matn jozibasini o‘quvchilarga yetkazib berishda juda muhim sanaladi. O‘quvchini adabiyot darslariga qiziqtirish dastlab ifodali o‘qish orqali amalga oshiriladi.

Metodist A. Mannopovning 1962-yili “Sovet maktabi” jurnalida e’lon qilingan “VII sinfda Navoiyning “Xamsa”siga obzor, “Farhod va Shirin” dostonini o‘tish“ mavzusidagi maqolasida “Xamsa”ning ikkinchi dostoni “Farhod va Shirin”ni o‘qitish yuzasidan o‘z tavsiyalarini beradi. O‘quvchilarga xamsachilik an’anasi haqida ma’lumot berish davomida “taqqoslash”, “solishtirish” usulidan foydalanish uchun namuna keltiradi. Bu usul orqali Nizomiy hamda Navoiyning dostonlari faqat mazmun jihatdangina farq qilmay, nomlanish jihatdan ham farq qilishini ko‘rsatishdir. Materialni mumkin qadar sodda til bilan shoshmasdan, umumiy holatlarni, tarixiy faktlarni ham konkret dalillar bilan tushuntirish kerak, shu bilan birga, o‘qituvchi ko‘rgazmalilikka katta ahamiyat bermog‘i lozim . Ko‘rgazmalilik dars samaradorligini oshiradi. Ko‘rgazmali jihozlar, aniq vositalar, model, maket, plakat kabilar dars davomida bir-birini to‘ldirishi kerak. Ko‘rib eshitish oraqali qabul qilish, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning puxta bilim olishiga yordam beradi.

Olima Gulsum Rahimova “Alisher Navoiy hayoti va ijodini sakkiz yillik o‘zbek maktablarida o‘rganish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida V – VIII sinflarda shoirning hayoti va ijodi, dasturda kiritilgan epik asarlaridan parchalarni maktabda o‘rgatish muammolarini tahlil qiladi. Tadqiqotchi ilmiy ishida “Xamsa” asari tarkibidagi ayrim hikoyatlarni o‘rgatish yuzasidan tadqiqot olib borgan va o‘z davridagi pedagogik masalalarga to‘xtalib o‘tgan. Olimaning fikricha, dostondan olingan parchalarning tili va badiiy xususiyati yuzasidan maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish asar g‘oyasi va obrazlar xarakterini mukammal tushunishga yordam beradi. “O‘xshatish, sifatlash va mubolag‘alarning voqeani aniq tasavvur etish, obrazlar xarakterini ochish, ularni yaqqol gavdalantirish uchun xizmat qilishini o‘quvchilarga anglatish lozim. Masalan, Alisher Navoiy uch yashar Farhodning tili biyronligini ko‘rsatish uchun “toza injuday so‘zlar ayta boshladi”, “Farhod kunda nurday bo‘lib ko‘rindi”; Farhodning xarakterini gavdalantirish uchun “qumni sel yuvganday tog‘ qazib ketish”, uning teshasi har tushganda ko‘k filning yukiday… toshni qo‘porar edi, “U osmon kamalagiday yoyni zo‘r bilan tortib, sharqda turib g‘arbni ura oladigan bo‘ldi”, “agar Albruz tog‘iga bir gurzi ursa, gard-gard bo‘lib osmonga chiqib ketar edi”, “Uning tepasidan sachragan ushoq toshlardan bir chaqirim narida tomosha qilgan odam ham boshini olib qochar edi” kabi o‘xshatish va mubolag‘alarni ishlatgan. Ayni zamonda, asardagi sifatlashlarni ham obraz yoki voqea, predmetlar bilan bog‘lab tushuntirish kerak .

Gulsum Rahimovaning ta’kidlashicha, ”Hayrat ul-abror” dostonidan berilgan parchani ifodali o‘qish uchun aruzning sariy vaznini o‘quvchiga o‘rgatish kerak. Vaznni bilmasdan dostonni ifodali o‘qib bo‘lmaydi. Dissertatsiyada Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni beshinchi iqlimdan kelgan musofir hikoyatini o‘qitishdagi e’tiborli masalalarga ham to‘xtalgan. “Mehr va Suhayl” hikoyatini tushunishlari uchun matndagi so‘z va iboralarning ba’zi lug‘aviy ma’nosi va grammatik shakllarini tushuntirish o‘rinli. Eski o‘zbek tilida so‘zlarning qaratqich va tushum kelishigida qanday qo‘llanganligi, kishilik va ko‘rsatish olmoshlari o‘rnida qaysi so‘zlar, bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklamalarning qanday shakllarda qo‘llanganligi tushuntiriladi. Liro-epik asar haqida nazariy ma’lumot berib o‘tish joiz. O‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiborini asarda ishtirok etgan shaxslarning nutqiga ham qaratishi lozim. Ijobiy va salbiy obrazlarning xulq-atvori, xarakter belgilarini ularning nutqidan ham bilish mumkin.

O‘tgan asrda Navoiy ijodini tadqiq qilish nafaqat olimlar, balki metodistlar, maktab o‘qituvchilari tomonidan ham amalga oshirilgan. Pedagogik sho‘balarda shoirning ijodini maktabda o‘qitish yuzasidan o‘qituvchilarning tajribalari o‘rganilgan va shu asnoda takliflar kiritilgan.

O‘qituvchi – metodist Ernazar Ergashev shunday xotirlaydi: *1918-yili Toshkent Eski shahar maorif sho‘basi qoshida “Makotib” (metod birlashma) uyushmasi tashkil etildi va unga Zufar Nosiriy, Shokirjon Rahimiy, Abdulla Avloniy, Shorasul Zunnun, Qayyum Ramazon, To‘xtanozir Shermuhamedov va boshqa tajribali o‘qituvchi metodistlar ona tili va adabiyotni o‘qitish metodlari yuzasidan ko‘rsatma berib turishdi. Shuningdek, bu sho‘bada haftalik o‘quv planni tuzib maktabda shu plan asosida dars o‘tildi. Biz maktabda faqat sinf mashg‘uloti bilan shug‘ullanib qolmay, sinfdan tashqari ishlarni ham olib borardik. O‘sha yillarda maktabda ham, mahallalarda ham drama to‘garagi truppalari avj olgan edi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin“pyesasini Eski jo‘vadagi birinchi bosmaxona binosida Yunus Rajabiy boshchiligida sahnada qo‘ydik. Mahallada tashkil etilgan truppada maktab o‘quvchilari aktiv ishtirok etardilar .*

O‘zbek va fors mumtoz adabiyotini mukammal bilgan o‘z davrining fidoiy ustozlari Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishga, asl ma’nosini tushunishga yordam berganlar.

Ular xalq orasida navoiyxonlar va Navoiy muxlislariga boshchilik qilib, shoirning asarlarini xalq orasida tovush chiqarib o‘qishni uyushtirganlar. Barchamizga ma’lumki, Navoiyni chuqur anglash shoir yashagan davrdan to shu kunga qadar izchillikda davom etib kelmoqda. Mutafakkirni tushunish, tushuntirish yosh avlodni manan yuksaklikka hamda ezgulikka yetaklashning asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imomxon X. Alisher Navoiy ta’lim tarbiya haqida. Ped.fan.nom…diss. –T.:1962. 206-b.
2. Rahimova G. Alisher Navoiy hayoti va ijodini sakkiz yillik o ‘zbek maktablarida o‘rganish.Ped.fan.nom.diss. – T.: 1966. 30-b.
3. Mannopov A. VII sinfda Navoiyning “Xamsa”siga obzor, “Farhod va Shirin” dostonini o‘tish. “Sovet maktabi” jurnali. –T. :1962.1-son. 29-b.
4. Zohidov B. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. –T.: 1970.152-b.
5. Zunnunov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1973.73-b.

Sharifa USMONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
“University of economics and pedagogy” assistenti,
E-mall:gulamovn1973@gmail.com



ISTIQLOL DAVRI ADABIYOTIDA TARIXIY SHAXS OBRAZINING YARATILISHI
(Muhammad Alining “Mangu quyosh” asari asosida)

Annotatsiya: mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida yaratilgan nasriy asarlar yangicha tendensiyalar bilan boyib bormoqda. Ayniqsa, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy siymosini badiiy talqin etish yangi bosqichga ko‘tarildi deb aytish mumkin. Chunki bu davrda milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash bosh masalaga aylandi. Alisher Navoiy turkiy xalqlar adabiyotida ma’naviy-axloqiy kamolotning timsoli sifatida haqli e’tirof etildi. Uning ibratli hayoti, shaxsiyati namuna o‘laroq tasvirlandi. Ushbu maqolada mustaqillik davri adabiyotida Alisher Navoiy obrazini yaratish, undagi tarixiy haqiqatning qanday yoritilganligi masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *tarixiy roman, Alisher Navoiy siymosi, tarixiy obraz, tarixiy haqiqat, navoiyshunoslik, asosiy g‘oya.*

Annotation: after the independence of Uzbekistn, as well as the changes and renewal in all spheres of life, our writers began to create new trends in the writing of artistic work in Uzbek literature.This period saw the realization identity and the restoration of national values as a main issue.Alisher Navoi was rightfully recognized as a symbol of spiritual and moral maturity in the literature of Turkic peoples.His exemplary life and personality were depicted as an example.This article also analyzes the creation of the Alisher Navoi in the literature of the period of independence and how historical truth is represented in it

Key words: *historical novel, historical image, historical truth, narrative studies, main idea.*

Аннотация: после обретения нашей страной независимости, а также перемен и обновления во всех сферах жизнедеятельности, наши писатели стали создавать новые направления в написании художественных произведений в узбекской литературе. Потому что в этот период главным вопросом стала реализация национальной идентичности и восстановление национальных ценностей. Алишер Навои по праву был признан символом духовно-нравственной зрелости в литературе тюркских народов. Его образцовая жизнь и личность были изображены в качестве примера. В данной статье анализируется создание образа Алишера Навои в литературе периода независимости и то, как в нем освещается историческая правда.

Ключевые слова: *исторический роман, исторический образ, историческая правда, нарративные исследования, основная идея.*

Istiqlol davri voqealarini to‘g‘ri anglash va to‘g‘ri yoritish, tarixiy shaxslarni esa davr siyosati, mafkurasi nuqtayi nazaridan emas, hayotiy haqiqat hamda tarixiy jihatdan haqqoniy inkishof qilish imkonini beradi. Ma’lumki ezgulik, xalq manfaatlari yo‘lida qilingan ishning yuziga har qancha qora chiziq tortilmasin, yo‘q qilish yo‘lida har qancha urinishlar bo‘lmasin, u yo‘qolmaydi. Haqiqat ummoni yuziga po‘kak kabi qalqib chiqadi. Bu fikrning to‘g‘riligiga keyingi paytda yuzaga kelgan tarixiy romanlar yaqqol misol bo‘la oladi. [1.247]

Navoiyning shaxsi va ijodiga qiziqish mustaqillikdan keyin yanada kuchaydi. Buning mahsuli sifatida Alisher Navoiy obrazi tasvirlangan badiiy asarlarni aytish mumkin. Ularda ulug‘ shoir haqidagi tasavvurlar muayyan obrazlarda tajassum topgan. Shu bois bugungi yoshlarimiz Navoiy obrazi tasvirlangan badiiy asarlarni o‘qimay turib, shoir dahosini tasavvur qilishlari, tushunishlari qiyin kechadi. Bu haqiqatni yaxshi anglagan mustaqillik davri ijodkorlari Navoiy obrazini yaratishga va buyuk mutafakkirni yosh avlodga tanishtirishga harakat qilishdi. [2]

Ana shunday asarlar sirasiga Isajon Sultonnnig “Alisher Navoiy” va Muhammad Alining “Mangu quyosh” romanlari kiradi. Bu asarlarda tarixiy obrazlar – Alisher Navoiy obrazini yaratish har ikkala yozuvchi oldiga ulkan mas’uliyat va vazifa yuklagan. Roman yozish – mashaqqat. Tarixiy roman yozish esa ikki hissa mashaqqatdir. Zero bunday asarda romannavis tarixiylik tamoyillarini mahkam tutishi, o‘zining olam va odam haqidagi badiiy konsepsiyasini mavjud tarixiy voqelikka tayangan holda ifodalashi lozim. Albatta, badiiy g‘oya talabi bilan tarixiy roman syujetiga to‘qima obrazlar, to‘qima voqelik ham kiritilishi mumkin. Romanda to‘qima obraz va voqealardan foydalanishning aniq chegarasi, qat’iy o‘lchovi bo‘lmasa-da, bu unsurlarning me’yori tarixiy asar saviyasini belgilovchi asosiy omil hisoblanishini mahoratli muallif yaxshi anglaydi. Shu bois doim tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi oltin ko‘prikni izlaydi. [3.104] Bu yo‘lda yozuvchi “tarixiy manbalarni o‘rganadi, faktlar, voqealar, ularning ishtirokchilari haqidagi ma’lumotlarni yig‘adi.Uning endigi vazifasi – o‘rganganlarini badiiy qayta ishlash:badiiy voqelikda faktlar jonlanishi, voqealar yuz berishi, shaxslar yashashi lozim” [4.55].

Mazkur jarayon tarixiy asarda muallif ijodiy imkoniyatlarini cheklashi tabiiy. Agar roman millatning ulug‘ siymolariga bag‘ishlangan bo‘lsa, yozuvchining ijodiy mas’uliyati bir necha karra ortib, tarixiy asar yozish yanada mashaqqatliroq jarayonga aylanadi. Ustoz Asqad Muxtor aytgan ediki “Odissey arvohlarni o‘zi bilan suhbatlashishga ko‘ndirish uchun ularga o‘z qonidan berib tiriltiradi.Yozuvchi tarixiy shaxslar haqida yozganida shunday qilishi kerak” [5.471].

Ulug‘ mutafakkirning millat oldidagi xizmatlarini ta’riflashga til ojiz, ularni o‘lchaydigan mezonni topish mahol, munosib darajada baholash imkonsizdir. Hazrat Alisher Navoiyning o‘zi “Lison-ut-tayr” dostonida zimmasidagi buyuk missiyani qanday ado etganini faxriya yo‘lida mana bunday izhor etgan edi|:

Turk nazmida chu tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Hazrat Alisher Navoiy turkiy xalqlarni yagona adabiy til, yuksak adabiyot bayrog‘i ostida birlashtirdi. U dunyo tafakkuri tarixida o‘zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma’naviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g‘oyalari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan so‘z san’atkoridir.

Adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiyning to‘laqonli badiiy siymosini yaratishga bo‘lgan urinishlar u qadar ko‘p emas. Oybekning “Navoiy” romani (1944), Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramasi (1945), Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” qissalarida Alisher Navoiy siymosi tarixiy-ijtimoiy voqealar markazida badiiy talqin etiladi. Bu asarlar ichida Navoiy shaxsiyatining nisbatan to‘laqonli, konseptual badiiy qiyofasi Oybekning “Navoiy” romanida ifodalangan desak, mazkur asarning yozilganiga qariyb sakson yil bo‘lganini e’tibordan qochirmasligimiz lozim. Ya’ni o‘tgan sakson yil davomida ijtimoiy shart-sharoit ham, adabiy-estetik qarashlar ham, hatto, tarixning o‘zi ham yangilanganligini hisobga olishimiz zarur. Mirkarim Osiming “Zulmat ichra nur” qissasida Alisher Navoiyning yoshligi lo‘nda va qiziqarli tarzda bayon etilgan. Qissada Alisherning yoshligidanoq boshqa bolalardan ajralib turgani Sharafiddin Ali Yazdiy bilan muloqot shaklida ajib mahorat bilan ko‘rsatilgan.

Sho‘x Alisher ertalab turib, o‘z o‘rtoqlarini boshlab ko‘chaga chiqdi. Karvonsaroyning yonida katta bir xonaqoh bor edi. Bolalar ikki tavaqasi lang ochiq darvozadan kirishdi. Xonaqoh hovlisining bir chekkasida keksa odam ko‘zini yumib, pichirlab o‘tirardi...

-Hoy bolalar, bu yoqqa kelinglar, – dedi kulib. Bolalar ko‘cha bo‘ylab qochganida Alisher ulardan ajralib, cholning oldiga borib salom beradi. Cholning savollariga odob bilan samimiy javob beradi. Sharafiddin Ali Yazdiy bolakayga: “Borakallo. Bul jamoat bolalaridan biz choqirg‘onda sen kelib, men bilan oshno bo‘lding. Kel, sening uchun fotiha o‘qoli...” deya duo qiladi [8.14]. Alisher Navoiyning dunyoda ulug‘lanib, nomi so‘nmas yulduzdek porlab

turganiga uning zehni, ota-onasining go‘zal tarbiyasi bilan bir qatorda aynan ulug‘ insonlarning duolari sabab bo‘lgandir, balki.

Alisher Navoiy obraziga adibimiz Muhammad Ali ham murojaat etib, shoirning diniy va dunyoviy qarashlarini, fikrlarini erkin bayon etishga harakat qilgan. Romanni o‘qish davomida Navoiy obrazi tobora shakllanib, daholashib, ilohiylashib boradi. Kitobxonni haqiqatan ham Navoiy kim, degan savol o‘ylantiradi. Shu o‘rinda birinchi Prezidentimizning Alisher Navoiy haqida aytgan fikrlarini keltirib o‘tishni lozim deb topdik. “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir” [9.47].

Navoiy shaxsi buyuk, g‘azal mulkining sultoni, haqiqiy do‘st, “Xamsa” dostonini ona tilida insho etgan adib, millat homiysi, darvishlarning seviklisi, sevganiga vafodor inson sifatida romanda tasvirlangan. Navoiy haqida yozilgan boshqa asarlardan farqli o‘laroq, ushbu romanda Navoiyga “sevganiga vafodor inson” degan ta’rif berilgan. Muhammad Ali asarga Navoiyning seviklisi Bade’ul jamol obrazini olib kirgan. Alisher bilan Bade’uljamol sevgisi bir zumlik, osmonda chaqmoq chaqqanday yorqin va sassiz edi. Ular sevgisining jarangi ham Haqqa bo‘lgan ishq kabi sassiz edi. Haq – mutlaq, insonlar – o‘tkinchi...Muhammad Ali so‘zining kuchi, tafakkurining qudrati bilan bu tarixga hammamizni ishontira oldi. Hayotda tanholigining sababi ilohiy sevgining boqiyligidadir. “Mangu quyosh” romanida Navoiy haqiqiy do‘st sifatida ko‘rsatilgan. Bu do‘stlikning hukmini ustozi Shayx Savsaniy e’tirof etgan. U Husayn bilan Alisherninig do‘stligini yalakat mag‘izga o‘xshatadi. Yalakat mag‘iz, bu - qo‘sh mag‘iz, boshqacha aytganda, egizak mag‘iz. “... Sizlarning do‘stligingizni dunyoda hech narsa, hech narsa buza olmasun! Hech narsa bir-biringizdan ayira olmasun! Do‘stligingizdan olam hayratda qolsun!...Alisher va Husayn – yalakat mag‘iz, bir-birirngiz uchun bo‘ling azizdan aziz! Bunday do‘stlik uchun ont ichmak, qasamyod qilmak vojib sanalur! Bu do‘stlik qasamyodiga Navoiy umrining oxirigacha sodiq qoldi. Husayn Boyqaro mastlik oqibatida sevimli nabirasi Mo‘min Mirzoni qatl ettirganida Xondamir quyidagi fikrlarni aytadi: “Shunday... qabohatga yo‘l qo‘ygan kishi bilan do‘stlashmoq mumkinmu? Sizga jonim achig‘ondan achiydur, Hazratim! Bundoq kishidan yuz o‘girmoq eng to‘g‘ri yo‘ldir! Navoiyning bunga javobi juda ham faylasufona bo‘lgan. “Oh! Xondamir! Nozik joydan oldingiz...Podshohdan yuz o‘giring, deysiz... Qandoq yuz o‘giray? Sulton Sohibqiron birlan bir umrlik do‘stdir biz, umrimning boyligi Sulton Husayn Mirzo birlan do‘stligimdir. Umrim poyoniga yetib turg‘onda, nogahoniy sabab deb, qandog‘ qilib umrlik toat-ibodatdan ayrilay, bu dunyoligimni sovray? Oxiratim kuyib ketadiku!... “Mo‘min Mirzo mening ham ardoqli shahzodam edi...Uning musibati nechog‘lik og‘ir esa-da, bizning Sulton Sohibqiron bilan do‘stligimizga daxl qilmakdin ojizdur!”

Yuqoridagi misollar Navoiyning do‘stiga bo‘lgan mehr-muhabbatining chegara bilmasligini, ushbu do‘stlikka hech qanday g‘ov to‘siq bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Qay holatda bo‘lsa ham, Navoiy do‘sti bilan faxrlanadi, o‘zining butun shijoatini, aql-idrokini, salohiyatini, umrini uning saltanati ishlari rivojiga, ravnaqiga baxshida etib qo‘ygan, fido qilishga tayyor! Bu do‘stlik qasamyodiga Navoiy umrining oxirigacha sodiq qolganligi masalasi Muhammad Alining “Mangu quyosh” romanida ishonarli, miqyosli va teran ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.H.Karimov. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti . –T.: Yangi nashr, 2010. 360-bet.
2.G.Ashurova. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy obrazi. Monografiya. – T.: “Qamar media”, 2023. 408-bet.
3. S.Quronov . “Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar” – № 5. 2021.
4.Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.:Академнашр, 2010. – 402 б.
5.Xayriddin Sulton. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy “ romaniga So‘ngso‘z o‘rnida. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi, 2022 . 475-bet.
6.N.Jabborov. “Maoniy ahlining sohibqironi”. – T.: “Adabiyot”, 2021, 254-bet
7.Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov “Navoiyshunoslik” darslik 1-kitob – T.:Tamaddun, 2008 . 520-bet.
8. M.Osim.”Zulmat ichra nur”. – T.: ”Yoshlar matbuoti” , 2024. 189-bet.
9. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” . – T.:Ma’naviyat, 2008.108-bet.
10. Muhammad Ali. “Mangu quyosh” . “Sharq yulduzi” jurnali 2023 .4-5-6-sonlar.



Shahlo RAHMONOVA,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali katta o‘qituvchisi
E-mail: rahmonovasahlo644@gmail.com

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI SHE’RIYATIDA FAOL AYOL TASVIRI

Annotatsiya: o‘zbek xalq og‘zaki she’riyatida faol ayol tasvirini o‘zbek xalqining “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Tohir va Zuhra”, “Kuntug‘mish” kabi o‘nlab dostonlarida uchratamiz. Ushbu dostonlarda xotin-qizlar obrazi benihoya keng o‘rin tutadi. Mumtoz adabiyotda ham ijtimoiy faol ayol masalasi Xorazmiy, Sayqaliy, Sayyod, Lutfiy va Navoiy, Bobur va Muhammad Solih, Turdi va Mashrab, Nodira va Uvaysiy, Munis va Ogahiy kabi ajoyib so‘z san’atkorlarining ijodi bilan boyligini ko‘ramiz. Ayniqsa, Navoiy qahramonlarining davlat boshqaruvi, ijtimoiy hayotdagi faolligi, ilm, kasb-hunar egallashi va bu orqali ularning hech kimdan kam emasligini amalga oshirgan ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Navoiy ijodida, dostonlarida ayolning faolligi, ma’rifatparvarligi, xalq farovonligi yo‘lida mashaqqatli mehnati, iqtidori va iste’dodi badiiy obrazlarda mujassamlashgan. O‘zbek xalq og‘zaki she’riyatida va mumtoz adabiyotda ijtimoiy ayol shaxslar xalq farzandlarining ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi kabi masalalarda bugungi davr bilan hamnafas ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy faol ayol, Navoiy, xotin-qizlar, ijtimoiy hayot, jamiyat, davlat boshqaruvi, kasb-hunar, bilim, ilm-ma’rifat.*

Аннотация: в устной поэзии узбекского народа мы можем встретить образ деятельной женщины в десятках эпосов узбекского народа, таких как «Алпомиш», «Гёроглы», «Тахир ва Зухра», «Кунтугмиш». В этих сагах большое место занимает образ женщины. В классической литературе мы можем видеть богатство проблемы социально активных женщин в произведениях таких великих художников слова, как Хорезми, Сайкали, Сайяд, Лютфии и Навои, Бабир и Мухаммад Салих, Турди и Машраб, Надира и Увайси, Мунис и Огахи. В частности, мы видим достижения героев Навои в государственном управлении, активной общественной жизни, учебе и профессии, и в этом они не уступают другим. В произведениях и эпосах Навои в художественных образах воплощены женская деятельность, просвещение, упорный труд на благо народа, талант и талант. В узбекской народной устной поэзии и классической литературе анализируется, что социальные женские деятели созвучны современности в таких вопросах, как образование народных детей и приобретение профессий.

Ключевые слова: *социально активная женщина, Навои, женщины, общественная жизнь, общество, государственное управление, профессия, знания, просвещение.*

Annotation: in the oral poetry of the Uzbek people, we can find the image of an active woman in dozens of epics of the Uzbek people, such as "Alpomish", "Gorogli", "Takhir va Zuhra", "Kuntugmish". In these sagas, the image of women occupies a large place. In classic literature, we can see the richness of the issue of socially active women with the works of great word artists such as Khorezmi, Sayqali, Sayyad, Lutfii and Navoi, Babir and Muhammad Salih, Turdi and Mashrab, Nadira and Uvaisi, Munis and Ogahi. In particular, we can see the achievements of Navoi's heroes in state management, active in social life, learning, and profession, and through this, they are no less than others. In Navoi's works and epics, a woman's activity, enlightenment, hard work for the well-being of the people, talent and talent are embodied in artistic images. In Uzbek folk oral poetry and classical literature, it is analyzed that social female figures are in tune with today's times in matters such as the education of the people's children and the acquisition of professions.

Key words: *socially active woman, Navoi, women, social life, society, state administration, profession, knowledge, enlightenment.*

O‘zbek xalqining “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Tohir va Zuhra”, “Kuntug‘mish” kabi o‘nlab dostonlarida o‘zbek ayollarining og‘ir va musibatli kunlarga qarshi kurashi, shodiyona va baxtli kunlardagi quvonchi ifoda etilgan. “Oysuluv”, “Chambil qamali”, “Orzugul” kabi xalq dostonlarida mard va jasur xotin-qizlar obrazlari uchraydi.

“Chambil qamali” dostonidagi Yunuspari, Gulchehra, Xoljuvon kabi ayollar vatanparvar, xalqiga sadoqatli, fidokor va faol xotin-qizlar obrazlaridir. Yunuspari xalqni Vatan himoyasi, yurt mustaqilligi uchun mardona kurashga safarbar etib, shunday deydi:

Qovoqlarni uyinglar,
Qiz-xotinni yig‘inglar!
Po‘pakni yig‘ib tashlab,
Sochni boshga tuginglar!
Sarvoz anjom kiyinglar,
G‘ayrat qiling, ayollar;
Bosh qattiqmi, tosh qattiq,
Shopni belga bo‘g‘inglar !

“Orzugul” dostonida Orzugul obrazi – faol bo‘lgan ayol. U ham Qoraxon podshoga qarshi ayollarga murojaat qiladi:

Bu maydonda erkak-ayol baravar,
Yoring uchun g‘ayrat qiling, dilovar,
Orqamdan kelibdi dushman – jodugar,
Olarman deb mendan bo‘lib umidvor,
Qoraxonga men bo‘lguncha suyar yor,
Otilib, chopishib o‘lmog ‘im darkor .

O‘zbek xalqining “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Tohir va Zuhra”, “Kuntug‘mish” kabi o‘nlab dostonlarida, o‘zbek mumtoz adabiyotida ham xotin-qizlar obrazi benihoya keng o‘rin tutadi. Qadimda ayollarning ahvoli, qizlarga munosabati, huquqlarining poymol qilinishi, shuningdek, ularning aql-zakovati, jasorati, ijtimoiy faolligi mumtoz adabiyotining doston va g‘azallarida uchratishimiz mumkin. Shoir tomonidan yaratilgan har bir tip ham ma’lum guruhning, umumlikning bir bo‘lagidir. Shu bilan birga, u ma’lum davrning hodisasidir. Unda shu obrazning o‘zi mansub bo‘lgan biror ijtimoiy sinf kishilarining fikri, xususiyati, ruhiyati, shu obrazning prototiplari yashayotgan davr xususiyatlari ma’lum darajada aks etadi.

Islom olamida mashhur bo‘lgan Ummi Honiy sahoba ayol nomi faol ayol sifatida tilga olingan. Ummi Honiy – Muhammad(s.a.v)ning amakivachchasi, ya’ni amakisi Abu Tolibning qizi, sahobalardan biri. Rabg‘uziy , Navoiy va Bobur asarlarida tilga olingan tarixiy shaxs. Uning tabarruk nomi Sharq adabiyotida yaratilgan “Mavludun-nabiy” va “Me’rojnoma”larda va mumtoz adaiyot vakillari asarlarida uchraydi. Ummi Honiy o‘z davri butun islom olamining oliyjanob, fikri teran, saxiy, qo‘rqmas sahoba ayol timsoli bo‘lib, Muhammad (s.a.v) Me’rojdek tabarruk kechada uning uyidan Allohning huzuriga chiqqan va yana shu go‘shasiga qaytgan.

Bibichayi Munajjima – Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”da tilga olingan orifa ayol, shoirning zamondoshi. Nujum ilmining bilimdoni bo‘lganligi uchun “Munajjima” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Jomiyning bir qator g‘azallariga javob yozgan. Hirotning Xiyobon mavzesi boshida o‘z hisobidan jom’e masjid qurgan. Bibiyaki Marviuya – bu ayol ham “Nasoyim ul-muhabbat”da tilga olingan orifa ayol bo‘lgan .

Qadimgi O‘rta Osiyo eposidagi To‘maris, o‘zbek xalq dostonidagi Oysuluv ham shunday qahramon ayol va mehribon ona obrazlaridir. Bu siymolar orqali Turon xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashi ko‘rsatiladi.

To‘maris – mustahkam irodali, jasur va jangovor hukmdor ayol obrazidir. To‘marisning mustahkam irodasi, jangdagi tadbirkorligi va matonati ona Vatanga cheksiz sadoqatini ko‘rsatadi. Mirkarim Osimning “To‘maris” hikoyasida Zarina ayol obrazi jismonan baquvvatligi bilan ko‘zga tashlanadi. U ikki marta Sparangezni jangda uloqtirib tashlaydi .

Diodorning “Zarina va Striangiyo” eposi o‘zbek mumtoz adabiyotiga taalluqli bo‘lmasa-da, bizning o‘tmish ajdodlarimiz hayotini aks ettirgan asardir. Unda yurt shohi o‘lgach, uning o‘rniga xotini Zarina qabilaga bosh bo‘ladi. Tadbirli va shijoatli bu ayol qabilaning osoyishtaligi va mustaqilligini saqlab qolish uchun ionbozlik ko‘rsatadi. Rivoyatda Zarina ijtimoiy faol ayol, u yurtning mustaqilligi uchun kurashuvchi hukmdordir. Bular O‘rta Osiyo xalqlari uchun mushtarak bo‘lgan qadimgi eposga “To‘maris”, “Zarina va Striangiyo” kabi tarixiy-badiiy rivoyatlarga borib taqaladi. Bularni arxitektura yodgorliklari bilan birgalikda o‘rgangan mashhur sharqshunos S.Tolstov haqqoniy ravishda shunday deb ta’kidlagan edi: “Eposdagi xotin-qizlar erkaklar bilan teng vaziyatga turdilar. Ular faqat tirikchilik ishlaridagina emas, balki jang maydonida ham erkaklardan qolishmaydilar. Bu O‘rta Osiyo eposining juda xarakterli xususiyatidir ”.

O‘zbek ayollari arab xalifalari istilosida, Chingiz lashkarining bosqiniga qarshi erlari, opa-uka va o‘g‘illari bilan jang qilganlar, qahramonlik va jasorat ko‘rsatganlar. Xuddi shuningdek, ular adolatsiz podsho, amir, xon va hokimlarga qarshi kurashda ham mardlik matonatlarini namoyish etganlar. Bu qahramonlik hodisalari, xotin-qizlardagi vatanparvarlik his-tuyg‘usi, ayniqsa, xalq dostonlari va ertaklarida badiiy mujassamlashgan, hayot voqeligi bilan romantik ideal chatishib, birlashib ketgan .

“O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni bo‘lib, unda davlatmand oiladan bo‘lgan Shohsanam bilan kambag‘al xonadondan chiqqan G‘arib o‘rtasidagi muhabbat mavzusini uchratamiz. Zotan, dostonda faqat G‘arib bilan Shohsanamning orzu-havaslarigina emas, balki xalqning erkinlik va farovonlik, madaniy taraqqiyot, tenglik va hamjihatlik to‘g‘risidagi azaliy orzularni amalga oshirish kabi masalalar ham ilgari suriladi.

Sayyodiyning “Tohir va Zuhra” dostonida Zuhra ham ozodlikka intiluvchi, o‘z ahdi va sevgisida vafodor insondir. Zuhraning samimiy ishq yo‘lida chekkan mashaqqatlari, nola-fig‘onlari, ko‘z yoshlari uning tengsizlik va azoblarga qarshi isyonidir.

Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” asarida xotin-qizlarning yorqin obrazlari yaratilgan. Ular orasida Gulandom obrazi o‘z mukammalligi bilan ajralib turadi. U boshqa ishqiy-romantik dostonlardagi malikalarga o‘xshash husn-latofatda ham, donolikda ham, nazokatda ham, insoniylikda ham tengsizdir. Shoir Gulandom xarakteriga xos bo‘lgan shoirtabiatlilik, so‘zga chechanlik, donolik, tadbirkorlik, insonga hurmat va hazil-mutoyibaga moyillik kabi xususiyatlarni nihoyatda real, tabiiy, ishonarli tarzda ifodalaydi.

Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarida ham ayol siymosi tarannum etilganining guvohi bo‘lamiz. Unda, jumladan, mana bu bayt uchraydi:

Bo‘yung sarv-u sanobardek, beling qil,
Vafo qilg‘on kishilarga vafo qil .

Xorazmiy ma’shuqaning tashqi qiyofasini tavsiflash bilan cheklanib qolmay, uning ruhiy-botiniy olamiga ham daxl qilish orqali o‘zining axloqiy-ta’limiy qarashlarini ham ko‘rsatib beradi, ya’ni “vafo qilg‘on kishilarga vafo qil” deydi.

Qutb Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviyning shu nomli dostoni tarjimasi sifatida yuzaga kelgan “Xusrav va Shirin” dostonida markaziy obrazlardan biri Shirindir. Uning timsolida xalq osoyishtaligi, obodonligi uchun tinimsiz kurashlar, sadoqatli ayol fazilatlari mujassamlashgan. U nafaqat vafosi, balkim tadbirkor va mamlakatni adolatli bilan boshqarish borasida ham ibratli faol ayol namunasidir .

Sharq mumtoz adabiyoti vakillari ayol zotini, uning yuzi, ko‘z-u qoshini shams-u qamarga yoki o‘q va kamonga qiyoslashadi. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning shoh asarlari bo‘lmish “Xamsa” asarlari tarkibidagi, shuningdek, XV–XVIII asrlarda yashab o‘tgan ko‘plab shoirlarning asarlarida maftunkor ayol siymosi borligi barchamizga ma’lum. Gohida pinhona, gohida oshkora sevgi iztiroblari, oshiq-g‘aribligi bu asarlarda aks etadi. Nizomiy Shirin obrazini yaratishda sevikli rafiqasi Ofoqdan katta ilhom olgan bo‘lsa, ajoyib davlat arbobi Mehinbonu obrazini yaratishda Gruziyaning mashhur ayol hukmdori Tamaradan ilhomlanadi .

Sayfi Saroiyning “Suhayl va Guldursun” dostoni bilan o‘zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Dostonda tarixiy voqealar, Temir va To‘xtamish janglari ko‘rsatiladi. To‘xtamishning o‘g‘li Suhayl va Temirning qizi Guldursun sevgisi madh etiladi. Doston Guldursunning fojiali o‘limi bilan yakun topsa-da, Guldursun haqida so‘z borar ekan, shoirning xotin-qizlarga nisbatan ijobiy qarashlari, Guldursunning jasorati va sadoqati madh etiladi.

“Yusuf va Zulayho“da Yusufning sevgisiga sazovor bo‘lgan Zulayho Mag‘ribda dong‘i ketgan shoh Taymusning qizi. U o‘z sevgisiga erishish uchun ko‘p azob-uqubatlar tortadi, aldovlar, xiyonat, gohida esa sabr va matonat uning hamrohi bo‘ladi. Malika Zulayho Yusufga oshiq bo‘lib, uning sevgisiga muyassar bo‘lish uchun juda ko‘p harakatlar qiladi. Maqsadiga erishish uchun aldovlarni, nohaqliklarni ishlatadi. Ammo shoir Zulayhoni jamiyatning faol a’zosiga aylantirib tasvirlaydi. Natijada, Zulayho Yusufning sevgisiga muyassar bo‘ladi va uning davlatni boshqarishdagi barcha ishlariga ko‘maklashadi.

Bu doston muallifi yashagan jamiyat xotin-qizlarni xo‘rlab, ular haq-huquqlarini poymol qilar edi. Qizlarning taqdirini otasi hal etar, ko‘ngilsiz nikoh, baxtsiz turmush o‘sha muhitning illatlari edi. Zulayho obrazi orqali shoir o‘sha davrda baxti uchun kurashadigan ijtimoiy faol ayol obrazini yaratgan.

Ayol zoti uchun Amir Temur Oqsaroy-u Bibixonim kabi obidalarni qurdirgan bo‘lsa, Hindistonda boburiylar sulolasi “Toj Mahal”ni barpo etgan.

Saroymulkxonim xon avlodiga mansub bo‘lgani tufayli haramdagi barcha malikalardan ulug‘ hisoblanib, “katta xonim” (Bibixonim) degan unvonga ega bo‘lgan. Albatta, bunday e’zozga musharraf bo‘lishga aql-zakovat va fikrlash doirasining ulkanligi bosh omildir. Biz tarixiy manbalardan bilamizki, Saroymulk xonim oliy himmatli, zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi bo‘lgan. Shuningdek, u husn-latofat bobida ham benazir edi. Saroy mulkxonim siyosatdon, insonparvar, saxovatli bo‘lib, saltanatni boshqarishda faol ishtirok etgan, mamlakatning ijtimoiy, madaniy hamda qurilish ishlariga, ayniqsa, tolibi ilmlarga homiylik qilgan. Shuningdek, u o‘z zamonasining olimlari, san’at ahllariga g‘amxo‘rlik va homiylik ko‘rsatgan, ilm va fanni rivojlantirgan.

Gavharshodbegim ham aql-idrokli, zukko va tug‘ma siyosatchi ayol bo‘lgan. Amir Temur vafotidan keyingi yillarda undagi bu iste’dod o‘zining bor kuchi bilan namoyon bo‘la boshladi. Temuriylar saltanatining ulug‘ xoqoniga aylangan Shohrux Mirzo o‘ktam va zukko Gavharshodbegimning maslahatlariga doimo ehtiyoj sezardi. Mushkul siyosiy vaziyatlarda malika amalga oshirgan tadbirlar o‘zining ijobiy natijasini berar edi. Bu esa yillar o‘tishi bilan Shohrux Mirzoning Gavharshodbegimga ishonchini ortishiga sabab bo‘ladi. Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko Gavharshodbegim mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g‘amxo‘rlik qildi. Uning hayotiy dasturida madaniy va ma’rifiy hayot birinchi o‘rinda bo‘lgan. Tarixiy manbalarda “Mahdi ulyo Gavharshod Og‘a”, “Zamona Bilqisi” deb maqtalgan Gavharshodbegim saltanatining madaniy hayotida ulkan o‘rin tutgan. Uning bevosita rahnamoligida Xurosonda bir qator muhtasham binolar qad ko‘targan, xususan, tarixchi G‘iyosiddin Xondamir o‘zining “Xabib us-siyar” asarida malika tomonidan bunyod etilgan imoratlar haqida ma’lumot berarkan, shunday yozadi: “Gavharshod Og‘a iffat va insoflilik sifati bilan maqtalgan malika edi va doim oliy barakotli himmatini xayriya imoratlarini qurish va xayr-u ehson ulashish sari qaratgandi” .

Boburning “Boburnoma” asarida oltmishdan ortiq ayol siymosi va obrazlari bor. Asar muallifi ulug‘ onasi Eson Davlatbegim hamda Shohbegim, Xadichabegim, Zuhrabegim og‘a obrazlari misolida saroy, davlat, ra’iyat ishlarida yuqori mavqega ega ayollarni ko‘rsatadi. Ijtimoiy faollik, harakatchanlik, davlat ishlariga xayrixohlik faqat Eson Davlatbegimga xosdir, deb unga hurmatini izhor etadi: “Xotunlar orasida ra’y va tadbirda mening ulug‘ onam Eson Davlatbegimcha kam bo‘lg‘ay edi. Bisyor oqila va mudabbira edi. Ko‘proq ishi-kuch alarming mashvarati bila bo‘lur edi” . Bobur xotin-qizlarning aqli, odobi, hurmat va e’tibori to‘g‘risida qat’iy fikrlar bildirgan.

Boburiylar sulolasining vakili Shoh Jahon 1628-yil fevral oyida taxtga o‘tirgach, yosh malika Mumtoz Mahal begim davlat ishlarida eriga yordamlashar va

doim rejalik maslahatlari bilan uni to‘g‘ri yo‘lga boshlardi. Binobarin, u saroyda shoh maslahatchisi va muhrdorlik lavozimlarini egallaydi.

Adabiyotshunos To‘xtasin Jalolov Zebunnisobegimga yuksak baho berib: “Zebunniso begim otasi hukmdorlik bilan qozona olmagan shuhratni ilm va odob bilan qozongan…” , – deb yozar ekan, u tamoman haqlidir. Go‘zallik, san’at, ilm Zebunnisoning orzusi edi. U o‘zining butun hayotini nafis san’atga, ilmga bag‘ishlaydi.

Duxtari shoham va lekin ro‘ba faqr ovardaam,
Zebu ziynat bas haminam– nomi man Zebunnisost.

Zebunnisoning uch izdoshi – Nodira, Uvaysiy va Mahzunalar ham iste’dodli va ijtimoiy faol ayollar sifatida yetishib chiqdilar. O‘zbek mumtoz adabiyoti vakilasi Nodiraning adabiy merosi o‘z g‘oyaviy-badiiy ahamiyati nuqtayi nazardan mumtoz she’riyatning go‘zal namunalaridandir. Shoira hukmdorlarni adolatga chaqirib shunday deydi:

Bo‘yla kim mumtoz erursan barcha sultonlar aro,
Shod qilg‘il bandalarning ko‘nglini, ehson etib .

Nodira muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. U go‘zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oh-u fig‘onlarini kuyladi. U olimlar, shoirlar, ayniqsa, shoiralarni o‘z himoyasiga olgan. Shoira o‘z devonlarining “hamnishin olima afifalar, fozila hamsuhbat sharifalarning maslahatlari va tashabbuslariga ko‘ra jamlangani”ni o‘zbekcha devoniga yozgan so‘zboshisida alohida qayd etib o‘tadi .

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan, adolatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etgani bilan mashhur bo‘lgan Anbar Otin o‘z ijodida ayollarning ahvoli, yashash sharoiti, oila va jamiyatdagi o‘rnini aks ettirishga harakat qilgan. U ayollar uchun ham yaxshi kunlar kelishiga va ularning taqdiri to‘la o‘zgarishiga qattiq ishonib: “Ul zamonda barcha xalq sohibjamol bo‘lur. Ul vaqtda qizlar ilmi dunyoviy tahsiliga muyassar bo‘lib, urfon taxtida qaror topib, ellar va ulug‘lar safiga doxil bo‘lurlar, alar g‘ayrat va mehnatda erlarga hamfo va yovar bo‘lub, obro‘ topib, hurmat va ikromga sazovor bo‘lurlar”, – deb yozgan.

Sharq mumtoz adabiyotida Atoiy, Husayniy, Umarxon kabi shoirlarning asarlarida ayollar ko‘pincha tor doirada ishq-muhabbat, vafo va sadoqat vositasida tarannum etilgan, lekin noma’lum muallifning “Gul va Navro‘z” asarida, ayniqsa, Navoiy asarlarida juda keng doirada, ya’ni hukmdor, olima, ijodkor, muhandis-quruvchi, ma’shuqa va boshqa tarzda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, “Gul va Navro‘z” dostonida Navro‘z ilm va hunarda yagona, jismonan baquvvat va sog‘lom shahzoda. Shoh Mushkinning qizi Gul ham o‘ta jasoratli obrazdir. Uni shoir quyidagicha ta’riflaydi:

Quyosh oydek yuzingning xijlatidan,
Qochib to‘rtinchi ko‘k uzra chiqibdur .

Malika hasad o‘tida yongan sardor Bahrom bilan jangga chiqishi shoir tomonidan mohirona tasvirlangan. Bu bilan xotin-qizlarning mardligi ulug‘langan, haq-huquqlari himoya qilingan. Malika – ayollarning or-nomusi toptalishiga yo‘l qo‘ymaydigan faol lider ayol timsoli. Gulning jasorati bilan Adan mamlakati kuchayadi, hukmdor Gul jamiyatni odilona boshqaradi. Ayollarning haqiqiy himoyachisiga aylanadi. Xalqi uni sevadi, uning barcha ishlarini qo‘llab-quvvatlashadi. Adan va Yaman mamlakatlari shohlari Gul va Navro‘z kurashish uchun maydonga chiqishadi, ammo bir-birlarini tanigach, sulh tuziladi. Shu yerda shoir hukmdor ayolni jangda ham mahoratli ekanini namoyon etadi.

Demak, mumtoz adabiyotimizda lider ayollarga e’tibor, jangchi mard hukmdor ayollar madh etilgani, ularning jamiyatda ham o‘z o‘rniga ega ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Mumtoz adabiyotimizda ayollar obrazi 3 toifada yaratilgan:

1) sevgi-muhabbat bobida tengsiz go‘zal, ibo-hayoli, vafodor yor;

2) davlatni odilona boshqaradigan hukmdor;

3) farzandini ilm-ma’rifatli qilib tarbiyalaydigan ona siymosida.

Ijtimoiy faol bo‘lgan xotin-qizlar o‘z davrining salbiy sudralib kelayotgan qarashlariga qarshi kurashuvchan, o‘z maqsadi yo‘lidagi mashaqqatlarni yengib, adolat va ma’rifat uchun kurashayotganligi to‘g‘ri ifodalangan.

Eng qadimgi zamonlarda ham ayol bola tarbiyasi, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan shug‘ullanib, erlarining ovdan kelishini kutgan. Ijtimoiy va axloqiy qoidalarni bolalariga o‘rgatgan. Ayol qabilada nafaqat erkakka teng, balki bolalariga nisbatan ustunlikka ham ega bo‘lgan.

O‘tmishimizga nazar solsak, ijtimoiy hayot sohalarida ayollarning o‘rni chegaralangan bo‘lsa-da, ijtimoiy faol ayollar jamiyat rivoji uchun o‘z hissasini qo‘shgan. Biz buni temuriy malikalar – Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Gulbadanbegim, Mumtozmahalbegim, Nurjahonbegim, Zebunnisobegim siymosida ko‘ramiz. Ular kuchli siyosatdon, insonparvar, saxovatli ayollar bo‘lib saltanatni boshqarishda faol ishtirok etgan, mamlakatning ijtimoiy, madaniy ishlariga, ayniqsa, ilmparvar toliblarga homiylik qilishgan. Oila va farzandlari uchun, yurti va xalqi taqdiri uchun kurashish o‘zbek ayoli uchun mardlik hisoblangan.

Ayniqsa, Navoiy ijodidagi ijodiy faol ayol obrazi – ijtimoiy tuzum, adolatsizlikka qarshi kurashuvchi, shuningdek ilmparvar, xalqning orzu-istagini ifodalaydigan tarixiy va to‘qima obrazlar bo‘ldi. Navoiyning “Xamsa”sida Majnun Laylining iti kabi uning nigohiga zor bo‘lsa, Bahromning Dilorom hajrida yetti qasr qurdirgani, Farhodning Shirin visoliga yetishish uchun necha bor hushidan ketgani Ayol zotining buyukligiga ishoradir.

Ayol – oilaviy hayot imoratlarining asosiy ustunlaridan

biri. Ayollari tarbiya ko‘rgan millatni hech kim yenga olmaydi. Ayol – tushunchasini go‘zal tashbehlar bilan maqtashda, ularning tashqi ko‘rinishlarini tasvirlashda, asosan, shoir va musavvirlarning hissasi kattadir. Ayol – ona, yor, rafiqa, opa-singil. Ammo shu bilan birga ijtimoiy hayotning faol a’zosi. Shuningdek, ijtimoiy faol ayol deganda oilada, jamiyatda va madaniyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ayol tushuniladi. Ijtimoiy faol ayol davlat arbobi bo‘lishi mumkin. U erkak kishi ko‘rmagan, masalan, oila, nikoh, qarindosh-urug‘chilikni, mehnatni, farzand tarbiyasini, oiladagi zo‘ravonlik kabi yuzlab muammolarni o‘z boshidan kechiradi va yechimini oson topadi.

Mumtoz adabiyotimizga nazar tashlasak, ayolning asosiy vazifasi oila va oilada farzand tarbiyasi emas, balki ayol jamiyatning bir bo‘lagi sifatida ham tasvirlanadi. Bunday obrazlar Sharqning buyuk so‘z ustalari Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy kabilarning ijod mahsulida ham uchratishimiz mumkin.

Masalan, Firdavsiy Manija, Gurdofarid, Xumoy, Mehrak va boshqa ayollar obrazlarini mahorat bilan yaratgan. Fuzuliyning “Shifoyi vasl qadrin, hajr ila bemor o‘landan so‘r”, – deya boshlanadigan g‘azalida she’riyatning yuksak cho‘qqisi bo‘lib, oshiq ishq dardida bemor bo‘lganda, yor diydori odamga shifo bo‘lishi mumkin, deydi:

Shifoyi vasl qadrin, hajr ila bemor o‘landan so‘r,
Ziloli zavq-shavqin tashnayi diydor o‘landan so‘r.
Labing sirrin gelub guftora bandan o‘zgadan so‘rma,
Bu pimhon nuktani bir voqifli asror o‘landan so‘r .

Mirzo Ulug‘bek o‘zining Buxorodagi o‘zi qurdirgan madrasasi darvozasiga “Talab-ul ilmi faridat-un ala kulli muslimun va muslimatun” (“Ilmga intilish butun musulmon erkak va ayollarga farzdir”) , – deb yozdirgan. Bu ulug‘ mutafakkirning xotin-qizlarni ilm olishga chaqirganini bildiradi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida Majlisiy, Sayqaliy, Xoja kabi shoirlar ayollarning ijtimoiy barkamol obrazlarini yaratgan, ularning sha’niga ijobiy she’rlar yozgan. Demak, mumtoz adabiyotimizda Navoiyga qadar ham ayollarni madh etish orqali ko‘plab asarlarning jozibadorligi oshganining guvohi bo‘lganmiz.

O‘tmishga nazar solsak, tariximizda ham ijtimoiy faol ayollar jamiyat rivoji uchun o‘z hissasini qo‘shgan. Adabiyotning bosh mavzularidan biri va bosh qahramoni ayol bo‘lgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida ayol obrazining his tuyg‘ulari, taqdiri, sevgisi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni o‘rganilib, badiiy tasvirlari tahlil qilingan. Mumtoz adabiyotda ayol obrazi tasvirlanganda ularning mamlakatga keltirgan foydasi, ilm-ma’rifatni targ‘ib etishi, bola tarbiyasi, sevgisi yo‘lidagi vafodorligi, Vataniga muhabbati va davlatni odilona boshqarishi keng targ‘ib etiladi.

Har bir ayolning psixologiyasi, dunyoqarashini ochishga alohida o‘rin beriladi. Asarlarda ayollar markaziy obraz bo‘lmasalar-da, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligi to‘liq ochib berilgan. Asarlarda ayollarning faolligi, ma’rifatparvarligi, xalq farovonligi yo‘lida mashaqqatli mehnati, iqtidori va iste’dodi yorqin lavhalarda ko‘rsatilgan. Dostonlarida xotin-qizlarning ta’lim olishi, hunar egallashi kabi masalasi bugungi davr bilan hamnafas ekanligini tahlil qilishimiz mumkin. Mutafakkir adib chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan ayollarni lo‘nda va ta’sirchan qilib tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ota-onaga hurmat, tabiat go‘zalligi, farzand muhabbati, dushmanga nafrat kabi mavzular mavjud bo‘lsada, ayollar mavzusini o‘rganish, qizlarimizning bilim va kasb-hunar egasi bo‘lib voyaga yetishishini aks ettirish, ularning jamiyatda munosib o‘rin egallab, ijtimoiy hayotning faol a’zosi bo‘lib shakillanishi o‘zbek mumtoz adabiyotining asosiy mavzusi bo‘lib qolgan. Har qanday buyuk erkakning ortida buyuk ayol turadi. Intellekti yuqori bo‘lgan ayol, albatta, buyuk farzandlarni kamolga yetkazadi. Hazrati onalar ulug‘ zotlarning birinchi ma’naviy ustozlari bo‘lgan. Otadan qon, jism o‘tsa-da, onadan aql va tafakkur o‘tadi. Bu esa jamiyatni rivojlantirishdagi omillardan biri hisoblanadi. Bugun bu ulug‘ onalarga, bu ulug‘ ustozlarga, bu ulug‘ kayvoni ayollarga jamiyat ta’zim qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turopova P. (2020). Adabiyotda ayol madhi. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(44). извлечено от https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5435
2. O‘zbek xalq dostonlari. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1995. 31-bet.
3. Rizayeva K. Urushdan keyingi O‘zbek prozasida xotin-qiz ijobiy obrazlarining yaratishning ba’zi usullari. diss // – Toshkent: Yozuvchi, 1959. 9-bet.
4. N.B.Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. 2-kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1991. 46-bet.
5. Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2017. 35-bet.
6. Xilvatiy. Mavludunnabiy. – Andijon: Andijon, 1992. 42-43-betlar.
7. Qarang: Alisher Navoiy: Qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2016. 115—536-betlar.
8. Mirkarim Osim. To‘maris. – Toshkent: Yangi avlod, 2015. 32-bet.
9. R.Vohidov, H.Eshonqulov. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 18-bet.
10. Tolstov S.P. O‘zbekistonning qadimgi madaniyati. – Toshkent: Fan, 1944. 11-bet.
11. Mo‘minova A. O‘zbek xalq ertaklarida xotin-qizlar obrazi//diss. – Toshkent: Fan,1967. 104-bet.
12. Rahmonqul Orzibekov. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2006. 28-34-betlar.
13. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1- tom. – Toshkent: Fan, 1978. 29-bet.

14. O‘zbek adabiyoti. 4 tomlik. 1- tom. – Toshkent: Fan, 1959. 129-bet.
15. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965. 245-bet.
16. G‘iyosiddin Xondamir. Habib us-siyar. – Toshkent: Fan, Sharqshunoslik instituti fondidagi qo‘lyozmadan foydalanildi. № 2.
17. Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. 47-bet.
18. Jalolov T. O‘zbek shoiralari. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1959. 12-bet.
19. Zebunniso. “Majmuiashe’rho”. – Toshkent. 42-bet.
20. Nodira. Devon. O‘zbekiston. – Toshkent: Fan, 1965. 85-bet.
21. O‘zbekistonning ma’rifatparvar ayollari. – Toshkent: Fan, 2001. 15-bet.
22. Rahim Gulshan Muhiddin qizi. Abdurauf Fitrat va jadid adabiyoti//diss. – Toshkent, 1999. 53-bet.
23. Lutfiy. Gul va Navro‘z. – Toshkent: DAN, 1960. 30-bet.
24. Lutfiy. Tanlangan asarlar. 2-nashri. – Toshkent: DAN, 1960. 34-bet.
25. Manba https://tafakkur.net/shifoyi-vasl-qadrin-hajr-ila-bemor-olandan-sor/muhammad-sulaymon-ogli-fuzuliy.uz.
26. N. Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965. 23-bet.

Hafiza AXMEDOVA,
BuxDU mustaqil tadqiqotchisi

SHUKUR QURBONNING “ONAM QOSHIDASAN YOXUD SINGLIM MUHABBATGA MAKTUBLAR” MAKTUB-DOSTONI HAQIDA

Annotatsiya: lirik maktub janri zamonaviy she’riyatda keng qo‘llaniluvchi janr. She’riy maktublar ko‘pincha yaqin insonlarga – onaga, opaga, singilga, sevgiliga, do‘stga yo‘llanadi. Zamonaviy she’riyatda maktublardan tuzilgan dostonlar yaratildi. Shukur Qurbonning “Onam qoshidasan yoxud singlim Muhabbatga maktublar” shunday asarlar qatorida turadi. Maqolada ushbu doston tahlil etilgan va akaning singilga yozilgan maktublariga xos xususiyatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *lirik maktublar, lirik qahramon, kechinma, mubolag‘a, milliy hayot manzarasi, maktub-doston*

Аннотация: жанр лирического письма – широко используемый жанр в современной поэзии. Стихотворные письма часто адресованы близким людям – матери, сестре, возлюбленной, другу. В современной поэзии созданы дастаны, состоящие из писем. Среди таких произведений выделяется дастан «Ты рядом с матерью или письма к моей сестре Мухаббат» Шукура Курбана. В статье анализируются особенности писем, написанных братом сестре в лиро-эпическом произведении.

Ключевые слова: *лирические письма, переживания лирического героя, преувеличение, картины быта, эпическое письмо.*

Annotation: the genre of lyrical writing is a widely used genre in modern poetry. Poetic letters are often addressed to loved ones - mother, sister, lover, friend. In modern poetry, dastans consisting of letters have been created. Among such works, the dastan "You next to mother or letters to my sister Mukhabbat" by Shukur Kurban stands out. The article analyzes the features of letters written by a brother to his sister in a lyric-epic work.

Key words: *lyrical letters, experiences of the lyrical hero, exaggeration, pictures of everyday life, epic letter.*

XX asr o‘zbek she’riyatida singilga yo‘llangan lirik maktublar o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu asarlar janriy jihatdan ham rang-barang. Jumladan, Shukur Qurbonning «Onam qoshidasan yoxud singlim Muhabbatga maktublar» asari doston janrida yozilgan. Bu haqida adabiyotshunos D.Quvvatova yozadi: «Sh.Qurbonning «Onam qoshidasan yoxud singlim Muhabbatga maktublar» dostoni boshdan oxir she’riy xatlardan tashkil topgan bo‘lib, ular singilga yo‘llangan. Maktublarning mazmun-mohiyatini o‘g‘ilning ulug‘ zot – Ona oldidagi anglangan burchlari, vazifalari tashkil etadi. Ayni zamonda ularda armon ruhi hukmron. Chunki lirik qahramon onasidan yiroqdaligi sabab ko‘pda undan xabar ololmaydi» . Haqiqatdan ham to‘rt maktubdan tashkil topgan ushbu dostonda lirik qahramon – shoirning singlisi bilan ko‘ngillashganligini ko‘rish mumkin. Ya’ni yiroqdagi aka qishloqdagi singlisiga ko‘ngil kechinmalarini to‘kib soladi.

Asardagi birinchi maktub “Biz ketgan bo‘lamiz…” deb nomlanadi:

Achchiq taqdiringdan nolimaysan hech,
O‘rniga xayollar surasan bedor.
Onam qoshidasan, singlim, erta-kech,
Issiq sovug‘idan mudom xabardor.
Biz – aka-ukalar, opachang – nari,

Bosh suqib o‘tamiz har-har zamonda.
Shaddod jiyanlarning to‘polonlari
Tor hovlini boshga ko‘targan onda,
Yayrab jilmayasan:
– Ha, esi yo‘qlar,
Buvijon qoshida o‘ynab qolinglar!

Maktub mazmunidan ma’lum bo‘ladiki, ona yonida faqat kenja singil qolgan. Bunday holatlar milliy hayotimizda ko‘p kuzatiladi. Ya’ni aka-opalar o‘qish, ish tufayli boshqa yurtlarga ketganda, ota-onaga yaqin inson singillar bo‘ladi. Shu jihatdan yuqoridagi satrlarda yashiringan ma’nolarning mazmunini anglash mumkin bo‘ladi. Lirik qahramon – aka ishidan, tashvishlaridan ortib, onasi tomon kelganida, uni erta-yu kech onasining yonida bo‘lgan mehribon singil kutib oladi. Yana satrlardan shuni bilish mumkinki, singil juda samimiy, kamtar va bag‘rikeng. Buni singilning shaddod jiyanlarining to‘polonlarini yaxshilikka yo‘yishidan bilish mumkin. Zero, u jiyanlariga “Buvijon qoshida o‘ynab qolinglar!” deyishi buni tasdiqlaydi.

Sho‘x-shodon kayfiyat senga ham yuqar,
Qayoqqadir singib yo‘qolar munglar.
So‘ng yana hammayoq suv sepgan kabi
Tinchib qolar,
Tinchib qoladi onam.
“Og‘rib qolmasin-da, ishqilib…” qalbing
Seskanib ketadi hapqirib shu dam.
Biz ketgan bo‘lamiz, farzandlik burchin –
O‘tab qo‘ygan kabi mamnun, baxtiyor.
Sen yaxshi bilasan mehrning kuchin,
Burch neligin o‘ylab, yurmaysan bekor [2.25]

Har gal aka-opalar ona diydoriga intilganlarida xonadonni sho‘x-shodon kayfiyat egallaydi. Shoir aytganiday, ko‘ngildagi munglar qayoqqadir yo‘qoladi. Bunga shoir sabab qilib singlisini ko‘rsatadi. Chunki singil ularni har gal ko‘ngil ochiqlik bilan kutib oladi. Aka farzandlik burchini ado etolmayotganidan o‘kinadi. Biroq akaning ko‘ngliga bir narsa taskin beradi: mehrli singlisining onasi yonida ekanligi.

Asardagi ikkinchi maktub 3 ta qismdan iborat. Ikkinchi maktubga kirish “Ka’ba qadar…” deb nomlanadi:

Ka’ba qadar Baliqchi yiroq,
Balki shodlik qadar yiroqdir.
Meni sendan ko‘ra yaxshiroq
Anglaguvchi, bilguvchi yo‘qdir.
O‘rtadagi tog‘lar to‘solmas,
Erib bitar qoraygan toshlar.
Aro yo‘lda ordona qolmas,
Senga sirim bo‘ladi oshkor... [2, 26]

Bu satrlarda avtobiografizm ruhi bor. Lirik qahramon – akaning ona yurti Baliqchi bo‘lib, bu tuman Andijonda joylashgan. Uning nazdida, Baliqchi Ka’ba qadar uzoq. Lekin aka va singilni yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi tuyg‘u – o‘zaro mehr va samimiyatdir. Keyingi satrlarda shoir mubolag‘a qiladi: zero, ular o‘rtasidagi aka-singilchilik rishtalarini hech kim uzolmaydi, bunday yaqinlik, iliqlikni hatto tog‘lar ham to‘solmaydi, bu mehrdan qoraygan toshlar ham erib bitadi. Xalqimizda “Onangni kiftingda tutsang, singlingni kaftingda tut», degan maqol bor. Qalbidaryo singil akasiga dardlarini hamma vaqt ham to‘kib solmaydi. Buni esa aka doim his qilib turadi.

Sunbul sochlarida o‘rmalagan oq,
Intiq yuragida kuydirgan bir dog‘,
Saharlar bo‘g‘zida otiladi “oh”,
Turmushi buzilgan singil yig‘laydi.
Tirik yetimlarin bag‘riga bosib,
Xayolan goh yoqib o‘zin, goh osib,
Manglayiga turli qismatlar yozib,
Turmushi buzilgan singil yig‘laydi [2, 26-27].

Mazkur misralarda muhabbatdan ko‘ngli yaro bo‘lgan singilning portretiga chizgilar beriladi. Ya’ni “Sunbul sochlarida o‘rmalagan oq” uning sochlari g‘am-qayg‘udan erta oqarganligini bildiradi va bunda alliteratsiya bor. Uning “yuragida kuydirgan bir dog‘ ”, “Saharlar bo‘g‘zida otiladi “oh” iztirobli kechinmalarning surati sifatida namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon–aka singlidagi dardli kechinmalarni yuragidan o‘tkazadi. Uning ko‘z oldida tirik yetimlarini bag‘riga bosgancha hayot qiyinchiliklarini yengib o‘tayotgan sabr-matonatli singil gavdalanadi. Albatta, bu yiroqdagi akaning qalbiga ozor berib o‘tadi.

Ikkinchi maktubning so‘nggi qismi “Onam haqida qo‘shiq” deb sarlavhalangan. Insonni hayotda har doim kutadigan, hamisha tushunadigan bir zot borki, u onadir. Adabiyotda onalarning mehri quyoshga tenglashtiriladi. Shukur Qurbon ham yo‘llariga hamisha termulib, intizor bo‘lgan onasida tog‘larning yukini ko‘radi. Darhaqiqat, onalar farzandlarining birgina “keldim” degan so‘zlariga mushtoq bo‘lib yashaydi. Lirik qahramon shu tuyg‘uni tuyadi.

Olamdagi barcha yo‘llar boshida
Onajonlar o‘ltirishar intizor.
Tog‘lar yuki bor ular bardoshida,
Onajonlar intizorki, hayot bor...
Yo‘llarda to‘rt ko‘zlari,
“Keldim” degan so‘zga zor…[2.27.]

To‘rtinchi maktubning birinchisi “O‘sha kun…” da akaning ona uyiga tashrifi bilan bog‘liq kechinmalar aks etgan. Bu maktub ham milliy manzaralarga boy. Undagi choy, qora o‘choq kabi detallar buni tasdiqlab turadi. Darhaqiqat, akasiga choy damlashga shoshgan singil uning yonida ko‘p-ko‘p o‘tirishni, u bilan sirlashishni xohlaydi. Maktubda yana ona mavzusiga qaytiladi. Har qanday damda ona farzandini kechiradi. Lekin farzand xatolarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, o‘zini o‘zi kechirishi qiyin kechadi. Lirik qahramon ham o‘zini o‘zi taftish qiladi.

O‘sha kun hali tong oqarmagandi,
Singlim men ketaman, deganim chog‘da,
Ko‘zimga qaramay, indamay yanding,

Choy qo‘ymoqchi bo‘lding qora o‘choqqa.
To‘xtatdim: “Singlim, choy sig‘mas yurakka.
Men ketishim kerak, hoziroq, tezroq”,
Men qochib borardim u kun o‘zimdan,
Kechira olmasdim o‘zimni sira.
Uzoqdagi tog‘am, netardik, taqdir,
Bevaqt qazo qilib qoldi boyaqish.
Boshqalar taysallab turgan chog‘ida,
Balki men farzandlik burchin bajardim.
Munglig‘im oshirib ikkita tog‘day,
Olis marakaga yetkazib bordim.
“Lekin meni onam ortiqcha suydi…” [2. 28-29]

O‘g‘il o‘ziga-o‘zi so‘roq berar ekan, hayotda onasi uchun nimalardir qilganligini eslaydi. Masalan, tog‘asi dunyodan o‘tganida, onasini o‘z vaqtida olib borganligidan qandaydir qanoatni his qiladi. Ehtimol, ona shoir o‘g‘lini ko‘proq suygan, ko‘proq alqagan bo‘lishi mumkin. Biroq farzandning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi. U mehrini hamma farzandlariga bir xil ulashadi. Ana shu ulashilgan mehrning katta ulushi shoir o‘g‘ilga tushishi mumkin, albatta. Shu tuyg‘uning ifodasi maktubda yorqin aks etadi.

Garchand har xil fe’li, har xil siyog‘i
Imkon va mavqei, mansabi, ayon –
Ona farzandlarin bir xil suymog‘i,
Bir xil ardoqlashi lozim har qachon.
Onam meni ortiq suydi begumon,
Xudoga yoqmadi bu gap singiljon. [2.29]

To‘rtinchi maktubning “Xudoga yoqmagan gap…” qismida esa lirik qahramon – aka aslida Xudoga yoqmagan gap onaning o‘g‘ilni ko‘proq suyishidir. Ko‘p davralarni ko‘rgan, ko‘p insonlar bilan suhbat qurgan o‘g‘il onasidagi mehrni boshqa joydan topmaydi. Unga yaqin tuyg‘u opada, singilda bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham shoir singlisini «munisim» deb ataydi.

Umuman olganda, to‘rtta maktubda ham o‘g‘ilning ona oldidagi burchlari, aks etgan. U yiroqdaligi bois bu burchlarini ado etolmaganligidan o‘kinadi. Shu o‘kinch-armonlarini yuragiga yaqin bo‘lgan singlisiga maktublar orqali to‘kib soladi. Shu jihatdan bu asarni maktub-doston deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қувватова Д.Х. XX аср иккинчи ярми ўзбек достончилигининг тараққиёт хусусиятлари. ДД. – Тошкент, 2016. – 265-б.
2. Шукур Қурбон. Сайланма: шеърлар, манзумалар, бағишловлар, тўртликлар, таржималар. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2011. – 296-б.
3. Axmedova H. H. Onaga bag‘ishlangan maktub-she’rlar//AYNIY VORISLARI. Xalqaro elektron jurnal. 3-4-son. – 99-104-betlar.



Muhabbat BORIYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

XX ASR RUS VA O‘ZBEK SHE’RIYATIDA TABIAT TASVIRI MASALASI

Annotatsiya: ushbu maqolada XX asr rus va o‘zbek she’riyatida tabiatga oid badiiy tasvirlar qiyosiy-tipologik tahlil qilingan (S.Yesenin va U.Nosir ijodi misolida)
Kalit so‘zlar: *she’riyat, zamonaviy adabiyot, poetik obraz, tabiat, estetika, mahorat.*
Аннотация: в данной статье представлен типологический анализ художественного образа природы в русской и узбекской поэзии xx века. (На примере произведений С. Есенина и У. Носира.)
Ключевые слова: *поэзия, современная литература, поэтический образ, природа, эстетика, мастерство.*
Annotation: in this article, a comparative-typological analysis of the artistic images of nature in Russian and Uzbek poetry of the 20th century (as an example of the work of S. Esenin and U. Nasir)
Keywords: *poetry, modern literature, poetic image, nature, aesthetics, skill.*

Kirish. Har bir davr she’riyati o‘ziga xos taraqqiyot davrini boshdan kechiradi va shoirlar ijtimoiy hayotning turli qirralarini qalamga oladi. Fikrimizni milliy she’riyatimizdagi mavzular olamining rang-barangligiga qaratdik hamda davrlar osha sayqallanayotgan mavzularga oid qarashlarni Usmon Nosir va Sergey Yesenin she’riyatining mavzular olami bilan bog‘liq holda tadqiq etishni maqsad qildik.

Usmon Nosir ijodida tabiat mavzusi ham o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Tabiat hodisalari uning she’rlarida badiiy

obrazlarga aylanadi. Insonning qalb kechinmalari, ruhiyat kengliklari tabiat tasviri orqali ochib berishga harakat qilinadi.

Tabiat manzaralari kishiga kuchli estetik zavq bag‘ishlaydi. Chunki har qanday inson tabiatning uzviy bir bo‘lagi bo‘lib, uning shaxs sifatida shakllanishida tabiat va tabiatga bo‘lgan munosabatning ham muayyan o‘rni bor. Tabiatdagi ilohiy intizom, uning buyuk tartib ichida, buzilmas muntazamlikda mavjudligi, tabiatning beadad qudrati har qanday odamda, ayniqsa, ta’sirchan qalb egalari - shoirlarda katta hissiyot uyg‘otishi shaksiz. Tabiat tasvirining betakror ifodasi jihatidan ham Usmon Nosir she’rlari diqqatga sazovordir. Uning she’rlaridagi tabiat tasviri lirik qahramon kayfiyatiga bog‘liq ravishda turli maqsadlarga xizmat qiladi. Usmon Nosir fasllarning, tun bilan kunning o‘zaro almashish daqiqalariga xos ilohiy belgilarni payqash, tuyish va ko‘rishga katta ahamiyat bergan. Nasrullo Davronning guvohlik berishicha, u quyosh chiqib, tong otishi manzarasini barcha bo‘yoqlari va nozik asarlarida foydalanish uchun daryo va ko‘l bo‘ylarida tong ottirgan. U shubhasiz, shunday qiziqish bilan kun botishi-yu oqshomning moviy ipak pardasining tushishini ham kuzatgan.

Shafaq – uzun lenta
Dengiz chetida…

Bu kun botishi ayon bo‘lgan lahzadagi manzara.

Shafaq o‘chay deb qoldi
Kaptar qonidek rangsiz…

Bu – o‘sha lahzaning davomi. Kun botishi jarayonidagi navbatdagi bosqich tasviri.

Oftob ham suv ichar
Tog‘lardan pastda.
Loladek qip-qizil
O‘t shafaq o‘chdi.

“Naxshon” dostonidan yuqorida keltirilgan parchada kun botishining ana shu uchala “bosqichi” ham g‘oyat mohirlik bilan tasvirlangan. Tabiat hodisalarining ana shunday nozik va sezilarsiz harakatini ko‘rib ilg‘agan va tasvir etgan shoirgina haqiqiy ijodkor bo‘lishi mumkin”

Usmon Nosir o‘z she’rlarida alangali tuyg‘ularni jilovlamas, dilida kechayotgan tug‘yonlarni sira susaytirmas, ichki kechinmalarini sof holda bayon qilar, inson ruhiy dunyosini po‘rtanalar ichida ko‘rsatardi.

O‘zbek she’riyatida tuyg‘ularni boricha, dolg‘ali ko‘rsatish an’anasi yo‘q edi. Milliy she’riyatimiz odob andisha qoliplaridan chetga chiqmaslikka urinardi va bu hech kim his qilmagan, ammo barchaga yod bo‘lib ketgan an’anaga aylanib ulgurgan edi. Usmon Nosir ana shu qoliplarni buzishga jur’at qilgan birinchi shoir bo‘ldi. Shoirning o‘z tuyg‘ularini:

Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o‘pmagan, kim tishlamagan?
Darding yoyday tilib ko‘ksidan,
Kim qalbidan qonlar to‘kmagan?

tarzida tasvirlashi miqyosi, ko‘lami va ta’sirchanligiga ko‘ra mislsiz poetik hodisa edi.

Shoirning: “Ilhomimning vaqti yo‘q selday keladi, Jalloddek rahm etmay dilni tiladi, Ayondir bir kuni aylaydi xarob” shaklidagi iqrori, ayni vaqtda, ulkan badiiy kashfiyot hamdir. Usmon Nosir she’riyatiga xos eng rangin xususiyatlar uning “Yurak”, “Nil va Rim”, “Monolog”, “Nasimaga deganim”, “Yana she’rimga”, “Begona”, “Yoshlik” singari o‘nlab bitiklarida yorqin namoyon bo‘lgan.

Usmon Nosir she’riyati hech kimga o‘xshamagani, she’rlarida shoirning tirik, otashin, isyonkor ruhi sezilib turishi bilan o‘zgachadir.

Rus mumtoz she’riyati insonda ona tabiatga muhabbat, o‘z yurtiga hurmatni shakllantiradi. O‘z ishini tabiatga, Vatanga va muhabbatga bag‘ishlagan shoirlardan biri Sergey Yesenin edi. Zamondoshlari Sergey Aleksandrovichni Pushkin shon-shuhratining munosib davomchisi deb bilishgan, ammo Pushkindan farqli o‘laroq, Yesenin qisqa umr va sirli o‘limga ega edi [1]. “Mening qo‘shiqlarim bitta buyuk sevgi bilan yashaydi, - degan edi Yesenin, Vatanga muhabbat, Vatan tuyg‘usi mening ijodimda asosiy o‘rin tutadi”. Yesenin she’rlarida nafaqat “Rus porlaydi”, shoirning o‘z sadolariga bo‘lgan muhabbatini sokin tan olishi, balki insonga, uning buyuk ishlariga, ona xalqining buyuk kelajagiga ishonchini ifodalaydi. Shoir she’rning har bir misrasini Vatanga cheksiz muhabbat tuyg‘usi bilan qizdiradi:

Men kulbalarga befarq bo‘ldim,
O‘choq olovi ham yoqmaydi menga.
Hatto olma daraxtlari ham bahorgi bo‘ron
Men dalalarning o‘zligini sevib qoldim.
Endi ular menga boshqacha yoqar...
Va oy nurida
Tosh va po‘lat orqali
Men ona yurtimning kuchin ko‘rarman.

Ajoyib mahorat bilan Yesenin bizga o‘z ona tabiatining rasmlarini ochib beradi. Naqadar boy ranglar palitrasi, naqadar to‘g‘ri, ba’zan kutilmagan taqqoslashlar, shoir va tabiat o‘rtasidagi birlik hissi! Uning she’riyatida A. Tolstoyning so‘zlariga ko‘ra, “hayolparast, beparvo, tabiat ovozidan sirli hayajonlangan slavyan qalbining ohangdor sovg‘asi” eshitiladi. Tongning yorqin ranglarida, momaqaldiroq bilan qoplangan osmonda, eski o‘rmonlarda, dalalarda, gullab - yashnagan gullar va ko‘katlarda bir sir bor... Yesenin chuqur hamdardlik bilan hayvonlar haqida yozadi – “bizning kichik birodarlarimiz”. M. Gorkiyning Yesenin bilan uchrashuvlaridan biri va uning “It qo‘shig‘i” she’ri haqidagi xotiralarida quyidagi so‘zlar eshitiladi: “... va u oxirgi satrlarni aytganida:

Itning ko‘zlari aylanib ketdi
Qordagi oltin yulduzlar –

Uning ham ko‘zlarida oltin yosh bor edi”

Bu misralardan so‘ng beixtiyor o‘ylash mumkinki, S.Yesenin tabiat tomonidan faqat she’riyat uchun yaratilgan emas, balki “dalalarning bitmas-tuganmas g‘amini, dunyodagi barcha jonzotlarga muhabbat va rahm-shafqatni ifodalash uchun yaratilgan zotdir”.

Yesenin tabiati muzlab qolgan landshaft foni emas: u yashaydi, harakat qiladi, odamlar taqdiri va tarix voqealariga ishtiyoq bilan munosabatda bo‘ladi. U shoirning sevimli qahramoni. Tabiat har doim Yeseninni o‘ziga jalb qiladi. Ayniqsa, sharq tabiatining go‘zalligi, mayin shamoli shoirni maftun etadi:

Sheroz qanchalik go‘zal bo‘lmasin,

Ryazan kengliklaridan yaxshiroq emas.

Yesenin she’riyati... Ajoyib, go‘zal, betakror olam! Hammaga yaqin va tushunarli dunyo. Yesenin Rossiyaning haqiqiy shoiri, xalq hayoti tubidan o‘z mahorati cho‘qqisiga ko‘tarilgan shoir. Uning vatani - Ryazan o‘lkasi uni oziqlantirdi va sug‘ordi, barchamizni o‘rab turgan narsalarni sevishni va tushunishni o‘rgatdi. Bu yerda, Ryazan zaminida, Sergey Yesenin birinchi marta she’rlarida kuylagan rus tabiatining barcha go‘zalligini ko‘rdi. Shoir hayotining ilk kunlaridanoq xalq qo‘shiqlari, rivoyatlari olami bilan o‘ralgan edi:

O‘t ko‘rpada qo‘shiqlar bilan tug‘ilgan bo‘lsam,

Bahor shafaqlari meni kamalakka aylantirdi.

Yesenin she’riyatidagi ma’naviy shaklda xalqning o‘ziga xos xususiyatlari – uning “bezovta, dadil kuchi, qamrovi, samimiyligi, bezovtaligi, chuqur insoniyligi yaqqol namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uning butun hayoti xalq bilan chambarchas bog‘liqdir. Balki shuning uchun ham uning barcha she’rlari bosh qahramonlari oddiy odamlardir, har bir satrda shoir va shaxs – Yeseninning rus dehqonlari bilan o‘zaro yaqinligi, yillar o‘tgan sayin zaiflashmagan aloqasi seziladi [3]. Sergey Yesenin dehqon oilasida tug‘ilgan bo‘lib, “Bolaligimda xalq hayoti muhitidan nafas olib ulg‘ayganman”, deb eslaydi shoir. Zamondoshlari tomonidan Yesenin “buyuk qo‘shiq qudrati” shoiri sifatida qabul qilingan, boisi esa uning she’rlari silliq, sokin xalq qo‘shiqlariga o‘xshaydi. To‘lqin, kumushrang oy, qamish shitirlashi, osmonning ulkan moviyligi va ko‘llarning moviy yuzasi – ona yurtning barcha go‘zalliklari yillar davomida shoirning muhabbatga to‘la she’rlarida mujassamlashgan.

Usmon Nosir va Sergey Yesenin she’riyatida nafaqat tabiat, balki boshqa mavzular ham juda topqirlik, zukkolik, iste’dod va mahorat bilan yozilgani namoyon bo‘ladi. Shoirlar she’rlarida olam va odamlar orasidagi munosabatlar hamisha diqqat markazida ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa. Darhaqiqat, tabiatning go‘zalligi, qudrati, buyukligi, pokizaligini tasvirlashga bag‘ishlangan she’rlar miqdori juda ko‘p va shunday bo‘lishi tabiiy ham. Chunki har qanday odamning ko‘nglida, xatti-harakatida ijtimoiy manfaat, shaxsiy foyda bo‘lishi mumkin. Tabiat esa odamdan hech narsa qarzdor emas. Aksincha, odam unga har jihatdan burchli. Shuning uchun ham shoirlar o‘z tuyg‘ularini tabiat vositasida ramziy, majoziy ifoda etish imkoniyatiga egadirlar. Tabiat hech kimni aldamaydi va uni aldashlariga ham yo‘l qo‘ymaydi. Shu jihatdan tabiat lirikasi milliy she’riyatimizning samimiyat qaror topgan, shoirlarimiz mahorati yorqinroq namoyon bo‘ladigan jabhasidir, deyish mumkin.

Usmon Nosir va Sergey Yesenin uslubiga xos jozibadorlik, jo‘shqinlik, badiiy ranglarning quyuqligi, nafis chizgilar o‘zbek tilining go‘zalligini namoyish etadi. Uning peyzaj she’rlarida go‘zal tabiat manzaralari, dengiz sohillari, bepoyon ufq ranglari, keng osmon, asov to‘lqinlarning hayajon bilan tasvirlanganini ko‘ramiz. Shoir chizgilari goh nafis, goh quyuq ranglarga chulg‘anib, uning o‘y-xayollari, his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlik hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. 4-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. 15-bet.
2. Jadid adabiyoti namoyondalari. 2022. Usmon Nosir. Toshkent: Zabarjad media. Karimov N. Iste’dod yolqini. O‘zAS. 1999-yil. 22-oktyabr. 43-son.
3. Karimov N. Shoirning so‘nggi qo‘shig‘i. O‘zAS. 2002-yil, 9- oktabr. 33-son. Karimov. N. Katta Iste’dod yulduzi so‘nmas yulduzlardan biri bo‘lsa ajab emas, Yangi O‘zbekiston gazetasi.
4. Усмон Носир. 1969. Танланган асарлар. Икки томлик. II том. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.
5. Усмон Носир. 1984. Юрак. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.
6. Xurshid Serobov. Usmon Nosir. – Toshkent: Ma’naviyat, 2022.
7. S.A. Yesenin asarlari. // Moskva, Badiiy adabiyot, 1988.
8. 2. E.M. Xlystakov. Noma’lum S. Yesenin. // Moskva, Badiiy adabiyot, 1990.
9. 3. A.L. Kazakov. Yesenin qanday yashagan. // Moskva, Badiiy adabiyot, 1991.
10. 4. I. Listsov. S. Yeseninning o‘ldirilishi. // Moskva, Yosh gvardiya 1990.
11. 5. I. Erenburg. Yeseninning o‘limi // Moskva, Badiiy adabiyot, 1990.



Oqiljon MAVLONOV,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani faxriy ustoz

BU DAMKI KO‘Z SAVODIDIN QARO KO‘ZDIN DAVOTIM BOR... YOXUD UL NE KO‘ZDURURKIM ERUR NOZ-U KARASHMA JOMIDIN

(Adabiyot muallimlari e’tiboriga taqdim)

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibidagi “ko‘z”, “qaroko‘z” so‘zlari ishtirok etgan ayrim baytlari tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo‘shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo‘shildi.

Kalit so‘zlar: *mardum, mardumkush, qarog‘, maxmur, fan qilg‘il.*

Yuzu **ko‘z**ungda muayyan kamoli sun’i iloh,
Ne yuzdurur bu, ne **ko‘z** lo iloha illalloh.
Jamoling oyina “vashshams” ko‘zgusi nozil,
Ko‘zung qarosiga mo zog‘ surmasi hamroh.

Hazrat Navoiyning ko‘z borasidagi tasvirlariga munosabat bildirish uchun shoir o‘zlari ta’kidlaganlaridek muxlis “Ko‘z qarosiga mozog‘ surmasi hamroh” bo‘lgan bu turkiy qora ko‘z masalasini “fan” darajasida bilishi va o‘shal ko‘z lavhida mardum kabi o‘rnashishga to‘g‘ri keladi.

Qaro ko‘zum, kel-u mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Sohir shoir ijodida ko‘z ta’riflari shu qadar kengki, u haqida nuktadon yakunlar berish uchun kishi ziyrak navoiyshunos olim bo‘lmog‘i shart. Men bir oddiy qishloq muallimiman, lekin shunga qaramay taxayyul sultonining ko‘z haqidagi qarashlariga baholi qudrat o‘z munosabatimni bildirib, uni hamkasb muxlislar bilan o‘rtoqlashmoqchiman.

Ul ko‘zki dame **bo‘lmadi sog‘**, ey qaroko‘z,
Qonimdin ichar mudom **ayog‘**, ey qaroko‘z.
Bilmonki anga erur **qarog‘,** ey qaroko‘z,
Yo mast edi qo‘ydi toza dog‘, ey qaroko‘z.

Shoir qorako‘z diydasiga chizgilar berar ekan, negadir sariq, jigarrang, ko‘k yoki moviy ko‘zli yorni emas, balki aynan lo‘livash, lo‘libachcha kabi qora ko‘zli masturni aks ettiradilar. Balki buning tub ildizi mentalitetimiz (o‘zbekchiligimiz) dadir. Ehtimol, qosh qaro, kiprik qaro bo‘lgach, so‘zsizki, ko‘z mardumagi ham, albatta, qaro bo‘ladi-da, degan mantiqiy tadrijdadir:

Yo‘qi **ul ko‘z qarodur, husnung aro**, ey qaroko‘z,
Kim qoshing dog‘i erur asru qaro, ey qaroko‘z. (I-218-g.)

Shoir she’rlarini kuzatsak, u kishi ko‘z timsolini tavsiflar ekanlar, uning jamolidagi dominant belgi qoralik, nuqtabinlik, sirli-botiniy mengvashlik, ta’bir joiz bo‘lsa, g‘oyibiy-botiniy basiratni jamlovchi bir qora “nuktadonlik” ramzi sifatida ko‘radilar. Hatto, ayrim o‘rinlarda bu ham kamlik qilib turk-u tojik nigohli ko‘z “portreti”ni ham chizadilar. Shoirning ko‘z borasidagi g‘oyasini qisman isloh bilan balki shunday tavsiflash o‘rinli:

Lavhi ko‘zungda (safhai husnungda) haq sirrin ko‘rar ko‘nglum ayon…

Zakiy taxayyul piri xalqdagi: “U ko‘zing bu ko‘zingga do‘st bo‘lmaydi”, iborasini ham yodda saqlab ko‘p o‘rinlarda bir yuz (jamol)dagi ikki ko‘zning biri: fatton, hiylagar, qiyo boquvchi, ishvali, lo‘livash sehrgar, sho‘x isyonkor, g‘amzador, jilvakor, g‘amzakor buloq, ohuxuyligi kabi maftunkor sifatlari bilan oshiq qalbini o‘ziga rom qiluvchi, jalb etuvchi makkora va ayyor obrazligini, bu sirlilik jozibasi xayolni o‘g‘irlab, shu nozli jazb oshiq ko‘nglini tortsa, bu bir sho‘x diyda dom ilinjiga ko‘z tutsa; ikkinchi ko‘z qarog‘i esa shu vaqtning o‘zida o‘zining: suroni, qat’iyati, vajohati, sitamkorligi, kofirligi, yaxnigohligi, shaxdi, tortinmasligi, xunxo‘rligi, qassobligi, qattolligi kabi diydasining qattiq nigohlarini oshiq (yurak) bag‘riga “ko‘zi bor” mardumdek suqlanib boqishi, diydasitosh raqibdek oshiq qoniga mutassil ko‘z tikishi singari xunxo‘r badfe’lligi bilan mashhur bir jallodnigoh, basiratkush, qotilqad timsol tarzida nigohlarimizda gavdalana di.

Navoiy ijodidagi ko‘z timsoli ma’ni sanog‘i va o‘lcham ko‘lami nihoyatda keng. Bu tasvirlar salmog‘i shoir bosh mavzusi – Yor obrazi bilan chambarchas bog‘liq. Shoir har bir asarida ma’shuqa timsolini berar ekan, hayotiy-badiiy mantiq taqozosi bilan manzur qomati tasviri o‘z-o‘zidan yuzaga chiqadi. So‘ng yuzning juz’iy qismlari: jabin, zaqan, qosh, kiprik, qaboq, ko‘z, yanoq, o‘g‘iz, lab, dahan, zanax, zanaxdon, g‘abg‘abi kabi husn belgilariga o‘tadi. Shoir uchun an’anaviy timsol bo‘lgan ko‘z tasviri deyarli ko‘p g‘azalda uchraydi. Ularda shoir yor ko‘zi “portreti”ni turli rakurslardan qarab har gal bu qora aynning har xil xususiyatlariga shtrixlar berishga erishgan. Agar Ko‘zning individual tasvirlariga to‘xtalsak, “Xazoyin ul-ma’oniy” kulliyotining birinchi

devoni: “G‘aroyib us-sig‘ar” dagi 121-, 216-, 218-, 257-, 371-, 416-, 434-g‘azallarda “ey qaroko‘z”, “ko‘z” radiflari bilan ko‘zning kayxoniy tasvirlari guvohi bo‘lsak, ikkinchi devon: “Navodir ush-shabob” ning 220-, 221-, 399-g‘azallari ham to‘liq ko‘z obraziga bag‘ishlanganligini kuzatamiz. Shoir 135-g‘azalda ko‘z qorasining ko‘z kosasida lo‘libachchadek yugurdaklab turishidan foydalanib qochirimli chiroyli tasvirlar yaratadi:

Ko‘z uchi birla boqting-u qiyding Navoiy ko‘nglini,

Bilding onikim bir **qiyo boqmoqqa** hojatmand erur.

Xalqdagi: “ko‘z qiri bilan qaramoq”, “ko‘zim qiymayapti”, “bir qiyo boqmog‘i jon olur” kabi iboralarning barchasidagi ma’no qatlarini ustalik bilan bir maqta’ ichiga joylaydilar. Hatto, “ko‘z ila qiymoq” iborasidagi ma’nodan paradoksli mazmun yasab, qiyib bo‘lmaydigan qizg‘anishdan qiyib olish (uzish, kesib olish) kabi yangi ma’no yaratadi. Ko‘z uchi bilan boqib ko‘nglimni parkandlading. Odatda, deyarli ko‘p tasvirlarda shoir oshig‘i ma’shuqaga bir boqishda uning nigohlaridan chiqayotgan chaqmoqdek chaqin, g‘amzali boqish, noz-u karashma novaklaridan bag‘riga o‘t tushadi, yaralanadi.

238-g‘azalda shunday chizgilar mavjud:

Navoiy ko‘zlarining mardumidin javri qon to‘kti,

Darig‘ ul sho‘xi mardumkushki, mardumdorlig‘ bilmas.

Yoxud II-644- g‘azalda esa bunday :

Husnig‘a boqtim ko‘zumning mardumig‘a urdi nesh,

Mohvashim oyini mardumdorlig‘ bilmas netay ?

Shoir ko‘z qorachig‘i ma’nosida keluvchi mardum so‘zidan mardumkush (bandaqotil), mardumdorlig‘ (muloyimlik) singari bir-biriga antonim – zid ma’noli so‘z yasamoqdalar. Keltirilgan iqtiboslardan aniq ayon bo‘lmoqdaki, Yor MULOYIMLIK shevasidan mutloq yiroq (olis) ekan…

Yuqorida “Qaro ko‘zum” g‘azali matla’sida kelgan ko‘z qarosida vatan yasash niyati ham shoir ijodida bot-bot takrorlanib turuvchi oshiq orzusi:

504-g‘azal: Qaro menging bila qadding xayoli kelsa, vatan

Munga ko‘z ichra yasay, anga jon aro qilayin.

437-g‘azalda ham vatan tutmoq, ya’ni mardum o‘rnini egallamoqdan so‘zlanadi:

Ko‘zumda ul oy mardum o‘rnini tutti, Savodin aning davrig‘a hola qildim…

Shoir ijodida ko‘z gavharining mardum – qorachiq va mardum – odam ma’nosida qo‘llanishidan foydalanib ma’no tuslarini yaratish jarayoni juda keng qo‘llanilganligi ko‘zga tashlanadi. I -487-g‘azalida shunday:

Ko‘zda mardum bo‘l, ko‘ngulda jon yerin tut , vah necha

Ko‘zni mushtoq-u ko‘gulni orzumand aylayin .

115-g‘azalda mardum va odam so‘zlari yonma-yon:

Ko‘zumning mardumi odamdurur go‘yo qaro bo‘lgan,

Bu yoshlarkim bo‘lur zoyanda andin barchasi farzand.

578-g‘azalda gavharlari ichida vatan tutmoq ma’nosida uchraydi:

Ko‘ngluma xoling xayoli kirsa mardumluq qilib,

Ko‘z uyida ani mardumlar ichinda asratay.

Endi shoir ijodida ko‘zning turli sifatlari, turli holatlari tavsiflangan baytlarni kuzatamiz:

Futamu urmish ko‘zumning mardumi qon yosh aro,

Yo yoshurmish ul qaro ko‘z orazin gulgun parand. (116-g‘azal.)

Zulf aro sayd aylamak istar ko‘ngullarni ko‘zung,

Shab shikor ul nav’ikim qilg‘ay kelibon qora sayd. (111-g‘azal.)

Sayd o‘ldi ko‘ngul ko‘zlaringa vah qutulurmu,

Bir qushki aning qasdida bo‘lg‘ay iki sayyod. (118-g‘azal.)

Ko‘ngulni ko‘zlaring oldi, ne tong iki bo‘lmak,

Bir ahli dinni iki mast kofir etsa asir. (145-g‘azal.)

Chun vafosizdur qaro ko‘zlar sanga ham, ey ko‘ngul

Mumkin ermasdur ul ko‘zi qaro qilg‘ay vafo. (39-g‘azal.)

Berib erdi iki kofir ko‘zung qatlim uchun va’da ,

Hamon ayni usrukdin ul ishi unutmishlar,(136-g‘azal.)

O‘ynay - o‘ynay o‘lturur bir-bir ulusni ko‘zlaring,

Sho‘x qotillarni jonlar qasdig‘a o‘ynatma ko‘p . (I-63-g‘azal.)Naqdi jon istab meni qiynasa kofir ko‘zing ,

Netkamen bermaykim ul turk mastedur avon. (444-g‘azal.)

Ko‘zlaringkim turku tojik o‘ldi ko‘nglum mulkida,

Zulm etar ul nav’ikim bir kishvar ahliga chug‘ul. (368-g‘azal.)

Bag‘rimni qiyo boqmoq ila qiymog‘idindur,

Yo ayni takabburdin erur ko‘zlari qiymoch.(100-g‘ azal.)

Shoir ijodida ko‘z qorasini qarog‘, diyda, mardumak tarzida tasvirlanish hollari ham bor:

Qarog‘larim emastur, balki topqach ko‘zga qoq mishmen,

Istardin vahm etib raxshing sitomin, balki mismorin.(489-g‘azal.)

Qilmasa ravshan jamoling ta’masi ko‘z mardumini,

Qo‘yma ul yuzi qaroni diydai ravshan aro. (30-g‘azal.)

373-g‘azalda esa mardumak shaklida aks ettiriladi:

Lafz yo‘q, har harfi jon hizri, dog‘i har nuqtasi,

Mardumak yanglig‘ biaynih ko‘zga matlub, ey ko‘ngul.

Shoirning o‘zlari e’tirof etib ta’kidlaganlaridek:

Gar Navoiydek boshingg‘a tushsa bir qotil g‘ami,
Anda dog‘i ko‘rgasen ne bo‘lsa qismat, ey rafiq. (321-g‘azal.)

Shoir fikricha oshiqqa bu foniy olamda keluvchi barcha fitna, g‘am, sinov va balo ko‘z tufaylidir.

Oshiq o‘ldurmakka ul ko‘zdek baloye ko‘rmaduk,
Yo‘qsa oshiq bo‘lg‘ali olamda ko‘p ko‘rduk balo.(II-29-g‘azallar.)

Ul ne ko‘zdirurkim,erur nozu karashma jomidin,
Bo‘lsa maxmur – ofat, ammo bo‘lmog‘i o‘sruk – balo. (29-g‘azal.)

Buki yuz ming fitnako‘zliq bo‘lsa paydo onsizin,
Qilmog‘um nazzora hargiz ko‘zi fattonimg‘a ayt. (II-85-g‘azal.)

Endi siz bilan olib borayotgan kichik kuzatishlarimizdan so‘ng yuqoridagi “Qaro ko‘zum” g‘azali matla’siga biroz to‘xtalsak. Ushbu g‘azal juda ko‘plab adabiyotshunos, navoiyshunos hamda men kabi muxlis navoiyxonlar tomonidan tahlil qilingan. Hammasining ham o‘z o‘rni, o‘z tarovati bor… Men ham 1994-yildan buyon to‘rtta ommabop tahlillarimni matbuotga olib chiqqanman. Ular ilmiy yoki akademik tahlil emas, shunchaki muxlislik ishtiyoqi… Ushbu g‘azalga bag‘ishlangan sharhlar ichida, menimcha, eng ilmiy va badiiy saviyasi komilrog‘i deb Najmiddin Komilov ustozning hamda marhum tadqiqotchi Ismoil Begjonovning chiqishlari degan yakunga keldim… Siz hamkasblarga ham uni bir o‘qishni tavsiya qilaman...

Endi mana shunday o‘n beshdan ortiq kuchli sharhlardan o‘ttirib yangi bir qarashni kashf etib bo‘lmaydi. Biz kabi navoiyxon muxlis adabiyot muallimlari uchun ba’zi fikr va izohlarimni bildiraman. Yuqorida ko‘z qarog‘ining mardum deyilishi, uning ikkinchi ma’nosi odam, kishi ekanligi borasida ham ma’lumotga egasiz. Bu so‘zning shu ikki ma’nosi Najmiddin ustoz maqolalarida juda batafsil bayon qilingan… Misra boshidagi “sifatlovchi sifatlanmish” tarzida bitilgan: qaro ko‘zum birikmasi tarkibidagi -um egalik qo‘shimchasi biror narsaning birinchi shaxsga tegishliligini ifodalovchi, adabiy tilimizdagi -im dir. Bu yerda predmetning shaxsga tegishliligidan tashqari, o‘sha ashyodan faxrlanish, g‘ururlanish ma’nolarini ham urg‘ulamoqda. Masalan: mening uyim, mening Vatanim, mening bayrog‘im birikmalaridagi singari… Turli rangga ega ko‘zli manzurlar ko‘p, biroq ular ichra shoir (oshiqqa)ga yoqqani qora ko‘zli ma’shuqa ekanligini ishonch va faxr bilan aytish. Demak, bu undalma oshiqning mana shunday tuyg‘ularini berishga yordamlashuvchi kalit birikma ekan.

Kel-u so‘zi tarkibidagi -u yuklamasi mantiq va vazn o‘lchovini to‘ldirish maqsadida joylangan bo‘lsa-da, shu bir harfdan iborat yuklamaga: “kelgin-da, tezroq kelsangchi, ko‘pdan buyon kelmaysan, kelishingga mushtoqman, kelishingni sabrsizlik bilan umid qilmoqdaman, tashrifing orqali ko‘zum qaro gavharida o‘z o‘ringni tutmog‘ingni kutmoqdaman” kabi bir qancha ma’no qatlamlari yuklanganligini his qilamiz. Shu mazmunni yanada yuksaltirish, kuchaytirish niyatida so‘nggi: emdi (endi ravishi) so‘zi ham olib kirilgan. Bu so‘z shunday o‘rinli va mohirlik bilan joylashtirilganki, misrada ifodalayotgan ma’nosi bilan oshiqning yuqoridagi hissiyotlari ko‘lamini yanada chuqurroq ochishga yordam bermoqda. “Emdi” orqali oshiq kutish sabrining haddi a’losiga yetayotganini, toqat oxirlayotganini, bundan buyog‘iga yechim faqat insoniylik (mardumlig‘…) ekanligiga urg‘u berish maqsadida qo‘llanilayotganligini idrok etamiz. Mardumlig‘ni fan etmay shuncha yurding, buyog‘iga bo‘lar “emdi”… demoqdalar. Oshiq ilinjiga ko‘ra bu “mardumlig‘” shunchaki bir galga yaraydigan odamiylik iltifotigina emas, uni tushunib, chin dildan, ma’nan anglamoq orqali uzluksiz qilinishi umidi kutilayotgan bir yor e’tibori, e’tirofi darajasidagi odamoxunlik, odamshavandalik, odamvashlik, muloyimlik maqomidagi munosabatni orzulayotgani ayonlashmoqda. Bu fazilatdan oz xabardor bo‘lsa, uni uddalay olmayotgan bo‘lsa chuqurroq o‘rganib mardumdorlik fani darajasida bilmog‘ini so‘ramoqda. Shoir boshqa bir g‘azalida aytganlaridek “mardumlig‘ fani” faqat insonlargagina xos fazilat hisoblanadi:

Ey ko‘ngul, huri pari vasfin eshittim, go‘yiyo:
Hech qaysi odamlig‘da emas insoncha xo‘b. (11-43-g‘azallarda)

Chunki hur, pari va malaklar mardumlig‘ fanidan mosuvo, ular “inson emas”. Agar sen hur malak yoki pari paykari bo‘lmasang, bilki: “kimiki insondur uning mahbubi ham inson (bo‘lmog‘i) kerak”. Shu bois sen “mardumlig‘”ni fan qil. Sababki bu olamda: “Hech qaysi (jins) odamlig‘da emas (ekan) insoncha xo‘b”.

Endi misra tarkibidagi “fan qilg‘il” birikmasiga ozgina izoh bersak, bu so‘z ham shoir ijodida ko‘p uchraydi. Biror mavzu yoki muammoni to‘liqroq o‘rganish, masala ichiga kirib borishga da’vat etish maqsadida keluvchi birikma. Masalan, g‘azallarni kuzatsak:

Ey ko‘ngul, qo‘yg‘ilki, mundin so‘ng gadolig‘ fan qilay,
Ko‘yida bu fan bila bir yo‘li boshin maskan qilay. (620-g‘azal)

To‘karsan qon ko‘zing birla, berursan jon so‘zing birla,
Ajoyib zufnuni senki, har fan ichra sen yakfansen. (488-g‘azal)

Ko‘rinadiki biror soha, ilmlar, fazilatlar yo‘nalishi, ularni mukammalroq egallab olganligini e’tirof etuvchi so‘z sifatida qo‘llanar ekan.

Endi misradagi vatan so‘ziga kelsak, bu bugungi kundalik muloqotimizda ko‘p uchrovchi uy-joy, boshpana, o‘rin, maskan, manzil, istiqomat o‘rni kabi ma’nolarda keluvchi: Vatan, oshyon mazmunini beruvchi leksik birlik. Bu so‘z shoir ijodida juda ko‘p qo‘llanuvchi faol so‘zlardandir. Maqola hajmini hisobga

olib unga iqtiboslar berishdan tiyildik. Shu kichik tadqiqotlarimizdan so‘ng g‘azal matla’sining nasriy bayonini chiqaramiz:

Ey qora ko‘zli pari, kelgin-u qarshimda pari-paykari tarzida emas odamlig‘ (mardumlig‘) ni fan darajasida odat etgan (to‘kisroq, batafsil) o‘rgangan, yor (qiz) sifatida gavdalan. (1-misra)

Ko‘zim qorachig‘idan (mardum o‘rnini) odamvashlig‘ mardum qizdek o‘z siymong (timsoling) o‘rnini topsang (egallasang) edi. (2-misra) Ko‘rinadiki, “Ko‘zumda ul oy mardum o‘rnini tutti” (I-437-g‘azal) bilan birga-bir muqobil mazmunda ekan.

Shoir yan bir g‘azalida shunday yozadi:

Sirishk qonin ayog‘ing uchun hino qilayin,

Qabul tushsa, qarog‘im ezib qaro qilayin. (1-504-g‘azal)

Qon kabi qizil-gulgun ko‘z yoshlarimni ayog‘ing uchun hina qilsamu, ma’qul kelsa, qarog‘imni ezib qaro bilan zeb berayin, deyaptilar. Har bir she’rda shoirning ma’lum subyektiv munosabatlari ham o‘z aksini topishini nazarda tutsak, balki shoirning o‘z ko‘zi qarog‘lari ham chindan-da, qaro bo‘lgan bo‘lsa ajab emas… Voqean, iqtiboslarni saralash jarayonida meni o‘ziga gavhardek jalb etgan bir baytga ham to‘xtalmoqchiman. Bu misralar Navoiyning o‘ta sinchkov va ziyrak inson ekanliklaridan dalolat beradi…

Tong emas ul nuqta gar ko‘zdin nihondur,vah ne tong,

(O‘z) Mardumin ko‘rmakligidin ko‘z agar mahrum erur. (167-g‘azal)

Har qanday kichik voqelik ham ko‘z nazaridan qochib qutulolmaydi, uni ilg‘ab turadi-yu, ne tongki, Ko‘z o‘z mardumini (gavharini, qorachig‘ini, mardumagini) ko‘rmakligidin mahrum, mosuvo ekanligi ta’kidlanayotgan bu bayt yana bir narsani yodimga soldi. Taxminan 1995-yillarda G‘azzoliyning “Kimiyoi saodat” asarining muxtasar shakli chop etilgandi, (shundami yoki boshqa bir asaridamidi, hozir xotira pand berdi-yu, lekin…) u yerda gap ko‘zning ijobiy yutuq hamda kamchilik (nuqson)lari borasida edi. O‘sha yerda ko‘z qusurlaridan ayrimlari: ko‘z hamma narsani ko‘rishi, biroq o‘zini, o‘z qarog‘ini ko‘rolmasligi; o‘ziga juda yaqin va o‘ta olisni; ko‘z parda orqasini; jismning ich tuzilishini; bir paytda borliqning barchasini ko‘ra olmaslik kabilar ekanligiga to‘xtalingandi. Shoirning yuqoridagi bayti shunga ham ishora bermoqdaki, zukko shoir o‘zidan avval yashagan olimlar asaridan atroflicha xabardor bo‘lgan ekanlar…

Erur ko‘ngulda safo ishq toza dog‘i birla,

Nechukki ko‘zda yorug‘liq erur qo‘rog‘i bila . (I-556-g‘.)

Xullasi kalom, Navoiy ko‘zning qoraligiga urg‘u berar ekanlar, o‘zlari e’tirof qilganlaridek qora muborak rang, u mukammallik, salobat, sirlilik, ilohiylik ramzi. Mahmud Shabustariy: “Ko‘z quyoshga tikilsa qamashadi, so‘ng qorayadi, hech narsani ko‘rmay qoladi. Ammo sen shuni bilg‘ilki, qorong‘ulik Tangri zotining nuridir. Obihayot shu qoralik ichindadir”, – deydi. Navoiy ham xuddi shu fikrni quyidagicha nazmiy ifodalaydilar:

Ko‘zum yoshim-u oqib, ul quyosh sari chu boqib,

Yo‘q ersa tobidin oning ko‘zumg‘a termu oqib… (II-63-g‘.)

Demak, shoir qosh, ko‘z, kiprik va xolning qoraligiga e’tibor berishi, bunday tasvir va ta’riflar ishtiyoqining ko‘lamliligi boisi ham shunda bo‘lsa ajab emas… Shu kungacha shorihlarni qiynab kelgan savol: “Nega qora ko‘zli yor “mardumlig‘”ni fan darajasida o‘rganishga chorlanmoqda?” degan masala bo‘lgan… Bari javob shoirning o‘zlarida ekan… Barisi oddiy va tabiiy ekan… Bu baytni tasavvufga bog‘lamasa ham, javob chiqaverar ekan-ku, biz shoir g‘azaliyotidan uzilib qolib, najotni so‘fizmdan qidirgan ekanmiz… Qorako‘zni o‘zimizcha pirga, maloikaga, ilohiy Xilqatga mengzabmiz. Shoirning ko‘z tasviriga oid ta’riflarini kuzatib ikki ko‘zning biri doim oshiqqa yomonlik istashi, yuz ming fitna: “to‘karsan qon ko‘zung birla”, xunxo‘r kofir, “oshiq o‘ldirmakka ul Ko‘zdek balo”, “anda dog‘i ko‘rgasen ne bo‘lsa qismat” shu fatton “ko‘zlarning mardumidan javri qon to‘kib” yaxnigoh sho‘x mardumkushdan “bir qotil g‘ami boshg‘a tushib” DILOZORLIK qilsa, siz ham, albatta, uning sohibasidan ulkan fan darajasidagi mardumdorlik (muloyimlik), mardumlig‘ (insoniylik) umidi talab qilasiz-da…

Kuzatishlarimizdan yakun shuki, Navoiy ijodida ko‘z timsoli yuz, qad, zulf, lab, so‘z va og‘iz singari an’anaviy obrazlarning yetakchisidir. Bu gal maqolamizda ko‘pgina iqtiboslar berish yo‘li bilan ko‘proq shoirning o‘zini “so‘zlatish”ga harakat qildik. Agar siz ziyrak hamkasblarga ayrim misralardagi ba’zi so‘zlar sabab ma’no u qadar ochiqlanmay qolgan bo‘lsa, mana sizga tayyor sitatalar manbayi. Qo‘lingizga “Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at” (– Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1993)ni olib ozgina izlanish qilsangiz, o‘sha so‘zlar bir umr xotirangizga o‘rnashadi. Bundan faqat o‘zingiz manfaatdor bo‘lasiz, qadrli yosh navoiyshunos dilbandlar.

Manga ul ko‘zi qaro dedi: “Chuchuk chandin so‘z?!”

Ne ajab oni qorako‘z desammu yo shirin so‘z?” (219-g‘azal)

Gar ko‘ngullarni jaloyi vatan istar bo‘lsang,

Yesh tugunlarniyu zulfungni tara, ey qaroko‘z. (I-218-g‘.)

Xulosayi sharh shuki, hazrat Navoiygacha bo‘lgan va u kishidan so‘ng ijod qilishgan hech qaysi mumtoz adabiyot vakillari orasida yor ko‘zini kayhoniy timsol darajasiga olib chiqqan ijodkor mavjud emas. Navoiy yor ko‘zi timsolini shunchalar mehr, e’tibor va e’tirof bilan tasvirlaydilarki, bu obraz shoirning eng erka, suyumli, tantiq va tansiq timsoliga aylanib, doim shoir diqqat markazidan o‘rin olgan. Uni chashm, qora ayn, qora sayd, qarog‘, gavhar, hatto “oq uy o‘g‘illari” deya erkalab, sevib, o‘ziga yaqin olib e’zozlab tarannum

qiladilar. Yor ko‘zini: ohuko‘z, ko‘z oshiyoni, ko‘z uyi, ko‘z xonasi, ko‘z savodi, ko‘z novaki, ko‘z izi, ko‘z sha’mi, ko‘z bahri, ko‘z juybori, ko‘z gavhari, ko‘z bog‘i, ko‘z davoti, ko‘z xubobi, ko‘z sirri, diydai tar, ko‘z mulki, ko‘z lavhi singari bir-biridan da’qiq nuktadon tasvirlar ila so‘ngsiz mehr bilan chizgilar berganlar.

Chekib ko‘zdin yozay bir xatki ,dahr ahlig‘a ko‘z solmay ,

Bu damki ko‘z savodidin qaro ko‘zdin davotim bor…(I-133g‘.)



Nasiba JAVLIYEVA,
Qashqadaryo viloyati Koson tumani
66-umumiy o‘rta ta’lim maktabi 2-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

O‘QUVCHI VA O‘QITUVCHI HAMKORLIGI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya: boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanishning o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligida pedagogik ahamiyati xususidagi hamda didaktik o‘yinlarni dars jarayonlarida faol qo‘llash o‘qituvchilarga o‘quvchilarining tarbiyasida erishishi ko‘zda tutilgan maqsadlari haqidagi fikr-mulohazalar mazkur maqolaning mazmunini boyitishda aks ettirildi.

Kalit so‘zlar: *didaktik o‘yin, didaktik o‘yinning amaliy ahamiyati, zamonaviy usullar, boshlang‘ich ta’lim, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi, ona tili va o‘qish savodxonligi, o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi.*

Аннотация: что касается педагогической значимости использования дидактических игр в сотрудничестве ученика и учителя на уроках родного языка и грамотности чтения начальных классов, а также активного использования дидактических игр в учебном процессе, учителя могут добиться большего в образовании своих учеников. Мнения о поставленных целях нашли отражение в обогащении содержания данной статьи.

Ключевые слова и фразы: *дидактическая игра, практическое значение дидактической игры, современные методы, начальное образование, учащийся начальных классов, родной язык и грамотность чтения, сотрудничество учителя и ученика.*

Annotation: regarding the pedagogical significance of the use of didactic games in the cooperation of the student and the teacher in the lessons of the mother tongue and reading literacy of the primary grade, and the active use of didactic games in the lesson processes, the teachers can achieve more in the education of their students. Opinions about the intended goals were reflected in the enrichment of the content of this article.

Key words and phrases: *didactic game, practical importance of didactic game, modern methods, primary education, primary school student, mother tongue and reading literacy, teacher and student cooperation.*

Hozirgi vaqtda tobora yangilanish zinapoyalaridan yuqorilab borayotgan O‘zbekistonda jadal islohotlar ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohalar uchun o‘z ta’sirini ko‘rsatyapti. Ta’lim tizimi ham bundan mustasno emas, albatta. Har bir rivojlangan davlat, eng avvalo, ta’lim tizimini isloh qiladi va rivojlantiradi. Hamda yuqori salohiyatli kadrlar tayyorlashni kun tartibidagi muhim masala deb biladi. Shuning uchun islohotlarda ta’lim jarayoni, zamonaviy o‘quv qurollari va usullarini tanlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralyapti.

Bugungi kunda bola axborot asrida yashamoqda, uning oladigan axborot miqdori kundan-kunga oshib bormoqda. Bu esa asosan, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida zamonaviy va zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish ehtiyojining kuchayishiga sabab bo‘lyapti. Va buning uchun mazkur bo‘g‘inda ta’lim beruvchi o‘qituvchilar uchun yangidan-yangi vazifalarning belgilanishida asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy va zaruriy kompetensiyalarning o‘quvchi shaxsida shakllanishida, avvalo, tashkil etilayotgan ta’lim jarayonlarida tanlangan o‘quv vositalari-yu o‘qitish uslubi hamda muayyan metod, texnologiyalarga bog‘liqdir. Shu boisdan ham ta’lim jarayoni oldiga qo‘yilayotgan vazifalarning dolzarbligi yanada ortadi.

Uslubiy jihatdan to‘g‘ri tanlangan usullar, texnologiyalar darsning samaradorlik darajasini oshishida xizmat qiladi. Bundan tashqari usullar, texnologiyalarning to‘g‘ri tanlanib, to‘g‘ri foydalanilishi, o‘zgarishlar o‘quv jarayoni va uning rivojlanishi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ochiq muloqotning muhitida ham samarali bo‘ladi. Bunda aynan didaktik o‘yinlardan foydalanish murakkab mavzularni o‘rganishda bilim, ko‘nikmalarni o‘quvchi shaxsida rivojlantirishning ajoyib usuli deyish mumkin.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining alohida o‘rni bor. Buni boshlang‘ich ta’lim tizimining tabiatidagi maqsadlar va vazifalarda ham ko‘rish mumkin. Ya’ni ona tili va o‘qish savodxonligi darslari, asosan, savodxonlikka asoslanib, o‘quvchilarda axloqiy tarbiyaning rovojlanishida xizmat qiladi. Shu sababli ham o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bilim berishda va muayyan mavzularni o‘quvchilarga yetkazishda ularning qiziqishlariga e’tibor berishi va shu qiziqishlari asosida dars jarayonlarida turli xil didaktik usullardan foydalanishlari lozim. Bu o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda yordam beradi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash kerakki, o‘qituvchi uchun qulay yordamchi usullardan biri didaktik o‘yinlarni darslarning qaysi qismida to‘g‘ri foydalana bilishi yoki qo‘llashi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda katta yordam beradi. Shuningdek, didaktik o‘yinlar o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi ta’lim jarayonining faolligini oshirishi bilan bir qatorda, har bir o‘qituvchi dars jarayonida o‘zi erishishi mumkin bo‘lgan maqsadlarga yetishishda tezkorlikni ta’minlaydi. Jumladan, o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, rivojlantirishda zaruriy choralarning to‘g‘ri amalga oshirilishini ta’minlash ta’siri orqali o‘quvchilarning kerakli bilimlarni egallashida o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini oshirish natijasida didaktik o‘yinlarning ahamiyatini yanada orttiradi.

Didaktik o‘yinlar o‘z navbatida asosiy mezonlarni o‘zida aks ettirishini ham aytib o‘tish joiz. Ushbu asosiy mezonlar quyidagilardir:

– mavzuni erkin ifodalash;

– muhokama qilish;

– mustaqil o‘qish;

– mustaqil o‘rganish;

– o‘quvchilarga tashabbus ko‘rsatish imkoniyatini yaratib berish;

– har bir o‘quvchi uchun muammoli vaziyat yaratish;

– butun sinf yoki jamoaviy ishlash orqali muammoli vaziyatga yechim topish orqali o‘quvchilarni ijodiy yondashishga o‘rgatish;

– ijodiy yondashish natijasida o‘quvchi shaxsida kreativ kompetensiyani shakllantirish.

Avvalo, didaktik o‘yinlar bir kishi o‘zi bilan o‘zi muloqot qilganiga qaraganda, dialogga asoslangan, diaolog shakli bilan o‘quvchi va o‘qituvchilarning o‘zaro ta’siri ko‘proq bo‘lgan faoliyat sifatida qaralishi lozim. Chunki dars jarayonining ma’lum bir qismida didaktik o‘yinning biror bir turidan foydalanilganda, asosan, jamoaviy dialog shaklining faol bo‘lishi bu fikrga asos bo‘la oladi.

Bugungi kundagi ta’lim jarayonlarini didaktik o‘yinlardan foydalanmasdan tashkil etishni tasavvur qilish qiyin. Negaki, aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchisini bir xil tartibdagi dars mashg‘ulotlari darsdan zerikishiga sabab bo‘ladi. Didaktik o‘yinlarni zaruriy vaqtlarda qo‘llab turish bilan esa o‘quvchilarning dars jarayonlariga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish vositasi sifatida qarash mumkin.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limdagi dars jarayonlarida ko‘p foydalanilayotgan didaktik o‘yinlar keng tarqalishiga sabab boshlang‘ich ta’limda ta’lim oluvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, savodxonlik darajasini, ularda mavjud intellektual qobiliyatlarning inobatga olinishidir. Ushbu sanalgan jihatlarni har bir boshlang‘ich ta’lim dars mashg‘ulotlarini tashkil qiluvchi pedagog-kadrlar e’tiboridan chetda qoldirmasligi zarur. Shundagina dars jarayonida qo‘llanilgan didaktik o‘yin trumning natijasi samarali bo‘ladi. Bundan tashqari shu didaktik o‘yinni tashkil qilishda o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligining qizg‘inligi ortadi. Hamda bu hamkorlik natijasida darsning ham, qo‘llanilgan metodning ham manfaatli tomonlari soni ko‘payadi. Bu manfaatli tomonlar o‘zini boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini tarbiyalashda, ularda didaktik o‘yinlar farqini tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni didaktik o‘yinlarning dars jarayonlarida o‘rinli qo‘llanilishi va bunda o‘quvchilar ishtirokining ta’minlanishi natijasida o‘quvchilarda ayni bir mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikma, malakalarni rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Dars jarayonlarida aynan amaliy didaktik o‘yinlarning ahamiyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘qituvchi o‘quvchilarga didaktik o‘yin natijasida aqliy harakatchanlikni oshiradigan aqliy vazifalarni beradi, muammoni hal qilishni buyuradi. Bu esa o‘quvchilarning yangi ma’lumotlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini orttirishi bilan bir qatorda ta’lim jarayonida didaktik o‘yindan foydalanish maqsadiga muvofiq ta’lim shakli sifatida o‘quvchilar bilimlarini mustahkamlashning eng maqbul usullaridan biridir.

Shu o‘rinda har bir didaktik o‘yinning maxsus xususiyati borligini eslab o‘tish lozim. Bu o‘quvchilarga ma’lumot berishga qaratilgan vazifalarga ham taalluqlidir. Ya’ni har bir o‘quvchi didaktik o‘yinda aniq vazifaning bajaruvchisiga aylanadi. Ushbu vazifani bajarish uchun o‘quvchining fikrlash qobiliyati faollashadi. U oldindan ega bo‘lgan bilim va tushunchalarini esiga solishi natijasida aqliy harakatchanligini yanada faollashtiradi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, o‘quvchilar bilan didaktik o‘yin muayyan bilimlarga qiziqish uyg‘otishi, obyektlar va turli narsalarni anglashga harakat qilishga undashi kerak. Agar bu jihatlar o‘yinning borish mazmunida aks etmasa, o‘quvchilar o‘z tushunchalariga mos kelmaydigan qiyinchilikka duch keladilar. Bu esa didaktik o‘yinning qiymatinigina emas, balki o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi munosabatning qiymatini ham yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarda qiziqish bo‘lmas ekan, o‘qituvchi tomonidan didaktik o‘yin asosida berilgan vazifalar bajarilmay qolishi, bu esa o‘z navbatida darsning yakuniy natijasi uchun qo‘yilgan maqsadning muvaffaqiyatsizligiga ham imkon yaratadi.

Boshlang‘ich sinflarda har bir mashg‘ulot bola ongi va intellektining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, bu davrda birinchi navbatda o‘quv jarayonini qiziqarli, samarali tashkil etish va rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratilsa, darsdan ko‘zlangan maqsad amalga oshadi. Boshlang‘ich

sinflar ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning bilish qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Didaktik o‘yinlar fanlarni o‘qitish sifatini oshirishga, o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiqot, hisoblash, o‘lchash, qurish, tekshirish, kuzatish, taqqoslash, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf darslarini qiziqarli tarzda tashkil etish o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarni osonlikcha yengib o‘tishga yordam beradi. U boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hayoti va faoliyatida asosiy rol o‘ynaydi. Aynan mana shu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilari bilan hamkorlik qilishi natijasida ular har bir vazifani yoki topshiriqni o‘yinga mos keladigan tarzda bajarishga harakat qilishadi. Tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari didaktik o‘yindan o‘quvchilari uchun yangi va qiyin o‘quv jarayonini tashkil qilishning qiziqarli usuli sifatida foydalanishlari mumkin. O‘quv o‘yinlari nafaqat boshlang‘ich ta’lim jarayonini qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarni aqliy va jismoniy jihatdan tarbiyalashda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi masalasida eng katta yordamchi vazifasini ham bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilshoda Jalilova Ural qizi. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA AAXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALASINING AHAMIYATI. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TILLARNI INTENSIV O‘QITISHNING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK JIHATLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI. 2023-yil 2-iyun (https://doi.org/10.5281/zenodo.7993607).

2. Juraeva D. IMPROVE THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO DEVELOP STUDENTS'CREATIVE ABILITIES USING NON-STANDARD TASKS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. –2020. –T. 8. –No. 3.

3. Tursunqulova Maxfuza To‘lqin qizi. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FOYDALANILADIGAN DIDAKTIK O‘YINLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA IQTISODIY FANLARNI O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI ilmiy-amaliy konferensiya 2023. https://doi.org/10.5281/zenodo.8044429/ http://scientists.uz/uploads/conferences/007/1.94.pdf

4. G‘afforova T., Nurullayeva Sh. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar. – Qarshi: Nasaf, 2003. 54-bet.

5. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292

6. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman



Feruza NABIJONOVA,
FarDU o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA QOMUSIY OLIMLARNING ILMIY MANBALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu tadqiqot ishi ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish uchun Sharq mutafakkirlarining fikrlaridan qanday foydalanish metodlari hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning yo‘l va usullarining nazariy va amaliy tahlilini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *dunyoqarash, dunyoqarash turlari, ilmiy dunyoqarash, tabiiy fan, boshlang‘ich sinf, ilmiy tafakkur, rivojlanish, metod, metodika.*

Аннотация: в данном исследовании рассматриваются методы использования идей восточных мыслителей для развития научного мировоззрения, а также теоретический и практический анализ путей и способов развития научного мировоззрения у учеников начальных классов.

Ключевые слова: *мировоззрение, виды мировоззрения, научное мировоззрение, естественные науки, начальные классы, научное мышление, развитие, метод, методика.*

Annotation: this research explores the methods of utilizing the ideas of Eastern thinkers to develop scientific worldview, as well as a theoretical and practical analysis of ways and approaches to develop the scientific worldview of elementary school students.

Keywords: *worldview, types of worldview, scientific worldview, natural science, elementary school, scientific thinking, development, method, methodology.*

KIRISH

Davlatlar orasidagi rivojlanish sabab ko‘p mamlakatlar oldidagi asosiy vazifa ta’limda yuqori natijalarga erishgan o‘qituvchilarga ega bo‘lishi va o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ilmiy tushunchalarni singdirish ularning bilim bazasini kengaytirish va ularni qiziqarli kashfiyotlarga jalb qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda tabiiy fanlar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular tabiat, inson hayoti va ilmiy kashfiyotlar haqida fundamental bilimlarni o‘rgatadi. Tabiiy fan darslari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlarni tahlil qilish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda samarali metodlarni aniqlash va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rnini yoritish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy dunyoqarash – bu o‘quvchilarning atrof-muhitga, jamiyatga va olamga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirishning muhim qismidir. Insoniyat paydo bo‘libdiki, ilmiy dunyoqarashini hanuz rivojlantirib kelmoqda. Arastu odamning kelib chiqishini, ongining sarchashmalarini avvalidan boshlab tahlil etadi, o‘zining qarashlari va o‘y-fikrlarini ilmiy dalillar yordamida izohlab beradi [1:114]. Bu davrlardanoq kishilarda ilmiy dunyoqarash tushunchasi shakllanib bo‘lgan. Qomusiy olimlarimizning ilmiy dunyoqarash borasidagi fikrlariga yuzlansak, Beruniyning “Hindiston” asarida “Dunyoda (hindlarning e’tiqodicha) o‘z yerlaridan boshqa yer yo‘q, o‘z jinslaridan boshqa xalq yo‘q, o‘z boshliqlaridan boshqa podsho yo‘q, o‘zlaridagidan boshqa ilm va dinlaridan boshqa din yo‘qdir. O‘zlarini yuqori tutadilar, bema’ni harakat qiladilar va kibrlanib, bilimsiz qoladilar. O‘rgangan narsalariga baxillik qilib, o‘z jinslaridan bo‘lsa ham noahl kishiga o‘rganmaydilar” [2: 67] jumlalarida Beruniyning hind aholisida ilmiy dunyoqarash haqidagi g‘oyalarni singdirish lozimligi haqida fikr yuritganligini ko‘rish mumkin. Beruniyning “Hindiston” asari ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu asarda Hindiston madaniyati, urf-odatlari va tabiati ilmiy tahlil asosida bayon etilgan, bu esa o‘quvchiga turli xalqlarni o‘rganish va ularning ilmiy tafakkuri haqida bilim berishga xizmat qiladi.

Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida davlat boshqaruvi, jamiyat va inson tafakkuri haqida ilmiy yondashuvlarni o‘rtaga tashlaydi. U dunyoqarashni rivojlantirish uchun ilmiy fikrlarni va aqliy yondashuvlarni muhim deb biladi. Farobiy ilm va fanning rivojlanishi uchun, kishilarning baxti uchun kurash olib bordi. Uning fikricha, matematika, tabiatshunoslik kabi fanlar insonni aqliy bilimlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Grammatika, logika kabi bilimlar esa, yuqoridagi ilmlardan foydalanish, ularni to‘g‘ri ifodalash, boshqalarga to‘g‘ri tushuntirish uchun xizmat qiladi [6: 77]. U tabiatshunoslik ilmlari to‘g‘risida quyidagilarni yozadi. Bu ilm tabiat to‘g‘risidagi, harakat va o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ilmdir. Bu ilm yordamida biz, agar istasak, zararli natijalarning oldini olamiz. Bundan tashqari, Farobiy tabiat fanlarining inson amaliy faoliyati uchun bo‘lgan muhim ahamiyatini tushuntirib beradi [4: 5].

Qomusiy olimlarning ko‘pi o‘z asarlarida aqliy tarbiyaga urg‘u berib o‘tganlar. Aql - kishining o‘z idroki, qalbi va fikri orasida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o‘z faoliyatida ma’naviy – insoniy nuqtai nazaridan amal qilish imkonini beruvchi va inson kamolotining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, uning yordamida odam hayotda o‘z o‘rni va nufuziga ega bo‘ladi [3: 421]. Bolaning aqliy rivojlanishining asosi uning faol faoliyatidir. Lekin bu faoliyatning o‘zi ta’lim va tarbiya ta’sirida shakllanadi [5: 215]. Maktab ta’limida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda boshlang‘ich sinflarga sharq uyg‘onish davridagi adabiyotlar orqali singdirilsa, nafaqat o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, balki ularning tarbiyasida ham samarali natijaga erishamiz. Bunda biz quyidagi metodikani tavsiya etamiz. Dars jarayonida o‘qituvchi mutafakkirlar ijodiga oid muammoli vaziyatlar yaratib, ularni hal qilish jarayonida ilmiy yondashuvni talab etadi. Natijada o‘quvchilarning ilmiy faktlarni o‘z ongi bilan hal etib sinovdan o‘tkazishi orqali ilmiy bilimlarga ega bo‘lishiga erishiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasida ilmiy mavzularda munozaralar tashkil etish orqali ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

NATIJALAR

Buning uchun Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi va Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi 32- umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini obyekt sifatida oldik. Tadqiqotda tajriba guruhlari va nazorat guruhlari ishtirok etdi. Tajriba guruhida tabiiy fan darslari interaktiv va eksperimentlar asosida tashkil qilinib, o‘quvchilarning tushunchalari va dunyoqarashi o‘lchandi. Nazorat guruhida esa an’anaviy darslar davom ettirildi.

Tajriba guruhidagi o‘quvchilar nazorat guruhidagilarga qaraganda bilimlarni yaxshiroq qabul qildilar va o‘rgangan tushunchalarini amalda qo‘llashga katta qiziqish bildirdilar. Ular o‘zlarini tabiat va fan olamida faol qahramon sifatida his qilishdi, bu esa ularning dunyoqarashini ilmiy yo‘naltirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Nazorat guruhidagi o‘quvchilarning esa faqat nazariy bilimga asoslangan darslar orqali motivatsiya darajasi pastroq bo‘ldi. Shuningdek, tajriba guruhida interaktiv eksperimentlardan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi va ularning ilmiy tushunchalarni mustahkamroq o‘zlashtirishiga yordam berdi. Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda qo‘llanilgan metodlar o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga, ularning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shdi. Ilmiy loyihalar usuli orqali o‘quvchilar o‘z

tadqiqotlarini amalga oshirishda katta qiziqish bilan qatnashdilar, natijada ular mustaqil ravishda ilmiy muammolarni tahlil qilish va hal qilish ko‘nikmalarini egalladilar.

Eksperiment va laboratoriya mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlari amaliyotda sinovdan o‘tdi, bu esa ularning bilimlarni chuqurroq anglashiga yordam berdi. Muammoli ta’lim va munozaralar o‘quvchilarning bilimlarga bo‘lgan qiziqishini oshirdi, ular ilmiy yondashuv asosida argumentlashish va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyatlarini rivojlantirdilar.

MUHOKAMA

Hozirgi ta’lim tizimimizda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish haqida ko‘plab amaliy va nazariy muhokamalar o‘tkazilmoqda. Ilmiy dunyoqarashning shaxs shakllanishida o‘rni kattadir. Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish jarayoni ta’lim tizimida o‘quvchilarga faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni ilmiy asoslangan yondashuv bilan hal qilishga o‘rgatadi. Shuning uchun, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish – ta’limning dolzarb masalalaridan biridir.

O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish – zamonaviy ta’limning eng muhim jihatlaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda faqat nazariy darslar emas, balki amaliy mashg‘ulotlar va tadqiqot faoliyatiga jalb qilish katta rol o‘ynaydi. Ilmiy loyihalar va eksperimentlar yordamida o‘quvchilar atrof-muhitni chuqurroq o‘rganadilar, bu esa ularning kelajakdagi ilmiy yutuqlariga zamin yaratadi. Shuningdek, muammoli ta’lim va integratsiyalashgan yondashuv orqali o‘quvchilar turli fanlar bo‘yicha ko‘p tomonlama bilimlarga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Metodlarning har biri ta’lim jarayoniga yangi mazmun olib kirib, o‘quvchilarni bilim olish jarayonida faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi.

Mutafakkirlar fikrlarini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayoni nafaqat o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, balki ularning axloqiy, falsafiy va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga katta yordam beradi. Mutafakkirlar o‘z asarlarida insoniyatning hayotiy muammolari, ilmiy izlanishlari va ma’naviy qadriyatlari haqida chuqur mulohaza yuritadilar. Ularning fikrlarini o‘rganish o‘quvchilarga mustaqil fikrlashni o‘rgatadi, chunki ular bu fikrlar asosida o‘z tahlil va xulosalarini chiqaradilar. Ular ko‘pincha axloqiy va falsafiy, ilmiy masalalarni yoritadilar. Bu o‘quvchilarni hayotiy qadriyatlar haqida chuqurroq o‘ylashga, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga va jamiyatdagi o‘rnini anglashga o‘rgatadi. Masalan, Alisher Navoiy, Forobiy yoki Ibn Sino kabi mutafakkirlarning fikrlari o‘quvchilarda insonparvarlik, adolat va o‘z-o‘zini rivojlantirish tushunchalarini rivojlantiradi. Ko‘pgina mutafakkirlar ilm-fan va tafakkur olamiga ulkan hissa qo‘shganlar. Ularning ilmiy yutuqlarini o‘rganish o‘quvchilarda ilmiy bilimlarni chuqurroq anglash va amaliyotga tatbiq qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

XULOSA

Qomusiy olimlar fikrlari o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirishga, boshqa xalqlar va madaniyatlar haqida chuqurroq bilim olishiga yordam beradi. Bu esa tolerantlik va madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ularning fikrlarini o‘rganish ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. O‘quvchilar ulkan tafakkur egalari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar ustida o‘ylab, ularni o‘z hayotlarida qo‘llash yoki yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan ko‘plab fikrlar hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarga ularning fikrlarini o‘rgatish orqali zamonaviy muammolarni chuqurroq anglashga va ularni hal qilishda ilmiy yondashuvlardan foydalanishga o‘rgatiladi. Shu bilan birgalikda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodlari ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning bilim darajasini, tahliliy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada tahlil qilingan metodlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga doir metodlarni qo‘llash o‘quvchilarni kelajakdagi ilmiy faoliyatga tayyorlashning samarali vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. — T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 160-b. 114-bet.
2. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” kitobining arab tilidan o‘zbek tiliga A.Rasulov, Y. Hakimjonov, G‘. Jalolovlar tarjimasi. T., 1965-y. 67-bet.
3. Eshmurodova Sh.S. O‘quvchilarning aqliy tarbiyasini oila muhitida oshirish yo‘llari. VOLUME 3 | ISSUE 4 | 2022 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 421.
4. Omonboyeva R. Ilmiy dunyoqarash nima? Monografiya 1-qism, “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 1974-y. 24 b. 5-bet.
5. Rasulova R.R. Maktabgacha ta’limda aqliy tarbiya International scientific-online conference 215 PAGE
6. Xayrullayev M. Farobiy ruhiy protseslar va ta’lim-tarbiya to‘g‘risida. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 1967. 77-bet.

Farangiz AVAZOVA,
Samarqand davlat universiteti
1- bosqich doktoranti.
farangizavazova97@gmail.com
Ilmiy rahbar: p.f.d. G‘.H. Hamroyev



5 – 6 - SINF ONA TILI DARSLIGIDA MAVJUD TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI BA’ZI TOPSHIRIQLAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu tezisda ona-tili darsliklariga (xususan 5 – 6- sinf) kiritilgan tinglab tushunishga doir o‘quv topshiriqlaridagi ba’zi muammolari va yechimlar haqida so‘z yuritiladi. Topshiriqlarning mavzuga bog‘liqlik darajasi va yoshga nisbatan to‘g‘ri tuzilganligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *topshiriq, ta’lim mazmuni, mashq, o‘qituvchi, metod, 5–6sinf ona-tili darslik, tinglab tushunish*

Annotation: this thesis discusses some of the problems and solutions to the teaching tasks related to listening and understanding included in the language textbooks (especially grades 5 – 6). Discussions are made about the level of dependence on the subject and the correct structure of the assignments relative to age.

Key words: *assignment, teaching content, exercise, teacher, method, 5th grade language textbook, listening and understanding*

Аннотация: в данной диссертации обсуждаются некоторые проблемы и решения учебных задач, связанных с аудированием и пониманием, включенных в учебники по языку (особенно для 5 – 6 классов). Ведутся дискуссии об уровне зависимости от предмета и правильной структуре заданий относительно возраста.

Ключевые слова: *задание, содержание обучения, упражнение, учитель, метод, учебник языка для 5 – 6го класса, аудирование и понимание*

Jamiyatning rivojlanib borishi fan va texnika, talim-tarbiyaning rivojlanib taraqqiy topishi bilan bevosita bog‘liqdir. Dastlabki ta’lim va tarbiya jarayonlarining quyi bosqichlarida o‘quvchiga ta’lim va tarbiya berish jarayonlari va topshiriq, darsliklari juda sodda talablar va jarayonlar shaklida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi fan-texnika rivojlangan zamonga kelib ta’lim jarayoni murakkablashib bormoqda, chunki bugungi kun o‘quvchilarini qiziqtirish va ularga samarali ta’lim jarayonini tashkil etish asosiy muammolardan biri hisoblanmoqda. Shuning uchun ijtimoiy hayot va taraqqiyot bilan hamnafas rivojlanib borayotgan o‘qitish tizimi jarayonlari ko‘lami ham kengayib bormoqda. Maktab darsliklarda esa tabiiy ravishda yuqoridagi holat o‘z aksini topmoqda. Bu holatdan ona tili darsliklari ham holi emas. Dastlabki ona tili darsliklarimizga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ko‘proq grammatika va o‘quvchining yozma savodxonligiga e’tibor qaratilganini ko‘rishingiz mumkin. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy o‘qitish usullari kirib kela boshlagach darsliklarimiz mazmuni ham yangilanib bordi. Topshiriq va mashqlarda ham katta o‘zgarishlar kirib keldi. Xususan, topshiriq va mashqlar ko‘lami kengaydi. Bugungi kun darsliklari aynan ta’lim mazmunidan kelib chiqib o‘quvchini hayotning barcha sohasida erkin fikrlaydigan, har qanday vaziyatda yo‘l topadigan va o‘z fikrini yozma va og‘zaki tarzda ravon ifoda eta oladigan nutqiy rivojlangan insonni voyaga yetkazish hisoblanadi. Ona tili darsliklari ham xuddi shu mazmunga ko‘ra yangicha tus oldi. O‘quvchida o‘zgalarning fikrini hurmat qilish va tinglashga, bevosita tinglash orqali to‘g‘ri fikr berishga yordam beruvchi tinglab tushunish ko‘nikmasiga ham alohida e’tibor berilgan. 5 – 6- sinf ona tili darsligi uchun hammualliflikda 2020-yil ishlab chiqilgan o‘qituvchi kitobi, ya’ni metodik qo‘llanmada tinglab tushunish kompetensiyasiga shunday tushuntirish berib ketilgan: “Ona tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasini o‘quvchilarda mashq qildirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon orqali o‘quvchi diqqatini uzoq vaqt ushlash malakasi, o‘quvchilarning og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini, monologik va diologik nutqni hamda matn mazmunini tushuna olish ko‘nikmasi shakllantiriladi. O‘quvchilar sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushuna olishi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib olishi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etishi, tinglab tushunishi, nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglashi, barqaror atamalar, kasb-hunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlashi va tushunishi lozim”. Bu fikrlar orqali tinglab tushunish qobiliyati ham muhim

kompetensiyalardan biri ekanligi e’tirof etilgan va o‘quvchilarda ko‘nikma hosil qilish uchun mashq va topshiriqlar berib ketilgan. Yuqoridagi ta’rifdan kelib chiqib, 5-sinf ona tili darsidan aynan quyidagi natijalarga erishish ko‘zda tutilgan:

Tinglab tushunish:

– monologik, dialogik nutq va suhbatni eshitib tushuna oladi;

– tinglangan matn (audio matn, hikoya matni)ni tushunadi;

– ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushunadi;

– darslikda berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni tinglab tushunadi;

– turli sodda matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni tushunadi, taqqoslaydi, ajratadi, umumlashtirib xulosalaydi;

– audiomaterialni tinglab, og‘zaki aytib beradi va matn ko‘rinishida yozib beradi;

Darslikda berilgan topshiriqlardan ushbu natija kutilmoqda, ammo topshiriqlarning berilishi talab darajasida emasligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan 5- sinf ona tili darsligining 2020-yilgi nashridan boshlab tinglab tushunish topshiriqlari berilgan, biroq berilgan topshiriqlarning audio podkastlari yo‘qligi tinglab tushunish topshiriqlari to‘laqonli shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishdagi topshiriqlarning barchasi matn shaklida berilgan. Darslikda matn shaklida, ammo tinglang degan jami 19 ta tinglab tushunishga doir topshiriqlar bor. Topshiriqning shartida esa tinglang tarzida shart qo‘yilgan. Tinglash uchun hech qanday audio podkast berilmagan.Matnni o‘quvchi bevosita o‘zi o‘qishi uchun sharoit yaratib berilgan. Bunday topshiriq asosan, o‘qib tushunish kompetensiyasiga mos keladi. Tinglab tushunish topshirig‘i uchun aynan audio berilsa va matn havola sifatida kitobning so‘ngi sahifalarida keltirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan, darslikning 14-sahifasida tinglab tushunishga doir topshiriq quyidagicha berilgan:

Topshiriq. Matnni tinglang. Berilgan hikoyatdagi asosiy fikrni to‘g‘ri talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda so‘zlab bering.

Bir donishmanddan shogirdlari:

- Nima qilsak, tinch va rohatda umr kechiramiz?- deb so‘radilar.

Donishmand:

- Hech qayerda hech kimga biror so‘z so‘zlamang, sukut eting, - deb javob berdi.

Shunda shogirdlari:

- Axir, doim sukut etib yuraveramizmi, bu mumkinmi?

Donishmand maslahat berdi:

- Sukut eta olmasangiz, so‘zlang, lekin qisqa va ma’noli so‘zlang, og‘zingizdan sira nojo‘ya so‘z chiqmasin. Yomon so‘z tinglovchining dilini xira qiladi, bundan saqlaning.

Bayt:

Yaxshi so‘zdan ko‘rasan mehr-u vafo,

Nomunosib so‘zlasang, yetkay jafo.

Ha, til bo‘lsa ham, bo‘lmasa ham, boshga balo. Shuning uchun donishmandlar so‘zni doriga o‘xshatib: “Ortiqchasi zarar keltiradi”, deydilar. (“Qisqa hikoyalar”dan)

Ushbu topshiriq matn ko‘rinishida va tinglash uchun mo‘ljallangan audio varianti ham biror joyda berilmagan. O‘quvchilar esa tayyor matn bilan birdan tanishadilar va o‘qituvchi o‘zi ko‘zlagan va yuqorida tinglab tushunish uchun berilgan topshiriqlardan qayd etilgan natijalariga to‘liq erishib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, o‘qituvchi yoki biror nutqi ravon o‘quvchi tomonidan ushbu matnni o‘qib eshittirish mumkin, ammo audio vositalar, podkastlar bilan ishlansa maqsadga, ko‘zlangan natijaga erishilgan bo‘lar edi. 5-sinf ona tili darsligiga kiritilgan topshiriqlarning barchasi xuddi shu tarzda shakllantirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, toqshiriq didaktik-tarbiyaviy jihatdan va o‘quvchining yoshini hisobga olgan holatda juda yaxshi matn tanlanganligini e’tirof etishimiz mumkin. Yuqoridagi topshiriq ona tili darsligining dastlabki topshiriqlaridan biri edi. Endi oxirgi sahifalar va mavzulardagi topshiriqqa e’tiborimizni qaratsak. Kitobning 118-sahifasida 76- dars. “Matn va lug‘at ustida ishlash” mavzusidagi topshiriq “Masalni tinglang” shaklida keltirilgan.

Yomg‘irli kunda raqsga tushishni yaxshi ko‘radigan yosh, jajji bir tovus bor edi. U bog‘da gullarga mahliyo bo‘lib, qo‘shiqlar aytardi. Nima qilsa ham unga qo‘pol tovushi o‘z kamchiliklarini eslataverardi. Tovus yaqin atrofda sayrayotgan bulbulning yoqimli, mayin xonish (sayrash)ini eshitar va har safar uning ko‘zlari alamdan yoshga to‘lardi.

U nima uchun bunday ahvolga tushayotganiga hayron bo‘la boshladi. Shu chog‘ qo‘lida bir bog‘ o‘t bilan bog‘ egasi paydo bo‘ldi va tovusga murojaat qildi:

- Nega xafasan, ko‘nglingni chog‘ qilish uchun mana bu giyohlarni senga hadya qilaymi?

- Bulbulning shunday chiroyli ovozi bor. Sayrashda men undan o‘ta olmayman. Nima uchun u menda yo‘q? - dedi tovus.

- Ha, bulbulning shirali, xush ovozi bor. Lekin sen ham chiroyli va yorqin patlar bilan siylangansan! Hammasi buni qanday qabul qilishingda va undan

qanday foydalanishingdadir.

Tovus o‘zini boshqa qushlarga qiyoslay boshladi. O‘zidagi ne’matning noyobligini tushunib yetdi. (“Qisqa hikoyalar”dan)

Ushbu topshiriq ham “tinglang” deb berilgan ammo matn shaklida darslikka kiritilgan. Topshiriq audio shaklda berilganda edi, o‘quvchilar bu topshiriqni tinglab, tinglash orqali matn ichidagi shakldosh va ma’nodosh so‘zlarni topishga harakat qilsalar topshiriq yana ham o‘quvchilar uchun qiziqarli va ularning diqqatini jamlashni rivojlantiruvchi bo‘lib xizmat qilar edi. Yuqoridagi ikki topshiriqqa e’tibor beradigan bo‘lsak, ular mazmuniy jihatdan har xil bo‘lgani bilan shaklan bir xilligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Kitobdagi deyarli barcha topshiriqlar shu shaklda ekanligini qayd etishimiz mumkin.

Asta - sekin darsliklarimiz rivojlangan davlatlar darsliklariga o‘xshab ishlab chiqilmoqda, ammo kamchiliklar hali-hamon mavjud. Ona tili darsligini ishlab chiqishda har bir mavzu nutqiy kompetensiyaning barcha elementlari bilan boyitilishi kerak. Aynan o‘qitilishi jihatidan rivojlangan ingliz tili darsliklariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, darsliklarning barchasida va darslikka kiritilgan barcha mavzuda nutqiy kompetensiyaning barcha turi har bir mavzuda uchraydi. Topshiriqlar shakli ham turlicha ekanligini ko‘ramiz. 5- sinf ona tili darsligida esa barcha topshiriqlar shakli bir xil, bu holat o‘quvchida zerikish hosil qiladi va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning susayishiga olib keladi. Har bir tinglab tushunish kompetensiyasi uchun sifatli audiolar ishlab chiqish va ularni topshiriq ostidan yoki topshiriq oldidan QR kodlar bilan berilib ketilsa o‘quvchi va o‘qituvchi uchun ham qulay bo‘ladi. Topshiriqlar shakli ko‘p bo‘lgan hollarda har bir sinf darsliklari uchun alohida disklarga yozilgan audiolar ishlab chiqish kerak. Biz bolalarga samarali ta’lim berish uchun birinchi o‘rinda moddiy tomonlama sharoitni to‘liq shakllantirishga ham e’tibor qaratishimiz kerak. Buning uchun har bir sinfxonani texnik jihatdan to‘liq jihozlash, o‘quvchilar soniga alohida ahamiyat qaratish kerak. O‘quvchilar soni ko‘p bo‘lgan taqdirda ona tili darslarini ham chet tili yoki rus tili fanlari kabi bo‘lib o‘qitish zarur. Shundagina o‘quvchilarning barchasi bilan alohida ishlashga va samarali ta’limga erishish mumkin. Ona tili darsliklarini esa grammatikadan ham voz kechmagan holda tizimlilik asosida nutqiy kompetensiyaning barcha elementlarini mavzularda mujassamlashtirgan holatda qayta ko‘rib chiqilishi zaruratini yuzaga keltirmoqda. Agar 5- sinf yangi ona tili darsligida tinglab tushunishga doir topshiriqlar mavjud emas desak, mavzulardagi topshiriqlar qatorida “matnni tinglang” tarzida topshiriq berilganini va o‘qituvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmada esa aynan tinglab tushunish kompetensiyasi va undan ko‘zlangan maqsad haqida ma’lumot kiritilganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun darslikdagi “tinglang” so‘zini “matnni o‘qing” shakliga o‘zgartirish kerak va metodik qo‘llanmadagi tinlab tushunish kompetensiyasi haqidagi tushuncha va maqsad, kutilayotgan natijalar haqida berilgan jumlalarni olib tashlash zarur. Yoki har bitta topshiriq uchun audio variantlarini ishlab chiqish zarur. Shunday ekan, topshiriqlar shakli va tuzilishiga bo‘lgan qarash va yondashuvga alohida e’tibor berish, yangi darsliklar ustida yana ham jiddiyroq ishlash kerakligi va ushbu darsliklar ustida ishlanayotganda tinglab tushunish kompetensiyasi tuzilishi: shakli va mazmuniga alohida e’tibor qaratish lozimligi, topshiriqlar shaklini turli-tuman qilish kerakligi darsliklar sifati va qiziqarlilik darajasini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun ona tilidan o‘qituvchi kitobi yangi nashr. –Toshkent: 2020

2. Mahmudov N, Sobirov A, Sattorov Sh va b. Ona tili umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5- sinfi uchun darslik. –Toshkent: 2020

3. Hamroyev G‘. Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish, Pedagogika fanlari doktori (Dsc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent: 2020

Dilorom YAKIBOVA,
TerDU boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-NAZARIY JIHATDAN O‘RGANILISHI

Annotatsiya: zamonaviy ta’lim davri uchun bugun innovatsion texnologiyalar bilan muammosiz ishlar oladigan o‘qituvchilarga bo‘lgan zarurat tobora ortib bormoqda. Shu boisdan ham ayni vaqtda turli kompetensiyalarni bo‘lajak o‘qituvchilarda rivojlantirish masalasiga dolzarb muammo sifatida qaralyapti. Xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida texnologik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammosi ham o‘z dolzarbligini olib borilayotgan turli izlanishlar misolida ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik jihatidan o‘rganilishi haqidagi mulohazalar aks ettirildi. Bunda xorijlik olimlardan kimlar izlanishlar olib borgani haqida ham qisqa satrlarda ma’lumotlar keltirildi.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, kompetentlik, texnologik kompetentlik, zamonaviy axborot vositalari, texnologik kompetensiyani shakllantirish.*

Аннотация: в современную образовательную эпоху возрастает потребность в учителях, которые могут бесперебойно работать с инновационными технологиями. Поэтому в то же время вопрос развития различных компетенций у будущих учителей рассматривается как актуальная проблема. В частности, проблема совершенствования методики формирования технологической компетентности у будущих учителей начальных классов показывает свою актуальность на примере различных проводимых исследований.

Исходя из этого, в данной статье отражено теоретико-педагогическое исследование развития технологической компетентности будущих учителей начальных классов. Информация о том, кто проводил исследования у зарубежных ученых, была дана в коротких строках.

Ключевые слова: *формирование будущих учителей начальных классов, компетентность, технологическая компетентность, современные медиа, технологическая компетентность.*

Annotation: for the modern educational era, the need for teachers who can work smoothly with innovative technologies is increasing. Therefore, at the same time, the issue of developing various competencies in future teachers is considered as an urgent problem. In particular, the problem of improving the methodology of developing technological competence among future primary school teachers shows its relevance in the example of various researches being conducted.

Based on this, this article reflects the theoretical-pedagogical study of the development of the technological competence of future primary school teachers. Information about who conducted research from foreign scientists was given in short lines.

Key words: *formation of future primary school teachers, competence, technological competence, modern media, technological competence.*

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda fanlarni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari bor. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalanish, axborot texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko‘rish, o‘rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma’lumotlarni o‘rganib borish, axborot texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish, axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish, fayllarni ochishda mediamadaniyatga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida, xususan, texnologik kompetentlikning mavjud bo‘lishi bugungi kun ta’lim davri uchun zamonaviy talablardan biri deyish mumkin. Aynan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentligini rivojlantirish masalasining pedagogik-nazariy jihatdan o‘rganilishiga chuqur e’tibor berish muammo yuzasidan duch kelinishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarga zaruriy yechim topish, uning o‘z o‘rnida qo‘llanilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Respublikada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentligi doimiy o‘zgarib borayotgan sharoitda ilg‘or xorijiy tajribalarni

o‘rgangan holda, oliy ta’lim muassasasida ularning texnologik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini, didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, takomillashtirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o‘qitish sifatining samaradorligini oshirish, shuningdek, pedagogika oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida texnologik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Kompetentlik tushunchasiga alohida to‘xtalish joiz emas. Chunki bugunga qadar bu tushuncha yuzasidan turli adabiyot va manbalarda, ilmiy izlanish natijasida omma e’tiboriga taqdim etilgan ilmiy maqolalarda ta’riflar berib kelinmoqda. Shulardan kelib chiqib ham texnologik kompetentlik tushunchasiga ta’rif berishda qiyinchilikka duch kelinmaydi.

Texnologik kompetentlik — bu kasbiy-pedagogik jihatdan egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni davr talabiga xos tarzda boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni mutaxassis tomonidan o‘zlashtirilishi va zamonaviy axborot vositalari, texnika va texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalana olishi demakdir.

Texnologik kompetentlik tushunchasini turli nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ham, shaxsning axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ham baholash imkoniyati mavjud. Ahamiyatli belgilar sirasiga axborot texnologiyalari asoslarini bilish, kompyuter va uning vositalaridan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarning jami kiritiladi. Bu bilan pedagog o‘zining kasbiy faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishi, ta’lim berishni va ta’lim olishni yengillashtiradi, o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham ta’limda qulaylikni ta’minlaydi, ta’lim oluvchilarning bilim olishga qiziqishini, aqliy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Axborot texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan shu ma’lum bo‘ladiki, pedagog texnologik kompetentligi va mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta’lim samarasini, balki uning ish faoliyati natijasini ham ijobiy tomonga o‘zgatiradi, samaraning yuqori darajada o‘sishiga ham sababchi bo‘ladi.

Hanuzgacha bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ta’lim tizimida pragmatik yondashuvning ustunligini ko‘rish mumkin. Ijtimoiy ong va munosabatlarni qayta qurish bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashda butunlay boshqacha yondashuvni talab qiladi. Hunarmand emas, balki bilimlarni mustaqil ravishda olishni biladigan, bilim va pedagogik mahoratni turli vaziyatlarda birlashtira oladigan, ijodkorlik va kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirishga tayyor bo‘lgan malakali mutaxassis hozirgi innovatsion ta’lim davri uchun juda zarurdir.

Texnologik kompetensiyani shakllantirish muammosi bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar tadqiqot mavzusiga olimlarning qiziqishi uyg‘onayotganini tasdiqlaydi hamda nazariya va amaliyotdagi yutuqlarga qaramay, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining texnologik kompetentligini rivojlantirish muammosi hal qilinmaganligi oliy ta’lim muassasasida tayyorlanayotgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni, bu borada yangi ilg‘or g‘oyalar asosida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirgan holda, samaraning mazmundor bo‘lishini ta’minlanishida jiddiy e’tiborni ishga solishni maqsad qilish joizligini ko‘rsatadi.

Shunchaki bilim va malakalarni egallash bugungi kunda inson tarbiyasi muammosini hal etmaydi. Texnologik pedagogik ta’limning asosiy maqsadi — malakali va uzluksiz malaka oshirishga tayyor o‘qituvchi tayyorlashdir. So‘nggi yillarda texnologik kompetensiyani rivojlantirish muammosiga qiziqish ortdi. “Kompetensiya”, “kompetentlik”, “texnologik kompetensiya” tushunchalari, kompetensiyaga yondashuvning mohiyatini o‘rganish, tahlil qilish uchun ham izlanishlar soni ko‘paydi. Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarda texnologik kompetensiyani rivojlantirish muammosiga o‘zining ilmiy faoliyatini bag‘ishlagan olimlar ham talaygina. Xorijlik olimlar B.S.Gershunskiy, V.G.Gorchakova, M.A.Xolodnoy, T.G.Brazhe, N.I.Zaprudskiy, B.C.Bezrukova, E.F.Zeera va boshqa shu kabilarning ilmiy izlanishlari, natijalari bunga yaqqol misoldir.

Yu.L.Troitskiy, V.F.Shatalov, J.B.Zankova, D.B.Elkonina, V.V.Davidovlarning nuqtai nazari bilan qaraganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentligini rivojlantirish quyidagi holatlarda ta’minlanadi:

- texnologik kompetentlikni shakllantirish jarayoni innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillari asosida qurilsa;
- o‘quvchi bo‘lajak o‘qituvchining ta’lim faoliyati uchun motivatsiya shakllantirish darajasiga chiqsa;
- konstruktiv-faollik yondashuviga asoslangan texnologik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni modeli yaratilganida;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining texnologik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilib va joriy etilganida.

Nazariy ma’lumotlarga asoslangan holda, tadqiqot olib boruvchi tomonidan muayyan

maqsadlarga erishish uchun vazifalarning belgilab olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, albatta. Masalan, quyidagicha:

1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining texnologik kompetentligini rivojlantirish muammosining nazariy asoslarini tahlil qilish.
2. Texnologik kompetentlik tushunchasining mazmuni va tuzilishini aniqlash;
3. Uning shakllanish darajasini, baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlash;
4. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining texnologik kompetentligini shakllantirish jarayoni modelini qurish va tajribada sinab ko‘rish;
5. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish.

Muammoning umumiy uslubiy asosi sifatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayonining pedagogik modelini amalga oshirishning konstruktiv-faoliyat va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlari deb qarash ham noo‘rin emas. Va bunda xorijlik olimlar — D.Raven, B.S.Gershunskiy, A.V.Xutorskoy, V.I.Juravlevlarning kompetentlik tushunchasini ishlab chiqish haqidagi g‘oyalari; texnologik kompetentlikni rivojlantirish muammosiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlari; I.Ya.Lerner, V.V.Davidov, V.P.Bespalko, V.S.Bezrukovalarning kadrlar tayyorlashni texnologik tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy kompetensiyani shakllantirish muammosini hal etish bo‘yicha V.G.Gorchakova, M.A.Xolodnoy, T.G.Brazhe, N.I.Zaprudskiy, B.C.Bezrukova, E.F.Zeer kabi olimlarning g‘oyalari; o‘qituvchi va psixolog olimlar — A.K.Markova, N.F.Talzina, Yu.V.Senko, E.V.Bondarevskaya, V.A.Slastenina, M.I.Lukyanova, N.V.Kuzmina va boshqalarning o‘qituvchining psixologik-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlari; kompetensiyaga asoslangan yondashuv masalasini, shu jumladan, texnologik ta’limni o‘rganishni taklif etgan olimlar — V.V.Krayevskiy, A.V.Xutorskoy, E.F.Zeer, S.E.Shishov, I.A.Vinter, J.Raven, G.K.Selevko kabilaring fikr-mulohazalari aks etgan ilmiy natijalari; shuningdek, xorijlik va rus olimlari — D.Dyui, X.Xekausen, A.Maslou, V.K.Vilyunas, V.D.Shedrikov, I.A.Zimnyaya, C.J.I.Rubinshteynlarning talabalarning motivatsion sohasi va aql-idroki rivoji uchun shart-sharoitlarni yanada ochib berishga imkon beradigan asarlari; malakali o‘qituvchining kasbiy modelini yaratish muammosi bilan shug‘ullanuvchi olimlar — V.N.Vvedenskiy, V.V. Serikov, V.M.Monaxov, A.I.Nijnikovlarning g‘oyalari nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalilova D., Norbekova G., Suvanova I., Ne’matullayeva S. Texnologik kompetentlikni rivojlantirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari timsolida. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “ACTUAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION: PROBLEMS, SOLUTIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS” April 26, 2024. 710 p.
2. Jalilova D. Ta’lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. “Sifatli ta’lim — taraqqivot povdevori” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami / / Toshkent, 2023-yil 20-aprel. 282-286-betlar.
3. D.Sh.Yakibova. DEVELOPMENT OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 3 MARCH 2024 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS. UZ. 348-351p.
4. D.Jalilova. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarining mazmun-mohiyati. “O‘ZBEKISTONDA ILM- FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022-yil 30- noyabr. 839-842-betlar. https://doi.org/10.5281/zenodo.7377842
5. Sharif, Y., & Dilorom, Y. (2019). Integration in primary education as factor mentality. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 4854-4856.
6. Якибова, Д. Ш. (2020). Формирование креативности мышления учащихся начальных классов на уроках технологии. Вестник науки и образования, (9-1 (87)), 63-65.

Dilafruz BURANOVA,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
PhD, dotsent
d.buranova5@gmail.com



MUTAXASSISLIK FANLARINI INGLIZ TILIDA O‘ZLASHTIRISH TIBBIY OLIY TA’LIMDAGI KASBIY-INNOVATSION KOMPETENTLIKNING MUHIM JIHATI SIFATIDA

Annotasiya: mazkur tadqiqotda tibbiy pedagogik kadrlar uchun ingliz tilini yuqori darajada egallash masalalari ilgari suriladi. Bunda ingliz tili ta’limining samarali usullarini joriy qilish, bilimlarni zamon talablariga muvofiq ravishda mukammal shakllantirish kun tartibidagi dolzarb vazifalar qatoridan o‘rin egallaydi. Tibbiyot OTM larida mutaxassislik fanlari pedagog xodimlarining ingliz tilidan o‘quv-uslubiy faoliyatda unumli foydalanishi ularning kasbiy va innovatsion ko‘nikmalarini shakllantirishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, tibbiyot, pedagog xodim, innovatsiya, kasb, texnologiya, metod.*

Аннотация: в данном исследовании обсуждаются вопросы эффективного владения английским языком для медицинских педагогических кадров. При этом актуальной задачей на повестке дня выступают вопросы внедрения эффективных методов обучения английскому языку, совершенствования знаний в соответствии с современными требованиями. Успешное использование английского языка в учебно-методической деятельности педагогами специализированных медицинских предметов создает крепкую основу в формировании профессиональных и инновационных навыков в медицинских вузах.

Ключевые слова: *английский язык, медицина, педагогический кадр, инновации, профессия, технология, метод.*

Annotation: the given study discusses the issues of effective English language proficiency for medical teaching staff. At the same time, an urgent task on the agenda is the introduction of effective methods of teaching English, improving knowledge in accordance with modern requirements. The successful use of the English language in educational and methodological activity by teachers of specialized medical subjects creates a strong foundation in the formation of professional and innovative skills in medical universities.

Keywords: english, medicine, teaching staff, innovation, profession, technology, method.

Kirish. Zamonaviy tibbiyot uchun yetuk kadrlarni tayyorlash bu boradagi pedagog xodimlarning oldiga ko‘plab vazifalarni qo‘ymoqda,ularning doimiy ravishda malakalarini oshirishlarini talab qilmoqda. Global rivojlanishning ilm-fanga shiddatli integratsiyalashuvi, zamonaviy innovatsion o‘qitish metodlarining takomillashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mukammal egallanishi va ularning o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishi kabi jihatlar buning yaqqol ifodasidir. Shuningdek, soha bo‘yicha ma’ruzalar, ilmiy-amaliy anjumanlarda qatnashish ham bilim va qobiliyatlarni rivojlantirish omillaridandir. Bularning barchasi zamonaviy pedagog kadrlarning ingliz tili kompetensiyasini talabga javob beradigan darajada o‘zlashtirishni talab qiladi. Respublika OTMlarida bugungi kunda mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitishni tashkil qilish, bunda ingliz tilida dars bera oluvchi pedagog xodimlarni maqsadli tayyorlash, bunda pedagog xodimlarning rivojlangan xorijiy davlatlarda malaka oshirishini tashkil qilish, xalqaro tajriba almashinuv loyihalarida ishtirok etishi orqali ularning ilmiy va pedagogik salohiyatini oshirish hamda mutaxassislik doirasida ingliz tilida bilimlarni egallashga qaratilgan vazifalar ko‘lami qonunchilik asosida belgilab berilgan [1]. Tibbiy oliy ta’lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish vazifalari kun tartibiga qo‘yilgan dolzarb masalalardandir. O‘rganuvchining har bir kamchiligiga e’tibor qaratish, uning bilim va qobiliyatlarini optimal nuqtada ulg‘aytirish til o‘rganishdagi muvaffaqiyatning zamini bo‘lishi shubhasizdir. “Tibbiyot mutaxassisligi uchun malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlashda xorijiy tillarni mukammal egallash ularning fan va texnologiyalardan unumli foydalanishi, davlat va xorijiy grantlar hamda ilmiy dasturlarda qatnashish uchun imkoniyatlarini rivojlantirish, mutaxassislik bo‘yicha xorijiy darsliklar, adabiyotlarni qo‘llash va o‘quv dasturlarini takomillashtirishni ko‘zda tutadi” [2].

Shu asosda bugungi kunda barcha tibbiyot OTMlarida bakalavriat yo‘nalishidagi fakultetlarda

mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitish tashkil etilgan. Mazkur faoliyatga salohiyatli, ingliz tilini bilish bo‘yicha kamida B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassislik kafedralarining pedagog xodimlari jalb etilgan. Bunda tegishli ta’lim resurslarini yaratish, pedagoglarning ingliz tilidagi bilim va ko‘nikmalarini muntazam takomillashtirish mazkur jarayonning muhim jihatlarini belgilaydi [3].

Ingliz tilidagi tibbiyotga oid darsliklarining yangi turlari yildan yilga ko‘payib, uslublar takomillashib borayotgani maxsus fanlar o‘qituvchilari oldiga ko‘plab vazifalar qo‘ymoqda. Umuman olganda, ingliz tilida tibbiy fanlarni o‘qitish jarayoni mutaxassislik bo‘yicha pedagog kadrlarning til bilish darajasidagi sifat ko‘rsatkichlarni muntazam takomillashtirishni talab qiladi [4]. Bu esa o‘z navbatida, tibbiyot oliy ta’limida kasbga oid ingliz tilini o‘qitishning innovatsion tamoyillarini aniq belgilashni, yangicha bilim va usullarni muvofiqlashtirishni nazarda tutadi [5]. Soha bo‘yicha ilmiy va amaliy ko‘nikmalarga tayanish, ingliz tilini mukammal o‘zlashtirish uchun bugungi kun innovatsion imkoniyatlar va tendensiyalardan unumli foydalanish tibbiyot OTMlari uchun ingliz tilining yangi modelini yaratishga imkon beradi [6]. Bunda ilg‘or xorijiy metodologik yondashuvlar tahlilini amalga oshirish, zamonaviy usullarni qo‘llash orqali ingliz tili ta’limini yangilash dolzarb va muhimdir [7].

Asosiy qism. Tibbiyot OTMlaridagi mutaxassislik kafedralarida faoliyat olib boruvchi pedagog xodimlarning ingliz tili bo‘yicha bilimlarini muntazam yangilab borishi hamda mahorat va ko‘nikmalarini takomillashtirishi bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimiga muvofiq ravishda Davlat ta’lim Standartlariga asoslanib, Umumyevropa Xalqaro Standartlari darajalarini inobatga olgan holda amalga oshmoqda. Bunda har bir tibbiyot OTM o‘zining ichki shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda mazkur faoliyatni tashkillashtirgan. Jumladan, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Xorijiy tillar kafedrasida mazkur faoliyat ko‘rsatilgan standartlar asosida ta’lim muassasasi xususiyatlariga e’tibor bergan holda amalga oshirilib, yangi Dastur va kalendar-tematik rejalar tuzildi, talablarga muvofiq ravishda yangi adabiyotlar kiritildi. Ishlab chiqilgan Dastur asosida institutda 3 ta moduldan iborat kurs tashkil etildi. Har bir modul bo‘yicha kalendar-tematik rejalar ishlab chiqildi. Reja 90 soat (1 - modul), 120 soat (2 - modul) va 144 soat (3 - modul) amaliy mashg‘ulot va mustaqil ish soatlaridan (20, 30, 34) iborat bo‘lib, har bir modulning maqsadi professor-o‘qituvchilarning ingliz tili bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini keyingi darajaga ko‘tarishdan iborat bo‘ldi.

Dasturga muvofiq, OTMda 3ta moduldan iborat kurslar elementary, intermediate, upper intermediate bosqichlarini qamrab oldi.

Har bir modul uchun amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil faoliyat uchun ma’lum soatlar yig‘indisi belgilangan bo‘lib, pedagog xodimlarning ingliz tili bo‘yicha egallagan bilimlarini keyingi darajaga ko‘tarish ko‘zda tutildi. Natijada, pedagog xodimlar uchun ingliz tilini uchta modul bo‘yicha o‘qitish ko‘rsatkichlari shakllantirildi (1- jadvalga qarang):

1- jadval

O‘quv modullar bo‘yicha ko‘rsatkichlar

Descriptive indicators for dividing total hours by training modules:		
MODULE I	MODULE II	MODULE III
Total hours – 90	Total hours – 120	Total hours – 144
Among them: Practical classes - 70 Self-study – 20	Among them: Practical classes - 90 Self-study - 30	Among them: Practical classes - 110 Self-study - 34

Mazkur modullarning maqsadi pedagog xodimlarning ingliz tili bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini keyingi darajaga (A2 bilim darajasini B1 ga, B1 ni B2 ga) ko‘tarishdan iborat bo‘ldi. Dasturda ingliz tilini bilish darajasining to‘rtta ko‘rsatkichi, ya’ni og‘zaki muloqot, o‘qish, fikrni yozma bayon etish va tinglab tushunish doirasida ingliz tilini o‘zlashtirish, nutq faoliyati bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni izchillik bilan rivojlantirish talab va qoidalari bayon etilgan.

Kurs boshida malaka oshiruvchi professor-o‘qituvchilarning ingliz tilini bilish darajasi aniqlab olinadi hamda olingan natijalar asosida kurs tinglovchilari tegishli guruhlarga ajratildi. Jumladan, 2021-2023-yillarda 9 ta guruhda o‘quv darslari olib borilib, ulardan 5 ta guruhda 2-modul (A 2) va 4 tasida 3-modul (B 1) bo‘yicha 154 ta

professor-o‘qituvchi tahsil oldi. Professor-o‘qituvchilarni ingliz tiliga o‘qitish jarayoni kurslarning turli darajadagi bosqichlarida ixtisoslik yo‘nalishi, malaka darajasi va kasbiy ehtiyoji kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda kengaytirilib, malaka oshirish yakunida professor-o‘qituvchilarning ingliz tili bo‘yicha bilim va darajasi CEFR tizimining B2 darajasini egallashi ko‘zda tutildi (1-rasmga qarang).



1-Rasm. Bilim darajalarini egallash

Kafedrada ingliz tiliga o‘qitishni tashkil qilishda kirish testlari va imtihonlari natijalariga asoslanib, guruhlar tashkil qilinar ekan, kurs boshida malaka oshiruvchi pedagog xodimlarning ingliz tilini bilish darajalari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish) aniqlab olindi, bunda ularning ingliz tili bo‘yicha bilimlari, yoshi, mutaxassislik yo‘nalishi, vaqti va OTM ning ichki xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyatni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ldi.

Xulosa. Pedagog xodimlar tomonidan ingliz tilining o‘quv-uslubiy faoliyatga nisbatan tatbiq etish holati asosan, quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi aniqlandi: ingliz tilida ochiq ma’ruza tashkil etganligi; ingliz tilida ochiq dars o‘tkazganligi; ingliz tilida ko‘rgazmali dars olib borganligi; ingliz tilida dars ishlanmasi tayyorlaganligi; xorijda o‘z sohasi bo‘yicha malaka oshirganligi; ingliz tilida bajarilgan mustaqil ta’lim ishlariga rahbarlik.

Tibbiyot mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy pedagogik kadrlarga ingliz tilini o‘qitish jarayonida ularga bilimni o‘zlashtirishning samarali yo‘llarini doimiy ravishda izlab topish muhim. Ushbu jarayon ta’limning turli bosqichlarida, boshqaruvning pastdan to yuqori pog‘onasigacha, nazorat va baholash mexanizmi asosida, mas’uliyat va javobgarlik hissini anglagan holda amalga oshirilishi kerak. Bunday vazifalar ingliz tilini o‘qitish ta’limi sifatiga bevosita ta’sir etib, ilmiy pedagogik kadrlar tomonidan ingliz tilini o‘zlashtirishning o‘ziga xos strategik yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalar va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3151-sonli Qarori.
2. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19-sonli qarori. 2021-yil 15-yanvar.
3. D.Buranova.Tibbiyot oliy talim muassasalari pedagog xodimlarining chet tillarini o‘zlashtirishi mexanizmlarini takomillashtirish. Ijod print.Toshkent, 2017-yil.
4. Maxametova D.B. Development of scientific concepts ‘quality’, quality of education, quality management of education. Central Asian Journal of Education volume 6. Issue 1. Article 16. 9-27-2021.
5. Ibrahim, H. H. Medical Language: A Programmed Approach. - Boston: Pearson, 2011. - 290 p.
6. Buranova D.D. Ingliz tilini o‘qitishga sohaviy yondashuv tibbiy oliy ta’limni rivojlantirishning muhim omili sifatida // – Toshkent, - 2024. “Donishmand ziyosi” 94-bet.
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). Approaches and methods in language teaching (2nd ed.). New York, NY: Cambridge University Press.



Yulduz USMONOVA,
“PDP school” ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
yulduz1999.09@gmail.com

HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUV VA TAMOYILLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili darslarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning muhim o‘rni haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, bu texnologiyani o‘quvchilarda shakllantirish uchun yaratiladigan mashq va topshiriqlarda qaysi yondashuvlarga tayanish kerakligiga doir tavsiyalar ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *kommunikatsiya, kompetensiya, subyekt-subyekt, integratsiya, xalqaro baholash dasturlari.*

Annotation: this article provides information on the importance of using collaborative learning technology in mother tongue classes. Also, recommendations on which approaches should be relied on in the exercises and tasks created for the formation of this technology in students are indicated.

Key words: *communication, competence, subject-subject, integration, international assessment programs.*

Аннотация: в этой статье представлена информация о важной роли использования технологии совместного обучения на уроках родного языка. В нем также указаны рекомендации относительно того, на какие подходы следует полагаться в упражнениях и заданиях, которые будут созданы для формирования этой технологии у учащихся.

Ключевые слова: *коммуникация, компетентность, субъект-субъект, интеграция, международные программы оценки.*

Kirish. Hamkorlik pedagogikasi bugungi kundagi eng dolzarb va muhim texnologiyalardan biri bo‘lganligi sababli juda ko‘plab mamlakatlarda uni shakllantirish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Olib borilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari natijasida ona tili darslarida nutqiy hamda lingvistik ko‘nikmalarni hamkorlik usullari orqali shakllantirishga oid har bir mamlakatning o‘ziga xos yondashuv va tamoyillari ishlab chiqilib ta’lim jarayoniga tatbiq etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. K.Mavlonova til ta’limi bu yondashuv asosida olib borilishi kerakligi bo‘yicha fikr bildirib, “Ona tili” va “O‘zbek tili” darsliklarida berilayotgan mashq va topshiriqlarning aksariyati o‘quvchini o‘ylash, izlash va tahlil qilishga emas, balki lisoniy hodisani mexanik tarzda aniqlashga qaratilganligini aytadi, matn yaratish va o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish uchun tahliliy faoliyat alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi[2].

A.Disterverg ta’biri bilan aytganda: “O‘n xil turli-tuman predmetni bir tomondan qarab o‘rgatgandan ko‘ra, birgina predmetga o‘n tomondan qarab o‘rgatishning foydasi ko‘proq”.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda til ta’limida kommunikativ yondashuv, integrativ yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi, farqli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos jihatlari bilan ustunlikka ega.

Tahlil va natijalar. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi tildan amaliy foydalana olish, real vaziyatda nutqni tushunish va o‘z fikrini ifodalay olish bilan belgilanadi. Hamkorlik texnologiyasini rivojlantirishda aynan shu yondashuvga ko‘proq tayanamiz. Chunki kommunikativ yondashuvda tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi planga qo‘yiladi. Ma’lum vaziyatda qanday gapirish to‘g‘ri bo‘ladi, ya’ni qanday ifoda yordamida fikrni bexato yetkazish mumkinligi orqali til qonuniyatlari tushuntiriladi [1]. Kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarda og‘zaki va yozma nutq teng ravishda rivojlantiriladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – pedagogik hamkorlikda o‘zaro bog‘liq tushunchalar, g‘oyalar va harakat usullari tizimiga tayangan holda bolaning shaxsini, o‘z-o‘zini bilish, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga imkon beradigan uslubiy yo‘nalish. Bu yondashuvda ta’lim shaxsga qaratilgan bo‘ladi, ya’ni bu jarayonda insonning qadr-qimmatiga, intellektual salohiyatiga, dunyoqarashini boyitish, ma’naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga ko‘proq ahamiyat beriladi. Shundan kelib chiqqan holda dars jarayoni, metod va vositalar tanlanadi. “Subyekt-subyekt” munosabati o‘rnatiladi. Bu munosabatni ochib berish uchun aynan biz hamkorlik usullaridan foydalanishimiz zarur. Chunki, ona tili darslarida og‘zaki va yozma nutq, o‘qib tushunishni rivojlantirishda shu yondashuvning mazmuniga tayanamiz, o‘quvchilar bunday yondashuvga asoslangan topshiriqlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlay oladi, faol o‘rganuvchi bo‘lib, dars jarayonining subyektiga aylanadi.

Til ta’limida faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning ham o‘ziga xos o‘rni mavjud bo‘lib, o‘qib tushunish va yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish jarayoni o‘quvchining tahlil qilish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, taqqoslash, xulosa chiqarish kabi faoliyati bilan juda bog‘liqdir. Shuning uchun til ta’limi ham aynan ma’lum bir faoliyat doirasida o‘qitilib borilsa maqsadga

muvofiqdir.

Integrativ yondashuv og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning ong-tasavvurida bizni o‘rab turgan dunyo haqida yanada to‘liq va yetarlicha keng tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi. Ma’lumki, ona tili butun borliqni: tabiatni, jamiyatni, fanlarni, o‘zlikni anglash va o‘rganish vositasiga aylantiriladi. O‘quvchi ona tili fanini o‘zlashtirish jarayonida, uni turli ijtimoiy munosabatlarda qo‘llashni o‘rganadi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, iqtisod, siyosat, jamiyatshunoslik kabi fanlarni o‘zlashtirishda til omilini his qiladi. Ta’lim oluvchi muayyan soha mutaxassisiga aylanganida maktabda olgan hayotiy ko‘nikmalari asosida o‘zbek tilida ish yuritishga, tanqidiy tafakkur bilan nutqiy muloqotga kirishishga tayyor bo‘ladi.

Kashfiyotchilik yondashuvida, asosan, o‘quvchini muayyan vaziyatga nisbatan fikr bildirish, yuzaga kelgan muammolarni hal qila olish, mavjud holatdan va vositalardan foydalangan holda kashf qilish, yaratish, bir so‘z bilan aytganda kreativlik xususiyatlarining shakllanib va rivojlanib borishida juda muhim. Bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi ham o‘quvchini kundalik vaziyatlarga tayyorlash, ularning turli faoliyatida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, yangi g‘oyalar, takliflarni berish malakalarini rivojlantirib borishdan iborat. Kreativ qobiliyatni shakllantirish va baholash xalqaro baholash dasturlari (PISA)ning ham muhim mezoni sanaladi.

Xulosa va takliflar. Ko‘rib turganimizdek, ushbu yondashuvlarning har birida muayyan bir nutqiy malakani shakllantirish maqsad qilib olingan bo‘lib, o‘qitish uslubi va vositalarida bunga alohida ahamiyat beriladi. Aynan o‘qib tushunish, reading approachda nafaqat badiiy uslubdagi matnlarni, balki turli uslublarga tegishli bo‘lgan, ma’lum qoidalarga bo‘ysungan va bo‘ysunmagan matnlar ustida ishlash, shu orqali matnni tahlil qilish va unga baho berish ko‘nikmasini shakllantirish muhim vazifa sanaladi.

Ona tili o‘qitish orqali o‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish tamoyili hamkorlikda o‘qitishdagi eng muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Chunki bu tamoyil orqali o‘quvchilar ona tilining imkoniyatlarini og‘zaki va yozma shaklda namoyon qila oladi. Ona tili darslarida guruhlararo loyihalar bajarish, hikoyalar yaratish, e’lon matnlari yozish kabi topshiriqlar bilan o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, kreativlik qobiliyatlari yuzaga chiqadi. Darhaqiqat, ijodiy tafakkur bilishning eng yuqori darajasidagi shakli hisoblanadi.

Ona tili o‘qitishda ta’lim, tarbiya va rivojlanish uyg‘unligi tamoyili hamkorlik jarayonida ko‘proq mashq materiallari tanlashda, nutqiy mashqlarni tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, badiiy matn tanlash borasida ushbu tamoyilning o‘rni beqiyos. Ona tili darslarida mashq materiallari sifatida tanlanadigan kontentlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) tuzilish hamda mazmun jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi;

2) ona tili darsida o‘rganilayotgan til hodisasiga egalik;

3) hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilganligi;

4) badiiy, estetik va ma’naviy-axloqiy tarbiya uchun moslik.

Ona tili o‘qitishda nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi tamoyilida o‘quvchilarning tildan egallayotgan ilmiy-nazariy bilimlarini amalda qo‘llashni ta’minlash, til ta’limini hayot bilan, kundalik turmush bilan bog‘lash tushuniladi. Yangi nashrdan chiqqan darsliklarda aynan shu tamoyilga ko‘proq urg‘u berilgan. Masalan, 7-sinf darsligida infografika, yo‘riqnoma haqida ma’lumotlar berilgan, tushuntirilgan. Topshiriqda esa limon mevasining xususiyatlari haqida matnni yo‘riqnoma shaklda yozish aytilgan.

Ona tili o‘qitishda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili ona tili darsida o‘rganilayotgan axborotlarni to‘g‘ri anglash, o‘rganilgan bilimlarni kundalik hayotda mustaqil qo‘llay olishdir. Aynan shu tamoyilning elementlari guruhlarda ishlash jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki o‘quvchi biror topshiriqni bajarish paytida o‘zini mustaqil his qilib, erkin munosabat bildira oladi.

Ona tili o‘qitishda mavzulararo, bo‘limlararo, sinflararo aloqadorlik tamoyilida mavzular va bo‘limlarning bog‘lanishi, boshqa o‘quv fanlari bilan aloqadorlikni ta’minlay olishi muhim metodik talab hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchilar guruhlarda yoki juftliklarda ishlagan paytda turli fan doirasida integratsiya qilingan topshiriqlarni bajarsa, yuqori samaradorlikka erisha oladi. Chunki ular har xil mavzularda fikr almashadi, tanqidiy va mantiqiy jihatdan munosabat bildira oladi. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi / I. Azimova / Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an’anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali // – T., 2019.

2. Mavlonova K.M. O‘quvchilarda matnni o‘qib tushunish malakasini shakllantirish. Global ta’lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020. 149-154-betlar.

3. Mengliyev B. Tilshunoslikning amaliy masalalari. Monografiya. – T., 2020.

4. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsplari va metodlari / A G‘ulomov. – T.: O‘qituvchi, 1992.

5. Slavin R.E. Student teams and comparison among equals: Effects on academic performance and student attitudes. /R.E. Slavin. – Journal of Educational Psychology, vol.70, 1978. – p. 532-538.



Madina RUZIYEVA,
Buxoro viloyati Jondor tumani 26-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

“TIL, TAFAKKUR VA NUTQ MUNOSABATI” MODULINI O‘QITISHDAGI INNOVATSIYALAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada metod va usul tushunchalari farqi, ta’lim metodi, substansial tilshunoslikning bosh mavzusini o‘qitishdagi innovatsiyalar va ilg‘or tajribalar xususida fikrlar bildirilgan. Bir necha metodlar asosida bilim berish ko‘nikmalari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim metodi, usul, metod, ta’lim maqsadi, induktiv ta’lim,*

Annotation: in this article, opinions are expressed about the difference between the concepts of method and method, innovations and best practices in teaching the main subject of substantive linguistics. and teaching skills based on different methods are reflected.

Keys words: *educational method, method, method, educational goal, inductive education.*

Аннотация. в данной статье высказаны мнения о разнице понятий метода и метода, инновациях и передовом опыте преподавания основного предмета предметной лингвистики. отражены и навыки преподавания, основанные на различных методах.

Ключевые слова: *образовательный метод, метод, метод, образовательная цель, индуктивное обучение.*

Xalqaro tashkilot YUNESKO ning ta’rifiga ko‘ra, “zamonaviy pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olib o‘qitish va bilish, o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo‘llashning tizimli metodlaridir”. Zamonaviy “Didaktika” fani metod va usulni farqlaydi. Metod maqsadga erishish yo‘lidagi faoliyatni ifodalovchi keng tushuncha. U ta’lim jarayonida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi faoliyatiga oid jihatlarni ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, o‘qitish vositalari, ta’lim beruvchi hamda ta’lim oluvchi munosabatlari bilan bog‘liq ravishda qamrab oladi. Ta’lim metodlari to‘g‘ri tanlangandagina o‘rgatish hamda o‘rganish faoliyatlari o‘zaro muvofiqlashadi va ijtimoiy buyurtma sifatida belgilangan ta’lim maqsadi voqelanadi.

Usul aslida insonning amaliy faoliyati negizida yuzaga keladi. Faoliyat usullarining asosiy mazmunini, avvalo, amaliyotda sinalgan narsalar, masalan, ilmiy tadqiqot, bilish yo‘li, nazariya, ta’limotlar tashkil etadi. Xullas, ta’lim usuli ta’lim metodiga nisbatan xususiylik xarakteridagi tor tushuncha bo‘lib, u ta’lim metodi tarkibiga kiruvchi ta’limiy faoliyat turidir.

Ta’lim metodlari, avvalo, ilmiy bo‘lishi, ta’lim oluvchini o‘qitishning amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bosh maqsadi ruhida tarbiyalashga qaratilishi, ta’lim oluvchi rivojlanishining psixologik-pedagogik imkoniyatlariga muvofiq kelishi, ommabop bo‘lishi, o‘quv materialini mustahkam egallashga qaratilishi va o‘quv predmeti yangiliklari asosida yangilanib, takomillashib borishi zarurdir.O‘z-o‘zidan tushunarliki, didaktik jarayon, bolaga bilim berish, ijodiy faoliyatda malaka va ko‘nikma hosil qilish, har bir ishda mustaqillik, tadbirkorlik hamda ijodiy yondashishni uning zotiy xislatiga –odat va tabiatiga aylantirish xilma-xil metod, yo‘l, usul hamda vositalardan foydalanishni talab qiladi. Bunda mashhur pedagog A.S.Makarenkoning: “Men oddiygina “Bu yoqqa kel!” amrini 72 usulda aytishni o‘zlashtirganimdan keyingina o‘zimni pedagog deb his etdim”, degan fikrini eslash o‘rinli. Demak, pedagogik texnologiyada belgilangan dastlabki maqsad va mazmun asosida o‘quv jarayoni rejalashtiriladi, uni amalga oshirish loyihalari ishlab chiqiladi, natija kafolatlanadi. (Pedagogik texnologiyani ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish g‘oyasini birinchi bo‘lib rus didakt-olimi V.P.Bespalko amalga oshirgan).

Ta’lim ijodiy tafakkur sohibi, tadbirkor shaxs, yetuk mutaxassisni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, unda bunday maqsadga muammoli va tadqiqiy ta’lim metodlari, induktiv ta’lim, ya’ni o‘quvchida bilim hosil qilishga mo‘ljallangan metodlar yetakchilik qilishi lozim. (Ijodiy tafakkur sohibi, tadbirkor shaxs, yetuk mutaxassis deganda nafaqat bilimni, balki bilish yo‘llarini biladigan va ulardan foydalana oladigan shaxs nazarda tutiladi. U mustaqil, ijodiy fikrlovchi, qanday sharoitda qanaqa bilim kerakligini va uni qayerdan olish mumkinligini – bilim manbayini va undan foydalanish kalitini biladi. Ijodiy tafakkur sohibining ongini ko‘zlari yumuq buloqqa qiyoslash mumkin. Ta’lim beruvchining vazifasi buloqning ko‘zini ochishdan iborat). Bunda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi orasidagi munosabat qanday bo‘lishi lozim? Ona tili ta’limida bilim olishga mo‘ljallangan zamonaviy metodlar ta’lim oluvchiga o‘rganish jarayonining

subyekti, ta’lim beruvchiga esa mazkur jarayonning boshqaruvchisi, tashkilotchisi sifatida yondashadi. Shuning uchun ta’lim jarayoni (dars mashg‘ulotlari) da izlanishlarni, asosan, ta’lim oluvchi bajaradi. Bu yo‘nalishda kognitiv-pragmatik (induktiv) metoddan,



ya’ni kuzatish-u tahlildan qonuniyatga, xususiylikdan umumiylikka qarab intilishdan–bilim hosil qilish metodidan foydalaniladi. Ta’kidlash joizki, an’anaviy ta’lim metodlari silsilasida uchramaydigan mazkur metod o‘zbek didaktikasida milliy istiqloldan so‘ng ommalashdi.


Ona tili ta’limida bilim olishga mo‘ljallangan zamonaviy metodlar dastlab induktiv atamasi bilan nomlandi. Induksiya/induktiv (hodisadan →qonuniyatga) mohiyatan falsafiy-mantiqiy metod bo‘lib, umuman, bilim hosil qilishning, aqliy amaliyotning bir ko‘rinishidir va deduksiya (qonuniyatdan→hodisaga) metodiga qarama-qarshi turadi. Keyingi yillarda induktiv atamasi ongli, verbal, kognitiv-pragmatik ta’lim metodi sifatida talqin etildi (Kognitiv-pragmatik ta’lim metodi dunyoning rivojlangan mamlakatlari didaktikasida va psixologiyasida keng ommalashgan).

Ona tili ta’limida bilim olishga mo‘ljallangan zamonaviy metodlar (induktiv yoki ongli, verbal, kognitiv-pragmatik ta’lim metodi)dan foydalanilganda o‘quv mashg‘ulotlarida faol ishlovchi ta’lim oluvchining o‘zidir. Bunday mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar berilgan materialni mustaqil tahlil (analiz) qila olishlari, ta’lim boshqaruvchisi yordamida natijalarni umumlashtirishlari (sintez) va hukm chiqarishlari, hosil qilingan umumiylik (qonuniyat)ni amalda qo‘llay olishlari, sinashlari va o‘quv masalalarini yecha olishlari ko‘zda tutiladi. Bu jarayonda ta’lim beruvchining bosh vazifasi: “Ta’lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat”.

Ta’limning barcha tizimlarida ilg‘or ta’lim texnologiyalarining interfaol metodlaridan foydalanish yuqori samara bermoqda. Quyida mana shunday metodlarning (grafik organayzer shaklidagi) ba’zilari bilan tanishamiz.

Venn diagrammasi metodi. Bunda talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. Bu metod ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilimlar, ma’lumotlarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi.

“Nima uchun?” grafik organayzeri muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri hisoblanadi. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.Talabalar “Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida, kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. “Nima uchun?” so‘rog‘ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi (Ta’kidlash lozimki, mavzu mohiyatini ochishda “Nima uchun?” so‘rog‘ini berish bachkanalashib ketmasligi, ya’ni berilayotgan javoblar ham, so‘roqlar ham mantiqan pishiq, puxta bo‘lmog‘i lozim). “Nima uchun?” chizmasini tuzishda aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllaridan biridan foydalanishni o‘zingiz tanlaysiz.



“Nima uchun?” jadvali

Grafik organayzerlardan foydalanishning qulayligi shundaki, u auditoriyadagi barcha talabalar bilan individual yoki guruh tarzida aniq belgilangan vaqt oralig‘ida ishlash, tahlil va nazorat qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Бушуй Т.,Сафаров Ш., Тил курилиши тахлил методлари ва методологияси.- Тошкент: Фан, 2007.
2.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021. 3.Yuldasheva Dilorom Nig‘matovna. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.- Buxoro: Durdona, 2021.



Gulruh BOZOROVA,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA DRAMATIK ASARLARNI O‘QITISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada umumta’lim maktablarning yuqori sinflarida dramatik asarlarni o‘qitish bilan bog‘liq muammolar, yangi yondashuvlar, pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ochib berilgan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiy ta’lim, dramatik tur, o‘qitish usullari, o‘qitish maqsadi, obrazlarga bo‘lib o‘qitish, bilim, ko‘nikma va malaka, kompetensiya, texnologiya.*

Аннотация. в данной статье раскрыты проблемы, новые подходы, значение педагогических технологий, связанных с преподаванием драматических произведений в старших классах общеобразовательных школ, разработаны предложения и рекомендаци.

Ключевые слова: *литературное воспитание, драматургический вид, методы обучения, цель обучения, обучение по образам, знания, умения и навыки, компетентность, технология.*

Annotation: this article explores the challenges, new approaches, and importance of pedagogical technologies in teaching dramatic works in upper grades of general education schools. The article also proposes recommendations and solutions.

Keywords: *literary education, dramatic genre, teaching methods, teaching goals, character-based teaching, knowledge, skills, competence, technology.*

Drama adabiyotning bir turi va uning o‘ziga xos xususiyati mavjud. U sahnalashtirish uchun mo‘ljallangan va qahramonlarning xarakterlari tavsiflovchi emas, balki nutq tili bilan yaratilgan. Muallifning undagi pozitsiyasini aniqlash o‘quvchidan e’tibor va fikrlashni talab qiladi. O‘quvchi yozuvchi-muallifning yordamisiz harakat joyini tasavvur qilishi kerak. Vaqt, qahramonlar yashaydigan muhit, ularning tashqi qiyofasini, gapirish va tinglash usullarini, harakatlari va imo-ishoralarini tasavvur qilish, shu bilan birga, har bir aktyorning harakatlari va so‘zlari orqasida nima yashiringanligini tushunish va his qilish kerak. Dramatik asarning markazida hayotiy ziddiyat mavjud bo‘lib, uning yechimi qahramonlarning bir-biri bilan, sharoitlar bilan, o‘zlari bilan keskin kurashida namoyon bo‘ladi. Dramaturg hayotiy ziddiyatlar eng keskin bo‘lgan syujetlarni yaratadi. Sinfda drama ustida ishlashdan oldin uni mustaqil o‘qish kerak. O‘qishdan oldin bir yoki ikkita savol berish tavsiya etiladi: drama nomini qanday tushundingiz? Siz kimni asosiy qahramonlar deb hisoblaysiz?

Dastlab, darsdan tashqari vaqtda dramani ovoz chiqarib o‘qishni tashkil qilish foydalidir: matnni o‘qituvchining o‘zi o‘qishi mumkin, ba’zida yozuv yoki video yozuvlarni jalb qiladi. O‘qishda o‘qituvchi izohlarga, belgilar ro‘yxatiga e’tibor beradi, ya’ni dramani o‘qish kerakligini va ba’zida hatto teatr xotiralariga murojaat qilish kerakligini ko‘rsatadi. Kirish darslari dramaning o‘ziga xosligiga qarab har xil bo‘lishi mumkin. Kirish darslarida: 1) dramaga dastlabki sharh; 2) davr haqidagi hikoya; 3) ma’lum bir davrdagi odamlarni tashvishga solgan va dramada aks etgan masalalar to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlar; 4) o‘tgan yillardagi odamlarning hayotini tasvirlaydigan rassomlarning rasmlarining reproduksiyalari; 5) teatrdagi drama hayoti haqida hikoya kabilarga e’tibor qaratilishi lozim. Dramatik asarlarning sahnaga kirib borishidagi qiyinchiliklar keyinchalik boshqa pyesalar, jahon adabiyotining durdonalari bilan tanishishga ham olib keldi. Dramatik asarlar asosan, “muallifdan keyin” tahlil qilinadi, ya’ni drama harakatlari ustida izchil ishlanadi.

Drama ustida ishlashni maktab o‘quvchilarini butun dramaga murojaat qilishdan boshlash, uni tushunishga yordam berish, uning asosiy mojarosini, uning paydo bo‘lishini his qilish tavsiya etiladi. Bu asarning nomi haqida savol bo‘lishi mumkin. Agar drama nima uchun “Temir xotin” yoki “Padarkush” deb nomlanganiga to‘liq javob berilsa, kelajakda dramalarni tushunishga yo‘l ochiladi. Dramatik asarni o‘rganishning dastlabki bosqichida, asosiy ziddiyatni aniqlash bilan bir vaqtda, o‘quvchilar birinchi marta aktyorlar bilan, ularning kurashda qanday rol o‘ynashi bilan tanishadilar. Siz ularning guruhlari haqida savol berishingiz mumkin. Asosiy mojaroni aniqlashtirish uchun yo‘l ochiladi va drama chegaralarini belgilash - qayerdan boshlangan va qanday tugagan, bu dramaning umumiy nuqtayi nazarini aniqlashtirishga yordam beradi. Drama qamrab olgan vaqt uchun sinfning murojaatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Tomoshabinning vaqti va dramaning harakat vaqti bir-biriga mos keladi, ammo hodisalar orasida kunlar, haftalar, hatto yillar o‘tadi. O‘quvchilarga dramada nafaqat harakatlar oralig‘ida harakatning o‘zida nima sodir bo‘lishi muhimligini o‘rgatish kerak. Sinfda tahlil qilish uchun o‘qituvchi harakatning rivojlanishini belgilaydigan qo‘llab-

quvvatlovchi hodisalarni tanlashi kerak. Tushunarsiz so‘zlarni tushuntirishni unutmasligimiz kerak. Tarixiy va teatrlashtirilgan sharh, avval nimani o‘qishni tanlash va drama ustida ishlash usullari xilma-xildir:

1. “Sahnani tasavvur qilish”, vizual idrokka munosabat. Maktab o‘quvchilari o‘zlarini dramani aqliy ravishda ko‘rishlarini tasavvur qilishlari kerak, buning uchun dramalar haqidagi xotiralardan foydalanish foydalidir.

2. O‘quvchilarni shu maqsadda sahnada sodir bo‘layotgan voqealarni tasavvur qilishga undash juda muhim: “tasavvur qiling, siz sahnada o‘tiribsiz”. O‘quvchilarni drama matniga kirishga undaydigan yana bir usul – bu xayoliy sahnalarni yaratish, ya’ni maktab o‘quvchilari harakatlarning ma’lum bir nuqtasida belgilarni qanday joylashtirishlari, ularning pozitsiyalari, imo-ishoralari, harakatlarini tasavvur qilishlari haqida o‘ylashga taklif qilinadi. Jahon adabiyotiga mansub dramalarni o‘qitishda ham o‘ziga xos yondashuvlarni qo‘llash lozim. Dramalarni o‘qitishda o‘quvchilarga afishalarni taqdim qilish ularni teatrga borishga undaydi. Dramatik asarlarga qiziqishlarini yanada oshirishi mumkin. Masalan, Shekspirning “Qirol Lir”




dramasi mamlakatimiz drama teatrlarida ko‘p marta namoyish etiladi: “Badiiy mahorat, bir tomondan – real hayotdagi yangilikni ko‘ra bilish va uni adabiyot vositalari ila tahlil qila bilish san’ati bo‘lsa, ikkinchi tomondan – san’atning sirlarini, texnikasini, minglab hissiy-tasviriy vositalarni chuqur bilishga bog‘liqdir”. [1;79] Taniqli adabiyotshunos olim V. Xalizev shunday yozadi: “Dramatik asarlarda bayon etuvchi parchalar qanchalik muhim o‘rin tutmasin, tasvirlanayotgan asar qanchalik bo‘laklarga bo‘linmasin, personajlar aytayotgan so‘zlar ularning ichki nutqiga qanchalik muvofiq bo‘lmasin, baribir drama zamon va makon jihatidan o‘zaro muvofiqlashtirilgan manzaralarni tasvirlashga moyildir”. [2;46]

“Har bir badiiy asar kishilarning yashash sharoiti, xarakterlar, qahramonlarning psixologiyasi va ularning to‘xtovsiz o‘zgarib turishiga, rivojiga aloqador sanoqsiz badiiy detallar yig‘indisidan iboratdir”.[3;193]

Agar o‘quvchilar subtektni tushunishga o‘rgatilsa, biz yaxshi o‘quvchi va tomoshabinni tarbiyalaymiz. Shuni unutmasligimiz kerakki, dramani tahlil qilishda aktyorlarning nutqi va mualliflarning mulohazalari, afishasi va unga izohi katta ahamiyatga ega (o‘quvchilar buni o‘qish paytida ko‘pincha o‘tkazib yuborishadi). Asar ustida ishlashda ifodali o‘qish muhimdir. Bu jarayonda o‘quvchi tomoshabin pozitsiyasidan ijrochining pozitsiyasiga o‘tadi. Dramatik asarda muallifning pozitsiyasi boshqa turdagi asarlarga qaraganda ko‘proq yashiringan. Shu maqsadda o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini muallifning aktyorlar uchun aytgan so‘zlariga jalb qilish va yozuvchining o‘z qahramonlariga qanday munosabatda ekanligini o‘ylab ko‘rishi kerakligini tushuntirishi lozim. Maktabda dramatik asarni o‘rganish juda ko‘p xususiyatlarga ega. Dramaturg o‘z qahramonlarining hayoti va xarakterlari haqida gapirmaydi, balki ularni amalda namoyish etadi. Muallifning xarakteristikasi, qahramonlarning portretlari, voqealar haqidagi rivoyatlarning yo‘qligi talabalarning dramani idrok etishini murakkablashtiradi. Shuning uchun, bir tomondan, maktab o‘quvchilarini dramaning o‘ziga xos xususiyati bilan maxsus adabiyot turi sifatida tanishtirishga imkon beradigan, boshqa tomondan, ularga o‘rganilayotgan namunalarda sahna uchun mo‘ljallangan asarlarni ko‘rishga va ularni to‘g‘ri tahlil qilishga yordam beradigan ish usullari va shakllarini izlash kerak. Masalan, “Temir xotin” asari bo‘yicha “Afisha” usulini qo‘llash mumkin:





Yakuniy darslarda umumlashtirilgan shaklda dramani tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarda savollar paydo bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchilarning ifodali o‘qishi alohida ahamiyatga ega. Bu orqali ularning asardagi detallar va ishoralarni qay darajada tushunishini tekshirish mumkin. Bunday dars uchun uy vazifasi sifatida o‘quvchiga o‘zi rolini o‘ynaydigan qahramonning xarakter-xususiyatlarini yozma yoki og‘zaki tarzda tavsiflab kelishining berilishi maqsadga muvofiqdir. Yakuniy darslarda individual sahnalarni o‘qiydiganlarning tanlovlari, dramaning sahna tarixi, filmga moslashishni tomosha qilish, uni muhokama qilish yaxshi samara berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hotamov U. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 79-bet.
2. Хализев В.Э. Драма как род литература. –М.1986, с. 46.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 1986, 193-bet.

Dilshoda IL’YASOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU magistri

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLASHLARNI TASHKIL QILISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mustaqil ishlarini tashkil qilishning ahamiyati va dolzarbligi, ularni olib borish tartiblari nazariy va metodik jihatdan yoritib berilgan. Mustaqil ishlash tizimining asosiy didaktik maqsad va vazifalarini – o‘quvchilarning chuqur va mustahkam bilimlarini o‘zlashtirishi, mustaqil bilim olish, ularni amaliy hayotda qo‘llash qobiliyatini shakllantirish usullari xususida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *mustaqil ishlar, ijodiy faollik, tafakkur, tasvirlash, savodxonlik, didaktik metodlar, metodlar.*

Аннотация: в данной статье теоретически и методически объяснены важность и актуальность организации самостоятельной работы учащихся младших классов, порядок ее проведения. Обсуждены основные дидактические цели и задачи системы самостоятельной работы - способы усвоения студентами глубоких и прочных знаний, умения приобретать самостоятельные знания и применять их в практической жизни.

Ключевые слова: *самостоятельная работа, творческая деятельность, мышление, представление, грамотность, дидактические методы, методы.*

Annotation: in this article, the importance and relevance of organizing independent work for elementary school students, the procedures for conducting them are theoretically and methodically explained. The main didactic goals and tasks of the independent work system - methods of students' assimilation of deep and solid knowledge, the ability to acquire independent knowledge and apply it in practical life - have been discussed.

Key words: *independent work, creative activity, thinking, representation, literacy, didactic methods, methods.*

“Boshlang‘ich ta’lim – ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan” , – deya belgilangan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”da. Ta’lim tizimining poydevori boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi, chunki bu bosqich o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, fan yo‘nalishlari bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, kommunikativ savodxonligini, o‘z-o‘zini va o‘zgalar fikrini anglash, erkin fikrlay olish, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish hamda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini egallashga zamin yaratadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan da’vatlari ta’limning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil ishlashga o‘rgatish masalasi bilan metodist olimlar oldindan qiziqib kelganlar. O‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining asosiy vazifasi ekanligi metodik adabiyotlarda qayd etilgan. Bu sohada bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Boshlang‘ich ta’limda mazkur soha bo‘yicha rus metodist olimlari N.N.Svetlovskaya, O.V.Djejeley, V.I.Lvovalarning ilmiy ishlari, darslik va qo‘llanmalari nashr etilgan. O‘zbekistonda professor Q.Abdullayeva, K.Qosimova, O.Safarov, S.Matchonov, B.Maqulova,

T.Adashboyev, E.Abduvalitov, D.Shodmonqulova, X.G‘ulomovalarning o‘quv metodik qo‘llanmalari va maqolalari nashr etilgan.

Mustaqillik nazariyasini rivojlantirish va o‘quvchilarning o‘quv jarayonida ijodiy faoliyatiga katta hissa qo‘shgan taniqli o‘qituvchilar Babanskiy Y.K., Danilov M.A., Esipov B.P., Lerner I.Y., Maxmutov M.I., Ogorodnikov I.T., Pidkasisty P.I., Skatkin M.N. va boshq.; psixologlar Bogoyavlenskiy D.N., Vygotskiy L.S., Galperin P. Y., Davydov V.V., Zankov L.V., Matyushkin A.M., Menchinskaya N.A., Leontiyev A.N., Rubinshteyn S.L., Elkonin D.B., Esaulov A.F. va boshqalar. Ushbu tadqiqotlar o‘quvchilarning mustaqilligi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri mustaqil ish ekanligini ko‘rsatdi.

Drozina V.V. o‘quvchilarning ijodiy mustaqil faoliyatini tashkil etish nazariyasi va amaliyotining bog‘liqligining asosiy qoidalarini shakllantirdi. “Mustaqil ish” tushunchasining mohiyati, maqsadlari, vazifalari, didaktik tamoyillari, mustaqil ishning vazifalari, o‘quv jarayonida uni tashkil etish shakllari va usullari Garunova M.G. Korolkova, B.E.Nilson, O.A.Orlovskiy, V.G.Pidkasisty, P.I.Tsukar, N.I. Chikantsevalarning tadqiqotlarda to‘liq va chuqur tahlil qilingan.

O‘quvchilarning mustaqil faoliyatini ta’lim jarayonida mustaqil ishlarni bajarish jarayoni shakllantirib beradi. Mustaqil ishlar o‘quvchilarning barchasini birdek o‘zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashi, ziyrak va hozirjavob bo‘lishiga yordam beradi. Buning uchun, o‘qituvchidan birinchi navbatda, ularni ruhan tayyorlash, ko‘zlangan ishni bajarish uning qo‘lidan kelishiga ishontirish talab etiladi. U puxta o‘ylangan, maqsadli va davomiy mashqlarni tavsiya etib, nazorat qilib borishi zarur.

“Eshitganimni yoddan chiqaraman, ko‘rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam, tushunib yetaman” – degan edi mashhur Xitoy faylasuflaridan biri bo‘lgan Konfutsiy. Bu so‘zlari bilan u mustaqil ishlarning ta’lim jarayonida qay darajada muhimligini isbotlab bergan.

Pedagogik ensiklopedik lug‘atda mustaqil ishlarga quyidagicha ta’rif berilgan: “O‘quvchilarning mustaqil ishi, o‘qituvchining bevosita rahbarligisiz, ammo nazorati ostida amalga oshiriladigan individual yoki jamoaviy o‘quv faoliyati”. Bundan shuni aytishimiz mumkinki, mustaqil ishlarni uyda yoki sinf xonasida tashkil qilish, albatta, o‘qituvchining nazorati ostida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, mustaqil ish o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin uning topshirig‘iga ko‘ra, buning uchun maxsus belgilangan vaqtda, o‘quvchilar ongli ravishda o‘z maqsadlariga erishishga intilib, o‘z kuch-g‘ayratlarini ishga solib, bir shaklda yoki bir necha shaklda ifoda etiladigan ish hisoblanadi.

Ma’lumki, darslarda o‘tkaziladigan mustaqil ishlar dars tipiga, dars jarayonining turli bosqichlariga, o‘quv materiallarining mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Boshlang‘ich sinfda ona tilidan o‘rganiladigan har bir mavzuning qiyinlik darajasiga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi.

O‘quvchilarni mustaqil faoliyatga o‘rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim:

– berilgan har bir topshiriq o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi hamda qiziqish uyg‘ota olishi;

– mustaqil ish topshiriqlari soddadan murakkabga qarab yo‘naltirilishi va eng muhimi o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi lozim;

– mustaqil ishni bajarishda o‘quvchilarda o‘ziga ishonch hissi uyg‘otish, topshiriqni bajarishga kirishishda o‘zlarida qat’iyat va dadillik sezishi;

– mustaqil bajaradigan topshiriqlar individual tarzda amalga oshirilishi (hamma o‘quvchi uchun bir xil topshiriq berish – mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta, bunda bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchiga e’tibor berish kerak;

– topshiriqlar turini almashtirib turishga alohida ahamiyat berish lozim, chunki o‘qituvchi har safar o‘quvchilarga yangi turdagi mustaqil ishlarni berishi kerak, chunki bir xil ko‘rinishdagi topshiriqlar o‘quvchilarda zerikish holatiga sabab bo‘lishi mumkin.

– barcha o‘quvchilarning topshiriqlarni bir vaqtda boshlab, berilgan muddatgacha tugatishini eslatib o‘tish lozim, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni shu talabni bajarishga ko‘niktirish lozim bo‘ladi;

– ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo‘lishi (partalarning ustida ortiqcha narsalar bo‘lmasligi lozim);

– mustaqil ish topshiriqlarini darsning turli bosqichlarida tashkil qilish mumkin .

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil ishlarga tayyorlash 1-sinfdan boshlanadi va bunda, asosan, darslikda berilgan topshiriqlardan foydalaniladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida mustaqil ishlardan, asosan, o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar bilan ishlash jarayonida foydalaniladi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda, uning ko‘rsatmalariga binoan berilgan topshiriqlarni og‘zaki yoki yozma bajarishadi. Topshiriqlar murakkab bo‘lmasligi, muayyan vaqt ichida bajarishga moslashtirilgan bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun beriladigan topshiriqlar 1-sinfdan boshlab beriladi va u asta-sekin murakkablashtirib boriladi. 1-sinfda, asosan, mustaqil ish vazifasi sifatida “Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring”, “Rasmga qarab sabzavot rasmlarini alifbo tartibida yozing”. “Rasmni kuzating va unda tasvirlangan narsalarni aniqlang hamda nomini yozing” kabi topshiriqlar beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda eng maqbul ilg‘or tajribalardan samarali foydalanish metodikasini takomillashtirish, ta’lim mazmun va sifatiga qo‘yilayotgan

talablar va o‘quv jarayonida integratsiyani ta’minlash hamda o‘zlashtirilgan bilimlarning hayotiy ahamiyatini oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli qonuni. / https://lex.uz/docs/-5013007.
2. Milliy o‘quv dasturi loyihasi. – Toshkent, 2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 56-bet.
4. U.B. Aydarova. “O‘qish savodxonligi”. 2-sinflar uchun darslik. – T.: “Novda”, 2023.
5. Inomjonova M.S. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 February 2022 / Volume 3 Issue
6. “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning samarali yo‘llari”.
7. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharoljon Sariyev. “Ona tili o‘qitish metodikasi” darslik. – Toshkent: «Nosir» nashriyoti, 2009. 54-bet.
8. Masharipova, U. (2019). Formation of innovative culture of future teachers primary school. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(6).



Maftuna JABBOROVA,
Qarshi davlat universiteti doktoranti
E-mail: maftuna97jabborova@gmail.com

TABIIY USULLAR YORDAMIDA BOLA SHAXSIDAGI LINGVISTIK IJODIY INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada, bola shaxsida lingvistik ijodiy intellektni shakllantirishda tabiiy usullardan foydalanish haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, tabiiy usullar yordamida oson va qulay ravishda hech qanday qiyinchiliklarsiz bolalarning chet tillarini o‘zlashtirishlari uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *muloqot, tabiiy usul, nutq tezligi, planshet, kartochka, ijodiy intellekt.*

Аннотация: в данной статье представлена информация об использовании естественных методов в формировании языкового творческого интеллекта у ребенка. Также даются рекомендации, чтобы дети могли легко и комфортно без каких-либо затруднений изучать иностранные языки естественными методами.

Ключевые слова: *общение, естественный метод, скорость речи, планшет, карта, творческий интеллект.*

Annotation: this article provides information about the use of natural methods in the formation of linguistic creative intellect in a child. Also, recommendations are given for children to learn foreign languages easily and comfortably without any difficulties using natural methods.

Key words: *communication, natural method, speed of speech, tablet, card, creative intellect.*

Bizga ma’lumki, bolalar o‘z ona tillarida ravon hamda grammatik xatolarsiz so‘zlashishlari uchun, ularga erta yoshda hech qanday maxsus ta’lim berilmaydi. Shunchaki atroflaridagi insonlar bilan muloqotda bo‘lganlarida bu so‘zlarni onglarida aks ettirishadi. Bola tug‘ilgandan boshlab oila a’zolari, keyinchalik ko‘chadagi insonlar hamda do‘stlari bilan faol muloqotda bo‘ladi. Natijada esa, bola o‘z ona tilida eshitganlariga asoslanib, gapira boshlaydi. Dastavval, gaplarida so‘z turkumlarini to‘g‘ri joylashtirish hamda kelishiklarni qo‘llash bo‘yicha bir qancha xatolarga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Lekin, bunday kamchiliklar bola ulg‘aygan sari kamayib, yo‘qolib boradi. Bolalar maktab yoshiga yetgunlariga qadar, hech qanday xatolarsiz so‘zlasha olish malakasiga maxsus ta’limsiz, “tabiiy usul”da erishadilar. Shunday ekan biz bolalarga chet tillarini oson hamda erta yoshlarida o‘rgatish uchun tabiiy usullardan foydalanamiz.

Bolalar “tabiiy” ma’lumotlarni tezroq va osonroq qabul qilishadi. Yosh bolalar chet tillarini o‘rganganlarida ular oddiy va odatiy sur’atdagi nutqni tezroq eslab qoladilar. Biz esa bolalarga chet tillarini o‘rgatishda, avvalo uning grammatikasi bilan tanishtirishimiz maqbul deb o‘ylaymiz. Ammo bu bolalar intellektida chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Bolalarni ko‘plab qoidalarga o‘rgatish til bilish darajalarini oshirish

o‘rniga, bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu qiyinchiliklarga duch kelmasliklari uchun bolalarni erta yoshdan boshlab tabiiy ravishda chet tillarini o‘rganishlari uchun sharoit yaratib berishimiz lozim. Bundan tashqari, bolalar chet tillarini o‘rganishlarida nutqning tabiiy tezligida o‘zlashtirsalar, bu ularning miyasida qiyofalar shaklida muhrlanadi. Bu jarayon kelajakda ushbu tilni o‘rganishda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni bartaraf etadi. Bolaning bosh miyasi u tug‘ilgan vaqtida hech qanday egat va pushtalardan iborat bo‘lmaydi. Bola o‘rgangani sayin ular ko‘paya boradi va ma’lumotlar bazasi shakllana boradi. Bolalardagi lingvistik ijodiy intellektni shakllantirishda ham chet tilidagi so‘zlar hech qanday qoidalarsiz tabiiy usulda o‘rgatilsa, miya yarimsharlarida bu jarayon aks eta boshlaydi va bu miyaga ma’lumotlarni yozib olish imkonini beradi. Bu esa bosh miyadagi mavjud ma’lumotlarni to‘g‘rilagandan ko‘ra ancha osonroqdir. Masalan, inson o‘zi tarqalgan hududdagi shevaga xos bo‘lgan so‘zlar asosida gapiradi. Shevaga xos bo‘lgan so‘zlarni badiiy tildagi so‘zlarga o‘zgartirishi uchun esa, anchagina mashaqqat va harakat sarflaydi. Ba’zi bir insonlar shevaga xos bo‘lgan so‘zlarini butun umr ham to‘g‘rilay olishmaydi. Shunday ekan, bolalar kelajakda chet tillarini o‘rganishda muammolarga duch kelmasliklari uchun erta yoshlaridan boshlab, tabiiy tilda chet tili materiallarini o‘zlashtirishlari lozim. Shundagina bola ulg‘ayganda bu borada muammolar paydo bo‘lmaydi.

Bolalarga tabiiy usulda chet tillarini o‘rgatishda zamonaviy gadjetlardan foydalanamiz. Ularga misol qilib bolalar uchun yaratilgan maxsus til o‘rgatuvchi “planshetni” keltirishimiz mumkin.





Ushbu planshet ingliz va rus tillarini o‘rgatishga moslashtirilgan bo‘lib, bolalar uchun ishlatishda juda ham oson va qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, quvvatlovchi manbaga ega va quvvati uzoq vaqt mobaynida sarflanadi. Unda bir qancha kartochkalar mavjud bo‘lib, ana shu kartochkalarni bola planshetga joylagan vaqtda planshet ularning nomini bir vaqtning o‘zida ham ingliz, ham rus tillarida aytadi.

Planshet kartochkalarining ko‘rinishi



Bu kartochkalarda turli xildagi hayvon nomlari, o‘quv predmetlari, sabzavot va poliz ekinlari, mevalar, avtotransport nomlari hamda kasblar majmuasi aks etgan. Bola ushbu kartochkalarni planshetga joylaydi hamda undagi rasmda aks etgan predmetni rus va ingliz tilidagi nomlarini eshitadi. Hayvonlar va transport nomlarini eshitish bilan bir qatorda, ularning ovozini ham eshitadi. Bu esa bolada yanada aniq va yaxlit tasavvur hosil bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, bolalar chet tillarini tabiiy usulda, aynan tashqi muhitdagi aytiladigan ovozlari yordamida o‘rganishadi. Qisqa vaqt mobaynida kartochkada berilgan so‘zlarni bolalar xotiralarida olib qolishadi hamda so‘ragan vaqtda javob bera olishadi. Bola xotirasida mustahkamlangan so‘zlar, kelajakdagi chet tilllarini o‘rganish uchun asos vazifasini bajaribgina qolmay, bolaning ijodiy intellektida muhrlanadi. Bundan tashqari, bolalarda lingvistik ijodiy intellektni shakllantirish uchun, bolalarni aynan chet tillarida gaplashuvchi insonlar bilan bo‘ladigan muloqoti muhimdir. Bolalar ingliz, rus yoki boshqa tillarda so‘zlashuvchi bolalar bilan o‘yin jarayonida faol muloqotda bo‘lishadi. Buning natijasida qisqa fursatda ular tengqurlari so‘zlashadigan tilda o‘z ona tillaridek bemalol gapirishni boshlaydilar. Buning sababi shundaki, ular hali so‘zlarni tahlil qilishni bilmaydilar. Ular alohida so‘zning ma’nosini emas, balki butun bir gapning to‘liq ma’nosini anglaydilar. Shuning uchun ham kattalar chet tilidagi bitta so‘zni tahlil qilgunlaricha, bolalar to‘liq gapni ayta oladilar.

Xulosa sifatida keltirishimiz mumkinki, bola shaxsi erta yoshdan boshlab atrofidagi borliqni o‘rgana boshlaydi. O‘rganayotgan ma’lumotlarining dastlabki ko‘rinishi bolaning xotirasida mustahkam o‘rnashadi. Ma’lumotlarni o‘rganishlarida qabul qilinayotgan bilimlar tabiiy ravishda ularning miya yarimsharlarida aks etadi. Shunday ekan, bolalarga chet tillarini o‘rgatishda ham tabiiy usullardan foydalanish ularga hech qanday qoidalarsiz va qiyinchiliklarsiz chet tillarini o‘rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Masari Ibuka. “Uchgacha ayni vaqti”. – Toshkent: Hilol-nashr, 2023. 244-bet.



Дурдона ЭГАМНАЗАРОВА,
доцент Андижанского государственного института иностранных языков

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИГРА СМЫСЛОВ

Аннотация: в статье анализируются различные типы семантических девиаций, включая метафоры, оксюмороны, иронии и парадоксы, которые играют ключевую роль в создании художественного и выразительного текста. Рассматриваются также примеры из современных литературных и разговорных контекстов, что позволяет более глубоко понять механизмы этих явлений. В ходе исследования выявляются функции и значение семантических девиаций в развитии английского языка, а также их влияние на восприятие текста и формирование уникального стиля автора.

Ключевые слова: *риторические фигуры, метафоры, оксюморон, ирония, парадокс, многозначность*

Annotatsiya: maqolada semantik deviatsiyaning turlari, jumladan, metaforalar, oksümoronlar, kinoya va paradokslar tahlil qilinadi, ular badiiy va ifodali matn yaratishda asosiy rol o‘ynaydi. Zamonaviy adabiy va og‘zaki kontekstlardan olingan misollar ham ko‘rib chiqiladi, bu hodisalarning mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqot davomida ingliz tilining rivojlanishida semantik deviatsiyaning funksiyalari va ahamiyati hamda ularning matnni qabul qilishga va muallifning o‘ziga xos uslubini shakllantirishga ta’siri aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *ritorik figuralar, metaforalar, oksümoron, kinoya, paradoks, ko‘p ma’nolilik.*

Abstract: the article analyzes various types of semantic deviations, including metaphors, oxymorons, irony, and paradoxes, which play a key role in the creation of artistic and expressive texts. Examples from contemporary literary and conversational contexts are also examined, allowing for a deeper understanding of the mechanisms behind these phenomena. The research reveals the functions and significance of semantic deviations in the development of the English language, as well as their impact on the perception of the text and the formation of the author's unique style.

Keywords: *rhetorical figures, metaphors, oxymoron, irony, paradox, ambiguity.*

Введение

Изучение семантических девиаций в английском языке представляет собой важный аспект лингвистических исследований, направленных на понимание процессов формирования и эволюции значений в язы-

ке. Семантические девиации, такие как метафоры, оксюмороны, ирония и парадоксы, являются ключевыми элементами, через которые говорящие могут выражать сложные идеи и создавать уникальные стилистические эффекты (Lakoff & Johnson, 1980). Они способствуют не только расширению смыслового поля языка, но и увеличению его выразительных возможностей.

По мнению многих исследователей, семантические девиации служат способом привлечения внимания к определенным частям текста и создания эмоционального отклика у читателя (Turner, 1996). Кроме того, они являются мощным средством для манипулирования восприятием, что делает их особенно актуальными в эпоху цифровых медиа, где такие девиации часто используются для создания впечатляющих заголовков и слоганов (Gibbs, 1994).

Основная часть

Анализ семантических девиаций в английском языке показал, что данные явления играют важную роль в различных типах дискурса, включая художественную литературу, журналистику и повседневное общение. Рассмотренные примеры демонстрируют, что семантические девиации выполняют не только эстетическую функцию, но и когнитивную, позволяя передавать сложные смыслы через упрощенные или измененные формы выражения.

Одним из ключевых результатов исследования стало выявление значимости метафоры как основного инструмента семантических девиаций. В художественной литературе метафора используется для создания образности и передачи эмоционального состояния персонажей. Например, выражение "His words were daggers" («Его слова были как кинжалы») демонстрирует, как метафорическое отклонение от буквального значения позволяет усилить воздействие на читателя, создавая ассоциацию с болью и агрессией (Lakoff & Johnson, 1980). Это подтверждает гипотезу о том, что метафоры не только расширяют возможности языка, но и облегчают восприятие абстрактных понятий через конкретные образы.

Оксюмороны, как форма семантических девиаций, также активно используются в литературе для подчеркивания противоречий и создания напряженности в тексте. Рассмотрим пример из пьесы Шекспира: "O brawling love! O loving hate!" («О, борющаяся любовь! О, ненавистная любовь!»). Здесь оксюморон не просто усиливает драматизм, но и отражает внутренние противоречия персонажа, показывая, как чувства могут быть одновременно противоположными (Turner, 1996). Это согласуется с идеей о том, что оксюмороны способствуют созданию многослойности текста и приглашают читателя к более глубокому анализу.

Ирония, как форма семантических девиаций, особенно распространена в современном медийном и цифровом дискурсе. Например, фраза "Oh great, another meeting!" («О, отлично, еще одна встреча!») часто используется для выражения неудовольствия через позитивную форму. В данном случае ироническое отклонение от буквального значения создает эффект сарказма, указывая на негативное отношение к ситуации (Gibbs, 1994). Важно отметить, что ирония требует от реципиента осведомленности о контексте, так как только через понимание противоположного смысла можно выявить истинное значение высказывания.

Кроме того, результаты показали, что в журналистских текстах семантические девиации часто применяются для создания ярких заголовков и привлечения внимания аудитории. Например, заголовок "Economy’s Roller Coaster Ride Continues" («Американские горки экономики продолжаются») является метафорой, которая передает нестабильность экономической ситуации через образ американских горок. Такое отклонение от буквального значения привлекает внимание и усиливает эмоциональную реакцию читателей (Lakoff, 2003).

Семантические девиации не только способствуют созданию выразительности в языке, но и играют ключевую роль в когнитивных процессах восприятия и интерпретации текста. Оксюмороны и метафоры, как формы девиаций, создают многоуровневые смысловые структуры, которые побуждают читателя к более глубокому анализу содержания, в то время как ирония и сарказм формируют особый тип взаимодействия между автором и аудиторией, требующий активного участия в интерпретации.

Метафоры являются неотъемлемой частью не только художественного языка, но и повседневного общения. Выражение "I'm drowning in work" («Я тону в работе») – это пример живой метафоры, где абстрактное понятие перегруженности передается через конкретный образ утопающего. В данном случае наблюдается отклонение от буквального значения слова «тонуть», что позволяет усилить эмоциональное воздействие на собеседника и показать степень занятости. Это подтверждает концепцию Лакоффа и Джонсона (1980), согласно которой метафоры структурируют наше восприятие мира через знакомые физические явления.

Еще один показательный пример – выражение "Time is money" («Время – деньги»). Здесь время трактуется как экономический ресурс, что позволяет усилить его ценность в рамках делового и экономического дискурса. Подобные метафоры укоренились в повседневной речи и отражают концептуальные изменения, происходящие в языке, которые способствуют созданию новых смыслов.

Оксюмороны особенно часто встречаются в поэзии, где авторы стремятся выразить сложные

и противоречивые эмоции. Например, в стихотворении Александра Поупа можно найти оксюморон "darkness visible" («видимая тьма»). Это выражение создает образ тьмы, которая, вопреки логике, становится видимой, что отражает двойственность восприятия и усиливает эмоциональное воздействие на читателя (Fahnestock, 1999).

В современной поэзии и музыке оксюмороны также играют значительную роль. Например, в песнях группы Coldplay встречается строка "A rush of blood to the head" («Порыв крови к голове»), где используется метафорическое отклонение для описания эмоционального состояния, ассоциирующегося с внезапным решением или импульсивностью. Это подчеркивает, как поэты и музыканты используют семантические девиации для передачи своих идей и эмоций.

В контексте цифрового общения и социальных медиа ирония приобрела особое значение. Яркий пример можно найти в распространенном использовании хэштега #blessed, который часто используется иронически для описания не самых удачных событий, как например: "Stuck in traffic for two hours #blessed" («Застрял в пробке на два часа #благословлен»). В данном случае наблюдается отклонение от буквального значения слова «благословлен», что создает иронический эффект и усиливает негативную оценку ситуации (Gibbs, 2000). Подобные примеры показывают, как ирония в цифровом контексте помогает выражать сарказм и критику через противоположные значения.

Парадоксы также представляют собой яркую форму семантических девиаций, особенно в философских и научных текстах. Например, парадокс "This statement is false" («Это утверждение ложно») является классическим примером логической противоречивости, которое заставляет реципиента задуматься о границах смысла и значения. Парадоксальные высказывания, такие как этот, активно используются для иллюстрации сложности логических конструкций и обсуждения философских вопросов (Quine, 1966).

В науке парадоксы могут также служить для вызова устоявшихся понятий. Например, знаменитый парадокс Зенона о том, что «Ахиллес никогда не догонит черепаху», хотя и основан на логическом рассуждении, представляет собой семантическое отклонение, вызывающее вопросы о непрерывности и делимости времени и пространства (Black, 1970).

Таким образом, приведенные примеры показывают, что семантические девиации выполняют важные когнитивные и риторические функции. Метафоры помогают передавать сложные абстракции через конкретные образы, оксюмороны подчеркивают противоречия и усиливают эмоциональное воздействие, ирония и сарказм создают многослойные тексты, требующие активной интерпретации, а парадоксы стимулируют размышления над смыслом и логикой. Семантические девиации делают язык не только более выразительным, но и более многогранным, открывая новые возможности для передачи идей и эмоций.

Заключение

Исследование семантических девиаций в английском языке показало, что эти языковые явления играют важную роль в создании выразительных, многослойных и концептуально богатых текстов. Метафоры, оксюмороны, ирония и парадоксы не только расширяют границы традиционного значения слов, но и предоставляют говорящим и писателям эффективные инструменты для передачи сложных идей и эмоций. Как показали примеры из различных дискурсов, от литературы до цифровых медиа, семантические девиации позволяют создавать новые смысловые ассоциации, усиливать эмоциональное воздействие и вызывать глубокие когнитивные реакции у читателей и слушателей. Семантические девиации не только обогащают язык, но и позволяют говорящим и авторам создавать многозначные, выразительные и запоминающиеся тексты, что делает их важным объектом лингвистического анализа и изучения.

Использованной литература:

1. Black, Max. Models and Metaphors: Studies in Language and Philosophy. Cornell University Press, 1970.
2. Fahnestock, Jeanne. Rhetorical Figures in Science. Oxford University Press, 1999.
3. Gibbs, Raymond W. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. Cambridge University Press, 1994.
4. Lakoff, George, and Mark Johnson. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980.
5. Lyons, John. Semantics. Cambridge University Press, 1977.
6. Lyons, John. Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge University Press, 1995.
7. Quine, W.V.O. Philosophy of Logic. Harvard University Press, 1966.
8. Turner, Mark. The Literary Mind: The Origins of Thought and Language. Oxford University Press, 1996.

Gulbakhor NAZAROVA,
Associate Professor, PhD
USWLU, Department of Theoretical English Language

DIDACTIC PRINCIPLES OF TEACHING AND VISIBILITY

Annotation: this article discusses about classical didactics and modern principles of didactics. The principle of visual teaching is widely revealed with examples that is based on the real ideas of students and explained the use of visual aids cultivates attention, observation, and develops a culture of thinking. The use of visual aids cultivates attention, observation, and develops a culture of thinking. The principle of systematicity and consistency are the major factor to contribute in teaching and educating.

Key words: *principle, material, visual aids, didactics, visual teaching, science, social community, educational process, memorization.*

Аннотация: в этой статье рассматриваются классическая дидактика и современные принципы дидактики. Принцип наглядного обучения широко раскрыт на примерах, основанных на реальных идеях студентов, и объясняется, как использование наглядных пособий способствует вниманию, наблюдению и развитию культуры мышления. Принципы систематичности и последовательности являются основными факторами, способствующими обучению и воспитанию.

Ключевые слова: *принцип, материал, наглядные пособия, дидактика, наглядное обучение, наука, социальное сообщество, запоминание.*

Annotatsiya: ushbu maqolada klassik didaktika va zamonaviy didaktika prinsiplari ko‘rib chiqiladi. Noyob o‘qitish prinsipi talabalarning haqiqiy g‘oyalariga asoslangan misollar orqali keng yoritilgan bo‘lib, ko‘rgazma vositalaridan foydalanish diqqatni, kuzatishni rivojlantirish va fikrlash madaniyatini shakllantirishga qanday yordam berishini tushuntiradi. Tizimlilik va izchillik prinsiplari ta’lim va tarbiyada asosiy omillar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *prinsip, material, ko‘rgazma vositalari, didaktika, noyob o‘qitish, fan, ijtimoiy jamiyat, eslab qolish.*

Pedagogy is the science of the laws and methods of teaching, educating and developing people. The main components of pedagogy are the study of the process of education, training (didactics) and the process of formation and upbringing of both the individual and the social community as a whole.

Classical didactics is a branch of pedagogy that studies the principles, forms and methods of teaching, and the theory of learning. The history of didactics is characterized by the persistent desire of researchers to identify general principles of teaching and, on their basis, to formulate those most important requirements, observing which teachers could achieve high and lasting results. [1]

Modern principles of didactics determine the requirements for all components of the educational process - the logic of learning, goals and objectives, the formation of content, the choice of forms and methods, stimulation and analysis of achieved results. The principles of training are the fundamental provisions that determine the system of requirements for the content, organization and methodology of training.[2]

The following didactic principles can be identified as fundamental:

- consciousness and activity; - scientific character;
- availability; - visibility; - connection between theory and practice
- systematicity and consistency; - strength;

Taken together, the principles of modern pedagogy form a single systemic integrity. [3]

The principle of consciousness and active learning implies the relationship of pedagogical guidance with the conscious, active, creative activity of students. Consciousness is manifested in understanding the purpose and objectives of learning, in full knowledge of the facts, a deep understanding of the material, penetration into the essence of what is being studied, and the ability to consciously apply it in practice. The basis of conscious learning is the mental, thinking activity of students. Activity is closely related to independence of thought and action, plays a big role in decision making, the ability to defend one’s views, etc.[5]

The practical implementation of the principle of consciousness and activity is carried out by observing the following training rules.

1. A clear understanding of the goals and objectives of the work ahead, its importance and significance is a necessary condition for conscious learning

2. It is necessary to teach in such a way that the student understands what, why and how to do and never mechanically perform educational actions without first deeply understanding them.

3. Understanding each word, sentence, concept, revealing them. You should not introduce concepts that will not be explained later.

4. Using the power of mutual learning among students, creating conditions for the development of

collective forms of searching for the correct answer. What a friend says is often perceived by students better than the teacher’s explanation.

5. The unknown must be logically linked to the known: where there is no logical connection between acquired and assimilated knowledge, there is no conscious learning.

6. Learning will be more successful if each rule is accompanied by an optimal number of examples so that it becomes clear enough how varied its application is.

7. Nothing should be taught based on authority alone, but everything should be taught with the help of evidence based on feeling and reason.

8. You should use the question “why” as often as possible to teach you to think causally: understanding cause-and-effect relationships is an indispensable condition for developmental learning.

9. The skill of asking questions and listening to answers is one of the important conditions for stimulating and maintaining activity. What question is the answer, just as a teacher listens to a student, so a student listens to a teacher. [3]

The principle of visual teaching is based on the real ideas of students. This is one of the most well-known and intuitive principles of learning, used since ancient times. A logical justification for this principle was obtained relatively recently: human sensory organs have different sensitivity to external stimuli; in the vast majority of people, the organs of vision have the greatest sensitivity.[4]

Teaching practice has developed a large number of rules that reveal the application of the principle of clarity. Here are some of them:

– Memorizing a number of objects presented in kind (in pictures or models) occurs better, easier and faster than memorizing the same series presented in verbal, oral or written form

– The golden rule of learning: everything that is possible should be presented for perception by the senses, namely: visible by sight, audible by hearing, smells by smell, accessible to touch by touch.

– Never limit yourself to visibility - visibility is not a goal, but a means of learning.

– When using various types of visual aids, you should not get carried away with an excessive number of visual aids: this distracts attention and prevents you from perceiving the main thing.

– It is necessary to use modern means of visualization: educational television, video recording, code slides, split-screen projection.[3]

The use of visual aids cultivates attention, observation, and develops a culture of thinking. The principle of systematicity and consistency. A person only has scientific knowledge when it is clearly reflected by the picture of the external world and represents a system of interrelated concepts. The universal means and main way of forming scientific knowledge is organized training; a system of scientific knowledge is created in a sequence that is determined by the internal logic of the educational material and the cognitive capabilities of students. Thus, the principle of systematic and consistent learning is the acquisition of knowledge in a system, its consistent assimilation. In practical activities, the principle of systematic and consistent training is implemented by observing many training rules, the most important of which are the following:

1. Use of diagrams and plans. It is necessary to divide the content of the material being studied into logically complete parts.

2. Thorough disclosure and consideration of each issue and point of the plan.

3. We must remember: what is elementary and simple from the point of view of history and logic often turns out to be the most difficult for conscious assimilation.

4. It is necessary to draw up “supporting” notes, structural and logical diagrams of educational material, facilitating the process of assimilation of knowledge.

5. Repeat earlier learning more often to ensure systematic and consistent learning.

6. At the end of a section or course, generalizations and systematization are required.

7. It is important to learn and become accustomed to systematically analyzing your own mistakes. [3]

An established system of knowledge is the most important means of preventing its forgetting. Forgotten knowledge is quickly restored in the system, without it - with great difficulty. I. Comenius noted: everything must lead in an inextricable sequence so that everything today consolidates yesterday and paves the way for tomorrow.

Principle of strength - Thorough study of the material. The strength of assimilation of educational material depends not only on objective factors: the content and structure of this material, but also on the subjective attitude towards this educational material, training, teacher; the strength of assimilation is determined by the organization of training. The work of memory is selective: the more important and interesting a particular educational material is, the more firmly this material is consolidated and the longer it is retained.[7]

Modern understanding of the mechanisms of educational activity that lead to solid assimilation of knowledge allows us to add some new rules of

learning to the traditional ones.

– Memory should not be overloaded to the detriment of thinking.

– Consciously learned, meaningful learning is well remembered.

– Material that requires memorization should be contained in short rows. Eliminate all unnecessary lines from the rows to be memorized.

– Forgetting what has been learned occurs most intensively immediately after learning, so the time and frequency of repetitions must be consistent with the psychological laws of forgetting.

– Easy and monotonous types of work should be avoided: they develop little and quickly tire you. [3]

The principle of accessibility of education is the compliance of the organization and implementation of the didactic process with the level of development and preparedness of students, their individual characteristics, and age.[6]

There are known classical rules related to the practical implementation of the principle of accessibility, formulated by Ya.A. Comenius: from easy to difficult, from known to unknown, from simple to complex. The theory and practice of modern education expand the list of mandatory rules for accessible education.

– Everything to be studied should be distributed according to the stages of age; what should be studied is what is perceptible at each age.

– The life experience of students, their interests, and developmental characteristics should be taken into account.

– It is necessary to take into account the degree of individual learning ability of each student, unite students into differentiated subgroups taking into account the level of their learning ability.

– Training requires a certain amount of tension. When it is absent, students lose the habit of working to their full potential. The pace of learning set by the students themselves is, as a rule, lower than possible and feasible for them.

– Availability is related to performance: increasingly longer and more intense mental activity should be carried out. By increasing efficiency, we reduce the barrier to access to training. [3]

It should be noted that modern principles of didactics determine the requirements for all components of the educational process - the logic of learning, goals and objectives, the formation of content, the choice of forms and methods, stimulation and analysis of achieved results. Having studied the material, we can conclude that visibility in didactics is one of the most well-known and intuitively understood teaching principles, used since ancient times. A logical justification for this principle was obtained relatively recently: human sensory organs have different sensitivity to external stimuli; in the vast majority of people, the organs of vision have the greatest sensitivity.

References

1. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам / Н.Д. Гальская. – М., 2000.
2. Аниськович Н.Р. Моделирование коммуникативного поведения в процессе иноязычного общения / Н.Р. Аниськович // Вестник МГЛУ. 2001. №3. - С.38-44.
3. Носонович Е.В. Методическая аутентичность в обучении иностранным языкам / Е.В. Носонович // Иностранные языки в школе. 2000. №1. - С. 11-16.
4. Аниськович Н.Р. Обучение устно-речевому общению в сотрудничестве (на материале английского языка) / Аниськович // Замежныямовы у Рэспубліцы Беларусь. 2002. №1. - С.32.
5. Mayer R. E. Multimedia Learning. Cambridge University Press. 2001.
6. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press. 1978.
7. Piaget J. The Science of Education and the Psychology of the Child. Orion Press. 1970.

Zilola ESHANOVA,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Andijon davlat universiteti doktoranti
zeshanova79@gmail.com

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA ALLA JANRI MODIFIKATSIYALARI

Annotatsiya: maqolada istiqlol davri o'zbek adabiyotidagi o'zida folklor va yozma adabiyotga xos xususiyatlarni mujassam etgan, turli janrlar sintezi asosida yaratilgan "oraliq janrlar" muammosi yoritilgan. Xususan, unda alla janri modifikatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini, folklordagi alla janridan farqlarini yoritish maqsadi qo'yilgan. Ushbu nazariy masala shu davrda ijod qilgan shoirlar she'rlari tahlili orqali asoslangan.

Kalit so'zlar: *sintez, janrlar sintezi, modifikatsiya, stilizatsiya, parodiya, taqlid, komiklik, stilizatsion folklorizm.*

Аннотация: в статье освещается проблема "промежуточных жанров", созданных на основе синтеза различных жанров в узбекской литературе периода независимости, воплощающих в себе особенности фольклора и письменной литературы. В частности, поставлена цель выделить специфические особенности жанровых модификаций алла и их отличия от жанра алла. Данный теоретический вопрос обоснован посредством анализа стихотворений поэтов, творивших в этот период.

Ключевые слова: *синтез, синтез жанров, модификация, стилизация, пародия, имитация, комизм, стилизационный фольклоризм.*

Annotation: the article discrabe the problem of "intermediate genres" created on the basis of the synthesis of various genres in Uzbek literature of the independence period, embodying the features of folklore and written literature. In particular, the goal is to highlight the specific features of the genre modifications of alla and their differences from the genre of folk alla. This theoretical question is substantiated through the analysis of poems by poets who created during this period.

Key words: *synthesis, synthesis of genres, modification, stylization, parody, imitation, comedy, stylized folklorism.*

Kirish

Adabiyotshunoslikda janrning nazariy jihatlari va kanonik xususiyatlarini o'rganishga e'tibor necha asrlardan buyon mavjud. Janr nazariyasi muammosini o'rganish dolzarb muammo bo'lib, janrlar tizimi murakkablashayotgan, janr haqidagi nazariy qarashlar o'zgarayotgan va turli submadaniyatlarda janrlarning o'ziga xos alohida adabiy shakllari yaratilayotgan XX asr oxiri va XXI asr boshlari adabiyotida ancha qiyin kechmoqda. Mazkur davr adabiyotida ijod qilgan ijodkorlar yangi usul va yo'llarda, turli janrlar sintezi asosida asarlar yaratdilar. Folklor va adabiyot o'rtasidagi munosabatlar o'zgardi va o'zida folklorga ham, yozma adabiyotga ham xos xususiyatlarni mujassamlashtirgan "oraliq janrlar" paydo bo'ldi. XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan bu jarayon istiqlol davri adabiyotida jadal sur'atlarda rivojlandi. Bunday janrlarga adabiy alla, adabiy yor-yor, adabiy topishmoqlar, afsona, rivoyat stilizatsiyasi asosida yaratilgan janrlar, balladalar, baxshiyona turkumidagi asarlar, ta'birnoma tipidagi asarlar kiradi. Bunday janrlarning paydo bo'lishida xalq og'zaki ijodidagi va yozma adabiyotdagi janrlar sintezi muhim ahamiyatga ega. Biz ushbu maqolamizda adabiy allalarning folklorga xos alla janri modifikatsiyasi ekanligini asoslash maqsadini qo'ydik. Ushbu maqsadga erishish uchun alla janri modifikatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari yoritildi, o'zgarishga uchragan badiiy komponentlar tahlili orqali ularning farqli xususiyatlari ko'rsatildi.

Asosiy qism

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida alla janri invariant modelining imkoniyatlarini oshirish, uni yangi davr muammolarini yoritishga xizmat qildirish maqsadi asosida alla janri modifikatsiyalari paydo bo'ldi. Istiqlol davrida ijod qilgan ijodkorlar ijtimoiy-tarixiy voqelik talabi bilan folklorga asoslangan janr modifikatsiyalarini yaratdilar. Alla va she'r janrining sintezlashuvi hamda mazmun-mundarijasining o'zgarishi natijasida alla janri modifikatsiyalari yaratildi. Modifikatsiya biror-bir mumtoz janrning mazmun-mundarijasiga, kompozitsiyasi, ijrosi va vazifasiga ko'ra yangi shaklga o'tishi bo'lib, zamonaviy adabiyotda janrning kanonik xususiyatlariga munosabatning o'zgarishi bilan paydo bo'lmoqda. Modifikatsiya termini zamonaviy adabiyot nazariyasiga oid adabiyotlarda "antijanr" termini bilan sinonim sifatida ishlatilmoqda va sifat jihatdan o'zgarishga uchragan, eski shaklning yangi vazifa bajarishga qaratilgan shakliga nisbatan qo'llanilmoqda. Modifikatsiya va "antijanr"ning asosiy xususiyati mumtoz janr mazmun-mundarijasiga g'oyaviy-funksional jihatdan zid mohiyat kasb etishidir. Janr modifikatsiyalariga ayrim adabiyotlarda folklor matnining "ikkinchi shakl"ga o'tishi sifatida qaralgan va ular parodiyalangan hamda parodiyalanmagan modifikatsiyalar sifatida tasniflab o'rganilgan [1:207-

213]. Yu.N.Tinyanov parodiyaga yaqin shakllar sifatida stilizatsiya, taqlid kabilarni kiritadi va parodiyalar har doim ham komiklik bilan bog‘liq bo‘lmasligini [2:284-309.] ta’kidlaydi. Biroq V.I.Novikovga ko‘ra, parodiyaning qurilish asosi har doim badiiy asardagi kulgili tasvir bilan bog‘liq bo‘ladi [3]. Biroq parodiyalardan farqli o‘laroq, janr modifikatsiyalari komiklik vazifasiga yo‘naltirilmagan bo‘ladi. Shu ma’noda adabiy allalarni alla janri mazmun- mundarijasiga g‘oyaviy-funksional jihatdan zid mohiyat kasb etishiga, kompozitsiyasiga, ijrosi va vazifasining o‘zgarganiga asoslanib, alla janri modifikatsiyalari deya olamiz.

Alla janri stilizatsiyasi va modifikatsiya haqida o‘zbek adabiyotshunosligida I.Yormatov va L.Sharipovalar o‘z nazariy qarashlarini aytib o‘tganlar. I.Yormatov stilizatsion folklorizmlarning modifikatsion stilizatsiyalar yoki soxta modifikatsiya ko‘rinishlari mavjudligini aytadi [4:31-81]. L.Sharipova esa bu fikrga qo‘shilmaydi va “... bizningcha, “modifikatsiya” istilohi “folklorizm” kabi umumiylik kasb etadi-yu, uning turlaridan birini anglatmaydi. Chunki asl oddiy folklorizm bilan asl analitik folklorizmlardan boshqa turdagi folklorizmlarda folklor materiali o‘z shaklini o‘zgartirgan bo‘ladi” [5:18-19] deydi. Olima I.Yormatov nazariy qarashlarini inkor etadi, biroq oddiy folklorizm bilan asl analitik folklorizmlardan boshqa turdagi, ya’ni stilizatsion va sintezlashgan folklorizmlarda folklor materiali o‘z shaklini o‘zgartirishini aytadi, folklor materialining shakli va mazmun-mundarijasining o‘zgarishi esa janr modifikatsiyasidir. Darhaqiqat, L.Sharipova ta’kidlaganidek, modifikatsiya folklorizm, xususan, stilizatsion folklorizmning turi emas. I.Yormatov ko‘rsatgan modifikatsiya esa stilizatsiya, parodiya, taqlid kabi ichki ko‘rinishlardan iborat bo‘lgan kengroq adabiy hodisa. Demak, olim ko‘rsatgan modifikatsiya–stilizatsiya, stilizatsion folklorizm bo‘lsa, soxta modifikatsiya esa modifikatsiyaning parodiya va taqlid kabi ichki turlaridir.

Modifikatsiyaning stilizatsiya shakli alla janri invarianti asosida yaratilgan, shu bois bunday alla janri variatsiyalari shakliy va kompozitsiyasiga ko‘ra o‘zgarishga uchragan bo‘ladi. Alla janri stilizatsiyasi asosida yaratilgan allalar Yo‘ldosh Eshbek, Go‘zal Begim, Sharifa Salimova kabi shoiralar ijodida uchraydi. Ular yaratgan adabiy allalar xalq og‘zaki ijodidagi alla janri tematik mundarijasiga uyg‘un bo‘lib, ularning yaratilishida alla janri invarianti asos bo‘lgan.

L.F.Sharipova alla janrining yozma adabiyotda stilizatsiya qilinishi natijasida yaratilgan she’rlarni “adabiy alla” istilohi bilan yuritadi va bu haqida “Yozma adabiyotga ertak janri o‘zlashtirilganda “adabiy ertak” atamasi qo‘llangan va bu atama o‘zini oqlagani sabab o‘zlashib, keng istefoda qilingan edi. Yozma allani ham folklorga xos alladan farqlash uchun shartli tarzda “adabiy alla” istilohini qo‘llash maqsadga muvofiq” [6:88-89] deydi. Darhaqiqat, adabiy alla ijodkorning o‘z g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasini o‘quvchiga ta’sirli yetkazishda alla janrini stilizatsiya qilishi natijasida paydo bo‘lgan janr. Stilizatsiya esa modifikatsiyaning ichki turlaridan biridir.

Xalq og‘zaki ijodidagi alla janri asosan, bolani uxlatish uchun aytiladi va unda erkalash motivi yetakchilik qiladi. Alla janrining struktural tuzilishi haqida folklorshunos olim O.Safarov: “... to‘rtlik shaklidagi band – o‘zbek allalarining yetakchi struktural uzvi. Ammo o‘zbek onalari repertuarida uchlik, beshlik, oltilik, yettilik va sakkizlik tarzida bir butun tugallangan allalar ham, shuningdek, shu xildagi bir necha bandlardan tarkib topgan allalar ham ancha” [7:333-334] deydi. Ayni shu janr transformatsiyasi natijasida mazkur davr ijodkorlari ijodida adabiy allalar yaratildi. Istiqlol davrida alla janri stilizatsiyasi asosida yaratilgan she’rlarda “alla” so‘zi har bir misra so‘nggida radif bo‘lib keladi yoki she’r bandlari so‘nggida “alla bolam, alla-yo“ birikmasi refren sifatida takrorlanadi. Ammo ayrim she’rlarda “alla” so‘zi har bir misra so‘nggida radif bo‘lib kelmaydi, biroq she’rning ilk misrasi “Alla aytay”, “Alla deyman” kabi lirik kirish vazifasini bajaruvchi misra bilan boshlanadi.

Sharifa Salimovaning “Alla” she’ri ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism to‘rt misrali besh banddan iborat, ikkinchi qismi esa to‘rt misrali olti banddan iborat. She’rda folklorga xos alla janri mazmun-mundarijasiga oid bolani ovutish, erkalash, uni madh etish va uxlatish motivi yetakchilik qiladi. She’r a-a-b-a qofiyalanish tartibiga asoslangan bo‘lib, bolani erkalatishga qaratilgan har bir qofiyadan so‘ng alla so‘zi radif bo‘lib kelgan. Uning ikkinchi qismi ham ayni shu tematik kompozitsiya asosiga qurilgan, unda farzand uchun onaning tilaklari ifodalanadi va u quyidagicha turoqlanadi:

Xas-u xashak o‘tin bo‘lmas, alla, 4+4+2=10
O‘t yonmasa, tutun bo‘lmas, alla. 4+4+2=10
Oq sutini oqlamasang, alla - yo, alla, 8+5=13
Onang bag‘ri butun bo‘lmas, alla. 4+4+2=10 [8: 211]

Ushbu adabiy alla xalq og‘zaki ijodidagi alla janridan turoqlar soniga ko‘ra farqlanadi. Alla janri folklordagi lirik asarlarga xos 7, 8 bo‘g‘inli, 4+4 yoki 4+3 kabi turoqlanadi. Masalan:

Alla aytay, jonim bolam 4+4
Uxlab qolgin, alla-yo 4+3

Tahlillardan ko‘rinadiki, alla janri stilizatsiyasi asosida she’r yaratilganda, ijodkor allalar mazmun-mohiyatini saqlagan holda uning ritmik vositalariga erkin yondashar ekan.

Go‘zal Begimning “Alla” she’ri epigrafida “O‘g‘lim Ansorga” deyilgan izoh mavjud. Bu she’r istiqlol davrida yaratilgan alla janri stilizatsiyasi asosidagi she’rlardan o‘zining ifoda uslubi, obraz yaratishdagi o‘zgachaligi bilan ajralib turadi. She’rning yondosh matni bo‘lgan sarlavhaning “Alla” deb nomlanishining

o‘ziyoq bu she’rning alla janri stilizatsiyasi asosida shakllanganligini ko‘rsatadi. Har bandi uch misradan iborat yetti bandli she’rning har bandi so‘nggida “alla bolam alla” birikmasi takrorlanib keladi. Go‘zal Begim she’rni alla aytayotgan ona kayfiyati suratini chizish orqali yaratadi. She’rda shoira “dengiz rang kunlar”, “tunli orzular”, “iztirob shaklidagi barmoq tovushi”, “yuragi yo‘rgaklangan fasl”, “oftobga tiz cho‘kkan ko‘zlar” kabi takrorlanmas sifatlash va tashbehlar yaratish orqali ona qalbi kechinmalari, shodligi va iztiroblarini suratlantira olgan:

Oyning yaproqlari oralab
shitirlaydi dengiz rang kunlar
ranglarni tebratyapman
alla bolam alla [9:26]

Keyingi bandning ikki misrasida lirik qahramon onaning “zil-zambil umidlar og‘rig‘ida qirg‘og‘i kemtilgan dil” bilan alla aytayotgan, umid bilan armonlarini farzandi amalga oshiradi, degan maqsad bilan beshik tebratayotgan ona kechinmalarini suratlantirish orqali ona obrazini yaratadi. Shoiraning mahorati shundaki, u she’r har bandining birinchi va ikkinchi misralarida lirik subyekt shodligi, iztirobini berish hamda uchinchi misrasida ranglarni, oqshomni, tongni, quyoshni, yurakni, dengizni, yerni tebratayotganini ta’kidlash orqali “onalar dunyoni tebratadi” degan g‘oyani bera olgan. Go‘zal Begim hammabop tasvirlardan, yalang‘och nasihatlardan qochadi. Shoira “Oyning o‘n beshida ko‘zim qorasi” deyish orqali xalqimizning “oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u” mataliga ijodiy yondashgan holda yorug‘ kelishi kutilayotgan oyning o‘n besh kunini intizor kutayotgan ona siymosini gavdalantira olgan.

Yuqoridagi alla janri stilizatsiyalari mazmun-mundarijasiga ko‘ra, alla janriga zid emas, shu bois ularga invariant janr modelining variatsiyasi sifatida qarash kerak.

Uyg‘onishga, istiqlol uchun kurashga chaqirish ilk marta Usmon Azimning “75-yil allasi”da, “Onalarning bolasini uxlasin debmas, uyg‘onsin deb alla aytishi” motivi esa baxshiyonalarida beriladi. “Baxshiyona”da Elbek baxshining Guldona momo allasi, Hayitgul momo allasi, deya aytgan allalari hamda kelini Gulsum tilidan aytilgan she’r alla janriga xos mazmun asosida shakllantirilgan. L.Sharipova ayni motiv haqida: “...50-60-yillarda milliy qadriyat sanalgan allaning yo‘qolmasligini istash, onalarni alla aytishga undash adabiy allani yuzaga keltirgan bo‘lsa, 80-91-yillarda xalqni g‘aflatdan uyg‘otish, yosh avlodni erkparvar, vatanparvar qilib tarbiyalash istagi tufayli alla janridan foydalanishdi”, [6:94]– deydi. Darhaqiqat, istiqlol davrida ijod qilgan Yo‘ldosh Eshbek, Zebo Mirzayeva, Dilshod Shams, Kavsar Turdiyeva, Halima Ahmedova, A’zam O‘ktam, Muhabbat To‘xtasheva, Maqsuda Ergasheva kabi ijodkorlarning ijodida ayni shu tamoyilning rivojlanishi kuzatiladi, ushbu shoirlarning she’rlarida bolani tarbiyalash, insoniy tuyg‘ularni uyg‘otish uchun alla aytish motivi yetakchilik qiladi.

Yo‘ldosh Eshbekning “O‘g‘lim” she’ri otalar allasi bo‘lgan “xuyya” janriga xos mazmun-mundarija asosida shakllangan. Shoir “allayo” so‘zini radif sifatida keltirish orqali “... bedor qo‘shiq aytayotgan O‘zbekiston – onajon” [11:158], deya Ona vatan obrazini yaratadi.

Modifikatsiyaning parodiya va taqlid shakli, asosan, postmodern adabiyotga xos adabiy hodisalar bo‘lib, uning namunalarini o‘zbek she’riyatida uchratmadik. O‘yinga asoslangan bunday artefaktlar so‘z ustalari (qiziqchilar) repertuarida namoyon bo‘lmoqda va ular asosan, komiklikka asoslanishi bilan ajralib turadi.

Modifikatsiya, L.Sharipova ta’kidlaganidek, “ko‘rinishini o‘zgartirish”, “o‘zgargan shakl” bo‘lsa, alla janri tematik mundarijasiga paradoksal mohiyatga asoslangan, ijodkor tomonidan yangi g‘oyaviy vazifaga yo‘naltirilgan, o‘zgarishga uchragan shaklni alla janri modifikatsiyasi sifatida baholay olamiz. Alla janri tematik mundarijasiga paradoksal mohiyatga asoslangan bunday modifikatsiyalar Zebo Mirzayeva, Dilshod Shams, Kavsar Turdiyeva, Halima Ahmedova, A’zam O‘ktam, Muhabbat To‘xtasheva, Maqsuda Ergasheva kabi ijodkorlar ijodida namoyon bo‘ldi. Aslida alla janri modifikatsiyalari XX asr oxiri o‘zbek she’riyatida paydo bo‘lgan edi (biroq unga baho berilmadi - ta’kid bizniki Z.E), ayni shu davrning adabiy vorisi sifatida uning adabiy an’analarini davom ettirayotgan istiqlol davri adabiyotida yanada rivojlantirildi. Alla janri tematik mundarijasiga paradoksal mohiyat, ya’ni onalarning bolasini uxlasin debmas, uyg‘onsin, deb alla aytish motivi Zebo Mirzayevaning “Qadimiy alla”, Dilshod Shamsning “Alla”, Kavsar Turdiyevaning “Ayajonim allasi” she’rlarida rivojlantirildi. Ya’ni bu shoirlar davr voqeligi va muammolari asosida paydo bo‘lgan kechinmalarni ifodalashda alla janri tematik mundarijasiga paradoksal g‘oyani berish orqali she’rlarining g‘oyaviy-estetik ta’sirini oshirganlar va mavjud ijtimoiy muhitga kinoyaviy munosabatini ifodalaganlar. Xususan, A’zam O‘ktam “Nizomiddinni uyg‘otish” she’rida nafaqat alla janri invariantiga xos mazmun-mundarija, balki uning shakli ham o‘zgargan:

Ishontirding sen o‘zimga o‘zimni,
Yigitsan, men guvoh, bolam, alla.
Farishtalar yuvib qo‘yar yuzingni,
Cho‘risi ham begunoh bolam, alla. [12:44].

Ilk qarashda, she’rning yondosh matni bo‘lgan sarlavha va she’r syujetidagi alla janri tematik mundarijasiga paradoksal mohiyat kitobxonni taajjublantiradi. She’r qatiga singdirilgan g‘oyadan boxabar bo‘lgach esa, uyg‘otish so‘zi to‘g‘ri qo‘llanganiga amin bo‘lamiz. An’anaga ko‘ra alla, odatda, bolani uxlatish uchun kuylanadi. Shoirning she’rda ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyasi esa butkul boshqacha: allani bolani uxlatish uchun emas, ularni

tarbiyalash, insoniy tuyg‘ularni uyg‘otish uchun aytilishi kerak.

Alla janri modifikatsiyalarida “alla” so‘zi misra yoki band so‘nggida takrorlanib keladi yoki she’r bandlari so‘nggida “Uyg‘on bolam yoki alla-yo alla“ birikmasi refren sifatida takrorlanadi. Halima Ahmedovaning “Bolalar uyida aytilgan alla” hamda Maqsuda Ergashevaning “Uyg‘on bolam” she’rlari ayni shunday kompozitsiyaga ega. Halima Ahmedovaning “Bolalar uyida aytilgan alla” [14:19] she’rida alla janri shakl va mazmun- mundarijasiga ko‘ra o‘zgarishga uchragan, bu adabiy alla muxammas janriga xos a-a-a-b-b qofiyalanuvchi bandlar asosida shakllantirilgan bo‘lib, unda onasi tashlab ketgan farzandlarga begona ona tilidan aytilgan tilaklar beriladi. Folklorga xos allalar ona, ota, bobo yoki buvalar tilidan aytilgan, ushbu she’rda esa alla aytuvchi subyekt o‘zga, lirik subyekt bolalarni uxlatish uchun emas, ularga tasalli va suyanch bo‘lish maqsadida alla aytadi.

Maqsuda Ergashevaning “Uyg‘on bolam” she’rida ham alla janri tematik mundarijasida paradoksal mohiyat kuzatiladi. She’rning lirik qahramoni bo‘lgan ona farzandini g‘aflat uyqusidan uyg‘otish, farzand qalbida vatanga muhabbat uyg‘otish uchun alla aytadi. Bu she’rda “Uyg‘on, bolam, uyg‘on, bolam, uyg‘on, bolam! ” chaqirig‘i har band so‘nggida takrorlanadi:

Orom olib shabbodalar,
Jamiki jon uxlasin.
Faqatgina sen uxlama,
Sen uxlama, jon bolam.
Uyg‘on, bolam,
uyg‘on, bolam,
uyg‘on, bolam![15:222]

She’rning lirik syujeti onaning farzandga “Sen uxlasang, bog‘laringdan /Qushlar uchib ketadir/ Xotirangdan avlodlaring/ Yodi o‘chib ketadir” yoki “Sen uxlasang, atrofingda / Yog‘iy mudom uyg‘oqdir / Seni aldab nasibangga /Sheriklikka mushtoqdir / Unda sening avlodlaring /Ko‘rgan kuni qiynoqdir”, “Farzandlari g‘ofil elning / Imoni ham uxlaydi” [15:222] kabi nasihatlari orqali rivojlantiriladi va ayni shu motiv shoira g‘oyaviy konsepsiyasini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Xulosa vazifasini bajaruvchi so‘nggi band o‘z ichidan chiqqan xoinlarga qarshi uyg‘oq bo‘lishga chaqirish bilan yakunlanadi.

Muhabbat To‘xtashevaning “Alla” she’rida ham insoniy tuyg‘ularni uyg‘otish uchun alla aytish motivi rivojlantiriladi. Biroq mohiyatan o‘zgacha holat mavjud, ya’ni alla bolani uxlatish uchun aytiladi, lekin uyg‘onish alla ijrochisi bo‘lgan onadan boshlanmog‘i lozim. She’rda g‘aflat uyqusidan uyg‘ongan, insoniy tuyg‘ulari bor onagina alla aytish orqali farzandini uyg‘oq qalbli qilib tarbiyalay oladi, degan ma’rifiy g‘oya ifodasini ko‘ramiz. She’rning lirik syujeti onaning farzandiga “Anduhlarim ot, bolam / Shod yashagin, shod bolam “ kabi tilaklari va “Xudo mehriboning bo‘lsin / Farishtalar saqlasin / Hayot ota bo‘lib sevib/ Ona bo‘lib alqasin” kabi olqishlari asosida rivojlantirilgan. Har bandi 8 misradan iborat 7 bandli she’rning so‘nggi ikki misrasi refren sifatida takrorlanuvchi “Men seni uxlatayin, Sen meni uyg‘ot bolam” misralari orqali alla janrining maishiy-utilitar vazifasiga paradoksal munosabat asosida shakllangan g‘oyaviy konsepsiya yuzaga chiqqan. Ushbu alla janri modifikatsiyasida lirik subyekt ona bo‘lsa-da, mohiyat o‘zgacha:

Men seni uxlatayin,
Sen meni uyg‘ot, bolam.
Quvvat kelib ilohiydan
Hislarimni qo‘zg‘otdi.
Shir-u shakar go‘dagimni
Alla aytib uyg‘otdim.
Alla bolam, alla-yo,
Asal-u novvot, bolam.
Alla bilan sen avvalo
O‘zingni uyg‘ot, bolam
Qalbingni uyg‘ot, bolam.[15:41-44]

Xulosa qilib aytganda, alla janri modifikatsiyalari alla janrining lirik subyekti, ijrosi, mazmun-mundarijasi, kompozitsiyasi, obraz, uslub kabi badiiy komponentlariga ko‘ra o‘zgarishga uchragan shakllari bo‘lib, ularda alla janrining maishiy-utilitar vazifasiga paradoksal munosabat asosida shakllangan g‘oyaviy konsepsiya yuzaga chiqadi, ya’ni ular ijodkor g‘oyaviy konsepsiyasi ifodasiga xizmat qiladi.

Folklorga xos alla janri va uning modifikatsiyalari differensatsiyalari: alla janri modifikatsiyalari alla janri tematik mundarijasiga uyg‘un yoki paradoksal mohiyatga asoslangan bo‘lib, ijodkor tomonidan yangi g‘oyaviy vazifaga yo‘naltirilgan bo‘ladi; folklorga xos alla janri bolani uxlatish vazifasiga asoslansa, alla janri modifikatsiyalari vazifasi esa uyg‘otish, tarbiyalashga yo‘naltirilgan bo‘ladi; alla janri modifikatsiyalari shakl jihatdan ham o‘zgarishga uchragan bo‘ladi va ular yozma adabiyotga xos she’r, muxammas, poema kabi janrlarga xos kompozitsiya asosida shakllantiriladi; alla janri musiqasiz, lekin kuyga solib ijro qilinsa, uning modifikatsiyalari ijro etilmaydi, balki she’r kabi o‘qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Петрова Н.В. Типы модификаций первичных текстов сказок // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2, Языкознание. – 2017.–Т.16,№ 3. – С. 207–213. – DOI: https://doi.org/ 10.15688/jvolsu2.2017.3.21.
2. Тынянов Ю.Н. О пародии / Поэтика. История литературы. Кино. – М., 1977. – С. 284-309.
3. Новиков В.И.Литературная пародия. Учебно-методическое пособие по курсу “Теория литературы” Фа-

культет журналистики МГУ им. М.В. Ломоносова. – М., 2009. –39 с.
4. Ярматов И. Типология фольклоризмов в современной узбекской литературе (60-е и начало 80-х годов): Дисс...канд.филол.наук. – Ташкент, 1985. – С.31-81.
5. Шарипова Л. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.18 -19.
6.Шарипова Л.Ф. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърияти бадиий тараққиётида фольклор. Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2019. 209 бет.
7.Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Musiqa, 2010. 333-334.
8.Шарифа Салимова. Танланган асарлар. Шеърлар. Таржималар. Достонлар.–Тошкент: Adabiyot, 2022. 210 бет.
9.Ёшлар китоби:назм, наср, таржима. 2008. – Тошкент: Шарқ, 2008. 456 бет.
10.Usmon Azim. Sog‘inch. She’rlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007.200-bet.
11.Yo‘ldosh Eshbek. Mangu masofa. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991. 158-bet.
12.Аъзам Ўктам. Қирқинчи баҳор: Шеърлар. – Тошкент: Қатортол-Камолот, 1999. 44 бет.
14.Ahmedova H. Tungi marvaridgullar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1988. 19-bet.
15.O‘zbek zamonaviy she’riyati antologiyasi. 32. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. 604-bet.

Sarvinoz MUSTAFAYEVA,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
“O‘zbek va chet tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA TIL MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MA’NAVIY-AXLOQIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada O‘zbekiston yoshlarida til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Milliy an’ana va urf-odatlarni hisobga olgan holda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning til madaniyati rivojiga ta’siriga alohida e’tibor qaratilmoqda. Til madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omillar, oila, ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining roli tahlil qilinadi. Muallif til madaniyatini shakllantirish yoshlarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim yo‘nalishi bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash, jamiyatning ma’naviy birligini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Xulosa qilib aytganda, maqolada ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni hisobga olgan holda til madaniyatini shakllantirish usullarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *til madaniyati, yoshlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, O‘zbekiston, milliy o‘zlik, ijtimoiy tarbiya, ma’naviy birlik, ta’lim, ommaviy axborot vositalari.*

Аннотация: в статье рассматриваются духовно-нравственные особенности формирования языковой культуры у молодежи Узбекистана. Особое внимание уделяется влиянию духовно-нравственных ценностей на развитие языковой культуры с учетом национальных традиций и обычаев. Анализируются ключевые факторы, влияющие на процесс формирования языковой культуры, такие как роль семьи, образовательных учреждений и средств массовой информации. Автор подчеркивает, что формирование языковой культуры является важным аспектом социального воспитания молодежи и играет решающую роль в укреплении национальной идентичности и духовного единства общества. В заключении статьи предлагаются рекомендации по совершенствованию методов формирования языковой культуры с учетом духовно-нравственных особенностей.

Ключевые слова: языковая культура, молодежь, духовно-нравственные ценности, Узбекистан, национальная идентичность, социальное воспитание, духовное единство, образование, средства массовой информации.

Annotation: the article examines the spiritual and moral features of the formation of linguistic culture among the youth of Uzbekistan. Particular attention is paid to the influence of spiritual and moral values on the development of linguistic culture, taking into account national traditions and customs. Key factors influencing the process of forming linguistic culture, such as the role of family, educational institutions and mass media, are analyzed. The author emphasizes that the formation of linguistic culture is an important aspect of social education of youth and plays a decisive role in strengthening national identity and spiritual unity of society. In conclusion, the article offers recommendations for improving the methods of forming linguistic culture, taking into account spiritual and moral features.

Keywords: *language culture, youth, spiritual and moral values, Uzbekistan, national identity, social education, spiritual unity, education, mass media.*

O‘zbekiston yoshlari orasida til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari nihoyatda muhim va murakkab masalalardan biridir. Til madaniyati faqatgina tilni to‘g‘ri va ravon qo‘llashni emas, balki til orqali ifodalanadigan ma’naviyat va axloqiy qadriyatlarni ham o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilining milliy g‘urur va qadriyatlar bilan bog‘liqligi yoshlarga milliy o‘zlik va madaniyatning muhim bir qismi sifatida singdirilishi zarur. Bu esa yoshlar ongida tilni nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy meros sifatida qabul qilishga yordam beradi. Yoshlar orasida tilni to‘g‘ri, adabiy va ma’noli qo‘llash madaniyatini rivojlantirish lozim. Bu madaniyat axloqiy mas’uliyatni ham o‘z ichiga oladi, chunki til muloqotda faqat so‘zlashish vositasi emas, balki axloqiy qadriyatlarni ifodalash vositasi hamdir. Oila va ta’lim muassasalari yoshlarga til madaniyatini singdirishda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar va ota-onalar tilga bo‘lgan hurmat va muhabbatni shakllantirishda namuna bo‘lishlari kerak. Til madaniyati axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Yoshlarni to‘g‘ri so‘zlashga, so‘zning kuchini anglashga, so‘z bilan dilozorlik qilmaslikka o‘rgatish, ularning shaxsiy axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muhimdir.

“Til - ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun avlodlar tomonidan tayyor holga keltirib qo‘yilgan, hamma uchun umumiy, ya’ni qabul qilinishi va qo‘llanishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat etadigan birliklar hamda bu birliklarning o‘zaro birikishini va bog‘lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig‘indisidir”. Darhaqiqat, til bu ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun umumiy bo‘lib, avloddan avlodga o‘tib keladigan tayyor tizimdir. Bu tizim fikrni shakllantirish, ifodalash va turli maqsadlarda foydalanish uchun xizmat qiladigan birliklar va ularning o‘zaro aloqasi hamda birikishini belgilovchi qonun-qoidalardan iborat. Har bir jamiyat uchun til umumiy va majburiy bo‘lib, uning qoidalari va tartiblari barcha a’zolar tomonidan qabul qilinib, qo‘llanishi kerak.

Yoshlar orasida zamonaviy texnologiyalar va internet til madaniyati shakllanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlar va internetda madaniy va axloqiy til me’yorlarini qo‘llash bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Yoshlar orasida til madaniyatini shakllantirishda davlat va jamoat tashkilotlari, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va madaniy-ma’rifiy tadbirlarning roli katta. Ushbu tadbirlar orqali til madaniyatining turli jihatlarini yoritish va targ‘ib qilish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekistonda til madaniyatini shakllantirish yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, shuningdek, ular orasida madaniy merosga bo‘lgan hurmatni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston yoshlarida til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari mavzusi ko‘plab jihatlarga ega va ularning asosiy qismi til va madaniyatning uzviy bog‘liqligidan kelib chiqadi. Til madaniyatning ajralmas qismi sifatida insoniyatning ijtimoiy tarixi va milliy o‘zlikni anglash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Biroq tilning fiziologik va psixofiziologik xususiyatlari ham unga ma’naviy va axloqiy jihatlar bilan bir qatorda ahamiyatli o‘rin beradi. T.B. Kudryashova ta’kidlashicha, “Bugungi kunda bilishda va muloqotda tilning rolini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu tadqiqotlar tilning tabiati to‘g‘risida bizga yetarlicha tasavvur beradi”.

Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni tushunish uchun ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar tilga milliy ruh va madaniyatning ifodasi sifatida qaralishini e’tirof etishgan. Bu nafaqat til madaniyati, balki yosh avlodning ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. L. Vitgenshteyn “Til — o‘yindir”, deb yozadi. V. Gumboldt esa “Til o‘ziga xos reallik bo‘lib, o‘zini o‘zi rivojlantiradi, o‘zini o‘zi ishlab chiqaradi”, deydi. M. Xaydegger: “Til insonning ichki indamasligiga asoslangan”, - degan xulosaga keladi. Til aytilganni emas, aytilmaganni, yashirilganini ham ochib berishga qodir. SH.Taleyron ham “Til insonga o‘z fikrini yashirish uchun berilgan” degan edi. M. Shlik esa “Tildan mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan, ikki ma’noli so‘zlarni chiqarib tashlash kerak”, degan fikrni maydonga tashlaydi.

Til orqali shakllangan milliy madaniyat jamiyatning ruhiy-ma’naviy bog‘liqligini mustahkamlaydi. Misol uchun, tilning ma’naviy jihatlari millatning tarixiy xotirasini, qadriyatlarini va kelajakni shakllantirishini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda yoshlar orasida til madaniyatini shakllantirish milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosni saqlash va kelajak avlodlar uchun ma’naviy-axloqiy asoslarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq, bu jarayonda faqat madaniy omillar emas, balki tabiat va insonning biologik xususiyatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki til orqali insonning biologik tabiati namoyon bo‘ladi va nutq faoliyati orqali til madaniyati shakllanadi.

Nutq faoliyatining fiziologik va psixofiziologik jihatlarini hisobga olgan holda, til madaniyatining mazmuni madaniyat bilan birga tabiatning ta’siri ostida ham shakllanadi. Bu o‘rinda yoshlar o‘rtasida til madaniyatini shakllantirish uchun ta’lim va tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar va madaniy me’roslarni keng ommaga yetkazish, ona tilining jozibasini va uning milliy ruhni ifodalashdagi o‘rnini chuqur anglash lozim. Til madaniyatining shakllanishida madaniyat va tabiatning o‘zaro ta’siri muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu yoshlar orasida milliy identifikatsiyani

mustahkamlashga va ularning ijtimoiy-axloqiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Til va madaniyatning o‘zaro munosabati juda murakkab va ko‘p qirrali masala bo‘lib, uni o‘rganish turli fanlar, jumladan, madaniyatshunoslik, tilshunoslik, falsafa, psixologiya, etnografiya va adabiyotshunoslik kabi sohalar tomonidan amalga oshiriladi. Bu masalaning tub mohiyati til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligida, birining ikkinchisiga ta’siri va aks ettirishida namoyon bo‘ladi. Tilshunos Edward Sapirning fikricha, til madaniyatdan oldin paydo bo‘lgan, chunki u madaniyatga nisbatan birlamchi ma’no ifodalovchi vosita hisoblanadi. Til milliy madaniyatning asosiy shakli bo‘lib, uning mavjudligi va ifodalanishini ta'minlaydi. Sapirning ta’kidlashicha, til ijtimoiy va madaniy rivojlanish mahsuli sifatida yuzaga kelgan, ya’ni u jamiyat va madaniyatning o‘ziga xos mahsulidir. Sapir va uning izdoshi Benjamin Lee Whorfning til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat haqida ilgari surgan qarashlariga ko‘ra, til o‘zida bir xalqning dunyoqarashini, tafakkur usulini va o‘ziga xos madaniy xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Ularning nazariyasiga ko‘ra, til va madaniyat bir-biriga ta’sir ko'rsatadi va bu ikki tushuncha o‘zaro chambarchas bog‘liq. Til madaniyatni shakllantiradi va unga tayanadi, madaniyat esa tilning mazmunini belgilaydi.

Tilning madaniyat bilan doimiy aloqasi madaniyatning ijtimoiylashgan qismi sifatida tilning ham saqlanib qolishida, ham rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Til orqali madaniyat avloddan avlodga o‘tadi, unda jamiyatning qadriyatlari, diniy e’tiqodlari, milliy an’analari va ma’naviy merosi saqlanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston yoshlarida til madaniyatini shakllantirish jarayoni ularni milliy qadriyatlar, madaniy meros va axloqiy me’yorlarga rioya qilishga, milliy o‘zlikni anglashga, ona tilining buyuk jozibasini tushunishga yo‘naltirishi lozim. YE.V.Zonova fikricha, “Tilning fonologik, sintaktik, semantik va pragmatik o‘ziga xosliklari tufayli uning ongda faoliyat ko‘rsatishiga zaruriy sharoitlar yaratiladi”.

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini inobatga olib, O‘zbekistonda yoshlar orasida til madaniyatini shakllantirish jarayonida madaniyatshunoslik, tilshunoslik, falsafa va psixologiya kabi fanlardan foydalanish, bu jarayonga chuqur ilmiy yondashish va tilning milliy o‘ziga xosligini targ‘ib qilish zarur. Bu jarayonda madaniyatni tushunish va o‘rganish orqali tilni rivojlantirish, ona tilini chuqur o‘rganish va uni milliy ruhning ifodasi sifatida qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

Til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlarini o‘rganish O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy rivojlanishi va milliy o‘zligini anglashda muhim rol o‘ynaydi. XX asrning 90-yillarida ilm-fan va texnologiya sohasidagi inqiloblar odamlarning bilim olish va o‘zaro muloqot qilish imkoniyatlarini keskin kengaytirdi. Xalqaro istilohlarning tezlik bilan kirib kelishi, yangi badiiy asar va qarashlarning keng tarqalishi natijasida hududiy va madaniy chegaralar sezilarli darajada kamaydi. Buning natijasida odamlar dunyoga va hayotga yangi nigoh bilan qaray boshladilar.

Hozirgi zamonda til o‘rganish ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Til, ayniqsa chet tili, ko‘pincha zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali o‘rganiladi. Masofaviy ta’lim, audiovizual materiallar va telefon aloqasi orqali ta’lim jarayoni tez va samarali amalga oshirilmoqda. Bu esa til o‘rganish jarayonini yanada jadalroq va interaktiv qiladi. Til va madaniyatni o‘rganishda milliy o‘ziga xoslikni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlar matnlaridan foydalanish, o‘zbek xalqining milliy-madaniy muhitini o‘rganish va bu orqali yoshlar onggiga vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish kerak. Shu o‘rinda, ona tilini o‘qitish orqali yoshlar nafaqat o‘z milliy qadriyatlarini, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham qabul qiladi. Til o‘rganish jarayonida ekvivalent bo‘lmagan leksikani (realiyalarni) anglash va ulardan foydalanish, til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Realiyalar bilan ishlash til o‘rganishning muhim jihatlaridan biridir. Ushbu jarayon orqali yoshlar milliy va mahalliy madaniyatlarning boyligini anglaydi, bu esa ularning ma’naviy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Shu tarzda, til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini tushunish, yoshlarni nafaqat til bilimini oshirishga, balki ularning milliy o‘ziga xosligini saqlashga ham yordam beradi.

Umuman olganda, til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlarini o‘rganish nafaqat yoshlarning o‘z tiliga va milliy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi, balki ularga global dunyoda o‘z o‘rnini topishiga ham yordam beradi.

O‘zbekiston yoshlarida til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari haqida ochiq munozarani boshlash uchun, avvalo, Ferdinand de Sossyur tomonidan ilgari surilgan belgi nazariyasini tushunish muhimdir. Sossyurning belgi nazariyasi, lingvistik va semiotik tahlillar asosida tilning belgilash tizimi sifatida ko‘rib chiqilishi, O‘zbekistonda til madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Sossyur tilni belgi tizimi sifatida ko‘radi, bunda har bir belgi ikki asosiy komponentdan iborat: ishora qiluvchi (masalan, so‘zning tovushli yoki yozma shakli) va ishora qilinuvchi (tushuncha yoki konsepsiya). Bu ikki komponent bir-biriga

chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Sossyur til va fikrni varaqning ikki tomoni sifatida tasvirlaydi: biri old tomon, ikkinchisi orqa tomon bo‘lib, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Shunday qilib, til tovushlari va fikr bir-biriga bog‘liq holda til madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston yoshlarida til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari ko‘p jihatdan Sossyurning belgi nazariyasi bilan izohlanadi. Til, bu nuqtai nazardan, nafaqat aloqa vositasi, balki ma’naviyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning muhim omilidir. Til orqali yoshlar o‘z fikrlarini ifodalaydilar, o‘z dunyoqarashlarini shakllantiradilar va milliy madaniyat va an’analarni o‘zlashtiradilar. Yana bir muhim masala, Sossyurning nazariyasiga ko‘ra, turli tillarda belgilarning ma’nosi farq qiladi. Bu til madaniyatini shakllantirish jarayonida turli tilda so‘zlashuvchi yoshlar o‘rtasida madaniy farqlarni tushunish va qabul qilish zarurligini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, til madaniyatini shakllantirish jarayonida yoshlarni turli madaniyatlarni o‘rganishga, hurmat qilishga va qadrlashga o‘rgatish muhimdir. Til madaniyati va uning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari yoshlarning jamiyatdagi o‘zini tutishi, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Til faqatgina muloqot vositasi emas, balki yoshlarning shaxsiyati va dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Shu bilan birga, til madaniyatini shakllantirish jarayonida ma’naviy va axloqiy qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi, chunki til orqali ifodalangan fikr va tushunchalar yoshlarning ichki dunyosini shakllantiradi.

O‘zbekiston yoshlarida til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari mavzusida Roohul-Amini va boshqa fikrlar asosida tahlil qilish orqali, til madaniyatining jamiyatdagi o‘rnini va ahamiyatini tushunish mumkin. Roohul-Amini (1989) madaniyat tushunchasining ko‘p qirraliligini ta’kidlab, madaniyatning ijtimoiy va ma’naviy hayotdagi muhimligini ko‘rsatib o‘tdi. U madaniyatni keng qamrovli tushuncha sifatida qabul qilib, unda til madaniyati ham asosiy o‘rin tutishini bildirgan. O‘zbekiston yoshlari uchun til madaniyati ularning shaxsiy va jamoaviy, axloqiy me’yorlari, urf-odatlari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyat, ayniqsa til madaniyati, ijtimoiy muhitda umumiy qoidalarni va me’yorlarni ta’minlashda asosiy o‘ringa ega. Bu esa, yoshlar orasida jamiyatga muvofiq keladigan, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Eduard Sapir (1956) til madaniyatini ongsizlikka bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlar va rejimlar tizimi sifatida tasvirlab, til madaniyatining yoshlar uchun o‘ta muhimligini ta’kidlaydi. Til madaniyati jamiyat a’zolarining bir-biri bilan to‘g‘ri va etik munosabatlar o‘rnatishini ta’minlaydi, bu esa yoshlarning shaxsiy kamolotga erishishiga va jamiyatda o‘z o’rnini topishiga yordam beradi.

T. S. Eliot (1961) madaniyatni kapital sifatida qabul qilgan va uni insoniyat taraqqiyoti uchun asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatgan. Bu fikrdan kelib chiqib, til madaniyati ham yoshlar uchun kapital vazifasini bajarishi mumkin, ya’ni ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirib, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu tarzda, O‘zbekiston yoshlarida til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari nafaqat yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Til madaniyati jamiyatdagi umumiy qadriyatlar va urf-odatlarni saqlab qolishda muhim vosita bo‘lib, yoshlarning ma’naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlaydi.

Til madaniyatining shakllanishi o‘ziga xos ma’naviy-axloqiy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi, ayniqsa, O‘zbekiston yoshlarida bu jarayon juda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir shaxs jamiyatda o‘ziga xos bir guruhga mansub bo‘lib, uning fikrlari va madaniyati shu guruh orqali ifodalanadi. Bu guruhning tili va madaniyati boshqa guruhlarnikidan farq qilishi mumkin, bu esa madaniy farqlarni keltirib chiqaradi. Roohul-Aminining (1989) ta’kidlashicha, til, marosimlar, kiyim-kechak, ilm-fan, e’tiqod va qadriyatlar singari elementlar insonlarni bir-biriga bog‘lab turadi. Ushbu bog‘lanish madaniyatning ijtimoiy mahsulot sifatida shakllanishiga xizmat qiladi, ya’ni madaniyat tug‘ma emas, balki o‘rganish orqali hosil bo‘ladi. Bu jarayonda jamiyatdagi axborot va bilim, ijtimoiy o‘zgarishlar, va ommaviy axborot vositalari kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. S.V. Kusepal ta’kidlashicha, “Borliqni inson ongida reprezentatsiya qilish qobiliyati haqli ravishda tilning bazis vazifasi(funksiyasi) hisoblanadi. Bu funksiya til belgisining predmetlar dunyosini, uning xossalari va munosabatlarini belgilashi, o‘rnini olishi va umumlashtirishi qobiliyatlarida amalga oshadi”. Til dunyoni ongda reprezentatsiya qiladi, bunda uning reprezentatsiya qilish qobiliyatiga tayanadi. V.I. Musiyenko reprezentatsiya hodisasi haqida shunday yozadi: “Reprezentatsiya bu insonning faqat tilininggina emas, uning tanasi (jism)ning, tana alohida organlari psixik tashkillanishining, ongsizlik psixikasining, ongining tur tarzidagi (turga xos bo‘lgan) xarakteri ong va til kelib chiqishining faqat ijtimoiy, madaniy - tarixiy, psixik va jismoniy umumiyligini ko‘rsatibgina qolmaydi. Borliqni ongda reprezentatsiya qilishning uch asosiy usuli mavjud. Bu uch reprezentatsiya usullari nisbatan avtonom va

bir-biri bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi”.

Mamlakat yoshlarida til madaniyatini shakllantirish jarayonida hikoyalar, dostonlar va afsonalar kabi madaniy belgilar muhim o‘rin tutadi. Bu elementlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda va ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Strauzning (1976) fikriga ko‘ra, afsonalar til orqali universal haqiqatlarni ramzlar yordamida ifodalaydi. Bu haqiqatlar yoshlar orasida madaniyatni uzatishda va yangi avlodga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, madaniyat elementlari avloddan avlodga o‘tib, yangilanib, yangidan shakllanib boradi, lekin ular orasida ayrim pastki madaniyatlar va inqirozlar ham mavjud bo‘lishi mumkin.

O‘zbek yoshlarida til madaniyatini shakllantirishga e’tibor qaratish, ularning madaniy xabardorligini oshirish va o‘zligini anglashi uchun zaruriy ma’naviy-axloqiy asoslarni yaratish lozim. Bu jarayon, shuningdek, milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni saqlash va yoshlarni sog‘lom ruhda tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Til madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasida juda muhim o‘rin tutadi. Til insonning o‘zini ifoda etish, fikr almashish va madaniy merosni avloddan avlodga yetkazish vositasi sifatida nafaqat muhim ahamiyatga ega, balki milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu esa, tilning faqat muomala vositasi bo‘lib qolmay, balki xalqning ruhiy va axloqiy boyligini ham aks ettirishini bildiradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yosh avlodda til madaniyatini shakllantirish orqali ularni milliy qadriyatlar, madaniy meros va axloqiy me’yorlarga hurmat bilan qarashga o‘rgatish mumkin. Ayniqsa, O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va uning ahamiyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar bu boradagi faoliyatni yanada muhim qiladi. Ona tilimizning yuksak maqomi, uning sofligi va rivojiga e’tibor qaratish yoshlarni milliy ruhiyatda tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Bunday chora-tadbirlar natijasida yoshlar o‘z ona tilini hurmat qilish, uning qadr-qimmatini anglash va saqlash mas’uliyatini his etadi. Tilning boyligi va jozibadorligini anglash orqali ular milliy madaniyat va ma’naviyatni qadrlashga o‘rganadi. Shu bilan birga, yoshlar til madaniyatini rivojlantirishda faol ishtirok etish, tilning sofligini asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda o‘z hissasini qo‘shadi. Bundan tashqari, til madaniyatini shakllantirishda ijodiy faoliyat va ommaviy axborot vositalari, jumladan, matbuot, televideniye va internetning roli katta. Yoshlarni ona tilining go‘zalligi, mazmuni va boyligini anglashga yo‘naltiradigan dasturlar, maqolalar, seminarlar va boshqa tadbirlar ularda milliy g‘urur va tilga nisbatan hurmat tuyg‘ularini oshiradi.

Ona tilining davlat til sifatida qabul qilinishi, uning rivoji va maqomini oshirishga qaratilgan say‘-harakatlar yoshlarning til madaniyati va ma’naviy dunyosini boyitishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Til madaniyatining rivojlanishi esa, o‘z navbatida, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Til madaniyati, insonning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Til – bu nafaqat o‘zaro aloqa vositasi, balki xalqning ma’naviyati, madaniyati, va o‘zini anglashining asosiy poydevoridir. O‘zbekistonda til madaniyatini shakllantirish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida, millatning ma’naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbek tili o‘zining boy madaniy merosi bilan xalqimizning o‘ziga xosligini namoyon etadi. 1989-yilda O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, uzoq yillar davomida kam baholangan va past nazar bilan qaralgan tilimizning qadriyatini tiklashda muhim qadam bo‘ldi. Mustaqillikka erishilgandan keyin O‘zbek tili millatning identifikatsiyasi va ma’naviy merosining asosiy unsuri sifatida yanada rivojlandi. Til madaniyatining shakllanishida buyuk ajdodlarimizning asarlari alohida ahamiyatga ega. Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy kabi allomalar tilni inson ma’naviyatining eng asosiy belgisi sifatida ko‘rsatganlar. Tilga bo‘lgan ehtirom, millatning madaniyatiga bo‘lgan hurmat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda til madaniyatini yoshlar o‘rtasida shakllantirish ularga milliy g‘urur, ma’naviy boylik va axloqiy fazilatlarni singdirish demakdir. Shu bilan birga, bugungi kunda tilimizga bo‘lgan munosabat va e’tiborni mustahkamlash ham muhim ahamiyatga ega. Ona tiliga bo‘lgan hurmat va uning sofligini saqlash, til madaniyatining milliy va xalqaro miqyosda rivojlanishi uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, til madaniyatining pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik, tilni to‘g‘ri va e’tibor bilan ishlatish masalalari ham dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston yoshlarida til madaniyatini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari shundan iboratki, til bu nafaqat aloqa vositasi, balki millatning madaniyati, ma’naviyati, va o‘zini anglashining muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun ham, til madaniyatini shakllantirish jarayonida yoshlarni milliy merosimizga, madaniyatimizga va axloqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash kerak. O‘zbekistonda yoshlarda til madaniyatini shakllantirish mavzusi jamiyatning ma’naviy-axloqiy jihatlari bilan chuqur bog‘langan. Til madaniyatning o‘zagi sifatida milliy o‘zlikni shakllantirish va madaniy

merosni asrab-avaylashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbek tilining milliy madaniyat tayanchi ekanligiga alohida e’tibor qaratilishi uning sofligi va yaxlitligini ommaviy muloqotning barcha ko‘rinishlarida, jumladan, reklama, ommaviy axborot vositalari va kundalik o‘zaro munosabatlarda ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi.

Til sofligini saqlash mas’uliyati nafaqat huquqiy, balki ma’naviy hamdir. Xorijiy so‘zlardan beparvo foydalanish, til me’yorlariga e’tibor bermaslik o‘zbek tili o‘zida mujassam etgan madaniy o‘ziga xoslikni buzishi mumkin. Bunday e’tiborsizlikni madaniy ildizlar va qadriyatlardan uzilishga olib keladigan ma’naviy tanazzulning bir shakli sifatida ko‘rish mumkin. Abdulla Qahhor kabi taniqli arboblar til qoidalariga yetarlicha e’tibor berilmayotganidan xavotir bildirib, buni yo‘l harakati qoidalarining bajarilishiga qiyoslashadi — haydovchilar qoidabuzarlik uchun jarimaga tortilayotgan bir paytda, til me’yorlariga beparvolik qilganlar ko‘pincha nazoratsiz qolmoqda. Bu o‘xshatish tilni asrab-avaylash masalasiga jiddiy yondashish muhimligini ta’kidlaydi, chunki bu millatning ma’naviy va madaniy farovonligi bilan bevosita bog‘liqdir. M.V. Lebedev fikricha, “So‘z bilan belgilangan predmet tilda belgi statusini oladi va unga konvensuanal xossalar tegishli bo‘ladi. Bundan tashqari, har bir so‘z-belgi faqat belgilabgina qolmaydi, balki umumlashtiradi ham”.

Yaqinda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 21-oktabr – O‘zbek tili kuni deb belgilanishi o‘zbek tilining mavqeini yanada yuksaltirishga yangidan intilayotganini anglatadi. Bu tashabbus hukumat tomonidan tilni milliy g‘urur va o‘zlikni anglashning asosiy elementi sifatida e’tirof etilishini aks ettiradi. Qolaversa, koreys, yapon va vengriyalik ishtirokchilar ishtirokida o‘tkazilgan ommaviy axborot vositalarida ko‘rinib turganidek, xalqaro olim va san’at namoyandalarining o‘zbek tilini tan olishi tilning boyligi va go‘zalligini yanada mustahkamlaydi. Ularning o‘zbek tiliga bo‘lgan hayratlari uning qadr-qimmatini, uni asrab-avaylash muhimligini eslatib turadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilining milliy o‘zlik va madaniy yaxlitlik timsoli sifatida taraqqiy etishini ta’minlashda yoshlarda til madaniyatini tarbiyalashning ma’naviy-axloqiy mas’uliyati juda muhim. Tilni qadrlash va asrab-avaylash orqali yoshlar madaniyatni asrab-avaylash va milliy g‘urur kabi kengroq missiyaga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. -Т., 1993. Б. 8.
2. Кудряшова Т.Б. Онтология языков познания : дис. ... д-ра филос. наук Б. м., Б. г. 370 с.
3. Витгенштейн Л. Логико-философский трактат / Пер. с нем. Добронравова и Лахути Д.; Общ. ред. и предисл. Асмуса В. Ф. — М.: Наука, 1958 (2009). 133 с.
4. Вильгельм фон Гумбольдт. Язык и философия культуры. Прогресс, 1985. 456 с.
5. Хайдеггер, М. Время и бытие: Статьи и выступления / Сост., пер. с нем. и комм. В. В. Бибихина. — М.: Республика, 1993. — 447 с.
6. Талейран Ш.М. Мемуары. М., 1959.
7. Шлик М. Поворот в философии. — О фундаменте познания. — В кн.: Грязнов А.Ф. (сост.) Аналитическая философия: избранные тексты. М., Изд-во МГУ, 1993.
8. Зонова Е.В. Семиотика в контексте философии языка : Дис. ... канд. филос. наук : 09.00.01 : Москва, 2003, 158 с.
9. https://www.ijhssnet.com/journals/Vol_2_No_17_September_2012/24.pdf
10. https://radar.auctr.edu/islandora/object/cau.td%3A1961_shaw_emanuel_s
11. Куцепал С.В. Эпистемологическая функция языка: на материале французского постмодернизма: Дис... канд. филос. наук: Киевский ун-т им. Тараса Шевченко. - К., 1997. - 174л.
12. Мусиенко В.И. Язык и речь в современном диалоге культур : диссертация ... кандидата философских наук. - Москва, 2005. 155 с.
13. Лебедев М.В. Значение и его коммуникативно-эпистемологическое обоснование в аналитической философии языка : Дис. ... д-ра филос. наук Б. м., 2004. 328 с.

Sayyora ATAXANOVA,
O‘zDJTU Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

ZAMONAVIY MA’RUZA MASHG‘ULOTLARINING TALABALAR KASBIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirish maqsadida ma’ruza mashg‘ulotlarini tashkil etish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy usullardan foydalanishning mazmuni ko‘rsatilgan. Biz an’anaviy ta’lim jarayonida ma’ruzalarni talabalarni o‘qitishning asosiy shakli sifatida qabul qilib kelganmiz. Biroq, so‘nggi vaqtlarda ma’ruzaga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgarayotgani ko‘rinadi. Zamonaviy axborot vositalarining keng qo‘llanilishi tufayli elektron o‘quv materiallari, jumladan, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va metodik ko‘rsatmalarning elektron nusxalarini bevosita o‘qish va o‘rganish, shuningdek, ularni ko‘paytirish natijasida foydalanish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda.

Kalit so‘zlar: *talaba, tafakkur, rivojlantirish, ma’ruza, metod, usul, faollashtirish*

Аннотация: в статье излагается содержание использования современных методов, направленных на организацию лекционных занятий и повышение их эффективности с целью активизации учебной и воспитательной деятельности студентов в высших учебных заведениях. Мы привыкли воспринимать лекции как основную форму обучения студентов в традиционном образовательном процессе. Однако в последнее время отношение к лекции, похоже, кардинально меняется. В связи с широким использованием современных средств массовой информации возможности непосредственного чтения и изучения электронных материалов для чтения, включая учебники, учебные пособия и электронные копии методических указаний, а также их использование в результате воспроизведения, становятся все более распространенными.

Ключевые слова: *студент, мышление, Развитие, лекция, метод, способ активизации*

Annotation: the article outlines the content of the use of modern methods aimed at organizing lecture classes and improving their effectiveness in order to activate the educational and educational activities of students in higher educational institutions. We have come to accept lectures as the main form of teaching students in the traditional educational process. However, in recent times, the attitude towards the lecture seems to be changing dramatically. Due to the widespread use of modern media, opportunities for direct reading and learning of electronic reading materials, including textbooks, tutorials and electronic copies of methodological instructions, as well as their use as a result of reproduction, are becoming more and more widespread.

Key words: *student, thinking, Development, lecture, method, method, activation*

Biz an’anaviy ta’lim jarayonida ma’ruzalarni talabalarni o‘qitishning asosiy shakli sifatida qabul qilib kelganmiz. Biroq so‘nggi vaqtlarda ma’ruzaga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgarayotgani ko‘rinadi. Zamonaviy axborot vositalarining keng qo‘llanilishi tufayli, elektron o‘quv materiallari, jumladan, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va metodik ko‘rsatmalarning elektron nusxalarini bevosita o‘qish va o‘rganish, shuningdek, ularni ko‘paytirish natijasida foydalanish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan bir qator tadqiqotlar va ishlanmalar bilan aniqlanadi. Masalan, O.R. Roziqov, K.Z. Zaripov, B.R. Adizov, N. Saidaxmedov, O‘. Tolipov, I.O. Zagashev, S.I. Zair-Bek, M. Maxmutov, L.F. Krasinskaya, L.I. Savva, T.G. Galaktionova, A.A. Verbitskiy, Ya.R. Yakupova, Dillon J.T., Halpern D va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mavjudligi, shuningdek, ko‘pgina oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari tomonidan ushbu mavzuga alohida qiziqish bildirilishi, uning dolzarbligini va ahamiyatini ko‘rsatadi. Oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, talabalarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonida ma’ruza mashg‘ulotlari ularning samaradorligi nuqtayi nazaridan o‘quv va ishlab chiqarish amaliyoti, amaliy-seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari, shuningdek, mustaqil ta’limdan so‘ng to‘rtinchi o‘rinda turishini ko‘rsatadi. Bu natijalar biz ta’riflagan fikrlarning to‘g‘riligini isbotlaydi.

Talabalarning fikricha, ma’lum kurs bo‘yicha elektron qo‘llanmalar ma’ruza materiallarini ortiqcha konspektlashtirishning oldini olib, amaliyot jarayoniga ko‘proq vaqt sarflash imkoniyatini yaratadi. Afsuski, ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan ko‘pgina ma’ruza mashg‘ulotlari nomutanosibliklarga asoslanib tashkil etiladi va bu o‘z navbatida, mashg‘ulotlarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotimiz maqsadi — tadqiqotchi-olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ma’ruza mashg‘ulotlari jarayonida talabalar xotirasi va tafakkurini faollashtirishga qaratilgan usullarni o‘rganish va ulardan tibbiy pedagogik

ta’lim yo‘nalishi talabalari o‘quv-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlarini baholashdir. Ma’ruza — talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini uzluksiz boshqaradigan asosiy tashkiliy shakllardan biri hisoblanadi. Ma’ruza atamasi lotincha lectio (o‘qish) so‘zidan kelib chiqib, dastavval qadimgi Yunoniston va Rimda ta’limning asosiy shakli sifatida e’tirof etilgan. Oliy ta’lim muassasalarida ma’ruza — ta’lim jarayoni didaktik siklining bosh bo‘g‘ini hisoblanib, uning maqsadi talabalarga o‘quv materialining keyingi qismlarini o‘zlashtirish uchun mustahkam ilmiy-nazariy asosni shakllantirishdan iboratdir.

Ma’ruza quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- axborot funksiyasi: kerakli ma’lumotlarni taqdim etadi;
- stimullovchi funksiya: mavzuga qiziqishni uyg‘otadi;
- tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi funksiya: voqea va hodisalarga baho beradi, tafakkurni rivojlantiradi.

Yo‘naltiruvchi:

- tushuntiruvchi (masalan, asosiy ilmiy kategoriyalarni aniqlash);
- ishontiruvchi yoki isbotlovchi.

Ma’ruza talabaning shaxsiy yetukligini shakllantirib, umumiy madaniyat va eruditsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, hozirgi kunda ma’ruza mashg‘ulotlarining “tarafdor”lari bilan birga, unga qarshi fikrlar ham mavjud. Ular ma’ruza tarzida o‘quv materialini taqdim etishning salbiy tomonlarini quyidagicha keltiradilar:

- ma’ruza talabalarning boshqalar fikrini passiv ravishda qabul qilishga o‘rgatib, mustaqil tafakkurning rivojlanishini cheklaydi;
- ma’ruza mustaqil tayyorgarlik asosidagi mashg‘ulotlarga qiziqishni pasaytiradi;
- ma’ruza darslik bo‘lmagan hollardagina kerak bo‘ladi.

Ma’ruza davomida barcha talabalar o‘quv materialini to‘liq o‘zlashtira olmaydi. Ammo ma’ruzadan voz kechish talabalarning ilmiy tayyorgarlik darajasini pasaytirib, semestr davomida o‘quv faoliyatining tizimli va muntazam kechishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ma’ruza oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning eng muhim shakli sifatida e’tiborga olinishi lozim. [3.320]

Yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni o‘quv materiallarini takomillashtirilgan metodika orqali bayon qilish orqali bartaraf etish mumkin. Ma’ruza mashg‘ulotlari mustaqil tafakkurni rivojlantirish, tahlil, sintez, qiyoslash va umumlashtirish kabi tafakkur operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini ta’minlashi mumkin. Shuning uchun ma’ruza pedagogik vazifalarni amalga oshirishda keng imkoniyatlar va ichki resurslarga ega. Amerikalik mutaxassislar D. V. Djonson, R. T. Djonson va K. A. Smit ma’ruza mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishning texnologiyasini taklif qilib, bu jarayonni uch bosqichga bo‘lishni tavsiya qiladi:

1. Tayyorgarlik: o‘qituvchi talabalarning mavjud bilimlarini faollashtiradi, ularning diqqatini o‘rganilayotgan muammoga to‘liq jalb qiladi va shu muammoni o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi.
2. Amalga oshirish va anglash bosqichi. Bu bosqichda yangi o‘quv materiali taqdim etiladi va avvaldan tayyorlangan topshiriqlar tanqidiy qayta ishlash va tahlil qilish maqsadida taklif qilinadi.
3. Refleksiya bosqichi. Bu bosqichda talabalar o‘quv materialining mazmunini tahlil qilish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini amalga oshirishadi. [3.320]

Ma’ruza tashkil etish texnologiyasi talabalarning ma’ruza davomida o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirish metodlarini qo‘llashni nazarda tutadi. Tibbiy ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun kasbiy pedagogika fanini o‘qitishda ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llanilgan metodlarning o‘rganilishi asosida biz quyidagi usullarni tavsiya etamiz: muammoli vaziyatlar metodi, faollashtiruvchi savollar metodi, dialog metodi, vizualizatsiya metodi va kasbiy tafakkurni rivojlantirishning boshqa usullari.

Muammoli vaziyatlar metodi — ma’ruza mashg‘uloti davomida ta’lim beruvchi muammoli vaziyatlarni yaratib, talabalarning faol bilish faoliyatiga asoslanadi. U aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va keyingi qarorni qabul qilish jarayonlaridan iborat. Talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlarning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish, ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. “Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi lozim. Agar talabalar qo‘yilgan muammoning yechimini topa olmasalar, ularning qiziqishlari pasayishi va o‘zlariga bo‘lgan ishonchlari yo‘qolishi mumkin. Muammoli vazifani ishlab chiqish ko‘p mehnat va pedagogik mahoratni talab qiladi. Qoidalarga ko‘ra, vazifa bir necha marotaba sinovdan o‘tkazgandan keyin o‘quv guruhida samarali variantni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shunga qaramay, bunday vazifalar nazariyani amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi va ta’lim oluvchilarning o‘qitish jarayonida faollashishini ta’minlaydi, shuningdek, kasbiy tafakkurlarini rivojlantirishda o‘rganilayotgan materialning amaliy ahamiyatini anglab yetishga yordam beradi. [2. 26]

Faollashtiruvchi savollar metodi. Talabalarning tafakkurini faollashtirish va ularning diqqatini jalb qilish uchun ma’ruzachi auditoriyaga faollashtiruvchi

hamda ritorik savollar berishi mumkin. Bir muncha sukutdan keyin o‘qituvchi faollashtiruvchi savolga javob berish uchun istalgan talabani jalb etadi. O‘qituvchi berilgan javobni to‘g‘ri tushunishi va bayon qilishi kerak, agar javob noto‘g‘ri bo‘lsa, uni to‘g‘ri javob bilan almashtirish zarur.

Dialog metodi. Ma’ruza davomidagi dialog o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida fikr almashishni ta’minlaydi, shunga ko‘ra, o‘zaro muloqot orqali ma’ruzaning muayyan bosqichida o‘quv materialini bayon qilish va mustahkamlash imkonini beradi. Dialog tashkil qilishda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida to‘liq ishonch muhitini yaratish muhimdir. Talaba xato bo‘lgan taqdirda ham o‘z fikrlarini aniqlik bilan bayon qilishga urinishi kerak. Dialogning asosiy maqsadi talabalarda muammoga qiziqish uyg‘otish va ularning tafakkur mexanizmlarini ishga solishdir. Bu maqsadga erishish uchun o‘qituvchi talabaning xatolarini qisqa sharh orqali tez va oson bartaraf etishi, zarur holda javoblarni to‘ldirishi kerak.[2. 26]

Vizuallashtirish metodi. Bu metod ta’limda ko‘rgazmalilik prinsipiga asoslanadi. Ko‘rgazmalilik o‘quv materialini yaxshi eslab qolish va qabul qilish imkoniyatini yaratmasa, balki talabaning aqliy faoliyatini faollashtirish va o‘rganilayotgan mavzuning mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ma’lumotlarni uzun-uzoq gapirish orqali tushuntirish mumkin, ammo rasm, sxema, diagramma, gistogramma yoki jadval orqali ma’lumotlarni taqdim qilish ko‘rsatishning samaradorligini oshiradi. Vizual tafakkur qonuniyatlarni o‘rganish hamda qaror qabul qilish jarayonining ijodiy xarakterini aniqlaydi. Vizuallashtirish metodi tafakkur jarayonini tizimlashtirish, diqqatni to‘plash va muhim jihatlarni ajratish orqali shakllanishini ta’minlaydi. Vizual ma’lumotlar maket, rasm, grafik, fotografiya, film, multfilm vositalari yordamida doska yoki proyektor orqali namoyish qilinadi. [5. 3060]

Bunday vizual uskunalardan foydalanilgan ma’ruza talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishga yordam bermaydi, balki o‘qituvchilarning o‘zida ishlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga ham turtki bo‘ladi. Hozirgi kunda tajribali o‘qituvchilar LearningApps, Hot Potatoes, 3ds Max, Bryce (DAZ Productions), DX Studio, Sculptris kabi animatsion dasturlardan foydalanib tayyorlangan o‘quv materiallari talabalarning ma’ruza mashg‘ulotlarini qiziqish bilan o‘rganishlariga, materialning mohiyatini tushunishga va tafakkur darajasini oshirishga yordam beradi. Ma’ruza mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun aniq ma’ruzalardan foydalanish va mavzuning talabalar tomonidan qiziqish bilan o‘zlashtirilishiga quyidagilarni taklif qilish maqsadga muvofiqdir:

- Talabalarga fandagi so‘nggi yutuqlar va yangiliklarni professorlar va o‘qituvchilar tomonidan yetkazish.
- Zamonaviy ta’lim tizimida fanlar bo‘yicha ilmiy va uslubiy jihatdan yetuk ma’ruzalarni talabalarga taqdim etish.
- Pedagog kadrlar kasb mahoratining ma’ruzalarni tashkil etish texnologiyalari asosida oshirilishi.

Talabalar zamonaviy axborotlar makonida zarur ma’lumotlarni mustaqil olishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin, shuning uchun ma’ruza ularga yo‘l ko‘rsatadi. Ammo ma’ruza faqat “o‘qish” bilan cheklanmasligi kerak. Zamonaviy ma’ruza usullari faollashtiruvchi metodlar bilan birga bahs, munozara, suhbat, muhokama va interaktiv usullarda tashkil etilmog‘i lozim. Shu sababli ko‘plab innovatsion metodlar o‘qitishning interaktiv usullari bilan bog‘liqdir.[5. 3060]

Shunday qilib talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini ma’ruza mashg‘ulotlarida boshqarish va takomillashtirish o‘qituvchi uchun eng muhim didaktik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalar talabalarning kasbiy qiziqishlarini stimullash, ma’ruza mashg‘ulotlarida faol ishtirok etishlarini ta’minlash va mustaqil ishlarini tashkil etish jarayonini qamrab oladi. Bu vazifalarning barchasi yaxlit metodik usullar kompleksini qo‘llash orqali yechiladi. Talabalar bilish faoliyatini faollashtiruvchi barcha metodlar o‘quv materialining mazmuni, auditoriya tarkibi va tayyorgarligiga bog‘liq holda qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бусыгин А. Г., Бусыгина Т. А. Постановка вузовской лекции и оценка ее качества / под ред. А. Л. Бусыгиной. Самара: Изд-во СГПУ 2005. 32 с.

2. Давиденко Е.С. АКТИВИЗАЦИЯ ЛЕКЦИОННОЙ ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ // Современные проблемы науки и образования. 2019. – № 5. С-26

3. Розиқов О.Р., Адизов Б.Р., Нажмиддинова Г.Н.“Умумий дидактика” ўқув қўлланма. Бухоро, 2012 й. Б.320.

4. Kurbanoba G.N, Pedagogical and psychological bases on developing students’ professional thinking in medical pedagogical education. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020. 3059-3067 p.

Shohruh ABDIRAIMOV,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

O‘QUVCHILARNI BAHOLASH NATIJALARI: TIL BIRLIKLARNI O‘ZLASHTIRISHDA GENDERNING O‘RNI

Annotatsiya: o‘qitish natijalariga, o‘quvchilarda grammatik savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda genderning ta’siri bor. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada o‘quvchilarning grammatik savodxonligini rivojlantirishning mavjud holati o‘rganildi, lingvistik bilimlar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga genderning ta’siri tadqiq qilindi. Natijalarga o‘qituvchining kasbiy mahorat darajasining ta’sirini minimallashtirish maqsadida bir xil malaka toifasiga ega o‘qituvchilar dars beradigan sinflarda tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Matematik-statistik tahlil metodidan foydalanilib, 71 nafar o‘quvchilar natijasi tahlil qilindi. O‘zbekiston ta’lim kontekstida ona tili ta’limi natijalarida genderning ta’siri yuqori darajada emas, biroq til sathlari nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qilishi kuzatildi.

Kalit so‘zlar: *o‘qitish natijalari,ona tili ta’limi, Grammatik savodxonlik,gender, baholash;*

Annotation: there is an influence of gender on the learning outcomes and the development of learners' grammatical literacy skills. From this perspective, this article studies the current situation of students' grammatical literacy development, examining the influence of gender on the acquisition of language knowledge and skills. To minimize the impact of the teacher's professional skill level on the results, the experimental work was conducted in classes taught by teachers of the same qualification category. The results of 71 students were analyzed using mathematical and statistical analysis. In the educational context of Uzbekistan, the influence of gender on learning outcomes in the mother tongue is not high, but it is noticed that they differ by language level.

Key words: *learning outcomes, mother tongue learning, grammatical literacy, gender, assessment.*

Аннотация: гендер влияет на результаты обучения, на развитие у учащихся навыков грамматической грамотности. С этой точки зрения в этой статье было изучено состояние грамматической грамотности учащихся, изучено влияние гендера на изучение лингвистических знаний и навыков. В целях минимизации влияния профессионального мастерства учителя были проведены эксперименты в классах, в которых преподают учителя одной и той же квалификационной категории. С помощью метода математико-статистического анализа были проанализированы результаты 71 учащегося. В контексте образования Узбекистана в результате обучения родному языку влияние гендера было невысоким, но было отмечено, что уровни языка отличаются друг от друга.

Ключевые слово: *результаты обучения, обучение родному языку, грамматическая грамотность, гендер, оценка;*

Kirish. Globallashgan dunyoda ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda turli jins vakillariga teng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuningdek, bir guruh olimlar ikki jins vakillari har tomonlama teng deya hisoblaydilar. Shu bilan birga, etnik va diniy mafkuralar ta’siridagi ayrim qarashlarda gender o‘ziga xoslik ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismi deb hisoblanadi. Ayniqsa, bu o‘zaro munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Biz ham gender va til ta’limi munosabatini o‘rganishga harakat qildik. Tadqiqotimizda ona tili ta’limida o‘quvchilarning lingvistik bilimlar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishida genderning ta’sirini tahlil qildik.

Manbalar tahlili. Ko‘plab tadqiqotlarda o‘qish va o‘rganish jarayonida turli jins vakillari imkoniyatlari o‘rganib ko‘rilgan. So‘nggi yillarda e’lon qilinayotgan tadqiqotlarda o‘quv yutuqlarida gender farqlar borligi tasdiqlanmoqda [1]. Shu nuqtayi nazardan, til o‘rgatish jarayonida, tilni o‘zlashtirish jarayonida genderning roli masalasi bir qator tadqiqotlarda tahlil etilgan. “Til o‘rganish vazifasi, ko‘rsatmalari, usullari, variativ ta’lim dasturlari va yangi va qiyin ma’lumotlarni taqdim etish uslubi– talabaning jinsiga xos o‘rganish uslubi va uning kognitiv darajasiga mos keladigan bo‘lsa, talabaning kognitiv va affektiv sohalarda rivojlanishi sodir bo‘ladi”[2]. Darhaqiqat, til o‘zlashtirish samaradorligi o‘qitish dasturlari, usullari va vositalari bilan birga, genderlarning o‘ziga xos tomonlariga ham bog‘liq. Shuningdek, “til o‘rganish strategiyalaridan (LLS) foydalanishda genderni o‘zgaruvchi sifatida o‘rgangan ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, sezilarli gender farqlari deyarli har doim bir xil bo‘ladi va ular ayollar tomonidan ko‘proq foydalanishni ko‘rsatadilar, ayollar ijtimoiy til o‘rganish strategiyalaridan erkaklarga qaraganda ancha ko‘proq foydalanganlar [5]. Darhaqiqat, til o‘zlashtirishda “erkaklar va ayollar o‘rtasida sezilarli farq mavjud bo‘lsa-da, farqning kattaligi va jami erkaklar va ayollarning umumiy soni o‘rtasidagi bog‘lanish kuchi nisbatan kichik. Shuning uchun, jins talabalarning imtihonlari natijalariga ozgina ta’sir qilishi mumkin”[5].

Metodologiya. Maktablarda yangi avlod darsliklari asosida o‘quvchilarning grammatik savodxonligini rivojlantirishning mavjud holatini o‘rganish, lingvistik bilimlar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga genderning ta’sirini aniqlash maqsadida baholash

va monitoring tadqiqoti o‘tkazib ko‘rildi. Bunda, avvalo, baholash qonuniyatlariga asosan baholash jarayoni loyihalashtirib olindi. Ona tilifanidan 10-sinf uchun ishlab chiqilgan amaldagi milliy o‘quv dasturi o‘rganib chiqildi. Unda belgilangan ta’lim maqsadlari asosida o‘quv yilining 2-choragida grammatik savodxonlik bo‘yicha egallanishi lozim bo‘lgan o‘quv natijalari asosida baholanadigan bilim va ko‘nikmalar ro‘yxati shakllantirib olindi. Shundan so‘ng, baholash spetsifatsiyasi tuzilib, u asosida test topshiriqlari ishlab chiqildi va malakali mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o‘tkazildi.

So‘ngra, tadqiqot uchun tajriba-sinov maydonchasi belgilab olindi. Tajriba-sinov ishlari Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi 33-maktab,Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar ixtisoslashtirilgan maktabi, Toshkent viloyatiYangiyo‘l tumani 13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi va Piskent tumani 41-umumiy o‘rta ta’lim maktablarida olib borildi. Tajriba-sinov natijalariga o‘qituvchining kasbiy mahorat darajasining ta’sirini minimallashtirish maqsadida bir xil malaka toifasiga ega o‘qituvchilar dars beradigan sinflarda, xususan, dars mashg‘ulotlari oliy toifali o‘qituvchilar tomonidan olib boriladigan 10-sinf o‘quvchilari ishtirokida tajriba ishlari o‘tkazildi.

Sinov jarayonida 10 ta test topshirig‘i yordamida o‘quvchilarning quyidagi grammatik savodxonlik ko‘nikmalari o‘lchandi va baholandi:

– kirish va kiritmalarning nutqda to‘g‘ri qo‘llanganiga baho berish;

– olmoshlarning nutqda to‘g‘ri qo‘llanganiga baho berish;

– gapning mazmuniy va grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirilganini aniqlash;

– so‘z yasovchi qo‘shimchalardan nutqda to‘g‘ri foydalanilganini tasdiqlash;

– ko‘plik qo‘shimchasidan nutqda to‘g‘ri foydalanilganini tasdiqlash;

– nutq sofligining buzilishini farqlash;

– nutqda fe’lning lug‘aviy shakllarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini farqlash;

– nutqda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini farqlash;

–nutqda shakl yasovchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini farqlash;

– nutqdagi fonetik o‘zgarishlarni farqlash.

Shuningdek, tajriba natijalarini sinflar va maktablar kesimida tahlil qilish maqsadida so‘rovnomalar ham taqdim etildi.

Tajriba-sinov natijalari matematik-statistik tahlil metodlari asosida maktablar, o‘g‘il va qiz bolalar kesimida tahlil etildi.

Natijalar tahlili. Tahlil natijasida shu aniq bo‘ldiki, belgilangan grammmatik savodxonlikka oid ta’lim maqsadlarining aksariyati o‘quvchilarda shakllanmayapti.(1-jadvalga qarang.)

Topshiriqlar va ularning to‘g‘ri bajarilish darajasi KO‘RSATKICHLARI

1-jadval

T/R	O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi	Topshiriqlar tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1.	20 – 40 %	1, 4, 5, 9, 10	*Kirish va kiritmalarning nutqda to‘g‘ri qo‘llanganiga baho berish; so‘z yasovchi qo‘shimchalardan nutqda to‘g‘ri foydalanilganini tasdiqlash; ko‘plik qo‘shimchasidan nutqda to‘g‘ri foydalanilganini tasdiqlash; nutqda shakl yasovchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini farqlash; nutqdagi fonetik o‘zgarishlarni farqlash.*
2.	41 – 60 %	2, 3, 8	*Olmoshlarning nutqda to‘g‘ri qo‘llanganiga baho berish; gapning mazmuniy va Grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirganini aniqlash; nutqda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini farqlash;*
3.	61 – 80 %	7	*Nutqda fe’lning lug‘aviy shakllarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini farqlash;*
4.	81 – 90 %	6	*Nutq sofligining buzilishini farqlash*

Ko‘rinadiki, o‘quvchilarda kirish va kiritmalarning nutqda to‘g‘ri qo‘llash, sifat yasovchi so‘z yasovchi qo‘shimchalardan hamda ko‘plik qo‘shimchasidan nutqda to‘g‘ri foydalanish va nutqda shakl yasovchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini farqlash bilan bog‘liq jiddiy muammolar mavjud. Dars mashg‘ulotlari oily toifali o‘qituvchilar tomonidan olib borilgan taqdirda ham, natija qoniqarsiz chiqishi shuni ko‘rsatadiki, yuqori sinflarda ushbu ko‘nikmalar tizimli shakllantirilmagan, ya’ni o‘quv dasturlari mazmunan bir-birini to‘ldirmaydi, yoki ushbu mavzular o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos emas.


Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatadiki, nutq sofligining buzilishini farqlash ko‘nikmasi o‘quvchilarning 86 %i shakllangan. Demak, nutqda soflikka amal qilish ko‘nikmasi 10-sinf o‘quvchilari uchun yengillik qiladi. Bu ko‘nikmani shakllantiradigan mavzularni quyiroq sinflarga o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Ona tili ta’limida Grammatik savodxonlik ko‘nikmalarini shakllanishiga genderning ta’sirini aniqlash maqsadida natijalarni tahlil qildik. Tajriba jarayonida o‘g‘il va qiz bolalar deyarli bir xil miqdorda ishtirok etdi (2-jadvalga qarang).

Respondentlarning genderiga ko‘ra miqdori. 2-jadval

T/R	Ishtirokchilar jinsi	Ishtirokchilar Soni	O‘rtacha o‘zlashtirish darajasi
1.	O‘g‘il bolalar	38 ta	46 %
2	Qiz bolalar	33 ta	46,1 %

Tahlil natijasiga ko‘ra, umumiy holda Grammatik savodxonlik ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi o‘g‘il va qiz bolalarda deyarli bir xil. Biroq ichki tahlil qilganimizda, ba’zi ko‘nikmalar o‘g‘il bolalarda, ba’zi ko‘nikmalar esa qiz bolalarda nisbatan yuqoriroq shakllanganini guvohi bo‘ldik (1-diagrammaga qarang.)



1-diagramma. O‘quvchilarning genderga ko‘ra natijalari

Bu shuni ko‘rsatadiki, lingvistik mavzularni o‘zlashtirish darajasiga respondentlarning qaysi jins vakili ekanligi ham qisman ta’sir qiladi. Jumladan, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘g‘il bolalarda kirish va kiritmalarning nutqda to‘g‘ri qo‘llash, gaplarni mazmunan va Grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, nutqda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini hamda nutqdagi fonetik o‘zgarishlarni farqlash ko‘nikmalari nisbatan yaxshi shakllangan. Ko‘rinadiki, ular qarama-qarshi jins vakillariga nisbatan nutqda munosabat shakllarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini yaxshiroq o‘zlashtirishgan.

Qiz bolalarda esa nutqda olmoshlardan va qo‘shimchalardan mazmunan to‘g‘ri qo‘llash hamda fe’lning lug‘aviy shakllarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini farqlash ko‘nikmalari nisbatan yaxshi shakllangan. Ko‘rinadiki, ular qarama-qarshi jins vakillariga nisbatan nutqda olmoshlardan samarali va o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini yaxshiroq egallashgan.

Shu bilan birga, o‘g‘il va qiz bolalarda nutqda ko‘plik qo‘shimchasini qo‘llash va shakl yasovchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini o‘zlashtirish bir xil darajada yaxshi shakllanmagan. Ko‘rinadiki, har ikki jins vakillarida shakl yasovchi qo‘shimchalarni o‘zlashtirish bir xil kechadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelishimiz mumkin,

birinchidan, ona tili ta’limida o‘quvchilarda Grammatik savodxonlik ko‘nikmalari tizimli shakllantirilmayapti, fan bo‘yicha o‘quv dasturlari mazmunan bir-birini to‘ldirmaydi, Shuningdek, lingvistik mavzular o‘quvchilarning

o‘zlashtirish va tafakkur darajasiga yetarli darajada mos emas;

ikkinchidan, umuman, lingvistik bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasiga respondentlarning qaysi jins vakili ekanligi yuqori darajada ta’sir qilmaydi.Biroq ichki tahlil qilganimizda, o‘g‘il bolalarda sintaktik munosabatlarni o‘zlashtirish nisbatan yengil kechishi, qiz bolalarda esa lug‘aviy munosabatlarni o‘zlashtirish nisbatan oson kechishi aniqlandi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Davlat umum ta’lim maktablarida ona tili fani dasturini qaytadan ilmiy asoslangan tarzda qayta ko‘rib chiqishi kerak

2. Maktablar rahbariyati o‘g‘il va qiz bolalarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish choralarini ko‘rishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Unity Oriakhi, Ujiro Igbudu. (2015). Influence of Gender on Students’ Academic Achievement in Government Subject in Public Secondary Schools in Oredo Local Government Area of Edo State, Nigeria. Journal of Educational and Social Research. Vol. 5 No.2. –P. 101–105

2. Tatarinceva, A. (2009). Influence of the gender factor on a student’s learning style and achievements in language learning. Transport and Telecommunication Institute, 10, 1-8.

3. Aslan, O. (2009). The role of gender and language learning strategies in learning English (Master's thesis, Middle East Technical University).

4. Pica, T., Holliday, L., Lewis, N., Berducci, D., & Newman, J. (1991). Language learning through interaction: What role does gender play?. Studies in second language acquisition, 13(3), 343-376.

5. Zoghi, M., Kazemi, S. A., & Kalani, A. (2013). The effect of gender on language learning. Journal of novel applied sciences, 2(4), 1124-1128.

6. Salem, N. M. (2006). The role of motivation, gender, and language learning strategies in EFL proficiency (Doctoral dissertation, American University of Beirut, Department of Education).

Shahzoda SOBIROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NTM O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o‘qituvchisi

“HAYRAT UL-ABROR” ASARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada Navoiy qalamiga mansub “Hayrat ul-abror” asarida aks etgan eski o‘zbek adabiy tili leksemasiga xos stilistik xususiyatlarning o‘ziga xosligi yoritib berildi. Shu bilan birga asarda qo‘llanilgan turli toifa vakillarining nutqida qo‘llanilgan stilistik birliklar aniqlangan bo‘lib, har bir leksemaning kishilar nutqida turlicha aks etgani ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari turkiy til taraqqiyotining turli davrlaridagi leksema va morfemalarning Navoiy asarlarida faol qo‘llanganligi ko‘rsatib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: *stilistika, eski o‘zbek adabiy tili, badiiy uslub, leksik-semantik xususiyat, so‘zlashuv uslubi, ilmiy uslub, rasmiy uslub, qiyoslash, lirik va epik uslub.*

Annotation: the article highlights the stylistic characteristics of the old Uzbek literary lecture, which is reflected in the essay "Surprise ul-abror" by Nebuchadnezzar. At the same time, the speech of representatives of various categories of people used in the poem identifies stylistic units that show that each lecture is reflected differently in people's speeches. Furthermore, the use of lectures and morphines of various periods of Turkish language development in the works of Navoi was shown.

Keywords: *stylistics, old Uzbek literary language, artistic style, linguistic-semantic characteristics, speech style, scientific style, official style, comparison, lyrical and epic style.*

Аннотация: в статье освещены стилистические особенности древнеузбекской литературной лекции, что отражено в эссе Навуходоносора «Сюрприз уль-аброра». При этом в речи представителей различных категорий людей, использованной в стихотворении, выявляются стилистические единицы, показывающие, что каждая лекция по-разному отражается в речах людей. Кроме того, было отмечено, что в произведениях Навуходоносора активно использовались лекции и морфины различных периодов развития турецкого языка.

Ключевые слова: *стилистика, древнеузбекский литературный язык, художественный стиль, лингвосемантические характеристики, стиль речи, научный стиль, официальный стиль, сравнение, лирический и эпический стиль.*

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni uning “Xamsa”si tarkibiga kirgan birinchi asardir. Bu doston Alisher Navoiyning falsafiy, diniy, axloqiy va ma’rifiy qarashlarini aks ettiruvchi asar bo‘lib, uslubiy jihatdan juda boy va o‘ziga xosdir. Asarda poetik ifodalar, chuqur mazmunli ramzlar va badiiy tasvirlar Navoiyning yuksak ijodiy mahoratini namoyon qiladi. Ushbu maqolada asarning uslubiyati, ya’ni Navoiy qanday badiiy usullar va vositalar orqali o‘z g‘oyalarini ifoda etgani tahlil qilinadi. Shu xususda gap borar ekan asarda ko‘satilgan ba’zi uslublar bilan yaqinroq tanishib chiqamiz:

1. Falsafiy va diniy uslub. “Hayrat ul-abror” asarining asosiy xususiyatlaridan biri uning falsafiy va diniy mavzularni keng qamrab olganligidir. Navoiy asarda Qur’on oyatlari, hadislardan ilhomlanib, inson axloqi, ma’naviyati va hayotning mazmuni haqida mulohazalar yuritadi. Bu uslub orqali muallif o‘quvchini chuqur falsafiy va axloqiy tushunchalarga yo‘naltiradi. Dostonda ruhiy poklik, nafsni jilovlash, adolat, sabr va taqvo kabi diniy axloqiy g‘oyalar keng yoritilgan. Misol sifatida, Navoiy insonning nafs bilan kurashi haqida yozgan qismida Qur’on va hadislardan foydalanib, nafs va ruh o‘rtasidagi ichki ziddiyatni chuqur tahlil qiladi. Bu falsafiy va diniy uslub dostonga ma’no boyligi va serjilo bo‘yoqdorlik qo‘shadi va uni yanada ta’sirchan qiladi.

2. Didaktik uslub. Navoiy o‘z asarlarida didaktik, ya’ni o‘rgatuvchi uslubni ham keng qo‘llaydi. “Hayrat ul-abror” asarida axloqiy va hayotiy masalalar ustida chuqur mulohazalar yuritilib, o‘quvchiga saboq beriladi. Asar hikmatli o‘gitlar, nasihatlar va axloqiy qoidalar orqali boyitilgan. Dostonda o‘qilgan har bir voqea yoki hikoya hayotiy saboq beruvchi xulosa bilan yakunlanadi. Masalan, Navoiy halollik, adolat va insonparvarlik haqida so‘z yuritganda, o‘quvchiga bu fazilatlarning hayotda qanday ahamiyatga ega ekanini tushuntiradi. Bu usul orqali Navoiy axloqiy qadriyatlarni ta’kidlash bilan birga, ularni hayotga tatbiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Badiiy uslub va tasviriy vositalar. Navoiy badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanib, asarning uslubiyatini boyitgan. Metaforalar, o‘xshatishlar (tashbehlar), ramzlar va antitezalar Navoiy stilistikasining ajralmas qismi hisoblanadi. Metaforalar orqali Navoiy inson qalbini, hayotiy tajribalarni va falsafiy tushunchalarni yanada jonli va ta’sirchan qilib tasvirlaydi. Masalan, “ko‘ngil daryosi” degan metafora inson qalbidagi hissiyotlarning cheksizligini va to‘lqinlanishini ifodalaydi. O‘xshatishlar yordamida u murakkab tushunchalarni sodda qilib tushuntiradi. Masalan, qalbni gulga, umidni yulduzga o‘xshatish orqali u asarni o‘quvchi uchun yanada tushunarli qiladi. Ramzlar (simvolizm) orqali Navoiyning asarida ko‘plab tushunchalar ramziy ma’noga ega. Quyosh – adolat va haqiqat ramzi sifatida, zulmat esa johillik va yolg‘on timsoli sifatida ishlatiladi.

4. Lirik va epik uslub uyg‘unligi. “Hayrat ul-abror” asarida lirik va epik uslub uyg‘un holda qo‘llangan. Epik uslub voqealarning keng qamrovli va batafsil tasvirlanishi orqali namoyon bo‘lsa, lirik uslubda muallifning shaxsiy his-tuyg‘ulari, kechinmalari va falsafiy mushohadalari o‘z ifodasini topadi. Bu ikki uslubning uyg‘unligi asarga o‘ziga xos badiiy ko‘lam bag‘ishlaydi. Lirik uslub orqali Navoiy insonning ichki dunyosini, hissiy holatini, ma’naviy iztiroblarini chuqur tasvirlaydi. Masalan, ko‘ngil iztiroblari, insonning najot izlab qilgan duolari lirik ifodalar orqali tasvirlangan. Shu bilan birga, epik uslubda voqealar zanjiri, qahramonlarning hayotiy tajribalari va boshidan kechirgan voqealari keng ko‘lamda bayon qilinadi.

5. Sharqona uslub. Navoiy ijodida Sharq adabiyotiga xos bo‘lgan poetik va stilistik usullar keng qo‘llanilgan. Sharqona uslub, ayniqsa, tasavvufiy g‘oyalar, axloqiy qadriyatlar va diniy tushunchalar tasvirida yaqqol namoyon bo‘ladi. Dostonda Qur’on oyatlari, hadislardan parchalarning keltirilishi va tasavvufiy talqinlar Sharq adabiyotiga xos uslubiyatning eng yorqin ko‘rinishlaridan biridir. Bundan tashqari, asardagi obrazlarning o‘ziga xosligi, ularning ruhiy va ma’naviy jihatlari Sharq adabiyotiga xos yuksak ideal sifatida talqin etiladi.

Navoiy axloqiy qadriyatlarni ko‘rsatishda ramziy usullar bilan bir qatorda an’anaviy sharqona didaktikadan foydalangan.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asari uslubiy jihatdan boy va ko‘p qatlamli asar hisoblanadi. Falsafiy va diniy uslub, didaktik va badiiy ifoda usullari, lirik va epik uslublarning uyg‘unligi hamda sharqona stilistika Navoiy ijodining asosiy belgilaridan biri sifatida ajralib turadi. Uslubiy boylik asarni nafaqat badiiy jihatdan, balki axloqiy va falsafiy ma’noda ham chuqur anglashga yordam beradi. “Hayrat ul-abror” o‘zining o‘rgatuvchi, boy poetik uslubi orqali o‘zbek adabiyotining yuksak namunalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Alisher Navoiy tomonidan yozilgan “Hayrat ul-abror” dostoni uning badiiy uslubi, til va poetika boyligini yaqqol ko‘rsatadi. Bu asar nafaqat mazmun jihatidan boy, balki stilistik jihatdan ham chuqur tahlil qilishga arziydi. Navoiy tilining stilistik xususiyatlari asar mazmunini yanada kengroq anglash va uning ma’nosini chuqurroq ochishga yordam beradi.

Navoiy stilistik birlik sifatida sinonimlardan mohirona foydalangan. U bir tushunchani bir nechta sinonim so‘zlar bilan takrorlab, ma’noni boyitgan va asarga musiqiy ohang bag‘ishlagan. Bu usul asarda leksik boylikni oshiradi va o‘quvchiga ma’noni yanada to‘liqroq anglash imkonini beradi.

Masalan: go‘zal, "xushro‘y, zebo so‘zlari bir-biriga yaqin ma’noga ega bo‘lsa-da, har birining o‘ziga xos badiiy yuklamasi mavjud.

Antitezalar Navoiy ijodida keng qo‘llanilgan stilistik vositalardan biri bo‘lib, u hodisalar yoki tushunchalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni ko‘rsatish orqali chuqur falsafiy ma’nolarni ochib beradi.

Masalan, nur va zulmat, haqiqat va yolg‘on, adolat va zulm kabi qarama-qarshiliklar yordamida muallif haqiqat, adolat va axloqiy qadriyatlarni tasvirlaydi. Bu antitezalar, asarda tasvirlangan voqealar va xarakterlar o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatib, ularning o‘quvchi ongidagi aksini kuchaytiradi. Tashbehlar Navoiy stilistikasining ajralmas qismi bo‘lib, asarning badiiy jozibasini oshiradi. Muallif ko‘plab o‘xshatishlar orqali murakkab tushunchalarni sodda va aniq tasvirlaydi.

Masalan: “Qalbi guldek nozik” – qalbning nozikligi gul bilan taqqoslanadi, bu insonning ichki dunyosidagi nozik his-tuyg‘ularni anglatadi. “Umid yulduzi” – insonni umid bilan yashatadigan narsa yulduzga o‘xshatiladi, bu umidning yorqinligini va yo‘ldosh bo‘lishini ko‘rsatadi.

Metafora – asar stilistikasining eng muhim unsurlaridan biri bo‘lib, muallif ma’lum bir tushunchani boshqasi orqali ifodalash orqali ma’noni yanada boyitadi.

Masalan: “Ko‘ngil daryosi” – inson qalbidagi cheksiz tuyg‘ularni va hissiyotlarni ifodalashda daryo ramz sifatida ishlatilgan. Bu insonning ichki dunyosidagi beqarorlik va to‘lqinlanishni ko‘rsatadi. “Nafs zindoni” – insonning o‘z nafsiga asir bo‘lgan holatini ko‘rsatish uchun nafs zindonga o‘xshatilgan.

Navoiy ramzlardan ham samarali foydalangan bo‘lib, ma’lum tushunchalarni chuqurroq tasvirlash uchun simvolizmga murojaat qiladi. Bu usul asar mazmunini ko‘p qirrali va boy qiladi.

Masalan: Quyosh – asarda haqiqat, adolat va ilohiy nurning ramzi sifatida qo‘llanilgan. Quyosh insonning ruhiy yuksalishi va aqlni ifodalaydi. Ko‘z odatda idrok va ma’rifat ramzi sifatida ishlatiladi, u orqali inson haqiqatni ko‘ra oladi. Ko‘z inson qalbining oynasi sifatida ham ko‘rinadi. Majoziy ifodalar Navoiy stilistikasining yana bir muhim qismi bo‘lib, muallif hayotiy va falsafiy tushunchalarni ifodalashda allegoriyalardan keng foydalangan.

Masalan, insonga berilgan ichki kurash (nafs va ruh o‘rtasidagi ziddiyat) – bu ma’no insonning ichki ziddiyatlarini tasvirlash va axloqiy qadriyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Insonning hayotiy sayohati esa ruhiy yuksalishni va ma’rifat yo‘lini anglatadi.

Navoiy o‘z asarlarida aniq va obrazli so‘z ishlatishni ham ustalik bilan bajargan. Uning uslubi o‘quvchiga sodda va tushunarli bo‘lib qolgan holda chuqur mazmunni o‘z ichiga oladi. Masalan, oddiy tabiat hodisalari yoki kundalik hayotdagi voqealar orqali insoniy fazilatlarni tasvirlash usuli keng qo‘llaniladi. Bu usul asarni o‘quvchi uchun yaqin va tanish qilib, unda keltirilgan g‘oyalarni chuqurroq qabul qilishga yordam beradi.

Xulosa. Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-abror” asarida stilistik birliklarni mohirona ishlatgan. Sinonimlar, antitezalar, tashbehlar, metaforalar, ramzlar va allegoriyalar orqali asar badiiy jihatdan yanada boyib, o‘quvchining fikrini chuqurlashtiradi. Bu stilistik vositalar asarda nafaqat go‘zallik va estetik ahamiyatga ega, balki asarning axloqiy va falsafiy mohiyatini tushunishga ham yordam beradi. Navoiy stilistikasining boyligi o‘zbek adabiy tilining yuksak taraqqiyotini va badiiy tafakkurining kengligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Бабаджанов Б. М., Коматцу Х. Журнал “Haqīqat” как зеркало религиозного аспекта в идеологии джадидов (русский) // TIAS Central Eurasian Research Series. — 2007. — Andoza:Бсокр. — ISBN 978-4-904039-02-1.

2.Borovkov A. K., Алишер Наваи как основоположник узбекского литературного языка. – Sb.: “Alisher Navoi”, M-L., 1948.

3.Щcherbak A. M., Грамматика староузбекского языка, M-L., 1962.

4.Mutallibov S., Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. –T., 1959.

5.Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T., 1973.

6.Tursunov U., O‘rinboyev B., O‘zbek adabiy tili tarixi. – T., 1982.

7. Alibek Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati.– Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.

Nilufarxon MAXMUDOVA,
PhD, Qo‘qon DPI



O‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARINING LINGVOKOGNITIV TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalq topishmoqlarining antroposentrik tadqiqi lingvokognitiv yondashuv asosida olib borilgan, narsa va hodisalarning timsollari topishmoqlarda qanday ifodalanganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvokognitiv yondashuv, assotsiativ munosabat, topishmoq, tushuncha, predmet, hodisa.*

Аннотация: в данной статье на основе лингвокогнитивного подхода проведено антропоцентрическое исследование узбекских народных загадок, того, как в загадках выражаются символы вещей и событий.

Ключевые слова: *лингвокогнитивный подход, ассоциативная связь, загадка, понятие, предмет, событие.*

Annotation: in this article, the anthropocentric study of Uzbek folk riddles was conducted based on the linguocognitive approach, and how the symbols of things and events are expressed in riddles.

Key words: *linguocognitive approach, associative relationship, riddle, concept, object, event.*

Bugungi o‘zbek tilshunosligini tadqiq etish jarayonlarini til va uning egasini doimiy aloqadorligini qayd etuvchi antroposentrizm g‘oyalarisiz tasavvur etish qiyin. Bu paradigmaning turli yo‘nalishlari endilikda tildagi mavjud izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Professor N.Mahmudov tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning shakllanishi haqida fikr bayon etish asnosida quyidagicha ta’riflaydi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi” [4]. Darhaqiqat, til insonning shaxs sifatida shakllanishida hamda aqliy va nutqiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish jarayonida o‘ta ahamiyatlidir.

Hozirgi antroposentrik tilshunoslikda til birliklarining shakllanishi va qo‘llanishi bilan bog‘liq tashqi omillarga jiddiy e’tibor qaratilayotganligi sababli u so‘z ma’nosi muammolarini o‘rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatiga ega. Hozirgi antropotsentrizm metodologiyasi bilan tilshunoslikda tilning belgilar tizimi ekanligi, belgilarning, til birliklarining shakl va mazmunda namoyon bo‘lishi, til qobiliyati va faolligi, tildagi subyektivlik va obyektivlik kabi masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifodasini ochib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o‘ringa chiqadi. Ma’lumki, inson narsa va predmet, hodisalarni bilishda, idrok qilishda qator mantiqiy-ruhiy harakatlarga ega bo‘lgan faoliyatni amalga oshiradi. “…avvalo, narsa jonli mushohada, bevosita kuzatish vositasida o‘rganilib, uning xususiyati, qirrasi, tomoni aniqlanadi, natijada bu xususiyat, dalil, hodisa to‘planadi, saralanadi; …aqliy dialektik tahlil usuliga o‘tish ehtiyoji paydo bo‘ladi”.[5]

O‘zbek tilshunosligida so‘z ma’nosi muammolari yuzasidan ma’lum darajada ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biz ushbu maqolada o‘zbek xalq topishmoqlarining ayrimlarini lingvokognitiv nuqtayi nazardan o‘rganishga harakat qildik.

Topishmoq xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri. Topishmoq jahon xalqlari ijodi, sivilizatsiya tarixida maqollar bilan bir davrda paydo bo‘lgan yaxshi janr namunalaridan hisoblanadi. Topishmoqlar hajmi va shakliga ko‘ra maqollarga o‘xshaydi. Ba’zan mazmuniga ko‘ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Janrning nomlanishiga e’tibor bering. “Top” so‘zining talaffuz etilishidanoq o‘yla, axtar, solishtir, izla ma’nolari yetakchilik qiladi. Unga “ish” qo‘shimchasi qo‘shilganda vazifa aniqlashadi. “-moq” harakat nomi qo‘shimchasidan keyin “qo‘lingdan kelsa”, “eplasang”, “uddalay olsang” tushunchalari ifodalanadi [2:77]

Topishmoqlarni uchta guruhga bo‘lish mumkin:

1. Real mazmunli kodli topishmoqlar. Bunda topishmoqlardagi so‘zlar, yuzaki qaraganda, to‘g‘ri, odatiy ma’noda qo‘llanganday bo‘lsa ham, aslida ular ikki parallel ma’no (real denotat - yashirin denotat)ga ega bo‘lishini yaratadi.

2. Noreal mazmunli kodli topishmoqlar. Ularning mazmuni va tuzilishi boshqa tabiiy holda bo‘lib, real hayotiy mazmunga, odatdagidek, mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi.

3. Belgining ustida ishlashi aniq bo‘lgan topishmoqlar. Ularda topilishi kerak bo‘lgan yashirin denotatning belgi-xususiyatlari keltiriladi.

Topishmoqlarning quyidagi janr xususiyatlari bor:

1. Hajm jihatdan qisqa va ixcham.
2. Shaklan she’riy, nasriy ko‘rinishga ega.
3. Yaratilish maqsadida matnda yashiringan

narsani topish vazifasi qo‘yiladi.

4. Mazmunida hayvonot, o‘simlik, koinot, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari yashirin tarzda ifodalanadi, uni topishga da’vat etiladi.

5. Topilishi lozim bo‘lgan narsa, ko‘pincha, bitta, ba’zan ikki va undan ortiq miqdorga ega bo‘ladi.

6. Topishmoqlarda qo‘llangan asosiy badiiy san’at istiora (metafora) hisoblanadi.

Topishmoqlarda topilishi lozim bo‘lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi, ammo bu belgilar istiora san’atidan foydalanilgan holda boshqa narsa bilan bog‘lanadi. Masalan:

Qopcha, qopcha ichida uncha,
Uncha ichida ustuncha.

Bu matnda yashiringan narsaning uchta belgisi uchta istiora vositasida berilgan. Demak, uning shakli qopga, ichidagi qismi unga o‘xshatilmoqda. Faqat un o‘rtasida ustuni ham bor ekan. Topishmoqni topayotgan odam matnda jiyda haqida gap ketayotganini topsa, fikriy musobaqada yenggan bo‘ladi. Ko‘pincha, yashiringan narsaning faqat ko‘rinishi, xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi, lekin hech narsaning nomi qayd etilmaydi. Bunday vaziyatlarda izlovchi shaxs faqat o‘zi bilgan narsalarga xos belgilarni eslab yechimni topishi mumkin. Ma’lumki, ong asosidagi bilish shartli ravishda ikki, ya’ni hissiy (empirik) va aqliy (rasional) bilishga ajratiladi . Hissiy bilish barcha turdagi jonivorlarga, aqliy bilish esa insonlargagina xosligi bilan farq qiladi. Har ikki bilish bosqichida ham belgilar asosida ish ko‘riladi.

An’anaga ko‘ra, belgi deyilganda biror narsaning odam yoki jonivor ongiga ta’sir etishi va shu orqali boshqa bir narsa haqida xabar berishi, ma’lumot yetkazishi tushuniladi. Shu ma’noda belgi besh sezgi a’zosi yordamida bilish mumkin bo‘lgan narsa yoki so‘z bo‘lishi mumkin.

Belgi jarayoni o‘z tarkibiga ong, ongga ta’sir etuvchi narsa va shu narsa asosida hosil qilinadigan boshqa bir narsa haqidagi xabar kabilarni qamrab oladi.

Yuqorida eslatilganidek, ong o‘zaro uzviy bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatuvchi hissiy va fikriy bilish bosqichlaridan iborat. Besh sezgi asosidagi hissiy bilish aqliy bilishning asosi hisoblanadi.

Topishmoqlar narsalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda etmaydi, balki ularga o‘ziga xos xususiyatlarni beradi. Bunda narsalarning o‘ziga xos belgilari to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki belgining o‘zini taqqoslash, taqlid qilish yoki tavsiflash orqali berilishi mumkin. Masalan, tarvuz haqidagi topishmoqni olaylik: Dum-dumaloq, bir tuki yo‘q. Ma’lumki, tarvuz boshqa mevalarga nisbatan katta, yumaloq va silliqdir. Demak, bu topishmoqda uning yumaloqlik va silliqlik belgilari berilgan. Agar yumaloqlik sifati to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilsa, silliqlik sifati bilvosita (tuki yo‘q) ifodalanadi, ya'ni tukning yo‘qligi bilan beriladi. Tarvuzning kattaligi belgisi hisobga olinmagan.

Agar topishmoqlarga nazar tashlasak, ular, asosan, voqeaning muhim belgilarini taqdim etadi. Masalan, sabzi haqidagi topishmoqqa e’tibor qarataylik: yer ostida oltin qoziq. Ushbu topishmoqda sabzi uchun xarakterli uchta belgi hisobga olinadi:

1. Joylashuv.
2. Rang
3. Shakl

Sabzi yer tagida pishadi, ularning sariq rangi oltin rangga, shakli esa qoziq shakliga qiyoslanadi.

Yuqorida aytganimizdek, obyektni belgilashda uning birlamchi, ya’ni asosiy belgilari hisobga olinadi. Lekin shunday topishmoqlar ham borki, ularda mavzu birlamchi, asosiy belgilar bilan emas, balki ikkilamchi belgilar bilan belgilanadi. Bunday topishmoqlar orasida siz suv haqida topishmoqni olishingiz mumkin. Odatda, suv quyidagicha ta’riflanadi: Vodorod va kislorodning kimyoviy birikmasidan iborat rangsiz, hidsiz shaffof suyuqlik; u tabiatda muz va bug‘ shaklida ham uchraydi, u barcha tirik organizmlar va ko‘plab moddalarning tarkibiy qismidir. Shunday qilib, suvning asosiy xususiyatlari shundaki, u vodorod va kislorod birikmasidan iborat, rangsiz, hidsiz va suyuq. Lekin suv haqidagi topishmoqqa qarasak, u quyidagicha izohlanadi: Ketaveradi, ketaveradi, orqasiga qaramaydi. Bu o‘rinda suv faqat bir yo‘nalishda harakat qiladi, deb taxmin qilinadi. Demak, topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining bir ko‘rinishi sifatida predmet belgilarini keltirish orqali odamlarning topqirligini aniqlaydi va tafakkurni charxlash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Боймуродов Н. Амалий психология. Тошкент, Янги аср авлоди, 2008. – Б. 95-115.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010.
3. Туленов Ж. Билиш назарияси. Бакалавириат ва магистратура йўналишлари учун маърузалар матни. Тошкент- 2001. – Б. 8-9; Исмаилов Б. Язык и познание мира. Ташкент, Фан, 1969. - С. 146.
4. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.
5. Zamonaviy o’zbek tili. Morfologiya. –T.: Mumtoz so‘z, 2008. -B. 59.

Salomat MATKARIMOVA,
Urganch shahri,
Urganch davlat universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
E-mail: smq777999@gmail.com



AVAZ O‘TARNING MASNU’ TATABBU’SI

Annotatsiya: ushbu maqolada Avaz O‘tarning Alisher Navoiy g‘azallariga yozgan masnu’ tatabbu’si tahlilga tortiladi. Avaz O‘tar masnu’ tatabbu’sida Navoiy an’analari asosida yangi fikr, yangi obraz kashf etishga intilgani, o‘ziga xos poetik mushohada yuritilgani, ustoz an’analariga ijodiy yondashib, yangiliklar bilan boyitgani misollar bilan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *g‘azal, masnu’ tatabbu’, an’ana, fikr, obraz, poetik mushohada.*

Аннотация: в этой статье обсуждаются татаббу стихи Аваза Утара к газелям Алишера Навои. На примерах masnu’ татаббу Аваза Утара основаны его стремление к открытию новых идей, новых образов, его неповторимое поэтическое мышление, творческий подход к традициям наставника, обогащенный новостями.

Ключевые слова: *газель, masnu’ татаббу, традиция, мысл, образ, поэтическое мышление.*

Annotation: this article discusses the tatabbu verses of Avaz Utar to the gazelles of Alisher Navoi. On the examples of Masnu’ Tatabbu by Avaz Utar are based his desire to discover new ideas, new images, his unique poetic thinking, a creative approach to the traditions of the mentor, enriched with news.

Key words: *gazelle, masnu’ tatabbu, tradition, thought, image, poetic thinking.*

Alisher Navoiy ijodi o‘zidan keyingi barcha shoirlar uchun ijod maktabi vazifasini o‘tadi. Uning g‘azallariga muxammaslar bog‘lash, tatabbu’lar bitish ulug‘ shoirning ijodiy an’analarini davom ettirishning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. “Navoiy ijodida she’riy san’atlar chuqur ishlangan masnu’ tatabbular va mazmunga katta e’tibor berilgan. Masnu’ tatabbular ham vujudga keldi va bu an’ana keyingi davr o‘zbek g‘azalchiligida davom ettirildi” [2: 43]. Xususan, Avaz O‘tar ijodida ham turli so‘z o‘yinlari, ta’sirchan xalq ibora va maqollari, she’riy san’atlar kabilardan keng foydalanilgan qator masnu’ tatabbu’lar kuzatiladi. Ushbu tatabbu’larni tahlil qilish orqali Avaz ijodida Navoiy an’analarining davom ettirilishi va shuning barobarida ustoz an’analarini yangiliklar bilan boyitganligini ochib berish alohida dolzarblik kasb etadi. Shundan kelib chiqib ushbu maqolada Navoiyning ishqiy mavzudagi “bas” radifli g‘azaliga bog‘langan Avazning masn’u tatabbu’sini tadqiq doirasiga olib kirishni maqsad qildik.

Har ikkala g‘azal ham ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, an’anaviy muhabbat mavzusidadir. Navoiyning g‘azalida lirik qahramon olam bog‘idan faqat bir sarvi gulruxsorni - yorini tanlagani, goh uning jilvasi-yu goh diydorining davlati unga yetarli ekanligidan so‘zlaydi:

Bizga olam bog‘idin ul sarvi gulruxsor bas,
Gohi andin jilva, gohe davlati diydor bas [4: 197].

Keyingi baytlarda oshiq yorning ro‘molini zahmiga bog‘lashga haddi sig‘masligi, lutf etib yarasini tikmoqqa yog‘lig‘idan bir tor bersa kifoyaligi, yor zulfini orzu qilmoqqa o‘zini loyiq ko‘rmasligi, uning o‘rniga ma’shuqa itlarining bo‘ynidagi ipidan zunnor yetarliligi, hajrdan singan ko‘ngliga yor qasri emas, buzuq devor basligi, yorni uyquda ko‘rsa, to ajal uyqusigacha ushbu davlati diydor basligidan bahs etadi. Oxirgi ikki bayt orifona mazmun kasb etadi. Shoir voizga murojaat qilib, o‘zining gunohkorligi, hur-u jannat loyiqi emasligini aytsa, mug‘bacha soqiyga kulbai xammor maqomi unga kifoyaligini so‘zlaydi:

Voizo, men osiy, ermon hur-u jannat loyiqi
Mug‘bacha soqiy, maqomim kulbayi xammor bas.

“Voiz – va’z aytuvchi, pand-nasihat qiluvchi”[5:149]. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida “Voiz kerakki, “qolalloh” so‘z aytsa va “qola rasulullo” muxolafatidin qaytsa, xudo va rasul yo‘lig‘a qadam ursa. O‘zi kirgondin so‘ngra nasihat bila elni ham kivursa” deb yozar ekan “Va’z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatin qabul etgan maqbul kishidur” deydi [6:29]. Yaratganni tanigan, Allohning buyruqlarini, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ko‘rsatmalarini og‘ishmay bajaradigan va o‘z nafsidan va har nafasidan ogoh murshidgina voizlik qilishga haqliligini bayon qiladi. Ko‘rinadiki, murshid voizning pand-nasihatlari kishining dinini mustahkamlashga, qalbini tuzatib, Allohning roziligini topishga va alal oqibat jannatga loyiq ko‘rilishiga vasila bo‘ladi. Ammo lirik qahramon o‘zini osiy – gunohkor bilib, jannat va undagi hurlarga munosib emasligini ta’kidlaydi va yuzini xumorlar kulbasi - mayxonaga buradi. Ushbu o‘rinda ta’kidlash lozimki, o‘z-o‘zini bu tarzda osiy deb malomat qilish va kulbayi xammorni maqom qilish bilan kifoyalanishning asl mohiyatini anglash chuqur mushohadani talab qiladi. “Navoiyga ko‘ra, har qanday ziddiyatdan qutulishning birinchi chorasi malomat, ya’ni har bir kishining o‘zini malomat aylay olish holiga erishishi. Ikkinchisi, fanovashlikdir. Chunki, faqat fano, faqat chin foniylik insonni barcha g‘ayriinsoniy illat

va aloqalardan qutqazib, daxlsiz ma’naviy hurlikka yuksaltiradi”[7:23]. Baytning dastlabki misrasida malomatravishlik aks etgan bo‘lsa, navbatdagi misrada fanovashlik ko‘zga tashlanadi. Lirik qahramon “his-tuyg‘u va fikrlashi moddiy mavjudlik chegarasidan chetga o‘tolmaydiganlar”(I.Haqqulov)dan uzoqlashib, mug‘bachai soqiy qo‘lidan ilohiy ishq sharobini ichgancha Ma’shuqi Azalga cheksiz muhabbatdan sarmast bo‘lishni, Alloh vasliga xummorlar kulbasida maqom tutishni afzal biladi va shuning barobarida fano vositasida Yaratganning visoliga erishishni umid qiladi. “Chunki har qanday maqsad va urinishda fano unga nafs ta’siridan qutulish chorasi hisoblangan”[7:22]. “Mashhur sharqshunos R.Nikolson “Islom so‘fiylari” kitobida yozadi: “So‘fiy shoir nafsingdan xalos bo‘lmoq uchun sharob ich, deganda ilohiy tomosha og‘ushida moddiy borlig‘ingni tark ayla, deyishni istagan”[7:27]. Lirik qahramonning mayxonaga yuzlanganligi sababi ham shunda. Binobarin, moddiy borlig‘idan, “men’idan, o‘zligidan xalos bo‘lmay turib ma’naviy hurlikka, erk zavqiga, vahdati vujudga, foniylik bag‘ridagi baqoga erishish imkonsizdir. Haqqa yetishish maqsadiga yetishning eng yaqin yo‘li esa o‘zini o‘zligidan qutqarmoqdir:

O‘zlugungdin o‘zni salb etsang g‘araz bir gomdur,
Ey Navoiy, qilmag‘il bu shevani zinhor bas.

Maqta’da Navoiy o‘zligingdan o‘zni salb etsang maqsad bir qadam, ya’ni yaqin bo’lib qolishini, o‘zdan kechmak shevasini zinhor bas qilmaslik lozimligini ta’kidlaydi. Majoziy ishq bilan boshlangan oshiqona g‘azal ishqi ilohiy tomon o‘sib borib, orifona mazmun bilan yakunlanadi.

Ushbu g‘azalga Avaz tatabbu’si zulqofiyatayn san’ati bilan muzayyan quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Sho‘xlar ichra manga ul dilbari dildor bas,
Gohi andin bo‘saye, goh davlati diydor bas [1: 87 a].

Avaz tatabbusida uning o‘ziga xos uslubi, nuktadonlik bilan fikr yuritishi, turli badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanishi, an’anaviy mavzuning yangi qirralarini ochishga intilishi aniq sezilib turadi. Shoir har bir baytda poetik fikrni she’riy san’atlar vositasida badiiy mukammal ifodalashga harakat qiladi. Buni matla’ni dilbari dildor - davlati diydor asosida yuzaga kelgan zulqofiyatayn – qo‘shqofiya misolida ham ko‘rish mumkin.

Asarda baytdan-baytga oshiqning tanlovi qat’iylashib boradi. Lirik qahramon boshqa qoshi kamonlarga mayl etishni istamaydi – unga o‘zining kipriklari o‘q, qoshi yoy bo‘lgan mahbubasi kifoya:

O‘zga bir abro‘ kamonlar sori mayl aylab netay,
Bir manga ul kirpiki o‘q, qoshlari yo yor bas.

Baytda abro‘ kamonlar so‘zi istiora, kamon, o‘q, yo(y) so‘zlari tanosub san’atini yuzaga keltirgan bo‘lsa, kiprikni o‘qqa, qoshlarni yoyga o‘xshatish tashbehga asos bo‘lgan. Shuningdek, baytni tanosub san’ati asosiga qurish ham navoiyona uslubga dalildir.

Navbatdagi baytda laff va nashr, istiora, tanosub hamda tashbeh san’atlari omuxta keladi:

Ne qilay tubiy bilan jannat-u kavsarni bu dam,
Ko‘yi – jannat, qaddi – tubiy, la’li kavsarvor bas.

Baytning ilk misrasidagi tubiy, jannat. kavsar so‘zlari ikkinchi misrada yorning ko‘yi (ko‘chasi, mahbuba maqom tutgan joy) jannatga, qaddining tubiy daraxtiga, la’lining kavsarga o‘xshatilishi asnosida yoyib beriladi. Ayni paytda Jannat va unga bog‘liq tubiy daraxti, kavsar hovuzining zikr etilishi tanosub san’atini, yor labini anglatib kelgan la’l so‘zi istiorani vujudga keltirgan.

Quyidagi baytda tanosub (chaman, sarv, g‘uncha), tashbeh(sarv- qomat, g‘uncha og‘iz, gulruxsor), sifatlash (sho‘x gulruxsor), nido(ey ahbob) san’atlari birgalikda qo‘llanilgan:

Naylayin aylab chaman sayrini, ey ahbobkim,
Sarv qomat, g‘uncha og‘iz, sho‘x gulruxsor bas.

Keyingi baytlarni ham nido, sifatlash,istiora bilan bezagan shoir maqta’da tanosub (nazm ahli, abyot, ash’or), tazod(ro‘z-u shab), mutashobih (balo, ofat) san’atlarini birgalikda ishlatadi:

Ne balo ofat eding nazm ahli ichra qilmading
Ro‘z-u shab aytib Avaz abyot ila ash’or bas.

Umuman, Avaz O‘tarning masnu’ she’rlarida turli so‘z o‘yinlari, she’riy san’atlar va, umuman, shakl unsurlarini qo‘llash ustunlik qiladi. Avaz O‘tarning Navoiy g‘azallariga yozgan tatabbu’lari xarakter e’tibori bilan xilma-xildir. Ayrim tatabbu’lar Navoiyning ma’lum g‘azalining g‘oyasi, mavzusi, obrazlari va shakliga o‘xshatma tarzida yozilgan bo‘lsa, boshqa bir xillari vazn, qofiya, radifi saqlangan holda, mazmuni erkin, ba’zan esa mazmunan o‘xshash bo‘lib, shakl o‘zgacha yozilganligini ko‘ramiz. Ularda shoir Navoiy an’analari asosida yangi fikr, yangi obraz kashf etishga intiladi, o‘ziga xos poetik mushohada yuritadi. Ko‘pchilik hollarda shoir Navoiy an’analariga ijodiy yondashib, yangiliklar bilan boyitdi, ba’zan taqlid va takrordan nari o‘tolmadi. Yirik adabiyotshunos I.Haqqulov ta’kidlaganlaridek, “An’anaviylik – Sharq adabiyotining o‘ziga xos xususiyati va harakat yo‘li. Unda umumiy o‘xshashlik va takror ham, yangilik va kashfiyot ham bor” [3: 6].. Agar biz an’ana tushunchasini keng ma’noda anglaydigan bo‘lsak, Navoiy lirikasining Avaz O‘tar she’riyatiga ta’siri faqat uning Navoiy g‘azallari¬ga yozgan tatabbu’laridagina emas, balki lirikasining butun ruhida, obrazlarida, poetik vositalarida, hatto eng original she’rlarining ruhiyatida ham aks etganini ko‘ramiz. Navoiy dunyoqarashi, ishq va hayot falsafasi, mahorat maktabi saboqlari shoir uchun ilhom chashmasi, zakovat manbayi, san’at ustaxonasi bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avaz O‘tar. Devon. O‘zR FAShI, Qo‘lyozmalar fondi. Qo‘lyozma, inv.№ 942.
2. Fayzulloyev B. O‘zbek she’riyatida tatabbu’ tarixi va mahorat masalalari. – Toshkent: TAMADDUN, 2021.
3. Haqqulov I.Tasavvuf va Ogahiy she’riyati.O‘zbek tili va adabiyoti. 2009. №6.
4. Navoiy, Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 3-jild. –Toshkent: Fan, 1988.
5. Navoiy asarlari lug‘ati. –Toshkent: Fan, 1972.
6. Navoiy, Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild. –Toshkent: Fan, 1998.
7. Haqqulov I. Navoiy shaxsi va ijodiy imkoniyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. 2022. №3. 20-28-b.

Muxlisa SABIROVA,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori



INTERNET MATNLARIDA EVFEMIZM HODISASINING IFODALANISHI

Annotatsiya: maqolada internet matnlarida evfemizmlarning qo‘llanishi, omma uchun mo‘ljallangan matnlarda muallifning evfemik birliklarni qo‘llashdagi kommunikativ maqsadi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *evfemizm, madaniy muloqot, internet matni, til vositasi.*

Аннотация: в статье анализируется употребление эвфемизмов в интернет-текстах, коммуникативная цель автора при использовании эвфемистических единиц в текстах, предназначенных для публики.

Ключевые слова: нет-текст, языковой инструмент.

Annotation: the article analyzes the use of euphemisms in Internet texts, the communicative goal of the author when using euphemistic units in texts intended for the public.

Key words: *euphemisms, cultural communication, internet text, language tool.*

Ma’lumki, har bir xalqning madaniylik darajasini belgilab beruvchi lingvistik vositalar mavjud. Ular insonlar nutqidagi madaniy me’yorni ta’minlab berishga, salbiy, dag‘al til birliklarini yumshatuvchi til vositalari orqali ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur til vositalari evfemizm hodisasi hisoblanadi.

Internet texnologiyalarining rivojlanishi tilda ham o‘z aksini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, mualliflar internet matnlarida omma e’tiborini jalb qilishni maqsad qilgan holda turli til vositalaridan foydalanmoqda. Aynan evfemizm hodisasining internet matnlarida qo‘llanishi odatda, dag‘al ma’noli birliklarning salbiy ta’siridan qochish, tinglovchi uchun nutq jarayonida muloyimlikni berish kabi o‘ziga xosliklar bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda, o‘zbek madaniyatida salbiy baho anglatuvchi birliklarni pardalash, dag‘al va qo‘pol so‘zlardan qochish, tabulangan so‘zlarni qo‘llamaslik kabi xususiyatlar, ayniqsa, omma uchun mo‘ljallangan matnlarda yanada alohida ahamiyatni taqozo etadi.

Zamonaviy internet matnlarida nutqning evfemizatsiyasi publitsistik uslubning o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Matnda evfemizm hodisasini qo‘llash o‘quvchiga nutqiy ta’sir qilishda samarali manipulyatsiya quroli hisoblanadi. Muallif til birliklariga evfemik ma’no yuklash orqali ko‘zlangan kommunikativ maqsadga erishish imkonini beradi.

Bugungi axborot xuruji ro‘y berayotgan davrda ommaviy axborot vositalari matni manipulyativ ustunlikka egaligi, jamoatchilikning asosiy qismi ma’lumotlarni internet matnlaridan olishini ta’kidlash lozim. Shu bois internet matnlarida qo‘llangan evfemik til birliklari ommaning madaniy saviyasiga ta’sir ko‘rsatishi, muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishini aytish lozim. Bizningcha, efvemizmlarning yana bir jihati shundaki, u so‘zlovchining, so‘zlovchi mansub xalqning yuksak madaniyatidan, etnomadaniy axloqiy me’yorlaridan ham darak beradi.

Ma’lumki, internet matnlarida insonning ijtimoiy imkoniyatini ifodalashda evfemizmlarning bot-bot qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Bu holat omma uchun mo‘ljallangan matnlarda salbiy kayfiyatni uyg‘otmaslik, xushmuomalalikni ta’minlashni maqsad qiladi. Masalan, oyina.uz saytida e’lon qilingan xabarda kambag‘al oila birikmasi o‘rnida ehtiyojmand oila birikmasiga evfemik ma’no yuklanganini ko‘rish mumkin. Har bir ehtiyojmand oila uchun “ijtimoiy-raqamli pasport” joriy etiladi. Prezident 10-iyul kuni ijtimoiy himoya sohasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi. oyina.uz 10.07.2024

Lingvomadaniy birlik sifatida qo‘llanuvchi evfemizmlar xalqning ma’naviy madaniyatini, milliy o‘ziga xosliklarini jonli tilda ifodalashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlarimizda insonning ko‘nglini og‘ritmaslik, qo‘pol gapirmaslik, xushmuomala bo‘lish kabi jihatlar borki bular tilimizda ham aks etadi. Masalan, internet matnlarida nogironligi bor shaxslarga nisbatan zaif qatlam, mehnatga layoqatsiz kabi birikmalarning ham qo‘llanishi milliy madaniyatimizdan dalolatdir. … endi ekspert komissiyalari tomonidan kasbga, ta’limga, sportga tavsiya berish, mehnatga layoqatsizlikni belgilash tartibi bekor qilinib, bunday shaxslar ish, sport va ta’limga individual yondashuv asosida yo‘naltiriladi. … Taqdimotdagi yana bir taklif Jahon banki ishtirokidagi “Inson” loyihasi haqida bo‘lib, u aholining zaif qatlamlarini jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan. Loyiha doirasida 55 ta ko‘p funksiyali hududiy xizmatlar markazi tashkil etiladi va 20 turdagi ijtimoiy xizmat yo‘lga qo‘yiladi. Toshkent, Farg‘ona va Samarqandda 4 ta namunali inklyuziv kasb-hunar ta’limi markazlari tashkil etiladi.oyina.uz 10.07.2024

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari matnlarida bugungi kunda ommalashgan “Ayollar daftari”, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” kabi birikmalar ham evfemik ma’no tashishga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, boquvchisi bo‘lmagan, ishsiz, ehtiyojmand ayollarga nisbatan “Ayollar daftari” birikmasi evfemik ma’noda qo‘llansa, ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir oilalarga nisbatan “Temir daftar” birikmasi, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar – muomalaga va mehnatga layoqatsiz, nogironligi yoki salomatligida nuqsoni bo‘lgan (nafaqa olmaydigan), boquvchisini yo‘qotgan, yetim, “Mehribonlik” uylari va bolalar shaharchalarida tarbiyalangan, muqaddam sudlangan, profilaktik hisobda yoki ma’muriy nazorat ostida turuvchi ijtimoiy yordamga muhtoj yoshlarga nisbatan “Yoshlar daftari” birikmasi evfemik ma’no kasb etadi. *…mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida ro‘yxatda bo‘lgan yoki “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”dan biriga kiritilgan, nogironligi bo‘lgan oila a’zolariga dori-darmon, nogironlik aravachalari, eshitish apparatlari va ortopedik mahsulotlar xarid qilish uchun BHMning 5 baravari miqdorida (1 mln 700 ming so‘m) bir martalik moddiy yordam puli ajratiladi. oyina.uz* 15.07.2024

“Evfemizm faqat qo‘rqish, bid’at sababli tabu qilingan so‘z o‘rnida qo‘llanuvchi hodisa emas, balki nutq madaniyatiga erishish, so‘zlovchi fikrini suhbatdoshga odob doirasida berishni ta’minlab beruvchi vosita ham ekanligini ko‘rsatadi” Darhaqiqat, aytishimiz mumkinki, omma uchun mo‘ljallangan internet matnlarida odob doirasidan chiqmaslik, dag‘al, qo‘pol so‘zlarni ishlatmaslik asosiy omillardan biri hisoblanadi. Misolga e’tibor qaratsak: Hozir seriallarning besh qismi yaxshi ishlanadi, kanallar bilan shartnoma qilib olingach hammasi atala bo‘lib ketadi. Masalan, “Qodirxon” serialini ko‘pchilik ko‘rgan. O‘lib ketgan odam tirilib kelayapti. Bir paytlar Qozog‘iston, Qirg‘iziston havas qilardi bizning kino sanoatimizga. Hozir-chi, onalar seriallarimizda qizini u erdan olib bu erga berib yotibdi. Ijodkor xalqning orqasidan emas, xalq ijodkorning orqasidan ergashishi kerak. Afsuski, hozir ijodkorlar avomning orqasidan ketayapmiz. Oyina.uz 01.08.2024. “Loyqa seriallar. Kimdir buni nazorat qiladimi?” nomli maqolaning sarlavhasidanoq evfemik birlik qo‘llanganini uchratamiz. Muallif o‘z fikrini ta’sirchan va odob doirasida berishni ta’minlash maqsadida loyqa so‘zini seriallarga nisbatan qo‘llash orqali o‘z kommunikativ maqsadini evfemik birlik orqali ifodalagan. Shuningdek, matnda ijodkorlarga nisbatan qo‘llangan “o‘qimagan, tushunmagan, xatsiz, savodsiz” mazmunidagi avom so‘ziga evfemik ma’no yuklangan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, internet matnlarida madaniy muloqot doirasida evfemizmlarning qo‘llanishi omma uchun mo‘ljallangan matnlarga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Til taraqqiyoti natijasida evfemik birliklarning yangi shakllari, muallif va mushtariy uchun yoqimliroq bo‘lgan ifodalarning ko‘payishi omma uchun mo‘ljallangan matnlarni tadqiq etish dolzarbligini orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulyamova Sh.K. O‘zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari. Filol.fan.bo‘yicha falsafa (PhD)dokt. diss . – Buxoro: 2020. 19-b.

Munisa KARIMOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
“Ingliz filologiyasi”kafedrasi katta o‘qituvchisi
Navruz IMAMOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis “Tillarni o‘qitish”
kafedrasi katta o‘qituvchisi



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KESIMNING HARAKAT TARZI FUNKSIONAL SEMANTIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilida harakat tarzi shakllarining funksional-semantik maydon nazariyasi bilan bog‘liq qarashlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *harakat tarzi, funksional-semantik maydon, morfologik, yetakchi ko‘makchi fe’l.*

Annotation: this article discusses the views related to the theory of the functional-semantic field of verb forms in English.

Key words: *mode of action, style, functional-semantic field, morphological, leading auxiliary verb.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются взгляды, связанные с функционально-семантической теорией моделей поведения в английском языке.

Ключевые слова: *образ действия, стиль, функционально-семантическое поле, морфологическое, ведущий вспомогательный глагол.*

Ushbu sohada ilmiy ish olib borgan rus olimlaridan V.A Beloshapkova sintaktik bog‘liqlik to‘g‘risida fikr yuritar ekan, sintaktik fikr - bu sodda va murakkab gaplardagi sintaktik konstruksiyalarning izomorfligi to‘g‘risidagi fikr bo‘lib, u kognitiv lingvistikada yakka bo‘lgan, ya’ni propozitsional prinsipga asoslanishini keltirib o‘tadi [1, 40].

Harakat tarzi shaklining tarkibiy qismi bo‘lgan ko‘makchi fe’llarning grammatik ma’nolari o‘zlarining asl substansiyasi – fe’lning mustaqil qo‘llangandagi lug‘aviy ma’nolaridan qay darajada uzoqlashganligi bilan farqlanib turadi. Ba’zi ko‘makchi fe’llarning grammatik ma’nolari lug‘aviy ma’nodan uzoqlashmagan bo‘lsa (boshla), boshqalarida uzoqlashishning eng chekka nuqtaga yetgan holatini ko‘rishimiz mumkin.

Harakat shaklidagi yordamchi fe’llarning grammatik ma’nolari ularning asl mazmunidan qanchalik farq qilishiga – fe’lning o‘z-o‘zidan qo‘llangandagi leksik ma’nolariga qarab o‘zgaradi. Ayrim ko‘makchi fe’llarning grammatik ma’nolari (begin, boshla) lug‘aviy ma’nolaridan farq qilmasa, og‘ish holatini kuzatamiz.

Ba’zi tilshunoslar fe’llarni kategorial fe’l yordamida emas, balki (telic /atelic fe’l) cheklangan, cheklanmagan punctual durativ fe’l - punktual va durativ va stativ dinamik fe’l kabi qarama-qarshi juftlariga tasniflash orqali Z.Vendler tasnifini kengaytirgan. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, turli darajadagi ma’no va mazmun bilan to‘ldirish ham bir asosga (matritsa)ga tayanadi. Shu sababli fikrni sintaktik, semantik va morfologik darajalarda belgilash zamirida harakat fe’lining telic /atelic fe’li deb ham ataladigan cheklangan va cheklanmagan xususiyati yotadi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Fe’llarning chegaralanganlik / chegaralanmaganlik xususiyatlari slavyan tillarida (aspekt, tus) grammatik kategoriya asosi sifatida qaraladi. Bu qarama-qarshilik slavyan tillarida taklif munosabatlari bilan bog‘liq emas, balki semantik daraja bilan bog‘liq deb hisoblanadi. Bu holatni ingliz tilida qanday darajada tushuntirish mumkin? Ingliz tilida fe’llarning chegaralanganlik / chegaralanmaganlik xususiyatlari ham mavjud [1], [3], [4]. Taklif mezonlari universal bo‘lganligi sababli noverbal konstruksiyalarga asoslangan jumla yordamida ushbu chegaralanganlik/ chegaralanmaganlik xususiyatini tahlil qilish mumkin.

Shunday qilib, ingliz va o‘zbek tillaridagi harakat belgilari gapni tashkil qiladi, aspektuallik kategoriyasini esa tushunchalar va primitivlarning birikmasi natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qilish mumkin. An’anaviy grammatikadagi boshlanish, davomiylik va tugallanish tushunchalari fazoviylik tushunchasi orqali ifodalanadi. Biroq bu tushunchalar yuqoridagi tushunchalardan tabiatan farq qiladi. Ular vaziyatlarni emas, balki ularning modifikatorlarini bildiradi. Bundan tashqari, ular semantik primitivlar hisoblanadi. Semantik primitivlar so‘z va matn o‘rtasidagi munosabatni bildiruvchi aniqlovchilardir. Birinchi guruhga konstruktiv jihatdan soddaroq tushunchalar kiradi. Bularga samaradorlik, iterativlik va multiplikativlik konseptlari kiradi. Ikkinchi guruhga tuzilmaviy jihatdan murakkabroq konseptlar kiradi. Bu guruhga boshlang‘ichlik, protseduralilik, davomiylik va to‘liqlik tushunchalari kiradi. Protsessuallik tushunchasi, qoida tariqasida, fe’llarning temporal determinantlari va harakat semantikasi ta’siri ostida paydo bo‘ladi. Mazkur vaqt determinantlari, ya’ni temporal birliklar sifatida for long time, during, for a while, along va shu kabi harakatning ma’lum vaqt jarayonida kechishini anglatadigan ravishlar hamda so‘z birikmalari yordamida ifodalanadi. Odatda, har bir harakat o‘z oqimiga ko‘ra o‘sha chegaraga yo‘naltirilgan bo‘ladi hamda ushbu

chegaraga yetganda harakat o‘z yakuniga yoki tugal nuqtasiga erishadi. Chegaralanmaganlik — bu ichki chegaraning mavjud emasligidir [5, 11]. Tilshunos olim Z. Vendler ilmiy ishlarida ham bu boradagi qarashlarni kuzatishimiz mumkin. Z. Vendler fe’llarni semantik jihatdan ikki guruhga ajratgan. Olimning fikricha, fe’l leksemasi ikki asosiy belgi, ya’ni statiklik/dinamiklik asosida tus oladi. Holatni ifodalovchi fe’llar (statik fe’llar: yotmoq, uxlamoq, bilmoq, egalik qilmoq, xohlamoq, to lie, to sleep, to know, to own, to want) dinamik xususiyatga ega bo‘lgan fe’llar guruhiga qarama-qarshi qo‘yiladi. Dinamik fe’llar statik fe’llardan farqli o‘laroq, turg‘un (stabil) situatsiyalarni ifodalaydi. Dinamik xarakterdagi fe’llar doimiy energiyani talab qiluvchi fe’llardir, masalan: to play – o‘ynamoq, to go – bormoq, to work - ishlamoq. Tilshunos olim V. A. Plungyan dinamik harakatni bildiruvchi fe’llar chegaralangan, statik harakatni bildiruvchi holat fe’llari chegaralanmagan aksional xususiyatga ega ekanligini qayd etib o‘tgan [7, 125]. Ko‘rinadiki, ko‘pgina tilshunoslar (Maslov, Nasilov, Plungyan, Baligina) fe’llarni chegaralanganlik/chegaralanmaganlik guruhlariga ajratishda ularning dinamiklik/statiklik xususiyatini muhim omil sifatida baholashadi.

Fe’llarning ma’no jihatidan turlari: nutqiy faoliyat fe’llari: demoq, so‘zlamoq, gapirmoq,va b. Aqliy faoliyat fe’llari: o‘ylamoq, fikrlamoq. Jismoniy faoliyat fe’llari: yurmoq, ko‘tarmoq va b. Holat fe’llari: uxlamoq, yotmoq va b. Jarayon guruhiga tegishli fe’llarga ulg‘aymoq, yetilmoq, ishlamoq kiradi. Shunday qilib, jarayon vaqt mobaynida o‘zgarib borishi nazarda tutilar ekan, demak, ularning tugash, o‘z yakuniy nuqtasiga yetishi ham ko‘zda tutiladi. Masalan: asar yozmoq jarayon tushunchasida talqin etilsa, yozib tugatmoq hodisa sifatida qaraladi. Birinchisda chegaralanmagan xususiyat (ingliz tilida atelic, unbounded) yuzaga kelsa, ikkinchi holat chegaralangan (telic yoki bounded) deb ataladi. Chegaralanganlik odatda harakat, hodisalarning yakuniy nuqtasiga yetishi natijasida tugallanishiga nisbatan qo‘llaniladi. Mazkur sohada ish olib borgan o‘zbek olimlaridan B.X.Rizayev, G‘. Mirsanov, A. Muminova rus tilshunosligida ilmiy izlanishlar olib borgan, xususan, Y.S.Maslov, Pavlov, [8], [9] qarashlariga asoslanadi. Muallif chegaralanganlik/chegaralanmaganlik (telic/atelic) tushunchalarini fe’l leksemasi doirasida o‘rganishga harakat qiladi va uchinchi guruh (ikki aksional xususiyatli) ni ham taklif etadi. Bu hol esa oppozitsiyaning unutilishiga olib keladi. Albatta bu borada G‘.Mirsanov slavyan aspektologik traditsiyasiga tayanadi. Ingliz tili atamasida [9] mazkur yondashuv formal-mantiqiylikka asoslangan bo‘lib, chegaralanganlik (telic) vaziyatlarning bir zumdaligi va ularning zamon-vaqt bilan cheklanishi tushunilsa, chegaralanmaganlik (atelic) davomiy harakat, jarayonlar tushuniladi va ushbu tushunchalar predikat doirasida talqin etiladi.

Tilshunoslikda gapning asosi sifatida e’tibor fe’lga qaratiladi, chunki uning semantik mohiyati yoki semasiologik o‘zagi zamon va vaqt bilan birgalikda olib boriladi. Bundan tashqari fe’l, dinamik belgi sifatida qaraladi. Gapdagi qolgan bo‘laklar, ega, to‘ldiruvchi, hol fe’l harakati bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Gapdagi har bir bo‘lak fe’l harakatini ifodalanishida, semantik farqlanishida, fe’l ma’nolarning boyishida muhum o‘rin tutadi. Fe’lning leksik-grammatik ma’nosiga qarab ega vazifasidagi substant, harakat bajaruvchisi, harakat boshqaruvchisi, harakatni qabul qiluvchi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, fe’l harakati eganing holat, xarakter, usul va boshqa belgilarini ham bildirib kelishi mumkin.

Shaxs faoliyati bilan bog‘liq holda bajariladigan jarayonlarda harakat fe’lning tasnifi bo‘yicha turlarga bo‘linadi. Har bir leksemaning semantik ma’no boyligi va kengligi ana shunday fe’llarning tasnifi bilan belgilanadi. Fe’l bir necha semantik guruhlarga mansub bo‘lishi aniqlandi. Shuningdek, u aytmoq va boshqa ingliz tilidagi nutqiy faollik fe’llari adresat guruhidir. Bunday holatlarning holatni ifodalovchi fe’llarga, fe’l birikmalariga, shaxsning psixologik va emotsional holatini ifodalovchi fe’llar guruhiga mos kelishi aniqlandi.

Ingliz tilida subyektning usulini, tarzini bildiradigan fe’llarga to roll, to rove, to run, to rush, to saunter, to scoot, scurry, to scutter, to shamble, to shuffle, to skip, to slide, to sneak, stagger, stride, to stroll, to stumble, swagger, to sweep, to tiptoe, to toddle, to totter, to tramp, to trot, to waddle, to wade, to walk, to wander, va boshqalar kiradi. Bu fe’llar subyektning yurish harakati bilan bog‘liq turli usul va tarzlarni bildiradi. Quyida ba’zi fe’llarning izohini keltiramiz va misollarda ko‘rishimiz mumkin. To go faster than a walk.

Izoh: To run - subyekt yoki shaxsning makondagi intensiv harakatini bildiradi. Masalan: Their friends are running the road; She can run the mile in under a minute. I ran after hir; To glide, step, or move through a sit series of movements usually to music.

Izoh: To dance - subyekt yoki shaxsning makondagi harakatini bildiradi. Subyekt harakatining usuli (raqsga tushish, biror musiqaga xos harakatlanish) ni ifodalaydi. Masalan: They danced in the room.

To dance fe’li ko‘chma ma’noda ham ishlatilib, jonsiz predmetlarning makondagi yo‘nalma harakatini bildiradi. Masalan: 1) The leaves danced in the wind; The boat danced on the waves.

Har ikkala misolda ham dance fe’li ko‘chma ma’noda ishlatilgan. Masalan: To spring into the air: leap over.

Ushbu misolda jump (sakrash) odam yoki obyektning makondagi harakatini ifodalaydi. Bu obyektning havoda vertikal holda vertikal harakatlanishi yoki (havoda sakramoq)ni, makondagi harakatlanish usulini bildiradi. Masalan: He jumped at his foot; He jumped to his feet; He jumped his horse at the fence; He jumped up from his desk chair, strode back and forth before the windows over looking Athens; To slide along or cause to slide along smoothly.

Harakat tarzi kategoriya sifatida nutq vaziyati bilan bog‘liq zamon tushunchasini farqlaydi, aspektual va temporal kategoriyalar zamon tushunchasiga asoslangan bir tizim komponenti sifatida talqin etiladi hamda zamon, taksis va vid kategoriyalari eksplitsit va aniq shakllarga asoslangan holda quriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белошапкова Т.В. Когнитивно-дискурсивное описанное категории аспектуальности в современном русском языке. Автореф.док.фил.наук. Москва, 2008. -40 с.
2. Vendler Z. ‘Verbs and Times’, Philosophical Review 56, 1967. –143 –160 p.
3. Падучева ЕБ Акциональная классификация гаголов и семантика союза пока // Вопросы языкознанияю – М.: 2015. - № 5, - С,7-25
4. Plungyan V.A., Raxilina E.V. Po povodu “lokalistskoy” kontseptsii znacheniya: predlog pod., Issledovaniya po semantike predlogov (Concerning the “localist” concept of meaning: the preposition under. Studies on the semantics of prepositions), M.: Russkie slovari, 2000. pp. 115–133
5. Маслов Ю.С. Рол так називаемой перфективации и имперфективации в процессе возникновения славянского глаголного вида. (The role of the so-called perfectivation and imperfectivation in the process of the emergence of the Slavic verb form). M., 1958.
6. Агрель С. О способах действия польского глагола // Вопросы глагольного вида. М., 1962. С. 35-38.
7. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. 2-қисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика. Т., 1999 57б.
8. Маслов Ю. С. Очерки по аспектологии. – Л., 1984. – 263 с.
9. Павлов В.М. Понятие лексемы и проблема отношений синтаксиса и словообразования. Л., 1985. 299 с.

Aziza OMANBOYEVA,
Ma’mun universiteti
“Tillar va adabiyot” kafedrasi o‘qituvchisi
Omanboyevaaziza1@gmail.com



FUZULIYNING “RIND VA ZOHID” ASARIDA ZUHD TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Fuzuliy dahosining o‘zbek adabiyoti uchun yangi hisoblangan “Rind va Zohid” asari tarjimasi va mazmun-mohiyati haqida so‘z boradi. Tasavvuf ta’limoti tadrijida ikki obraz rind va zohid orasidagi farq qiyoslaniladi. Ulardagi tasavvufiy hol va martaba muqoyasasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Fuzuliy, “Rind va Zohid”, zuhd, haqiqat, majoz, obraz.*

Annotation: this article discusses the translation and content of Fuzuli's work "Rind and Zahid," which is considered new in Uzbek literature. In the study of Sufism, the difference between two images, a rind, and an ascetic, is compared. They discuss the mystical state and career comparison.

Keywords: *Fuzuli, "Rind and Zahid," asceticism, truth, metaphor, image.*

Аннотация: в этой статье рассказывается о переводе и содержании нового для узбекской литературы произведения Физули “Ринд ва Захид”. В учении мистицизма сравнивается различие между двумя персонажами, Риндом и Захидом. В них размышляют о мистическом состоянии и сравнении карьеры.

Ключевые слова: *Фузули, “Ринд и Захид", Зухд, истина, метафора, образ.*

Turkiy xalqlarning mashhur vakillaridan bo‘lmish Fuzuliy yoshlikdan ishtiyoq bilan she’r yozishni boshlagan bo‘lsa-da, “Ilmsiz she’r – poydevorsiz devordek...” maslagi asosida o‘z davrining, deyarli, barcha ilmlarini o‘zlashtirgan. Ushbu maqsadini shoirning barcha asarlari isbotlaydi. Fuzuliy uch: turk, fors va arab tillarida asarlar yaratgan. Turkiy she’riyatga, keng ma’noda turkiy adabiyotga va ilm olamiga olib kelgan asarlari bilan asrlar davomida chuqur ta’sir o‘tkazgan va hayotbaxshligicha qolgan ijod sohibi. Shoirning ona tilida yozgan asarlari oshiq qalbning chuqur iztiroblari, samimiy ta’sir kuchini baytlarning ma’nolariga yuklagan. Shuning uchun ham Fuzuliyni o‘qishda diqqatli bo‘lish, baytning tub mohiyatini anglash zarur. U uch tilni kuchli bilishi tufayli o‘zi qattiq e’tiqodda bo‘lgan so‘fiylikning barcha nozik ilmlaridan bahramand bo‘lgan, o‘zi ishlatgan har qanday so‘zning oddiy so‘z va iboralarni tashkil etuvchidek ko‘ringan so‘z va iboralar ma’nolari bilan bir qatorda, ilohiy ma’nolarni ham anglash mumkin.

Fuzuliyga katta shuhrat keltirgan “Turkiy Devon” va “Layli va Majnun” masnaviyidir. Shoir nomini abadiy qiladigan bu ikki asardan tashqari ijodiy merosida “Hadikatu’s-Suada”ning ham ta’siri

katta. Hazrat Husayn alayhissalomning Karbalo shahidligi tasvirlangan bu nasriy asari ham sevib o‘qilgan. Maktublarida Nishonchi Poshoga yozgan “Shikoyatnoma” asari ham takror-takror aytilib, tillardan tushmay kelgan. Ta’kidlash joizki, asarlari orasida forsiyda yozilgan “Rind va Zohid” asari g‘oya, badiiyat va uslubga ko‘ra alohida qiymatga ega. “Rind ila Zohid” tasavvufiy asardir. Fuzuliy “Rind va Zohid” asari bilan fors tilining imkoniyatlarini ochib berishga muvaffaq bo‘lib, o‘z davrida ushbu tildagi hukmronligini ham ko‘rsatdi. Ushbu asar xalq asarlariga monand bo‘lib, nasr va nazmning qorishuvidan iborat. Shoir qiyin masalalarni yoritar ekan, nasrdan nazmga o‘tadi. Shuning uchun ushbu kichik asarda 75 ruboiy, 54 qit’a, 18 bayt, ya’ni turli o‘rinlarda, bir-biriga ulashilgan bayt va she’rlar mavjud. Islom dini amallarini izohlar ekan, badiiy san’atlarga boy she’rlardan mohirona foydalanadi. U asarning bosh qahramonlari Rind va Zohid tilidan e’tiqodning eng dolzarb masalalarini keng doirada muhokama qiladi. Shu tariqa Fuzuliyning nafaqat daho shoir, balki Qur’on, hadis, fiqh va tafsir ilmining chuqur bilimdoni ekani ham namoyon bo‘ladi. Kalom, Tasavvuf va Vahdat-u vujud haqidagi keng bilimlar haqida tushunchalar oydinlashadi. Fuzuliyning muhokama qilingan masalalardagi fikr-mulohazalari “Rind va Zohid” obrazlarining maqom-martabasi, mazmun-mohiyati orqali tushuntiriladi.

Islom dinining diniy qoidalari, Qur’on va Hadislarning zohiriy ma’nolari, iymon asoslarining tarqalishi, mazkur ilmlarning o‘rganilishi turli uslublarda olib borilgani ma’lum. Maqsad ma’rifat ulashish ekan, ulamolar turli dastur ul-amallar yaratishib, nafsga yengillik qilishga urinishgan. Asosan, masjidlarda o‘qitilayotgan ushbu ma’rifat masjidlar atrofida tashkil etilgan madrasalarda ham olib borilgan. Boshqa tomondan, ildizlari uzoq o‘tmishga borib Tasavvuf deb atalgan ilm manbai takka va dargohlarning ta’lim va tarbiya asosini tashkil qilgan degan qarash asoslidir. Tasavvuf e’tiqod va undan kelib chiqadigan majburiyatlarni kengroq nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishga intiladi. Islomiy e’tiqod va farz amallarga Allohdan qo‘rqishdan ko‘ra Alloh sevgisi bilan yondashadi. Bu holat vaqt o‘tishi bilan masjid va madrasa ta’limi natijasida zohidlikni, shuningdek, darveshxona va takkalarda o‘sib-ulg‘ayish natijasida Rind shaxsini maydonga olib chiqdi. Fuzuliy “Rind va Zohid” nomli asarini ana shu ikki suvrat va siyratdagi inson, ya’ni rind va zohid orasidagi farqlardan kelib chiqib yozgan. Bu jihatdan badiiy adabiyotda estetik ideal darajasiga ko‘tarilgan bu ikki obraz tafovutlarini Fuzuliy ijodida yaqqol ko‘rish mumkin.

Fuzuliy “Rind va Zohid” nomli asari bilan zo‘r munaqqid va tarbiyat piri ekanini isbotladi. Uning ta’lim va tarbiya, xususan, islomiy ta’lim va tarbiya borasidagi fikrlarini, qolaversa, bayondagi o‘ziga xos ifoda uslubini shu asari orqali bilib olishimiz mumkin.

Asar haqidagi tadqiqotlarda erishilgan umumiy xulosaga ko‘ra, Fuzuliy bu asarga so‘fiyona qarashlar zamirida, dunyo va ilohiyot haqidagi xulosalarini o‘rtaga tashlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, Rind va Zohid bahsining asoslarini shoirning olam va odam, Xoliq va xalq, jumladan, kamolot asrori haqidagi hikmatlari tashkil etadi. Asarda Rindning ko‘ngil xassosiyati, Zohidning esa aqliy fikrlari ochib beriladi. Nihoyat, shoirning fikri tuyg‘usida birlashadi. Asarning qisqacha mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin: "... Ajam diyorida obro‘li, Allohdan g‘oyatda qo‘rqadigan va benihoya hayoli Zohid va uning Rind ismli o‘g‘li bor edi. Zohid o‘g‘lining aql-zakovati va iste’dodini sezgach, unga nasihat va o‘gitlar bera boshladi. Bola esa bu dono maslahatlar biroz ochiq va sodda tarzda bo‘lishini istadi... Nasrdan ham ziyoda nazmni xush ko‘rishini so‘yladi. Zohid Qur’on va hadislardan she’r va shoir haqidagi hukmlarni o‘qiydi. Ota o‘g‘lini shariat ilmlarini o‘rganishga undaydi. Rind esa ta’lim-tarbiya, go‘zal xulq sohibi bo‘lish riyozatidagi zarur amallarga boshqacha nigoh bilan razm soladi. Aslida bu ziddiyat ko‘proq zohiriy ekanligini unutmaslik lozim. Yozuv san’atini, ya’ni husnixatni o‘rgansa, yaxshi bo‘lishini so‘zlagan otasiga, Payg‘ambarimizning ham o‘qiy olmaganini eslatadi. Ota yozishni o‘rganish zarurligini anglata olmay o‘g‘li Rindga sultonlarga yaqin bo‘lish yo‘llarini o‘rganishni maslahat beradi. Ushbu o‘rinda bir narsaga diqqat qaratmoq joiz, zohid-u obidlar zamonasining eng ishonchli va haqiqatparvar inson ekanligidan, zamona hukmdorlari ularni o‘zlari yonida ko‘rishdan sevinishgan. Va bu amalni an’ana tarziga keltirishgan ham. Zuhhodlar Alloh taoloning nazari tushgan bandalar ekanligiga, ularning duolari ham mustajob ekaniga mustahkam ishonchi bo‘lgan. Ya’ni – sening yuksak tarbiyangdan sultonlar to‘g‘ri yo‘lga yo‘llanishsa, ikki jahonda ham murodingni kelgani deb bil. Dunyo ne’matlarining nash’asi podishohlarning iltifotidandir. Oxiratning rohati, begunohlarga yordamingdandur”, deya Zohid o‘g‘li Rindga tavsiya bermoqda. Bu xususda Ahmad Yassaviyning bir hikmatida ham shunday baytni uchratishimiz mumkin:

Eshon, shayx, xo‘ja, mullo dunyo izlar,
Ul sababdin podshohlarga yo‘lg‘on so‘zlar,
Oyat hadis so‘zin qo‘yib, pulni ko‘zlar,
Haq yo‘lida hargiz mehnat tortqoni yo‘q.

Demak, bilishimiz mumkin-ki, podshohlarning yonida yurgan ba’zi “eshon, xo‘ja, mullo”larda ham ishonch qolmadi. Dunyo jilvasi ularni ham yo‘ldan ozdirdi. Natijada riyo bo‘y ko‘rsatti. Rind: “Yaratilishning borligidan maqsad Yaratganga qullikdir..” deb javob beradi. Bu orada, “Dehqonchilik qil!” deya berilgan nasihatiga amal qilmaydigan Rind savdo-sotiq bilan ham shug‘ullanmaydi. San’at bilan shug‘ullanish belgilab qo‘yilgan taqdir yo‘lida adashishdan cho‘chiydi. Bunday munosabat bilan o‘g‘lining johil

bo‘lib qolishidan qo‘rqqan ota ilmning fazilatidan, jaholatning yomonliklaridan misollar keltiradi. Ammo o‘g‘lida aytilganlarni qabul qilishini ko‘ra olmaydi. Rindning har bir so‘ziga salbiy javob berishi Zohidning g‘am-g‘ussasini ko‘paytirdi. Dunyo ne’matlariga erishish uchun mehnat qilish zarurligini ta’kidlaydi. O‘g‘liga hamisha yaxshilik qilishini, o‘zining esa har doim g‘am-qayg‘uga tushishini so‘zladi. Otasining charchaganini tushungan Rind: “Mashaqqat navbati menga yetib, moddiy qiyinchilikka ya’ni ro‘zg‘or yukiga duchor bo‘lgunimcha rizqimni senga yozdilar..” – dedi.

So‘fiylarda safar muhim sanalgan. Zohid o‘zining “otalik haqqi”ni ta’kidlasa-da, o‘zini o‘zi ta’minlashi, safarga chiqishi mumkinligini aytadi. U "safar" uchun qanday choralar ko‘rishni so‘raydi. Zohid safarning xavf-xatarlarini sanab o‘tadi. Rind ham ulardan qochish yo‘llari haqida gapiradi. Asarning bu qismida madrasalarda o‘rgatiladigan odob arkonlarining ajoyib namunalari keltirilgan. O‘zaro suhbatlar bilan davom etayotgan yo‘lchilikda qarshilaridan masjid chiqadi. Rind bu joy nimaligini so‘raydi. Zohid: "Bu uy – Allohning uyi. U sof qalbli so‘fiylar ibodatxonasidir. U qullik yeridir. Iblisga bu yerda joy yo‘qligini so‘zlaydi. Rind masjidga kirishga rozi bo‘lmaydi. Ota va o‘g‘il tortishib yo‘lda birgalikda davom etar ekan, oldilarida “...falakka bosh ko‘targan..., jannat bog‘chalaridan bir bog‘ kabi qurilgan bir binoga duch kelishadi. Har tomonidan yoqimli ovozlar kelar... Qahqahalar orasida sozning ham nag‘malari qulloqqa chalinar edi. Rind: bu ko‘ngil ochgan maskan qayerdir? Eshitganlarimiz qanday yoqimli sozdir? – deya so‘raydi. “Bu shaytonning uyidir” javobini olar ekan, Zohid sharob bilan bog‘liq oyatni o‘qiydi. Rindning aqli yetuk insonlar kabi so‘zlayotganini ko‘rgan ota mayxonaga kirishiga izn beradi. Rind mayxonada ko‘ngil oydinligiga yetgan bir nuroniy (Pir)ni ko‘radi. Unga yaqindan nazar soladi. Huroniyning ko‘rinishi sir javharining xazinasini ochardi. Nazari ila sharobni qiymatli qilgan, go‘yo harorat va qalbining jazbasini singdirgan...

Pir Rindga befarq bo‘lmadi: “Ey, yigit, ajoyib ko‘rinmoqdasan, ne iddaoying bor, qay yo‘lning yo‘lchisisan? Yo‘lingni yo‘qotgansan, senga mayoq bo‘lay, bir hojating bor esa yordam beray”, – dedi. Pir bilan Rind orasidagi mazkur suhbatdan Rind dardiga darmonni topganday bo‘ldi. Shoshgancha dardlariga darmon bo‘lguvchi hollarini istar edi. Pir soqiyga ishorat etib: “...dardsizlik kimiyosi bo‘lgan, ruhni jilolagan sharbatni keltir. Bunga qorishgan o‘zgacha ta’sirlar bilan asta-sekin ishonch bog‘larini shakldan kesib, ma’noga bog‘lanishi, u ipni majozdan kesib, haqiqatga ulashishi”ni istadi. Rind bu yerda ko‘rganlaridan va eshitganlaridan xushlandi. Otasining oldiga qaytib, avvalo, pirning so‘zlarini yana bir bor xotirlatdi. Rind: “... diqqat bilan pir fikrlari ko‘zimni ochgach tushundim-ki, masjiddagilar o‘zlari ila g‘ururlanishmoqda. Mayxonaga chekinganlar esa o‘zlarida emaslar. Masjidda ibodat etganlarning ibodatlariga bo‘lgan ishonchi ularni kibr sarxushligiga otmish... Mayxonaning g‘ofillarini xatoni e’tirof etishlari g‘aflat uyqusidan uyg‘otmish...” kabi so‘zlar ila bir-biri bilan solishtiradi. Ota-o‘g‘il “yaxshi”, “yomon”, “Haqiqat”, “majoz”, “nafs”, “havo va havas”, “gunoh”, “savob”... kabi masalalarni sog‘lom bir mantiq ila tortisharlar.

Oxir borib, Zohid ila Rind qarshi chiqishdan voz kechib, “Birlik” martabasiga yetishdilar. Fuzuliy so‘ngso‘z o‘laroq qarashlarini: “Foniylik ko‘chasida dono ila devona birdir, dengizning tubida tosh bilan inju donasi ham barobardir. Yaxshi-yomon deya sanash ham o‘rtadan ko‘tarilsa, masjid bilan mayxona ham birdir”, – deya xulosalaydi.

Fuzuliyning bunday deyishiga qaramay, rind va zohid obrazlari shoirlarimizga dunyo va oxirat tushunchalarini o‘rtaga chiqarish imkonini berishda eng yaxshi yordamchi bo‘ladi. Asardagi uch rishta quyidagilardir: ota – Zohid, o‘g‘il – Rind, ko‘ngil sultoni – Pir. Bu uch timsol orasida kechgan tafakkur va tavajjuh to‘qnashuvi daho Fuzuliyning muhtasham asarining maydonga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu uch xarakterning muammo yechimida ayni tomonida bo‘lishi kutilmasligi tabiiy hol. Fuzuliy bu kabi bir-birini zid qiluvchi obrazlar orqali ayni damda bir-birini to‘ldiruvchi, biri boshqasini taqazo etuvchi tasavvufiy tadrijni anglatmoqni istayotgani ayni haqiqat. “... masala quruq bir zohid yoki hol egasi bo‘lgan rindni ta’riflashdan yuqoridir” – deydi “Rind va Zohid”ning forschadan turkchaga ilk tarjima qilgan buyuk fuzuliyshunos olim professor Husayn Aynan.

Rind – tashqi ko‘rinishga emas, ko‘ngilning zanginligiga e’tibor berishga, Allohning qahridan qochmoq va qo‘rquv bilan yashashdan ko‘ra Allohning sevgisiga talpinishga, Uning Rahmon va Rahim asmosi ila marhamatiga umidvor obraz. Urg‘ulash lozimki, bu tushunchalarni adabiyotda keyinchalik faqat “Rind” emas, balki so‘fiy, murid, oshiq, orif kabi obrazlar ham ifodalay boshladi. Va ular, tabiiyki, ilmi qolga mansub, shariatning asoslariga hayotini qurgan zohidga qarshi gavdalantirildi.

“Zohidning shuncha mahrumiyatlariga sabab jannatda ularga egalik ta’masidir. Buning esa qiymati yo‘qdir. Asl ma’rifat bu ne’matlarni Haqqa vosil bo‘lmoq uchun tark etmoqdir. Oshiqning kamoli ham shu yerda” – deydi yana bir fuzuliyshunos olim Dr. Ahmad Sevgi. Adabiyot obraz, ramz, timsollar olamidan iborat. Obrazli tafakkur adabiyotning asosiy qonuniyatlaridandir. Ammo ikki obrazni qahramon sifatida olib, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik, tafovut, muhim jihatlarni ko‘rsatish shoirning mahoratini belgilaydi. Haqiqatning majozda ifoda topishi kitobxonni yanada ta’sirlantiradi. Rind va zohidning ma’naviy martabasi, badiiy adabiyotdagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rind ile Zâhid. Hüseyin Ayan, İstanbul: Büyüyenay Yayınları, 2. Baskı, 2017
2. Тасаввуф атамалари изохли лугати. «Movarounnahr», 2015. 97-b
3. Kadir Özköse Zühd ve sûfîlerin zühde yükledikleri anlam., Ankara. B-12
4. I.Haqqul. Meros va mohiyat. –T.: “Маънавият”, 2008. 3-b
5. Komilov N. “Tasavvuf”. – Toshkent: “Movarounnahr”-“O‘zbekiston”, 2009. 27-b
6. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.
7. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т.: “Маънавият”, 1998.

Zohirjon KENJAYEV,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

BOYSUN TUMAN ORONIMLARINING HOSIL BO‘LISHIDA KONVERSIYA VA TRANSONIMIZATSIYA

Annotatsiya: mazkur maqolada oronim termini va Boysun tumanidagi oronimlarning hosil bo‘lishida konversiya va transonimizatsiyaning o‘rni to‘g‘risida ma’lumotlar berilishi bilan birga, konversiya va transonimizatsiya haqida tadqiqotchilarning qimmatli fikrlari ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *oronim, konversiya, transonimizatsiya, gidronim, gidrooronim, toponim, onomastik konversiya, ichki va tashqi konversiya, orografik obyekt.*

Annotation: in addition to providing information about the term oronym and the role of conversion and transonymization in the formation of oronyms in the Boysun district, this article also provides valuable insights from researchers about conversion and transonymization.

Keywords: *oronym, conversion, transonymization, hydronym, hydrooronym, toponym, onomastic conversion, internal and external conversion, orographic object.*

Аннотация: в этой статье дается информация о термине Ороним и роли преобразования и трансонизации в образовании Оронимов в районе Бойсун, а также приводятся ценные сведения исследователей о преобразовании и трансонизации.

Ключевые слова: *ороним, преобразование, трансонификация, гидроним, гидророним, топоним, ономастическое преобразование, внутреннее и внешнее преобразование, орографический объект.*

Jahon tilshunosligida oronimlar toponimikaning bir qismi sifatida e’tirof etiladi va o‘rganiladi. 1960-1970-yillarda oronimika toponimikaning alohida sohasi sifatida ajralib, mustaqil yo‘nalish sifatida shakllana boshlagan.

Toponimika sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, manbalarda oronimlar va oronimika tushunchasi, shuningdek, uning o‘rganish obyektini belgilash masalasida turlicha fikrlarni uchratish mumkin.

Jahon tilshunosligida ham bu masalaga jiddiy e’tibor qaratilganining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, rus olimi Y.M. Pospelov bu borada quyidagilarni qayd etadi: “Oronimiya deganda hajmi va gipsometrik sathidan qat’iy nazar relyefning musbat va manfiy shakli nomlarini tushunish qabul qilingan. Oronimiyaga teng asosda tog‘lar, cho‘qqilar va baland tog‘li vodiylar ham, tekisliklar, dashtlar, tekisliklardagi katta bo‘lmagan tepaliklar va jarliklar nomlari ham kiradi. Oronimiyaga toponimiyaga tegishli bo‘lgan barcha asosiy qonuniyatlar va holatlar daxldor va ayni vaqtda faqat uning o‘ziga xos bo‘lgan, lekin hali to‘liq aniqlanmagan xususiyatlar ham mavjud” .

N.V.Podolskayaning lug‘atida oronim va oronimika tushunchalariga quyidagicha izoh berilgan: “Oronim – toponimning bir turi. Yer yuzasi relyefining har qanday (musbat va manfiy) elementi, ya’ni orografik obyektlarning atoqli oti. Oronim termini tarkibiga ko‘ra grekcha oros – tog‘, onyma – nom kabi ma’noli qismlardan iborat. Oronimlar yig‘indisi oronimiya deyiladi. Toponimikaning ma’lum bir til yoki region oronimlari majmuini, ularning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va shakllanishini o‘rganadigan bo‘limi oronimika deyiladi” .

O‘zbek tilshunosligida S.Bo‘riyev va S.Karimovlar oronimlarni “tog‘ nomlari” deb izohlab, bu guruhga tepalar, cho‘qqilar, qirlar, daralar va jarlarning nomlarini ham kiritish mumkinligini ham aytib o‘tishgan .T.Ernazarov bu sohaga oid terminlarni quyidagicha izohlaydi: “Oronim – baland, pastliklar, tog‘, tepalar nomi. Oronimiya – baland, pastliklar, tog‘ va tepalarning nomlari yig‘indisi. Oronimika – baland, pastliklar, tog‘, tepalar nomlarini o‘rganuvchi bo‘lim” . S.Qorayev: “Oronim (oros – tog‘, onoma – nom, ism) – tog‘lar, tepaliklar, qirlar, soyliklar, daralar va boshqa orografik obyektlarning nomlari”, – deb yozadi . Boshqa o‘rinda toponimist: “Oronimlarga tog‘-u toshlargina emas, balki relyefning salbiy shakllari – vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, o‘yiq-o‘ypotlar, shuningdek, tekislik, past tekisliklar va qumliklar ham kiradi”, – deb ko‘rsatadi. Z.Do‘simov, M.Tillayevalar oronim terminiga “relyef tiplari va shakllari (yer yuzasidan balandlik va chuqurlik) nomi” degan izohni berishgan .

Yuqorida ilmiy talqinlarni umumlashtirgan holda oronim terminini quyidagicha izohlash mumkin: oronimlar

tog‘lar, tog‘ tizmalari, qirlar, adirlar, dovonlar, tepalar, tepaliklar, qoyalar, cho‘qqilar, toshlar, adirliklar va tog‘liklarda joylashgan boshqa xil geografik o‘rinlarni, bir so‘z bilan aytganda, yerning relyef shakllarini ifodalovchi obyektlarning atoqli otlari hisoblanadi.

Oronimlarning hosil bo‘lishida onomastik konversiya muhim o‘rin tutadi. Toponimiyada joy nomlarining konversiya usulida yasalishi birinchi bo‘lib ilmiy amaliyotga A.V.Superanskaya tomonidan kiritilgan .

A. V.Superanskayaning ko‘rsatishicha, onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o‘zgarishsiz yoki sezilarli o‘zgarishlarsiz atoqli ot vazifasiga ko‘chish hodisasidir . Toponimlarning bu usulda hosil bo‘lishi haqidagi tahlillar va tadqiqotlar toponimiya tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘pgina ishlarda nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan ko‘rsatib berilgan. Jumladan, N.M.Ulug‘ovning “O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi” deb nomlangan monografik tadqiqot ishida ham gidronimlarning hosil bo‘lishi va transonimizatsiya xususiyatlari nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan misollar yordamida ko‘rsatib berilgan . Shuningdek, konversiya va transonimizatsiya tushunchalarining qo‘llanishi va ularning farqlanish xususiyatlariga nisbatan fikrlar bayon qilingan. Ma’lumki, atoqli otdan atoqli ot hosil bo‘lish hodisasi onomastik terminologiyaga oid lug‘atlarda konversiya va transonimizatsiya deyiladi . Bundan ko‘rinib turibdiki, aynan bir xil bo‘lgan til hodisasiga nisbatan ikki xil termin qo‘llangan.

O‘.Oripov o‘z ishida konversiya va transonimizatsiya hodisasini ichki konversiya va tashqi konversiya sifatida farqlaydi . A.S. Aslonov ham onomastik konversiyani ikki guruhga ajratib tahlil etadi: ichki konversiya va tashqi konversiya. U ichki konversiya usulida yasalishga onomastik tizimning o‘z ichidagi nomlarning toponim vazifasiga o‘tishi, ya’ni onomastik birliklar (atoqli otdan) dan toponim (atoqli ot) yasalishini kiritadi .

N.M. Ulug‘ovning fikricha, turdosh otlardan hech qanday o‘zgarishsiz atoqli otlar: toponimlar, jumladan, gidronimlar, antroponimlar, zoonimlar, fitoonimlar hosil bo‘lishiga nisbatan konversiya, bir atoqli otdan boshqa atoqli ot, ya’ni antroponimdan toponim, oykonimdan gidronim hosil bo‘lish hodisasiga nisbatan transonimizatsiya terminini qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

T.Nafasovning ta’kidlashicha, transonimizatsiya hodisasi joy nomlarining faollik darajasini oshiradi, nomlarning vazifasini yuksaltiradi, nomlararo munosabatlarni rivojlantiradi va tartibga soladi. Ayni paytda, transonimizatsiya nomlarni nutqda qo‘llash jarayonida tejamkorlikni yuzaga keltiradi, nutq imkoniyatlarini kengaytiradi.

Transonimizatsiya – onomastikada universalizmni yaratuvchi va ta’minlovchi nutqiy-lisoniy, sotsial-ijtimoiy, tarixiy-ma’naviy hodisadir. Transonimizatsiya yondosh obyektlar orasida yuzaga keladi. Yangi obyekt uchun nom uzoqdan qidirilmaydi, yonidagi obyekt nomi nomlanayotgan obyektga nom qilib tanlanadi. Bu hodisa xalqimiz yuksak ma’naviyatining lisoniy ifodasidir .

Bu fikrga qo‘shilgan holda, biz shuni qo‘shimcha qilmoqchimizki, haqiqatdan ham bir tushunchani ifodalaydigan va bir vazifani bajaradigan har qanday hodisa bir xil atalishga ega bo‘lishi lozim. Zero, bu yerda ikki xil hodisa farqlanar ekan, demak, bu hodisalarni ifodalaydigan tushunchalarni ham farqlab ko‘rsatish kerak. Bu narsa ularning nomlanishida ham farq bo‘lishini taqozo etadi. Demak, konversiya – bu appelyativlarning atoqli otlarga aylanishi, ya’ni turdosh otlarni atoqli otlarga aylanishi hisoblansa, transonimizatsiya esa bir turdagi atoqli otlarning boshqa turdagi atoqli otlarga o‘tish hodisasi hisoblanadi. Ayrim tillarda, jumladan, ingliz tilida konversiya hodisasiga so‘z yasalishining bir usuli sifatida qaraladi. Onomastik konversiyaga ko‘ra, appelyativ hech qanday grammatik o‘zgarishlarsiz to‘g‘ridan to‘g‘ri atoqli otga aylanadi. Bu hodisa toponimiyaning boshqa turlarida bo‘lgani kabi oronimlarning hosil bo‘lishida ham kuzatiladi. Xususan, buni Boysun tuman oronimlari sostavida ham kuzatamiz.

Tumandagi oronimik konversiya usulida hosil bo‘lgan oronimlarni ikki guruhga bo‘lib tahlil qilish mumkin. Bular: 1. Tub asosdan hosil bo‘lgan oronimlar. Bunga orografik terminlarning oronimlashishidan hosil bo‘lgan nomlarni kiritishimiz mumkin. Gaza (joy), Qayg‘i 2. Yasama so‘zlardan hosil bo‘lgan oronimlar. Bu guruhga kiruvchi oronimlarni tarkibiy tuzilish xususiyatiga ko‘ra yana ikki ichki guruhga ajratish mumkin: a) sodda tarkibli yasama so‘zlardan hosil bo‘lgan oronimlar: Abrikli (adir), Andizli (dara), Duvolli (dara), Irg‘ayli (adir), Cho‘yanli (adir) va boshqalar; b) qo‘shma tarkibli so‘zlardan hosil bo‘lgan oronimlar: Ayg‘irtepa (tepa), Aylanatumshug‘ (balandlik), Boyirgaza, Go‘rdara (dara) va boshqalar; v) izofali birikmalardan hosil bo‘lgan oronimlar: Bog‘ibaland, Ko‘hisafed va boshqalar; g) predikativ birikmalardan hosil bo‘lgan oronimlar: Xontushdi (tepa), Lo‘limurda (adir), Ayiquchdi (dara) kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Tuman oronimlari tizimida oronimik konversiya usulida hosil qilingan nomlarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘ladi:

1. Tub asosli so‘zlardan oronimlar hosil bo‘lishida, asosan, orografik, gidrografik tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlar ishtirok etadi.

2. Sodda tarkibli yasama so‘zlardan oronimlarning hosil bo‘lishida, asosan tog‘, dasht, cho‘l sharoitlariga xos bo‘lgan o‘simliklar, daraxtlar nomlari, orografik tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlar asos vazifasini bajarib, ularga mavjudlikni bildiruvchi o‘zbekcha –li affiksi, turdosh otlardan atoqli ot yasash xususiyatiga ega bo‘lgan o‘zbekcha –cha, tojikcha –ak affikslari faol qo‘llanadi.

3. Qo‘shma tarkibli va izofali birikma shaklidagi so‘zlardan konversiya usulida oronimlarning hosil bo‘lishida nomning bosh komponenti hisoblangan so‘z asosan, oronimik indikatorlardan, unga qo‘shilib yoki birikib, aniqlovchi komponent bo‘lib kelgan so‘z esa o‘simliklar, daraxtlar, hayvonlar, jonivorlar nomlarini

ifodalovchi ot turkumiga, turli belgi-xususiyatlarni ifodalovchi sifat turkumiga xos appelyativlardan, shuningdek antroponimlar, etnonimlar, gidrografik tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlardan va predikativ birikmalardan iborat bo‘ladi.

Tuman oronimik transonimizatsiyada ikki xil hodisa kuzatiladi:

1. Bir turdagi orografik obyekt nomining shu turdagi boshqa obyekt nomiga o‘tishi. Bunda dara nomi adir nomiga, tepa nomining tog‘ nomiga va boshqa orografik obyektlar nomini oronimik tizim tarkibiga kiruvchi boshqa birliklar nomiga o‘tishi kuzatiladi. Bunga misol tariqasida Andizlitog‘ (adir), Doltak tog‘ (dara) larni kiritishimiz mumkin.

2. Boshqa toponimlarning oronimga o‘tishi. Bunda gidronim, oykonim, ergonim va boshqalarning oronimga o‘tishi nazarda tutiladi. Tuman oronimlar sistemasida gidronimlarning oronimga o‘tishi salmoqlidir. Bu turdagi oronimlarni gidrooronim termini ostida tahlil qilishni ma’qul deb hisoblaymiz. Gidrooronimlar (grek, hydro – “suv” + oros – “tog‘” + onyma - nom) tuman oronimlari orasida salmoqli o‘rinni egallaydi. Gidrooronimlarning e’tiborli jihati shundan iboratki, gidrooronimik nom avvaldan iste’molda bo‘lgan boshqa nom asosida yuzaga keladi. Gidrooronimlarni qanday suv obyekti asosida yuzaga kelganligiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin.

a) chashma (buloq) nomlariga nisbat berilgan gidrooronimlar: Qo‘shchashma (adir), Chashmazor (adir), Novbuloq (Navbuloq) (b-k), O‘rbuloq, Jiydabuloq, Ko‘ksoy, Guppibuloq (adir), Amborsoy;

b) nov (fors. - quvur yoki yog‘och tarnov; suv yo‘li. Suv oqishi uchun yog‘och, taxta, sement va sh.k.dan ishlangan maxsus o‘zan) gidronimik asosidan yuzaga kelgan gidrooronimlar: Oqnov tog‘, Novo‘zak, Qo‘shnova, Xasnov;

d) soy nomiga nisbat berilgan gidrooronimlar: Darasoy, Ichaksoy, Izmasoy, O‘rlisoy, Xongaronsoy, Qizilsoy, Quvlisoy, Chaqmoqsoy, Juxinsoy, O‘riklisoy, Qo‘ng‘izbuloq, Do‘konsoy (tog‘), Zovtalashgansoy, Kofrunsoy, Shovvasoy;

e) ko‘l nomiga nisbat berilgan gidrooronimlar: Kampir ko‘li tog‘, Darband ko‘li tog‘, Yulduzko‘l (b-k);

f) hovuz nomiga nisbat berilgan gidrooronimlar: Sardoba (adir);

g) suvning hajmiga nisbat berilgan gidronimlardan hosil bo‘lgan gidrooronimlar: Suvsiztog‘, Suvsizdara, Zaxxona (dovon), Sho‘rak, Gumatak, Ko‘lak, Dari ob, Sharshar tog‘, Quduq tog‘.

Xulosa qilib aytganda, Boysun tumani oronimlarining hosil bo‘lishida konversiya va transonimizatsiyasi hodisasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, konversiya usulida hosil qilingan tuman oronimlarida aksariyati tub asosli, sodda tarkibli yasama hamda qo‘shma tarkibli va izofali birikma shaklidagi oronimlar tashkil etadi. Shuningdek, tuman oronimik transonimizatsiyada orografik obyekt nomining shu turdagi boshqa obyekt nomiga o‘tishi va toponimlarning oronimga o‘tish holati kuzatildi.



Shahlo SALIMOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: salimovashahlo2820@gmail.com

XAVFSIZ TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK METODIKANING O‘RNI

Annotastiya: maqolada xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirishda pedagogik metodikaning ahamiyatli tomonlari, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning tadqiqot natijalari o‘rganilgan. Inklusiv, jamoaviy va qiyosiy ta’limning xavfsiz muhitni ta’minlashdagi o‘rni asoslangan. Xavfsiz ta’lim muhitini ta’minlash omillari va ularning tarkibi tadqiq etilgan. Ta’lim muassasalarida xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, xavf, metodika, muhit, pedagogika, o‘quvchi, muassasa, o‘qituvchi, psixologiya, amaliyot.*

Аннотация: в статье рассмотрены значимые аспекты педагогической методики в формировании безопасной образовательной среды, исследованы результаты как отечественных, так и зарубежных ученых. Обоснована роль инклюзивного, коллективного и сравнительного обучения в обеспечении безопасной среды. Исследованы факторы и их состав, способствующие обеспечению безопасной образовательной среды. Приведены выводы и рекомендации по формированию безопасной образовательной среды в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *образование, безопасность, методология, среда, педагогика, ученик, институт, педагог, психология, практика.*

Annotation: the article explores significant aspects of pedagogical methodology in the formation of a safe educational environment, examining research results from both local and international scholars. It substantiates

the role of inclusive, collaborative, and comparative education in ensuring a safe environment. The factors and their components contributing to a safe educational environment are analyzed. Conclusions and recommendations for creating a safe educational environment in educational institutions are provided.

Key words: *education, safety, methodology, environment, pedagogy, student, institute, teacher, psychology, practice.*

Kirish

Xavfsiz ta'lim muhiti har qanday ta'lim tizimining muhim asosidir. Bunday muhit nafaqat jismoniy xavfsizlikni, balki psixologik va emotsional xavfsizlikni ham ta'minlashi lozim. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida xavfsiz va qulay muhit yaratish masalasi juda dolzarb bo'lib, talabalar o'zlarini xavfsiz his qilishlari, bilim olishga e'tibor qaratishlari va ijodiy rivojlanishlari uchun zarur sharoit yaratishni talab qiladi. Shu bois, xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirishda pedagogik metodikaning o'rni haqida tadqiqot olib borish zamonaviy ta'lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik metodika ta'lim jarayonining asosi hisoblanadi va bu metodikaning to'g'ri qo'llanilishi ta'lim muassasalarida xavfsizlikni ta'minlashning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik yondashuvlar, talabalar xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus ishlab chiqilgan metodlar va strategiyalar, ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan.

Pedagogik metodika nafaqat ta'limning samaradorligini oshiradi, balki talabalarda o'z-o'zini anglash, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, stress holatlarini boshqarish, konfliktlarni hal qilish kabi qobiliyatlarni shakllantirishga ham yordam beradi. Bu esa o'z navbatida, xavfsiz muhitni yaratishga xizmat qiladi. Ta'lim muhitida xavfsizlik ta'minlanmagan taqdirda, talabalar bilim olishga to'liq e'tibor bera olmaydi va bu o'z navbatida, ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi.

Xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirishda pedagogik metodikaning o'rni juda katta bo'lib, bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb muammolarini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ishi xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirishda pedagogik metodikaning o'rni va uning ta'sirchanlik darajasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu tadqiqotda ta'lim tizimida xavfsiz muhitni ta'minlash uchun qo'llaniladigan an'anaviy pedagogik metodlarning qay darajada samarali ekanligi tahlil qilindi va zamonaviy yondashuvlar bilan solishtirildi. Shuningdek, xavfsiz ta'lim muhitini yaratishda pedagogik metodikaning nafaqat amaliyot, balki nazariy jihatlari ham chuqur tahlil qilindi.

Mazkur tadqiqot ishini o'tkazishimizdan asosiy maqsad, xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirishda pedagogik metodikani takomillashtirish va uning ta'lim jarayoniga bo'lgan ta'sirini aniqlashdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun biz xavfsiz ta'lim muhitining nazariy asoslarini o'rgandik va tahlil qildik, xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirishda pedagogik metodikaning rolini aniqladik, talabalarning ta'lim muassasalarida xavfsizlik hissini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik metodlarni o'rgandik va ularni amaliyotga joriy qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Tadqiqotchi R.P.Rustamovaga ko'ra, "Xavfsiz ta'lim muhiti - bu zararli yoki zararli ta'sir ko'rsatadigan o'quv muhiti, xavfli omillar talabalarga nisbatan chiqarib tashlanadi yoki ularning ta'sir darajalari belgilangan me'yorlardan oshmaydi. Ta'lim muhitidagi xavfli omil - bu o'quvchining tanasiga ta'siri shikastlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan omil " [1: 298],-deb ta'rif bergan. Lekin, tadqiqotchi taraqqiyotning shiddat bilan rivojlanishi natijasida hozirgi zamon ta'lim tizimida yangidan yangi xavflar shakllanishi va paydo bo'lishi haqida o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tmagan.

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim muassasalarining o'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining buyrug'iga asosan, ta'lim muassasalarida o'quvchilarning xavfsizligiga oid qator talablar belgilab berilgan, jumladan, ta'lim muassasasining hududi va ish xonalarining harorati, nisbiy namlik, havoning harakatlanish tezligi [GOST 12.1.005-88] "Ish hududining havosi. Umumiy sanitariya-gigiyenik talablari" ga muvofiq bo'lishi kerak, ta'lim muassasasi joylashgan maydon butun chegara bo'ylab to'silgan bo'lishi, uning hududiga begonalarning kirishi cheklangan va nazorat ostiga olingan bo'lishi lozim, xodimlar va o'quvchi-talabalar uchun xavf tug'diruvchi halokat tusidagi buzilishlar tezda bartaraf etilishi kerak, xavfli hududlarda ishlab chiqarish jarayonlari halokat bartaraf etilgunga qadar to'xtatib turilishi, shuningdek xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va o'quvchi-talabalar xavfsiz joyga ko'chirilishi kerak [2].

Paxalyan V.E. tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabning yuqori sinf o'quvchilarining 90% gacha bo'lgan qismi emotsional zo'riqish holatida ekanligi, 75% gacha bo'lgan qismi esa stress etiologiyasiga ega bo'lgan turli kasalliklarga chalinganligini tasdiqlovchi ma'lumotlarni aniqlagan. Tadqiqotchi fikricha, bolalar orasida psixik salomatlikning buzilishi keng tarqalgan bo'lib, ularning ko'pchiligini ta'lim-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirish orqali tuzatish mumkin, shu munosabat bilan, maktab sharoitida psixologik jihatdan xavfsiz ta'lim muhitini loyihalash va yaratish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda [3: 46],-deb hisoblagan.

Amerikalik olim Abraham Maslowning ehtiyojlar

iyerarxiyasi nazariyasiga ko‘ra, insonning ta’lim olishda muvaffaqiyat qozonishi uchun uning avvalo, xavfsizlik ehtiyojlari qondirilishi kerak. Agar ta’lim muhitida xavfsizlik ta’minlanmasa, bu o‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini va umumiy rivojlanishini cheklaydi. Maslowning bu qarashlari pedagogik metodikani rivojlantirishda psixologik xavfsizlikni ta’minlashning muhimligini ko‘rsatadi [4: 372].

Tadqiqotchilar J.D.Sharkey va P.Fenlar maktablarda xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarga tayyorlik masalalariga oid tadqiqotlar olib borishgan. Tadqiqotchilar xavfsiz ta’lim muhitini yaratishda jamoatchilik va o‘qituvchilarning birgalikdagi harakatlari muhimdir, degan xulosaga kelishgan [5: 291].

Ta’lim muassasalarida turli pedagogik metodikalarni qo‘llash orqali xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha tadqiqot olib borgan tadqiqotchilar Carolyn M. Evertson va Edmund T. Emmerlar fikricha, “sinfni boshqarish metodikalari orqali xavfsiz ta’lim muhitini yaratish muhim hisoblanib, sinfda intizomni saqlash va o‘quvchilarning psixologik xavfsizligini ta’minlash uchun pedagogik metodikalar to‘g‘ri qo‘llanilishi kerak ” [6: 99].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqot ishini olib borishda biz dastlab xavfsiz ta’lim muhiti va pedagogik metodikalarning nazariy asoslarini o‘rganish uchun ilmiy adabiyotlarni tahlil qildik. O‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish orqali xavfsiz ta’lim muhitiga nisbatan ularning munosabatlari o‘rganildi, xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirishda faol qatnashayotgan pedagoglar bilan chuqur suhbatlar o‘tkazildi, pedagogik metodikalarni qo‘llash orqali xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha amaliy tajribalar o‘tkazildi va natijalar baholandi, ta’lim jarayonida xavfsiz muhitning shakllanishini kuzatdik va monitoring qildik. Ma’lumotlarni tahlil qilishda deskriptiv statistika, kontent tahlil va korelyatsion tahlil usullaridan keng foydalandik.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirish ishlari zamonaviy maktabni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim munosabatlari ishtirokchilarining hayotiy faoliyati va o‘zaro munosabatlari komponentlarini o‘z ichiga olgan xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha faoliyat strategiyalarini ishlab chiqish davlat ta’lim standartlari tomonidan belgilangan zaruriyatlardan biridir. Ta’lim muassasasida pedagoglar, ota-onalar va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar hamda universal o‘quv vazifalarini shakllantirish jarayonida barcha ta’lim munosabatlari ishtirokchilari uchun qulay sharoit yaratish muhimdir.

Pedagogik metodika — bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarni yetkazish uchun o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan usullar, texnikalar va strategiyalar majmuidir. Pedagogik metodika o‘quvchilarni faollikka undash, ularning darslarga qiziqishini oshirish va ta’lim jarayonida ishtirokini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, pedagogik metodikalar orqali ta’lim muhitida xavfsizlik va qulaylikni ta’minlash, o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish mumkin.

Albatta ta’lim muassasalarida xavfsizlik muhiti ta’minlansagina ta’lim oluvchilar belgilangan davlat ta’lim standartlari talablariga javob beradigan kompetensiyalarga ega bo‘lishadi. Xavfsiz ta’lim muhitida o‘quvchilar o‘z potensialini to‘la namoyish eta olishlari, bilim olish jarayonida stressdan xoli bo‘lishlari mumkin. Xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirishda pedagogik metodikaning o‘rni katta. Chunki aynan o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan metodikalar ta’lim muassasasida ijobiy va xavfsiz muhitni yaratishda asosiy vositadir. Quyida biz pedagogik metodika va xavfsiz ta’lim muhiti o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodaladik (1-jadval):


1-jadval

Xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirishda pedagogik metodikaning o‘rni .

Pedagogik metodika	Tavsifi	Xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirishdagi o‘rni
Inklusiv ta’lim metodikasi	Turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega o‘quvchilarni umumta’lim jarayoniga jalb qilish.	Teng imkoniyatlar yaratish, jamoaga integratsiya qilish, barcha o‘quvchilar uchun xavfsiz muhit yaratish.
Jamoaviy ta’lim metodikasi	O‘quvchilarning guruhlarda ishlashi orqali birgalikda muammolarni hal qilish yoki topshiriqlarni bajarish.	O‘zaro hurmat va ishonchni shakllantirish, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish.
Qiyosiy ta’lim metodikasi	Turli nuqtai nazarlar va manbalarni qiyoslash orqali o‘quvchilarni tahliliy fikrlashga o‘rgatish.	O‘z fikrini ochiq ifodalash, boshqa o‘quvchilar fikrlarini hurmat qilish orqali xavfsizlikni ta’minlash.

Pedagogik metodika ta’lim jarayonida nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Inklusiv ta’lim, jamoaviy ta’lim va qiyosiy ta’lim kabi yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zlarini jamoaning to‘laqonli a’zosi sifatida his qilishlariga, jamoada o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Shunday qilib, pedagogik metodikalar yordamida xavfsiz, ijobiy va samarali ta’lim muhiti yaratish mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, biz xavfsiz ta’lim muhitini ta’minlash uchun lozim bo‘lgan omillar va ularning tarkibini aniqladik va uni quyidagi rasmda ifodaladik (1-rasm):



1-rasm. Xavfsiz ta’lim muhitini ta’minlash omillari va ularning tarkibi .

Xavfsiz ta’lim muhiti har bir ta’lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning jismoniy, psixologik va emotsional farovonligini ta’minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bunday muhit o‘quvchilarga nafaqat bilim olish jarayonida, balki shaxs sifatida rivojlanishda ham yordam beradi. Xavfsiz ta’lim muhitini yaratish ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, bu omillar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi va muhitning umumiy samaradorligini oshiradi. Ta’lim muassasalari bu omillarni hisobga olgan holda, xavfsiz va samarali ta’lim muhitini yaratishga intilishlari lozim. Bu esa o‘z navbatida, kelajak avlodning bilimli, sog‘lom va barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirishda pedagogik metodikaning ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik metodika o‘quvchilarning psixologik va emotsional farovonligini ta’minlash, ularning o‘zaro munosabatlarini mustahkamlash, shuningdek, xavfsiz va samarali ta’lim jarayonini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik metodika, ayniqsa, inklusiv, jamoaviy va qiyosiy ta’lim metodlari ta’lim muassasalarida xavfsiz muhitni yaratishda asosiy omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, o‘tkazilgan tadqiqotlarimiz xavfsiz ta’lim muhitini ta’minlashning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi yaqin hamkorlikning zarurligini ko‘rsatdi. Shu bilan bir qatorda, ta’lim jarayonlarining xavfsiz bo‘lishini ta’minlash uchun avvalo o‘qituvchilarni tayyorlash, ota-onalar bilan hamkorlik qilish, tizimda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ularni monitoring qilish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.R.Rustamova (2022) TA'LIM MUASSASALARI O'QITUVCHILARINING MEHNAT SHAROITLARI XAVFSIZLIGINI OSHIRISH. Science and innovation, 1 (B4), 297-301. doi: 10.5281/zenodo.6927987

2. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 01.05.2013 yildagi "Ta'lim muassasalarining o'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi №-2454-sonli buyrug'i.

3. Пахальян В.Э. Психопрофилактика в практической психологии образования. – М., 2003.

4. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370-396. doi: 10.1037/h0054346

5. Sharkey, J. D., & Fenning, P. (2012). Rethinking School Safety: Communities and Crisis. Psychology in the Schools, 49(3), 285-296. doi: 10.1002/pits.21612.

6. Evertson, C. M., & Emmer, E. T. (2017). Classroom Management for Elementary Teachers. Pearson. –P.288.

Jamila YUNUSOVA,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti 2-kurs doktoranti
Jamila2020_yunusova@mail.ru.

SHAVKAT RAHMON SHE'RLARIDA FONETIK VOSITALARNING BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu ishda o'zbek tilining lingvistik boy imkoniyatlari, shoir Shavkat Rahmon she'rlarida qo'llangan alliteratsiya va assonansning poetik xususiyatlari, ularning o'ziga xosligi lingvopoetik tahlillar orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *alliteratsiya, assonans, fonetik vosita, lingvopoetika, badiiy niyat, ironik mazmun.*

Annotation: in this work, the rich linguistic possibilities of the Uzbek language, the poetic features of alliteration and assonance used in the poems of the poet Shavkat Rahman, and their uniqueness are shown through linguopoetic analysis.

Key words: *alliteration, assonance, phonetic device, linguopoetics, artistic intent, ironic content.*

Аннотация: в данной работе посредством лингвопоэтического анализа показаны богатые языковые возможности узбекского языка, поэтические особенности аллитерации и ассонанса, использованные в стихотворениях поэта Шавката Рахмана, их своеобразие.

Ключевые слова: *аллитерация, ассонанс, фонетический инструмент, лингвопоэтика, художественный замысел, ироническое содержание.*

Dunyo va o'zbek tilshunosligida badiiy matnda tilning o'rni, til birliklarining turli estetik vazifalari, lingvopoetik xususiyatlari bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Bugungi kunda o'zbek lingvopoetikasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkorlar asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini alohida tadqiq etish va o'ziga xos uslubini yoritishdir. Chunki muayyan ijodkor asarlarini umumiy tahlil etish lingvopoetikaning muhim jihati bo'lib, u orqali shoir yoki yozuvchining poetik olamiga kirib boriladi. O'zbek adabiy tili imkoniyatlaridan foydalanish mahorati kuzatiladi yoki tilni boyitishga qo'shgan hissasi aniqlanadi.

Adabiyotshunosligimizda noyob iste'dod sohibi Shavkat Rahmon she'rlarini badiiy jihatdan chuqur tahlil qilib beruvchi ilmiy tadqiqotlar yaratilgan, ammo shoir asarlari tilining lingvopoetik xususiyatlari shu vaqtga qadar aktuallashgan fonetik birliklar vositasida tadqiq qilinmagan.

Ushbu maqolaning ilmiy maqsadi Shavkat Rahmon she'riyati tilidagi poetik aktuallashgan fonetik birliklarni aniqlash, tavsiflash, ta'riflash va shu asosda uning asarlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Fonetik sath nutq tovushlarini o'rganadi, tildagi so'zlar, iboralar, gaplar nutq tovushlari vositasida shakllanadi va yuzaga chiqadi. Badiiy adabiyotda ko'proq lirik asarlarda tovushlar, urg'u va ohang hissiy ta'sirchanlikni oshirishda muhim poetik vositadir. She'riy matnda fonetik birliklarning aktuallashuvi turli holatlarda voqealanadi. Ijodkor

o‘zi yaratayotgan asarga o‘quvchi diqqatini tortish, uni hayajonga solish yoxud hissiy ta’sir qilish uchun tafakkurida paydo bo‘lgan g‘oyalar, tasavvurlarni nutqiy jarayonda rang-barang, jilolangan, she’riy intonatsiya, ritmlarni o‘zining strukturasiga qamrab olgan, talaffuzi va aytilishida ohangdoshlik, qofiyadoshlik kabi hodisalarni singdirgan tovush va tovushlar birikmasi orqali ham ifodalaydi. Natijada badiiy matnda ayrim tovushlar qavatlanadi, tushib qoladi yoki ketma-ket takrorlanib ohangdoshlik hosil qiladi, shunday usullar bilan fonetik ekspressivlik ta’minlanadi.

Fonetik ekspressivlik tovushlar takroridan hosil bo‘lgan ohanglarda yaqqol ko‘rinadi. Tovushlar takroridan yaralgan badiiy ohanglar xalq qo‘shiqlari, masallari, tez aytishlari va mumtoz adabiyotimiz namunalari orqali bizga ma’lum. Ularda takrorlar asosiy tasviriy vosita bo‘lib kelgan. “Takrorlar she’riyatning ohangdoshlik va xushohanglik xususiyatlarini kuchaytirish orqali musiqiylikni maksimal darajada ta’minlaydi. Shu bilan birga, ular fikr va ma’noning turli qirra darajalarini anglatadi”[1;386]. S.Karimovning “Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari” kitobida takrorning o‘ttizga yaqin, masalan, alliteratsiya, anafora kabi turlarining mavjudligi” [2;44] haqida ma’lumot berilgan.

Alliteratsiya badiiy matnda tovushlarning poetik aktuallashuvida muhim vosita hisoblanadi. Alliteratsiya fonopoetik vosita sifatida she’riy matn intonatsion butunligi shakllanishida faol ishtirok etadi va ohangdorlikni kuchaytiradi. Tilshunos olim M.Yo‘ldoshev alliteratsiya haqidagi “… badiiy tafakkur ifodasi, bu ifodaning ta’sir quvvatini kuchaytirishda undoshlar asosida yuzaga keladigan alliteratsiyaning favqulodda o‘rni juda qadim zamonlardayoq anglab yetilganini ham alohida qayd etish lozim” ekanligini ta’kidlaydi. [6;165] Alliteratsiyaning she’riyatdagi o‘rni o‘zbek tilshunosligida bir necha tadqiqot ishlarida o‘rganilgan. Jumladan, A.Shofqorovning “Mirtemir she’riyatida takrorning ma’noviy-uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining “Mirtemir she’riyatida fonetik takrorlar” nomli I bobida hamda S.Umirovaning “O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasining “Poetik matnda takror usulini qo‘llashning prosodik va kompozitsion tamoyillari” nomli II bobida fikr bildirilgan. Shuningdek, J.Yuldashevning “Usmon Nosir lingvopoetikasi” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik (PhD) tadqiqotining III bobi, birinchi faslida alliteratsiya Usmon Nosir she’rlari misolida chuqur o‘rganilgan.

Cho‘ng shoir Shavkat Rahmon ijodida ham alliteratsiya matn mazmuniga mos shakliy turli poetik ma‘no aks ettirgan go‘zal namunalarni kuzatamiz.

Tog‘ xo‘rsinib yubordi og‘ir –
vodiylarga yugurdi shamol,
yuzlarini yashirdi hilol.
Tog‘ xo‘rsinib yubordi og‘ir,
Teran xobdan uyg‘ondi yurak,
tog‘lar kabi xo‘rsinmoq kerak. (“Tog‘ xo‘rsinib yubordi og‘ir”)

Vertikal alliteratsiyaning ajoyib namunasi bo‘lgan ushbu parchada shoir o‘quvchining nafaqat e’tiborini jalb qilishni, balki asar mazmunini tovushlar uyg‘unligi orqali ham ifodalamoqchi bo‘lganini ko‘ramiz. Ya’ni Shavkat Rahmonning ushbu she’ri Vatanimiz hali mustaqillikka erishmagan paytda yozilgan bo‘lib, unda xalq yuragida yillar davomida yetilib kelayotgan erk sog‘inchini yanada yorqinroq, kuchliroq aks ettirish, kurashish payti kelganligi haqidagi yashirin da’vati aks etgan. Shoir ijodida uning badiiy niyatini to‘liq gavdalantiruvchi bir necha poetik obrazlar bor. Ulardan biri “tog‘” obrazidir. Bu haqida adabiyotshunos olima R.Mullaxo‘jayeva “She’rda tog‘ obrazi sabr-toqatni kuch-qudratga aylantirgan bardoshning poetik ifodasi”, deya ta’riflaydi. [3;117] She’rda tog‘ning xo‘rsinishi bardoshning sinishiga mengzanadi. Shuning uchun ham shoir “tog‘lar kabi x o‘rsinmoq kerak” ligini ta’kidlaydi. “T” undoshi hosil bo‘lishiga ko‘ra portlovchi undosh, shoir bu tovushning takrori orqali qat’iylikni, barqarorlikni ifodalashga harakat qiladi. Shoir badiiy niyatini bu shaklda yetkazishi o‘quvchida kuchli emotsionallikni qo‘zg‘atadi.

Nutqning fonetik “qiyofasi”ni yaratishda alliteratsiya muhim vositalardan biri sanaladi. Masalan:

Kelar qora rido kiygan tun,
sukunatning qushlarin suyar,
suronlardan horgan shaharni
silab-siypab uxlatib qo‘yar. (“Safsarlashar oqshomgi osmon”)

Alliteratsiya asosida aloqalanib poetik yuk olgan ushbu parchadagi sukunatning, suyar, suronlardan, silab-siypab leksemalari tarkibidagi “s” tovushi tunning tasviriy ifodasi sokinlikni ifodalab, muhim poetik vazifa bajargan. Shoirning mahorati tunning mohiyatini tovushlar zamiriga joylab va matnning mazmun va shakl uyg‘unligiga erisha olganida yaqqol seziladi, go‘yoki ss jim tun deyayotganday o‘quvchi ongida tasavvur uyg‘otadi.

Ijodkor voqea-hodisalarning nazarda tutilgan muhim tomoniga o‘quvchi diqqatini tortish, uni bo‘rttirib tasvirlash niyatida ham she’riy asarlarda ayrim tovushlarni takrorlaydi. Masalan, quyidagi she’rda erksiz xalq ruhiyati lirik qahramon ruhiyati misolida aks ettirilgan.

Asov ko‘ngil …
ergashar andom,
qadim yo‘ldan qayga yetaklar.

Qorong‘ilik quyular qandoq,
qandoq titrar edi chechaklar.
O‘sib borar qop - qora besha,
sovib borar yo‘llar tuprog‘i.
Ko‘ngil tashna
Qondiray desam,
qaynab turar g‘amlar bulog‘i. (“Qumaru”)

Lirik qahramonning o‘zlikni anglashga bo‘lgan harakatsizlikka qarshi ruhiy isyoni tasviri bayonida “q” undoshi kuchli poetik aktuallashgan, shoir gorizontal va vertikal alliteratsiyadan talaffuzdagi uyg‘unlik va matn mazmunini bo‘rtib ifodalanishini ta’minlovchi fonetik vosita sifatida foydalangan.

Nutq tovushlari orasida unli tovushlarning ekspressivlikni ifodalash imkoniyati keng. Matnda bir xil yoki bir-biriga yaqin unlilar takrorlanib, poetik vazifa bajaradi. “Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional - ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida qo‘llaniladigan fonetik usullardan yana biri assonansdir. Assonans she’riy misra, xususan, qofiyadosh so‘zlar tarkibida kelib, poetik aktuallashadi, ana shu aktualligiga ko‘ra, she’riy nutqqa badiiy yaxlitlik va o‘ziga xos musiqiylik baxsh etadi, she’rning estetik butunlik sifatida xotirada tez muhrlanishi ham ana shu ohangdorlik tufaylidir” [6;168]

Yog‘iladi mayin sas sado,
yog‘ar, yog‘ar shomurut qori,
naqadar xush jodugar navo,
ozod, qora sochlar ifori. (“Bir kecha yodi”)

Shoirning so‘zga bo‘lgan zakiy munosabatini uning ifodasidagi tovushlar tanlanishida ham sezamiz. Yuqorida keltirilgan parchada “o” tovushi poetik aktuallashgan bo‘lib, tasviriylik, ifodalilikni nozik torlari bilan ta’minlashda va manzarani o‘quvchi ko‘z oldida jonlantirib, shoirning hayrat kechinmalarini-da kitobxonga yuqtira olishida muhim vazifa bajargan.

“O‘rinli tovush takrori ritmni bezab, emotsional zaryad (quvvat)ni oshiradi, ifodalilikni kuchaytirib, she’riy nutq madaniyatini bir daraja yuqoriga ko‘taradi”. [6:83] Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, unlilarning poetik imkoniyatlari naqadar keng ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Uning she’rlarida assonans emotsionallikni ta’minlash bilan birgalikda, shoirning subyektiv munosabatini ham ko‘rsatishga xizmat qilgan.

Joylashgansan shunchalar chuqur…
O‘z tubiga yashirgan yurak.
Senga yetib bormaklik uchun
Uzun umrim yetmasa kerak. (“Vatan”)

Barchaga ma’lumki, shoir ismi bilan Vatan so‘zi yonma-yon yuradi, shoir ismi yangraganda ko‘z oldimizga Vatan taqdirini o‘z taqdiridan ustun qo‘ygan, vatanparvar ijodkor gavdalanadi. Shavkat Rahmon Vatanini shunchalik sevadiki, uning o‘lchamlari imkonsiz. “U” cho‘ziq unlisi matnda chuqur, yurak, tub, uzun so‘zlari tarkibida kelib ularni o‘zaro poetik aloqalantirgan va shoirning Vatanga bo‘lgan cheksiz “uzun” muhabbatini aks ettirgan. Ayniqsa she’rdagi O‘z tubiga yashirgan yurak va Uzun umrim yetmasa kerak misralarining ohorli va poetik yuki zalvorli bo‘lib, matn mazmuniy strukturasida favqulodda muhim o‘ringa ega.

Yuqorida biz u, o unlilarining poetik aktualligiga guvoh bo‘ldik. Bir she’r doirasida ba’zan shoir badiiyat talabi bilan she’rning ma’lum qismlarida turli unlilardan foydalanib, badiiyati to‘q misralar yarata olgan.

She‘riyat,
xalajruh parizod,
uchdingmi, ko‘ndingmi yolg‘onga:
uchdingmi kichkina dunyoga,
ko‘ndingmi kundalik yovg‘onga.

Shavkat Rahmon nazdida shoirlik, she’riyat ilohiylikka dahldor bo‘lish demakdir. Shoir o‘z dardini emas, xalq dardini kuylovchi, ezgulikni ulashuvchi, ko‘ngillarni pinhona bog‘lovchi, tiyrak ruh sohibi. Ularga hayratlanish, his-tuyg‘ularda dog‘lanish xos. Shuning uchun shoir she’riyatni – xalajruh, ya’ni bola ruhiday pok parizodga mengzaydi, ilohiy hisni kundalik yovg‘on dardiga almashtirib qo‘yilishidan xavotirda. Ijodkorning mahorati “o” unlisi takrori orqali “achinish”, “xavotir”, kabi ruhiy kechinmalarini matn tarkibiga singdirib yuborganida ham ko‘rinadi. She’r davomida dardning, nafratning o‘kinchini, quyuqlashib borishi “o‘” unlisi poetik faollashuvida seziladi, ohang ham yuqorilaydi, ayniqsa “xo‘rlangan, zo‘rlangan go‘zallik” misralari badiiy ifodaning cho‘qqisi deyish mumkin.

She‘riyat,
ko‘zlaring qizargan,
xo‘rlangan,
zo‘rlangan go‘zallik.
Og‘irdir ko‘zingga qaramoq,
Ko‘zlaring,
O‘ldirar ko‘zlaring

Shavkat Rahmon “Endi jim turasiz” she’rida xuddi tovushlar panoramasini yaratganday. Dastlab kitobxon diqqatini tortish uchun “e” unlisidan foydalanadi. Har bir misra e unlisi orqali boshlangan. Yuqoridagi misollarda odatda, qofiyada unlilar uyg‘unligiga guvoh bo‘lgan bo‘lsak, har misra boshida takrorlanishi kitobxon e’tiborini tortishga xizmat qilgan. Agar diqqat qilinsa, shoirning ironik kayfiyatini sezish qiyin emas.

Endi jim turasiz,
Eshiting elni,
El aslo demaydi: zog‘lar kuylasin…
Endi kengliklarda haq so‘ramasdan
Yerni bezab yotgan bog‘lar kuylasin.

Matnda ohangni yuqorilab borishida alliteratsiyadan foydalanilgan.

Kuylasin,
Keldi- da kuylamoq gali,
kuylasin mangulik qo‘shiqlarini,
buzsin-da siz kabi aqli qisqalar
xatarsirab qurgan to‘siqlarini.

So‘nggi baytda ham assonans, ham alliteratsiyadan to‘liq foydalanadi, bunda ohangdorlik, ham kuchli ekspressivlik ifodalangan, ayni damda matnning kuchli darajadagi integratsiyasi yuz bergan. Matndagi biror bir til vositasini boshqasiga almashtirishning imkoni yo‘q. Barcha til vositalari bir estetik vazifa bajarishga safarbar etilgan.

Ana …quloq soling…
Eshityapsizmi,
Kuylar shoir shamol, kuylar shoir qor,
Shoir qorong‘ilik, shoir tog‘larda
Shoir daryolarning shovullashi bor.

Umuman, Shavkat Rahmon o‘z she’rlarida nafaqat matn mazmuniga, balki uning shakliy va tovush qobig‘iga ham e‘tiborli bo‘lib, mos tovushlarni badiiy maqsad ifodasi uchun saralay bilgan, mazmun va shakl uyg‘unligiga erishgan. Bu favqulodda holat bo‘lib, she‘rning o‘ziga xos ohangini hosil qilgan. Shuningdek, alliteratsiya va assonansdan unumli foydalanib, badiiy niyatini yorqin, ta’sirli ifoda etishda ularga poetik vazifa yuklay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. Adabiy asar. Birinchi jild. Toshkent: Fan, 1978. 386-bet.
2. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari.O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 1994. 44-bet.
3. Mullaxo‘jayeva R. Tafakkur yangilanishi. –Toshkent: Muharrir, 2019.117-bet.
4 Rahmon Sh. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1997.384-bet.
5. Стеблева И.В. Происхождение и развитие тюркской аллитерационной системы в связи с историческим родством тюркских и монгольских языков // Советская тюркология. – Баку, 1971. – №6. – С. 83.
6. Yuldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. 165-bet.

Gulnora UMAROVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
u.gul.a786@gmail.com

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI MUNOJOTLARNI SHARHLAB O‘QITISH

Annotatsiya: maqolada “Hayrat ul-abror” dostoni tarkibida kelgan munojotlarni sharhlab o‘qitishga oid ayrim fikrlar keltirib o‘tilgan. Munojotlarni o‘quvchiga o‘qitishdan avval bu so‘z ma’nosi haqida tushuncha berish o‘quvchida munojot haqida tasavvur paydo bo‘lishiga yordam beradi. Shundagina dostondagi munojotni anglash yanada osonlashadi. Mumtoz asarlarni o‘quvchilarga o‘qitishda sharhlash usuli samarali usul ekanligi maqolada ayrim baytlarni sharhlash orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *“Hayrat ul-abror”, sharh, munojot, lug‘at, badiiy san’at, “iqtibos”.*

Аннотация: в статье представлены некоторые комментарии по преподаванию и интерпретации диалогов, включенных в эпос “Хайрат уль-Аброр”. Прежде чем преподавать муноджот ученику, необходимо дать ему понять значение этого слова, чтобы ученик получил представление о муноджот. Только тогда будет легче понять смысл эпоса. В статье показано, что метод комментирования классических произведений является эффективным методом обучения студентов путем комментирования некоторых строф.

Ключевые слова: *“Хайрат уль-Аброр”, комментарий, словарь, муноджот, художественное искусство, “иктибас”.*

Annotation: the article, some comments on teaching and interpretation of the dialogues included in the epic “Hayrat ul-Abror” are presented. Before teaching munojot to the student, giving an understanding of the meaning of this word will help the student to have an idea about munojot. Only then will it be easier to understand the meaning of the epic. The article shows that the method of commenting on classical works is an effective method for teaching students by commenting on some stanzas.

Key words: *“Hayrat ul-abrar”, commentary, munojot, vocabulary, artistic art, “iqtibas”*

Zamon rivojlanib borgani sari ayrim narsalar eskirib, o‘z ahamiyatini yo‘qotib bormoqda. Ammo Navoiy asarlari o‘zining badiiy qiymatini yo‘qotayotgani yo‘q. Aksincha, bolalar ta’lim-tarbiyasida bu asarlarning o‘rni naqadar ahamiyatli ekanligi tobora aniq bo‘lib bormoqda. Ammo asarlar tili biroz murakkabligi sabab o‘quvchi uchun bu asarni tahlil qilish, ayrim so‘zlar ma’nosini anglash qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Shu sababli asarning kerakli o‘rinlarini aniq manbalar yordamida sharhlab tushuntirsak, o‘quvchilar asar mazmuniga to‘liq tushunishlari mumkin. O‘tgan asrlarda asarlar yozishning “Da’bi tasnif” ya’ni “Tasnif odobi” deb nomlangan, asar yozganda har bir yozuvchi amal qilishi shart bo‘lgan qoidalar mavjud bo‘lgan. Bu qoidalar ikki guruhga bo‘lingan.

1. “Vojib ul-tasnif (bajarilishi shart): Bismilloh, hamd (Allohga hamd-u sano), na’t (Payg‘ambar vasfi).

2. “Joiz ul-iste’mol (mumkin, ruxsat etilgan, o‘rinli): Kitobning nomi, yaratilish sababi, bag‘ishlov kabi.[1: 33]

Munojotlar esa hamd va na’t o‘rtasida kelgan va muallif unda Ollohga iltijolarini aks ettirgan. Munojot adabiyotga XI asrda Abdulloh Aksoriy tomonidan olib kirilgan bo‘lib, sekin-asta boshqa yozuvchilar asarlarida ham uchray boshlagan. Xususan, Navoiy ham “Xamsa” dostonida 8 ta munojot yozgan bo‘lib 4 tasi birinchi doston “Hayrat ul-abror”dan o‘rin olgan. Barcha asarlardagi munojotlarning mazmun-mohiyati bir bo‘lsa-da, farqli tomonlari ham anchagina. Buni “Hayrat ul-abror” dostoni tarkibidagi munojotlarni tahlil qilish orqali ko‘rib chiqamiz. Undan avval bu so‘z qanday ma’noni anglatishini bilib olishimiz kerak. “Munojot” so‘zi Milliy ensiklopediyada quyidagicha izohlanadi:

1. Munojot (a. maxfiy suhbat, iltijo) – islomdagi farz namozlardan tashqari, ixtiyoriy ravishda o‘qiladigan namozlar. Har qanday dindorning ixtiyoriy Xudoga iltijo va ibodat qilishi ham munojot hisoblanadi. Bunday namoz va ibodatlar ko‘pincha kechalari ado etilgan. Munojot faqat namoz ichida bo‘lishi shart emas, uni Allohga iltijo qilib, duo ko‘rinishida hamma vaqt ham qilish mumkin.

2. Munojot – sharq mumtoz adabiyotining an’anaviy unsurlaridan biri. Odatda, munojotda najot umidi, tavba va iltijolar Tangriga otashin murojaat shaklida ifodalanadi. Munojot dastlab musulmon kishining Allohga murojaat etib, o‘z hojatlarini so‘rashi, yalinib-yolvorishi tarzida yuzaga kelgan.

3. Munojot (a. yalinish, yolvorish) – yirik shakldagi o‘zbek mumtoz cholg‘u kuylar turkumi. [2:817]

“Navoiy asarlari qomusiy lug‘ati”da esa:

✧ Munojot (a. najot so‘ramoq, yolvormoq) – Allohga iltijo qilib yozilgan asar, she’riy yoki nasriy asarlar boshlanmasida hamd va na’tning o‘rtasida keluvchi badiiy unsur. Munojotda asar muallifining Yaratgandan najot so‘rab qilgan iltijolari badiiy tarzda ifodalanadi. Munojotlarda ijodkorning falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlari ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular muallif shaxsiyati, asarda ilgari surilgan g‘oyalar mohiyatini teran anglab yetishga yordam beradi.

✧ “Munojot” (“Allohdan najot tilash”) – Alisher Navoiyning diniy mavzudagi asari, umrining oxirlarida bitilgan. Navoiy mazkur asarda o‘zining butun hayot yo‘liga nazar tashlaydi va Yaratuvchiga dil izhori bilan murojaat qiladi” [3:360] degan ta’riflar berilgan. Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, munojot bandaning Olloh oldida o‘z gunohlarini tan olishi va Ollohdan shu gunohlarini kechirishi uchun iltijo qilishidir.

“Hayrat ul-abror”da munojotlar 3-6-boblarda keltirilgan bo‘lib, Navoiy har bir munojotni boshlashdan avval unda nimalar haqida so‘z borishini tushuntirib, qisqacha to‘xtalib o‘tadi. Avvalgi munojotni olima D. Yusupova “Alloh taoloning Bir-u Borligi, jamiyki maxluqot unga sano aytsalar ham, uning hamdini ado etolmasliklari, Haq taolo o‘z zotiga mazhar – ko‘zgu yaratish maqsadida olamni yo‘qdan bor qilgani, olamning hikmati va gultoji, koinotning mohiyati inson ekanligi alohida iftixor va shukronalik bilan qayd qilingan” deb tahlil qiladi. [4:84] Munojotda Allohning kuch-qudrati, husni, yakkaligi go‘zal o‘xshatishlar bilan ta’riflanadi. Alloh barcha narsani yaratib, yaratiqlarining gultoji qilib insonni yaratgani, uni barcha narsadan ortiq ko‘rgani haqida aytiladi. Masalan:

“Karramno” keldi manoqib anga,
“Ahsani taqvim” munosib anga.” [5:16]

Professor Nurboy Jabborov: “Baytdagi “Karramno” so‘zi “Isro” surasining “Batahqiq, biz bani Odamni aziz-u mukarram qilib qo‘ydik” mazmunidagi 70-oyatdan”, “Ahsani taqvim” esa “Tiyn” surasi “Batahqiq, insonni eng go‘zal tuzilishda yaratdik” deyilgan 4-oyatdan iqtibos” deydi. Bu ikki surani bir baytda keltirgan holda Navoiy Odam farzandlarining maqomi yuksakligini va shunga munosib yashashi kerakligini tushuntirmoqchi. [6:8] “Navoiy asarlari lug‘ati”da “Karramno” (انمركـ) arabcha “Mukarram qildik – Qur’onda inson haqidagi bir oyatga ishora” degan izoh berilgan. [7:305] “Manoqib” (بـقانم) so‘zi ham arabcha “manqabat” so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, ikki xil ma’noni anglatar ekan: 1) yaxshi sifatlar, go‘zal xislatlar, maqtovlar; 2) bir kishining fazl va martabasini maqtab yozilgan risola [7:360], “Ahsan”(اسحا) so‘zi esa arabchadan “juda yaxshi, eng go‘zal” degan ma’nolarni anglatib, “Ahsani taqvim” birikmasi esa “eng chiroyli suratli, inson surati” degan ma’noni bildiradi. [7:77] Shu ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, Navoiy insonga ta’rif berib “Olloh seni mukarram qilib yaxshi sifatlarni berdi, shunday ekan bu eng chiroyli suratingga

munosib bo‘lgin, demoqchi. Yoki “Olloh seni aziz qilib, go‘zal xislatlar ato etdi, shunday ekan sen ham inson suratida bo‘l, zero go‘zal sifatlar insonlik belgisidir. Sen ham yaxshi fazilatlaring bilan javob qaytar. Insonga shu munosibdir, yomon sifatlar emas” degan fikrlarni aytmoqchi. Navoiy bu baytda oyatlarga ishora qilib “Iqtibos” badiiy san’atidan foydalangan. Bu san’at haqida Y.Is’hoqov “Iqtibos – mushtarak san’atlar jumlasidan bo‘lib, nasr yoki nazmda bayonning yorqin va go‘zal ifodasi uchun oyat va hadislar keltirish usuli” [1: 57] deydi. Kitobda Navoiyning nasri va nazmida qo‘llanilgan oyatlar bayon uchun oddiy bezak emasligi, aksincha, fikrni quvvatlab, kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanishi, Navoiy she’riy asarlarida oyat va hadisni to‘liq emas, ma’lum bir bo‘lagini keltirish orqali uning mazmuniga ishora qilishi ta’kidlab o‘tilgan. Keyingi munojotda Olloh yer-u osmon, jamiyki mavjudotlar yaratuvchisi ekanligi, U barchasini yaratgani kabi yo‘qlikka ham mahkum eta olishi, agar U g‘azablansa osmon bir etak kuldek sovrilib ketishi haqida yozilgan bo‘lib, bu orqali Qur’onda tilga olingan oxir zamonga ishora mavjud. Navoiy Ollohdan o‘sha kun kelganda iymonimni menga hamroh qil va Sendan boshqa Xudo qalbimda bo‘lsa, uni mahv etib, rahmatingdan menga ham nasib qilgin deya iltijo qilib panoh so‘raydi:

“So‘z “Limanil-mulk” o‘lub ul dam anga,
Kim, angadur mulk musallam anga.”[5:20]

“Limanil-mulk” so‘zining misradagi ma’nosini tahlil qilib, Navoiy bu bayt orqali nima demoqchiligini o‘rganamiz. Bu so‘z orqali Navoiy “G‘ofur” surasidagi “Bugun podshohlik kimniki?! Yagona, qahhor Allohniki!” deyilgan 16-oyatiga ishora qilmoqda. “Navoiy asarlari lug‘ati”da “Limanil-mulk”(لمن الملك) arabcha “Mulk kimga tegishli?” [7:336] degan ma’noni bildirishi haqida ma’lumot keltirib o‘tilgan. Ikkinchi misradagi “Musallam” (مسلم) so‘zi esa arabcha “taslim bo‘lish, topshirilish” degan mazmunni bildiradi. Bu oyatni keltirish orqali Navoiy mavjud barcha mulklar Ollohgagina tegishliligini, Yagona podshoh U ekanligini, biz bandalar ham Ollohning yaratig‘i ekanligimiz va ungagina iymon keltirishimiz kerakligini yana bir bor eslatib o‘tadi. 3-munojot 2-munojotning mantiqiy davomi. Unda “Qiyomat kuni kelganda hamma o‘z ahvolidan pushaymon chekib yig‘laydi. Amallar yozilgan varoqlar insonlar orasida uchib yuradi. Uni ko‘rib hammaning bag‘ri qon. Hech kim birovga boqmaydi, hattoki ona qiziga, ota o‘g‘liga. Bir yoqdan do‘zax olovi gunohkorlarni azobga solsa, boshqa tomondan jannat xushxabarini eshitganlar xursand bo‘lib gul kabi jilva qiladi. Atrof gunohkorlar bilan to‘lib hamma har tomon yugurganida faqatgina payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam ummatlarini axtaradi, Olloh va banda o‘rtasida vositachi bo‘lib, Ollohdan ummatlarini kechirishini so‘raydi. Shunda yo Rabbim meni ham u bilan yuzlashtirgin. Savol-javob vaqtida karamingni bizdan ayamagin”, deya iltijo qiladi.

“Zohir o‘lur “bu’sira mo fil-qubur”
Jilva qilur “hussila mo fis-sudur”.
“Yavmaizin mo xalaqallohu fih”
Yavma yafirrul-mar’u min axih” [5:22]

Ushbu misralarda Navoiy Qur’oni Karimdagi “Abasa” surasidagi 34- va “Odiyot” surasidagi 9-10-oyatlarni keltirib o‘tadi. Ya’ni “Afala ya’lamu iza bu’sira ma fil-qubuur. Va hussila ma fis suduur” oyatlari bo‘lib, ma’nosi “U bilmaydimiki, qabrdagilar qo‘zg‘atilgan. Va ko‘kslardagi narsalar to‘planganda”[8:101] “Abasa” surasi 34-oyatga ko‘ra Qiyomat vaqtidagi bandalar holati tasvirlanib, “U kunda kishi o‘z aka-ukasidan qochadi...” deya, insonlarni ogohlikka chaqirmoqda. Mahshar ta’rifi keltirilgan bu munojot orqali Navoiy hammani gunoh ishlar qilmaslikka, shu kungacha bilmay qilgan gunohlari bo‘lsa tavba qilishga, poklanishga chorlaydi. Agar gunohlardan qaytmasa, Olloh buyurgan yo‘ldan yurmasa, Qiyomat kunida qabrlar yorilishi, ko‘ngildagi yaxshi-yomonliklar oshkor bo‘lishi va shunga yarasha jazo olishini eslatib bandalarni iymonga chaqiradi. 4-munojotda Navoiy Olloh karami kengligiga ishora qiladi. Undan faqatgina taqvodorlarni emas, Jannatdan umidvor gunohkorlarni ham avf qilishini so‘raydi. Shu bilan birga Navoiy barcha farzlarni bajarib, Jannatdan umid qilganlarni, aniqrog‘i, Olloh uchun emas, Jannat uchun din yo‘lidan yurganlarni ta’magir deya qoralaydi. Faqat Olloh rizosi uchun ibodatda bo‘lganlarni haqiqiy jannat ahli ekanligini ta’kidlab o‘tadi. “Ba’zi bandalar xayr yo‘lida bir ish qilar ekan, maqsadi ham, umidi ham jannat bo‘ladi. Faqat Sengagina umid bog‘laganlar xotirjamdir. Garchi ularning gunohlarining chegarasi bo‘lmasa-da, Sen ularga rahm qilgin. Bu rahm-u shafqatdan Navoiyni ham mahrum qilmagaysan. Menga hur ham, jannat ham kerak emas, Sen bo‘lsang shuning o‘zi yetarlidir”, deydi Navoiy.

Xulosa qilib aytsak, 1-munojotda Olloh taoloning olamni, odamni, barcha mavjudotlarni yaratishi va insonni eng aziz qilib qo‘ygani haqida; 2-munojotda Ollohning g‘azabi kelib, olam yo‘q bo‘lib ketishi haqida; 3-munojotda Mahshar kuni va Payg‘ambarimizning har bir ummatini kechirishini so‘rashi haqida; 4-munojot esa bandaning tog‘ kabi gunohlari bo‘lsa-da, tavba qilsa, Olloh marhamat qilib ularni kechirishi, Jannatni ta’ma qiluvchilar va faqatgina Ollohga muhabbat qo‘ygan bandalar haqida so‘z boradi. Bunda Navoiy barchani iymonga chaqiradi, kech bo‘lmasdan Olloh yo‘lida yurishga da’vat etadi. Munojotni shu tarzda baytlardagi tushunish qiyin so‘zlarni lug‘atlar yordamida ma’nosini sharhlash orqali o‘qitilsa, mazmun yanada aniq va tushunarli bo‘ladi. Asarda ishlatilgan badiiy

san’atlarni tahlil qilib, yozuvchining mahoratini o‘quvchilarga ochib berish ham maqsadga muvofiq. Sharhlab o‘qitish ma’noni to‘g‘ri ochishda yordam beradi va yozuvchining bizga nima demoqchi ekanligini anglash osonlashadi. O‘quvchilar uchun mumtoz asarlarni tahlil qilish murakkab bo‘lmay qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekiston, 2014. 320-bet.
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000. 975-bet.
3. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2016. 536-bet.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik, –T.: Akademnashr, 2020. 576-bet.
5. Navoiy. Hayrat ul-abror, – T.: G‘afur G‘ulom, 2020. 384-bet.
6. Jabborov N. Alisher Navoiy ijodining islomiy-ma’rifiy asoslari/ maqola. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari xalqaro konferensiyasi. 2023. 12- bet.
7. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug’ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 1972. 784-bet.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi. – T.: Hilol-Nashr, 2013. 640-bet.



Sitora ASHUROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

TERMIN TUSHUNCHASI VA BOG‘DORCHILIK TERMINLARINING O‘RGANILISHI ZARURATI

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi rivojlanish asrida terminlarning har bir sohada qo‘llanilayotganligi va terminlarning paydo bo‘lishi va ularning tilshunoslikdagi o‘rni hamda terminologiya bilan shug‘ullanayotgan olimlar ishlari va fikrlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *terminologiya, termin, tilshunoslik, sohalar, tadqiqotlar, masalalar, bog‘dorchilik terminlari, xususiyatlari, talqinlar.*

Аннотация: в данной статье обсуждается возникновение терминов и использование терминов в каждой области в текущем столетии развития, их место в лингвистике, а также работы и мысли ученых, занимающихся терминологией.

Ключевые слова: *терминология, термин, лингвистика, области, исследования, проблемы, садоводческие термины, особенности, интерпретации.*

Annotation: this article discusses about the emergence of terms and the use of terms in every field in the current century of development, and their place in linguistics, as well as the work and thoughts of scientists dealing with terminology.

Key words: *terminology, term, linguistics, fields, studies, issues, horticultural terms, features, interpretations.*

Hozirgi jadallik bilan rivojlanib borayotgan texnologiyalar asrida termin va terminologiya muammosi hamma sohalarda o‘rganilayotgan muhim soha bo‘lgani kabi umumiy tilshunoslikning ham muhim muammolaridan biridir. “Termin” tushunchasini aniqlash va tushuntirish bilan bog‘liq barcha savollar, bu tushunchaning mazmuni, evolyutsiyasi va uni tilda (alohida tillarda) yaratish vositalarini umumiy lingvistik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikni inson faoliyatidagi boshqa amaliy va nazariy sohalar bilan yaqinlashtiradi va bog‘laydi.

Xususiy yoki maxsus ixtisoslashgan leksikani o‘rganish terminologiyaning umumiy nazariyasini yaratish uchun zarurdir. Shu bilan birga olimlarning terminologiyaning paydo bo‘lishining umumiy qonuniyatlarini, termin

tizimlarining o‘zaro ta’sirini va tilning ilmiy uslubining birliklari bo‘lgan va ko‘p jihatdan keng tarqalgan lug‘at tarkibiga kiradigan barqaror og‘zaki belgilar shaklida terminlarning ishlashini o‘rganishlari bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biridir.

Terminlar ustida juda ko‘p tilshunos olimlar ilmiy ishlar olib borishgan va shu sababli termin tushunchasini tahlil qilishda juda ko‘plab xilma-xil talqinlar paydo bo‘lgan. Masalan, S.D. Shelovning yozishicha, “terminlar zamonaviy adabiy tillar lug‘atining keng qismidir” [Shelov 2003:4]. A.A.Reformatskiy terminlarni “intellektual tarzda tashkil etilgan ijtimoiy voqelik” sohasiga tegishli maxsus so‘z va iboralar deb hisoblagan [Reformatskiy 1959, 1968]. Terminologik masalalar V.V. Vinogradov, G.O. Vinokur, A.A. Reformatskiy, A.S. Gerd, V.M. Leychik, R.A. Budagov, D.S. Lotte, L.Yu. Buyanova, L.A. Kapanadze, K. Kageura, D. Sageder, M.S. Munoz, Ch.S. Abdullayeva, G‘. Abdurahmonov, S.A. Azizov, O.S. Axmedov, P. Nishonov, X.D. Paluanova, D.X. Kadirbekova va boshqalar ishlarida tadqiq qilingan [1: 138].

Terminshunoslik va uning muammolarini o‘rganish asosan, XX asr o‘rtalaridan boshlangan. Terminologiyaga bo‘lgan cheksiz qiziqishga qaramay, tilshunoslar hali ham termin atamasining umumiy qabul qilingan ta’rifini ishlab chiqa olishmadi. XX asrning 70-yillari oxirida V.P. Danilenko tomonidan terminshunoslik masalalari muhokama qilingan, asosan, 40-70-yillarga oid qator terminshunoslikka bag‘ishlangan ilmiy ishlarni tahlil qilib, u “termin” tushunchasining 19 ta ta’rifini keltiradi. S.D. Shelov terminning tabiatini oydinlashtirish, uning turlicha ta’riflarini qiyoslash va baholash maqsadida XX asrning 80-90-yillari va XXI asr boshida e’lon qilingan tilshunoslik va terminologiyaga oid ilmiy va o‘quv nashrlari, lug‘at va ma’lumotnomalardan olingan 31 ta ta’rifni tahlil qilib, ularni quyidagicha umumlashtirishni taklif etadi: agar til belgisi (so‘z birikmasi, so‘z qo‘shilmasi, alohida simvolli so‘z birikmasi yoki so‘z qo‘shilmasi va h.k.) bilimning qaysidir sohasiga oid tushunchani ifodalasa va shunga muvofiq ushbu til belgisini anglatgan birliklar ongli ravishda tanlagan definitsiya (izoh, tushuncha)ga ega bo‘lsa, u termin sanaladi [2;795-79]. Shuningdek, termin tushunchasi leksikografik nashrlarda ham noaniq talqin qilinadi. O.S. Axmanova buni “maxsus tushunchalarni aniq ifodalash uchun yaratilgan (qabul qilingan, o‘zlashtirilgan va hokazo) maxsus tilning so‘zi yoki iborasi” deb ta’riflaydi [Axmanova 2004:474]. Xorijiy so‘zlar lug‘atlarida bu atama odatda lingvistik va mantiqiy tushuncha sifatida talqin qilinadi: “Ma’lum bir tushunchani aniq belgilovchi so‘z...mantiqda hukm yoki sillogizmning tarkibiy elementi” [NSISV 2002: 792].

Terminologiya tilshunoslik sohasining dolzarb masalalari markazida bo‘lib kelgan. Dunyo tilshunosligida umumiy va xususiy terminologiya masalalari, terminlarning shakllanishi, ularga xos leksik-semantik, grammatik, terminologik xususiyatlar muntazam o‘rganilib kelinmoqda. Turli tizimli tillar terminologiyasi muammolari har doim tilshunoslik sohasining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Dunyo tilshunosligining terminologiya maktablari, xususan, Avstriyadagi “Vena terminologiya maktabi”, Rossiyadagi “Rossiya terminologiya maktabi”, Chexoslovakiyaning “Praga terminologiya maktabi” kabilar terminlarning fan sohalarida naqadar muhim o‘rin tutishidan dalolat beradi. [2;795;799]

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida ham terminologiya masalalari asosan, ikki yo‘nalishda o‘rganilmoqda. Birinchisini, o‘zbek tili sohaviy terminologiyasi masalalarini o‘rganish tashkil etsa, ikkinchisini esa turli tizimli tillar sohaviy terminologiyasini chog‘ishtirma tilshunoslik yo‘nalishi asosida o‘rganish tashkil etadi. Shu jihatdan mavzuning o‘rganilishini ikki guruhga ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq. 1.O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalari U.Tursunov, S.Akobirov, O.Usmonov, S.Ibrohimov, R.Doniyorov, A.Hojiyev, H.Dadaboyev, G‘.Abdurahmonov, A.Madvaliyev, Z.Mirahmedova, X.Jamolxonov, R.Sharopova, X.Jabborov, N.Qosimov kabi tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan va ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan lug‘atlar tuzilgan [3;296] 2. Chog‘ishtirma tilshunoslikning terminologiya va leksikografiya masalalari bo‘yicha M.E. Umarxo‘jayev X.D. Paluanova, D. Saidqodirova, O.S. Axmedov, D.X. Kadirbekova, I.X. Sadikova, N.S. Nurmatova, P.P. Nishonov, M.Hoshimxo‘jayeva kabi tadqiqotchilar o‘zbek tili sohaviy terminologiyasi hamda xorijiy tillar materiallarining qiyosiy tadqiqini amalga oshirgan [4;174].

Turli sohalardagi terminlarni o‘rganish zarurati o‘sha sohaning rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi. Zamonaviy hayotimizda dunyo mamlakatlari va respublikamizda qishloq xo‘jaligi sohasining rivojlanishi, unga bo‘lgan yangicha yondashuvlar qishloq xo‘jaligi va uning sohalaridan biri bo‘lgan bog‘dorchilikka oid terminologik tizimni qiyosiy tadqiq qilish zarurati borligi bilan belgilanadi. Fan-texnikaning taraqqiyoti, sohalar rivoji, o‘zaro tajriba almashish, innovatsiyalarni jadal sur’atlarda keng tatbiq qilish ma’lumotlar almashish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Bu esa turli tizimdagi tillar terminologiyasining muntazam tadqiqi va tartibga solinishini taqozo qiladi. Qishloq xo‘jaligi juda keng tarmoqli sohadir va bog‘dorchilik uning muhim tarmoqlaridan biridir. Bog‘dorchilik sohasi terminologiyasiga xorijiy tillardan ko‘plab yangi terminlarning kirib kelishi ushbu terminlarning leksikografik, leksik-semantik, struktur-derivatsion xususiyatlari, adabiy til meyorlariga qay darajada mosligi, inson omili bilan bog‘liq holda nutq uslublarida

qo‘llanish xususiyatlarini turli tizimli tillar asosida ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Xalqaro bog‘dorchilik sohasidagi terminlar va leksik birliklar genetik, struktur-morfologik, struktur-sintaktik va semantik nuqtai nazardan tizimli ravishda tahlil qilinmagan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan keyin kirib kelgan terminlar hozirgacha bog‘dorchilik sohasidagi terminlar tizimidagi lakunalarni to‘ldirib kelmoqda. Shu o‘rinda, ingliz tili, xalqaro huquq, bog‘dorchilik terminologiyasi va leksik birliklar tizimi juda yuqori darajada keng va har tomonlama o‘rganilganligi bilan ajralib turadi hamda boshqa tillar, jumladan o‘zbek tiliga o‘zlashtirish uchun samarali manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tilida bog‘dorchilik sohasiga oid terminlarni tadqiq etishda ushbu terminlarning bir qator o‘ziga xos jihatlari borligini inobatga olish lozim. Bularga tizimlilik, bog‘dorchilik sohasidagi tushunchalarning to‘liq qamrab olinganligi, ziddiyatli emasligi, nisbatan barqarorligi, ochiqligi va dinamik xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon dunyoning barcha davlatlari bilan bevosita aloqada. Bunday aloqalarning asosiy mezoni savdo hisoblanadi. Xususan, bog‘dorchilik va poliz ekinlari mahsulotlari savdosi kengaymoqda. Oziq-ovqat bugungi kunda dunyodagi asosiy muammolardan biridir. Bu kabi sohalarni yanada rivojlantirish uchun prezidentimiz SH.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasida bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4246-sonli qarorni imzoladilar. [1] Chunki ayni paytda mamlakatimizda xalqaro aloqalar avjiga chiqqanligi sababli, nafaqat polizchilik, balki bog‘dorchilik nuqtayi nazaridan ham tegishli terminlarni ham o‘zbek, ham xorijiy tillarda talqin qilishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Nofilologiya institutlarida biz talabalarga ingliz tilidan kelajak kasblarida foydalanishni o‘rgatamiz. Shu bois oliy o‘quv yurtlarida ham ingliz tili, ham barcha yo‘nalishlar bo‘yicha kerakli adabiyotlarni yozish, izohli lug‘atlar yaratish ehtiyoji ortib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligi terminlarining, xususan bog‘dorchilik terminlarining o‘zbek va xorijiy tillardagi mazmuni bilan bog‘liq masalalarni hal etish nuqtayi nazaridan davlatlararo aloqalarni, xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish va xorijiy sarmoyalarni jalb etishda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasida bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4246-sonli qaror. Toshkent sh., 2019-yil, 20-mart.
2. Виноградов В.В. Основные этапы истории русского языка // Избранные труды. История русского литературного языка. – М.,1978. – С. 10-64; Винокур Г.О. История русского литературного языка. – М., 2010. – 192 с.; Реформатский А.А. Как работать над терминологией. Основы и методы. – М., 1968. – 138с.
3. Шелов С.Д. Еще раз об определении понятия «термин» // Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского. Лингвистика, 2010. № 4 (2). – С. 795-799.
4. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969; Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских нарсчий. Санкпетербург.: тип, Императорский Академии Наук, Т. I. -1869. - 810 Т. II. – 1871 - 415 с; Мурзаев Э. Словарь народных географических терминов. -М.; Мысль, 1959,- 633 с; Монгольско-русско-английский словарь. (под ред. Цэдэдамбы Д) -У.Батор, 1986,- 435 с
5. Мирзаев Н.Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. - Т.: Фан, 1991 - б118.
6. Холназаров С. Ёш деҳқон энциклопедик луғати – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2018.
7. М. Хасаний, Қадимий боғдорчиликнинг изоҳли луғати - Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
8. Мухаммадхонов С., Жонгузаров Ф. – Ўсимликшуносликка оид русча-ўзбекча изоҳли луғат. - Тошкент: Ўзбекистон 1986.
9. Адаменко П. – Англо-русский сельскохозайственный словарь – Русский язык Москва 1983
10. .Раҳимбоев Ф.М., Азимхўжаев Х, Гидротехникадан русча-ўзбекча луғат, - Т.: Ўқитувчи, 1993, б 96.
11. Хакасско-русский словарь, - М.: Изд.иност.и национ.словарей, 1953. - 487.
12. Усмонов О., Дониёров Р. Русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. 2-нашри. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – б 424.
13. Жабборов Х., Деҳқончилик сўзларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши: Насаф, 2016. –б 296.

Kibriyo SULTONOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti



BOTANIK TERMINLARNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada botanik terminlarning tarixiy jarayonlarda qay darajada faol bo'lganligi yoritilgan bo'lib, buyuk allomalarimizning asarlarida botanik terminlardan nima maqsadda foydalanilganligi tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: *termin, o'simliklar, dorivorlik xususiyatlari, fitonemik leksemalar, shaxs xususiyatlari, o'xshatishlar.*

Annotation: this article describes the extent to which botanical terms were active in historical processes, and explained the purpose of using botanical terms in the works of our great scholars.

Key words: *term, plants, medicinal properties, phytonemic lexemes, personal characteristics, analogies.*

Аннотация: в данной статье описывается степень активности ботанических терминов в исторических процессах, а также поясняется цель использования ботанических терминов в трудах наших великих учёных.

Ключевые слова: *термин, растения, лечебные свойства, фитонемические лексемы, личностные характеристики, аналогии.*

Jahonda ilmiy faoliyatning rivojlanishi tilshunoslikda terminologiyaning alohida yo'nalish sifatida shakllanishi va taraqqiy etishini ta'minladi. Milliy terminologiyalar va terminografiyalarning rivojlanishi ham shu bilan asoslanadi. Zamonaviy jamiyatda terminlar va terminologiya ilmiy muloqot jarayonida ma'lumot manbai, turli sohalarni egallashda mayoq vazifasini bajaradi. Ilmiy-texnik jarayonni jadallashtirishda ham terminlarning ahamiyati yuqori. Dunyo tilshunosligida terminlar va terminologiya har bir fan tarmog'ining yuragi sifatida taraqqiy etmoqda. O'simlikni ifodalovchi leksikaning katta qismini qamrab oluvchi botanik terminlarning shakllanishi ham eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Zero, insoniyat mavjud ekan, uning hayot tarzi, aytish mumkinki, yashab qolish sharti bevosita o'simliklar olami bilan bog'liq bo'lib kelgan. Botanikaning "o'simliklar to'g'risidagi fanlar majmui" ekanligini hisobga olganda soha bilan bog'liq qarashlar, izlanishlar bir necha asrlik tarixga ega ekanligi haqida xulosaga kelish mumkin. Botanik terminlarning o'zbek tilida paydo bo'lishi, taraqqiyot bosqichlari, leksik-semantik jihatlaridagi o'zgarishlarni tizimlashtirish, adabiy til me'yorlariga mosligini tekshirish milliy tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb masalalardandir.

O'zbek tilidagi eng qadimgi yozma yodgorliklar hisoblanadigan O'rxun-Enasoy yodgorliklarida ham botanik terminlarni uchratish mumkin. Masalan, "Ta'birnoma" nomi bilan ham mashhur bo'lgan "Irq bitigi"da shunday satrlar bor: "Bir tabulg'a yuz bo'ldi, Yuz tabulg'a ming bo'ldi, Ming tabulg'a tuman bo'ldi, deyishadi" . Iqtibosda keltirilgan "tabulg'a" qizil po'stloqli daraxt ma'nosini anglatadi. Asar yaratilgan davrda (IX asr) bu so'z keng iste'molda bo'lgan. Shu sababli uning ma'nosini aniqlashtiruvchi biror so'z keltirilmagan. Kundalik ehtiyoj buyumlarining biror fan sohasida termin vazifasini bajarishi mumkinligini hisobga olganda, satrlarda "tabulg'a" so'ziga izoh keltirilmaganligi me'yoriy holat sanaladi. "Ta'birnoma"da tabulg'a miqdorining oshib borishini kimdir tushida ko'rsa, hayotida yaxshi tomonga o'zgarish bo'lishi bashorat qilingan. Chunki "tabulg'a" termini orqali ifodalangan daraxt juda mustahkam bo'lib, undan o'q va yoy ham tayyorlash mumkin bo'lgan . Bu asarda, shuningdek, tariq, sandal daraxti, yong'oq kabi fitonimik leksemalar qo'llangan. Bu so'zlarning aksariyatiga ularni tushida ko'rgan insonni kelajakda nimalar kutib turganligi haqida ma'lumot berish uchun murojaat qilingan.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham botanik terminlar so'zlar izohini beruvchi matnlar, izohni dalillash maqsadida keltirilgan qo'shiq, maqol kabi badiiy parchalar tarkibida faol qo'llanilgan. Asarning indeks-lug'atida andiz (rosan, yerdan qazib olinadigan o'simlik ildizi - devyasil), arpa, arpag'an (bir xil o'simlik – myatlik, martuk), aavun (daraxt), o'rik kabi yuzlab botanik termin maqomidagi so'zlar keltirilgan . Bu til birliklarining aksariyati zamonaviy leksikada ham o'z shaklini saqlagan holda mavjud (arpa, o'rik kabilar). Ammo arpag'an, andiz, aavun kabi terminlar hozirgi o'zbek leksikasida uchramaydi. Shu o'rinda, "Devonu lug'otit turk" asarida botanik terminlar derivatsion jarayonlarda asos vazifasini bajargan o'rinlar ham ko'zga tashlanadi. Bunday so'z yasalishlarining ba'zilari hozirgi o'zbek tili uchun nome'yoriy hisoblanadi (arpalamoq, o'riklamoq kabilar). Umuman olganda, ilk yozma manbalarda botanik terminlarning so'z yasalish

jarayonida faol qo‘llanishi ularning nutqiy chastotasi yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi. Shu o‘rinda M.Koshg‘ariy asarida so‘zlarning XI asrda ma’lum bo‘lgan barcha ma’nolari izohlanganligini hisobga olganda, botanik terminlarning konnotativ ma’nolari ham keng qo‘llangan, deyishimiz mumkin. “Fitonimik nominatsiyalar sohasida motivatsiyasiz o‘xshashliklar sezilarli bo‘lib, ular fitoobyektning tanlangan xususiyati odamning har qanday sifatini nomlash uchun shartli ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi” . Ma’lum bo‘ladiki, botanik terminlar ko‘chma ma’noda qo‘llangan o‘rinlarda asosan shaxs xususiyatlari ifodalanadi. “Devonu lug‘otit turk” asarida badiiy parchalar ko‘pligi botanik terminlarning turli ma’nolarda qo‘llanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Ta’kidlash lozimki, o‘simliklar, ularning o‘ziga xos jihatlari, inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyati haqida qomusiy olimlarimizning asarlarida muhim ma’lumotlar mavjud. Aynan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy kabi olimlarning asarlarida o‘simliklar va ular bilan bog‘liq jihatlar termin o‘laroq tilga olingan edi, deyishimiz mumkin. Zero, qomusiy olimlar, xususan, Ibn Sino va Abu Bakr ar-Roziylar o‘simliklarning tibbiyot bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarini batafsil sharhladilar. Inson salomatligi uchun foydali yoki aksincha, zararli xususiyatlarini ochib berdilar. Fanlarni ma’lum bir tartibda soha va yo‘nalishlarga ajratish, ya’ni ularni tasniflash tabiatshunoslikning muhim masalalaridan biri sanalib, uni yechish uchun muayyan falsafiy nuqtayi nazardan yondashishni talab qiladi. Sharq mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Ibn Sino ham bu masala bilan jiddiy shug‘ullangan, ma’lum qoidaga asoslangan o‘ziga xos tasnif tuzganligi e’tirof etiladi. “Ibn Sinoning tabobat fani sohasidagi xizmatlari ayniqsa buyukdir. U o‘z asarlarida eng qadimgi fanlardan biri bo‘lgan tibbiyotning o‘zidan oldingi ming yillik taraqqiyotiga yakun yasabgina qolmay, bu fanning keyingi asrlarda erishgan barcha yutuqlarini oldindan ko‘ra bildi” . Ibn Sino asarlarida X-XI asrlar atrofida mamlakatimizda o‘sgan va inson salomatligi uchun foydali bo‘lgan o‘simliklar nomi alifbo tartibida keltirilgan va ularning xususiyatlari izohlangan. Bularning hammasi biologiya fani rivojiga qo‘shilgan ulkan hissa edi, albatta. Masalan, afsantin (erman) o‘simligining kakligo‘tiga o‘xshagan o‘t ekanligi, achchiqlik, burishtiruvchilik va o‘tkir mazasi borligi, xurosoniy va mashriqiy turlari mavjudligi haqida batafsil yoritilgan . Shuningdek, o‘simlikning tabiati, ta’siri va xossalari, inson organizmining turli qismlariga ta’siri ochib berilgan. Xuddi shuningdek, uhhuvon (moychechak), ambarboris (zirk, qoraqand), iriso (gulsapsar), afyun (qoradori), ijjos (olxo‘ri), aruzz (sholi, guruch), banafsaj (gunafsha), basal (piyoz), birtoniqiy (gultojixo‘roz), baqla hamqo (semizo‘t), javz (yong‘oq), zanjabil ul-kilob (kelin tili), zi’baq (simob), zoj (zoq), zu’rur (do‘lana), hurf (taratizak), harmal (isiriq), himmas (no‘xat), kundus, kammun (zira) kabi yuzlab o‘simliklar va ularning xususiyatlari muallif tomonidan batafsil izohlanganligi asarning ilmiylik qiymatini oshiradi. Asarda axloq, madaniyat, shaxsiy gigiyena kabi masalalarga ham to‘xtalib o‘tilganligi, inson salomatligiga ilmiy yondashuvning shakllanganligi alohida ahamiyatga ega. Chunki “Tib qonunlari”da botanik termin sifatida talqin qilinadigan o‘simlik nomlari “ba’zi o‘rinlarda turkiy tilda, ba’zi o‘rinlarda uning boshqa tildagi muqobili keltiriladi. Ba’zi o‘rinlarda esa bir o‘simlikning ikki nomi qayd etilgan holda uning dorivorlik xususiyatlari yoritiladi” .

Abu Rayhon Beruniyning tadqiqotlari X-XI asrlar ilm-fanida tub burilishlarga sabab bo‘ldi. Olimning ilmiy qarashlari geografiya, fizika, kimyo, astronomiya, biologiya kabi fanlarning taraqqiy etishiga xizmat qildi. Uning “Hindiston”, “Geodeziya”, “Minerologiya”, “Saydana” kabi asarlaridan biologiyaga oid muhim ma’lumotlar o‘rin oldi. Jumladan, “Kitob as-Saydana fit-tib” kitobida dorivor o‘simliklarning bir nechta turlari sharhlangan, ularning aynan qayerlarda uchrashi, inson salomatligiga qanday ta’sir qilishi izohlangan. Mazkur asarda ta’rifi keltirilgan 4500 dan ortiq dori-darmonning hosil bo‘lishida 700 dan ortiq o‘simliklarning foydalanilishi haqida ma’lumotlar qayd etiladi. O‘zbek leksikasida mavjud bo‘lgan va nutqiy jarayonlarda qo‘llanadigan botanik terminlar tadqiqi, ularning grammatik, leksik, semantik va etimologik xususiyatlarini aniqlashda bu kabi asarlarga tayanish maqsadga muvofiq, albatta. Ta’kidlash lozimki, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi qomusiy olimlarning asarlarida nafaqat fitonimik leksika, balki o‘simliklarning xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan botanik terminlarning ham qo‘llanishi ularning ilmiy ahamiyatini oshiradi. Olim o‘z asarlarida botanik terminlarni qo‘llar ekan, ularning inson salomatligini mustahkamlashdagi o‘rniga alohida to‘xtaladi. Jumladan, “Saydana” dorishunoslikka bag‘ishlangan asar hisoblanadi va u inson salomatligida alohida ahamiyatga ega. “Olimning bu asari Ibn Sinoning “Tib qonunlari”dan keskin farq qiladi. Ibn Sino dorivor vositalarning tarkibini, xususiyatlarini hamda kasallikka ta’sirini, dorivor vositalardan dorinoma bo‘yicha malham, ichimlik, dori tayyorlashni aniq yozgan” . Olim asarlarida keltirilgan ma’lumotlar nafaqat kasallikka chalingandan keyin davolash jarayonida, balki organizmning kasallikka chalinishining oldini olish, ya’ni profilaktik jihatdan ham muhim ekanligini aytib o‘tish mumkin. Ta’kidlash lozimki, Beruniy bu asarida dorivor o‘simliklarning arabcha, forscha, turkcha nomlarini keltiradiki, bu terminologiyada ham ahamiyatli ishlar sirasiga kirar edi. Bu olim va asarlarining lingvistik ahamiyatini belgilab beradi.

Alisher Navoiy buyuk mutafakkir sifatida bir nechta sohalarga oid qimmatli ma’lumotlarni avlodlarga meros qilib qoldirganligi mutaxassislar tomonidan

o‘rganilgan va hamon tadqiq qilinmoqda. Navoiy ijodida botanik terminlar ham turli xil maqsadlarda qo‘llanganligi shubhasiz. Shoir asarlarida fitonimlar turli badiiy san’atlarni hosil qilish, epik asarlarda peyzaj hosil qilishda faol qo‘llangan. Shu bilan birga o‘simlik nomlarining ba’zilari aynan botanik termin ma’nosida qo‘llanishi ham Navoiy ijodida uchraydigan hodisadir. Bunda o‘simliklarning dorivorlik xususiyatlari urg‘ulanadi, albatta. Jumladan, buyuk shoirning “Meni men istagan...” g‘azalida zamonaviy tibbiyotda ham inson salomatligiga ijobiy ta’sir qiluvchi isiriq so‘zining arxaik shaklidan foydalanilgan:

“...Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko‘z,

Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas” .

Baytning mazmuniga ko‘ra, “Oshiq biror kun yor mehr ko‘rsatib qolsa, ko‘z tegmasligi uchun muhabbat tuxumini isiriq urug‘lari o‘rnida qo‘llashni maqsad qiladi”. Ma’lum bo‘ladiki, shoir xalqimizda mavjud bo‘lgan ko‘z tegmasligi (aslida profilaktik maqsadlarda) maqsadida isiriq o‘simligi donalarini tutatish odati tasviridan g‘azal baytlarida unumli foydalangan. Shubhasiz, Navoiy ijodida botanik terminlarning qo‘llanishi g‘azallar bilangina kifoyalanib qolmaydi. O‘zbek botanika terminologiyasining tarixi haqida gap ketganda, albatta, Alisher Navoiy davrida tabobat ilmi yanada taraqqiy etganligini qayd etish joiz. Buyuk shoir “Mahbub ul-qulub” asarida ham botanika, sog‘liqni saqlash masalalari va tabiblar haqida juda ko‘p mulohaza yuritgan. “Navoiy tili leksikasida ilm-fan sohalariga oid terminlar, kasb-hunar, san’at, etnografiyaga oid so‘z-terminlar, maqollar va frazeologik iboralar... benihoyat ko`pdir” , deb yozgan edi S.Ibrohimov. Bu jarayonni tabiiy hol sifatida qabul qilish lozim, chunki har bir tilning lug‘at tarkibi shu tilning taraqqiyot darajasini ko‘rsatuvchi birinchi omildir. Haqiqatan, Navoiy asarlari o‘rganilar ekan, ularda o‘nlab fan va ishlab chiqarish sohalariga oid terminlar qo‘llanganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, uning sara ijod namunalarida botanika fani bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar ham ko‘plab uchraydi. Ma’lum bo‘ladiki, Alisher Navoiy asarlarida o‘simlik nomlari, avvalo, badiiy ijod talabi bilan, ba’zi o‘rinlarda termin ma’nosida qo‘llangan. O‘simlik va uning xususiyatlari bilan aloqador so‘zlar termin ma’nosida qo‘llanishi shoirning nasriy asarlarida ko‘proq uchraydi.

Badiiy ijodning tilshunoslik, shuningdek, tabiatshunoslik kabi tabiiy fanlar bilan hamkorligi masalasida fikr yuritilar ekan, Z.M.Boburning “Boburnoma” asari ko‘z oldimizga keladi. Bizga ma’lumki, “Boburnoma” nafaqat shoh va shoir haqidagi avtobiografik asar, balki mamlakatimiz, Xuroson va Hindiston mamlakatlari ekologiyasi, o‘simlik va hayvonot olami to‘g‘risida ma’lumot beruvchi qimmatli ilmiy yodgorlik hamdir. Boburning o‘zi bo‘lgan har bir mamlakatning o‘simlik va hayvonot olami, ob-havosini qiyoslagani, ular orasidagi umumiyliklar va farqlarni aniqlagani ijodkor haqidagi tadqiqotlarda qayd etiladi. Shu sabab “Boburnoma”da tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan o‘simlik turlarining nihoyatda ko‘p uchrashi ajablanarli hol emas, albatta. Mamlakatimiz tarixining muhim davri bo‘lgan o‘rta asrlar haqida ma’lumot beruvchi bu asarda ja’mun (qalampirmunchoq), beyr (anjir), tindu (safsan mevasi), kunor (chilonjiyda), kaval kakri (nilufar), kanyer (sambitgul), badhal (non daraxti), noranj (apelsin) kabi fitonimlarning keltirilishi fikrimizni dalillaydi . Keltirilgan fitonimlarning aksariyati arxaik xarakterga ega. Chunki “Boburnoma” ham zamon, ham makon bilan farqlanadi. Ba’zi fitonimik leksemalarning ingliz tilidagi zamonaviy muqobili “Boburnoma”dagi variantga yaqin ekanligi (masalan, orange - noranj) asarning terminologiyaga ham ta’siri ulkan ekanligini ko‘rsatadi. Asarda botanik terminlar, ta’kidlanganidek, shunchaki vaziyat taqozosi bilan tasvirlanishi kerak bo‘lgan predmet ma’nosida qo‘llangan o‘rinlar ham mavjud, albatta. Ammo ba’zi o‘simlik nomlariga ijodkorning olim sifatida yondashishi ham uchraydigan o‘rinlar borki, ular nafaqat tilshunoslarni, balki tabiatshunoslik, etnografiya, geografiya kabi soha mutaxassislarini ham birdek qiziqtiradi. Ijodkor yangi hududlarga kirib borar ekan, o‘sha joylarning hayvonot va nabotot olamini mamlakatimizniki bilan beixtiyor qiyoslagan.

Z.M.Bobur haqida fikr yuritilar ekan, uning hassos shoir bo‘lganligini ham unutmaslik lozim. Shu sababli uning asarlarida botanik terminlar shunchaki o‘simlik va uning xususiyatini ifodalovchi til birligi vazifasini bajarmaydi. She’riy asarlarida Bobur fitonimlarning konnotativ ma’nolariga ko‘proq murojaat qiladi. Bunda o‘simliklarga xos bo‘lgan xususiyatlar shaxslarga ko‘chiriladi. Fitonimlarning tashqi tomoni (ko‘rinishi, shakl-shamoyili) asosiy o‘rin tutadi. Masalan, “Lola” g‘azalida lolaning shunday tasvirini chizadiki, zamonaviy botanik olimlar bu o‘simlikning hozirgacha bo‘lgan evolutsiyasini bemalol g‘azal matni bilan qiyoslashlari mumkin. Quyidagi misralar ma’nosi fikrimizni dalillaydi:

“Xating aro uzoring sabza ichinda lola,

Ul chashmi purxumoring loladag‘i g‘azola” .

Yorning yuzidagi tuklar endigina sabza urgan maysaga qiyoslanmoqda. Yuz esa lolaga tashbehlangan. Yuzdagi mayin tuklar va chehra birgalikda yam-yashil maysa ustida o‘sgan lolaga o‘xshatilgan. Ma’lum bo‘ladiki, XV asrda ham lola va sog‘lom inson yuzining ranglari o‘xshash bo‘lgan. Bu kabi satrlarni shoh va shoir ijodida ko‘plab uchratish mumkin. Shunday ekan, Z.M.Boburni bir nechta sohalarga taalluqli terminlarning shakllanishi va taraqqiy etishiga, tizimlashishiga ulkan hissa qo‘shgan olim sifatida qayd etish xato bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 12 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б.117.
2. Irq bitigi
3. “Boburnoma”
4. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. / Ғ.Абдураҳмонов ва С.Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – 550 б.
5. Salimova Z. Turk tilida zoonim va fitonimlar orqali inson qiyofasiga murojaatning o‘ziga xosliklari // Oriental Renaissance: Innovative, educational and social sciences. Volume 2, Issue 2. 2022. – P.243-252.
6. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари: уч жилдлик сайланма, 1-жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.5. – 303 б.
7. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари: уч жилдлик сайланма, 1-жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.186. – 303 б.
8. Avezova Y. “Tib qonunlari”da fitonimlar talqini // Central Asian academic journal of scientific research. Volume 2, Issue 5, 2022. – P.811-816.
9. Saidov Y., Bahromova G. O‘zbek tili fitonimik leksikasining shakllanishi, manbalari va taraqqiyoti // “Innovative achievements in science”, ЧГИК. 2023. – P.7-11.
10. Boboyeva Z. Abu Rayhon Beruniy asarlarining tibbiy ta’limdagi ahamiyati // “Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o‘rni” nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, TTA. 2022. 360-361-bet.
11. Navoiy asarlari
12. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.16.
13. Bobur she’rlari to‘plami



Mirzohid MUHAMMADALIYEV,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

ZOOPOREYONIMLAR XUSUSIDA

Annotatsiya: hayvon nomlari bilan atalgan transport vositalari zooporeyonimlar, ularning nomlanish xususiyatlari va guruhlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *zoonim, zooporeyonim, jaguar, ram.*

Annotation: vehicles named after animals, zooporonym, their naming features and groups are given information.

Key words: *zoonym, zooporenym, jaguar, ram.*

Аннотация: даны сведения о транспортных средствах, названных в честь животных, зоопорейоним , их наименованиях и группах.

Ключевые слова: *зооним, зоопорейоним, ягуар, рам.*

Zoonim – hayvon va parrandalarning atoqli nomi. Masalan, Boychibor (Alpomishning oti), G’irot (Go’ro’g’lining oti) kabi. Demak, zoo – hayvon, parranda demak. Hayvon va parrandalarning nomi bilan atagan transport vositalari zooporeyonimlar deb yuritiladi.

Kompaniyalar yangi modelga nom berayotganda, uning uchun o‘ziga xos nom topish uchun ko‘p kuch sarflaydilar. Ba’zilari taniqli odamlar sharafiga nomlangan (Ferrary Enzo, Lotus Elisa, Dino). Bundan tashqari, ba’zilari (Ferrary California, Chevrolet Malibu, Alfa Romeo Montreal) joy nomlari bilan ataladi. Insonlarning avtomobillari va tezkor transport vositalari uchun birinchi ilhom yaguar kabi tezkor hayvonlar edi. Modellarni nomlashdagi bu usullar bir muncha vaqtdan beri qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy dunyoda, nomlash usullari o‘zgarib, hayvonot dunyosini ortda qoldiradigan kompaniyalar ko‘payib bormoqda. Ular o‘zlarining modellarini belgilashda alifbo, raqamli tizimni o‘ylab topishdi.

Mashinalarni nomlashda hayvonlar nomlaridan foydalanilyapti, hayvon nomlarini tanlashda o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda tanlanadi:

1) mashinaning tashqi ko‘rinishi o‘sha tanlangan hayvonga o‘xshash bo‘lgani uchun: Hyndai Tiburon, Nissen Juke, Infiniti FX, Dodge Super Bee, Volkswagen Beetle, AMC Marlin, Chevy Bison, AMT Piranha, Fiat Panda va boshqalar;

2) hayvonlarning tezkorligi (asosan, sport mashinalariga) uchun: Jaguar, Volkswagen Rabbit, Colani Whippet, Mercury Cougar, Plymouth Barracuda, Stutz Blackhawk, AMC Eagle, Chevrolet Cheetah;

3) kuchli va chidamliligi uchun: Sunbeam Tiger, Sunbeam Tiger, Ram, Ford Bronco, Ford Mustang, Peugeot Lion, Ford Falcon, Buick Wildcat, Terrier 1172 Formula, Riley Kestrel, Mitsubishi Colt;

4) chiroyli va go‘zal ko‘rinishi uchun: Plymouth Road Runner, Chevy Corvette Stingray, Datsun Bluebird, Nissen Bluebird, Pontiac Sunbird, Hupmobile Skylark, Reliant Robin, Pontiac Sunbird, Buick Skylark, Triumph Stag;

5) hayvon nomi bir mashinani yaratishga ilhomlantirgani uchun: Mako Shark, Hilman Husky, Simca Aronde, Studebaker Hawk, AC Greyhound;

6) hayvonning katta-kichiklik hajmiga ko‘ra: Volkswagen Beetle, Pontiac Firefly, Perodua Kelesa , Datsun Honey Bee;

7) kino, film, mif va boshqa asarlardagi qahramonlardan ilhomlanib: Citroen Nemo Concetto, Volkswagen Amarok, Vauxhall Wyvern, Kaiser Dragon, TVR Chimaera.

Qush nomlari bilan atalgan mashina nomlari

AMC Eagle – 1987-yilda Amerika Motors korporatsiyasi Chrysler tomonidan qabul qilindi va Eagle (burgut)ni model nomidan brend nomiga aylantirdi.

Brasinca Uirapuru – Uirapure Janubiy Amerika qushidir.

Buick Skylark – skylark qush turlaridan biri bo‘lib, Buickning 60-yillar va 70-yillarda ixcham avtomobillarga nozik bir noziklik kiritish istagini namoyish etadi.

Hupmobile Skylark

Ford Bantam – uning kattaligi ularning nomida aks ettirilgan. Bantam – bu qushlarning zoti (asosan tovuq, ba’zan o‘rdak) o‘zi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan boshqa zotdan kichikroq.

Ford Falcon – zoologiyada Falkon atamasi ko‘plab yirtqich qushlarni o‘z ichiga oladi.

Humber Hawk – lochin (hawk) so‘zi qirg‘iy bo‘lmagan qushlarni, shu jumladan, baliq kalxini (o‘rdak) va o‘rdak kalxini tasvirlash uchun ishlatiladi.

Humber Snipe – (snipe) kichik umurtqasiz hayvonlarni qo‘lga olish uchun ideal bo‘lgan uzun nayzali, qisqa oyoqli suvda yuruvchi qushdir.

Kissel White Eagle – (white eagle) u oq dumli burgut nomi bilan bog‘liq, ammo u Amerikada uchramaydi.

Datsun Bluebird – model Bluebirds deb nomlangan kichik qushlarning yoqimli oilasi sharafiga nomlangan. 1982-yilda Nissen uchun Avstraliyaning chidamlilik chempionatida birinchi o‘rinni egallagan.

Nissen Bluebird – ko‘kqush (bluebird) 1957-yilda ishlatilgan, ko‘kqush qoraquloqlar oilasiga tegishli. Tog‘li, g‘arbiy va sharqiy deb aytilgan uchta turi mavjud.

Plymouth Road Runner – Roard Runner Amerika Qo‘shma Shtatlari janubida, Meksikada va Markaziy Amerikada uchraydigan kakkular oilasining a’zolari.

Pontiac Sunbird – Sunbird (quyosh qushlari) Afrika, Osiyo va Avstraliyaning bir qismida yashaydi va asosan nektar bilan oziqlanadi.

Reliant Robin – Robin qushlari erta bahorda uya quradigan va naslchilik mavsumi davomida kun bo‘yi qo‘shiq kuylashlari bilan mashhur.

Riley Kestrel – Kestrellar yirtqich qushlar bo‘lib, ular lochinlarning barcha turlari.

Simca Aronde – Aronde fransuzcha versiyasi bo‘lib, qaldirg‘och degan ma’noni bildiradi va dizayni qaldirg‘ochdan ilhomlanilgan.

Studebaker Hawk – qush nomi bilan atashdi va qirg‘iy ilhomlantirdi. Lochin (hawk) o‘rta va katta hajmdagi yirtqich qushlar uchun umumiy atama.

Studebaker Lark – lark – Alaudidae oilasiga mansub qushlar bo‘lib, asosan, Afrikada uchraydi.

Stutz Blackhawk – oddiy qora kalxat (blackhawk) Accipitridae oilasiga mansub qush bo‘lib, unga burgut, kalxat ham kiradi.

Suzuki Swift – swiftlarning 100dan ortiq turi mavjud, ammo ularning barchasi hasharotlar bilan oziqlanishi qayd etilgan.

Tayota Tercel – tersel lochinning har qanday turining erkagi.

Ilon nomlari bilan hosil qilingan mashina nomlari

Shelby Cobra – kobra o‘sha paytda muvaffaqiyatli poygachi va muhandislik ishqibozi bo‘lgan Kerrol Shelbi tomonidan ishlab chiqarilgan.

Dodge Viper – yangi modelni yaratish vaqtida ikkalasi ham Shelbi Kobradan ilhomlanishgan, Dodgeni yaratishga undagan modelni sharaflash uchun ilon nomi bilan atashgan.

Ford Mustang Cobra – birinchi mustang kobra 1993-yilda ishlab chiqarilgan.

Hasharot nomlari bilan atalgan mashina nomlari

Super Bee – nomi birinchi Dodge modellarida ishlatilgan. 60-yillarning cheklangan ishlab chiqarish modeli sifatida mavjud bo‘lgan, 2007-yilda ”Super Bee” nomi Dodge Charger bilan qaytdi. Bee ingliz tilidan tarjima qilganda ari ma’nosini anglatadi.

Hudson Hornet – ishlab chiqarish muddati yetti yil bo‘lgan, hornet – sariq yirikroq ari.

AMC Hornet

Dodge Hornet – bu mashina nomi hasharotlar nomi bilan atalgan, hali ham ishlab chiqarilayotgan avtomobil. Dodge Hornet 2022-yilning yozida dillerlik markazida paydo bo‘ldi.

Hudson Wasp – o‘rta o‘lchamdagi sedan sifatida

tasvirlanadi, u oldingi avtomashinalarga o‘xshash sport qobiliyatiga ega. Wasp Apocrita turkumiga mansub arilar.

Volkswagen Beetle – Volsvagen Type 1 o‘zining birinchi asl risolasida der kafer (nemischa) qo‘ng‘iz deb nomlangan.

Plymouth Cricket – cricket (gryllidae oilasiga mansub) dunyo bo‘ylab tarqalgan va sakrab yuruvchi hasharotlarning taxminan 24000 turidan biridir. 1970-yillarning boshida ishlab chiqarilgan bu mashina o‘zining nomini shovqinli kriket kabi jalb qilmadi.

Pontiac Firefly – uchuvchi hasharot nomi bilan atalgan Firefly hozirgacha sotilgan eng kichik Pontiac edi.

Datsun Honey Bee – 1976-yilda energiya inqirozi davrida, ixcham asalari (honey bee)larni taqdim etdi.

Dengizdagi hayvonlar ham transport vositalarining nomlari uchun tez-tez ishlatiladi hamda bu yerda baliq va boshqa turdagi dengiz jonzotlarining nomi bilan atalgan.

Hyndai Tiburon – tiburon ispan tilidan tarjima qilganda akula. Tashqi ko‘rinishi bilan ham akulaga o‘xshaydi.

Mako Shark – Shark (akula) Nyu-York Kolizeyida 1962-yilda 6-xalqaro avtomobil ko‘rgazmasida namoyish qilingan va avtomobil o‘shanda muvaffaqiyat qozongan.

Plymouth Barracuda – 1960-yillarning eng mashhur mashinalaridan biri bo‘lib, uning nomi juda mos keladi. Dengizdagi barrakudalar yirtqichlardir, shuning uchun Barracuda nomi bu mashina yo‘lida hukmronlik qiladigan tuyg‘uni uyg‘otadi.

Perodua Kelesa – Perodua – Malaziya avtomobil ishlab chiqaruvchisi, Kelisa esa Malaziya baliq turi nomi bilan atalgan.

Opel Manta – nemis ishlab chiqaruvchisi Opel tomonidan 1970-yildan 1988-yilgacha ikki avlodda ishlab chiqarilgan sport kupesi. Uning nomi manta nuridan kelib chiqqan.

AMC Marlin – Marlinlar o‘zining ajoyib tezligi bilan mashhur, shuning uchun mashinaga baliq nomi berilgan.

Citroen Nemo Concetto – ushbu mashina nomi “Finding Nemo” filmdagi Nemo baliqlari nomidan olingan.

AMT Piranha – mashhur o‘tkir tishli baliq nomi bilan atalgan, u haqiqiy ishlab chiqarish avtomobili emas. 1960-yillarning “The Man from U.N.C.L.E.” josuslik teleserialida ishlatilgan mashina edi.

Chevy Corvette Stingray – Stingayning ikkinchi avlodi Chevy Corvette edi. Wayning so‘zlariga ko‘ra, Stingray 1963-yilda taqdim etilgan. Bu mashina o‘zining silliq tuzilishi bilan o‘z nomini olgan nafis dengiz jonzotini esga olib keladi.

Hyundai Tiburon – ikki eshikli sport kupesi bo‘lib, 1977-yilda AQSHda ilk bor ko‘chaga chiqqan. Uning nomi ispancha akula so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, Tiburon dengiz yirtqichlariga o‘xshab tajovuzkor va kuchli bo‘lishi kerak edi. Tiburonning yumaloq, aerodinamik dizayni unga deyarli akulaga o‘xshash ko‘rinish beradi.

Mushuk nomlari bilan atalgan mashina nomlari

Chevrolet Cheetah – 1960-yilda Genral Motors tomonidan taqdim etilgan, quruqlikda eng tezkor hayvonlardan biri bo‘lgan gepard sharafiga nomlangan.

Jaguar – S.S Cars kompaniyasi 1935-yilda Jaguar brendi ostida o‘zining birinchi avtomobilini ishlab chiqardi.

Marta Bagheera – Bagheera nomi ”Jungle Book”ni ko‘rgan har bir kishiga tanish, uch o‘rindiqli ajoyib sport avtomobili bo‘lib, u o‘zining panter nomiga mos keladi.

Mercury Bobcat – 1975-1980-yillarda ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu nom Shimoliy Amerika, Meksika va boshqa mamlakatlardan topilgan bobcat nomidan olingan.

Mercury Cougar – 1967-yilda namoyish qilgan, bu klassik mashina o‘z nomini Shimoliy Amerikada topilgan pumalardan oladi.

Singer Gazelle – avtomobil Afrika va Osiyoda uchraydigan kichik va nafis antilopa sharafiga nomlangan. Gazelle sedan yoki kabriolet sifatida mavjud bo‘lgan o‘rta o‘lchamli avtomobil edi va o‘zining zamonaviy dizayni va silliq yurishi bilan mashhur edi.

Chevrolet Impala – mashhur impala Afrika antilopasi sharafiga nomlangan. Mashinaning logotipidagi hayvon ham impaladir.

Buick Wildcat – 1962-yilda ishlab chiqarilgan, nomidan ko‘rinib turibdiki, bu mashina yovvoyi mushuk sharafiga nomlangan.

Bowler Wildcat – u har qanday joyga bora oladigan mushuk. Bu mashina yo‘l tanlamas mexanika bilan jihozlangan bo‘lib, unga har qanday yerni zabt etishga yordam beradi.

Dodge Challenger Hellcat

Panther Six – Panter nomli Britaniya firmasi o‘ziga xos mashina ishlab chiqardi.

Seat Leon – Leon so‘zi ispanchadan Arslon deb tarjima qilingani uchun bu nozik ma’noda mushuk taxallusli mashina.

Peugeot Lion – Lion Peugeot brendi tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillarning mag‘rurligi, kuchi va sifatini ifodalaydi.

Nissan Leopard – 80-yillarning boshlarida Nissan hashamatli avtomobillar segmentiga kirmoqchi edi. Buning uchun avtomobil ishlab chiqaruvchisi haqiqiy leopardga o‘xshab ham ulug‘vor, ham kuchli bo‘lishi

uchun Nissan Leopardni yig‘di.

Nissen Leaf – bu elektr quvvati bilan ishlaydigan Leafning mushuklar bilan aloqasi yo‘q, faqat lion batareylari joylashgan.

Peugeot – asl Peugeot sher bugungi ekvivalentidan sezilarli farq qiladi, logotip uni to‘rtta panjasida yurgan holida tasvirlaydi.

Plymouth Prower

Ford Puma – 1997-yilda ishlab chiqarilgan, Puma ba’zan tog‘ sheri yoki puma deb ham ataladi.

Ford Cougar

Vauxhall Tigra

Volkswagen Tiguan – 2006-yilda namoyish qilgan, ”Tiguan” – bu yo‘lbars/uguanna zoti.

Sunbeam Tiger – 1964-yilda namoyish qilingan, Tiger o‘zining unutilmas nomi bilan mashhurdir.

Sunbeam Tiger – 50-yillar o’rtalarida ishlab chiqarilgan bo’lib, unga kompaniya ”Tiger” – yo‘lbars nomini berishgan.

Itlar nomlari bilan bog‘liq mashina nomlari

AC Greyhound – Shimoliy Amerika qirg‘oqlaridagi mashhur itlardan ilhomlangan nom.

Hilman Husky – o‘z nomini ilhomlantirgan husky itiga o‘xshab aqlli, ishonchli va sodiq.

Aston Martin Bulldog – britaniyalik supermashina konsepsiyasi uchun Bulldog juda mos edi.

Colani Whippet – tez, yumshoq va samarali, ixcham, yengil va murakkab bo‘lmagan sport avtomobili uchun ajoyib ilhom manbai bo‘lishi kerak, ammo ajablanarlisi shundaki, bu chaqqon wipper itning nomi avtomobilsozlik sohasida keng qo‘llanilmagan.

Ferrari Berlinetta Boxer – bu mashina nomidagi Boxer elementi boxer iti nomidan olingan.

Bedford Beagle – beagle itiga o‘xshab do‘stona va tajovuzkor Bedfor Beagle rasman Bedfor bayrog‘i ostida sotilgan yagona yengil avtomobil modeli edi.

Terrier 1172 Formula – Teriyer itlari qattiq va qat’iyatli, muvaffaqiyatli raqobat avtomobili uchun zarur bo‘lgan ideal xususiyatdir.

Rover – bu nom Buyuk Britaniyada uy hayvonlariga berilgan eng keng tarqalgan ismlardan biri.

Mifologiyada uchraydigan hayvon nomlari bilan bog‘liq mashina nomlari.

Ford Thunderbird – thunderbird (momaqaldiroq qushlari) Shimoliy Amerikada bir nechta mahalliy jamoalar tomonidan mifologik qushlarning bir turi sharafiga nomlangan.

Pontiac Firebird – Pontiakning eng mashhur avtomobili Firebird 1977-yilda suratga olingan ”Smokey and Bandit” filmida abadiylashtirildi.

Skoda Yeti – yeti dunyodagi eng mashhur kriptozoologik mavjudotdir.

Volkswagen Amarok – Amarok Inuit mifologiyasidagi afsonaviy bo‘ri sharafiga qo‘yilgan.

AMC Gremlin – Gremlin samolyotlar va avtomobillar kabi mashinalarning buzilishiga olib keladigan mayda, yaramas jonzot.

Vauxhall Wyvern – aksariyat mifologik manbalarga ko‘ra, vayver – faqat ikki oyog‘i bo‘lgan ajdaho.

Kaiser Dragon – an’anaviy ajdaho nomiga ega bo‘lgan avtomobil.

TVR Chimaera – Chimera yunon mifologiyasida paydo bo‘lgan eng dahshatli yirtqich hayvonlardan biri.

Ot nomlari bilan atalgan mashina nomlari

Ford Mustang – Ford tomonidan ishlab chiqarilgan Amerika avtomobillari seriyasidir. 1964-yildan uzluksiz ishlab chiqarilyapti. Mustang chopqir yovvoyi ot turidir.

Mitsubishi Colt – 1962-yilda ishlab chiqarilgan, Colt deb nomlashdi. Chunki, hayvon ixlosmandlari ikki yoshdan to‘rt yoshgacha bo‘lgan erkak otlarni shunday atashgan.

Ford Bronco – Bronco Shimoliy Amerikada pul tikiladigan yovvoyi otni anglatadi. Buning o‘rniga ular bu mashinaga yovvoyi ot kabi kuchli ekanligini taklif qilmoqchi bo‘lishdi.

Hayvon nomlaridan foydalanib mashina brendini nomlash

Jaguar (brend) – S.S Cars kompaniyasi 1935-yilda Jaguar brendi ostida o‘zining birinchi avtomobilini ishlab chiqardi.

Ram – hayvon nomlaridan nafaqat mashina nomlarini nomlashda, balki mashina brendini nomlash uchun ham ishlatilgan. Ram Dodge Ram avtomobillar qatoridan chiqargan bo‘lishi mumkin, ammo o‘zining rasmiy brendi nomi uchun ”Ram” (qo‘chqor) nomini saqlab qolishga qaror qildi.

Boshqa hayvon nomlari mashinalarni nomlash uchun ishlatilgan.

Fiat Panda – u mashhur katta panda ayig‘ining yuziga o‘xshasa-da, oq va qora rangdagi mayin shardan keyin Panda deb nomlangan.

Triumph Stag – italiyalik dizayner Jovanni Mishelotti kiyik modelini loyihalash uchun mas’ul edi. Kiyik (stag) so‘zi erkak kiyiklar ayniqsa, yetuk erkak kiyiklarni chaqirish uchun ishlatilgan.

Chevy Bison – 1977-1980-yillarda ishlab chiqarilgan, bu yuk mashinasi xuddi hayvonlarga o‘xshab og‘ir va katta. Bison – yovvoyi qoramol zoti.

Volkswagen Rabbit – (rabbits) quyonlar yoqimli va tez shu mashina kabi.

Volkswagen Fox – mashina 2003-yilda Braziliyada ishlab chiqarila boshlangan va Lotin Amerikasining eng mashhur avtomobillaridan biri. Fox – tulki.



Mohinur RAHIMOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
tayanch doktoranti
togayevamohinur@gmail.com

EKOLOGIK MATNLARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI VA ADEKVAT TARJIMA QILISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ekologik matnlarni tarjima qilishda duch keladigan bir qator muammolar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ularning yechimini topishda tarjimon turli xil tarjima qilish usullaridan foydalanishi mumkinligi yoritib o‘tilgan. Bundan tashqari adekvat tarjimaga erishish uchun tarjimonga qo‘yiladigan talablar ham sanab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *transliteratsiya, transkripsiya, modulyatsiya, amplifikatsiya, eliminatsiya, leksik kalkalash, transkodlash, diskriptiv izohlash.*

Аннотация: в этой статье изложены ряд проблем, с которыми сталкиваются переводчики при переводе экологических текстов, и подчеркивается, что при их решении переводчик может использовать различные методы перевода. Кроме того, перечислены требования, предъявляемые к переводчику для достижения адекватного перевода.

Ключевые слова: *транслитерация, транскрипция, модуляция, амплификация, элиминация, лексическое калькирование, транскодирование, дескриптивный перифраз.*

Annotation: this article outlines a number of problems encountered in translating environmental texts, and highlights how a translator can use a variety of translation techniques to solve them. In addition, the requirements for a translator to achieve an adequate translation are also listed.

Key words: *transliteration, transcription, modulation, amplification, elimination, lexical tracing, transcoding, descriptive periphrasis.*

Kirish. Bugungi kunda dolzarb ekologik katastrofalar, jumladan, global isish, atmosferaning ifloslanishi, ozon qatlami yemirilishi kabi atrof-muhit muammolari va ularni bartaraf etish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Jahon miqyosida ekologiyaga oid innovatsion g‘oyalar, texnika va kashfiyotlar yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish usullari hisoblanadi. Shu boisdan, ularni hayotga tatbiq etish va ushbu g‘oyalar tatbiq etilgan matnlarni adekvat tarjima qilish orqali atrof-muhit masalalariga yechim topish mumkin. Ekologik matnlarni tarjima qilish tarjimonlardan ekologiya, iqlim o‘zgarishi, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish bilan bog‘liq tushunchalar va bilimga alohida e’tibor berishni talab qiladi. Bundan tashqari, ekologik matnlarni tarjima qilinayotgan tilda maxsus terminlar va konseptual asoslar mavjud yoki mavjud emasligiga hamda asl matnning ma’nosi saqlanib qolishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Tarjimonlar ekologik matnlarni tarjima qilish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga, chunonchi, terminlar, metaforali birikmalar hamda madaniy farqlarga duch kelishmoqda. Ushbu holatda tarjimon matnning asl ma’nosini auditoriyaga to‘g‘ri yetkazish uchun undan ekologik bilim ham talab etiladi. Ingliz tilidagi ekologik matnlarni rus tili yoxud o‘zbek tiliga tarjima qilishda eng katta qiyinchilik maxsus terminologik lug‘atlarning yetishmovchiligidir [1:11].

Ekologiyaga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, lug‘at va ma’lumotlar asosan, ingliz va rus tillarida yaratilganligi bois, ushbu bazalarni tarjima qilishda uslubiy noaniqliklar, terminlarning qo‘llanilishi bilan xatolar, darslik va o‘quv qo‘llanmalariga noaniqlik bilan yondashuv, ekologiya sohasida keng qamrovli tadqiqotlar zarurligini ko‘rsatmoqda. Darhaqiqat, “fan-texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy hayotdagi jiddiy o‘zgarishlarni tilda ifodalash zarurati tufayli yangi atamalar paydo bo‘lmoqda”. Har bir sohadagi bunday atamalarni ilmiy tahlil qilish, ularni tartibga solish terminologiyaning asosiy vazifasidir [2:7].

Ekologik atamalarni tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar va noaniqliklarga duch kelamiz:

Ekologik terminlarning asosiy qismi ingliz tilidan rus tiliga va so‘ngra o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinadi va shu o‘rinda adekvat tarjimaga erishish uchun ularni soddalashtirish va muqobil tarjimasini ishlatish zarur: ecological food chain-ekologik oziq-ovqat zanjiri, ecologically clean fuel-ekologik toza yoqilg‘i, ecological condition optimization-ekologik vaziyatni optimallashtirish, ecosystem upper tier-ekotizimning yuqori qatlami, ecosystem water lift construction-ekotizimli suv liftining qurilishi, water resource balance-suv resurslari balansi, water saving technology- suvni tejash texnologiyasi, air density-havo zichligi, air mass-havo massasi, air humidity-havo namligi, polar air-qutbli havo, equatorial air-ekvatorial

havo, tropical air-tropik havo, sharp continental air-keskin kontinental havo [3:15].

Ekologik atamalarning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlaridan biri shundaki, ular ko‘pincha birikma so‘zlar va birikma atamalarni (ikki komponentli, uch komponentli, to‘rt komponentli) o‘z ichiga oladi. Xo‘sh, bugungi tilshunoslar ekologik nomlarni tarjima qilishda qanday usullarni qo‘llashyapti? Quyidagi toifalar tadqiqotchilarni o‘z ichiga oladi:

So‘zma so‘z tarjima qilish: ushbu tarjima uslubidan foydalanib, ekologik nomlarni yoki terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qilinganda, uning semantik va stilistik ma’nosi saqlanib qoladi:

- Ecotoxicology- rus va o‘zbek tillarida ekotoksikologiya deb tarjima qilinib, zararli birikmalar ekotizimlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini hamda ular butun biosfera bo‘ylab qay holatda aylanishini tekshiruvchi toksikologiya bo‘limi.
- Ekotexnologiya- ekologik barqarorlikni oshirish va salbiy ekologik oqibatlarni oldini olish uchun mo‘ljallangan faoliyat, mahsulotlar va xizmatlarni o‘rganish sohasi.

Muqobil so‘z yoki ekvivalentini topib tarjima qilish: ushbu usulda so‘zning asl ma’nosi saqlanib qolgan holda qo‘shimcha qo‘shish orqali tarjima qilinadi. Jumladan, environmentalist- (o‘zb. ekolog) atrof-muhit masalalari bilan shug‘ullanuvchi ekspert.

- Ecoinnovation- (o‘zb. ekoinnovatsiya) ekologiya sohasida innovatsion jarayonlar.

Transliteratsiya va transkripsiya usuli: xorijiy ekologik terminlarni tarjima qilishda asosan transliteratsiya va transkripsiya usullaridan keng foydalaniladi, boisi ushbu usullarda metonimik va metaforik ma’no ko‘chirish holati ekologik matnlarni chuqurroq yoritib berishga xizmat qiladi:

- Chunonchi, xavfli makonlar, ekologik ofatlar va portlashlar kuzatilgan joy nomlar uchun toponimlar sifatida, Chernobil, Fukusima, Nagasaki, Odessa.
- Dovullar, tayfunlar va sunamilarning nomlari: Sandy (Gaiti), Typhon Haiyan (Filippin), Ketrin to'foni (AQSh) va Hind okeanidagi sunami [4:104].

Ingliz, rus va o‘zbek tillarida ekologik terminlarni tarjima qilishda leksik kalkalash usuli keng tarqalgan. Masalan, o’zbek tilidagi “qishloq xo’jaligi” so’z birikmasi rus tiliga “сельскохозяйственный, ingliz tiliga esa “agricultural” deb tarjima qilinadi. Bundan tashqari semi-kalkalash usulidan ham foydalaniladi: “mikro-to’lqinli” sifat so‘z turkumiga tegishli birikma rus tiliga “микроволновый” (ikki so‘z, mikroto‘lqin radiatsiyasi qo‘shilishidan), ingliz tiliga, “microwave” ya’ni micro o‘zlashma, wave sof ingliz tilidan kelib chiqqan so‘zlarning birlashuvidan tashkil topgan so‘z hisoblanadi [5].

N.S.Rudenko ixtisoslashmagan matnlardagi ekologik atamalarni ko‘rib chiqib, quyidagi tarjima usullarini aniqlaydi:

- **Modulyatsiya**: The disaster killed an unkown number of people – estimates for deaths from radiation exposure range from dozens to thousands – Tabiiy ofat qanchadan qancha odamlarning hayotiga zomin bo’ldi, radiatsiya ta’siridan halok bo’lganlar soni o’ndan minglab odamgacha yetdi.
- **Amplifikatsiya** (yoki terminni qo‘shimcha kontekstli tushuntirishini o‘z ichiga oladi): The torrent of toxic sludge devastating tracts of western Hungary- G’arbiy Vengriya hududini zaharlaydigan zaharli loy oqimi.
- **Eliminatsiya** (tarjima jarayonida so‘z tushirib qoldirish orqali tarjima qilish): Cities – urban heat islands on average 5C and 10C hotter than the surrounding countryside- Atrofdagidan o’rtacha 5 va ba’zan 10 daraja issiq bo’lgan shaharlar.
- **Leksik kalkalash:** In the past decade alone, it has been accosted by Nato bombs, oil spills and cyanide poisoning - So‘nggi o’n yillikning o’zida Dunay NATO bombalaridan, neftning oqizilishidan va siyanid bilan zaharlanishdan aziyat chekdi.
- **Terminni kontekstli** muvofiq so‘z bilan almashtirib tarjima qilish: Some 150 industries emit 100 times the pollution recommended by particulate norms- 150 ga yaqin zavod havoni tegishli me’yordan 100 barobar ko’proq ifloslantiradi.
- **Neologizmlardan foydalanish:** The Ministry of Health designed this institute as the sight for the interim central reference laboratory- Sog’liqni saqlash vazirligi ushbu institutning negizida vaqtinchalik markaziy referens laboratoriyasi tashkil etiladigan muassasa sifatida belgilagan.
- **Diskriptiv izohlash**: electrosmog-elektromagnit zaharlanish, frankenfood- genetik o’zgartirilgan oziq-ovqatlar.
- **Transkodlash** (yoki semikalkalash): biofuel-bioyoqilg‘i, biodiesel-biodezel, bioethics- bioetika [6: 197-197].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ekologik matnlarni tarjima qilishda bir qator qiyinchilik va noaniqliklarga duch kelamiz. Ushbu muammolarni bartaraf etish tarjimondan xorijiy tilni mukammal bilish va ekologik bilimga ega bo‘lishni talab qiladi, ekologik terminlarni to‘g‘ri tarjima qilish uchun uning leksik va grammatik strukturasini analiz qilish, tarjima matni bo‘yicha professional ekologdan xulosa olish matnning mukammalligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айзенкок С.М., Багдасарова Л.В.,Васина Н.С., Глущенко И.Н. “Научно–технический перевод”. - Ростов–на–Дону: Феникс, 2003

2. Nurmonov A., Madvaliev A., Mahkamov N. Development of Uzbek linguistics during independence // Uzbek language and literature. – Tashkent, 2011. – № 3.
3. Djurabaeva Z.A., Ecological terms: problems and solutions. // A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.- VOLUME 7, ISSUE 10, Oct. -2021.
4. Hasanova D.A., The main features of translating ecological terms from English into Uzbek. // Journal of new century innovations.- Volume–44_Issue-1_January_2024.
5. Online Etymology Dictionary (2017) [Electronic resource]. URL: http://www.etymonline.com/.
6. Руденко Н. С. Перевод экологических терминов в неспециальных текстах экологической тематики // Нова філологія. Севастополь, 2012. с. 194-198.

Feruza TEMIROVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

KICHIK YOSHDAGI BOLALAR LATIFALARINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: maqolada bolalar hajviyotining bir qismi bo‘lgan latifalarning sotsiolingvistik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Dastlab, bolalar adabiyoti ularning yoshiga muvofiq tarzda turli yosh guruhlariga ajratib hajviyot ko‘rsatilgan. Keyinchalik kichik yoshdagi bolalar latifalaridan uch tilda namunalar keltirilib tahlil qilingan. Tahlil davomida kichkintoylar hajviyotidagi asosiy obrazlar, ularning xususiyatlari, struktural jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, kichik yoshdagi bolalar latifalarining mutolaadagi ahamiyati ochiqlangan.
Kalit so‘zlar: *latifa, hajviyot, sotsiolingvistik, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar, psixologik, hajviy, sotsiomadaniy, motiv, tarbiya.*
Аннотация: в статье рассматриваются социолингвистические особенности анекдотов. Первоначально детская литература была разделена на разные возрастные группы в зависимости от возраста. Позже были проанализированы образцы детских анекдотов на трёх языках. В ходе анализа были показаны основные персонажи детской литературе, их характеристики и структурные аспекты. Также раскрывается значение детских анекдотов в чтении.
Ключевые слова: *анекдот, комический, социолингвистический, дети дошкольного возраста, психологический, социокультурный, мотивация, воспитание.*
Annotation: the article examines the sociolinguistic features of jokes. Initially, children's literature was divided into different age groups based on age. Later, samples of children's jokes in three languages were analyzed. The analysis showed the main characters in children's literature, their characteristics and structural aspects. The importance of children's jokes in reading is also revealed.
Key words: *anecdote, comic, sociolinguistic, preschool children, psychological, sociocultural, motivation, education.*

Latifalar nafaqat adabiy, balki turli xalqlarning milliy yumor, xarakter va qadriyatlarini o‘zida jamlagan ijtimoiy hodisadir. Latifalarda har bir xalqning o‘ziga xos va umumiy xususiyatlari aks etadi. Uning estetik, lingvistik va psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, aynan shu xossalar orqali latifaning ta’siri amalga oshadi. Uning estetik komponenti hajviy kategoriya, lingvistik komponenti til o‘yinidan iborat bo‘lib, psixologik mohiyati kulgi ta’siri va subyektning hazil natijasida namoyon bo‘ladigan tuyg‘ularini tashkil qiladi. Biz ham latifaning aynan lingvistik (sotsiolingvistik va lingvokulturologik) mohiyatini ochiqlashni maqsad qilganmiz. Latifalarni sotsiologik tahlil qilar ekanmiz ulardan avvalo bolalar latifalarini ajratib olamiz va turli yoshdagi bolalarda latifalarning xoslanishi bo‘yicha tahlillarni amalga oshiramiz. Bundan avval bolalarni yoshiga ko‘ra guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalarni yoshiga qarab turli guruhlarga ajratib ko‘rsatish bolalar adabiyoti rivojiga hissa qo‘shgan olimlar tadqiqotlarida belgilab o‘tilgan.

Rus folklor olimi I.Utexin fikricha: bolalar adabiyoti hajviy janrlari orasida latifalari alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotlarga ko‘ra 3-4 yoshdan 9-10 yoshgacha bo‘lgan bolalar latifalari va kattalar latifalari mazmunan bir-biriga mos kelmaydi. Yosh bolalar bir-biriga nisbatan aytgan, qo‘llagan latifalarining kattalar uchun yumor darajasi past bo‘ladi, shuningdek, bolalar latifalaridagi so‘z birikmalari, motivlar va hodisalar turli xil bo‘ladi. Latifaning sotsiologik mohiyati va sotsiomadaniy xususiyatlari uni kattalar latifasidan ajratib ko‘rsatadi. [1.214-229-b.]

O‘zbek bolalar adabiyoti olimlari O. Safarov, R. Barakayev, B. Jamilova, M. Jumaboyevlarning tadqiqotlari (darslik-majmualari)da bolalar adabiyotini o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi uch guruhga ajratib o‘rganishni taklif

qilganlar:

1. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2-7 yosh).

2. Kichik maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi (7-10- 11 yosh).

3. O‘rta va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi (12-14 va undan yuqori). [2. 5-b.]

Maktabgacha tarbiya yoshidagi kichkintoylar asosan, bu yoshda tevarak olamni tanish, ularni o‘rganishga intiladilar va bu bolalar ta’lim-tarbiyasidagi eng muhim davr hisoblanadi. Zero, XX asr boshlarida Abdulla Avloniy o‘zining pedagogik risolasida tarbiyaning zamoni haqida mulohaza yuritib, shunday yozadi: “Emdi ochiq ma’lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ulgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go‘zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan…” [3.19-b.] Haqiqatdan ham, bu yoshdagi bolalar hali kitob o‘qishni, uning mazmunini idrok etishni bilmasa-da, atrof-olamdagi narsa-predmetlarga qiziqishlari kuchli bo‘ladi, taqlidchilik asosida hayotni o‘zlashtira boradilar. Bu yoshda bolalar ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan odob-axloqqa o‘rgatiladi, ilk bilimlar berila boshlanadi. Bolalar savod chiqarolmasada, aytib berilgan ertaklar, hikoyalar orqali dunyoqarashini kengaytirib borishadi. Kichkintoylarga aytib beriladigan ertak, hikoyalar kompozitsion jihatdan sodda va qisqa bo‘ladi. Shu sababli, kichkintoylar eng ko‘p eshitadigan, sevib tinglaydigan ertaklari va she’rlarining personajlari – hayvonlar, qushlar, hasharotlar, dov-daraxtlar hisoblanadi. Kichik nasriy hikoyalar (hajviy she’rlar, latifalar) bolalar uchun sodda tilda bo‘ladi. Ko‘pincha samimiy yumorga yo‘g‘rilgan, ba’zida didaktik, bolalarga xos mo‘jaz va noodatiy savollardan yoki gaplardan iborat bo‘ladi:

– Oyi, oyi! Menga 100 so‘m bering. Bir yoshi katta insonga yordam beraman.

– Voy, aqlli bolam! Kimga yordam bermoqchisan.

– Huuuv anavi, muzqaymoq sotayotgan amakiga. [4.12-b.]

Kichkintoylar tilida so‘zlar ana shunday hissiyotlarga boy holatda bo‘ladi. Yuqoridagi latifada bolalarga xos quvlik va mug‘ombirlik ham aks etgan. Bundan tashqari ushbu latifa orqali Yoshi kattalarga, qariyalarga g‘amxo‘rlik qilish yaxshi xislat ekanligi “aqlli bolam, kimga yordam bermoqchisan?” jumlasi orqali ta’kidlangan.

Bolalar latifalari ko‘proq og‘zaki nutqda dialog shaklida ko‘zga tashlanadi va bolalarda ko‘proq nutq etiketini shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bundan kelib chiqadiki, latifalarning tematik klassifikatsiyasi ham bolalar va kattalar uchun mo‘ljallangan latifalarda turlichadir. Ya’ni ularda syujet ota-ona va bola, tarbiyachi va bolalar, yoki mult qahramonlar va hayvonlar suhbatiga asoslangan bo‘ladi.

Inglizlarda kichkintoylar hazili ham turli ko‘rinishda uchraydi: biroz qisqa va bolalarning hozirjavobligiga va so‘z o‘yiniga asoslangan bo‘ladi. Masalan:

Mother:

– What did you learn in kindergarden today?

Child:

– My teacher taught us writing.

Mother:

– What did you write?

Child:

– I don’t know. She hasn’t taught us reading yet. [5, - B. 26.]

Ingliz olimi D. Chairo tadqiqotlarida “Bolalar hazillari ularning anglashilmagan tushunchalari va so‘zlari natijasida paydo bo‘ladi. Aynan ularning anglamay aytgan so‘zlari, savollarga chigal javoblari orqali kulgi hosil bo‘ladi” – degan fikrni bildirib o‘tgan. [6. 27-b.] Bunda kichik yoshdagi bolalar hajviyotida yumor aynan ularning hodisalarga noodatiy tarzda yondashuvi natijasida namoyon bo‘lishini ta’kidlagan. Darhaqiqat, hayotda ham bolalarning turli vaziyatlarga o‘zgacha yondashuvi yumorga sabab bo‘ladi. Aynan shu negizda bolalar latifalari vujudga keladi.

Shuningdek, ruslarda bolalar latifalari alohida janr sifatida keng tatbiq qilingan; turli xil bolalar latifalariga bag‘ishlangan kitoblar, seriyali jurnallar har doim bolalar mutolaasiga taqdim etib kelinmoqda. Rus xalqi bolalar latifalari ham juda qiziqarli va kichik bolalarning dunyoqarashlari, kulgili savollariga asoslangan bo‘lib, kattalar uchun ham birdek kulgili hisoblanadi.

Ребенок (2 года) в парке увидел близнецов… Долго и удивленно их разглядывал. Поворачивается к маме и с нажимом спрашивает:

— А где мой такой? 7, - B. 12.]

Yana bir misol:

Воспитательница в детском саду спрашивает:

— Ребята, кто из вас может мне сказать, кто умнее — люди или животные?

Тут одна девочка говорит:

— Животные умнее!

Воспитательница, немного удивленная таким ответом, спрашивает:

— Почему ты так думаешь?

— Потому что, когда я разговариваю со своей собачкой, она меня всегда понимает, но когда она со мной разговаривает, я ее никогда не понимаю.[8. 11-c.]

Yuqoridagi latifalar rus folklor olimi M. Lurening “bolalar anekdotlarida kulgi vaziyat orqali emas balki, so‘zlar orqali kelib chiqishi, ya’ni bolalar latifalardagi yumor syujetdan ko‘ra undagi qiziqarli so‘zlar, jumlalar orqali anglashadi” degan fikrini isbotlaydi”. [9.232-b.]

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, kichik yoshdagi bolalar latifalarining mohiyati yengil yumor va qiziqarli savol-javoblardan iborat. Ba’zan kattalar kulgisiga ham sabab bo‘ladi. Aynan shu xususiyatlar kichik yoshdagi bolalar hajviyotining asosini tashkil qiladi ya’ni kichkintoylar tilidagi gaplar, ularning savollarga o‘zlari anglamagan holda javob berishi, ijtimoiy hodisalarga

ilk yondashuvlari hajv paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bunday hajviy parchalar bolalar mutolaasida, hajviy she’rlar shaklida, ertaklar, hikoyalar, multfilmlar, komiklar tarkibida ham uchraydi. Lekin latifalarni alohida janr sifatida takomillashmagan. Agar latifalardan foydalanilsa ham faqat og‘zaki nutqda uchratishimiz mumkin. Bunday holatda latifalarni bolalarga keng ko‘lamda taqdim qilish, ularning ahamiyatini oshirish o‘rinli deb hisoblaymiz. Chunki latifalarning strukturaviy jihati sodda va undagi so‘zlar ma’nosi ham oddiy kichkintoylar uchun o‘qishga, nutqda aks etishda qulay sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Утехин И. В. Об анекдотах и чувстве юмора у детей // Труды факультета Этнологии. 2001. Вып. 1.
2. M. Jumaboyev. O‘zbek bolalar adabiyoti va folklor. –Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
3. O. Safarov, R. Barakayev, B. Jamilova. Bolalar adabiyoti. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. BuxDU. 2020.
4. “Guncha” jurnali. –Toshkent: 2022. №4.
5. Sam Schultz. Classy Jokes That Make the Grade. –Minneapolis: Carolrhoda Books, Inc. 2004.
6. D. Chairo. The language of jokes in the digital age. USA. –New York:bRoutledge, 2018.
7. Л. Яковлев. Штирлиц и Чапаев. Детские анекдоты. – Москва: Белый город, 1998.
8. Овчинникова Т. Анекдоты для детей. – Москва: Айрис-Пресс. 2007.
9. Лурье М. Л. Детский современный анекдот // Традиционная культура и мир детства: Материалы международной научной конференции "XI Виноградовские чтения". Ульяновск, 1998.

Shohista NAZAROVA,
QarDU doktoranti



OGAHIY TAXMISLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning muxammas janriga doir she’rlari tahlil qilinadi. Shoir ijodi janriy rang-baranglikka boyligi, mumtoz adabiyotning ko‘pgina janrlarida samarali ijod qilgani, ayniqsa muxammas janri takomiliga ulkan hissa qo‘shgani haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *muxammas, tazmin, g‘azal, taxmis, qofiya, devon, tab’i xud.*

Аннотация: в статье анализируются стихи Мухаммада Резы огахи, относящиеся к жанру мухаммас. Творчество поэта богато жанровой пестротой, он плодотворно работал во многих жанрах классической литературы, особенно внес огромный вклад в совершенствование жанра мухаммас.

Ключевые слова: *мухаммас, тазмин, Газель, такмис, рифма, Девон, таби худ.*

Annotation: the article analyzes Muhammad Rizo Ogahi's poems on the mukhammas genre. It is mentioned that the poet's work is rich in genre color, he has created effectively in many genres of classical literature, especially adding a huge staff to the refinement of the mukhammas genre.

Key words: *mukhammas, tazmin, Ghazal, tahmis, rhyme, Devonian, tab'i khud.*

Muhammad Rizo Ogahiy ijodi janriy rang-baranglikka boy.U mumtoz adabiyotning ko‘pgina janrlarida samarali ijod qilgan. Ogahiyshunoslikdagi ma’lumotlarga ko‘ra, Ogahiy devonida jami 90 ga yaqin muxammas mavjud. Muxammas katta tarixga ega bo‘lish bilan birga, XIX asrdagi rivoji bilan bu davrdagi shoirlar ijodida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ldi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, XIV asrda fors-tojik adabiyotida g‘azalchilik nechog‘liq taraqqiy etgan bo‘lsa, XVIII asr ikkinchi yarmi XIX asrga kelib Xorazmda muxammasning o‘ziga xos maktabi yaratildi. Buni muxammaslardan tuzilgan bayozlar misolida ham ko‘rish mumkin.

Ogahiy muxammaslarining umumiy soni jami 90ta. Ulardan 30 tasi Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘langani, Fuzuliy va Rojiy g‘azallariga 7 tadan, Munis va Feruz g‘azallariga 5 tadan, Dilovar, Vaziriy, Amiriy, G‘oziy, Xon va Komron g‘azallariga bittadan taxmis qilgani, shoirning o‘z ijodidan bo‘lgan 12 ta muxammas ham ular qatorida devondan o‘rin olgani haqidagi ma’lumotlar aniqlanadi. Ularni yaratilish xususiyatlariga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

1) tab’i xud muxammaslar;
2) salaflar va zamondoshlar g‘azallariga taxmis;
3) o‘z g‘azallariga taxmis.

Shoirning tab’i xud muxammaslarida ishq-muhabbat motivlari yetakchilik qilib, yorga murojaat tarzida yozilgan. Ularda nido san’ati yetakchilik qiladi. Salaflar va zamondoshlar g‘azallariga bitilgan taxmislar esa shu g‘azallardagi g‘oya, mazmun hamda poetik uslub uzviy davom etadi.

Ogahiyning Navoiy, Fuzuliy, Rojiy, Munis, Feruz kabi ustoz va zamondoshlari qatori, Qo‘qon adabiy muhitidan Amiriy, Xon va G‘oziy g‘azallariga bog‘langan taxmislari ham borki, bu uning xorazmlik shoirlar bilan chegaralanib qolmasdan, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodidan boxabarligi-yu bahramandligini anglatadi.

Aytish mumkinki, Ogahiy muxammaslari ham g‘azallari darajasidagi yuksak poetik asarlardir. Ular XIX asr adabiyotida janrlar tadrijini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, shoirning ijodiy merosi va badiiy olamini tadqiq etishda mazkur muxammaslar manba sifatida qo‘l keladi. Har bir shoir satriga qo‘shilgan Ogahiy baytlari g‘azal baytlari bilan ham mazmun-ma’no, ham badiiy uslub nuqtayi nazaridan go‘yo bir butunlikni tashkil etgan, yaxlit bir shaklga keltirilgan mustaqil asarlardir. Zero, ularda Ogahiy satrlari tatabbu’ qilingan misralar ifoda etgan g‘oyalarga bo‘ysundirilgan.

Shoir muxammaslarida may-u ma’shuqa vasfi, pand-nasihat, ishq-muhabbat, bahor hamda tabiat manzaralari ifodalangan, so‘fiyona g‘oyalar ilgari surilgan. Ammo ularning barchasi Ogahiy ko‘targan xalqona mavzular, sidq-u safo va vatanparvarlik g‘oyalariga hamohang, mutanosibligi bilan ham xarakterlidir.

Ogahiyning “Bo’lma mahzun Ogahiy..” nomli muxammasida “may”, “bazm”, “qadah”, “ishq”, “la’l”, “ruhparvar”, “xonaqoh”, “xarobot”, “jomi gulfom”, “sajjoda ”, “ka’ba”, “ehrom” kabi tushunchalar qalamga olinadi va fikr shular orqali bayon etiladi. O‘z-o‘zidan anglashiladiki, Ogahiy mazkur muxammasida mayi vahdatdan, ya’ni ilohiy mastlikdan so‘z yuritadi. Aslida Navoiy g‘azali shu mazmunda. Ogahiy uni rivojlantiradi va unga rang-baranglik baxsh etadi. Mazkur tushunchalarning hammasi so‘fiyona: muridning xonaqohda o‘tirib sayri sulukka berilishi ham, ilohiyot yo‘lidagi mast-u alastligi, Alloh diydori yo‘lidagi orzu-intilishlari ham. Ham Navoiy, ham Ogahiy bu tamoyilga amal qilgan. Demak, muxammas shoirning so‘fiyona g‘oyalarini ifodalash uchun qulay janr. U tasavvuf g‘oyalari zamirida ozodlik, g‘urur, sadoqat va mehr-vafoni targ‘ib-tashviq etadi. Zero, so‘fiy ozodlik, ishq istaydi, totuvlik va birlikni talab qiladi. Bu g‘oyalar so‘fiyona libosga o‘rab bayon qilinadi. Ular umuminsoniy g‘oyalarga mos va xosdir. Muxammasning birinchi bandi shunday boshlanadi:

Subh may no‘sh etgali, ey dilbari, ishrat maob,
Bazm aro maskan tutib hurshid yanglig‘ beniqob,
Ilginga olg‘och qadah gah lutf aylab, gah itob,
Ikki o‘tlug‘ nargisingkim qildilar bag‘rim kabob,
Biridir ayni xumor ichida, biri masti xob.

Barcha misralar bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, ularni ajratish mushkul, shoirning mahorati ham shunda. Muxammasning ikkinchi va uchinchi bandlarida shoir Navoiy g‘oyalariga hamohang tarzda falsafiy g‘oyalarini ilgari suradi:

Dard ila mehnat sipohi saf tuzib farxoshima,
Yetgusidir ishq maydonida har dam qoshima,
San dog‘i rahm aylamay bu hol ila ko‘z yoshima,
Tiyg‘ tortib dam ola olmay yetushting boshima,
Go‘yyo xurshid yanglig‘ yo‘lda ko‘rguzding shitob.

Ishq zulmidan yetib jonimg‘a nashtar har kecha,
Yeti ohim boxtardan to boxovar har kecha,
Aylabon ta’sir afg‘onim sarosar har kecha,
Ofarinish baski ahvolimg‘a yig‘lar har kecha,
Ashk daryosi erur gardun, kavokiblar xubob.

Ogahiy zamondoshi Rojiy g‘azaliga bog‘lagan muxammasida zamonaviy va so‘fiyona g‘oyalarni bir-biriga payvand etib, dildor va oshiqi zor timsollari orqali ulkan umumbashariy g‘oyalarni tarannum etadi. Ushbu muxammas olamga nur sochguvchi ishq va uning muqaddasligi haqidadir. Bu ishq Olam va Odam yaratguvchisi hamda dunyo haqidadir. Muxammasdagi so‘zlar zamirida ilohiy mazmun mohiyat mujassam:

Gulgun yuzingcha ermas gul yuzida latofat,
Mavzun qading misillik yo‘q, sarvdor shoqat,
Bu husningga adou g‘amzang qilib izofat,
Gulshanda zohir etsan, ey gul’uzor qomat,
Sarv ila gul boshug‘a tushgay ajab qiyomat.

Bu gulgun yuzli, guldan latofatli timsol, mavzun qadi misli yo‘q va sarvdor shoqat yor kim bo‘ldi? U guldek go‘zal mahbuba, uning qiyofasida yana ilohiy jamol ham mujassam. Ogahiyning yorga bo‘lgan jo‘shqin va hayajonli muhabbati shunday aks-sado beradi. Bu oshiqona va umuminsoniy g‘oyalar zamirida inson taqdiri yotadi. Muxammasning keyingi bandlaridagi ibratomuz so‘zlar, olam va odam qismati bilan bog‘liq g‘oyalar bilan hamohangdir. Masalan, undagi “oshiq”, “sabr”, “xir’ad”, “yag‘mo”, “mohi siymo” kabi birikmalar shu mazmunni ochishga xizmat qilgan.

Lirik qahramon doimo azobda: u bag‘riqon, judolikdan mahzun, uning ma’shuqasi malikalardek, yuzlari gul va go‘zallikda beqiyos. Shunday yorga yetishishga nima to‘sqinlik qiladi? Axir shoir saroyda mahbubalar orasida. Zohiran shunday xulosa chiqarish mumkin, albatta. Mazkur tasvirlar she’riy an’ana talabi, hosilasi, xolos. Aslida lirik qahramon bu yerda oddiy inson sifatida namoyon bo‘ladi. U go‘zalga yetisha olmaydi va bunga notinch davr, muhit sabab. Nosog‘lom muhit oshiqi zorni shu ko‘yga solgan, bas shunday ekan, Ogahiy muxammasidagi oshiqona tasvirlar zamirida zamonidan shikoyat g‘oyalari yotadi. Muxammasning har bir bandida oshiqning o‘tli, haroratli tuyg‘ulari o‘z ifodasini topgan. Bu tuyg‘ular lirik qahramonga orzu-umid, hayot, jon baxsh etadi va shu yo‘sinda Ogahiy muxammasini Rojiy so‘zlariga payvand qilib, quyidagicha yakunlaydi:

Ey Ogahiy, agar san donishg‘a mazhar ersang,
Ur shah janobig‘a yuz har ishda muztar ersang,
Gar rog‘ibi behishtu var tolibizar ersang,
Shohing duosin odat qil , Rojiy istar ersang,
Topmoq iki jahonda davlat bila saodat.

Ogahiy muxammaslarining muhim xususiyati shundaki, ular taxmis uchun tanlangan shoirlarning

she’rlaridan qolishmaydi va kerakli o‘rinda o‘z zamonasiga bevosita daxldor bo‘lgan fikrlar bilan boyitiladi. Ogahiy o‘z muxammaslarida salaflarning va zamondosh shoirlarning fikrlarini faqat takrorlab qolmasdan, ularga fikran qo‘shiladi, tashviq qiladi va o‘z qarashlari bilan sayqallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Огаҳий, Муҳаммад Ризо. Асарлар. VI жилдлик. II ж. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 226-б.
2. Мажидий Р. Огаҳий лирикаси.–Тошкент: Фан,1963.
3. В. Абдуллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.335-б.
4. D. Yusupova. “Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari – Toshkent: 2020. 33-б.



Vazira ALIMBEKOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

O‘ZBEK TILINING JANUBI-SHARQIY ANDIJON AREALIGA XOS AYRIM XUSUSIYATLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada janubi-sharqiy Andijon shevalarida adabiy tildan va boshqa shevalardan farqli qo‘llanuvchi insonlarning tana a’zolari va ular bilan bog‘liq leksemalar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *sheva, dialekt, areal, leksika, o‘zbek tili, adabiy til, lug‘aviy ma’no, leksik qatlam.*

Аннотация: в данной статье представлена информация о частях тела человека и связанных с ними лексемах, используемых в диалектах Юго-Восточного Андижана, отличающихся от литературного языка и других диалектов.

Ключевые слова*: диалект, говор, ареал, лексика, узбекский язык, литературный язык, лексическое значение, лексический пласт.*

Annotation: this article provides information about human body parts and related lexemes used in Southeastern Andijan dialects, which are different from the literary language and other dialects.

Key words: *dialect, dialect, areal, lexicon, Uzbek language, literary language, lexical meaning, lexical layer.*

“O‘zbek shevalari leksikasidan tarkib topgan umumxalq o‘zbek tili – adabiy til egalarining barchasiga baravar xizmat qiladi. Bundan, adabiy tilning ham, leksik qatlamlari bir xil ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. O‘zbek shevalari muayyan shart-sharoitlar taqozosi bilan adabiy tilga xos umumtil leksik qatlamidan bir qadar farqlanib turadi. Shu bilan birga, har bir shevada uning o‘zigagina xos bo‘lgan leksik qatlamlar saqlanib qolgan” [1:60].

Ma’lumki, har bir sohada ilm ma’lum guruh va tarmoqlarga bo‘lib o‘rganiladi, Shu jumladan, til va uning sathlarini, ayniqsa leksikasini o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. So‘zlarning lug‘aviy ma’no qirralari xilma-xil bo‘lib, shu sababli ham tilshunoslikka so‘zlarni ma’lum bir tematik, mavzuiy guruhlarga bo‘lib o‘rganish nafaqat soha vakillari uchun, balkim so‘zlarni iste’mol qiluvchilarga ham qulaylik yaratadi. Shu sababli ham maqolada an’anaviy leksikaga sodiq qolgan holda janubi-sharqiy Andijon shevalari leksikasining bir qismini tashkil etuvchi insonlarning tana a’zolarini ma’lum ma’noviy guruhga ajratgan holatda izohlab o‘tishni ma’qul topdik.

Janubi-sharqiy Andijon shevalarida insonlarning tana a’zolari an’anaviy leksika bilan deyarli bir xil bo‘lib, ayrim o‘rinlardagina sheva vakillari nutqida nomlar fonetik o‘zgarishlar, yoxud boshqa nomlar bilan ham atalishi mumkin: Boldir suyagining pastki uchidagi yon tomonga turtib chiqqan do‘mboq qismi o‘zbek tilining izohli lug‘atida to‘piq deb yuritiladi (O‘TIL, 5, 510). O‘rganilayotgan areallarda yashovchi insonlarning nutqida esa insonning bu tana a’zosi qïzïlāšïq (qizilioshiq) deyiladi.

Oyoqning tizza bilan to‘piq orasidagi qismi adabiy

tilda boldir deyilsa (O‘TIL, 1, 525), ushbu sheva vakillarida boldir leksemasi bilan yondosh šïjraq (shiyraq) leksemasi qo‘llanadi.

Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli baltïr tarzida talaffuz qilingan, keyinchalik t undoshi d undoshiga almashgan. O‘zbek tilida a unlisi ā unlisiga almashgan, ï unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan [2, 57]. Qiyos: Boldir so‘zi böldir shaklda janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarida charchamoq, holsizlanmoq, kuchdan ketmoq ma’nolarida [3, 83], shiyraq so‘zi sïjraq (siyraq) shaklida oyoq, oyog‘i uzun odam [3, 146] ma’nolarida qo‘llanadi. O‘zbek tilining Beshkent shevasida to‘piq so‘zi tizzaning ko‘zi, tizzaning to‘garak suyagi ma’nolarini bildiradi [4, 296].

Inson barmoqlarning har birini shevalarimizda o‘z nomi bor, masalan, kichkina barmoqning: Qarnoq shevasida činčalaq (chinchaloq) (Xolmedova 2005: 47), Qorabuloq shevasida kičkinä buban (kichkina buban), böbäk (bo‘bak), čurmältäk (churmaltak) (Begaliyev, 2002:145), Namangan shevasida žinžäläq (jinjalaq) (Abdullayev 1955:180), Xorazm shevalarida žilinčäk (jilinjak) (Raximov 1985:80) kabi. Janubi-sharqiy Andijon shevalarida o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi jimjiloq so‘zining fonetik jihatdan o‘zgarishga uchragan čimčälāq (chimchaloq), žimžälāq (jimjaloq) shakllari amalda qo‘llanadi. Ma’lumot o‘rnida aytish o‘rinliki, “chimchiloq, jimjiloq so‘zlari biroz murakkabroq o‘zgarishga duch kelgan. Bunda ma’noni kuchaytirish maqsadida leksik belgi ustiga morfologik belgi ham orttirilgan. Demak, kičkinäčä qol > činäčä qol. Keyin [q], [l] tovushlari o‘z o‘rinlarini almashtirganlar va činäčälāq > činäčä > (l) āq > činäčāq > činäčäq || činäččäy o‘zgarishi kechgan. n ~ m, č ~ t, č ~ j mosligi tinäčäq; čimčilāq, žimžilāq formalarini keltirib chiqargan” [5, 40].

Ālaqān (olaqon) - leksemasi o‘rganilayotgan shevada adabiy tildagi kaft so‘zi bilan sinonim sifatida qo‘llanadi. Ushbu so‘z haqida “…boshqa territoriyalardagi qipchoq lahjasi uchun xosdir” deya “O‘zbek shevalari leksikasi” [6, 164] kitobida ham ma’lumot berib o‘tilgan. Qiyos: Shevadagi ushbu so‘z Sayram (ЎХШЛ,16), Turkiston shevalarida ham alaqan shaklida [7, 276], shimoli – sharqiy Tojikistondagi o‘zbek shevalarida ālāqān (olaqon) shaklida uchraydi [8, 167]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da olaqon qamchi o‘rimining dasta bilan birikkan joyi ma’nosini bildiradi (O‘TIL, 3, 461).

Janubi-sharqiy Andijon shevasida oyoq so‘zi bilan bir qatorda put so‘zi ham faol qo‘llanadi. Shevaga xos bo‘lgan put so‘zi izohli lug‘atga ham kiritilgan: Put shv. ayn. oyoq. (O‘TIL, 3, 830).

Janubi-sharqiy Andijon shevalarida čïɣanaq (chig‘anaq) so‘zi tirsak (O‘TIL,) ma’nosida qo‘llanadi. Hatto sheva vakillarining nutqida tirsakdan ko‘ra faolroq qo‘llanadi [9, 167]. Qiyos: so‘z O‘sh shevalarida chig‘anaq (Farmonov; 1960: 168), Janubiy Farg‘ona shevalarida [10, 200], qirg‘iz tilida chiqanaq, qoraqalpoq tilida shig‘anaq, qozoq tilida shin, boshqird tilida sig‘anaq shakllarida tirsak ma’nosida qo‘llanadi [10, 224]. Pop shevalarida chig‘anaq so‘zi “ikki uchi keng, ikkinchi uchi bir nuqtaga biriktirilgan narsa” [11, 15], yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalarida “to‘rt g‘ildirakli arava” degan ma’nolarni ifodalashda qo‘llanadi [12, 156]. Izohli lug‘atga “shilliqurt; ba’zi umurtqasiz jonivorlarning mollyuskalarning turli shaklda bo‘ladigan kosasi” ma’nosini bildiruvchi chig‘anoq so‘ziga omonim qilib kiritilgan (O‘TIL, 6, 807). Qiyos: Oshoba shevalarida čekänäk so‘zi tirsak ma’nosida qo‘llanadi [13, 69].

Başmaldaɣ (bashmaldag‘) shevada bosh barmoqqa nisbatan qo‘llanuvchi so‘z. Qiyos: adabiy tilda bosh barmoq, boshmaldoq (O‘TIL, 605), Surxondaryo j lovchi shevalarida bashmardaq, Surxondaryo y lovchi shevalarida bāšmälāɣ, Toshkent shevasida bäšmäldäɣ kabi qo‘llanadi.

Emgäk (emgak, qarluq), emgek (emgek, qipchoq) – leksemasi shevada chaqaloqlar boshining ustki qismida o‘rnashgan suyaklarning birikish joyidagi pardali suyaklashmagan qismi, ya’ni adabiy tildagi liqildog‘ iga nisbatan qo‘llanadi (O‘TIL, 3, 39). Qiyos: Qorabuloq shevasida emgak “mehnat, qiyinchilik” [14, 35], Xorazm shevalarida “mehnat, zahmat” ma’nolarida (ЎХШЛ, 29), Turkiston shevalarida [7, 288], Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarida mehnat; mehnat haqqi kabi ma’nolarda qo‘llanadi [3, 91].

Inson qulog‘idan oqadigan sariq suyuqlik (oltingugurt moddasi) ka nisbatan tadqiqot ishi olib borilayotgan shevada quluq (quluq) leksemasi qo‘llanadi. Ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, izohli lug‘atda bu mazmundagi so‘z berilmagan. Qiyos: Qo‘qon shevalarida quluq so‘zi chilimning sarxonasi teshigiga qo‘yilgan yumaloq kesakka nisbatan ishlatiladi [15, 49].

Izohli lug‘atda:

1 ayn. dumg‘aza 2.

2 Gavdaning bel bilan dumg‘aza o‘rtasidagi orqa qismi ma’nolarini bildiruvchi Quymuch (O‘TIL, 4, 313) so‘zi shevalarda Qujmič (quymich) shaklida bel va oyoqning tutashgan joyini bildiradi. Qiyos: Qo‘qon gruppa shevalarida ham shu ma’noda keladi [11, 18].

Tïnnaq (tinnaq), tïndaq (tindaq) leksemasi adabiy tildagi tirnoq so‘zining fonetik jihatdan o‘zgargan shaklidir. Qiyos: O‘sh o‘zbek shevalarida ham tirnoq so‘zi shu formalarda qo‘llanadi (Ф.И. 166). Tirnoq so‘zi qadimda quyidagi ko‘rinishlarda amalda qo‘llangan: tïrïpaq > tïrpaq > tïrnaq > tirnāq [16, 147].

Izohli lug‘atdagi “qorinning pastki qismi bilan son oralig‘i” mazmunidagi chov so‘zi o‘rnida shevada čürräj (churray) leksemasi qo‘llanadi.

Ič (ich) leksemasi izohli lug‘atda ichki bo‘shliq; narsaning ichki qismi; janubi-sharqiy Andijon shevalarida qorin ma’nosida ham qo‘llanadi.

Bugungi kunda shevalarda qo‘llanish doirasi torayib borayotgan qorin ma’nosidagi so‘zlardan biri qursāq (qursoq, qipchoq) so‘zidir. Qiyos: Qursoq so‘zi Surxondaryo o‘zbek shevalarida [17, 19], Xorazm shevalarida ham shu ma’noda qo‘llanadi [18, 63]. Ushbu so‘z turkiycha so‘z bo‘lib dastavval quγursaq, (ДЛТ, 1, 461), quγrsaq>qursaq (КРС, 449) hozirga kelib qursāq shaklida qo‘llanmoqda [16, 122]. Qursoq so‘zining kelib chiqishi etimologik lug‘atda quyidagicha izohlangan: dastlab “yig” - ma’nosini anglatgan “qur”-fe’lidan –(u)γ qo‘shimchasi bilan ot yasalgan, unga –sa qo‘shimchasini qo‘shib fe’l yasalgan va oxiri –q qo‘shimchasini qo‘shib ot yasalgan. Eski o‘zbek tilida ikkinchi bo‘g‘in tarkibidagi uγ tovushlari talaffuz qilinmay qo‘ygan. Keyinchalik a unlisi ā unlisiga almashgan: [(qur- + uγ = quruγ) + sa + quruγsa-] + q = quγursaq > qursaq > qursāq [2, 577].

Šiläkäj (shilakay, qarluq), šilekej (qipchoq) so‘zi shevada bolalarning og‘zidan oquvchi suv, adabiy tildagi so‘lak so‘ziga sinonim sifatida ishlatiladi. Qiyos: Qirg‘iz tilida šilekej (shilekey), qoraqalpoq tilida slekej (slekey), qozoq tilida silekej (silekey), boshqird tilida elevej (elevey) shakllarida qo‘llanadi [10, 224]. Sayram o‘zbek shevalarida ushbu so‘z säläkäj (salakay) (З.С.134) shaklida 1. So‘lak. 2. Bolalar fartukchasi ma’nosida, Xorazm shevalarida süläkäj (sulakay), söläkäj (so‘lakay) shakllarida [18, 83], Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida siläkäj, söläkäj shakllarida qo‘llanadi [19, 153]. Iqon va Qarnoq shevalarida äpäžäk so‘lak ma’nosida qo‘llanadi [20, 121]. Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarida sölägäj (so‘lagay) so‘zi bolalarning og‘ziga chiqadigan yara ma’nosini bildiradi [3, 148].

Qo‘l-oyoqda ba’zan badanda bo‘ladigan qattiq, dumaloq o‘simta adabiy tilda so‘gal (O‘TIL, 4, 801) deyiladi. Janubi-sharqiy Andijon shevalarida ushbu toshma söngäl (so‘ngal) deb ataladi. Qadimgi turkiy tilda ham shu ma’noni anglatgan bu so‘z sögül tarzida talaffuz qilingan. O‘zbek tilida ü unlisi ä unlisiga almashgan, ö unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: sögül > sogäl [2, 311].

Ilmiy izlanishlarimizga ko‘ra, janubi-sharqiy Andijon shevalaridagi quluq, churray, qiziloshiq, emgak, shiyraq kabi so‘zlarni adabiy til va yondosh shevalarda uchratmadik. Xulosa qilib aytganda, shevalardagi bir-biriga o‘xshash va farqli jihatlarni o‘rganish, ularning lug‘at fondidagi mavjud so‘zlar orqali adabiy tildagi ayrim bo‘shliqlarni to‘ldirish, tilimizning leksikasini boyitish bilan bir qatorda, ularning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси. – Тошкент: 1999. 60-б.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент : “Университет”, 2000. 57- б.
3. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари.
4. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент:1957. 296-б.
5. Қудратов Т. Кичкина қўл...жимжилоқ. ЎТА.5.1967. 40- б.
6. Абдураҳмонов Д. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. 164- б.
7. Муҳаммеджонов Қ. Туркистон шевасининг лексик состави. /Қорлуқ группа шевалари материаллари асосида/. – Тошкент:1970. 276- б.
8. Шералиев Э. Шимоли-Шарқий Тожикистондаги ўзбек шеваларининг лексикаси. – Тошкент: Сирдарё, 1974. 167- б.
9. Абдураҳмонов Д., Содиқов Т., Носиров Ш., Туробова М. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. 167- б.
10. Узоқов Х. Ўзбек тилининг жанубий Фарғона шевалари. Дисс. – Тошкент:1965. 200- б.
11. Шарипов О. Ўзбек тилининг Поп шеваси. Дисс. – Тошкент: 1962.15- б.
12. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. 156- б.
13. Шералиев Э. Ошоба шеваси. ЎТА.1.1980. 69-71- б.
14. Бегалиев М. Ўзбек тили Қорабулоқ шеваси лексикаси. Дисс. – Тошкент: 2002. 35- б.
15. Торақулов. О. Қўқон группа шевалари лексикаси. Дисс. – Ташкент: 1971. 49- б.
16. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий қатлами. – Тошкент : Ўқитувчи, 2001. 147- б.
17. Рахимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: 1974. 19- б.
18. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари –Тошкент:1960. 63- б.
19. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент:Фан, 1977.153- б.
20. Xidiraliyeva Z. O‘zbek tilining Iqon shevasi. – diss. – Toshkent: 2023. 121- b.
21. Холмедова З. Қарноқ шевасида синонимик уяларни ташкил этувчи сўзлар. ЎТА, 2004.4. 76-78- б.
22. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. 2022.
23. Кошғарий М. Девону луғатит турк. – Тошкент: I. – Тошкент: Фан, 1961.
24. Кошғарий М. Девону луғатит турк. – Тошкент: II. – Тошкент: Фан, 1963.
25. Кошғарий М. Девону луғатит турк. – Тошкент: III. – Тошкент: Фан, 1963.

Fariza RUZIMURODOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs tayanch doktoranti



O‘ZBEK-INGLIZ TARJIMACHILIGINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Annotatsiya: o‘zbek xalqining xorijiy xalqlar bilan o‘zaro hamkorligi va adabiy aloqalari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi, qadimda Yunoniston va Xitoy, Hindiston va Eron hamda boshqa xorijiy mamlakatlar madaniyati bilan yaqindan aloqada bo‘lganligi manbalardan ma’lum.

Kalit so‘zlar: *Mayor Devi, “Temur tuzuklari”, fantasmagoriya, “Navoiy gulshani”.*

Аннотация: взаимное сотрудничество и литературные связи узбекского народа с зарубежными странами уходят в далекое прошлое. Из источников известно, что народы Средней Азии, в том числе узбеки, в древности находились в тесном контакте с культурами Греции и Китая, Индии и Ирана и других зарубежных стран.

Ключевые слова: *Майор Дэви, “Темур тузуклари”, фантасмагория, “Навоий гулшани”.*

Annotation: mutual cooperation and literary ties of the Uzbek people with foreign countries go back to the distant past. It is known from sources that the peoples of Central Asia, including the Uzbeks, in ancient times were in close contact with the cultures of Greece and China, India and Iran and other foreign countries.

Keywords: *Major Devi, "Temur Tuzuklari", phantasmagoria, “Navoiy gulshani”.*

G‘arb va Sharq so‘zlarida bir-biriga yaqinlik sezilmasa-da, bu hududlarda yashovchi xalqlarning adabiyotida, tarixida, turmush tarzlarida o‘zaro farqli jihatlar bilan birgalikda o‘xshash jihatlar ham ko‘zga tashlanadi.

Sharq adabiyoti daholari bo‘lmish Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy singari buyuk adiblarimizni g‘arblik fotih Aleksandr Makedonskiy ilhomlantirgan bo‘lsa, yevropa adabiyotining buyuk namoyondalari Kristofer Marlo, Charlz Sanders, Nikolas Rou singari ijodkorlarni sharq sarkardasi Amir Temur siymosi ilhomlantirgan. Xuddi shuningdek, turli xalqlar orasidagi o‘zaro aloqalarni bog‘lashda tarjimaning hissasi beqiyosdir. *“Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’siri jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo‘ladilar, ularning estetik tuyg‘ulari oshadi, didlari o‘sadi, ularda go‘zal narsalar haqida tushunchalar hosil bo‘ladi”.*

Xorijda o‘zbek adabiyotiga bo‘lgan hurmat va qizqishni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz adabiyotimiz namoyondalari, qolaversa, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Zulfiya singari o‘zbek adabiyoti vakillarining ko‘plab asarlari xorijiy tillarga, xususan, ingliz tiliga tarjima qilingan.

Nafaqat adabiy asarlar, balki tarixiy asarlarning ham ingliz tiliga tarjima qilinganligi va bu xususdagi ishlarga juda qiziqish yuqoriligini biz Amir Temur qalamiga mansub asarlarning tarjima qilinganligidan ham bilishimiz mumkin. O‘z o‘rnida Amir Temur qalamiga mansub “Temur tuzukari” hujjatli, tarixiy, avtobiografik va badiiy asar hisoblanadi. Bu asar o‘zbek tilidan ingliz tiliga qilingan dastlabki tarjimalardan hisoblanadi. Ingliz sharqshunos olimi Mayor Devi Hindistonda xizmatda bo‘lgan vaqtida “Temur tuzuklari”ning Abu Tolib al-Husayniy tomonidan forschaga qilingan tarjimasi bilan tanishadi va Buyuk Britaniyaga qaytgach, asarni ingliz tiliga o‘girib, uni Jozef Vayt degan olim tayyorlagan forscha matni bilan bir muqovada 1783-yilda Oksfordda nashr etadi. Ushbu nashr “Temur tuzuklari” asarining dunyo bo‘ylab tarqalishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Aynan shu nashr dunyo mamlakatlariga keng tarqalgan va “Tuzuki Temur” yoki “Tuzukoti Temur” nomi bilan shuhrat topgan. Oksford nashri keyinchalik hech bir o‘zgarishsiz, jahonning ko‘plab shaharlarida, masalan, 1785-yil Kalkutta, 1868, 1963 va 1992-yillarda Tehron, 1890-yil Bombeyda chop etilgan. Bu nashrlar ko‘plab mamlakatlarga, jumladan, O‘rta Osiyoga ham tarqalgan.

O‘zbek mumtoz adabiyoti durdonalarining ingliz tiliga tarjima qilinishi masalalari ildizi Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi bilan bevosita bog‘liqdir. Adib ijodini boshqa tilga tarjima qilish ishlari XV asrdayoq boshlangan. Turkiy adabiyot, jumladan, o‘zbek adabiyoti rivojini Navoiysiz tasavvur qilish qiyin. Alisher Navoiy ijodi haqida ilmiy tadqiqot olib borgan kanadalik Harri Dik Navoiyga “Dunyoni ma’naviy tanazzuldan qutqara oladigan ko‘ngil bog‘ining bog‘boni” deya ta’rif beradi va “Lison ut-tayr” asarini ingliz tiliga tarjima qiladi.

Navoiy ijodi orqali xorijliklar milliy ma’naviyatimiz bilan, qadriyatlarimiz bilan tanishishadi. Xorijlik olim Denis Deli: “Navoiydek buyuk shoir faqat o‘zbeklarda bor. Uning ijodidan ta’sirlanib yozilgan g‘azallar va asarlar nihoyatda ko‘pligini ko‘rib hayratga tushaman”, degan edi. Shu o‘rinda akademik Konradning “Alisher

Navoiy va Renessans” maqolasini eslash joiz. U Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” asarini olmonlarning “Tristan va Izolda”, yigirmanchi asr rus adabiyotida fantasmagoriya yo‘nalishida yaratilgan Mixail Bulgakov qalamiga mansub “Usta va Margarita” romani bilan qiyoslaydi va buyuk bobomizni “barcha xalqlarning shoiri”, deya e’tirof etgan holda, Sharq Renessansi hosil bo‘lishida G‘arbga ehtiyoj sezmaganini qistirib o‘tadi. Buyuk mutafakkirning “Lison ut-tayr” dostoni Y.Fittsjerald tomonidan inglizchaga tarjima qilinib, 1899-yilda AQShning Boston shahrida nashr etilgan edi. Xuddi shu asarning nasriy bayoni kanadalik tarjimon Garri Dik tomonidan o‘zbek tarjimashunos olimi N.Qambarov hamkorligida ingliz tiliga o‘girildi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” risolasi Robert Deveruks tarjimasida 1966-yilda AQShda kitob holida bosilib chiqqan bo‘lsa, buyuk shoirning “Sab’ai sayyor” dostoni amerikalik professor V.Firman tomonidan inglizchaga tarjima qilindi. 1988-yilda O‘zbekiston “Vatan” jamiyati Alisher Navoiy hikmatlarini Margaret Bettlinning inglizcha tarjimasida lotin alifbosida chop etgan. 1961-yilda Toshkentda nashr qilingan “O‘zbekiston gapiradi” nomli inglizcha to‘plamga Alisher Navoiyning g‘azallari, ruboiylari, hikmatlaridan namunalar hamda “Farhod va Shirin” dostonidan parcha kiritilgan. Ta’kidlab o‘tish joizki, Navoiy asarlarini inliz tiliga tarjima qilish ishlari hozirga qadar yuksak darajada rivojlanib kelmoqda. 2021-yil Alisher Navoiy g‘azallari va Cho‘lpon she’rlari taniqli ingliz shoiri Endryu Staniland tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan . Kitob mamlakatimizning Buyuk Britaniyadagi elchixonasi ko‘magida chop etilgan. To‘plamdan Alisher Navoiyning 12 ta mashhur g‘azali, jumladan, “Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi”, “Ko‘rgali husnungni zoru mubtalo bo‘ldum sango”, “Xo‘blar ming bo‘lsalar, men xastag‘a bir yor bas”, “Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo”, “O‘zga bo‘ldi yoru mehri manda boqiydur hanuz”, “Kimsa hargiz ko‘rmadi chun ahli davrondin vafo”, “Ne bahor o‘lg‘ayki bir gul hajridin badholmen”, shuningdek, Cho‘lponning “Go‘zal”, “Buzilgan o‘lkaga”, “Go‘zal Turkiston”, “Ko‘ngil”, “Sharq qizi”, “Mahmud Xo‘ja Behbudiy xotirasi” kabi 14 ta she’ri o‘rin olgan.

Shuningdek, hozirda Alisher Navoiy asarlarini ingliz tiliga tarjima qilib, Navoiy nomini jahonga tanitish uchun mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz ham borligi juda ham quvonarli holat. Shunday vatandoshlarimizdan biri A’zam Obidovdir.

2021-yil yanvar o‘rtalarida Alisher Navoiy g‘azallari va Tursunoy Sodiqovaning “Navoiy gulshani” risolasi jamlangan “Without You” (Sensiz) nomli kitob AQSHdagi Arizona shtatida joylashgan “Jasmaya Productions and Publications” nashriyotida chop etildi. Kitobni shoir va tarjimon A’zam Obid tarjima qilib, nashrga tayyorladi. Ushbu loyiha hazrat Navoiy tavalludining 580 yilligiga sovg‘a o‘laroq dunyoga keldi.

“Men Alisher Navoiy asarlari ingliz tiliga judayam kam o‘girilganidan xabar topgach, hayron qoldim, hatto bundan xafa ham bo‘ldim. Agar kaminaga yana bir bor yashash imkoni berilganida bormi, butun hayotimni chig‘atoy-turkiy va unga yaqin tillarda yozilgan nodir asarlar tarjimasiga bag‘ishlagan bo‘lardim”, – deydi ushbu kitobga muharrirlik qilgan Ebigeyl Britton.

“Biz Navoiyni nafaqat ingliz dunyosiga, balki yer kurrasidagi yuz millionlab boshqa xalqlarga ham tanishtirish yo‘lida juda kam ish qildik. Men adabiyotimizni chet tillariga tarjima qilish va xorijda targ‘ib etishga mas’ul bo‘lgan O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi hukumat qo‘llovidagi birorta tashkilot yo uyushma a’zosi emasman, ya’ni bunday ishlarni mustaqil va ko‘ngilli ravishda amalga oshirmoqdaman. Istagim shuki, Alisher Navoiy nomini ko‘tarib yurgan va boshqa barcha mas’ul muassasalar, katta-kichik dargohlar tezroq uyg‘onsin va jiddiyroq xalqaro loyihalar bilan ham shug‘ullansin”, – deya ta’kidladi kitobni ingliz tiliga tarjima qilgan A’zam Obid.

O‘zbek mumtoz adabiyotining dunyoga yoyilishida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Asar jami 18 ta tilga tarjima qilingan. Jumladan: fors tiliga – 29 marta, ingliz tiliga – 8 marta, hind tiliga – 5 marta, rus tiliga – 2 marta. Asarning ingliz tiliga tarjimalari xronologiyasi quyidagicha: Leyden-Erskin, 1826-yil, London; R.M.Kaldekot, (Leyden-Erskin tarjimasi asosida) 1844-yil, London-Edingburg; F.Talbot, 1909-yil, London; L.King, (Leyden-Erskin tarjimasi asosida) 1921-yil, London; A.S.Beverij, 1922-yil, London; B.Tekston, 1996-yil, Oksford (AQSH), 2002-yil, Nyu-York. Ushbu tarjimalar tadqiqiga doir Xoshimova D., Teshaboyeva Z. singari olim va olimalar tarafidan keyingi yillarda amalga oshirilgan bir qancha ilmiy ishlarda tanishishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotimiz namunalarini xorijiy tillarga, xususan, ingliz tiliga tarjima qilish borasida atroflicha yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, sohada qator o‘z tadqiqini kutib turgan yo‘nalishlar ham talaygina.

Mumtoz adabiyotimiz namoyondalari ijodini jahon badiiy va ilmiy kontekstida o‘rganish payti keldi. Qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida Sharqda — Lao-szi, Konfutsiy, dzen-buddizm, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Rumiy va boshqalar, G‘arbda — Homer, Platon, Aristotel, Plotin, Dante, Shekspir, Pushkin, Dostoyevskiy, Tolstoy ijodi bilan hazrat Navoiy, Bobur, Mashrab, Gulxaniy, Amiriy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar asarlari qiyosan tadqiq etilishi zarur. Hegel aytganidek, “Ruh faqat o‘zaro ta’sir jarayonida namoyon bo‘ladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 2005. 8 б.
2. Ibragimova M. O‘zbek adabiyoti namunalarining angliyalik olimlar tomonidan o‘rganilishi. Филологический науки. International Scientific Journal/№ 5, 2016. 5-bet.
3. Хошимова Д. "Бобурнома" матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тиига таржималари тадқиқи. Филол.фан....док (ДСс) дис.автореф. – Тошкент: 2018. 18 б.
4. Тешабоева З. "Бобурнома"нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол.фан.фалсафа....док (ПҳД) дис.автореф. – Тошкент, 2017. 20 б.

INTERNET MANBALARI

5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Temur_tuzuklari
6. https://ndpi.uz/uz/2021/02/05/14123/
7. https://ndpi.uz/uz/2021/02/05/14123/
8. http://azamabidov.uz/?p=3385
9. https://legacy.uz/uz/londonda-alisher-navoiy-gazallari-va-abdulhamid-cholpon-sherlari-ingliz-tiliga-chop-etilgani-haqida-bilasizmi/
10. Without You. 14 Ghazals by Alisher Navoiy and Navoiy’s Blooming Garden. Translated into English by Azam Abodov. Independently published, Jan.2021.73p.https://www.amazon.de/-/en/Azam-Abidov/dp/B08SGWNDPY

Adolat BEKTURDIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
adolatomonbayevna@gmail.com

O‘G‘UZ LAHJASI SINTAKSISINING O‘RGANILISH TARIXI

Annotatsiya: maqolamizda o‘zbek tili o‘g‘uz lahjasi (Xorazm shevasi)ning sintaktik jihatdan o‘rganilishi, bu borada izlanish olib borgan qator rus va o‘zbek dialektologlari, ular tomonidan yaratilgan ilmiy ish va monografiyalarga asosiy e’tibor qaratildi. O‘tgan asrlarda yaratilgan o‘g‘uz lahjasi matnlari sintaksisini o‘rganishda amaliy va nazariy yordam beruvchi qo‘llanmalarning bugungi kun tilshunoslik nuqtayi nazaridan nechog‘li ahamiyatli ekanligi ochiqlandi

Kalit so‘zlar: *sintaksis, sintaktik birlik, dialektal nutq, dialektal matnlar, sodda va qo‘shma gaplar, qo‘shma gap tarkibidagi bog‘lovchi vositalar.*

Аннотация: в нашей статье основное внимание уделено синтаксическому изучению огузского диалекта узбекского языка (хорезмскому диалекту), ряду российских и узбекских диалектологов, проводивших исследования в этом направлении, а также созданным ими научным трудам и монографиям. Выявлено, насколько важны сегодня с точки зрения языкознания практические и теоретические руководства по изучению синтаксиса огузских диалектных текстов, созданных в прошлые века.

Ключевые слова: *синтаксис, синтаксическое единство, диалектная речь, диалектные тексты, простые и сложные предложения, связки в сложном предложении*

Annotation: in our article, the main attention was paid to the syntactical study of the Oghuz dialect of the Uzbek language (Khorazm dialect), a number of Russian and Uzbek dialectologists who conducted research in this regard, and the scientific works and monographs created by them. It was revealed how important practical and theoretical guides for studying the syntax of Oghuz dialect texts created in the past centuries are today from the point of view of linguistics.

Key words: *syntax, syntactic unity, dialectal speech, dialectal texts, simple and compound sentences, connectives in a compound sentence.*

Asosiy qism. Tilshunoslikning murakkab sohalaridan biri bo‘lgan sintaksisning dialektologiyada o‘rganilishi muhim masaladir. O‘tgan asrda rus va yevropa turkologlari tomonidan boshlab berilgan o‘zbek shevalarining o‘rganilish jarayoni mustaqilligimizdan keyin ancha yuqori darajaga ko‘tarildi. Ammo haqiqatni aytish kerakki, o‘zbek tilidagi dialektal matnlarni yozib olish va o‘rganish, shevalarni tasnif qilish, har bir lahjaning o‘ziga xos, bir-birini takrorlamaydigan leksik, fonetik va morfologik xususiyatlarini ochiqlash XX asrning birinchi va ikkinchi yarmida yuksak pog‘onaga ko‘tarildi va bu borada salmoqli ishlar amalga oshirildi. Diqqatimizni qaratganimiz o‘g‘uz lahjasiga oid xususiyatlar ham bir qator olimlar tomonidan

o‘rganildi, tadqiq etildi. Jumladan, G‘ozi Olim Yunusov, V.V.Reshetov, F.Abdullayev , Y.Jumanazarov , A.Ishayev, O.Madraximov, A.Ahmedov va boshqa bir qator tilshunoslarimizni sanab o‘tishimiz mumkin.

Bugungi kunda dialektologiya sohasida qator siljishlar, yangi yo‘nalishlar yuzaga kelmoqda. O‘zbek tili (shu jumladan, uning asosini tashkil qiluvchi shevalar) ning leksik, fonetik va grammatik jihatdan turkiy tillar qatorida alohida o‘ringa ega ekanligini ochiqlashga yordam beruvchi ilmiy ishlar talaygina. Biroq dialektal matnlarning sintaktik xususiyatlarini o‘rganishga, ya’ni undagi so‘z birikmasi va gap, gap bo‘laklarini, gapda so‘zlarning bog‘lanishini, shevalarda sodda va qo‘shma gaplarning qo‘llanilishini, ulardagi bog‘lovchi vositalarning dilektal xususiyatlari va imkoniyatlarini ochiqlashga imkon beruvchi ilmiy manbalarimizning soni cheklangan. Nazarimizda dialektal sintaksis biroz oqsab qolayotganday. Shularni inobatga olgan holda ayta olamizki, dialektal matnlar sintaksisini o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

O‘g‘uz lahjasiga oid bo‘lgan sintaktik xususiyatlar bir nechta dialektolog olimlarning ilmiy ishlarida tilga olindi. Jumladan, o‘zbek tili o‘g‘uz lahjasini leksik, fonetik va morfologik jihatdan chuqur o‘rgangan Fattoh Abdullayev o‘zining “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” nomli monografiyasida o‘g‘uz lahjasi sintaksisi haqidagi dastlabki ilmiy qarashlarni bayon etdi. Gap tarkibida so‘zlarning moslashuv, boshqaruv va bitishuv kabi adabiy tildagi singari uchta yo‘l bilan bog‘lanishi o‘g‘uz lahjasidan yozib olingan misollar asosida qisqacha tahlil qilindi. Gap bo‘laklarining har bittasiga sof shevadan misollar topilgan va sodda gapdagi so‘z tartibi dialektal nutqqa xos sintakik qonuniyatlar bilan tahlil qilingan.

O‘g‘uz lahjasida sodda gapda gap bo‘laklarining odatdagi tartibi quyidagicha bo‘ladi:

ega+kesim;

ega+to‘ldiruvchi+kesim;

ega+to‘ldiruvchi+hol+kesim (ega+hol+to‘ldiruvchi+kesim);

hol+ega+to‘ldiruvchi+kesim;

aniqlovchi+ega+to‘ldiruvchi+hol+kesim;

aniqlovchi+ega+aniqlovchi+to‘ldiruvchi+hol+kesim va sh.k.

F.Abdullayev sodda gap sintaksisi bilan birgalikda qo‘shma gaplarning tuzilishi haqida ham qimmatli ma’lumotlar beradi. Xorazm shevalarida qo‘shma gaplarning ikki katta tipi - bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplar tuzilishi, bo‘laklarning o‘zaro munosabati jihatidan adabiy til me’yorlaridan chetga chiqib ketmaydi. Ammo ergashgan qo‘shma gaplarning ichki turlari haqida alohida to‘xtalinmaydi, umumiy ma’lumotlar bilan cheklanilgan. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar qismida esa shevalarda ko‘chirma gap odatdagi kengaytirilgan to‘ldiruvchi xarakteriga ega bo‘lishi va muallif gapi bilan bir butunlikni tashkil qilishi o‘g‘uz lahjasidan yozib olingan misollar asosida ko‘rsatib berilgan.

Shevalar sintaksisini o‘rganish tekshiruvchidan katta bilim va malaka talab qiladi. Ma’lum shevaning leksik, fonetik va morfologik sathini o‘rganish o‘z-o‘zidan uning sintaktik qurilishini tadqiq qilishni ham taqozo etadi. F.Abdullayevdan keyin Xorazm shevalarini, ayniqsa uning sintaktik xususiyatini tadqiq qilishga kirishgan tilshunos olim Yusuf Jumanazarov 1976-yilda “O‘zbek tili Janubiy Xorazm (O‘g‘uz) dialektining sintaktik qurilishi” nomli asarini yaratdi. Mazkur kitobda Janubiy Xorazm sheva vakillarining dialektal nutqiga xos bo‘lgan barcha sintaktik xususiyatlar tahlilga tortildi. Xorazm shevalari sintaksisi boshqa qishloq va yetakchi o‘zbek shevalaridan o‘z ayrimliklari bilan farq qilib turadi. Xorazm shevalari sintaktik qurilishida mahalliy aholi tiliga xos sintaktik iboralar, konstruktiv birikmalar bor. Bular bir tomondan eski o‘zbek tili bilan aloqador, ikkinchi tomondan esa dialektal nutqning adabiy va yozma tildan ajraluvchi uslubi mavjudligini ko‘rsatadi. Shulardan kelib chiqqan holda, dialektolog mazkur shevaning murakkab sintaktik qatlamini baholi qudrat yaratib berdi. XX asr o‘g‘uz lahjasi sintaksisini o‘rganishda uning tarixiy taraqqiyoti, yondosh turkman tili bilan leksik-semantik aloqasi ham qiyoslanildi. Izofali birikmalarning bugungi kundagi holati va aslan kelib chiqishi tarixiy dialektologiya nuqtayi nazaridan misollar asosida tahlil qilindi. Turkman tili sintaksisining Janubiy Xorazm dialekti bilan o‘xshash va farqli tomonlarini o‘rganish asosida har ikki tildagi umumiy va xususiylikka ega sintaktik qoliplar jonli muloqotda yozib qolingan matnlar asosida so‘z birikmasi, izofali birikmalar, sodda va qo‘shma gaplar, ular orasidagi bog‘lovchi vositalar qo‘llanilishi jihatidan tadqiqqa tortildi. Dialektal sodda gaplarning taraqqiyoti ham qiyosiy-tarixiy aspektda o‘rganildi, sodda gap komponentlari orasidagi ichki aloqadorlik, gapda bo‘laklarning joylashuvi va dialektal intonatsiya bilan bevosita bog‘langan inversiya hodisasi xususida ilmiy xulosalar berildi.

Y.Jumanazarov shevadagi sodda gaplar sintaksisini o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan, dialektal nutqda o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan qo‘shma gaplar, ularning komponentlari, sodda gaplarni bir-biriga bog‘lovchi vositalar, qo‘shma gaplarda urg‘uning o‘rni va ahamiyatini XX asr tilshunosligi mezonlari asosida sodda va tushunarli til bilan izohlab berdi. Yana shuni ta’kidlashimiz kerakki, dialektolog o‘g‘uz lahjasining sintaktik qurilishini o‘rganar ekan, uning badiiy adabiyot bilan ham aloqasini e’tibordan chetda qoldirmadi. Boy madaniy merosga ega bo‘lgan Xorazm xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyoti, undagi nozik qochirimlar, ibora va dialektal qo‘shma so‘zlar badiiy adabiyot va jonli muloqot materiallari asosida tahlil qilindi. Tilshunos olim ishning talabi bilan bir qator yangi terminlar kiritganligini ham aytib o‘tadi.

Chunki an’anaviy grammatikadagi ayrim terminlar shevalar sintaksisiga “tushmay” qolganligi sababli undovli gaplar, o‘xshatish aniqlovchisi, zaruriyat mayli, ikki otning predikativ aloqasidan tuzilgan gaplar kabi atamalar yuzaga kelganligi ta’kidlanadi. Albatta bunday qarashlarning barchasi o‘tgan asr tilshunosligi me’yorlari doirasida ekanligini unutmasligimiz kerak.

O‘g‘uz lahjasining leksik qatlamini o‘rgangan bir qator tilshunos olimlarning monografiyalarida, mazkur sheva asosida yaratilgan lug‘atlarning kirish qismlarida ham shevadagi sintaktik birliklar haqida qisman ma’lumotlar uchraydi. Tilshunos olim Otanazar Madraximov tomonidan 1999-yilda yaratilgan “O‘zbek tili O‘g‘uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug‘ati” ning kirish qismida ham shevadagi ayrim sintaktik birliklar, ya’ni turkiy va forsiy izofalar, ibora va so‘z birikmalari haqida asosli ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, dialektologning “O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining Xiva shevasi” lug‘atining kirish qismida ham sheva vakillari nutqida qo‘llaniluvchi ibora va so‘z birikmalari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tadi. Biroq bu manbalarni biz o‘g‘uz lahjasi sintaksisi haqida to‘liq tasavvurni yarata oladi, deyolmaymiz.

O‘zbek tili tayanch dialektlarining sintaktik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslarning diqqat-e’tiborini tortganini qarluq lahjasidagi sintaktik jarayonlarni yoritishga qaratilgan quyidagi ilmiy asar misolida ko‘rishimiz mumkin. 1984-yilda tilshunos M.Turopova tomonidan “O‘zbek shevalari sintaksisi” monografiyasi yozilgan bo‘lib, unda qarluq lahjasi matnlari faqatgina sodda gap sintaksisi nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.. Mazkur qo‘llanma shevalarda uchraydigan umumiy sintaktik qoliplarni, adabiy tildan keskin farqlanuvchi sintaktik birliklarni o‘rganishimizda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi. Gap tarkibida so‘zlarning bog‘lanishi, gap bo‘laklarining joylashuvi, undalma va kirish so‘zlar, uyushgan bo‘lak va ajratilgan bo‘laklar qarluq lahjasidan yozib olingan matnlar asosida tahlil qilib berildi. Biroq qarluq lahjasida qo‘shma gaplar tuzilishi va turlari, ularni bog‘lovchi vositalar esa e’tibordan chetda qolganday. Albatta, kunimizda yaratilayotgan dialektologiya sohasidagi ilmiy izlanishlarda mazkur masalalar zamonaviy tilshunoslik jihatidan qayta tahlil qilinadi va dialektal sintaksis bir pog‘ona yuksaklikka ildamlaydi. M.Turopova sintaktik qonuniyatlarni faqatgina qarluq lahjasidan olingan misollar bilan asoslasa-da, kitobdagi dialektal nutq sintaksisiga oid qarashlar, bir qator sintaktik qurilmalar, ega va kesim munosabatlari, uyushiq bo‘laklar, kirish so‘z va kiritmalar qipchoq va o‘g‘uz lahjasi sintaksisini o‘rganishimizda ham amaliy yordam bera oladi. Shevalarda sintaksisning asosiy xususiyatlaridan biri gap qurilishining o‘ziga xosligidir. O‘zbek shevalarida shunday qurilma va qoliplar borki, ular o‘zining leksik, semantik va sintaktik tabiati bilan adabiy tildan keskin farq qiladi.

Tilshunos bunday vositalarga misol qilib ilova qurilmalarini keltiradi. Ilova qurilmalari bevosita rus tilshunosligi termini o‘laroq qabul etilsa-da, adabiy tildan farqli ravishda shevalarda uchrashi ko‘plab kuzatilishini qayd etib o‘tadi. Dialektal nutqda uchraydigan bu tipdagi qurilmalarni adabiy tildagi ajratilgan bo‘lak, to‘liqsiz gaplar va ergashgan qo‘shma gaplardan farqlanishi lozimligini misollar asosida tushuntiradi. O‘g‘uz lahjasi sintaksisiga oid ilmiy izlanishlarni o‘rganar ekanmiz, yozib olingan dialektal matnlarni tahlillash asosida shunday xulosaga kelamizki, ilova qurilmalarini o‘g‘uz lahjasidan yozib olingan matnlarda ham, shuningdek, bugungi kun sheva vakillarining jonli muloqotida ham uchratishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, o‘tgan asrda yaratilgan mazkur qo‘llanmalar, ulardagi sintaktik qoliplar, sintaktik jarayonlarni izohlovchi qoidalar, sodda va qo‘shma gaplarning ichki strukturasi, bog‘lovchi vositalari, ularning turlari va mazmuniy mohiyati bugungi kun zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qayta tahlilga muhtoj, deb o‘ylaymiz. O‘g‘uz lahjasi sintaksisining o‘rganilishiga qo‘yilgan bu qadamlar zamonaviy tilshunoslik vakillari tomonidan qayta o‘rganilishi va tahlilga tortilishi dialektologiya talabi o‘laroq qabul qilinishi kerak. Keyingi yillarda bir qator yosh tilshunos olimlar tomonidan Xorazm o‘g‘uz lahjasining leksik-semantik xususiyatlarini o‘z ichiga olgan ko‘plab ilmiy ishlar qilindi, qator lug‘atlar yaratildi, uni turkiy o‘g‘uz tillari bilan qiyosiy aspektda o‘rganishga doir ilmiy izlanishlar yuzaga keldi va bu jarayon kunimizda ham o‘zbek va qardosh xalqlarning tilshunoslari tomonidan davom etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.G‘.G‘ulomov, M.A.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Sintaksis. –Toshkent, 1965-yil.
2. Ю.Жуманазаров. Ўзбек тили жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик қурилиши. –Тошкент,1976.
3. О.Мадраҳимов. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. Фан. –Тошкент, 1973.
4. О.Мадрахимов. Ўзбек тили ўғуз лахжасининг Хива шеваси.–Тошкент,1981.
5. M.Turopova. O‘zbek shevalari sintaksisi. –Toshkent,1984.
6. Ф.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.– Тошкент: Фанлар академияси нашриёти. 1966.
7. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Тошкент.: Фан, 1978.
8. EKER S. Özbekistan'da oguzca bir diyalekt .Güney Harezm-Oğuzcası. A. 2006

Muxammad NORTOJIYEV,
Termiz tuman 18-umumta'lim maktabi
ingliz tili fani o'qituvchisi
Mukhammadnortojiev@gmail.com

UYG'ONISH DAVRI GUMANIZM G'OYALARINING YEVROPA MADANIYATIGA TA'SIRI

Annotatsiya: ushbu maqola Uyg'onish davri gumanizm g'oyalarining Yevropa madaniyatiga ko'rsatgan ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot davomida gumanistik g'oyalarning san'at, adabiyot, ta'lim va ijtimoiy tuzilmalardagi o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatganligi tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, gumanizm Yevropa madaniyatini chuqur o'zgartirgan, insonparvarlik, tanqidiy fikrlash va individual qadriyatlarga e'tibor qaratishga olib kelgan. Bu o'zgarishlar Yevropa Uyg'onish davrining asosiy xususiyatlarini belgilab berdi va keyingi davrlarga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: *Uyg'onish davri, gumanizm, Yevropa madaniyati, san'at, adabiyot, ta'lim, ijtimoiy tuzilmalar*

Аннотация: в этой статье исследуется влияние идей гуманизма эпохи Возрождения на европейскую культуру. В ходе исследования анализируется, как гуманистические идеи повлияли на изменения в искусстве, литературе, образовании и социальных структурах. Результаты показывают, что гуманизм глубоко изменил европейскую культуру, заставив ее сосредоточиться на гуманизме, критическом мышлении и индивидуальных ценностях. Эти изменения определили основные черты европейского Возрождения, а также оказали большое влияние на более поздние периоды.

Ключевые слова: *Ренессанс, гуманизм, европейская культура, искусство, литература, образование, социальные структуры*

Annotation: this article explores the influence of the ideas of Renaissance humanism on European culture. The study analyzes how humanistic ideas influenced changes in art, literature, education, and social structures. The results show that humanism has deeply transformed European culture, leading to a focus on humanism, critical thinking, and individual value. These changes defined the main characteristics of the European Renaissance and had a great influence on later periods as well.

Key words: *Renaissance, humanism, European culture, art, literature, education, social structures*

Kirish. Uyg'onish davri (XIV-XVII asrlar) Yevropa tarixida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Bu davr gumanizm g'oyalarining keng tarqalishi va ularning jamiyatning barcha jabhalariga chuqur kirib borishi bilan xarakterlanadi. Gumanizm insonni va uning qobiliyatlarini ulug'lovchi falsafiy yo'nalish sifatida paydo bo'ldi va tez orada Yevropaning madaniy, ilmiy va ijtimoiy hayotini tubdan o'zgartirdi [1].

Usullar va adabiyotlar tahlili: ushbu tadqiqot uchun biz quyidagi usullardan foydalandik:

Tarixiy-qiyosiy tahlil: uyg'onish davri va undan oldingi davrlarni taqqoslash orqali gumanizm g'oyalarining ta'sirini aniqlash.

Kontekstual tahlil: gumanistik g'oyalarning paydo bo'lishi va tarqalishini o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganish.

Matn tahlili: uyg'onish davri mutafakkirlari va san'atkorlarining asarlarini o'rganish orqali gumanistik g'oyalarning aks etishini kuzatish.

Interdisiplinar yondashuv: tarix, falsafa, san'atshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari doirasida olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirish.

Adabiyotlar tahlili uchun uyg'onish davri gumanizmi va uning Yevropa madaniyatiga ta'siri haqida keng va chuqur ma'lumot beruvchi manbalar tanlab olindi [2,3,4]. Ularning tahlili orqali biz gumanistik g'oyalarning san'at, adabiyot, ta'lim va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatganligini aniqroq tushunishga erishamiz.

Natijalar. Tadqiqotimiz natijasida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

San'at va adabiyotdagi o'zgarishlar: gumanizm ta'sirida san'atda realizm va naturalizm yo'nalishlari rivojlandi. Rassomlar va haykaltaroshlar inson tanasini va yuz ifodalarini aniqroq tasvirlashga intildilar [5]. Adabiyotda milliy tillarda ijod qilish keng tarqaldi. Dante, Petrarka va Bokkachchoning asarlari bunga misol bo'la oladi. Antik davr adabiyoti va san'atiga qiziqish ortdi, ular yangi asarlar yaratish uchun ilhom manbayi bo'lib xizmat qildi.

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar: gumanistik ta'lim dasturi (studia humanitatis) joriy etildi, unda grammatika, ritorika, tarix, she'riyat va axloq falsafasi o'rgatila boshlandi [6].

Ijtimoiy tuzilmalar va qarashlardagi o'zgarishlar: individualizm g'oyasi kuchaydi, shaxsning noyobligi va qadri ulug'landi [7]. Dunyoviy bilimlar va faoliyatga e'tibor ortdi, bu esa cherkovning ta'sirini bir oz pasaytirdi. Fuqarolik gumanizmi g'oyalari shakllandi, bu esa siyosiy faollikni oshirdi va yangi boshqaruv shakllarini rivojlantirdi.

Ilm-fan rivojiga ta'sir: empirik kuzatish va tajribaga asoslangan ilmiy metodlar rivojlandi [8]. Tabiatni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortdi, bu esa keyinchalik

ilmiy inqilobga olib keldi. Yangi g‘oyalar va kashfiyotlarga ochiqlik paydo bo‘ldi, bu esa geografik kashfiyotlar va texnologik rivojlanishni rag‘batlantirdi.

Tahlil va muhokama. Uyg‘onish davri gumanizm g‘oyalarining Yevropa madaniyatiga ta’siri juda keng qamrovli va chuqur bo‘ldi. Bu ta’sirni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin.

Gumanizm san’at va adabiyotda insonni markazga qo‘ydi. Bu esa o‘z navbatida realistik tasvirlash uslublarining rivojlanishiga olib keldi. Masalan, Leonardo da Vinchi va Mikelanjelo asarlarida inson tanasi anatomik jihatdan aniq tasvirlangan, bu esa ilgari ko‘rilmagan hodisa edi. Adabiyotda esa Petrarka va Bokkachchoning asarlari insonning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini va kechinmalarini tasvirlashga qaratilgan edi [9].

Gumanistik ta’lim dasturi (studiya humanitatis) o‘rta asr sxolastik ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartirdi. Endi ta’limning maqsadi nafaqat diniy bilimlarni o‘zlashtirish, balki har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash edi. Bu esa keyinchalik Yevropa universitetlarining rivojlanishiga va ilmiy tadqiqotlarning kengayishiga olib keldi.

Individualizm g‘oyasining kuchayishi jamiyatda shaxsning o‘rnini o‘zgartirdi. Endi inson o‘z taqdirining yaratuvchisi sifatida qaralardi, bu esa ijtimoiy harakatchanlikni oshirdi va feodal tizimning zaiflashuviga olib keldi.

Fuqarolik gumanizmi g‘oyalari esa siyosiy tizimlarning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, Florensiyada Medichi oilasi davrida respublika boshqaruvi shakllandi, bu esa keyinchalik boshqa Yevropa davlatlariga ham ta’sir ko‘rsatdi.

Gumanizm g‘oyalari ilm-fanga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi. Empirik kuzatish va tajribaga asoslangan metodlarning rivojlanishi keyinchalik Galileo Galiley, Isaak Nyuton kabi olimlarning kashfiyotlariga yo‘l ochdi [10]. Bu esa o‘z navbatida Yevropa ilmiy inqilobiga asos soldi.

Tabiatni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortishi geografik kashfiyotlarni rag‘batlantirdi. Xristofor Kolumb, Vasko da Gama kabi sayohatchilarning ekspeditsiyalari natijasida Yevropaning dunyoqarashi kengaydi va global savdo aloqalari rivojlandi. Gumanizm g‘oyalari diniy qarashlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Uyg‘onish davri gumanistlari ko‘pincha diniy an’analarni qayta ko‘rib chiqish va ularni yangicha talqin qilishga intildilar. Bu jarayon, ayniqsa, xristian dinining asosiy matnlarini o‘rganishda yaqqol namoyon bo‘ldi [7].

Lorenzo Valla kabi gumanistlar Muqaddas Kitobning lotin tilidagi tarjimasini (Vulgata) tanqidiy o‘rganib chiqdilar va uni asl yunon va ibroniy matnlari bilan solishtirib, xatoliklarni aniqladilar. Bu esa keyinchalik Martin Lyuter boshchiligidagi Reformatsiya harakatiga zamin yaratdi [8].

Bundan tashqari, gumanistlar diniy aqidalarni insonparvarlik nuqtayi nazaridan talqin qilishga harakat qildilar. Masalan, Erazm Rotterdamskiy o‘zining “Telbalikka madhiya” asarida cherkov amaliyotlarini tanqid qildi va xristianlikning asl mohiyatiga qaytishga chaqirdi. Bu esa diniy bag‘rikenglik g‘oyalarining shakllanishiga va keyinchalik diniy erkinlik tushunchasining rivojlanishiga olib keldi [9].

Nikolo Makiavelli o‘zining “Hukmdor” asarida siyosatni axloqdan ajratib, uni alohida fan sifatida o‘rganishga asos soldi. Bu esa keyinchalik zamonaviy siyosatshunoslikning shakllanishiga olib keldi [10]. Makiavellining g‘oyalari, garchi ko‘plab tanqidlarga uchragan bo‘lsa-da, siyosiy realizmning asosiy tamoyillarini belgilab berdi.

Tomas Mor esa o‘zining “Utopiya” asarida ideal jamiyat modelini taklif qildi. Bu asar keyinchalik utopik sotsializm g‘oyalarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi va ijtimoiy-siyosiy nazariyalarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Gumanizm g‘oyalari iqtisodiy fikrning rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Uyg‘onish davrida savdo-sotiq va moliyaviy munosabatlarning rivojlanishi natijasida yangi iqtisodiy g‘oyalar paydo bo‘la boshladi.

Uyg‘onish davri gumanizmi, garchi bu atama o‘sha paytda qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, globallashuv jarayonlarining boshlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shdi. Gumanistlarning antik madaniyatga bo‘lgan qiziqishi va turli madaniyatlarni o‘rganishga intilishi madaniyatlararo aloqalarning kuchayishiga olib keldi.

Xulosalar. Uyg‘onish davri gumanizm g‘oyalarining Yevropa madaniyatiga ta’siri juda keng qamrovli va chuqur bo‘ldi. Gumanizm Yevropa san’ati va adabiyotida insonni markazga qo‘ydi, bu esa realistik tasvirlash uslublarining rivojlanishiga va yangi janrlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ta’lim tizimida gumanistik yondashuv joriy etilishi natijasida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga e’tibor qaratildi, bu esa keyinchalik Yevropa ma’rifatparvarlik g‘oyalarining shakllanishiga zamin yaratdi. Individualizm g‘oyasining kuchayishi ijtimoiy tuzilmalarni o‘zgartirdi va shaxsning jamiyatdagi o‘rnini qayta belgiladi. Bu esa keyinchalik demokratik g‘oyalarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Gumanizm ilm-fanga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi, empirik metodlarning rivojlanishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burkhardt, J. (1860). Die Kultur der Renaissance in Italien. Basel: Schweighauser.
2. Kristeller, P. O. (1955). The Classics and Renaissance Thought. Cambridge: Harvard University Press.
3. Garin, E. (1965). Italian Humanism: Philosophy and Civic Life in the Renaissance. New York: Harper & Row.
4.Hankins, J. (ed.) (2000). Renaissance Civic Humanism: Reappraisals and Reflections. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Panofsky, E. (1960). Renaissance and Renascences in Western Art. Stockholm: Almqvist & Wiksell.
6.Grendler, P. F. (2002). The Universities of the Italian Renaissance. Baltimore: Johns Hopkins University Press.
7. Hankins, J. (2007). "Humanism, scholasticism, and Renaissance philosophy". In J. Hankins (Ed.), The Cambridge Companion to Renaissance Philosophy (pp. 30-48). Cambridge: Cambridge University Press.
8. Kraye, J. (1996). The Cambridge Companion to Renaissance Humanism. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Panofsky, E. (1960). Renaissance and Renascences in Western Art. Stockholm: Almqvist & Wiksell.
10. Witt, R. G. (2000). In the Footsteps of the Ancients: The Origins of Humanism from Lovato to Bruni. Leiden: Brill.



Mavluda SATIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistri
mavludasatiyeva@gmail.com

NASIRUDDIN TUSIYNING “ME’YOR UL-ASH’OR” ASARI TADQIQ

Annotatsiya: ushbu maqolada qomusiy olim Nasiruddin Tusiyning aruz va qofiya ilmiga doir risolasi – “Me’yor ul-ash’or”ning tarkibiy tuzilishi, unda arab va fors aruziga oid birliklarning berilishi tadqiq qilinadi. Risola tadqiqidan maqsad Tusiyning o‘zidan keyingi turkiy aruzga oid yaratilgan risolalar, xususan, “Mezon ul-avzon” (Navoiy) hamda “Aruz risolasi” (Bobur) kabilarga o‘tkazgan ta’sirini aniqlashdan hamda asarning ilmiy qiymatini jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *Tusiy, aruz, juzv, rukn, zihof, bahr, doira, qofiya, qofiya qismlari.*

Аннотация: в данной статье исследуется состав трактата ученого-энциклопедиста Насируддина Туси по науке аруза и рифмы – «Меъёр ул-ашъор», в котором даются единицы, относящиеся к арабскому и персидскому арузу. Целью исследования трактата является выявление влияния Туси на последующие трактаты по тюркскому арузу, в частности, «Мезон уль-авзон» (Наваи) и «Аруз рисоласи» (Бабур), а также доведение до общественности научной ценности произведения.

Ключевые слова: *Туси, аруз, джузв, рукн, зихаф, бахр (поэтический метр), доира (концентрический круг), рифма, части рифма.*

Annotation: this article examines the structure of the encyclopedic scholar Nasiruddin Tusi's treatise on the science of aruz and rhyme - "Me'yor ul-ash'or," which presents units related to Arabic and Persian aruz. The purpose of studying the treatise is to determine influence of Tusi on subsequent treatises on Turkic prosody, particularly "Mezon ul-avzon" (by Navoi) and "Aruz Treatise" (by Babur), as well as to convey the scientific value of the work to the public.

Keywords: *Tusi, aruz (prosody), juzv, rukn, zihaf (change), bakhr (meter), doira (concentric circle), rhyme, parts of rhyme.*

Badiiy asarning barkamolligi undagi g‘oyaning yetuk shaklda taqdim etilishi bilan bog‘liqdir. She’riy asarning muhim shakliy jihati esa vazn hisoblanadi. She’riyatni tizimli, qofiyali nutq sifatida qabul qilish an’anasini Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” asarida ko‘rishimiz mumkin: “She’r ba nazdiki mantiqiyon kalomi muxayyali mavzun boshad va dar urfi jumhur kalomi mavzuni muqaffa” [1: 14] (She’r mantiq ilmi olimlari nazdida xayoliy tasavvurning nazmga solingan shakli bo‘lsa, jumhur olimlar nazdida nazm va qofiyaga ega so‘zdir).

Mumtoz she’riyat namunalari esa aruz she’riy tizimi doirasida yaratilgan. Aruz tizimi qonun-qoidalarini milodiy VIII asrda yashab o‘tgan, “arab filologiyasining otasi” [4: 6] deb ta’riflanadigan Xalil ibn Ahmad ishlab chiqqan. Xalil ibn Ahmaddan keyin ham aruz va qofiya bo‘yicha arab hamda fors tillarida yuzlab nazariy qo‘llanmalar yaratilgan. Arab olamida Mahmud Zamahshariyning “Al-Qistos”, fors olamida Qays Roziyning “Al-Mo‘jam”, Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or”, Vohid Tabriziyning “Jami muxtasar”, Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfi”, Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi’”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz”, turkiy olamda Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” risolalari

eng ko‘zga ko‘rinarli risolalardan sanaladi.

Abu Ja’far Muhammad ibn Muhammad ibn Hasan Nasiruddin Tusiy XIII asr fors-tojik fan va madaniyati tarixida qomusiy olim sifatida nom qoldirgan. U matematika, axloq, falsafa, tarix, huquq, poetika, siyosat, pedagogika kabi fanlar bilan shug‘ullangan. Bundan tashqari, Marog‘a rasadxonasi asoschisi sifatida ham butun dunyoga mashhur olimdir. Nasiruddin Tusiyning ijodini o‘rgangan olimlar uning 150 dan ortiq ilmiy asarlari borligini qayd etadi. Bular qatoriga “Sharh ul-ishorat”, “Shakl ul-qit’a”, “Ziji Ilhoniy”, “Tajrid ul-e’tiqod”, “Sayr va suluk”, “Tajrid ul-kalom”, “Tajrid ul-mantiq”, “Tahriri Uqlidis”, “Tahrir ul-Majasti”, “Asos ul-iqtibos”, “Me’yor ul-ash’or”, “Axloqi Nosiriy”, “Risolayi fi imoma”, “Jabr va qadar”, “Jalol ul-Hisob”, “Hol ul-mushkilot” kabilar kiradi.

Tusiy falsafa borasida O‘rta Osiyolik boshqa buyuk olimlar, jumladan, Farobiy, Beruniy va Ibn Sinolarga yaxshi izdosh bo‘la olgan. Qomusiy olim sifatida yozgan asarlari uning Muhaqqiqi Tus (Tus tadqiqotchisi), Ustodi bashar (Bashariyat ustozi), Muallimi solis (Uchinchi ustoz), Shohi ulum (Ilmlar shohi) kabi nomlar bilan ulug‘lanishiga sabab bo‘lgan [8: 285]. Uning ilmiy merosi shu darajada keng qamrovli ekanidan butun dunyo bo‘ylab hali-hanuz tadqiqotlarga asos bo‘lib kelmoqda.

Nasiruddin Tusiyning aruz va qofiya ilmiga bag‘ishlangan “Me’yor ul-ash’or” risolasi shu masalalarni qamrab olgan asarlar ichida eng yaxshilaridan biri va o‘zidan keyingi poetik tafakkurga chuqur ta’sir ko‘rsatgan asardir. Mudarris Razavi “London kutubxonasi fixristi”da asar qo‘lyozmasi hijriy 710-yil (1310-1311) bilan qayd etilgani va ayni o‘sha joyda asar Nasiruddin Tusiy tomonidan hijriy 649-yil (1251-1252-yillar)da yozilgani qayd etilganidan xabar beradi [6: 8]. Eron va Turkiyada risolaning bir nechta nusxasi saqlanadi, ulardan eng qadimiysi hijriy 702-yil (1302-1303-yillar)ga oid bo‘lib, Nasiruddin Tusiyning shaxsan o‘zi tartiblagan nusxadan ko‘chirilgan deb qaraladi.

“Me’yor ul-ash’or” risolasi nisbatan kam o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, uning ustida ish olib borgan olimlar, jumladan, Muhammad Qazviniy, Akram Ja’far, Rahim Musulmonqulov kabilar asar haqida yuksak ilmiy qiymatga ega ish sifatida ta’rif berishgan [6: 9].

Risolada Nasiruddin Tusiy Xalil ibn Ahmadning an’analarini davom ettirgan. Bu bilan o‘zidan keyingi aruz va qofiya haqidagi asarlarga ham jiddiy ta’sir ko‘rsata olgan. Masalan, Alisher Navoiy (“Mezon ul-avzon”), Zahiriddin Muhammad Bobur (“Muxtasar”), Husayn Voiz Koshifiy (“Badoe ul-afkor fi sanoe al-ash’or”) Nasiruddin Tusiyning nomini “Me’yor ul-ash’or” risolasi muallifi sifatida yuqori hurmat bilan tilga olib, manba sifatida asoslanishganini bildiradilar. Shayx Taroziy ham “Funun ul-balog‘a”ni yozishda bevosita bu asarga ham tayanganini qayd etadi: “Bu havastin ko‘p nusxalarni mutolaa qildi, netokkim, “Aruzi qistos” va “Aruzi Undulusiy” va ”Me’yor-ul ash’or” va bu tariqa nusxalarning bahrlarida ko‘p g‘avvosliq qilduq” [2: 146].

Nasiruddin Tusiy risolani Allohga hamd va Muhammad s.a.v.ga na’t bilan boshlaydi hamda risolani ba’zi do‘stlarning iltimosiga binoan forsiyda bitganini qayd etadi. So‘ng “Me’yor ul-ash’or”ni muqaddima va ikki yirik qismga bo‘lganidan xabar beradi. Muqaddima – she’r mohiyati va she’rga oid san’atlar zikri haqida (“Dar bayoni mohiyati she’r va zikri sinoote, ki she’rro bad on taalluq boshad”) deb nomlangan.

Muqaddimaning o‘zi uch fasldan iborat: 1-fasl – She’r va uning tadqiqi xususida (“Dar haddi she’r va tahqiqi on”); 2-fasl – Tilda vazn va qofiya ixtiloflari sabablari (“Dar asbobi (sababhoi) ixtilofi avzon va qavofi dar lug‘ot”); 3-fasl – She’rga oid san’atlar zikri haqida (“Dar zikri sinoatho, ki she’rro bad-on taalluq boshad”). Muqaddimada she’rning mohiyati, uni vujudga keltiruvchi unsurlar, vazn va qofiya, ularning istilohiy va lug‘aviy ma’nolari haqida so‘z boradi.

Risolaning birinchi yirik qismi aruz ilmiga bag‘ishlangan bo‘lib, muallif uni o‘n faslga bo‘ladi va aruzga oid masalalarni bosqichma-bosqich ko‘rib chiqadi.

1-fasl – She’rning dastlabki qismlari bo‘lgan harflar va harakatlar to‘g‘risida (“Dar ishorat ba ajzoi avvalii she’r va on huruf va harakot ast”) deb nomlanadi va Tusiy unda harflar va harakatlar asosidagi mutaharrik hamda sokin harflar haqida gapiradi. 2-fasl – She’rdagi mutaharrik (harakatli) va sokin (sukunli) harflar xususiyati va taqte’ haqida (“Dar kayfiyati e’tibori hurufi mutaharrik va sokin dar she’r va ishorat ba taqte”) bo‘lib, harflarning o‘ziga xos jihatlarini aytib o‘tiladi.

3-fasl – Mutaharrik va sokin harflardan paydo bo‘luvchi she’r juzvlari haqida (“Dar ajzoyi soniyai she’r, ki az hurufi mutaharrik va sokin muallaf shavand”) deb nomlanadi. Tusiy boshqa aruzshunoslar singari aruz birliklarini tadqiq qilishda dastlabki e’tiborni juzvlarga qaratadi. Uning fikricha, arab va fors tillari qoidasiga ko‘ra juzvning ilk harfi albatta mutaharrik bo‘ladi. Tusiy juzvlarni uchga – sabab, vatad hamda fosila juzvlariga bo‘ladi, o‘z navbatida har bir juzv yana ikki qismga bo‘linishini ta’kidlab o‘tadi. U arab aruzida har olti juzvni qayd etib, sababi saqil, vatadi mafruq hamda fosilayi kubrolarni fors aruzidan xos emas deb hisoblaydi.

4-fasl – Juzvlardan hosil bo‘luvchi she’r ruknlari haqida (“Dar arkoni she’r, ki muallaf buvad az in ajzo”) bo‘lib, Tusiy ruknlarni tarkibiga ko‘ra besh harfli (xumosiy) va yetti harfli (suboiy) ruknlarga bo‘ladi. Shuningdek, ruknlarning arab va fors aruzidagi xos jihatlari, she’riyatda faol iste’moldagi ruknlar va nomusta’mal ruknlar haqida ham aytadi. Tusiy risolada Qays Roziy, Vohid Tabriziy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburdan farqli ravishda asosiy ruknlarni doiraga yig‘ib, ularning bir-biridan qanchalik farq qilishini ham ko‘rsatib bergan.

5-fasl – Bahrlar va shu bahrlardan hosil bo‘luvchi

doiralar haqida (“Dar bahrho va davoir va faqqi bahrho az yakdigar”) bo‘lib, endi Tusiy arab aruziga xos bo‘lgan besh doira – “Doirai muxtalifa”, “Doirai mo‘talifa”, “Doirai mujtaliba”, “Doirai mushtabaha” va “Doirai muttafiqa”ni tavsiflab, fors aruzida qo‘llanadigan doira tarkiblari haqida ham alohida izoh berib ketadi.

6-fasl “Dar tag‘yiroti arkonu alqob va tafsili furui har yake az usuli arkon” deb nomlanib, ruknlar va ulardan hosil bo‘luvchi zihoflar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Tusiyning fikricha, ruknda ikki xil o‘zgarish yuz berishi mumkin: “Arab aruziga xos zihoflarni ko‘rib chiqishni ulardagi o‘ziga xoslik va umumiy jihatlar tasnifidan boshlaymiz. Zihoflar mufrad yoki murakkab ko‘rinishda bo‘ladi. Bir ruknga bitta o‘zgartirish kiritilsa mufrad zihof, bir ruknga birdan ortiq o‘zgartirish kiritilsa murakkab zihof bo‘ladi” (“Mo ibtido ba tag‘yiroti she’ri tozi kunem, chi on chi ba eshon, xos ast va chi mushtarak ast. Guyem tag‘yir yo mufrad buvad, yo murakkab. Va mufrad on buvad, ki dar rukne yak nav’ tag‘yir besh nayuftad va murakkab on buvad, ki ziyodat az yak nav’ uftad” [1: 41]). Bu tasnif keyinchalik Bobur tomonidan ham qabul qilingan va “Aruz risolasi”da qo‘llangan [3: 63].

Shundan so‘ng Tusiy arab aruziga xos 34 zihofni sanab, ulardan 20 ta zihof mufrad, 14 tasi murakkab deb tasniflaydi. Sababi saqil va fosila juzvlari fors aruzida musta’mal emasliklari tufayli Tusiy taskin, muxannak va musha’as, araj, matmus, madrus kabi fors aruziga xos zihoflarning kelib chiqishini batafsil tushuntirib o‘tadi. U fors aruziga xos oddiy zihoflar qatoriga araj, madrus, matmus zihoflarini, murakkab zihoflar qatoriga musakkan, muhannak, azal, majbub zihoflarini kiritadi. Tusiy keltirgan yetti zihofdan to‘rttasi undan ilgarigi asarlarda ma’lum bo‘lgan, qolgan uch zihof – araj, madrus, musakkan zihoflarini ilk bor Tusiy keltiradi [6: 17].

7-fasl – Har bir bahrning musta’mal vaznlari tafsili (“Dar tafsili avzoni musta’mal az har bahre”) deb nomlanib, unda Tusiy dastlab arab aruziga, keyin esa forsiy aruzga xos bahrlarni keltiradi. Avvaliga “Doirai muxtalifa” tarkibiga kiradigan tavil, madid, maqlubi tavil, basit, vofir, komil kabi olti bahr tahlil qilinadi. Bu o‘rinda Tusiy keltirgan maqlubi tavil (ariz) bahri aslida forsiy aruzshunoslar tomonidan ixtiro qilingan bo‘lib, arab manbalarida uchramaydi. So‘ng “Doirai mujtaliba” tarkibidagi hazaj, rajaz, ramal bahrlari vaznlar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Tusiy “Doirai mushtabiha” tarkibiga sari’, qarib, munsarih, xafif, muzori’, muqtazab, mujtass bahrlari, “Doirai muttafiqa”ga mutaqorib va g‘arib (mutadorik) bahrlarini kiritib, jami 17 bahrning mufassal tavsifini keltirib o‘tadi.

8-fasl – Ruknlarga oid bo‘lmagan o‘zgarishlar haqida (“Dar tag‘yiri ba ziyodat, ki taalluq ba arkon nadorad”) deb nomlangan bobda Tusiy tavil, hazaj, xafif, sari’ bahrlari misolida ruknlarga doir bo‘lmagan o‘zgarishlar haqida so‘z yuritadi.

9-fasl – Ba’zi forsiy istilohlar haqida (“Dar zikri ba’ze az alqobi mazkur ba porsi go‘yad”) deb, 10-fasl – Aruz ilmi foydalari va manfaati (“Dar bayoni foida va manfiati ilmi aro‘z”) deb nomlanadi. Unda Tusiy aruz fanidan olinadigan foydalarni misollar bilan yoritib berishga harakat qiladi.

Risolaning ikkinchi yirik qismi qofiya ilmiga bag‘ishlangan bo‘lib, u ham o‘n fasldan iborat. Bu qism nisbatan muxtasar uslubda yozilgan bo‘lib, Tusiy har bir fasl avvalida qofiyaga oid istilohlarning ma’nosini izohlab ketadi.

1-fasl – Qofiya va uning qismlari haqida (“Dar haddi qofiya va aqsomi o‘”) bo‘lib, Tusiy unda qofiya va uning tuzilishi haqida ma’lumot beradi, she’riyatda qofiyaning ahamiyati haqida gapirib, Xalil ibn Ahmadning arab she’riyatida qofiya haqidagi fikrlariga iqtibos keltiradi [5: 376]. 2-fasl – Qofiya juzvlari bo‘lgan harf va harakatlar haqida (“Dar bayoni huruf va harakote, ki ajzoi qofiya boshad”). 3-fasl – Shu harf va harakatlar ahkomi to‘g‘risida (“Dar ahkomi in huruf va harakot”). 4-fasl – Qofiya turlari haqida (“Dar anvoi qavofi”). 5-fasl – Qofiya ayblari haqida (“Dar uyubi qavofi”). Tusiy qofiyaga oid qismning dastlabki besh faslida arab she’riyatidagi qofiya haqida so‘z yuritadi, shundan so‘ng fors she’riyatidagi qofiya tadqiqiga kirishadi.

Fors she’riyatidagi qofiya tahliliga bag‘ishlangan fasllar quyidagicha nomlanadi: 6-fasl – Forsiylar nazdida harf va harakat hamda radif haqida (“Dar huruf va harakoti qavofi nazdiki porsigo‘yon va zikri radif”). 7-fasl – Forsiylar nazdida qofiya turlari haqida (“Dar anvoi qavofi ba nazdi porsigo‘yon”). 8-fasl – Asliy qofiya hamda shoygon qofiya haqida (“Dar qofiyai asli va zikri shoygon”). 9-fasl – Qofiyaga oid ba’zi hukmlar haqida (“Dar ba’ze ahkomi qavofi”). 10-fasl – Forsiylardagi qofiya ayblari haqida (“Dar uyubi qavofii porsi”).

Tusiy nazariy ma’lumotlarni qisqa, sodda va aniq tarzda ifodalab berishga harakat qiladi. Ayniqsa, fors adabiyotiga xos jihatlarni arab poetikasidan alohida tasniflab ko‘rsatgani, qiyosiy tahlilni ham bir vaqtning o‘zida amalga oshirgani risolaning ahamiyatini yanada oshiradi.

Risolaning tadqiqi Tusiy nafaqat Sharq she’riyatini, balki o‘zigacha o‘tgan olimlarning aruz va qofiya haqidagi asarlarini ham chuqur o‘rgangani haqidagi xulosaga olib keladi. Chunki muallif u yoki bu muammoli holatlarni yechish uchun o‘zidan ilgarigi salaflar – Xalil ibn Ahmad, Bahrom Saraxsi, Yusuf Aruzi kabilarning fikrlariga ham ishora berib ketadi. Bundan tashqari, Rudakiy, Firdavsiy, Kamol Isfahoni kabi Sharq she’riyati namoyondalari ijodiga murojaat qilib, o‘z fikrlarini dalillaydi. Bu borada “Me’yor ul-ash’or” o‘rta asrlar olim va shoirlari haqidagi manba sifatida ham e’tiborga molikdir.

Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” risolasi esa fors tilida yaratilgan risolalar orasida Qays Roziyning “Al-mo‘jam”idan kam bo‘lmagan o‘rinda turadi, buni Muhammad ibn Abdulvahhob Qazviniy “Al-mo‘jam”ga

yozgan so‘zboshisida ham ta’kidlab o‘tadi [7: 5].

Tusiyning risolasi o‘zidan keyin bir qancha asarlar, jumladan Atoulloh Husayniyning “Badoye us-sanoe”, Sayfiy Buxoriyning “Risolayi aruz”, Vohid Tabriziyning “Jam’i muxtasar”, Muhammad G‘iyosiddinning “G‘iyos ul-lug‘ot” kabi risolalaridagi aruz hamda qofiya haqidagi qarashlar uchun mayoq vazifasini o‘tagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1) Насируддини Тўсий. Меъёр-ул-ашъор / Ҳозиркунандаҳои чоп У.Тоиров, М.Абдуллоев, Р.Чалол. – Душанбе: Ориёно, 1992.

2) Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996.

3) Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. Фил. фан. док. дис. - Тошкент, 2019.

4) Yusupova D. Aruz alifbosi. Toshkent: Akademnashr, 2015.

5) Hamroeva O. Reflection of issues of classical poetics in “Me’yor ul-ash’ar”. // EPRA International Journal of Reaserach and Development, Volume 5, Issue 4. 2020.

6) Гулиев Т. Трактат «Мийар ал-ашар» Насир ад-Дина Туси. Автореферат диссертации кан. фил. наук. – Баку, 1990.

7) Одинаев Н. Роль Ходжи Насир ад-Дина Туси в развитии персидско-таджикской литературно-эстетической мысли. Автореферат док. фил. наук. – Душанбе, 2022.

8) Холматова М. М. Роль российских ученых в познании великого персидско-таджикского ученого Насир-ад-дина Туси. // Сборник материалов Международной научной конференции, посвящённой 200-летию российского востоковедения (г. Худжанд, 23 ноября 2018 года). Серия: «Евразийский перекресток». Вып. 11. – Оренбург: ООО ИПК «Университет», 2019.

Navruzgul TURDIYEVA,
ToshDO‘TAU O‘zbek adabiyoti mutaxassisligi magistranti
turdiyevanavruzgul@gmail.com



LUQMON BO‘RIXON HIKOYALARIDA XARAKTER BADIIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Luqmon Bo‘rixonning hikoyada xarakter yaratish mahorati tadqiq qilingan bo‘lib, xarakterni yuzaga chiqarishda qanday tasviriy ifoda va usullarga tayanilgani tekshiriladi. Hikoyalar biografik, psixologik va sotsiologik metodlardan foydalanilib tahlil etiladi. Zamonamizning odamlarini xarakterini yaratishda qanday yutuqlarga erishganiga va qanday dolzarb mavzularda qahramonining xarakterini gavdalantirganiga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *xarakter, hikoya, obraz, metod, uslub, sheva, metafora.*

Annotation: in this article, Luqman Borikhon's ability to create a character in the story is researched, and what visual expressions and methods he relies on to reveal the character are examined. Stories are analyzed using biographical, psychological and sociological methods. Attention is paid to what achievements have been made in creating the character of people of our time and in what actual topics they have embodied their character.

Key words: *character, story, image, method, style, dialect, metaphor.*

Аннотация: в данной статье исследуется способность Лукмана Борихона создать персонажа в рассказе, а также рассматриваются, какие изобразительные средства и приемы он использует для раскрытия персонажа. Истории анализируются с использованием биографических, психологических и социологических методов. Уделяется внимание тому, какие достижения были достигнуты в создании характера людей современности и какие актуальные проблемы воплотили характер героя.

Ключевые слова: *персонаж, сюжет, образ, метод, стиль, диалект, метафора*

Yozuvchi badiiy adabiyotda o‘zining xarakter yarata olganligi bilan eslanadi. Xarakterni qay darajada yoritib bera olishi bilan yozuvchining mahorat mezoni ham o‘lchanadi. Butun boshli asarda xarakteri bilan ajralib turgan obrazlar kitobxon xayolini band qiladi. Xarakter yaratishda obrazning xislatlariga, gap-so‘zlariga, kechinmalariga alohida e’tibor qaratiladi. Har bir adabiyotning boyligi qahramonlar xarakterining rang-barangligi bilan belgilanadi.

Badiiy xarakterda xalqning milliyligi, o‘zligi akslantirilgan bo‘ladi. Xarakter obrazdan farqlanadi. Obraz xarakterga aylanishi uchun qahramonning muayyan tarixiy-ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy sharoitdagi o‘ziga xos o‘rni va xususiy belgilarini teran ochishni taqozo etadi. O‘zbek adabiyotida xarakterga aylana olgan obrazlarning namunalarini ko‘plab asarlarda, jumladan, G‘.G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam”, A.Qahhorning “Anor”, “O‘g‘ri” kabi hikoyalarida uchratishimiz mumkin. Adabiyotshunos Izzat Sulton xarakterga quyidagicha ta’rif beradi: “Badiiy asarda ozmi-ko‘pmi tafsilot bilan tasvir etilgan personaj obraz yoki xarakter deb ataladi. Xarakter(obraz) – insonning tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan tasviri. Xarakter kishilarning ma’lum toifasiga xos xususiyatlarni ma’lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishilarning sifatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko‘rinadi. Xarakter muallif estetik idealini tashuvchidir. Xarakterlar muayyan psixologik sharoitda harakat etish natijasida namoyon bo‘ladilar va shaklllanadilar”(1: 103; 104;). Olim professor L.I.Timofeev badiiy xarakterni yuzaga keltiruvchi bir qancha omillarni sanab o‘tadi. Jumladan: “portret, qahramonning tavsifi va ta’rifi, siyosiy va ruhiy vaziyatlar, narsa va hodisalar; qahramon faoliyati, uning boshqalar bilan munosabati, fikr o‘ylari, iztiroblari, quvonchlari birgina badiiy xarakterda mavjud bo‘lishi lozim. Ushbu jihatlarsiz xarakter qurilishi mukammal bo‘la olmaydi (2: 130; 132;). Rus adabiyotshunosi N.Dragomiretskaya “Badiiy adabiyotda xarakter” nomli tadqiqotida: “Adabiy xarakterni hayotiy xarakterdan farqlay bilish muhim” (3: 100; 101;), deb yozadi. Badiiy xarakterda subyektiv omil yetakchilik qiladi. Yozuvchi o‘zining estetik idealini qahramonining xarakteri orqali beradi. Shuning uchun ham badiiy xarakterga yuk yuklangan bo‘lib, bu ma’lum bir jamiyatning qiyofasini akslantirishi kerak. Har bir xalqning qiyofasini ko‘rsatadigan o‘zlarining milliy xarakterlari bor. Rus adabiyotshunosi N.G.Chernishevskiy milliy xarakterning o‘ziga xosligini milliy muhitdagi o‘ziga xoslik bilan izohlaydi. Hech qachon nemis yoki fransuz ijtimoiy muhitida rus milliy xarakterini ifodalash mumkin emasligini ta’kidlaydi (4: 289;). Bu fikrga to‘laqonli qo‘shilish mumkin, sababki bir xalqda qadrlangan narsa, detall boshqa bir xalqda buning aksi bo‘lishi mumkin. Asarlarda keltirilgan personajlar munosabati, turmush tarzi ham bir-biridan farq qilgani uchun bir xalqning adabiyotini boshqa bir xalq vakillari o‘qiganda badiiy asardagi voqealarni hazm qilolmaydi.

Hozirgi kunda ham adabiyot qaysidir ma’noda yozuvchidan xarakter yaratishni talab qiladi. Yozuvchi birinchi navbatda, atrofidagi odamlardan xarakter yaratishga harakat qiladi. Luqmon Bo‘rixon hikoyalaridagi aksariyat xarakterlar bugungi zamon kishilarining qiyofasidir. Yaqin kelajagimiz, bugunimizning qahramonlari esa kelajak uchun o‘rnak bo‘ladigan qahramonlardir. “O‘tirik”, “Long” kabi hikoyalarida yozuvchi millatimizning faxri bo‘loladigan sodda, mehnatkash, ko‘pchilikning g‘amini yeydigan, shu bilan birga tortinchoq, o‘zining dardini bildirmay yuradigan, hammani tushunishga harakat qiladigan nuroniy otaxonlarning xarakterini chiza olgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “O‘tirik” hikoyasida otaxon obrazi millatimizning qoniga singib ketgan birovlarni ayash, yaxshi gumonda bo‘lish singari fazilatlarini ko‘rsatishi bilan e’tiborlidir. Xalqimiz azaldan o‘zi och bo‘lsa-da o‘zgalarni o‘ylagan, birovga maloli kelishidan hayiqqan. Hikoya qahramoni ham hokimning ishi ko‘p bo‘ladi, har qanday yumush bilan bezovta qilavermay deb o‘z hisobidan quduq qazdirmoqchi bo‘lgani uning saxiyligi va kamsuqumligining belgisidir. Bir tarafdan bu o‘z huquqini bilmaslik deya talqin qilinishi ham mumkin. Ammo qahramon prezidentning vakillariga ishonadi, qonun -qoidalardan biroz bo‘lsa-da xabari bor. Aks holda, prezidentning xalqqa qayish, yordam ber deb turganini qayerdan ham bilardi? Bundan tashqari, millatimizga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri so‘zining ustidan chiqishni muqaddas burchdek biladi va lafzsizlikka esa katta gunoh sifatida qaraydi. Rus adabiyotshunosi N.Dragomiretskayaning xarakter yaratish usullari haqida quyidagi fikrlari diqqatga molikdir: “Obraz – voqelikni badiiy aks ettirish shakli, xarakter esa obraz mazmuniga mansub kategoriyadir. Xarakter yaratishda yozuvchilar turli uslublardan foydalanadilar: a) bir toifa yozuvchilar badiiy xarakter xususiyatlarini personaj nutqi orqali aks ettiradilar; b) boshqa yozuvchilarda badiiy obrazning ma’lum predmetga munosabati xarakter yaratish usuli yetakchilik qiladi; v) uchinchi bir toifa yozuvchilar badiiy obrazlarni tabiat qo‘ynida tasvirlash orqali xarakter yaratishga omil bo‘ladilar” (5: 132; 133;). Luqmon Bo‘rixon hikoyalarida personajlar nutqi orqali milliy xarakterni yarata olgan. Otaxonga xos bo‘lgan xarakter belgilarini chizishda ham yozuvchi shevaga xos so‘zlardan unumli foydalangan. Ulim, tuvrama, shuytib, bo‘sag‘a, o‘tirik surmoq so‘zlaridan foydalanishi, -mi yuklamasining o‘rniga -ma yuklamasining ishlatilishi, iymanib, o‘zini kichkina olib gapirishi, yumushini soddalashtirib sa-al tashvish deb gapirishi, keksalarga xos bir nomni boshqasiga o‘zgartirib (geologlarni yer kovlagichlar) aytishi xarakterning jonli yaratilishiga yordam bergan unsurlardir. “Long” hikoyasining qahramoni bo‘lmish Safarmurod oqsoqol ham yaqin yillarda boshimizdan o‘tkazgan karantin davridagi yaxshilik qilib odamlarning duosini olgan vatandoshlarimizning qiyofasidir. Hikoyaning nomlanishi ham ma’lum ma’noda millatning xarakterini ifodalay oladi. Qadimdan ota – bobolarimiz yomon kasalliklar xalqda tarqaladigan bo‘lsa, uning nomini atamasdan long deyishgan. Kasallikning nomini aytadigan bo‘lsa, u yana-da ko‘payib ketadi deb o‘ylashgan. Bu kabi

holatlarni yomon hayvonlarning nomini tunda atamasliklari misolida ham ko‘ramiz. Masalan, ilonni arqon deb aytishlari ham bunga yorqin isbotdir. Safarmurod Koronavirusni aytishga tili kelmasligi ham, Toshbibi ayaning noming qurg‘urni aytmang bobosi, long deng deyishi ham Toshbibi ayaning xalqning urf-odat-u irim-sirimlarini yaxshi bilishidan dalolatdir. Safarmurod buva “O‘tirik” hikoyasidagi otaxondek hukumat vakillarini bezovta qilaverishni istamaydigan, muammoni o‘zi hal qilishga urinib ko‘radigan, saxiy, xalqparvar inson hisoblanadi. Safarmurod buva ham “O‘tirik” hikoyasi qahramoni ham xalqning yumushini o‘z hisobidan pul sarflab yaxshilamoqchi bo‘ladi. Bu bilan ularning donishmandligining guvohi bo‘lamiz. Xalq orasida quduq qazib xalqqa suv chiqargan insonga hajga borganning savobi beriladi degan gap bor. Ikkala hikoyada ham keksalarning donishmandligi-yu xokisorligi tasvirlanadi. Safarmurod oqsoqol riyokorlikdan qochadigan, mansabini suiiste’mol qilmaydigan vatanga nafim tegsin deydigan fidokorlardandir. Unga malomat toshlari otilsa ham chidashga harakat qiladi. Mahallada raisga nisbatan ig‘vogarlar ham talaygina topiladi. Buni tushunsa ham bo‘ladi. Karantin paytida ko‘plar qo‘rqqanidan o‘z jonini o‘ylab, ortig‘i bilan uylariga oziq-ovqat mahsulotlarini yuklab tashlashdi. Bunday paytda yaxshilik qilgan mahalla oqsoqolini odamlarning noto‘g‘ri tushunishi tabiiy hol edi. Buning ustiga Safarmurod oqsoqolning oshib-toshib yotgan moli yo‘qligi ham odamlarni shubhalantirgan. Rais kamtarinligi va kambag‘allarni o‘ylab qilgan yaxshiligi evaziga hatto tuman o‘rinbosaridan ham yaxshigina dakki eshitib oladi. Mamlakatimizda yildan-yilga xalqning hayotini yaxshilaydigan islohotlar amalga oshirilyapti, davlat dasturlari qabul qilinyapti. Yuqori tashkilotlar amalga oshirayotgan ishlarni quyi tashkilotlar ham vijdon bilan bajarsa, vatanimiz gullab yashnaydi. Safarmurod oqsoqol buni tushunib yetgan davlatning vakili hisoblanadi. Unda prezidentga bo‘lgan hurmat, vatanga bo‘lgan muhabbat jo‘sh urib turadi. Safarmurod oqsoqolga o‘xshagan odamlar borligi sabab ham xalqimiz Koronavirus tarqalib, mamlakatda karantin holati bo‘lgan paytda ham hamjihatligi yanada oshdi. Moddiy ahvoli yetarli darajada bo‘lmagan oilalarning ahvolidan xabar oluvchilar soni oshdi. Koronavirus oramizdan ko‘plarni olib ketgan bo‘lsa-da, insonlar bir-biriga oqibatli bo‘lishlari kerakligini uqtirib ketdi. Mamlakatimiz berayotgan yordamni to‘g‘ri tushunmaganlar ham bo‘ldi. Ular har xil yozuv-chizuv ishlari bilan band bo‘ldilar. Bularning tiplari sifatida domla Xurramovichga o‘xshaganlarni keltirish mumkin. Bunday kimsalarning vaziyatni nazorat qilib turgani yaxshi, ammo o‘zining nafsini o‘ylab mahallani taftish qiladiganlar xudbinlar va ig‘vogarlar sirasiga kiradi. Karantin paytida aholi orasida vahima va to‘polonlarning sababchisiga aylangan kimsalarning adabiyotdagi obrazidir. Obrazni tashqi shakl, ko‘rinish deydigan bo‘lsak, xarakter uning mohiyati ichki ko‘rinishidir. Rus dramaturgi Nikolay Pogodin “Xarakter yaratilsagina - badiiy asar yaratiladi” degan asosli fikrlarni keltirgan. Haqiqatda, xaraktersiz badiiy asarni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Asar mazmuni obrazlar xarakterida mujassamlashgan bo‘ladi. Izzat Sulton “Xarakter hayotiy haqiqatni aniq hissiy shaklda aks ettiradi, ya’ni asar mazmunini xarakter tasviri tufayli hayotiy aniqlik kasb etadi va shu bilan birga bizning hislarimizga ta’sir etish xususiyatiga ega bo‘ladi” (6: 75;), deya tavsif etgan edi. To‘g‘ri, kitobxon o‘zining tuyg‘ulariga yaqin hislarni his qilgan obrazni sevadi, hislari junbushga keladi va badiiy asar o‘zining vazifasini bajargan bo‘ladi. Luqmon Bo‘rixon asarlarida hech bir yozuvchida uchramaydigan alohidalikka intilishga harakat qilgan. Hozirgi zamon odamlaridagi xarakter, muammo, ularning o‘y-qarashlarini, atrofidagi odamlar bilan munosabatini asarlarida berishga harakat qilgan. Bu haqida yozuvchining o‘zi “Favvora TV” ga bergan intervyusida aytadi. Qachongacha ergashuvchi xalq bo‘lamiz?! Biz ham ergashtiruvchi xalq bo‘laylik! Jahon xalqlariga ergashavergan bilan dunyoni lol qoldirolmaymiz, degan. Xalqimizda azaliy mavjud bo‘lgan mehmondo‘stlik kabi fazilatlarning yo‘qolayotgani, odamlar bir-birlaridan foyda ko‘rsagina munosabat bog‘layotganini “Cho‘ldan kelgan tashvish” hikoyasi orqali ochib bermoqchi bo‘lgan. Hikoyaning bosh qahramoni ilmli, o‘z ma’ruzalari bilan ahli Ovrupani birqur angraytib tashlab Parijdan qaytgan ruhshunos olim janob Do‘lanovdir. Ilmli odam oqibatli ham bo‘ladi deb qaraladi. Ilmli inson o‘zining bilimi va yaxshi axloqi bilan boshqalardan ajralib turish kerak. Ilm ahli bo‘la turib yerdan oyog‘i uzilgan kimsalar obrazi bugungi kun adabiyotida ham yetarlicha bor. Do‘lanov shaharga kelib yashab, shahar hayotiga moslashib qishloqdagi oddiy, sodda odamlar bilan aloqasi borligidan uyaladigandek bo‘lib qolgan. U o‘zini madaniyatli, qishloqdagi odamlardan bir qur yuqori sanaydi. O‘zining qishloqdan chiqqanligini unutgan odamlarning obrazidir.

Xulosa, badiiy adabiyot xarakter yaratish muammosini har qachongidan jadal, izchil hal qilib berishga intilmoqda. Barkamol xarakter yaratish yo‘lidagi ijodiy, ilmiy izlanishlar davom etmoqda” (7: 25, 27). Luqmon Bo‘rixon xarakterlarning mohiyatini ochishda ularni sayohat qildiradi (“Tokchadagi tumor”), obrazlar xotirasida o‘tmishdagi voqealarni eslatadi (“Cho‘ldan kelgan tashvish”, “Tun qa’ridagi shu’la”, “Boltaboyning bolasi”, “Aldoqchi tunlar”) yoki ularni xayolot dunyosiga cho‘mgan(“Sut sotuvchi bola”, “Qo‘noq”) holda tasvirlaydi. Bundan tashqari yozuvchi xarakterlar tilidan takrorlarni, alliteratsiga, metaforaga boy so‘zlarni qo‘llatib hikoyaning badiiyatiga joziba beradi. “Tokchadagi tumor” hikoyasida “Tomosha talablar to‘pida toyronglab turgan kengsoylik To‘lqin”, “tilsimi totli tuyg‘ular taloshida tebranib...”, “jonivori

jonlanib jahongashta fermer jahl otiga minib”, “Quvvati qurib qo‘nalg‘asiga qo‘nayotgan quyosh” kabi birikmalar bilan, alliteratsiyaning betakror namunalari bilan obrazning xarakterini chiroyli yo‘sinda ko‘rsatib bergan. “Temir sandiq” hikoyasida esa “...Shamollarning yalmog‘izdek yalashlaridan yag‘ir yag‘rinday yallig‘lanib ketgan tepalik yonbag‘rida ajabtovur sandiq tashlandiq bo‘lib yotardi” deya bergan birikmalari bilan metaforaning go‘zal namunalari bilan hikoyalarini boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 103 -104-bet
2. Тимофеев Л.И. Теория и литературы. – М.: Педагогика, 1979.130-132-с.
3. Драгомирецкая Н. Характер в художественной литературе / Проблемы теорки литературы. – М.: 1958.100-101-с.
4. Чернишевский Н.Г. Полх. Собр. Соч. III. М.: 1948.289-с.
5. Драгомирецкая Н. Характер в художественной литературе / Проблемы теорки литературы. – М.: Наука,1958. 132-133-с.
6. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 75-b
7. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик.Тошкент: Шарқ, 2007. 25-27-б
8. “Favvora TV” teleko‘rsatuvi. 2022. 27-avgust.
9. https//www.ziyo.uz.com



Maftuna NARZIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
2-kurs magistranti
Maftunanarziyeva@gmail.com

ADABIYOT VA TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA PORTRET NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya: maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida yozuvchi ijodini shaxsiyatiga bog‘lab o‘rganish, portret janridagi namunalardan foydalanish yo‘llari yoritilgan. Adabiy ta’limda fanlararo aloqaning ahamiyati, adabiyot darslarini tasviriy san’at darslari bilan integratsiyalab o‘qitish hamda o‘quvchiga badiiy asar mazmunini his qildira olish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish bo‘yicha fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, Oybekning “Navoiy” romani va rassom Alisher Aliqulov tomonidan ishlangan shoir portreti syujetini tahlil qilish, asarning mantiqiy yechimini topish mazmuni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, adabiyot, portret, integratsiya, ijodkor shaxsiyati, kompozitsiya, ranglar psixologiyasi, ramz, mantiq.*

Annotation: in this article, in the study of the writer's work in the general secondary education system, in the understanding of his personality, the ways of using and understanding the examples of color-images in the portrait genre are highlighted. The importance of interdisciplinary communication in literary education, the integration of literature lessons with visual art lessons, and the ability to make the student feel the content of the artistic work, and encourage independent thinking are given. Also, analysis of the subject of the portrait of Alisher Navoi by the artist Alisher Alikulov, finding a logical solution to the work, and justifying its content are given. Pupils have basic ideas about identifying the symbolic meanings of color and image samples, the function of each element in the work, the connection of colors with personality, the meanings of details and their compatibility with the artist's psyche.

Key words: *fine art, literature, portrait, integration, creative personality, composition, color psychology, symbol, logic.*

Аннотация: в статье освещаются пути изучения творчества писателя в связи с его личностью на примерах портретного жанра в системе общего среднего образования. Приводятся мнения о важности междисциплинарных связей в литературном образовании, интеграции преподавания литературы с уроками изобразительного искусства, о том, чтобы ученик почувствовал содержание художественного произведения, направил его к самостоятельному мышлению. Также описывается анализ сюжета романа Ойбека «Навои» и портрета поэта, созданного художником Алишером Аликуловым, а также содержание поиска логического решения произведения.

Ключевые слова: *изобразительное искусство, литература, портрет, интеграция, творческая личность, композиция, психология цвета, символ, логика.*

Badiiy asarlar tahlilida yozuvchi biografiyasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki asarning tushunarli va ta’sirli bo‘lishi uchun o‘quvchi ongida, avvalo, yozuvchi hayoti bilan bog‘liq haqiqatlar mantiqiy jihatdan shakllangan bo‘lishi zarur. Bu jihatdan portret tasviri o‘quvchiga o‘z maqsad-muddaosini yetkazishda yordamchi vazifasini o‘taydi. “Portret (fr. portraire – tasvirlamoq) – 1) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. “Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir” [Gafurov, 2021: 556–559]. Zero, ijodkor shaxsiyati o‘zi yaratgan asarlari bilan chambarchas bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Adib hayoti va ijodini darsliklarda beriladigan tarjimayi hollar yordamida o‘rganish ta’lim jarayonini to‘liq qamrab olmaydi. Ayrim ma’lumotlarni og‘zaki taqdim etish, ba’zilarini ma’ruza sifatida o‘quvchilarga yetkazish (yozuvchi yoki shoirning tug‘ilgan kuni munosabati bilan tashkil etiladigan adabiy kechalar dasturiga kiritiladi, devoriy gazetalarda beriladi), kinoko‘rsatuv, videofilm va boshqa materiallardan foydalanish yo‘li bilan ham o‘rganish mumkin.

R.Usmonovning ta’kidlashicha, *“O‘quvchilar yozuvchi biografiyasini o‘rganish orqali san’atkorning ijodiy takomiliga ta’sir etgan fakt va hodisalarni hamda ularning yozuvchi asarlarida qanday aks ettirilganini, shuningdek, asarlarining yaratilishi tarixi, ularga singdirilgan g‘oyaviy fikrlar, yozuvchining asar ustida olib borgan ishlari, uning bu ijodiy mahsuli zamondoshlari tomonidan qanday kutib olingan va keyingi davrlar uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini tushunib oladilar”* [Usmonov, 1969: 37–38]. Ko‘rinadiki, yozuvchi tarjimayi holini tasviriy san’at fani bilan qiyosiy o‘rganish, fanlararo aloqaga asoslanish asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatiga chuqurroq kirishga yo‘naltiradi. Fransuz faylasufi Didro, bundan bir necha yillar avval *“Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o‘qish- yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakatda insonlar barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi”* – degan edi [Rostotsev, 1980: 12–13].

Yozuvchi tarjimayi holini portret namunalari bilan bog‘liqlikda o‘rganish asardagi har bir detalni e’tibordan qochirmaslikni taqozo etadi. Metodist S.Kambarova to‘g‘ri qayd etganiday, adabiyot darslarida portret janridagi rang-tasvir namunalarini o‘rganish quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

– ijodkor yashagan davr ruhini anglash;

– adabiyot va san’atning tarqaqqiyot tendensiyalarini belgilash;

– adabiyotning boshqa sohalar bilan aloqasini o‘rganish;

– portret janridagi rangtasvir asarlarining rivojlanish bosqichlarini kuzatish;

– muallifning individualligi va mahoratini baholash;

– asardagi asosiy elementlarni o‘qish yo‘llarini o‘zlashtirish;

– portretdagi falsafiy-psixologik o‘qish yo‘llarini o‘zlashtirish;

– portretdagi falsafiy-psixologik mazmunni yoritish va h.k. [Kambarova, 2022: 21–22].

Portret janri insonning ichki ruhiy olami bilan bog‘langan holda aniq bir obraz yaratilishi demakdir. Portretda insonning to‘la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o‘zi ham bo‘lishi mumkin. Portret yaratish o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma’naviy, shuningdek, tashqi va ichki olamidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san’at darajasiga teng. Yozuvchi tarjimayi holini tasviriy san’at fani bilan bog‘lab o‘rganish o‘qituvchi zimmasiga rang-tasvirning zamiridagi ramziy ma’nolarni aniqlash, asardagi har bir detalni tahlilga tortish, ijodkor ruhiyatiga uyg‘un jihatlarni ochib berishi zarur. Portret tasvirdagi rassom tasvirlagan odamlarga xos turli harakatlarni his qila bilmog‘i, ayniqsa, odamning qiyofasidagi samimiylik yoki soxta jihatlarni tasvirlay bilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak [Abdirasilov, 2012 : 45-46].



Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, portret janri inson ma’naviy qiyofasini o‘zida ifodalashi bilan san’atning boshqa turlaridan birmuncha farq qiladi. Portret orqali inson obrazini mohirona ko‘rsata olgan buyuk rassomlar qatoriga jahon tasviriy san’atida portret janrida Leonardo do Vinchi, Titsian, Rembranat, Repin singari iste’dodli rassomlar mahorat bilan ijod qilishgan. O‘zbekistonda bu janr takomili A.Abdullayev, M.Nabiyev, Ch.Axmarov, J.Umarbekov, R.Ahmedov kabi mo‘yqalam ustalari faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Portret janridagi rang-tasvir namunalarini yaratish, sohaning o‘ziga xos sir-asrorlarini mo‘yqalam vositasida yuzaga chiqarish uchun ijodkordan zarur amaliy ko‘nikmalar talab etiladi. Bir so‘z bilan aytganda, ijodkor hayotini u bilan bog‘liq badiiy asarlarni o‘qitishda mavzu jihatdan unga mos tasviriy portret, miniatyura yoki illyustratsiya janrlari bilan bog‘liqlikda o‘qitish asarni yanada chuqurroq anglashga zamin yaratadi. Ammo, kuzatishlarimizdan ma’lumki, o‘qitish davomida ulardan faqatgina didaktik vosita sifatida foydalanilmoqda. Ulardan shunchaki ko‘rsatma vositasi emas, balki ramziy ma’nolarni

anglatish, o‘quvchida ko‘rib anglash qobilyatini, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlarni 10-sinfda Oybekning “Navoiy” romanini o‘rganishda bosh qahramon tasviri va rassom Alisher Aliqulov tomonidan ishlangan shoir portreti syujetini tahlilga tortish misolida asoslashga harakat qilamiz. Romanda shoir portreti quyidagicha tasvirlangan:

“Shoirning boshida uchli ko‘k taqyaga silliq o‘ralgan ko‘rkamgina salla. Egnida odmi shohi to‘n, ustida yalang qo‘ng‘ir movut chakmon... Navoiy o‘ttizdan oshmagan bo‘lsa ham, yoshi ulug‘lardek ko‘rinardi. Qomati o‘rtadan baland, ingichka, lekin gavdasi pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqolli, xushbichim miyiqlari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma’nosi, ma’naviy qudrat va yengil, go‘zallashtiruvchi bir horg‘inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg‘och ko‘zlarida go‘yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi [Oybek, 2004: 33–34].

Obrazning tashqi ko‘rinishi. Yuz- ko‘zlarida ma’yuslik, lablarining uchida, ko‘zlarida jiddiy tabassum, sokinlik va o‘ychan nigoh qamrab olgan.Yuzidagi sariqlik uning hayot sinovlarida toblanganligi, kuchli sabr-toqat sohibi ekanligidan dalolat beradi. Qomati o‘rta baland, qora soqoliga oq tushgani yosh bo‘lsa-da, ulug‘roq ko‘rinishi uning ma’naviy yuksakligidan dalolat. Oybek ta’biri bilan aytganda, “Navoiy o‘ttizdan oshmagan bo‘lsa ham, yoshi ulug‘lardek ko‘rinardi”. Bir so‘z bilan aytganda, badiiy matn va tasviriy ifoda bu jarayonda uyg‘unlashgan.

Barmoqlar. Tasvirda barmoqlar uzun tasvirlangan. Oybek so‘z bilan tasvirlaganda nafis sifatini qo‘llaydi. Qo‘llar insonning taqdiriga ishora. Navoiy xalqparvarligining mohiyati uning she’riyatidagina bo‘lib qolmay, balki uning ma’murchilik va me’morchilik ishlarida ham namoyon bo‘ldi.

Salla (fors. – tugun) musulmon erkaklarning bosh kiyimi sifatida o‘sha davrda barcha erkaklar shunday o‘rab yurishgan. Bu esa Navoiyning har doim Alloh bilan vahdat-ul vujudligini anglatadi. Shu bilan birga salla oq rangda tasvirlangan. Bu islom, poklik, soflik haqiqatni anglash poklanishiga ishora qiladi. Zero, bular Navoiyning yuksak qalb sohibi, buyuk iste’dod egasi ekanligini anglatadi.

To‘n va chakmon. Alisher Navoiy portretidagi to‘n dabdabali, hashamdor, sohibining baland martabasidan va mansabidan darak beradi. Chunki Navoiy Sulton Husayn Bayqaroning bosh vaziri bo‘lgan. To‘nidagi qizil rang xromatik rang turiga kirib, to‘ndagi bejirim ishlangan naqsh sohibining yuksak didligidan dalolat beradi.

Belbog‘ tasvirini kuch-qudrat belgisi sifatida tushunish mumkin. Navoiyning saroydagi o‘z o‘rni borligidan dalolat beradi.

Bulutlar tasvirida musavvir Navoiyning hayot yo‘liga ishora qilyapti. Zero, osmon musaffo, soflik ufurib turibdi. Bu tasvir Navoiy yashagan Xuroson va Movarounnahrning farovonligidan darak beradi. Navoiy butun kuchini mansab va shon-shavkat uchun emas, odamlarning har qanday ishini xalq faravonligiga yo‘naltirishga bunyodkorlik va ma’rifatga qaratdi.

Orqa fondagi bino va inshootlar. Tasvirda g‘oyat go‘zal binolar, masjidlar qad ko‘targani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tarixdan ma’lumki, Navoiy “Ixlosiya” madrasasi va uning qarshisida esa g‘oyat go‘zal va ko‘rkam “Xalosiya” xonaqosini soldiradi. Navoiy qurdirgan imoratlar o‘zining ko‘rkamligi, xushhavoligi, zeb-u ziynati, mahobati bilan boshqa imoratlardan ajralib turgan.

Kitob tasviri Navoiyning butun hayotini ilm olishga bag‘ishlaganining yaqqol isbotidir. Uni taxminan “Xamsa” asari deya olamiz. Chunki Navoiyning bu yoshda ushbu asarni bitgani bizga sir emas.

Naqshinkor panjaralar nihoyatda bejirim, nafis ishlangan. Bu tasvir orqali Alisher Navoiy o‘z hayoti davomida “ming bir” xayrli ishlarni bajarganligiga amin bo‘lamiz. Shulardan 366 tasi binolar va ta’mirlashlar bo‘lib, bu vazifani u sharaf bilan bajardi. Bundan tashqari, Navoiyning me’morlar san’atiga bo‘lgan shaxsiy qiziqishi ham jiddiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu boisdan bo‘lsa kerak, Navoiy ko‘p qurilishlarning tarhini o‘zi tuzar, ayrim me’morlarning xato va kamchiliklarini ko‘rsatib berar va o‘z fikrini muntazam ko‘p burchaklar, aylana va doiralar haqidagi qonuniyatlardan dalil keltirib isbotlar edi. Navoiyning qurdirgan binolariga shoirona chiroyli nomlar qo‘yish odati bo‘lgan. Ixlosiya, Xalosiya, Shifoiya, Safoiya, Nizomiya, Xusraviya va Fanoiya shular jumlasidandir. Tasvirda me’morchilik namunalari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bizningcha, o‘quvchilarga adabiyot va tasviriy san’at namunalarini solishtirgan holda o‘rgatish asar mazmuniga chuqurroq kirish, yosh avlodni erkin fikrlaydigan kitobxon qilib tarbiyalashda samaralidir. Fanlararo aloqani tog‘ri yo‘lga qo‘yilsa, o‘quvchi adabiyotni san’at darajasida o‘rganib tahlil qila oladi. Buni quyidagi topshiriqlar orqali yanada mustahkamlash mumkin:

Tasvir va talqin metodi.

Guruhlarda ishlang.Quyida berilgan portretlardagi obrazlarga nazar soling. So‘zlar yordamida tasvirlang. Bunda tashqi qiyofa bilan birga kishilarning ichki kechinmalariga ham e’tibor bering.

“Men sevgan qahramon” mavzusida portret ishlash

Bunda o‘quvchilarga o‘zlari sevgan qahramonlarning portretlarini ishlash vazifasi topshiriladi. Bu topshiriq



o’quvchilarda asar qahramonlarining qirralarini ochishga zamin yaratadi.

Xulosa qilganda, adabiyot darslarida tasviriy san’at namunalaridan foydalanish o‘quvchilarning muayyan mavzularni turli fanlar doirasida kengroq o‘rganish, bilimlarini boyitish va integratsiyalash, tasavvur, tafakkur va xayol kabi bilish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdurasulov. S.F Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. 232- bet.

2. Gafurov S. A. Analysis Of The Poem “Autumn Dreams”. 2021. 370 -bet.

3. Kambarova S. Ijodkor shaxsiyatini o‘rganishda optimal yondashuvlar. – T., O‘zbekiston: til va adabiyot. 2022. 1(4). 19–28-bet.

Vazira UBAYDULLOYEVA,
Chirchiq pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti II bosqich magistranti



HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING “MAYSARANING ISHI” DRAMASIDA XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN UNUMLI FOYDALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada dramalarning tarixan shakllanishi, jadidlar davrida ma’rifat o‘choqlaridan biri bo‘lgan dramalarning xalq hayotidagi o‘rni, Hamzaning mahorati va vatanparvarligi, uning xalq og‘zaki ijodidan foydalanishi, maqollar, yor-yorlar va qo‘shiqlarning asarda qo‘llanish holatlari, yozuvchining tili adabiy tilga yaqinligi, Hamzaning dramalaridagi asosiy g‘oya yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *drama, jadidlar, teatr, adabiy til, xalq og'zaki ijodi, maqol, she’r, yor-yorlar, ozodlik g‘oyalari, asar qahramonlari.*

Аннотация: в данной статье рассматривается историческое становление драм, место драм, которые были одними из центров просвещения в современную эпоху, в жизни народа, мастерстве и патриотизме Хамзы, использовании песен в творчестве. Близость языка писателя к литературному языку Основная идея в драмах Хамзы.

Ключевые слова: *драма, легенды, театр, литературный язык, фольклор, пословицы, стихи, песни, идеи свободы, герои пьесы.*

Annotation: in this article, the historical formation of dramas, the place of dramas, which were one of the centers of enlightenment in the modern era, in the life of the people. Hamza's skill and patriotism. the use of songs in the work, the closeness of the writer's language to the literary language. The main idea in Hamza's dramas.

Key words: *drama, legends, theater, literary language, folklore, proverbs, poems, songs, ideas of freedom, heroes of the play.*

Sahna asarlari uchun yozilgan va muallif nutqi qatnashmaydigan asarlarni dramatik asarlar deb ataymiz. Dramalarning dastlabki ko‘rinishlari ov marosimlari ko‘rinishida namoyish etilgan bo‘lib, undan keyin diniy ko‘rinishda aks etgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda teatr san’ati shakllangan, bu davrda diniy marosim, musiqa, o‘yinlar, xalq qahramonlik o‘yinlari, kulgu va pahlavonlik o‘yinlari namoyish etilgan.

Miloddan avvalgi IV asrga kelib teatr madaniyatida yangi shakllar paydo bo‘ldi, bu jarayon Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, bosib olganidan keyin Markaziy Osiyoga yunon madaniyatini olib kirdi. Yunon teatrlariga o‘xshab amfiteatrlar qurildi. Uning o‘limidan keyin bo‘linib ketgan davlatlarda ham bu an’ana davom etdi, bunga qazilma ishlari guvohlik beradi.

Masxarabozlik va qiziqchilik teatri mavjud bo‘lgan.

Professor M.Qodirov shunday ta’rif beradi: “Bir zamonlar bu tushunchalar “masxara”, “muqallid” shaklida ifoda qilingan. Ularda o‘ziga xos dramaturgiya bor, qahramonlar qiyofasini o‘z qobiliyati, aqli, mijozi, hissiyoti, tanasi, harakatlarini gavdalantiruvchi aktyorlar bor, ularning o‘yinlaridan zavqlana oladigan tomoshabinlar bor – qo‘yingki, teatr san’atining barcha alomatlari muhayyo. Bu teatrning hozirgi zamon teatridan ayirmasi shundaki, uning maxsus binosi va sahnasi yo‘q, xalq aktyorlari o‘z spektakllarini istagan vaqtda, turli sharoitlarda gir atrofi tomoshabinlar bilan qurshalgan o‘ziga xos xalqa –“sahna”da ko‘rsatib ketaverganlar… Ammo masxarabozlik va qiziqchilik – bu xalqning marosimlari urf-odatlari bilan tutashib ketgan ibtidoiy teatr emas, balki og‘zaki an’anadagi professional teatrdir”.

Arablar bostirib kirgunga qadar an’anaviy xalq teatrlari o‘zining taraqqiyotini boshidan kechirdi, lekin arablar bosqinidan keyin ularning dunyoqarashiga to‘g‘ri

kelmadi.

Shayboniylar va Temuriylar davlati parchalangandan keyin teatr va og‘zaki dramaturgiya yangi bosqichga kirdi. Qiziqchilik va masxarabozlik gruppalari tashkil topdi.

Jadid dramalari va an’anaviy teatrlar orasida katta farq bo‘lishiga qaramay, an’anaviy teatrlar jadid dramalari uchun zamin bo‘ldi. Aynan XIX asrning 70-yillarida Turkistonga rus, ozarbajon, tatar ziyolilari hamda ovro‘pacha teatrning kirib kelishi natijasida jadid dramalariga yangi ko‘rinish va ma’no berdi, zero ularning yordamisiz jadid teatri va dramaturgiyasini tug‘ilishini tasavvur qilish mushkul. Ijtimoiy hayot taqozosi bilan jadid dramaturgiyasi va teatri shakllandi, xalqni milliy ruhini ko‘tarish, ongini o‘stirish kerak va bu orqali erkinlikka erishishni vazifa qilib olingan edi, bu uchun eng tezroq ta’sir qiladigan va xalq uchun tushunarli bo‘lgan soha bu teatr va dramaturgiya edi, chunki aholining ko‘p qismi savodsiz bo‘lib, tomoshalar orqali milliy uyg‘onish g‘oyalarini singdirilishining eng yaxshi yo‘li edi. Dramatik asarlar yozish bo‘yicha Hamza jadid adabiyotining gultoji hisoblanadi. Hamzaning dramatik asarlaridagi bosh g‘oya o‘sha davrdagi mansab egalarining xalqqa qilgan zulmlari, millatning qiyin ahvoli haqida ko‘p yozgan jadidchi yozuvchilardan hisoblanadi.

Hamza dramalari boshqa dramatik asarlardan o‘zining sodda tili bilan ajralib turadi, shuning uchun ham xalqning e’tirofiga sazovor bo‘lgan. Hamzaning tili haqida aytilgan tavsiflar juda ko‘p, jumladan tilshunos B.Turdialiyev “ Hamza asarlarining tili haqidagi mulohazalarida Hamza asarlarining tili umumxalq jonli so‘zlashuvi asosiga tayanganini, soddaligi hozirgi adabiy tilimiz normalariga juda yaqinligini qayt etgandi. O‘sha murakkab yillarda yozma adabiy til oddiy xalq uchun tushunarsiz bo‘lib, bunday til orqali o‘z g‘oyalarini xalqqa yetkaza olmasdi. Hamzaning tili umumxalq tiliga yaqin va xalqning ko‘ngliga tez kirib borgan, hozirgi adabiy tilimizga yaqin bo‘lgan”.

Xalqni ozodlikka, zulmga qarshi kurashishga chorlovchi asarlari ko‘p bo‘lgan, lekin shularning ichida dramatik asarlari yozish va o‘qishni bilmagan xalqni tezroq va oson usulda anglab olishlari uchun xizmat qilgan. Hamzaning dramatik asarlaridan biri hisoblangan “Maysaraning ishi” komediyasi bo‘lib, asar qayta va qayta namoyish etilgan, hatto keyinchalik kino ham olingan. Hazil ostida achchiq haqiqat bor, komediya yo‘nalishida yozilib, yomon illatlar ochib tashlangan. “Maysaraning ishi” dramasida xalq o‘g‘zaki ijodidan unumli foydalanilgan va bu asarning yanada boyishiga xizmat qilgan.

Asarda maqollardan ko‘p o‘rinlarda va o‘rinli foydalanilgan. Bizga ma’lumki maqollar bildirmoqchi bo‘lgan fikrimizni qisqa va lo‘nda bo‘lishiga xizmat qiladi, ba’zan fikrimizni bildirmoqchi bo‘lsak, ikki va undan ortiq gaplardan foydalanishga to‘g‘ri keladi, lekin maqollar yordamida bunday vaziyatni tezroq bildirish mumkin. Yozuvchi maqollardan foydalangan bo‘lib, bu avvalo, qisqa gapda tezroq tomoshabin ko‘ngliga yetib borsa, ikkinchi tomondan xalq ko‘p ishlatadigan maqollarni qo‘llash orqali ularga yaqinlikni anglatgan. Quyida “Maysaraning ishi” dramasida qo‘llanilgan maqollarni keltiramiz va Hamzaning mahoratiga tahsinlar aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Yosh umrga ko‘histon gulistondir, qari umrga guliston ham go‘ristondir”, “Er yigitning bosh solgani o‘lganidir”, “Sher yigitni odam o‘ldirmas, nomus o‘ldirur”, “Jon bor joyda qazo bor”, “Ichdan buzilmay qo‘shin yengilmas”, “Xudo urganni payg‘ambar hassasi bilan turtadi”, “Quruq so‘z quloqqa yoqmas”, “Eshak loydan o‘tguncha”, “Gunohning ofati tavba-ku”, “Bermasning oshi pishmas”, “Bir gap ozlik, ikki gap ko‘plik qiladi”, “Qizning nozi bo‘lmasa, bazmning pardozi bo‘lmas”, “Sharmandalik ming o‘limdan ham yomon”.

Maqollar turli qahramonlar tilidan aytilgan bo‘lib, shularning ichida ko‘pchiligi bosh qahramon Maysara tomonidan so‘zlangan, bu ham uning qanchalik so‘zga chechan ayolligidan dalolat beradi. Maqollarni tilda ishlatish nutqni chiroyli qilish bilan bir qatorda tejamkorlikni beradi. Masalan:

M a y s a r a: Cho‘pon! Sen kuch va bozuga ishonganchali qahramondirsan. Lekin tiriklikning bunday ishlarini tadbir bilan saranjom topilishiga bo‘z bolalik qilursan. Qochsak nomardlikdir, kishi o‘ldirsak jinoyatdir. Tursak, ikki boshdan tilagimiz, nomusimiz barbod bo‘lur. Bir ish qilish kerakki, dushmanlarni o‘z-o‘zlaricha o‘limga mahkum etaylik. Oyxonni sog‘lom qo‘lda qoldirib, yurt-elga nomusimiz bilan salomat ketaylik. O‘g‘lim, sher yigitni odam o‘ldirmas, nomus o‘ldirur. Biz bir ish qilaylikki, sharmandaliklarin yer yuziga doston qilaylik!

Dramatik sahna asarlarining ham asosiy shartlaridan biri tomoshabinga aniq va jarangli bo‘lgan so‘zlarni ishlatishdir. Yozuvchi maqol orqali fikrni aniq ifodalagan, maqollar ham xalq donoligi asosida aytilgan va bu ularning tushunishlari uchun ham yengil hisoblanadi.

M a y s a r a: O‘g‘lim, xolangning dostoni har bir yerga ma’lum emasmi! Qozi, eshonning kichik xotinlari bilan topishdim. U menga ko‘mak bergusidir. Otangning bergan oltin hamyonin ham o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. So‘zlariga, va’dalariga ishondim, u bechorani ham bir sevganidan ayrib olgan ekan. Mana, “Ichdan buzilmay qo‘shin yengilmas”, degandek, ichdan topilgan ko‘mak bizga zo‘r yordamdir. Bu bahonada u bechorani ham zolimning panjasidan qutqazib, o‘z sevganiga qo‘shib olib keturmiz.

Hamza adabiy tilning xalq so‘zlashuviga yaqinlashtirishi yo‘lidagi harakatlari uning vatanparvarligidan ham dalolat beradi.Yuqorida keltirilgan maqol ham o‘z o‘rnida chiroyli qo‘llangan bo‘lib, qahramonning topqirligidan dalolat berib, uning xarakterini ham ochishga xizmat qilgan.

Asarda she’r va yor-yorlarni ham uchratishimiz mumkin.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan,
Kelin tushdi, yor-yor,
Kelin tushdi, yor-yor.
Tangrim qo‘shgan qiz yigitga

Chin qovushdi, yor-yor,
Chin qovushdi, yor-yor.
Bo‘z yigitlar kurash tushsa,
Sholpar bog‘lar yor-yor,
Sholpar bog‘lar yor-yor,
Kuyov o‘zi ko‘tarsin, deb
Kelin yig‘lar, yor-yor,
Kelin yig‘lar, yor-yor.

Yuqorida aytilgan yor-yor, xalqimizning milliy qo‘shiqlaridan hisoblanib, dramatik asarlarda bu kabi yor-yorlardan foydalanish orqali tomoshabinga o‘zgacha kayfiyat baxsh etadi. Dramatik asarlarni odatda, o‘qish kitobxonga uncha ham ma’qul bo‘lmaydi, ya’ni bunday asarlar sahna uchun yozilganligi, dialog va monologlardan iborat bo‘lganligi, qatnashuvchilarning ismlari tez-tez takrorlanganligi va boshqa sabablari bo‘lgani uchun, lekin bu drama o‘qish uchun ham zerikarli bo‘lmagan asar hisoblanadi, sahnalarda ham haligacha ijro etiladi .

Otim Husaynjon vofurish,
Hovlimda yo‘q xamirturish.
Xotinim bilan kunda urush,
Olmay o‘layin, deydi-yo.

Olma-anoringga balli,
Yakdona xolingga balli.
Tangrim, meni sho‘r loydan
Yasagan kulolingga balli.
Olma-anoringga balli,
Sabr-u qaroringga balli.
Oh tepgan iqboling bilan
Noomadi koringga balli.

Qo‘shiq ham asarning mazmunini boyishiga xizmat qilgan, barmoq vaznida va sodda tilda aytilgan, bu esa xalqning tushunishiga oson.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, xalq o‘zaki ijodidan yozuvchilar o‘z asarlarida foydalanishi, avvalo, o‘z ona tiliga bo‘lgan hurmatni bildiradi. Har bir davrda yaratilgan asarlarda o‘sha davrning ta‘siri seziladi, bu esa, albatta, asarning g‘oyasi, tilida o‘z aksini topadi, lekin shunday asarlar borki qaysi davrda bo‘lmasin, bunday sevimli asarlarning g‘oyasi o‘lmas, tili bo‘lsa xalqning so‘zi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shuhrat Rizayev. Jadid dramasi.–T: 1997-yil..
2. M.Q.Qo‘shjonov. Hamza ijodi haqida. –T.: Fan nashriyoti. 1981 -yil.
3. Sh.Rizayev.Jadid dramasi.Toshkent,1997-yil.
4. M.Qodirov. O‘zbek xalq tomosha san’ati. Toshkent, 1972-yil.

Mohidilxon SHAMATOVA,
Qo‘qon davlat pedogogika instituti magistranti



MORFOPRAGMATIKADA GRAMMATIK VOSITALARNING ASSOTSIATIV MUNOSABATI

Annotatsiya: maqolada pragmalingvistikaning morfopragmatik yo‘nalishi va assotsiativ tilshunoslikdagi grammatik vositalarning assotsiativ munosabatlari borasidagi kesishmalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *pragmatika, morfopragmatika, pragmatik va assotsiativ ma’no, konsept, grammatik vositalar.*

Аннотация: в статье освещаются точки пересечения морфопрагматического направления прагмалингвистики и ассоциативных отношений грамматических средств в ассоциативной лингвистике.

Ключевые слова: *прагматика, морфопрагматика, прагматическое иассоциативное значение, консепт,грамматические средства.*

Annotation: the article highlights the intersections between the morphopragmatic direction of pragmalinguistics and the associative relations of grammatical tools in associative linguistics.

Key words: *pragmatics, morphopragmatics, pragmatic and associative meaning, consept, grammatical tools.*

Assotsiativ tilshunoslik zamirida leksemalar va ularning inson ongida boshqa leksemalar bilan aloqasi va turli sabablarga ko‘ra assotsiativ munosabatlarni vujudga keltirishi o‘rganilar ekan, ayrim grammatik kategoriyalar o‘zining morfologik va sintaktik imkoniyatlaridan kelib chiqib, leksemalar singari inson konsepti va uning tafakkuri bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni jonlantira olishi ham assotsiativ lingvistikaning bir bo‘g‘ini sanaladi. Ma’lumki

pragmatik va assotsiativ tilshunoslik nihoyatda keng qamrovli yo‘nalishlar bo‘lib, o‘z ichiga turli sathlarni jamlagan hamda o‘z tadqiqot maydonlarida ma’lum nuqtalarda o‘zaro kesishadi. Shu sababli, morfologik va sintaktik sathlar tadqiqida grammatik vositalarning pragmatik-assotsiativ munosabatlarini tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlar maydonida vujudga kelgan kesishmasida o‘rganish yangi bilimlarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

So‘zlovchining mavjudlikdagi voqelikka munosabatini ifoda etuvchi morfologik vositalar pragmalingvistikada morfopragmatik yo‘nalishni tashkil qiladi.[1.40]. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, morfologik vositalar yordamida yuzaga keluvchi pragmatik ma’nolar til egalari xotirasida assotsiativ tarzda qo‘shimcha va yondosh ma’nolarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Bu ma’nolar alohida kommunikantlar o‘rtasidagi aloqa aralashuv tarzidagi ma’lumotlarga ham va yoki butun millat ongida shakllangan milliy tushunchalarga ham daxldor bo‘lishi mumkin.

Grammatik vositalar sirasidan o‘rin olgan morfologik va sintaktik vositalar ham qo‘llanishiga ko‘ra so‘zlovchining ichki niyatini, maqsadini ifoda etadi.Turli grammatik shakllar ifodalagan xususiy ma’nolar avvallari ham rus tilshunosligida o‘rganilgan va ularning semantikasiga xos xususiyatlarga aynan pragmatik yoki assotsiativ rakursdan emas, balki stilistika nuqtayi nazaridan yondashilgan. R.Qo‘ng‘urov buni shunday ta’riflaydi: “Morfologik stilistikaning harakat doirasini I.V.Arnold ancha keng tasavvur qiladi. U faqat ayrim kategoriyalarning emas, balki, umuman so‘z turkumlarining va ular ichidagi kategoriyalarning transpozitsiyasini, grammatik vositalar ifodalagan emotsionallik shu orqali obyektga munosabat masalalarini tasvirlashni ham morfologik stilistikaning vazifasi sifatida ko‘rsatadi”.[2.161].

Morfologik vositalar orqali yuzaga chiqadigan tuli-tuman ma’nolar haqida so‘z borar ekan, avvalo, ot va unga xos ayrim grammatik shakllar tahliliga e’tibor qarataylik. Ushbu otga xos grammatik ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq assotsiatsiyalar yordamida yuzaga chiqadigan pragmatik ma’nolar talaygina bo‘lib, maqolada ayrim misollarni tahlil qilamiz. Quyida, so‘zlashuv nutqidan olingan ot so‘z turkumiga xos subyektiv baho semasini ifodalovchi -cha morfologik vositasining bir necha xil ko‘rinishda qo‘llanilgan: 1.Siz nima deysiz, yigitcha? 2.Yigitcha katta bola bo‘lib qolibdiku! 3.Yigitcha, o‘rningizdan turingchi!

Birinchi misolda, siz ham o‘z fikringizni ayting, pragmemasi hamda yoshi kichik bo‘lsa-da uning ham fikri o‘z o‘rniga egaligi semasi yuzaga chiqqan. Shuningdek, yigitcha deb murojaat qilinishidan adresat ongida assotsiativ tarzda yoshi katta inson o‘zidan ancha kichik kishiga murojaat qilayotgani anglashiladi. Ikkinchi misol esa odatiy hol-ahvol so‘rash nutqiy vaziyatiga daxldor va bolangizni katta qilib qo‘yibsiz, pragmemasi mavjud. Yigitcha so‘zi o‘rin olgan qurshov kontekstdan gap o‘g‘il jinsiga mansub go‘dak haqida ketayotgani oydinlashadi. Yuqorida keltirilgan uchinchi misolda esa tur va qilgan ishingga javob ber, pragmemasi anglashilsa, assotsiativ tarzda yoshi yoki lavozimi katta kishining o‘tkir kesatig‘i va chuqur emotsiyasi his qilinadi.

Yoki quyidagi she’riy parchaga e’tibor qaratamiz:

Taxtdan tushganda ham otdan tushmay yurgan
Ajdodingiz uy qurmagan – Davlat qurgan.
Yurti uchun yelkasida tog‘lar surgan,

Rustamlari, Farhodlari ilm istang.[3.161] Ushbu parchada III shaxs birlik, o‘tgan zamon formasi va “davlat” konseptini qo‘llash orqali inson, xususan, Amir Temur assotsiativ tarzda ifodalangan, shu bilan birga Rustam va Farhod obrazlarining -lar ko‘plik kategoriyasida qo‘llanishi orqali ham afsonaviy shaxslar misolida yoshlarning ilm olishiga undash pragmatik ma’nosi yuzaga chiqqan.

Navbatdagi misollarda “amaldor” konsepti bilan bog‘liq pragmatik va assotsiativ ma’nolarni tahlilga tortamiz: Bu bizniki emas, – dedi oshpaz, – bu generalning yaqinda kelgan ukasiniki. Bizda bunaqa itni yoqtirishmaydi. U kishining ukalari bunaqa itni yaxshi ko‘radi...U kishining birodarlari keldilarmi?Vladimir Ivanovich-a?...– Uni qara-ya. Men bilganim yo‘q, mehmon bo‘lib keldilar degin?Mehmon bo‘lib keldilar. Uni qarang, yo Xudo...Akalarini sog‘inib qolibdilar-da...Men bilganim yo‘q edi. Bu o‘sha kishining itlari degin?(I.P.Chexov. Hamelyon)

Ushbu keltirilgan parchada, u kishining ukalari, birodarlari – egalik shaklining ko‘pligi, mehmon bo‘lib keldilar – kesimlikning III shaxs ko‘pligi, akalarini sog‘inib – otlardagi -lar shakli orqali sinkretik ifodalangan ma’no so‘z borayotgan kishining oliy martabali amaldor ekanligiga ishora qilmoqda, ya’ni deyktik vazifa bajarmoqda, bu orqali amaldor konsepti bilan assotsiativ bog‘lana oladi. Shu bilan birga “katta amaldorlarga, uning yaqinlari, xususan, hatto ukasining itiga ham yomon munosabatda bo‘lish mumkin emas, bu zamona talabi” kabi matndan kelib chiqadigan pragmatik ma’nolari ham assotsiativ munosabatlar doirasidan o‘rin olgan.

Grammatik vositalar bilan bog‘liq assotsiatsiyalar va shunga mos tarzda hosil bo‘lgan morfopragmemalarni tahlil qilishda fe’l so‘z turkumi ham keng imkoniyatlarga ega. Misol uchun, mayl kategoriyasi grammemasi asosida tahlilga tortilgan quyidagi gapga e’tibor beraylik: Qassoblik rastasi. Qo‘ltig‘ida papka, ohori to‘kilganroq bo‘lsa-da shlyapa kiygan kishi go‘sht ilingan changakka yaqinlashdi. Halatining ustidan qora las chopon kiygan, qo‘sh belqars bog‘lagan qassob uni ko‘rib qayroq-pichog‘ini chetga irqitdi. Qo‘llarini ikki biqiniga artdi, so‘ng ko‘ksiga qo‘ydi:

Kelsinlar, katta...Kelsinlar!

– Ha, shu ozgingina lahm...

– Tushundim. Ozgina-yu, sozgina... demoqchisiz-da! Qani oldin o‘sha chuchvara yeydigan qo‘llaringizni tutib ...E-e, bu qon yuqidan burunni jiyirmang!... [4.175].

Ushbu parchada keltirilgan qo‘lida papka, oxori to‘kilganroq shlyapa kiygan kishi qassobning ongida psixologik assotsiatsiya orqali taftishchi insonni yodga solgan, natijada uning nutqida kelsinlar katta, kelsinlar jumlasi qo‘llangan, bunda II shaxs birlik -gin morfologik shakli o‘rnida qo‘llangan -sin (lar) shakli assotsiativ tarzda shaxs lisoniy zarrasiga hamda uning ijtimoiy mavqeyiga ishora qilgan. Berilgan javob sifatida aytilgan haa shu ozginagina lahm... jumlasidan esa sifatning ozaytirma darajasini qo‘llash orqali xaridorda iymanish holati borligi, sababi u haqida sotuvchi noto‘g‘ri gumonga borib xushomad qilayotgani pragmemasi yuzaga chiqadi.

Fe’l so‘z turkumining o‘ziga xos tomoni u yakka yoki grammatik shakllar bilan turli tuslanishlarda gap strukturasida har xil yondosh ma’nolarni ifodalay oladi, (tasdiq ma’nosida inkor, inkor ma’nosida esa tasdiq, birlik ma’nosida ko‘plik yoki ko‘plik shakllari orqali birlikning nazarda tutilishi va h.k).

Ellikboshi o‘g‘ri teshgan yerni yana bir ko‘rdi. Qobil bobo, qo‘l qovushtirib, uning ketidan yurar va yig‘lar edi. - Yig‘lama, yig‘lama deyman! Ho‘kizing oqposhsho qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa topiladi. (A.Qahhor). Ushbu misolda ko‘rib turganimizdek, chol va ellikboshi o‘rtasida kechgan suhbatda, cholning yoshi ulug‘ qariya ellikboshi esa undan ancha yosh biroq, amal yuzasida undan baland ekanligi anglashiladi, “yig‘lama” yoki boshqa bir o‘rinda qo‘llangan “yig‘lanmasin” shakllari orqali ushbu so‘zlar atrofida undan avvalgi misoldan farqli o‘laroq fe’lga xos grammatik shakllar salbiy ma’nolarni ifodalashga qaratilgan. hurmatsizlik, feodalizm, adolatsizlik, qashshoqlik, qayg‘uga botish, chorasizlik, mensimaslik, zamonning nosozligi kabi assotsiativ maydonda “adolatsiz zamonda, amaldorlar oldida mazlum, nochor qariya kishining ham qadri yo‘q” kabi pragmatik ma’nolarni hosil qila oladi. Bu ma’nolarni ifodalashda esa -ma inkor vositasi va majhul nisbat shaklining o‘rni yaqqol namoyon bo‘lgan. Bu “xalq” va “amaldor” konseptlarini ochishga xizmat qiladi.

Mayl kategoriyasi ifodalayotgan assotsiativ ma’nolar haqida so‘z borar ekan A.Qahhorning “Dahshat” hikoyasidan olingan Unsin va dodxoh o‘rtasida bo‘lib o‘tgan quyidagi suhbatni ham tahlilga olish o‘rinlidir, Unsin cholning go‘ristonga borib pichoq qadash uchun evaziga nima so‘raysan, ma’nosidagi - Javob bersang-chi! - Tildan qoldingmi?! so‘roviga Javob bersangiz..Ganjiravonga ketsam... Bitta go‘rga bitta pichoq emas, o‘nta go‘rga o‘nta pichoq sanchib kelaman...- dedi. Bu yerda javob bermoq so‘zi ikki xil ma’noda qo‘llangan, cholning nutqida u o‘z ma’nosida “biror so‘rovga bildirilgan javob, fikr” ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, Unsinning nutqida bu so‘z “er va xotinning orasini ajratadigan so‘z, so‘rov” kannotativ ma’nosini, ya’ni Unsin nazarda tutgan “ajralish” pragmatik ma’nolarni ifoda etadi. Shu bilan birga “javob bersangiz” dagi -sa shart mayli vositasida ayol psixologiyasidagi qo‘rquv, iymanish, hadiksirash kabi xususiyatlar assotsiativ tarzda namoyon bo‘ladi.

Xulosa shuki, bugungi kunda jamiyat hayotida kechayotgan o‘zgarishlar tilga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi, shu zayl fanda tilni bevosita inson omili bilan bog‘lab o‘rganish zaruriyati vujudga keldi. Lingvistika fanida ham boshqa fanlar bilan integratsiya natijasida turli yo‘nalishlar vujudga keldi. Bu yo‘nalishlar tilni turli aspektlarda o‘rganmoqda. Inson tilini uning madaniyati, millati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi, psixologiyasi va shunga o‘xshash boshqa jihatlari bilan birgalikda tadqiq qilish amaliy natijalar berishi bilan xarakterlanadi. Shu o‘rinda, zamonaviy tilshunoslikning pragmalingvistika va assotsiativ tilshunoslik yo‘nalishlarida ham o‘zaro kesishmalar mavjud ekan va ma’lum nutqiy vaziyatlarni semantik-sintaktik-morfologik jihatlari bilan birga morfopragmatik-assotsiativ maydonlarda tahlil qilish tilshunosligimiz oldidagi yangi vazifalardan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Hakimov. O‘zbek pragmalingvistika asoslari. –Toshkent: Akademnashr.
2. Qo‘ng‘urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. –Toshkent: “Sharq”, 2007.
4. Sharq yulduzi. № 2013/6. Muhammad Ochil. Go‘sht suyaksiz bo‘lmas.
5. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi /anton-chexov-1860-1904-rossiya/anton-chexov-xameleon-hikoya.
6. Umidjon Yigitaliyev. “Shaxs” lingvistik zarrasining leksik sathda assotsiativ voqelanishi // Jurnal: Filologiya ufqlari. 2022, 11-son.



Feruza G‘AYBULLOYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs magistranti

FORMATIV BAHOLASH JARAYONIDA 7-SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI BAHOLASHNING STRATEGIYALARI VA MEZONLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada 7-sinf o‘quvchilarini og‘zaki nutqini baholashda qo‘llaniladigan usul va vositalar hamda baholar mezonlari borasida fikr yuritiladi. Monologik va dialogik nutqqa xos baholash mezonlari va tartiblari alohida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *baholash strategiyalari, texnologiya, nazorat varaqasi, monologik va dialogik nutq.*

Аннотация: в этой статье учащиеся 7-х классов оцениваются по устной речи. обсуждаются используемые методы и инструменты, а также критерии оценки. Критерии и процедуры оценки, характерные для монологической и диалогической речи, выделены отдельно.

Ключевые слова: *стратегии оценки, технология, контрольный список, монологическая и диалогическая речь.*

Annotation: in this article, 7th grade students are assessed for oral speech
used methods and tools and assessment criteria are discussed. Evaluation criteria and procedures specific to monologic and dialogic speech are separate explained

Key words: *assessment strategies, technology, checklist,, monologic and dialogic speech.*

Og‘zaki nutqni baholash murakkab jarayon bo‘lib, uni tashkil qilish va muayyan tartib asosida shakllantirishda qator strategiyalar va maxsus mezon baholash jarayonini birmuncha osonlashtiradi.

Umuman olganda, 7-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini formativ baholashda beriladigan topshiriqlar mazmuni, metodikasi, tartibi hamda baholash mezoni muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan kommunikativ yondashuvga asoslangan ona tili ta’limida og‘zaki nutq mexanizmlariga alohida to‘xtagan holda so‘zlash ko‘nikmasini baholovchi tizimli uslub va texnologiyalarni yaratish va ular asosida mashq va topshiriqlar metodikasini yuzaga keltirish o‘quvchilarning mantiqan izchil, tugal, mazmundor, ta’sirchan va ifodali nutq hosil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqotimiz davomida, til ta’limiga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishimiz jarayonida og‘zaki nutqning ikki xil ko‘rinishi, ya’ni monologik hamda dialogik nutq mavjudligi, ular nafaqat og‘zaki, balki yozma nutqqa ham amal qilishi mumkinligiga amin bo‘ldik.

Ilmiy-tadqiqot vakillari bo‘lmish A.R.Luriya, S.L.Rubinshteyn, V.P.Gluxovning fikricha, dialogik nutq nutqning birlamchi ko‘rinishi bo‘lib, ikki va undan ortiq suhbatdosh o‘rtasida fikr almashish jarayoni hisoblanadi. Dialogik nutq tuzish mashg‘ulotida, asosan, o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘qituvchi faol ishtirok etadi, ya’ni tinglovchi va replika hosil qilinadi. Birinchi replika suhbatga tortish, chorlash yoki murojaat qilish ko‘rinishida bo‘lsa, ikkinchi replika berilgan savolga javob qaytarish xarakteriga ega. Demak, dialogik nutqda ham tinglovchi, ham so‘zlovchi faol qatnashadi. Dialogik nutqni shakllantirish asosida monologik nutq hosil qilish mumkin.

Monologik nutq esa yakka shaxsning individual nutqi bo‘lib, uning kommunikativ maqsadlaridan biri fikrni fakt va dalillar hamda hayotiy tajribalar bilan tinglovchilarga yetkazishdan iborat. Ta’kidlash joizki, monologik nutq so‘zlash uchun muayyan mavzuda oldindan tayyorgarlik ko‘riladi yoki tayyorlanish uchun ayni o‘sha vaqtda ma’lum muddat vaqt beriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad to‘satdan berish orqali so‘zlovchini gangitib qo‘ymaslik va tafakkur zo‘riqishini yuzaga keltirmaslikdir. Mazkur olimlar A.R.Luriya, S.L.Rubinshteyn, A.A.Leontev monolog nutqining asosiy xususiyatlari haqida esa quyidagilarni keltirishadi:

– *nutq bir tomonlama va uzluksiz bo‘lishi;*
– *axborot mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etilishi;*
– *axborot tinglovchiga yo‘naltirilganligi;*
– *mazmunning shartliligi;*
– *axborot berish motivi.*

Dialogik va monologik nutq to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tganimizning sababi shundaki, har ikkala nutq ko‘rinishining baholash uslublari, texnologiyalari hamda mezoni alohida shakllantiriladi. Xususan, monologik va dialogik nutqni formativ baholovchi o‘ziga xos metodlar va strategiyalar mavjud. Keling, ular bilan alohida tanishib chiqsak, dastlab dialogik nutqni tashkil qiluvchi usullarga e’tiborimizni qaratamiz.

1.“Intervyu” usuli. Bir necha tadqiqotlarda og‘zaki nutqni tekshirish maqsadida bu usuldan ko‘p bora foydalanilgan. Biz esa bu metodga baholash maqsadidan kelib chiqqan holda biroz o‘zgartirish kiritdik. Bunda asosan, ikkita o‘quvchi qatnashishi mumkin. Shuningdek, ikki o‘quvchidan biri muxbir, ikkinchisi esa inervyu beruvchi shaxs. Bu usulda intervyu mavzulari oldindan tayyorlab qo‘yilgan bo‘lib,

o‘quvchilar chiqishidan oldin mavzular e’lon qilinadi. Interyu beruvchi o‘quvchi tayyorlab qo‘yilgan mavzudan birini tanlaydi, muxbir esa mavjud savoldan tashqari yana bitta qo‘shimcha savol berishi kerak. Agar savollar varaqasida 5 ta savol yozilgan bo‘lsa, muxbir bir savolga bittadan savol qo‘shib, savollar sonini ko‘paytirishi kerak. Bunda qo‘yilgan talablar quyidagilardan iborat:

– adabiy til me’yorlariga amal qilish;

– berilgan savolga mos tarzda izchil va ravon fikr bildirish;

– mantiqan tugal va tushunarli gapirish;

– taassurotlar va hayotiy dalillar bilan nutq so‘zlash.

Bu usulni amalga oshirish orqali o‘quvchilar nutqidagi kamchiliklar o‘rganiladi hamda keyingi darslar uchun shu kamchilikni bartaraf etuvchi topshiriqlar tuzish rejasini amalga oshirish mumkin.

Receptive skills come before productive skills, as learners first need to understand new words before they can use them. Receptive skills include listening and reading. These skills form the foundation for productive skills, such as speaking and writing, and are crucial for learning pronunciation and other sub-skills. Developing strong receptive skills is essential as they not only help learners grasp the nuances of a language but also build confidence and provide a framework for more complex language use.

The Importance of Receptive Skills

Receptive skills help increase engagement in learning, support well-paced lessons, generate connections to prior knowledge, and provide students with opportunities to practice and deepen their understanding. Research

shows that effective teaching of receptive skills can lead to improved vocabulary acquisition and overall language proficiency. A variety of programs, such as the ABE and ESOL programs in Greater Boston, offer free professional development workshops for educators. These workshops introduce teachers to effective teaching techniques, collaboration, and resource sharing, which they can apply to their own programs. Furthermore, these professional development opportunities help teachers stay updated on the latest educational trends and technologies, ensuring that their teaching methods remain effective and relevant.

Teaching Reading and Listening Skills

Reading and listening are essential receptive skills. Through these skills, students gain an understanding of both written and spoken language. To teach reading effectively, teachers must consider their students' ages and language levels. It is important not to assign long or difficult texts to younger or less experienced learners, as this can create a barrier to understanding and lead to demotivation.

Combining reading with writing, listening, and speaking is crucial for effective learning. For instance, intermediate and advanced students can listen to instrumental music related to a text, using their imagination and guessing techniques to engage with the material. This method gradually introduces new vocabulary and concepts, making learning more contextual and enjoyable. Additionally, incorporating multimedia resources such as videos or audiobooks can enrich the learning experience, providing diverse inputs that cater to different learning styles.

Promoting Extensive Reading

Extensive reading is an enjoyable, long-term activity that students usually do independently. It is important for teachers to plan for this type of reading carefully, as students cannot simply be asked to read silently without preparation. Teachers can encourage extensive reading by providing a range of books suited to different interests and reading levels, creating a reading-friendly environment, and setting achievable reading goals. Regularly discussing books and encouraging students to share their thoughts can further enhance their engagement and comprehension. Establishing a reading culture in the classroom can make extensive reading a habit and help students build a lifelong love for literature.

Listening as a Receptive Skill

Listening, another key receptive skill, requires specific teaching strategies. Teachers should introduce key markers and vocabulary to help students understand and navigate conversations. Concepts like "active listening" and "discourse markers" should be clearly explained. Modeling these skills through dialogues, film clips, or teacher-student interactions is essential, as many learners, both native and non-native speakers, may not have fully developed active listening skills. Creating a classroom environment where students are encouraged to listen attentively and ask questions can significantly improve their listening abilities.

Interactive listening activities, such as listening to podcasts or engaging in role-playing exercises, can make learning more dynamic. Teachers should also provide opportunities for students to practice listening in real-life contexts, such as during field trips or in community-based projects. These activities not only improve listening skills but also help students apply their learning in practical situations.

Integrating Technology and Resources

Incorporating technology into teaching receptive skills can provide students with diverse and engaging materials. Tools such as audiobooks, educational apps, and interactive e-books can enhance both reading and listening experiences. Online platforms and multimedia resources offer a range of voices, accents, and genres that can help students become more adaptable and fluent in various listening contexts. Additionally, technology can offer instant feedback and personalized learning experiences, making it a valuable tool in modern education.

Conclusion

Teaching is a demanding profession, and future teachers must understand the core purpose of education. There is a saying in some cultures: "An uneducated surgeon may kill one person, but an uneducated teacher kills an entire generation." By prioritizing the development of receptive skills through effective methods and continuous professional growth, educators can lay a strong foundation for students' overall language development and lifelong learning. Effective teaching not only shapes individuals but also influences future generations, making the role of educators crucial in society. Investing in teachers' professional development and utilizing innovative teaching strategies can ultimately lead to more successful and empowered learners.

References

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). Pearson Education.
2. Nation, I. S. P., & Macalister, J. (2010). Language Curriculum Design. Routledge.
3. Grabe, W. (2009). Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. Cambridge University Press.
4. Miller, S., & Glover, D. (2011). Teaching Reading and Writing: Improving Reading and Writing Skills. Cambridge English Language Assessment.
5. Ur, P. (2012). A Course in Language Teaching: Practice and Theory (2nd ed.). Cambridge University Press.



Nilufar SAIDOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

STUDY OF ARGOT, JARGON, AND SLANG: TERMINOLOGICAL ISSUES

Annotation: this article explores the perspectives of researchers on the emergence, development, and functioning of the terms “argot,” “jargon,” and “slang” in American and European linguistics from the 19th century to the early 21st century. It analyzes the etymology of social dialect terms. The author examines terms such as “professional argot”, “general jargon”, “interjargon”, “general slang” and “specialized slang” arguing for their relevance and the reasons for their creation. The article also reviews the terminology of social dialects from a linguo-historiographical perspective.

Keywords: *argot, jargon, general jargon, general slang, professional argot, slang, specialized slang, term.*

Annotatsiya: mazkur maqolada XIX asrdan XXI asr boshigacha bo‘lgan davrda Amerika va Yevropa lingvistikasida “argo”, “jargon” va “sleng” atamalari qanday paydo bo‘lgani, rivojlangani bo‘yicha tadqiqotchilarning qarashlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada ijtimoiy lahjalar atamalarining etimologiyasi tahlil qilinadi. Muallif “professional argo”, “umumiy jargon”, “interjargon”, “umumiy sleng” va “maxsus sleng” kabi atamalarni o‘rganib chiqadi, ularning dolzarbligi va yaratilish sabablari haqida dalil keltiradi. Shuningdek, maqolada ijtimoiy lahjalarning terminologiyasi lingvo-istoriyografik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *argo, jargon, umumiy jargon, umumiy sleng, professional argo, sleng, maxsus sleng, termin.*

Аннотация: в данной статье раскрываются взгляды исследователей на возникновение, развитие и функционирование терминов «арго», «жаргон», «сленг» в американской и европейской лингвистике XIX в. – начала XXI в., анализируется этимология терминов социальных диалектов. Автор изучает термины «профессиональное арго», «общий жаргон», «интержаргон», «общий сленг», «специальный сленг» и др., аргументирует их актуальность, причины создания. Рассмотрена терминология социальных диалектов в лингвоисториографическом аспекте.

Ключевые слова: *арго, жаргон, общий жаргон, общий сленг, профессиональное арго, сленг, специальный сленг, термин.*

The investigation of social dialects is one of the most pressing issues in sociolinguistics. In both American and European linguistics, the terms “argot”, “jargon”, and “slang” have gained widespread use. These terms carry specific nuances in different languages and are subject to varying interpretations, which highlights the broad scope for exploring these linguistic phenomena, particularly in terms of their terminology. The study of these linguistic elements remains a crucial topic over an extended period and represents a significant task in contemporary linguistics.

Initially, “argot” referred to the language of the “lower” classes of society, including marginalized groups and the criminal underworld: beggars, thieves, card sharks, and so on. Over time, the term “argot” acquired a broader meaning. J. Jordan suggests that the term can refer to: 1) the language of criminals, vagabonds, beggars, etc., 2) what is otherwise known as jargon, a specialized language of certain social categories, such as soldiers, workers, students, artists, schoolchildren, etc., 3) elements that infiltrate literary language from colloquial speech, characterized by spontaneity and emotionality. The most common and primary meaning, according to Jordan, is the first one [9, p. 532]. The first two meanings align with the conceptual definition of the term in Slavic tradition, but the third diverges from it [7, p. 29]. In a narrow sense, “argot” refers to the mode of communication among marginalized elements, particularly within the criminal world (thieves' argot), as well as the language of itinerant professions, beggars, and others [7, p. 23].

V.S.Istomin, in a broader sense, sees argot as a special language of a specific professional or social group, composed of modified elements from one or more natural languages, selected arbitrarily (this definition aligns with V.N.Yartseva's interpretation of argot [5, p. 43]). In a narrow sense, argot is understood as "a mode of communication among marginalized elements, prevalent in the criminal world" [4, p. 192].

Nowadays, the term argot has expanded beyond its original meaning: people now speak of general argot (argot commun), modern argot (a language that is no longer secret, one of the elements of a speaking style chosen by the speaker), youth argot, and professional argot.

When defining the concept of argot, a contentious issue is whether it is conventionally or naturally derived. For example, L. Spitzer (1930) viewed argot as an “affected language” (German “Ziersprache”), an artificial creation [2, p. 532]. In contrast, A. Dosa (1923) took a strongly negative stance against the theory of argot being secretive and artificial in nature.

Jargons usually arise among relatively large groups of language speakers united by common interests, similar hobbies, prolonged stays in certain environments, and so on. However, the conceptual essence of jargon is understood differently by many American and European authors.

The term “jargon” is vividly interpreted in the dictionary by O. S. Akhmanova (1969) as a language used (usually in oral communication) by a particular social group to achieve linguistic isolation, separating from the rest of the language community, sometimes for cryptolalic purposes [2, p. 148]. Later, V. N. Yartseva (1998) provides a definition of the term "jargon," in which the characteristic of the hermetic nature of verbal communication, previously inherent in jargon, is absent [31, p. 151].

At the end of the 20th century, a new term emerged in linguistics—interjargon. It forms at the boundary of various jargons. It relates to a sociolect as general jargon, which in the collective consciousness has significantly weakened its ties to its primary spheres of use but has not lost its stylistically marked nature. Interjargon is widespread in mass communication (in newspapers, magazines, on radio, television, the Internet) or in fiction and aspires to the status of general literary vocabulary [23, p. 331].

Slang is an English term that occupies a special place among social dialects in the English language. To this day, there is terminological confusion regarding the concept of slang and its etymology. F. Grose (1785) explains the origin of the word slang, like cant, from the secret language of wandering beggars-gypsies [cited in: 14, p. 47]. J. C. Hotten suggests that the word slang is not of English origin, it is a Gypsy term [3, pp. 52-53].

The dating of the term slang in literature can be established through the Oxford English Dictionary, which indicates that the term slang, meaning a language of a low or vulgar type, was first recorded in 1756 [7, p. 29]. F. Grose (1785) was the first to introduce the term slang as a synonym for the term cant: “slang—cant language” [cited in: 3, p. 46].

The term slang is used in many languages. For example, H. Mencken (1960) provides examples of the use of this term in German, French, and Swedish. The term slang entered Slavic languages from English [7, p. 34].

In the English language, the term slang has evolved and changed throughout its existence. J. C. Hotten believed that slang was a vulgar, low, flashy, oral language that constantly changes and is spoken by representatives of various classes, it has no author, it is the secret language of gypsies, used for deception, abuse, profanity, it is the language of street humor [6, pp. 44, 52-53, 217]. Even in such an understanding of slang, J. C. Hotten significantly advanced beyond F. Grose (1785), who, as noted above, regarded the term slang as a synonym for the term cant.


Most contemporary authors of English-language dictionaries reflect all the essential properties of slang that distinguish it from other linguistic phenomena: slang is not part of the “standard vocabulary”, is not professional jargon, and is distinctly stylistically marked as “unusual” and “uncommon” compared to other lexical layers.

There are significant differences in views on slang in various linguistic traditions. A. I. Domashnev (1987) notes that in German Germanic studies, the concept of slang is still insufficiently studied, but most researchers understand it as a collection of generally accepted and widely used words and expressions, predominantly of a humorous nature, consciously used to replace ordinary literary expressions.

Alongside the positive aspects of research into the terminology of social dialects, unresolved issues are also evident. Terminological confusion regarding the concepts of argot, jargon, and slang, as well as their etymology, still persists. There are many versions of the etymology of these terms, however, there are no universally accepted scientific conclusions on them. Various linguistics exhibit significant differences in views on the terminology of social dialects, and these issues are not studied comprehensively, using materials from different languages in their historical development. This subject matter is not sufficiently reflected in the works of contemporary linguists.

List of used literatures:

1. Andreeva G. R. Lexico-Semantic Features of Special Slang (Based on English Language Materials). – Moscow: [Doctoral dissertation], 2004. – p. 177.
2. Akhmanova O. S. Dictionary of Linguistic Terms. – Moscow: Soviet Encyclopedia, 1969. – p. 608.
3. Galperin I. R. On the Term 'Slang' || Questions of Linguistics. – Moscow: Publishing House of the Academy of Sciences of the USSR, 1956. – No. 6. – pp. 107-114.
4. Homyakov V. A. Introduction to the Study of Slang: A Core Component of English Colloquial Speech. – Vologda: Vologda State Pedagogical Institute, 1971. – p. 104.
5. Istomin V. S. Norm and Social Variability in Language || Linguocultural Paradigm in Modern Studies. – Grodno, 2011. – pp. 191-197.
6. Lipatov A. T. Slang as a Sociolinguistic Problem. – Moscow: Elpis, 2010. – p. 318.
7. Mozhzhukhin K. E. Slang in the Speech of American University Students. – Moscow: [Doctoral dissertation], 2005. – p. 194.
8. Partridge E. Usage and Abusage: A Guide to Good English. – London: Penguin Books, 1999. – p. 401.



G‘afurjon TOJIBOYEV
Xalqaro Fanlar akademiyasining akademigi,
Butunjahon Xalq ijodkorlari uyushmasi a’zosi,
shoir va adabiyotshunos

TIL – BIZ UCHUN HAMMA NARSA

(Laylo Raupovaning 50 yoshiga bag‘ishlanadi)

Mentilshunosolima Laylo Raupova haqidagi bitigimni u tavallud topgan zamin ta’rifidan boshlamoqchiman. Chunki bir insonning ichki dunyosi, shakllanishi va kamol topishi o‘zi yashayotgan zamon bilangina bog‘liq bo‘lolmaydi. Ko‘z ochib ko‘rgan zamin o‘tmishining ruhi va tomirida oqayotgan bobo-momolarining qoni bir daraxtning o‘q ildizi kabi zamonlar osha oziq berib o‘z mevalarini taqdim etaveradi. Laylo Raupovaning bugungi ilmiy martabasi ham mana shunday ko‘z ilg‘amas jarayonning, ya’ni o‘tmish davomiyligining hosilasi bo‘lsa ajabmas. Buxoro qadimdan ilmi irfon va dunyoviy zakovat donishlarini, butun dunyoga mashhur tib olimini va musulmon dunyosining eng yetuk muhaddisini yetishtirgan hamda pir-u avliyolar ko‘z ochgan va abadiy qo‘nim topgan muqaddas zamindir! Bugun ko‘hna bu yurtni ko‘rishga kelayotgan har bir ahli musulmon, hatto o‘zga din vakillari ham “Yetti pir ziyoratgohi”ga, albatta, oshiqadilar va dastlab G‘ijduvonga qadam ranjida qiladilar. Xojai Jahon unvoni bilan Sharq-u G‘arbga tanilgan avliyolar sultoni, naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy Buxoroning nurli shu bir zaminida tug‘ilib o‘sgan, kamol topib pir maqomiga ko‘tarilganlar. Bir forsiy ruboiylarida “Sarchashmai nur, G‘ijduvon manzili most” ya’ni G‘ijduvon manzilimdir, deganlar va “nur sarchashmasi” deya ulug‘laganlar. Muxtasar qilay-da, shu yerda endi e’tiboringizni ushbu maqola sababchisiga qaratay. Aytmoqchimanki, Laylo Raupova aynan mana shu tabarruk zaminning farzandi. G‘ijduvondan yetishib chiqqan til ilmining yetuk va zukko zahmatkashi va fidoyisi. “Ilm o‘rganish yo‘lida sobitqadam bo‘ling” degan ulug‘ hamyurti Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy vasiyatini dasturulamal qilib olganday ilm cho‘qqilari tomon izchil odimlayotgan va bu shahdamlikni aslo susaytirmay, hatto o‘z maktabini yaratayotgan ustoz maqomidagi olimadir. U 25 yoshida fan nomzodi, 37 yoshida fan doktori ilmiy darajasini olgan. 250 dan ortiq ilmiy maqolalari, 300 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlari chop etilgan. 6 ta darslik va 5 ta monografiya muallifi. Ko‘plab xalqaro ilmiy anjumanlar qatnashchisi. (Bu muxtasar ma’lumot eng asosiylari, xolos). Respublikamizning eng nufuzli oliy dargohlarida o‘qituvchi, kafedra mudiri va dekan lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. Filologiya fanlari doktori, professor. Xalq maorifi a’lochisi, “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni sohibi. Hali 30 yilga ham yetmagan ilmdagi va xizmat faoliyatidagi bajarilgan ishlar va yutuqlar hayratlanarli emasmi! Laylo Raupova degan o‘zbek olimasining martabasi shuning uchun ham ulug‘dir va hatto insoniy fazilatlari bilan qadrli va hurmatlidir.



Filologiya ilmining chinakam fidoyisi bo‘lish uchun tovushlarni musiqachiday nozik his qila olish, so‘zlarni oshiqlarday sevish va nihoyat, gaplar dunyosida hayratlanib yashash kerak. Qisqasi, tilchi bo‘lib tug‘ilmoq kerak. Til – biz uchun hamma narsa va hamma narsa tilnikidir, hattoki o‘zimiz ham. Til har bir millatning bu dunyoda borligini va millat deb jahonga isbot eta oladigan to‘rtinchi Davlat ramzidir. Bu o‘zgarmas va ko‘zga ko‘rinmas ramzning millat ongiga va ko‘ngliga muhrlashday mas’uliyatning zahmati, avvalo, olimlar zimmasidadir. Buni his qila olgan tilshunosning ilmi, albatta, mana shu ezgu maqsadga xizmat qilishi, shubhasiz. Bu bilan demoqchi bo‘lganim, Laylo Raupova mana shunday olimlar safida. Men uning til ilmiga bo‘lgan mehrini talabalik davridayoq, ya’ni Toshkent Davlat universitetida (Hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) tahsil olayotgan paytidayoq sezganman. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” va “O‘zbek adabiy tili tarixi” fanlaridan saboq berardim o‘shanda. Hatto Laylo o‘qiyotgan guruhga rahbar edim. Undagi bilimdonlik e’tiborni tortardi va doimo talabam sifatida ichdan faxrlanardim. Ana shu faxr yildan yilga ulkanlashdi va bugungi kunga kelib bu tuyg‘uning salobati oldida faqat hayratlanish zavqiga cho‘milib turibman. Buning yana bir sababi bor. Laylo Raupova 50 yoshga to‘ldi. Ya’ni bir asrlik umrning ikkinchi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Olim inson uchun bu bosqich ilmiy tafakkurning cho‘qqisi hisoblanadi. O‘ylaymanki, yuksaklikning yangi manzillari ham, albatta, zabt etilgay!

Men ushbu maqolamni Layloga

bag‘ishlab, tabrik sifatida yozgan muvashshax she’rim bilan yakunlamoqchiman.

Lutf ila yozdim bu kun she’riy armug‘on sizga,
Taxti tole tojidir to bu ilmi lison sizga.

Aytsin Buxoro sog‘inib: Shoshda qolgan qizimsan,
Faxrim deb duolar qilsin ahli G‘ijduvon sizga.

Yo‘ldasiz – manzil yiroqdir, ezgulik cho‘lda qolmas,
Bunda ustozlar sarbon-u shogirdlar karvon sizga.

Lahza-lahza so‘zdin nafas, ruh oldingiz hamda jon,
O‘zbek tilim – turkiy tilim jon bersin hamon sizga.

Oshdingiz ellik dovondan, oshing yana yuz dovon,
Yuz dovonkim, yuz baxt ila yuz ochsin zamon sizga!

Feruza KARIMOVA,
Bux DPI o‘qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)



O‘ZBEK FOLKLORIDA OLOV BILAN BOG‘LIQ EPIK MOTIVLAR TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek folklorida olov kultiga ishonch asosida shakllangan xalq og‘zaki ijodi namunalarida olov va olov analoglarining badiiy ifoda etilishi ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *olov, o‘zbek xalqi, pari qiz, cho‘pon, afsona, Xorazm, voha, baliq, osmon, qora bulut, yongan chiroq, qo‘rquv, odat, birovning chirog‘i va hokazo.*

Аннотация: в данной статье научно и теоретически анализируется художественное выражение огня и его аналогов в примерах народного устного творчества, сформировавшегося на основе верования в культ огня в узбекском фольклоре.

Ключевые слова: *огонь, узбекский народ, девушка-фея, пастух, легенда, Хорезм, оазис, рыба, небо, темная туча, горящая лампада, страх, привычка, чья-то лампа и др.*

Annotation: in this article, the artistic expression of fire and fire analogs in examples of folk oral works formed on the basis of belief in the fire cult in Uzbek folklore is scientifically and theoretically analyzed.

Key words: *fire, Uzbek people, fairy girl, shepherd, legend, Khorezm, oasis, fish, sky, dark cloud, burning lamp, fear, habit, someone's lamp, etc.*

Olov obrazi hamda u bilan bog‘liq epik motivlar afsona, ertak, naql, doston, latifa singari qator epik janrlarda o‘z o‘rniga ega. Ularda, odatda, biror joyning kelib chiqishiga olov yoki olov yoqib, undan foydalanish sabab bo‘lgani yoxud olovda insonni yoqib, kuydirib qo‘rqitish motivlari uchraydi. Masalan, o‘zbek xalqining “Cho‘pon bilan pari” afsonasida insonni tiriklay olovga tashlash bilan cho‘chitmoqchi bo‘lish motivi keltirilgan. Afsonada hikoya qilinishicha, bir pari qiz bilan bir cho‘pon yigit oshiq-ma’shuq bo‘lib qolishadi. Pari yigitga o‘zi haqida boshqalarga gapirmaslik shartini qo‘yadi. Ammo yigitning sheriklari buni sezib, pari sirini ochishni, bo‘lmasa olovda yondirishlari mumkinligini bildirib, uni qo‘rqitadilar. Hozirlangan katta gulxanni ko‘rib, cho‘pon yigit sirni ochmoqchi bo‘ladi. Biroq uning so‘zi og‘zida qolibdi. Osmonda katta qora bulut paydo bo‘lib, bolani urib ketibdi. Cho‘pon yigit qop-qorayib, turgan joyida kuyib qolibdi.

Kapalakning paydo bo‘lishi haqidagi afsonada aytilishicha, “tabib” jodugar mastonning to‘ng‘iz terisidan bo‘lgan katta sirli suprasi bor ekan. U shu suprasidagi unga sakson nafar yigitni bitta-bitta yotqizib, ularni supraga o‘rab, keyin birma-bir duo

o‘qib ochaveribdi. Suprani har ochganda oppoq, katta-katta kapalaklar uchib chiqaveribdi. Shunday qilib, o‘ng tomondan qirqta, chap tomondan qirqta, hammasi saksonta kapalak uchib chiqibdi. “Tabib” suprasini yig‘ishtirib, olovga tashlab yoqib yuboribdi.

Bu motivda sirli narsani yoqib yo‘q qilish mumkinligi motividan foydalanilgan.

“Olov bilan baliq” afsonasida hozir ham mavjud bo‘lgan joy nomi – real toponimning vujudga kelishiga olov asos bo‘lgani bayon etilgan. Unda aytilishicha, bir podsho qarigan sayin yoshligida qilgan ishlarini ko‘p o‘ylaydigan bo‘lib qolibdi. Bir kuni u vazirini huzuriga chaqirib: “Cho‘lga tashlab kelingan odamlarning holi ne kechdi ekan? Shuni bilib kelsangiz”, – deb buyuribdi.

Vazir darhol otlanib, haligi joyga yetib borib, qarasaki, ular tirik, baliq tutib, olovda pishirib yeb yotishibdi. Hatto vazir bilan uning hamrohlarini ham olovda pishirilgan zog‘ora baliq bilan siylashibdi. Vazir bu odamlarning tirik qolganiga ajablanib: “Qanday qilib omon qoldingizlar?” – deb so‘rabdi. “Xor – razm” deb javob berishibdi ular.

O‘sha vaqtda olovni “xor”, baliq go‘shtini esa “razm” deb atasharkan. “Xor-u razm” – biz baliq tutib uni olovda pishirib yeb tirik qoldik” degani ekan.

Bo‘lmasa bu yerlarni sizlarga baxsh etdik. Yurtingizning nomi ham “Xor razm” bo‘lsin, ya’ni olov bilan baliq go‘shti mo‘l o‘lka bo‘lsin!” – debdi vazir. “Xorazm” so‘zi ana shundan kelib chiqqanligi aytiladi.

“Jayhun” nomli toponimik afsonada bir podsho shu nomdagi daryo bo‘yiga borib, u yerdagi baland tog‘ etagida dam olmoqchi bo‘libdi. Uning lashkari uchga bo‘linib, ovqat pishirmoqchi bo‘libdi va uchta o‘choq quribdilar. Ana shu tog‘ning o‘rnidagi uch qozon o‘rni – o‘choqlar borligi uchun bu joyni haligacha “Uch o‘choq” deb atashar ekan.

Bu o‘rinda olovning analogi – o‘choq joy nomining kelib chiqishiga asos bo‘lgani aytilmoqda.

Agiografik afsonalarda hazrati Sulaymonning ma’shuqasi Bilqizning otasi odam, onasi pari bo‘lgani aytiladi. O‘sha pari homilali bo‘lib, oy kuni yetib bir qiz tug‘ibdi. Pari darhol qizchani olovga tashlabdi. Otasi xotiniga g‘azab qilib: “Bolani qasddan nobud qilding!” deb, tezlik bilan qizaloqni olovdan olibdi. Pari: “Bizlarning qizimizni olov tarbiya qiladi va o‘g‘limizni esa it” deb javob beribdi.

Rahmatilla Yusuf o‘g‘li yozib olgan bir matnda keltirilgan quyidagi matn mavzuyimizga bevosita daxldorligi bilan e’tiborimizni tortdi. Unda shunday deyiladi: “Olov, jumladan, olovdurkim, olovni xudo deb bilmak Zardo‘sht ma’lundan qolgan. Undan keyin odamlar musulmonlashib, tag‘in qancha zamonlar o‘tib, haligacha ham ba’zi ahli xurofot orasida saqlanib qolgan. Shundan qabrga chiroq yoqib kelmak, “falonchining chirog‘i o‘chmasin”, “yonganning chirog‘i o‘chmasin” degan fikrlar yoki o‘lgan kishilarning go‘riga chiroq yoqmoq va chiroq orqali hid chiqarmoqqa aloqadordur.

E’tiborni tortadigan yana bir jihat shuki, olov yoqish uchun qurilma – tandirni yasashda “qaldirg‘och kulcha” degan o‘simlik qo‘shiladi. U tandir yasashda ishlatiladigan muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Bu o‘simlik suvsizroq va quruq yerlarda o‘sadi. Uni suvga solib, oftobga qo‘yishadi. Quyosh nurida bu o‘simlik yopishqoq holatga kiradi. Shuning uchun u tandir loyining yopishqoqligini ta’minlaydi.

“Nuh to‘foni” haqidagi afsonada “tandirdan suv toshib chiqishi” motivi qiyomat, oxirzamon belgisi sifatida keltirilgan. Aytilishicha, “Qiyomat boshlanganda Isrofil alayhissalomning suri chalinib, barcha bandalar uning ortidan ergashar, hatto qabrda yotgan o‘liklar ham tirilib, Arshga chiqib borar ekan. Allohning buyrug‘i bilan yerdagi jami mavjud binolar yiqilib, tuproqqa qorisharkan. Faqat tandirgina yiqilmay turar ekan. Shunda Allohdan vahiy kelib, buning sababini so‘rasa: “Bekam uzoq yillar mening taftimga bag‘ri kuyib, eri va bolalari uchun rizq pishirdi. Bekamning gunohlaridan kechsang, yiqilaman”, − deya javob berar ekan tandir. Shuning uchun “tandir” so‘zining ma’nosi “tan” – “dir”, ya’ni “bekasining gunohlari uchun tandir” so‘zidan olingan deyiladi.

Olov kulti haqidagi qarashlar butun dunyo mifologiyasida keng tarqalgan. Qadimgi yunon-rim miflaridagi Ogni, Aid, Prometey timsollari bevosita ana shunday qarashlar asosida kelib chiqqanligi bilan e’tiborni tortadi. Ularda olov quyoshning bir parchasi deb ko‘rsatiladi va uni Prometey quyoshdan yerga olib tushgani aytiladi. Nafaqat odamning, balki olamning yaralishida ham olovning o‘rni ta’kidlanadi. Olov koinot yaratilishida suv, tuproq, daraxt kabi hayotning markazida mavjud bo‘lgan element sifatida ko‘rsatiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, olov haqidagi afsonaviy qarashlar, epik talqinlar bevosita mangu barhayot payg‘ambar – Xizr nomi bilan ham bog‘lab talqin etiladi. O‘zbeklar orasida olov kultiga ishonchni o‘zida ifoda etuvchi bir qator marosimlar, urf-odatlar va ularga aloqador folklor namunalari hozirgacha saqlanib kelmoqda. O‘zbek folklorida olovning suv, daraxt, qush bilan bog‘liqlikdagi talqini kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Олов билан балиқ. // Ипак йўли афсоналари. Тузувчи, нашра тайёрловчи М.Жўраев. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.16.
2. Уч ўчоқ. // Ипак йўли афсоналари. Тузувчи, нашра тайёрловчи М.Жўраев. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.24.
3. Боболардан қолган нақллар. Ёзиб олувчи: Раҳматилла Юсуф ўғли. Тўплаб нашрга тайёрловчи: М.Жўраев, У.Сатторов. – Тошкент: Фан, 1998. – Б.64

Marjona RAHIMBOYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SHE’RIY MATNNI IDROK ETISH VA TAHLIL QILISHNING PSIXOFIZIOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda she’riy matnni idrok etish va tahlil qilishning psixofiziologik jihatlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *obyektivlik, yaxlitlik, doimiylik, kategoriallik, idrok, jarayon, natija, namoyon bo‘lish, tasvir, asosiy xususiyatlar, sezish, qobiliyat, asab tizimi.*

Annotation: in this article, the psychophysiological aspects of the perception and analysis of the poetic text in primary education are analyzed scientifically and theoretically.

Key words: *objectivity, integrity, continuity, categorical, perception, process, result, manifestation, image, basic features, perception, ability, nervous system, etc.*

Аннотация: в данной статье научно и теоретически анализируются психофизиологические аспекты восприятия и анализа поэтического текста в начальной школе.

Ключевые слова: *объективность, целостность, непрерывность, категориальность, восприятие, процесс, результат, проявление, образ, основные черты, восприятие, способность, нервная система и др.*

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy adabiyotni to‘liq idrok etish qobiliyatini rivojlantirish muammosi fanda ham, maktab amaliyotida ham eng qiyin muammolardan biridir. Mutaxassislarning “Bolalarni badiiy adabiyotni idrok etishga o‘rgatish” nimani anglatishini noaniq tushunishlari ta’limning muayyan bosqichlarida o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablar darajasini aniqlashda yetarli darajada aniq emasligiga olib keladi .

Psixologlar aniqlaganidek, sezish qobiliyati ¬asab tizimiga ega barcha tirik mavjudotlarga tug‘ilishdan boshlab beriladi. Faqat odamlargina dunyoni hayot tajribasi orqali rivojlantiradi va takomillashtiradigan tasvirlar shaklida idrok etish qobiliyatiga ega;.

Idrok har doim obyektlar shaklida tuzilgan mavjud voqelik bilan subyektiv bog‘langan voqelik sifatida harakat qiladi. Obyektivlik, yaxlitlik, ¬doimiylik va kategoriallik - bu idrok jarayoni va natijasida namoyon bo‘ladigan tasvirning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Idrokning fiziologik mexanizmlarini tushunishga juda ko‘p foydali ma’lumotlarni rus olimi I.M. Sechenov, ularni mushak to‘qimalarining ishi bilan bevosita bog‘lagan.

Idrok etishga tasvirni shakllantirish va qaror qabul qilish uchun zarur hamda yetarli belgilarni faol izlash bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual texnika sifatida qaraladi. Ushbu jarayonga kiritilgan harakatlar ketma-ketligi ¬quyidagicha ko‘rsatilgan:

1. Axborot oqimidan ogohlantiruvchilar to‘plamini birlamchi tanlash va ular bir xil aniq obyektga tegishli qaror.

2. Xotirada tarkibiga o‘xshash yoki o‘xshash xususiyatlar majmuasini qidirish, ular bilan taqqoslash uning qanday obyekt ekanligini aniqlashga imkon beradi.

3. Qabul qilingan obyektni ma’lum bir toifaga belgilash, keyinchalik ¬qabul qilingan faraziy qarorning to‘g‘riligini tasdiqlovchi yoki rad etadigan qo‘shimcha belgilarni izlash.

4. Bu qanday obyekt ekanligi haqidagi yakuniy xulosa, unga bir xil sinf obyektlariga xos bo‘lgan, hali sezilmagan xususiyatlarni kiritish.

Badiiy adabiyotni og‘zaki san’atning bir turi sifatida idrok etish muammosi haqida olimlar B.M. Teplov va A.N. Leontyev qobiliyatlar nazariyasini ishlab chiqdi, unga ko‘ra adabiyotni idrok etish qobiliyatini tug‘ma deb hisoblash mumkin emas. Birovning nutqini gapirish va tushunish qobiliyati faqat muloqot va bolada shartli reflekslarning shakllanishi asosida paydo bo‘ladi.

“San’atni idrok etgan odam uni ham yaratadi, biz ¬unga san’at yaratishni o‘rgatishimiz kerak. Biz unga san’at asari bilan bir qatorda ¬ma’lum bir dasturni ham beramiz, bu unga idrok etish jarayonida uning ¬yaratuvchisi tomonidan ushbu asarga qo‘yilgan narsaga iloji boricha yaqinroq narsani olish imkonini beradi".

Kichik maktab o‘quvchilarining badiiy adabiyotni idrok etishi, o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1.Obyektlarning hissiy ko‘rinishini idrok etish yosh bolalarga ¬ma’lum bir zavq bag‘ishlaydi. Obyektlar ularga birinchi navbatda tashqi xususiyatlar bilan ta’sir qiladi (ular ma’nosini tushunmasa ham).

2.Til va so‘zni idrok etish bolalarda jonli tasvirlarni, tovushli tasvirlar esa estetik reaksiyani uyg‘otadi.

3.Bolalar asarning g‘oyaviy mazmunini tushuna olmaydilar, ular faqat muallifning qahramonlarga bo‘lgan hissiy munosabatini tushunadilar.

4.Kichik maktab o‘quvchilarining tasavvurlari yomon rivojlangan (agar ular ilgari ma’lum bo‘lmasa, hech qanday tasvirni tasavvur qila olmaydilar, 3-sinfgacha).

5.Bolalar murakkab matnlarni, metafora va idiomalarni o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelishadi¬, ular ko‘pincha tushuntirib bera olmaydilar.

6.O‘qishning uchinchi yilida mazmunli o‘qish va ¬o‘qilgan narsani tushunishga bo‘lgan ijobiy tendensiya ma’lum bir munosabatga olib keladi - matnda tushunarsiz bo‘lgan hamma narsani o‘tkazib yuborish.

Bu kuzatishlar natijasida bolalarni badiiy nutqni to‘liq idrok etishga, so‘zning majoziy og‘irligini va estetik ekspressivligini qadrlashga o‘rgatish kerak degan muhim xulosaga kelinadi. Bu ish birinchi sinfdan boshlanishi kerak. Olimlarning fikriga ko‘ra, u ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi kerak:

1) metaforalarni idrok etishga o‘rgatish;

2) so‘zning tasviri va ifodaliligini idrok etishni o‘rganish.

Zamonaviy adabiy tanqidda badiiy asar mazmuniga uning salohiyati sifatida qaraladi, uning rivoji o‘quvchining sa’y-harakatiga bog‘liq.

Badiiy matnning ifodaliligini o‘zlashtirish bo‘yicha ishlar boshlang‘ich maktabning bolalar lug‘atini boyitish kabi muhim vazifasi bilan bevosita bog‘liq. So‘z boyligi o‘quvchining nafaqat nutqini rivojlantirishni ta’minlaydigan, balki til fanining barcha sohalarini yaxshiroq o‘zlashtirish, imlo va stilistik ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun sharoit yaratadigan eng muhim shartdir ¬.

She’riy matnlarning lingvoestetik tahlili bolalarning nutqning umumiy xususiyatlari haqidagi g‘oyalarini hisobga olgan holda quriladi¬, ulardan uchtasi: prozaik va she’riy, monologik va dialogik, nominativ va ritorik tarzida guruhlarga bo‘linadi.

Binobarin, she’riy nutqning xususiyatlari bilan tanishishning birinchi bosqichida biz “tildan foydalanish hodisasi” bo‘lgan va natijada vujudga keladigan adabiyot asari sifatida matn tushunchasini kiritamiz.

Shuni ta’kidlash kerakki, har bir badiiy matn estetik taassurot qoldira olmaydi. Binobarin, matnlarning funksional tipologiyasini qurish matnning bir turini boshqa barcha funksional¬-uslubiy turlarga qarama-qarshi qo‘yish orqali ham mumkin bo‘ladi: so‘zlashuv-kitobiy, ilmiy – ¬ilmiy bo‘lmagan va hokazo. Bunday tasnifni yaratishda sezilarli rivojlanishga erishgan an’anaviy germenevtika qoidalariga tayanish mumkin.

Boshlang‘ich maktabda matnning lingvoestetik tahlilini o‘rgatish ¬tizimida hal qiluvchi komponent uning mazmuni ekanligini hisobga olib¬, matn nazariyasi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish zarurati tug‘iladi.

Zamonaviy tilshunoslikda matnlarni tasniflash muammosi juda chuqur taqdim etilgan. Ularning tipologiyalari turli sabablarga ko‘ra ajralib turadi: matnni ishlab chiqaruvchiga (tabiiy, uydirma va sahnalashtirilgan), ¬aloqa sheriklariga, muloqotga tayyorlik darajasiga, matn mualliflari soniga (monolog, dialogik) nisbatan va hokazo.

Til hodisalarini mustaqil tahlil qilish o‘quvchilar tomonidan ular uchun yangi bo‘lgan o‘quv lingvoestetik vazifalarni hal qilish jarayonida amalga oshirilishi mumkin. Tahlil jarayonida talabalar ikkita tipik vaziyatga tushib qolishlari mumkin: o‘zbek tili va o‘qish darslarida olgan bilimlari asosida qandaydir lingvoestetik muammoni hal qilish kerak bo‘lganda; adabiy matnni tahlil qilish jarayonida nostandart misolga duch kelganlarida (masalan, so‘zni ¬o‘ziga xos bo‘lmagan ma’noda qo‘llash holati) estetik ahamiyat berishga qodir bo‘lgan ko‘p darajali til birliklarining ishlashini kuzatish ¬vizual va ekspressiv vositalardan intensiv foydalanishni sharhlashni talab qiladigan

faktlar ro‘yxatini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Nikiforova O.I. Badiiy adabiyotni idrok etishning rivojlanishi. Boshlanishi. Maktab. 1976-yil 2-son. 69-74-betlar.
2.Murzin L.N., Litvinova M.N. Badiiy matn: o‘ziga xoslik muammosiga kommunikativ jihatdan nutqning funksional turlari . -Perm, 1988. 298-bet .
3.O‘rinboyev B.Qo‘ng‘irov Y. Lapasov J. “Badiiy matnning ligvistik tahlili”.

Muxayyo VALIYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
BT nazariyasi kafedrasi assistent-o`qituvchisi
salimovna71@gmail.com

NOMINATSIYA-LINGVISTIKADA NOMLASH JARAYONI

Annotatsiya: ikkilamchi nominatsiya lingvistik tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilinganda, nominatsiya jarayoni ham o‘rganildi. Ushbu maqolada Ismlarni, ularning nomlanish tabiatini, vositalarini, ifodalanishini o‘rganuvchi fan onomasiologiya haqida, nomlash jarayoni subyekt, obyekt va til vositalari orqali yuzaga chiqishi, uning uch nuqtada bajarilishi haqida so‘z yuritilgan. Tadqiqot natijalari maqolaning xulosa qismida ko‘rsatib berilgan.
Kalit so‘zlar: *onomastika, Ikkilamchi nominatsiya, obyekt, subyekt, til vositalari, atalish, nomlanish, til vositalari.*
Аннотация: при изучении вторичной номинализации как объекта лингвистического исследования изучался и процесс номинализации. В данной статье говорится об ономасиологии - науке, изучающей имена, называющую их природу, средства и выражения, причем процесс именования происходит посредством предметных, объектных и языковых средств и осуществляется в трех пунктах. Результаты исследования представлены в заключительной части статьи.
Ключевые слова: *ономастика, вторичная номинация, объект, предмет, языковые средства, именование, именование, языковые средства.*
Annotation: when secondary nominalization was studied as an object of linguistic research, the process of nominalization was also studied. This article talks about onomasiology, a science that studies names, their naming nature, means, and expression, and the process of naming occurs through subject, object, and language tools, and it is done in three points. The results of the research are shown in the concluding part of the article.
Key words: *onomastics, Secondary nomination, object, subject, language tools, naming, naming, language tools.*

Ismlarni, ularning nomlanish tabiatini, vositalarini, ifodalanishini o‘rganuvchi fan onomasiologiya deyiladi. Bu fanning maqsadi nominatsiya nazariyasini yaratish, nomlashning vosita va uslublarini o‘rganishdir. “Nominatsiya so‘zga predmetning aniqlangan belgilarini aks ettiruvchi tushunchani mustahkam bog‘lash”, boshqacha aytganda, “nominatsiya til belgilari orqali tushuncha – aniqlangan belgilarni aks ettiruvchi signifikatni ifodalashdir” [4].


Onomastika – yunoncha onomastike – so‘zidan olingan bo‘lib, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni bildiradi [5]. O‘zbek onomastikasi (nomshunosligi) o‘tgan asrning ikkinchisi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. O‘zbek nomshunosligi bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug‘atlar, ko‘p sonli ilmiy maqolalar nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi [11].

Nominatsiyada subyekt obyektning bir qator yoki bitta belgisini nomlash uchun asos qilib tanlaydi. Har bir predmet ko‘plab belgilarga ega. Nomlashda bu belgilarning hammasini ifodalash mumkin emas, shuning uchun xarakterli bo‘lgan bittasi tanlanadi. U yoki bu predmetning nomlanishiga asos bo‘lgan belgini A.A.Potebnya “ichki shakl” deb nomlaydi [10].

Ko‘rinadiki, lingvistikada nominatsiya nomlash jarayonini bildirib, bu jarayonda til elementlari o‘zi nomlayotgan obyektga mos bo‘ladi. Nomlanayotgan obyektning biror belgisi nomlanish uchun asos vazifasini bajaradi. Nominatsiya jarayonini uch nuqta bilan belgilashimiz mumkin, nomlash jarayoni shu uch nuqta orqali amalga oshiriladi:

1.Obyekt (nomlanayotgan).
2.Subyekt (nomlayotgan).
3.Til vositalari (tanlab olinadigan).

Demak, nomlash jarayoni subyekt, obyekt va til vositalari orqali yuzaga chiqadi. Buni quyidagicha tasvirlash mumkin:



Nomlash jarayonida tanlangan belgi nomning asosini tashkil qilib, uning ichki shaklini shakllantiradi. Shu tariqa aynan bir obyekt qanday belgini nomlash uchun asos qilib olinganiga qarab turlicha (N1, N2, N3, N4, N...) nomlanishi mumkin. “Til orqali reallashadigan tafakkur tarzining o‘ziga xosligi borliqni ko‘rishning, idrok etishning ham ma’lum ma’nodagi o‘ziga xosligidir. Har bir xalq o‘zicha ko‘radi, eshitadi, zavqlanadi. Misol uchun chittak degan qush nomini olaylik. Bu qushni nomlashda o‘zbek uning harakatini asos qilib olgan. Bu qush tez harakat qiladi (“chit-chit”), o‘zbek shu harakatni dastlab ko‘rgan bo‘lsa, rus kishisi bu qushning rangini dastlab ko‘rgan. U ana shu rangini nomga asos qilib olib, ayni qushni синица deb nomlagan. Yoki o‘zbek tovuqning bolasi chiqaradigan tovushni “jip-jip” tarzida eshitiladi, shuning uchun uni jo‘ja deb ataydi. Rus esa “цып-цып” deb eshitgani uchun uni цыплёнок so‘zi bilan ataydi. Bu juda oddiy misollar, aslida har bir xalqning dunyoni o‘zicha ko‘rishi va eshitishi, idrok etishi behad murakkab tarzda kechadi” [13].

Ko‘rinadiki, nominatsiya qoidalari nafaqat tayyor til vositalarida o‘z ifodasini topmay, balki har bir nutq aktida ham namoyon bo‘ladi. Bunday nutq aktlarida ham obyektning nomlanishi ma’lum belgining tanlab asos qilib olinishi orqali yuzaga chiqadi.

V.Skalichka [12] so‘z haqida fikr bildirganida unga qo‘shimcha tarzda atalish, nomlash (наименование) terminini ham iste’molga kiritadi. Olimning fikriga ko‘ra, ba’zi tushunchalar ikki so‘z vositasida beriladi. Bunday vaziyat bir tushunchani ifodalash bo‘lgan so‘zning lingvistik maqomini mavhumlashtirib qo‘yadi va shu bois “наименование” terminidan foydalanish maqsadga muvofiq deb yozadi.

Zamonaviy nominatsiya nazariyasida nominatsiyaning turli tiplari va usullari o‘rganilgan. Nomlash jarayoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita bajariladi. Birinchi usul tilshunoslikda faol ishlatiladi, unda motivatsiyalangan belgi o‘z ma’nosida ishlatiladi. Bunday belgining mazmuni motivatsiyalangan so‘zning leksik ma’nosiga mos keladi. Ikkinchi usul bilvosita bo‘lib, bu holatda motivatsiyalangan so‘z ko‘chma ma’noda ishlatiladi.

Nominatsiya tiplari orqali nomlangan belgining voqelik xarakterini ko‘rsatadi, shu sababli nominatsiya birlamchi va ikkilamchi bo‘ladi. Birlamchi nominatsiya boshlang‘ich bo‘lib, zamonaviy lingvistikada kam mahsul hisoblanadi. Ikkilamchi nominatsiya sermahsul hisoblanadi, chunki u tayyor til vositalarining ma’nosini o‘zgartiradi, o‘zining ikkinchi funksiyasini bajaradi, bunday nomlar motivatsiyalangan bo‘ladi.

Ikkilamchi leksik nominatsiyani V.G.Gak va V.N.Teliya tilda mavjud bo‘lgan nominativ birliklarini yangi funksiyada namoyon bo‘lishi deb ataydi [7].

Ularning fikricha, tilda shunday ikkilamchi nominatsiyalar mustahkamlanadiki, ular ma’lum til sistemasida qonuniy deb hisoblangan usul bilan yasalgan va tildagi bo‘sh o‘rinni to‘ldirish uchun xizmat qilganlaridir.

V.V.Vinogradov shunday ta’kidlagan edi: “... yangi tushuncha yoki predmetga oid yangi tushunchani shakllantirish va yaratish mavjud lingvistik materiallar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tushuncha so‘z ma’nosida yaxlitlanib, umuman, ma’lum bir tilning semantik tuzilishining elementiga aylanadi” [8]. V.V.Vinogradovning fikriga ko‘ra, obyektni lingvistik vosita orqali belgilash, nomlash hayotning turli vaziyatlarida so‘zning ma’nosini yaxlitlash bilan bajariladi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida quyidagi xulosaga keldik:

1.Tushunchalarning yashash shakli, uning ifodasi so‘z bo‘ladi. Nominativ funksiyani so‘z bajaradi. Nominativ funksiyani bajarishda inson omili muhim rol o‘ynaydi. Chunki inson atrof-muhitni o‘rganish jarayonida predmet va hodisalarga duch keladi, ularni qiyoslaydi, farqli tomonlarini aniqlaydi va shunga mos ularni nomlaydi, yangi tushunchalarni hosil qiladi, ular orasidagi munosabatlarni tahlil qiladi.

2. Nominatsiya jarayonini uch nuqtaga tayanadi, nomlash jarayoni shu uch nuqta orqali amalga oshiriladi: 1) obyekt (nomlanayotgan); 2) subyekt (nomlayotgan); 3) til vositalari (tanlab olinadigan). Demak, nomlash jarayoni subyekt, obyekt va til vositalari orqali yuzaga chiqadi.

3. Nominatsiya tiplari orqali nomlangan belgining voqelik xarakterini ko‘rsatadi, shu sababli nominatsiya birlamchi va ikkilamchi bo‘ladi. Birlamchi nominatsiya boshlang‘ich bo‘lib, zamonaviy lingvistikada kam mahsul hisoblanadi. Ikkilamchi nominatsiya sermahsul hisoblanadi, chunki u tayyor til vositalarining ma’nosini o‘zgartiradi, o‘zining ikkinchi funksiyasini bajaradi, bunday nomlar motivatsiyalangan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуразақов М.А. Семантические типы субъектов. – Тошкент: 1991. 67-с.
2. Бегматов Э. Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: 2006. 60-б.

3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (X1X аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган: 2008. 168-б.
4. Валиева, М. С. Лингвокультурология как особая научная дисциплина. Экономика и социум, (5-1 (96)). 2022. 346-348-с.
5. Валиева, Мухайё Салимовна. "Пословица как паремиалогическая единица." Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения 1.6 (2023): 50-53-б.
6. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова// Вопросы языкознания. –М.:1953.5-с.
7. Колшанский Г.В. Соотношение субъективных и объективных факторов языка. –М.:Нука, 1975.
8. Маҳмудов Н. М. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. 19-20- б.
9. Потебня А.А. Языковая номинация. – М.: 1977. 102-с.
10. Скаличка В. К вопросу о типологии// Вопросы языкознания. – М.: 1966. №4 10-с.
11. Телия В.Н. Вторичная номинация и его виды. – М.: 1977. 27-с.

Dilzoda SAYDALIYEVA,
Qo‘qon DPI tadqiqotchisi
Saydaliyeva@gmail.com



JAHON TILSHUNOSLIGIDA SISTEMA TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816- yilda) fanlar olamiga kirib keldi. Shak-shubhasiz, tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g‘oyalar, kuzatishlar natijasi, “mahsuli” sifatida o‘zining alohida o‘rganish obyektiga va tekshirish metodiga ega bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: *sistema, struktura, psixologizm, shaxs, til evolyutsiyasi, glossematika va deskriptiv lingvistika.*

Annotation: linguistics as a separate, independent science entered the world of science in the first quarter of the 19th century (in 1816). Undoubtedly, linguistics, like a number of other sciences, as a result, "product" of research, experiments, research, ideas, observations, got its own object of study and method of investigation.

Key words: *system, structure, psychologism, personality, language evolution, glossematics and descriptive linguistics.*

Аннотация: языкознание как отдельная, самостоятельная наука вошло в мир науки в первой четверти XIX в. (в 1816 г.). Несомненно, лингвистика, как и ряд других наук, в результате «продукта» исследований, экспериментов, исследований, идей, наблюдений получила свой собственный объект изучения и метод исследования.

Ключевые слова: *система, структура, психологизм, личность, эволюция языка, глоссематика и описательная лингвистика.*

Kirish. Shuni alohida ta’kidlash mumkinki, jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga yetib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot davrini, “o‘sish” davrini bosib o‘tdi. U turli maktablar, oqimlar, ta’limotlar ta’sirida bo‘ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama- qarshiligiga, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko‘plab manbalarga “guvoh bo‘ldi”, shakllandi. Aniqrog‘i, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o‘ziga xos va o‘ziga mos doimiy mustahkam o‘rin egalladi.

Psixologizm deb tushunish strukturalizmning maydonga kelishiga turtki berdi. Har qanday ilmiy oqim kabi strukturalizm ham o‘z g‘oyaviy asoslariga ega. Struktur tilshunoslikning yuzaga kelishiga I.A.Boduen de Kurtene va F.de Sossyur qarashlari asos bo‘lib xizmat qildi [1.58].

Shvetsariya tilshunosi F.de Sossyurning tilshunoslik oldidagi buyuk xizmati shundaki, u sinxroniya bilan diaxroniyani aniq farqladi. Sinxron nuqtayi nazar ma’lum tilning muayyan bir davrida mavjud bo‘lgan elementlarning o‘zaro munosabatlardan tashkil topgan butunlik - sistemani hosil qiladi degan fikrga kelishiga imkon tug‘dirdi. Uning fikricha, til qismlari sinxron munosabatda o‘rganilishi mumkin bo‘lgan sistemadir. Garchi sinxroniya va diaxroniya o‘rtasidagi munosabat, tilning sinxron holatiga xos sistemaviylik dastlab Boduen tomonidan olg‘a tashlangan bo‘lsa ham, lekin Sossyur tomonidan aniq ifodasini topdi va uning bu ikki bosh g‘oyasi, ya’ni tilning sinxron tahlili, til sistemasi hamda til strukturasi va til funktsiyasi haqidagi g‘oyalar yangi tilshunoslikning shakllanishida tayanch nuqta bo‘lib xizmat qildi [2.100].

Asosiy qism. Tilshunoslikda struktura atamasi turli ma’noda talqin qilinadi. Ulardan keng tarqalgani

ikki xildir: Birinchisida struktura deb o‘zaro bog‘langan va shartlangan munosabatdagi elementlardan tashkil topuvchi butunlik tushuniladi. Strukturaga bunday yondashuv o‘rganilayotgan obyekt va uni tashkil etgan elementlar o‘rtasidagi ichki aloqa va bog‘liqlikni yoritishni talab etadi. Ikkinchi yo‘nalishda esa struktura sof shakllar va sof munosabatlar sifatida tushuniladi. Shakl esa konkret qo‘llanilishdan uzilgan holda talqin qilinadi. Ana shundan kelib chiqqan holda struktur tilshunoslikning turli tarmoqlari dunyoga keldi [3.62]. Ular funksional lingvistika, glossematika va deskriptiv lingvistika yo‘nalishlaridir. Struktur tilshunoslikning mazkur tarmoqlari turli tadqiqot metodlaridan foydalanganlari bilan ham o‘zaro farqlanadilar.

E.Benvenist turli sistemalarni tahlil qilish natijasida til shakllari ma’lum strukturaga ega, degan xulosaga keladi va uning quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatadi:

1) u qismlari ustidan hukmronlik qiladigan ma’lum butunlik birligi sanaladi; bu birliklar ma’lum barqaror tamoyillar asosida shakliy tartibga solingandir;

2) butunning barcha qismlari u yoki bu vazifani bajargani tufayligina struktura xarakteriga ega bo‘ladi;

3) bu qismlar ma’lum sathning har bir birligi boshqa yuqoriroq sathning kichik birligi, ya’ni butunning bo‘lagi bo‘lishi mumkin.

Struktur tilshunoslikning tekshirish obyekti o‘rganilayotgan obyektga munosabatlar sistemasi sifatida qarovchi, tilning substansiyasi bilan shaklini farqlovchi tilshunoslik sistemaviy-struktur, yoki struktur tilshunoslik. Demak, struktur tilshunoslikning an’anaviy tilshunoslikdan ajratib turgan eng muhim belgisi substansiya va shaklni farqlashdir [1.58]. Bu ikki tilshunoslik bilishning ikki – hissiy va idrokiy bosqichlariga tayanishi bilan ham farq qiladi. Chunki obyektning immanent belgilarini aniqlash bilishning bevosita kuzatish, analiz va sintez bosqichlarini e’tirof etadi. An’anaviy tilshunoslik bilishning birinchi bosqichiga, struktur tilshunoslik esa ikkinchi va uchinchi bosqichiga tayanadi. Struktur tilshunoslik garchi obyektga munosabatlar sistemasi sifatida yondashish, asosiy e’tiborni butun tarkibidagi elementlar va elementlar hamda butun o‘rtasidagi munosabatlarni ochishga qaratishi bilan umumiylikni tashkil etsa ham, lekin ana shu munosabatni ochishda qanday usullarga tayanish nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi [2.102]. Shu farqlanish tufayli dunyo tilshunosligida turli struktur tilshunoslik maktablari va har qaysi tilshunoslik maktabiga xos tahlil metodlari maydonga keldi.

F.de Sossyurning tilshunoslik oldidagi katta xizmati shundaki, u tilni substansiya emas, balki shakl ekanligini e’tirof etdi va bu bilan tilshunoslik tarixida til-nutq zidlanishini birinchi o‘ringa olib chiqdi. Tilshunoslar diqqatini nutqiy qurshovdan holi bo‘lgan mohiyatini o‘rganishga jalb qildi va tilning sistema ekanligini e’tirof etdi. U tilda sinxron va diaxron holatlarni farqlar ekan, tilning sinxron holati uchun tizim atamasi xarakterli ekanligini ta’kidlaydi. Bunda F.de Sossyur sistemaning ikki muhim xususiyatini ko‘rsatadi:

a) tizimning barcha a’zolari tenglikka ega;

b) tizim yopiq hisoblanadi [4.137].

O‘zbek tilshunosligida ham sistemaviy tilshunoslikning metodologiyasi va tekshirish metodi 70-yillardan boshlab ommalashgan ekan, bundan oldingi tadqiqotlardan sistemaviylik tamoyillarini qidirish ortiqcha. L.S.Barxudarov ham an’anaviy tilshunoslik struktur tilshunoslikda bo‘lgani kabi distributsiya, transformatsiya, binar oppozitsiya singari qat’iy ilmiy tadqiqot usullariga ega emasligini ta’kidlagan edi [5.128]. An’anaviy tilshunoslikka zid qo‘yilayotgan sistemaviy tilshunoslikni “ilg‘or tilshunoslik” sifatida talqin qilish ham noo‘rin. Avvalo, sistemaviy tilshunoslik vakillarining qarashlari bir xil emas, hatto ko‘p hollarda bir-biriga zid keladi. Xususan, F.de Sossyurning o‘zi tilshunoslikni ichki va tashqi lingvistikaga ajratgan holda, faqat ichki lingvistika yuzasidan fikr yuritadi. Tashqi lingvistika uning nazaridan chetda qoladi. F.de Sossyurning til substansiya emas, shakldir, degan qarashi struktur tilshunoslikning glossematika yo‘nalishining bosh g‘oyasi bo‘lib qoldi va ular tilni moddiylikdan uzilgan sof munosabatlar sistemasi sifatida talqin qildi. Tizim deganda o‘zaro bog‘langan qismlardan tashkil topgan har qanday murakkab birlik tushunilishi kerak. Binobarin, tuzilma, garchi eng muhim bo‘lsa ham, lekin tizimning xususiyatlaridan faqat bittasidir.

Xulosa. Tilning tuzilish birliklari o‘rtasidagi munosabatlarini o‘rganish tilshunoslikning asosiy vazifasi hisoblandi. Lekin til va jamiyat, til va so‘zlovchi shaxs, til evolyutsiyasi, adabiy til va xalq shevalari o‘rtasidagi munosabat, til va tafakkur, matn lingvistikasi, til estetikasi singari qator masalalar uning nazaridan chetda qoladi. Mazkur davrda struktura tushunchasi barcha fanlar uchun ommaviy tushunchaga aylandi. Bundan tilshunoslik ham istisno emas. Ana shunday umumiy tendensiya ta’sirida sistemaviy-struktur tilshunoslik maydonga keldi. Barcha fanlarda struktura atamasi keng qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, lekin bu atama talqinida xilma-xillik shakllandi. Ana shunday xilma-xillik tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Tilshunoslikda struktura atamasi turli ma’noda talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1 -jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 58 -b.
2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. (Lingvistik ta’limotlar tarixi). – Toshkent: Akademnashr, 2012. 100-b.
3. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 62-b.
4. Sossyur F. Umumiy tilshunoslik kursi. 1916.137-b.
5. Филин Ф. П. Степан Григорьевич Бархударов (к 75-летию со дня рождения) // Известия АН СССР. ОЛЯ. 1969. Т. 28. Вып. 2.

Bahtiyor SOYIBNAZAROV,
mustaqil tadqiqotchi

O‘ZBEKISTON REPSUBLIKASI VA XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA NOTARIUSLAR FAOLIYATINING MOLIYAVIY VA IJTIMOIY TA’MINOTI TAHLILI

Annotatsiya: har qanday huquq tizimida huquqiy aniqlikni ta’minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishda notariuslarning o‘rni katta ahamiyatga ega. Notariuslar o‘zlarining kasbiy mas’uliyatlaridan tashqari, ularning mustaqilligi, samaradorligi va ishonchliligini ta’minlash uchun yetarli moliyaviy va ijtimoiy yordam ham ehtiyoj sezadilar. Quyidagi maqola orqali biz notariuslar faoliyatining moliyaviy va ijtimoiy ta’minoti masalalarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bir qator xorijiy davlat qonunchiligi asosida tahlil qilib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: *moliyaviy manbalar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy yordam, nafaqalar, ta’tillar.*

Аннотация: роль нотариусов в обеспечении правовой ясности в любой правовой системе, защите интересов физических и юридических лиц имеет большое значение. Помимо своих профессиональных обязанностей, нотариусы также нуждаются в достаточной финансовой и социальной помощи для обеспечения их независимости, эффективности и надежности. В следующей статье мы проанализируем вопросы финансового и социального обеспечения деятельности нотариусов на основе законодательства Республики Узбекистан и ряда зарубежных государств.

Ключевые слова: *финансовые источники, социальная поддержка, финансовая помощь, пособия, пособия.*

Annotation: in any legal system, the role of notaries is very important in ensuring legal certainty and protecting the interests of individuals and legal entities. In addition to their professional responsibilities, notaries also need adequate financial and social support to ensure their independence, efficiency and reliability. Through the following article, we will analyze the issues of financial and social support of notaries' activities based on the legislation of the Republic of Uzbekistan and the legislation of a number of foreign countries.

Key words: *financial resources, social support, financial aid, pensions, holidays.*

Kirish. Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy ko‘zda tutilgan maqsad fuqarolar uchun imtiyozlar, qulayliklar, bir so‘z bilan aytganda, inson hayotining farovonligi uchun munosib sharoit yaratishdan iborat.

Mamlakatda notariat institutini isloh qilish, uni jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini ta’minlovchi muhim institutlardan biri sifatida shakllantirish borasida izchil chora-tadbirlar sezirarli darajada amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda notariuslar faoliyatini moliyalashtirish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari ham muhim hisoblanib, bu boradagi milliy qonunchilik va jahon tajribasini o‘rgangan holda ularni tahlil qilishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Muhokama va natijalar. Dastavval, O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga muvofiq, notariuslar faoliyatini moliyalashtirish masalalarini ko‘rib chiqishda ularni davlat va xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar faoliyatiga bo‘lib olishimiz maqsadga muvofiqdir.

“Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 22- moddasiga muvofiq davlat notarial idoralari qonunchilikka muvofiq moliyalashtiriladi.Ushbu qonunga ko‘ra, xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar faoliyatining esa ikki asosiy moliyalash manbasi mavjud bo‘lib, ular o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

1) notarial harakatni amalga oshirganlik uchun undirilgan davlat bojining xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga qoladigan qismi;

2) huquqiy va texnik xususiyatga ega qo‘shimcha harakatlarni bajarganlik uchun undiriladigan to‘lovlar hamda notariatning faol modeli doirasida xizmatlar ko‘rsatganlik uchun undiriladigan to‘lovlar.

Shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar ham xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning moliyalashtirish manbalari bo‘lishi mumkin.Ilk moliyalashtirish manbalariga keladigan bo‘lsak, notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun olinadigan davlat bojining ma’lum bir qismi xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning ixtiyoriga qoldiriladi.Notariuslarning, xoh u xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notaries bo‘lsin, xoh davlat notariusi amalga oshiriladigan, notarial harakatlar uchun “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan miqdorda boj undiriladi. “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunning ilovasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning ilovasida notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun davlat boji miqdorlari ham belgilab o‘tilgan. Masalan, garov, ipoteka va lizing shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun jismoniy shaxslardan BHMning 1 baravari, yuridik shaxslar uchun yoki taraflardan biri yuridik shaxs bo‘lsa BHMning 2 baravari miqdorida davlat boji undiriladi.

“Notariat to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, 3113-sonli “Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni

amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma va boshqa normativ hujjatlarda ham davlat bojining bir qismi notariusning moliyalashtirish manbasi sifatida e’tirof etilgani belgilangan. Agar “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun umumiy tarzda har bir notarial harakat uchun qancha miqdorda boj undirilishini belgilab berar ekan, bojning taqsimotini Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan nizom orqali bilib olishimiz mumkin.

Yuqorida ham aytib o‘tganimizdek, Davlat notarial idoralari va idoraviy notarial arxivlar faoliyatini moliyalashtirish manbalari esa xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarnikidan farq qiladi.156-sonli qarorning 4-bandiga ko‘ra, quyidagilar davlat notarial idoralari va idoraviy notarial arxivlarning moliylashtirish manbalari hisoblanadi:

– notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun undiriladigan davlat bojidan ajratmalar;

– huquqiy va texnik tusdagi qo‘shimcha harakatlar amalga oshirganligi uchun olinadigan to‘lovlar;

– idoraviy notarial arxivlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga notarial tasdiqlangan hujjatlar duplekslarini, reyestrdan ko‘chirmalarni, shuningdek ma’lumotlarni va arxiv hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun to’lovlar;

– gerb yig‘imidan tushadigan mablag‘larning bir qismi;

– budjetdan tashqari Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;

– qonunchilik hujjatlarida nazarda turilgan boshqa manbalar.

Ko‘rib turganimizdek, davlat notarial idoralarining moliyalashtirish manabalari ro‘yxati xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning moliyalashtirish manbalariga qaraganda nisbatan ko‘proqni tashkil etmoqda. Biz yuqorida davlat bojining taqsimoti miqdorlari borasida so‘z yuritdik.Endi esa bunday taqsimot qay tarzda amalga oshirilishini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi navbatda, Notarial palataning hududiy boshqarmalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Moliya boshqarmalariga notariuslar haqida zarur ma’lumotlarni taqdim etadilar.Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga notariuslar uchun ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarini taqdim etadi. Davlat boji shaxsiy hisobvaraqqa kirim qilingach, uning Notariuslarga tegishli qismi Moliya vazirligi G‘aznachiligining tegishli elektron taqsimlash to‘lov tizimi orqali avtomatik taqsimlanadi. Huquqiy va texnik tusdagi xizmatlar ko‘rsatganlik uchun undiriladigan pul mablag‘lari esa to‘g‘ridan- to‘g‘ri ularning bankdagi hisobvaraqlariga tushiriladi.O‘z navbatida notariuslar tomonidan olingan daromadlar davlat byudjetiga tegishli soliq va yig‘imlarni to‘lagandan so‘ng uning tasarrufiga o‘tadi.

“Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 227-moddasida belgilangan notarial palata huzuridagi fondlar ham notariuslar faoliyatini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash fondlari hisoblanadi. Masalan, Notarial faoliyatga ko‘maklashish, notariuslarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash maqsadida Notarial palata huzurida Notariuslar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish fondi, Davlat notarial idoralari notariuslari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Notarial palata huzurida Davlat notarial idoralari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash fondi tashkil etiladi.

Notariuslar shuningdek, qaysi davlatdan qat’i nazar turli usullar bilan ijtimoiy yordam oladilar. Buyuk Britaniyada notariuslar hurmatli mutaxassislar sifatida tan olinadi va qonun ustuvorligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.Ular o‘zlarining tajribalari va jismoniy shaxslar, korxonalar va huquqiy tizim tomonidan bildirilgan ishonchni tan olish orqali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi.Bunday ijtimoiy e’tirof ularning kasbiy obro‘siga hissa qo‘shadi va jamiyatdagi mavqeyini yanada oshiradi.Taqqoslash uchun boshqa mamlakatlardagi notariuslar ham ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan foydalanadilar.Masalan, Fransiya yoki Ispaniya kabi fuqarolik huquqi mamlakatlarida notariuslar ko‘proq ommaviy huquqiy munosabatlarda katta rol o‘ynaydi va davlat amaldorlari hisoblanadi. Bu e’tirof ularga yuqori ijtimoiy mavqe va huquqiy masalalarda katta vakolat beradi, ularning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashini yanada mustahkamlaydi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi ma’lum bir mamlakatda aholining notarial kasbni bilishi va tushunishiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xuddi shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ham Notarius notariat sohasida davlatning funksiyasini amalga oshiruvchi shaxs sifatida ommaviy-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi hisoblanadi.

Notariuslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan Rossiyada ham, Qozog‘istonda ham notarius mutaxassislarining farovonligi va rivojlanishini ta’minlash uchun professional tashkilotlar tashkil etilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dunyo bo‘ylab notariuslar o‘zlarining kasbiy faoliyati va huquqiy tizimlarning samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan moliyaviy va ijtimoiy yordam oladilar.Muayyan tizimlar mamlakatlarda farq qilishi mumkin bo‘lsa-da, umumiy maqsad bir xil - notariuslarning moliyaviy barqarorligini va ijtimoiy tan olinishini ta’minlash bo‘lib qolmoqda. Xorijiy tajribalar asosida notariuslarni moliyaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini joriy etish notariat faoliyati samaradorligi va barqarorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Xizmatlarning murakkabligidan kelib chiqqan holda to‘lov tuzilmalarini joriy etish, notarial yordam jamg‘armalarini tashkil etish, notarial assotsiatsiyalarni tashkil etish, mentorship dasturlarini joriy etish orqali notariuslar oldida turgan muammolarni bartaraf etish maqsadida notariat qonunchiligiga o‘zgartirishlar kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuni. 06.01.2020 yildagi O‘RQ 600-son
2. 2020-yil 16-martdagi Vazirlar Mahkamasining “Nodavlat notarial faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 156-sonli qarori
3.Основы законадальсвта Российской Федерации “О нотариате” https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_1581/
4. “On notaries” Law of the Republic of Kazakhstan dated 14 July 1997, No. 155. https://adilet.zan.kz/eng/docs/Z970000155_
5. Notary Public Law. Official Gazette of the Respublic of Macedonia. № 59/969 https://www.imolin.org/doc/amlid/FYROM_Notary%20Public%20Law.pdf
6. Federal Code for Notaries in the consolidated version published in the Federal Law Gazette III, Index No. 303-1, as last amended by Article 2 of the Act of 15 July 2022 (Federal Law Gazette I, p. 1146) https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bnoto/englisch_bnoto.html
7. The notart public in England and Wales. https://www.bdbpitmans.com/insights/the-notary-public-in-england-and-wales/

Shoira XODJAYEVA,
mustaqil izlanuvchi

UILLIYAM SHEKSPIR ASARLARINING O‘ZBEK VA DUNYO TILLARIGA TARJIMASI

Annotatsiya: ushbu maqolada Uilliyam Shekspir asarlarining jahon adabiyotidagi ahamiyati va uning ingliz tili rivojiga qo‘shgan hissasi haqida tahlillar berilgan. Shuningdek, Shekspir asarlarining o‘zbek va dunyo tillariga tarjima qilinish xronologiyasi va tarjimonlar haqida ma’lumotlar taqdim qilingan.
Tayanch so‘zlar: *adabiyotlar tahlili, tarjima usullari, asar va sonetlar, insoniylik mavzulari.*
Annotation: this article analyzes the significance of William Shakespeare's works in world literature and his contribution to the development of the English language. Also, the chronology of the translation of Shakespeare's works into Uzbek and world languages and information about the translators is presented.
Key words: *literary analysis, methods of translation, poem and sonnets, themes of humanity.*
Аннотация: в данной статье анализируется значение произведений Уильяма Шекспира в мировой литературе и его вклад в развитие английского языка. Также представлена хронология перевода произведений Шекспира на узбекский и мировые языки и сведения о переводчиках.
Ключевые слова: *литературный анализ, методы перевода, стихотворения и сонеты, темы человечества.*

Kirish. Uilliam Shekspir jahon adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biridir. Uning jahon adabiyotiga va dramaturgiya rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. U yaratgan asarlar nafaqat ingliz, balki jahon adabiyotining xazinasi hisoblanadi.

Uilliyam Shekspir o‘z asarlarida yoritgan muhabbat, rashk, xiyonat, hokimiyat, hasad, insoniylik mavzulari hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagani bois uning serqirra ijodiga bo‘lgan qiziqish bir necha asrlardan beri davom etmoqda.

Shekspir dahosini o‘rganish bo‘yicha bir qator institutlar mavjud. Lingvistikada Shekspirni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha shekspirshunoslik yo‘nalishi mavjud. Frazeologiyada Shekspir asarlaridan olingan mashhur va ommalashgan iboralar “shekspirizmlar” deb nomlanadi. Bundan tashqari, Shekspir nomi bilan bog‘liq bir qator atamalar mavjud. Masalan, shekspirizatsiya, Shekspir industriyasi yoxud sanoati, Shekspir masalasi va hokazo. Shekspir ijodiga bo‘lgan qiziqish bir necha asrlardan beri so‘nmayapti. U yaratgan asarlarning talqini va tahlili ko‘plab adabiy maqolalar, monografiyalar va traktatlarda aks ettirilgan.

Ta’kidlash joizki, Uilliyam Shekspir ijodiy merosi nafaqat adabiyotshunoslar uchun katta ahamiyatga ega, balki u asarlarida aks ettirilgan tilining jonliligi bilan tilshunoslarning diqqatini ham jalb qiladi. Stenford universiteti olimlari Bradley Efron va Ronald Thisted o‘tkazgan statistik tadqiqotida turli olimlar foydalangan matematik, empirik, chiziqli, binomial usul va formulalarni jamlaganlar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Shekspir o‘z asarlarida 31 534 so‘zdan foydalangani va taxminan 35 000 ta so‘z bilganligi ma’lum bo‘lgan.

Buyuk filolog va sanskritshunos olim F.Maks Myuller Shekspirning so‘z boyligini boshqa yozuvchilarning so‘z boyligi bilan qiyoslab, Shekspir pyesalarida taxminan 15 000 ta so‘z, Milton 8 000 ta so‘z, Injilning Eski Ahdida 5 642 ta so‘z ishlatilganini ta’kidlaydi. Myuller, shuningdek, o‘sha davrlardagi ishchi va dehqonlar kundalik hayotda muloqot qilish uchun 300 tadan kamroq so‘zdan foydalanganligini, Angliyaning ziyoli odamlarining lug‘atida 3000-4000 ta so‘z bo‘lganini, notiqlarning so‘z boyligi esa 10 000 so‘zdan oshmaganligini aytib o‘tgan.

Asosiy qism. Shekspirning ingliz tili frazeologiyasini boyitishga qo‘shgan hissasi xususida Ernest Weekley shunday deydi, “Shekspir jahon tarixidagi har qanday tilning rivojiga hissa qo‘shgan har qanday yozuvchining hissasidan 10 barobar ortiq desak mubolag‘a bo‘lmaydi”. Ma’lumki, Shekspir asarlaridagi ayrim iboralar (heart of gold – mehribon; wild-goose chase – soyaning ketidan quvmoq; love is blind – muhabbatning ko‘zi ko‘r bo‘ladi; the world is your oyster – barchasi o‘z qo‘lingda) nutqda juda ommalashgan bo‘lib, idioma va frazeologizmlarga aylanib ulgurgan.

Shekspirshunos olim Alfred Hart Shekspir lug‘atidagi so‘zlarning noyobligi nuqtayi nazaridan tadqiq etgan. A.Hart o‘z ishida “Oksford ingliz tili lug‘ati tuzuvchilariga ko‘ra, Shekspir o‘z asarlarida 3 200 ta yangi leksemani ilk marotaba qo‘llab, ingliz tili lug‘atiga olib kirganini ta’kidlashgan”i va “Shekspir tilining jonliligi, nafisligi va ekspressivligi bilan zamondoshlarini ancha ortda qoldirganligi haqida to‘xtalib o‘tgan.

Shekspir – betakror dramaturg. Uning sonetlari, fojialari va komediyalari dunyoning deyarli barcha tillarga tarjima qilinganligi Shekspir tarjimashunoslarni ham chetlab o‘tmaganligiga isbot bo‘la oladi. Uning ijodiga mahliyo bo‘lgan buyuk nemis shoiri Volfgang Gyote “Shekspir bepoyon” deya baholagan. Darhaqiqat, uning merosi bir necha asrlardan beri dunyo xalqlarini o‘ziga maftun qilib kelmoqda.

Uilliyam Shekspir asarlari dunyoning barcha asosiy tillariga tarjima qilingan. Shekspir uy-muzeyi vasiylik fondi veb-sahifasida keltirilishicha, uy-muzey kutubxonasida Shekspir asarlarining dunyoning 80 dan ortiq tillardagi tarjimalari bor.

Britaniya Kengashining veb-sahifasiga ko‘ra, “Gamlet” fojiasining 75 dan ortiq tilda tarjimasi bor. “Gamlet” bir qator sun’iy tillarga, jumladan, Klingon, Esperanto va Interlingua tillariga tarjima qilingan. “Makbet”, “Romeo va Julietta”, “Venetsiyalik savdogar” asarlari keyingi pog‘onalardan o‘rin olgan. Shekspir asarlari jami 100 dan ortiq tillarga tarjima qilingan.

Shveytsariyaning Basel Universiteti olimlari tomonidan tuzilgan “Shekspir asarlarining Yevropa tillariga tarjimalarining umumiy xronologiyasi”ga ko‘ra, 1604-yilda “Romeo va Julietta” fojiasi Creizenach S. tomonidan ilk bor nemis tiliga o‘girilgan. 1726-yilda Antonio Konti di Padua tomonidan “Yuliy Tsezar” fojiasi ilk bor italyan tiliga, 1731-yilda Volter tomonidan ushbu asar ilk bor fransuz tiliga, 1772-yilda Ramon de la Kruz tomonidan “Hamlet” asari fransuz tilidan ilk marotaba ispan tiliga tarjima qilingan.

Yuqoridagi xronologiyadagi ma’lumotda keltirilishicha, Shekspir asarlari XVII asrdan boshlab portugal, golland, rumin, polyak, rus, slovak, venger, shved, dan, grek, serb, island, turk, bask, norveg, fin, alban, bolgar, ukrain, xorvat, eston va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shekspir asarlarining tarjimasiga N. Karamzin, A. Shlegel, F.Shiller, V. Gyote, M. Garsia, V. Gyugo, N. Nekrasov, A. Ostrovskiy, R. Tagor kabi o‘z zamonasining buyuk va iste’dodli shoir va yozuvchilari qo‘l urishgan.

XVIII asrning o‘rtalarida Shekspir ijodi Osiyoga, aniqrog‘i Buyuk Britaniya mustamlakasi Hindistonga kirib keldi. Shu davrdan e’tiboran, Shekspir asarlarini bengal, malay, xitoy, filippin, yapon, koreys tillariga ham o‘girishni boshladilar.

Shekspir asarlari arab dunyosiga nisbatan kechroq – XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida kirib keldi. Tanyus Abdu, Misrdagi Livanlik muhojir, 1901-yilda “Gamlet” asarini arab tiliga tarjima qilgan. T. Abdu tarjimani arab xalqlari madaniyatiga va qadriyatlarini inobatga olib, adaptatsiya qilgani bois, asliyatdan ancha yiroqlashgani bois ko‘p tanqidga uchragan.

Shekspir asarlari o‘zbek badiiy tarjimonlarining ham nazaridan chetda qolmadi. Shekspirni o‘zbek adabiyotiga atoqli shoir va yozuvchi Abdulhamid Cho‘lpon olib kirdi. Cho‘lpon 1934-yilda Shekspirning “Gamlet” fojiasini ilk marotaba o‘zbek kitobxoni va tomoshabiniga taqdim qildi. 1935-yilda “Gamlet” spektakli ilk bor Hamza nomidagi drama teatrida (hozirgi O‘zbek milliy akademik drama teatri) namoyish etildi.

Maqsud Shayxzoda “Otello” fojiasi tarjimasiga 1940-yilda qo‘l urgan. Uning tarjimalari nihoyatda nafisligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Maqsud Shayxzoda Shekspir sonetlarini o‘zbek tiliga ilk bor tarjima qilgan tarjimon. M. Shayxzoda sonetlar tarjimasida, asosan, rus shoiri Boris Pasternakning tarjimalariga tayanib o‘zbek tiliga o‘girgan. U “Otello”dan tashqari, “Gamlet” (1948), “Romeo va Julietta” (1949), “Qirol Lir” (1954), “Yuliy Sezar” (1958) fojialarini ham tarjima qilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida bir qator atoqli yozuvchi, shoir va tarjimonlar Shekspir asarlarining tarjimasi bilan shug‘ullanganlar. Pyesa va sonetlarni o‘zbek tiliga o‘girgan tarjimonlardan Uyg‘un (“Yuliy Sezar” 1960-yil, “Veronalik ikki yigit” 1975-yil), Asqad Muxtor (“Richard III”), Komil Yashin (“Antonio va Kleopatra”, 1981-yil), Turob To‘la (“Qiyiq qizning quyilishi”), Xurshid Davron (Sonetlar) tarjimalari diqqatga sazovor.

Xulosa. Yuqoridagi tarjimalarning barchasi vositachi til, ya’ni rus tili yordamida o‘zbek tiliga o‘girilgan. XX asrning oxirlarida Shekspir asarlarining

ingliz tilidagi asliyat matnidan bevosita o‘zbek tiliga tarjimasi O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan amalga oshiriladi. 2007-yilda nashr etilgan uch jildlik to‘plamda Jamol Kamol Shekspir pyesalarining o‘zbek tilidagi tarjimasini taqdim etgan. Ushbu to‘plamda ilk marotaba “Afinalik Timon”, “Koriolan”, “Venetsiyalik savdogar”, “Qish ertagi”, “Genrix IV” tragediya, komediya va xronikalari o‘zbek kitobxoniga taqdim etildi. Uilliyam Shekspirning sonetlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularning o‘zbek tiliga tarjimasi bilan Maqsud Shayxzoda, keyinchalik esa A’zam Obidov va Xurshid Davron shug‘ullanganlar. 1978-yilda rus shoiri Samuel Marshak tarjimasiga asoslanib Yusuf Shomansur Shekspirning barcha sonetlarining o‘zbek tilidagi tarjimasini taqdim qilgan. 2010-yilda Jamol Kamol tomonidan Shekspir sonetlarining o‘zbek tilidagi tarjimasi taqdim etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kasımova, Sarvınoz Sayfullaevna. "Transformación de frases y sus destrucciones." Salud, Ciencia y Tecnología-Serie de Conferencias 3 (2024): 740-740.
2. Marxabo Raxmonkulovna Abdullayeva. Dunyoning ishlari ingliz tilida. Journal Образование наука и инновационные идеи в мире.Publication date2024/9/4. Volume 52. Issue 3. Pages141-146. newjournal.org
3. Hart A. Stolen and Surrepetitious copies, a comparative study of Shakespeare’s bad quartos. – Melbourne: Melbourne University Press, 1942. P.22-28.
4. ЛАФАСОВ, У. П. (2021). THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE INTERVALUE-CENTER OF TURON. Иностранные языки в Узбекистане, (1), 264-275.
5. Begmatova, Buzakhro Marufjanovna, and Sarvinoz Sayfullaevna Kasimova. "STUDY OF THE PROBLEM OF PREDICATIVITY AND ATTRIBUTION IN LINGUISTICS."

Shohsanam SUYUNOVA,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti tadqiqotchisi

ALISHER NAVOIYNI ANGLASHDA TASAVVUF MANBALARINING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada Alisher Navoiy tafakkuri va dunyoqarashi taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan diniy – tasavvufiy adabiyotlar haqida so‘z boradi.

O‘z davrining murakkab asarlari sanalgan mazkur risolalarni mutolaa qilish va tushunish uchun maxsus tayyorgarlik talab etilgan. Alisher Navoiy she’riy tarzda yozilgan ushbu asarlarni o‘qib, tafakkurini boyitgan, dunyoqarashini kengaytirgan, bilimini oshirgan.

Kalit so‘zlar: *komil inson, masnaviy, tasavvuf, so‘fiyona istilohlar, irfoniy asarlar.*

Аннотация: в данной научной статье говорится о религиозно-мистической литературе, сыгравшей важную роль в развитии мышления и мировоззрения Алишера Навои.

Для чтения и понимания этих трактатов, считавшихся сложными и авторитетными произведениями своего времени, требовалась специальная подготовка. Алишер Навои обогатил свое мышление, расширил кругозор, приумножил свои знания, читая эти поэтические произведения.

Ключевые слова: *совершенный человек, духовность, суфизм, суфийские концепции, мистические произведения.*

Annotation: this scientific article talks about the religious – mystical literature that played an important role in the development of Alis’her Navoi's thinking and worldview.

Special training was required to read and understand these treatises, which were considered complex and authoritative works of their time. Alis’her Navoi yenriched his thinking, broadened his outlook, and increased his khowledge by reading these poetic works.

Keywords: *perfect human being, spiritual, Sufism, Sufi concepts, mystical works.*

Avliyolarning murakkab kitoblarini o‘qish kishidan maxsus tayyorgarlikni talab etgan. Birinchidan, olim Sha’roniy ta’biri bilan aytganda, “Umuman olganda, xos tavhid kitoblarini hamda oriflarning asarlarini o‘qish komil olim yoki o‘sha qavmlarning yo‘lini tutganlargagina haloldir” [1, 51]. Yetuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy esa naqshbandiya suluki a’zosi hamda komil inson sifatida bunga to‘la haqli edi, deyish mumkin. “Endi so‘fiyona adabiyotning murakkabligi haqida gap ketganda, shuni aytish kerakki, shoirlar bunga (diniy-so‘fiyona g‘oyalarni she’rga solishga) majbur edilar. Zero tasavvufni she’r bilan bayon etish – falsafani, ilohshunoslikni she’rga solish demak. Shu bois biz tasavvufiy adabiyotni tom ma’nodagi falsafiy adabiyot deymiz. Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Ibnal Arabiy, Jomiy, Bedillar Sharqning buyuk faylasuflari, lekin ularning barcha irfoniy asarlari she’r bilan yozilgan. Irfoniy asarlarni ham ikki qismga ajratish mumkin: bir qismi tasavvuf ta’limotini bayon

etgan, so‘fiyona istilohlar bilan fikr yuritadigan asarlar. Chunonchi, Abulmajid Sanoiyning “Haqiqatul haqoyiq”, Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz”, Jomiyning “Sharhu ruboiyot”, Bedilning “Muhiti a’zam”, Sayid Qosimiyning “Haqiqatnoma”, So‘fiy Olloyorning “Sabotul ojizin”, Bobojon Sanoiyning “Kanzul maorif” asarlari bunga misoldir. Bu asarlarni tasavvuf darsliklari sifatida qabul qilsa bo‘ladi. Chunki mualliflar ushbu ta’limotni nazm orqali tushuntirishni maqsad qilib olganlar.

Ikkinchi qism adabiyot tasavvuf g‘oyalari kechinma va hayajonlar, timsol va tamsillar orqali tasvirlanib, talqin qilinadi. Bu asarlarni tasviriy talqin yoki badiiy tafsir (interpretatsiya) deyish mumkin. Abulmajid Sanoiyning “Sayrul ibod”, Farididdin Attorning “Ilohiynoma”, “Bulbulnoma”, “Ushturnoma”, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”, Xusrav Dehlaviyning “Matla’ul anvor”, Navoiyning “Hayratul abror” va “Lisonut tayr” asarlari shu xildagi asarlardir. Bu asarlarda so‘fiyona-falsafiy ma’nolar she’riy satrlar, badiiy-ifodali til bilan talqin etilishdan tashqari, yana juda ko‘p masal va hikoyatlar, ramziy tashbehlar keltirilib, kitobxonga sharhlab berilgan. [2, 161-162] Navoiy bunday asarlarni chuqur tushungan va keng tahlil qila olgan.

Ikkinchidan, Navoiy va uning salaflari-ustozlari asarlarini tushunish uchun Navoiy davriga qaytish kerak. “Navoiyda chu topqaylar navoe” kitobida yozilishicha, “Ma’lumki, Alisher Navoiy davrida boshqa ilmlar qatori, tasavvuf ilmi ham rivojlangan edi. Alisher Navoiy ham nashqbandiya tariqati soliklaridan edi. Binobarin, Navoiyni (Navoiy o‘qigan kitoblarni ham) tushunish uchun islomiy ilmlarni, jumladan tasavvuf ilmini ham bilish lozim bo‘ladi. Barcha ilmlar qatori, tasavvufning ham o‘ziga xos atamalari bo‘lishi tabiiy. Imom Buxoriyning gaplarini anglash uchun hadis ilmi istilohlarini, Ibn Sinoning so‘zlarini tushunish uchun tabobat atamalarini, Farobiyning fikrlarini ilg‘ash uchun falsafiy iboralarni bilish lozim bo‘lganidek, Navoiyning so‘zlarini to‘g‘ri tushunish uchun tasavvuf ahlining atamalarini to‘g‘ri tushuna bilish kerak bo‘ladi”.

Xulosa qilib aytganda, Navoiyni tushunish uchun Navoiy bilgan va foydalangan bilimlarni, ya’ni Qur’on, sunnat, shariat, tasavvuf va boshqa ilmlarni bilish, o‘rganish kerak bo‘ladi. O‘rganganda ham, asl manbalardan o‘rganish darkor. Buning uchun, albatta, o‘sha davr islom olamida ilmiy muomalada bo‘lgan tillarni yaxshi o‘zlashtirib, manbalarni begonalarning tarjima yoki tavsiflari asosida emas, asl holatida o‘rganish talab qilinadi. Binobarin, navoiyshunos bo‘lishni istagan kishi avvalo islom olimi, tasavvuf bilimdoni bo‘lishi, bu ilmlarni bilibgina qolmay, ularni o‘z hayotiga tatbiq etib, zikr qilingan darajalarni shaxsan o‘zi bosib o‘tishga intilishi lozim. Shundagina u Navoiyni to‘la tushuna oladi, u kishining shaxsiyatini to‘g‘ri anglab, so‘zlarini teran his qila biladi. Ochig‘ini aytganda, bugungi navoiyshunoslikning oldida turgan eng katta muammolardan biri shu bo‘lsa, ajab emas [1, 36-51]”.

Adabiyotshunos Najmiddin Komilovning yozishicha, “Navoiy asarlarining hozirgi kitobxonlardan uzoqlashib borayotgani, har qancha achinarli bo‘lmasin, achchiq haqiqat. Lekin shoir asarlariga mehr qo‘ygan odam unga baribir yaqinlashib boraveradi. Bu mehrni o‘quvchilarda shakllantirish uchun birinchi galda, qiyin bo‘lsa ham, shoir asarlarini asl holida o‘qish va yodlashga e’tibor qilinsa, shoirning armoni, orzulari, fikrlari to‘g‘ri tushuntirilsa.

Bu sohaning oqsayotganiga sabab – Navoiy asarlarini to‘g‘ri tushunib, yaxshilab o‘quvchilarga yetkazib beradigan o‘qituvchilar kam. Hatto oliy o‘quv yurtlarida ham mumtoz adabiyotni yaxshi tushunadigan mutaxassislar tobora kamayib ketyapti. Hanuzgacha tasavvuf lug‘ati yo‘q. Navoiyni esa busiz tushunish mumkin emas.

Navoiy g‘oyalarining tub mohiyati, ilohiy-tasavvufiy mag‘zi bir chetda qolib ketmoqda. Navoiy olamni Alloh yaratgan yaxlit borliq, Yaratuvchining qudrati va go‘zalligining ko‘zgusi deb biladi. Shoir insonga ham, uning axloqiy takomiliga ham shu nuqtayi nazardan qaraydi.

Shoir ijodini butun tarkibiy qismlari, murakkabligi bilan idrok etmas ekanmiz, uning buyukligini ham tasavvur qilolmaymiz. Sharhlar, nasriy bayonlar tuzish, izohli lug‘atlar ham yaratish kerak.

Navoiy ijodi – bir kalit. Bu kalitni qo‘lga kiritgan odam mumtoz adabiyot sirlarini egallaydi, ham Sharq ma’naviyati xazinasiga eshik ochadi [7,317]”.

Muxtasar aytganda, o‘z davrining diniy – tasavvufiy manbalari Alisher Navoiy tafakkurini shakllanishida yetakchi rol o‘ynagan. Navoiyni anglashimiz uchun esa avvalo bu zoti boborakot o‘qigan kitoblarni o‘qishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Navoiydan chu topqaylar navoe. –T.: “Hilol-nashr”, 2014. 51-bet.
2. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. – T.: Yozuvchi, 1996. 161-162-bet.
3. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq NMAK BT-2007. 63-bet.
4. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. 7-8-bet.
5. A’zam A. Abrorlar hayrati.// Jahon adabiyoti.–Toshkent, 2021.-№ 6. 12-bet.
6. https://islom.uz/maqola/13318
7. Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: Ma’naviyat, 2005. 317-bet.
8. Rahmon V. Mumtoz so‘z sehri. – T.: O‘zbekiston, 2015. 431-438-bet.
9. Qorayev Sh. Navoiyni maftun aylagan kitob.// “Ma’rifat”, – Toshkent. 2023 yil 11 yanvar.№2 (9431). 11-bet.

10. Qorayev Sh. Abdurahmon Jomiyning kitobxonlik kechalari va Alisher Navoiy/ “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi 9-uluslararo konferensiyasi materiallari. Toshkent – Bursa, 2024 yil 8 – fevral. - B.147-152.
11.Qorayev Sh. Abdurahmon Jomiy kitobxonlik kechalari va Alisher Navoiy//“Ma’rifat”, Toshkent. 2024 yil 7 fevral.-№6 (9487).-B.2-3.

Dilrabo CHORSHANBIYEVA,
mustaqil tadqiqotchi



ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA GLOBALLASHUV HODISASINING MAKON VA ZAMON VOSITASIDA YORITILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Oripov she’riyatidagi globallashuv jarayonining unsurlari va uning mohiyati makon va zamon vositasida tadqiq etilgan.
Kalit so‘zlar: *globallashuv, ummon, ona sayyora, metafora, insoniyat, shimol sayyohi.*
Annotation: this article researches the elements of the process of globalization in Abdulla Oripovis poetry, using space and tim.
Key word: *globalization, ocean, mother planet, metophar, humanity northern tourist.*
Аннотация: в данной статье предоставлены элементы родины и жизни в процессе глобализации в лирике Абдуллы Орипова.
Ключевые слова: *глобализация, метафора, планета-мать, человечество, туристический водопад.*

Bizga ma’lumki, Abdulla Oripov ijodini, shoirning kelajak-avlodga qoldirgan boy nazmiy merosini, katta bir ummonga qiyoslashimiz mumkin. Chunki ummon qa’riga sho‘ng‘isangiz, undagi ham botiniy, ham zohiriy mavzular, fikrlar rang-barangligiga duch kelasiz. Shoirning bir qarashda oddiy va sodda o‘qiladigan to‘rtliklarida davrning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy tafakkurini, kishilarning ruhiy holatini ham ilg‘ay olasiz. Barchaga ayonki, globallashuv jarayoni XX asrning ikkinchi yarimi va XXI asning boshlarida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi bir umumsayyoraviy davlatlar o‘rtasida shakllangan, ommalashgan jarayon hisoblanadi. Shunga ko‘ra globallashuv hodisasi – ijtimoiy aloqalarning kengayishi va murakkablashuvi oqibatida sayyoramiz miqyosida iqtisodiyot, texnika va texnologiya, axborot-kommunikatsiya, siyosat, huquq, boshqaruv va boshqa sohalardagi integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi oqibatida vujudga kelgan. Globallashuvning tobora keng ko‘lamda namoyon bo‘lishi jamiyat hayoti, kishilar turmush tarzi bilan bog‘liq. 1985-yilda taniqli amerikalik olim R.Robertson “Globalization” iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushunchani odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi va dunyoning birlashuvi, kishilar aloqalarining kuchayishini ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi.

Garchand, Jahon sivilizatsiyasida globallashuv jarayoni ancha keyinroq sodir bo‘lgan bo‘lsa-da, ammo shoir ijodida yuqoridagi hodisaga doir belgi va globallashuv alomatlarini uchratishimiz mumkin. Jumladan, birgina “Ona sayyora” she’rida bu belgilarning yaqqol keltirilganiga amin bo‘lamiz. Go‘yo shoir xuddi kelajakni oldindan bashorat qilganday, garchand bu jumlalar o‘tgan asrning 60-yillarida yozilgan bo‘lsa ham, uning mazmun-mohiyati bugungi davr nafasini eslatadi.

Balki huv ko‘ringan moviy to‘lqinda,
Suv ichgan go‘dakning nafasi ham bor.
Quloqqa chalinar otlar dupuri,
Sor burgut o‘zini o‘ljaga urar.
Sharqda cho‘pon yoqqan gulxanning nuri,
Shimol sayyohiga ko‘rinib turar
Ana Himolayning bag‘rida bir qiz,
Yelkada ko‘zasi – borar buloqqa.

Abdulla Oripovning badiiy ijodi juda boy tafakkurga ega. Biz faqat to‘rtliklarini o‘qib estetik zavq olmaymiz, balki butun insoniyat oldida turgan muammolar, qolaversa, o‘tmish va kelajak o‘ylari haqida chuqur mushohada ham yuritamiz. Agar yuqorida keltirib o‘tilgan jumlalarini adabiy jihatdan talqin etadigan bo‘lsak, makon va zamon vositasini bajarayotgan so‘zlar: “moviy to‘lqin”, “sharq”, “shimol”, “gulxanning nuri”, “Himolay”, “buloq” so‘zlari bevosita makon vazifasini bajarayotgan bo‘lsa, “go‘dak nafasi”, “otlar dupuri” kabi jumlalar zamon vositasini, ya’ni ma’lum bir paytga xos belgiga ishora qilib, ular o‘zaro uyg‘unlashgan holatda she’rning asosiy motivini hamda ijodkorning kelajakka xos ruhiy, hissiy sezimlarini-da ko‘rsatib bera olgan. Shoirlar yarim avliyodirlar deya beriladigan ayrim ta’rif va tavsiflar bir qarashda Abdulla Oripov to‘rtliklarida ham mavjudligi kishini beixtiyor o‘ylantirib qo‘yadi. Masalan, shoirning mana bu jumlalariga e’tibor beradigan bo‘lsak:

Siynangga yopishgan farzanding – inson,
Beva bag‘ridagi yetimday go‘yo.
Qayga ketmoqdasan bunchalar shoshib?
Orom istaysanmi ko‘kda ovvora?
Balki farzandingni ko‘ksingga bosib,

Yig‘lab ketmoqdasan, ona sayyora…
Farzandlaring bordir sonsiz-sanoqsiz,
Vo ajab, qadringni gohida bilmas.
Ular-ku qoshingda changday salmoqsiz,
Lekin bag‘ringga ham siqqisi kelmas.

Endi shoir bevosita ona sayyoramizning o‘ziga murojaat qilib ko‘nglidagi o‘ylarini, kechinmalarini yoritmoqchi bo‘lgan. Bunda esa kitobxonga mahorat bilan ishlatilgan metaforalar, o‘xshatishlar va badiiy tasviriy vositalar ancha qo‘l keladi. Bu yerda urushlardan turli xil qirg‘inbarotlardan zada bo‘lgan insoniyatni “beva bag‘ridagi yetimday go‘yo”, – deya tasvirlamoqda. Chunki bu kabi illatlar, fojialar ona sayyoramizga, ya’ni yer sharimizga faqat tashvish va ziyon keltirishi, tinchlik, osoyishtalik bo‘lmagan yerda hech qanday rivojlanish va tamaddunning ham yuksalmasligi bugungi kun nuqtayi nazari bilan olib qaraganda ham ayni haqiqat emasmi? Fanda isbotlangan to‘qqizta sayyora bordir, lekin yagona hayot mavjud bo‘lan yer sayyorasi ular orasida tengsizdir. Ijodkor keyingi jumlalari orqali so‘nggi paytlarda insoniyatning ona sayyoramizga munosib farzand bo‘la olmayotganligi, uni asrab-avaylamayotganligiga ham ishora qilgan. Masalan, ozon qatlamining kundan kunga yemirilib borayotganligi, dunyo miqyosida aylanib ulgurgan ekologik muammolarning tobora ortib borayotgani ham nafaqat shoirni o‘ylantiradi, balki o‘qigan har bir kishini mushohadaga chorlaydi. Shunday ekan, agar insoniyat yer sharini yetarlicha asrab-avaylamasa, unga pala-partish munosabatda bo‘lib, uning qadriga yetmasdan turli xil nomutanosib ishlarni qilsa, oxir-oqibatda bu kurrayi zaminga yaxshiliklar olib kelmasligini Abdulla Oripov his qilgan va kuyinchak shoir juda chiroyli va ta’sirli holda ushbu she’rda donishmandona ochib bera olgan.

She’rning bevosita mantiqiy davomi tarzda keltirilgan mana bu jumlalarida ham chuqur falsafiy idrok yashiringan:

Osmon torlik qilgan gala chumchuqdek
Makon talashadi goho betartib.
Sen-chi, mehvaringda aylanasan tek,
Yaxshi-yu yomonni yelkangda ortib.
Sening yuragingda laxta-laxta qon,
Siynang nimalardan bo‘lmagan pora.
Qayg‘u-hasratlaring barchasi ayon,
O, buncha dardkashsan, ona sayyora.

Shoirning yuragidan po‘rtanadek otilib chiqqan bu dardli jumlalar, faqat shoirning o‘ziga tegishli o‘ylari, kechinmalari emas, balki bir parcha yer ustida talashib, yaxshi-yu yomon bo‘layotgan butun millatga, xalqlarga tegishli desak adashmagan bo‘lamiz. Yuqoridagi jumlalarida ham makon va vositasini bajarayotgan “osmon”, “mehvar”, “ona sayyora” so‘zlari she’rning asosiy badiiy g‘oyasini ko‘rsatishga harakat qilgan. Agar bu jumlalar ishtirok etmaganida, balki she’rning salmog‘i bu qadar ta’sirli bo‘lmagan bo‘lar edi. Xulosa o‘rnida biz shunday deya olamizki, Abdulla Oripov she’riyati tuganmas bir buloq, undan qancha suv ichsangiz, shunchalik ruhingiz tozarib ma’naviy dunyoqarashingiz kengayib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Oripov. “Tanlangan asarlar”. – Toshkent, 2019.
2. A.Oripov. “Shoir yuragi”. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.
3. WWW.oyina.uz

Shahnoza NAZAROVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

O‘ZBEK VA NEMIS MADANIYATIDA ETIKET BIRLIKLARI VA MULOQOT USLUBI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek va nemis madaniyatida nutqiy etiket birliklari va muloqot uslubi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: *til, nutqiy etiket, muloqot uslubi, nutq madaniyati, qiyosiy aspekt, xulq-atvor*
Annotation: this article discusses on the features of speech etiquette units and communication style in Uzbek and German culture.
Key words: *language, politeness, communication style, speech culture, comparative aspect, behavior*
Аннотация: в данной статье рассматриваются особенности речевого этикета и стиля общения в узбекской и немецкой культурах.
Ключевые слова: *язык, речевой этикет, стиль общения, культура речи, сравнительный аспект, поведение*

Mustaqil O‘zbekistonning hozirgi kunga kelib qator davlatlar bilan har jabhada hamkorlik qilib kelayotgani o‘zbek xalqining milliy xususiyatlarini chuqur o‘rganish hamda uni targ‘ib qilish zaruratini taqozo etadi.Shu bois o‘zbek nutq etiketi masalalarini alohida o‘rganish bugungi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tilshunoslik ravnaqiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Turli xalqlar nutqini chog‘ishtirma va qiyosiy aspektda tadqiq qilib, ular asosida xalqlararo munosabatlar rivoji va o‘zaro ta’sir qirralarini ilmiy jihatdan tadqiq etish borasida keng qamrovli imkoniyatlar yuzaga keldi. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan tub islohotlar tilshunoslik sohalarida ham ilmiy izlanishlar ko‘lamini yanada kengaytirishga imkoniyatlar yaratdi. Shu nuqtayi nazardan nemis va o‘zbek tillaridagi nutqiy etiket birliklarining qiyosiy tadqiqi nafaqat ijtimoiy muloqot, balki siyosiy-diplomatik munosabatlarda ham zaruriy va dolzarb masalalarga oydinlik kiritadi.

O‘zbek tili Davlat tili maqomini olgan bugungi kunda, ko‘plab boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar ortib borayotgan davrda respublika hududida yashayotgan va dunyoning turli nuqtalarida yashab o‘zbek tiliga qiziqayotgan millat vakillari tilning ichki tomoni – leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarini o‘rganishlari bilan bir qatorda, uning amaliy tomonini, til birliklaridan qay tarzda foydalanish masalasini o‘rganishlari ham muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy muloqotda tez-tez takrorlanib turadigan, tez-tez quloqqa chalinadigan til birliklari mavjud. Bu til birliklari alohida olinganda oddiy va ahamiyatsizdek tuyulsada, biroq birgalikda, umumlashgan holda ishlatilganda, ma’lum millat xalqlari muloqotining asosini tashkil etadi. Ular har bir millat vakili tomonidan yoshlikdan boshlab o‘zlashtirilib, ma’lum bo‘lib, turli xil muloqotlarda, suhbatlarda, turlicha vaziyat hamda sharoitlarda yuzaga qalqiydi, kommunikatsiyani tiklash va uni me’yorida ushlab turish uchun asos bo‘ladi.

Shunday qilib, nutqiy etiket deyilganda, “jamiyat tomonidan qabul qilingan va qo‘llanishi zarur bo‘lgan yoki talab etiladigan, suhbatdoshlar o‘rtasida kontakt o‘rnatish va uni kerakli ohangda /tonda/ olib borish uchun ishlatiladigan turg‘un muloqot formulalarining maxsus milliy kichik sistemalari tushuniladi.” Nutqiy etiketni rus tilshunos olimi N.I.Farmanovskaya quyidagicha ta’riflaydi: Nutqiy odat nutqiy xulqni tartibga soluvchi qoidalar, suhbatdoshlar orasida kontakt o‘rnatish, tanlangan tonda kontaktni ushlab turish va to‘xtatish uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan aloqaning milliy o‘ziga xos qoliplari hamda turg‘un formulalari sistemasi tushunchasidir.

Har bir tilda muloqot o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.Shu bois kishi o‘zga tilda mukammal so‘zlash uchun faqatgina uning til xususiyatlari – grammatik, leksik, fonetik jihatlarini nutqda to‘g‘ri talqin etish bilan chegaralanib qolmay, balki shu xalqqa xos nutqiy etiketni ham bilmog‘i talab etiladi.

Har bir xalqda bo‘lgani singari, nemislarda ham o‘ziga xos muloqot shakllari mavjud bo‘lib, ularning til bilan bog‘liq jihatlarini ilmiy tadqiq qilish ancha oldingi davrlarga borib taqaladi.

Nutq madaniyati va nutqiy etiket masalasi tilshunos olimlardan tashqari boshqa ko‘plab soha vakillarini ham qiziqtirib kelgan. Jumladan, Germaniyada 1788-yilda nemis madaniyatshunosi Adolf Frayer fon Kniggening “Ueber den Umgang mit Menschen” (Kishilar bilan muloqot qilish to‘g‘risida) nomli kitobi chop etildi. Ushbu asarda olim kishilik jamiyatining barcha sohalarida, rasmiy yoki norasmiy muloqotlarda odam o‘zini qanday tutishi lozimligi to‘g‘risida qoidalar ishlab chiqadi . Bu esa muallifga katta shon-shuhrat keltiradi. Hozirgi kunda Germaniyada odob-axloq qoidalariga doir tushunchalar ham Knigge nomi bilan bog‘liq. Ular hatto Knigge qoidalari deb ham yuritiladi.

Nemis tilshunos olimi M. Birvishning quyidagi til va undan foydalanish holatini tasavvur qilish borasidagi fikrlari ahamiyatga molikdir: “Kiyimning o‘ziga xos shakliy belgilari uni kiygan odam haqida muayyan axborot beradi. Xuddi lisoniy fikrlar kabi kiyimning turli tiplari va stillari ijtimoiy munosabatlarning farqlarini ko‘rsatadi” . Olimning fikrlariga qo‘shilgan holda, shuni qo‘shimcha qilmoqchimizki, kiyimlar taklif qilinishi va tanlanishi jihatdan aynan lisoniy vositalarga o‘xshab ketadi. Ammo ularning xususiyligi jihatdan lisoniy vositalar kiyimlardan ko‘ra ancha murakkab va mukammalroqdir, deb aytish mumkin.

Nemis nutqiy etiketlari bilan qiyosiy aspektda olib borilgan ayrim tadqiqotlar mavjud. Jumladan, rus tilshunosi V.V.Kolesov o‘zining “Язык города” nomli kitobida Peterburg xalqi nutqiy odatlarini fransuz, fin va nemis tillari bilan ta’sirini o‘rganadi. Ammo bu asar xarakteriga ko‘ra, qiyosiy tahlillarni emas, balki tillarning bir-biriga ta’sirini o‘rgangan. Bu tadqiqotda, asosan, nutqiy jarayonlarda talaffuz odatlarining moslashuvi va mo‘tadillashuvi tahlil qilingan. Masalan nemis millatiga mansub kishilarning rus tilidagi fe’llarni talaffuz qilishga qiynalishlari haqida bayon qilingan.

Ma’lumki, nemis xalqi vakillari madaniyat bobida dunyo xalqlari orasida ancha yuqori o‘rinda turadi. Aytish mumkinki, nemis madaniyati g‘arb madaniyati ta’sirida shakllangan. Nemis tilshunosligida tilning xalq ruhi bilan chambarchas bog‘liqligi masalasi Vilgelm Fon Gumboldt g‘oyalaridan kuch oladi.

Etiketning o‘ziga xos xususiyatlari nafaqat tilshunoslik, balki bir qator boshqa fanlar, jumladan madaniyatshunoslikning ham tadqiqot obyekti sanaladi. Bu fanga oid “Muomala madaniyati” nomli darslikda “etiketlar muomala madaniyatining zamonaviy ko‘rinishi sifatida” o‘rganilib, turlari tahlil etilgan bo‘lsa, “Muloqot mezoni” nomli kitobda muloqot xulqini ilk bor ijtimoiy lisoniy aspektda atroflicha tadqiq etiladi.

Germaniyada madaniyatlararo nutqiy etiket masalalariga to‘xtalar ekanmiz, 2010- yilda Tillo Sarazin o‘zining “Deutschland schafft sich ab. Wie wir unser Leben aufs Spiel setzen.” “Germaniya bekor qiladi. Biz qanday qilib mamlakatimizni o‘yinga aylantirdik” nomli kitobida nemis aholisining nutqiy etiket qoidalariga amal qilishi xususida so‘z borishini ko‘rish mumkin.

Nutqiy etiketni tahlil qilishda suhbatdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qoidalari va me’yorlari haqida savol tug‘iladi. Me’yorning ta’rifi turli mezonlarga asoslanadi – tilga oid hamda tildan tashqari bo‘lgan

mezonlar. Ikkinchisi axloq, ta’lim, savodxonlik darajasi va siyosiy savodxonlik kabilarni o‘z ichiga olishi kerak. Sanab o‘tilgan tushunchalar bo‘yicha o‘rnatilgan ijtimoiy g‘oyalardan chetga chiqish me’yorning buzilishini ko‘rsatadi. Kommunikator turli vaziyatlarda suhbatdoshiga illokatsion ta’sirning samaradorligini oshirish uchun muloqot me’yorlari va qoidalarini bilishi zarur.

O‘zbek tilshunosligida nutqiy etiket masalalari maxsus tadqiqot obyekti sifatida XX asrning oxirlaridan boshlab o‘rganildi, tadqiqotlarda morfologik va sintaktik birliklarining hurmat maydoni vositalari sifatida xizmat qilishi, nutqning jins, yosh, hudud jihatdan farqlanishining ma’lum darajadagi tadqiqi, murojaat shakllarining struktur-semantik tahlili, shu bilan birga, noverbal nutqiy etiket birliklari tasnif etilgan.

Nutqiy etiket har bir xalqning individual madaniyati, qadriyatlari va mentalitetiga ko‘ra anglashiluvchi tushuncha ekanligi tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, nemis, ingliz, yapon, fors, o‘zbek tillarida nutqiy etiket birliklarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni alohida bo‘lib, samimiy yoki nosamimiy bo‘lishidan qat’iy nazar qo‘llash muhim ijtimoiy qoida darajasiga yetganligi dalillanadi. Shu bilan birga rus nutqiy etiketida birliklarning imkonqadar samimiy ifoda etilishi xalq xarakteriga xosligi, norasmiy suhbatlarda ortiqcha sayqallashlar, mulozamatlardan qochish tamoyili amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. … diss.avtoref. – Samarqand:1993
2. Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методический аспекты. М.: 1962
3. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent:2013.
4. Begmatov E. Oliy ta’lim tizimida nutq madaniyatining o‘rni. –Toshkent:1999
5. Knigge A. Ueber den Umgang mit Menschen. – Hannover:2013. 395-s
6. Birwisch M. Psychologische Angabe der Sprache. Zeitschrift fuer Sprachwissenschaft. – Berlin:1975.87-s
7. Колесов В.В. Язык города. – М.: Высщая школа, 1991.50-67-с.
8. Husanov B., G’ulomov V. Muomala madaniyati. –Toshkent:2007
9. Mo‘minov S. Muloqot mezoni. – Toshkent: 2004. 96.
10. Sarrazin T. Deutschland schafft sich ab. – Deutsche Verlags-Anstalt:2010.
11. Qaharov Q. O‘zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi. Filol. fan. nomz. … diss.avtoref. – Andijon: 2020.



Shodiyona ABDUGAPPAROVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
Shodiyona1993@inbox.ru

“QIYOMAT” (CHINGIZ AYTMATOV)DA OBRAZLAR MA’NAVIY-AXLOQIY FOJIASINING OBYEKTIV VA SUBYEKTIV OMILLARI

Annotatsiya:ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romanidagi bir qator obrazlarning ma’naviy-axloqiy olamidagi evrilishlar qiyosiy jihatdan tahlilga tortilgan. O‘z navbatida obrazlar ma’naviy-axloqiy fojiasining obyektiv va subyektiv omillari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *obraz, fojia, ma’naviy-axloqiy olam, roman, subyektiv omil, obyektiv omil, Grishan, Avdiy, Ober-Kandalov, Bo‘ston, Bozorboy.*

Annotation:in this article, evolutions in the spiritual and moral world of a number of characters in Chingiz Aitmatov's novel "Doomsday" are analyzed from a comparative point of view. In turn, the objective and subjective factors of the spiritual and moral tragedy of images were studied.

Key words:*image, tragedy, spiritual and moral world, novel, subjective factor, objective factor, Grishan, Avdiy, Ober-Kandalov, Boston, Bozorboy.*

Аннотация:в данной статье со сравнительной точки зрения анализируется эволюция духовно-нравственного мира ряда персонажей романа Чингиза Айтматова «Судный день». В свою очередь, изучались объективные и субъективные факторы духовно-нравственной трагедии образов.

Ключевые слова:*образ, трагедия, духовно-нравственный мир, роман, субъективный фактор, объективный фактор, Гришан, Авдий, Обер-Кандалов, Бостон, Бозорбой*

Chingiz Aytmatov asarlarida insonning inson degan nomga munosib bo‘lish tamoyili eng oliy maqsad

sanaladi. Adib o‘z ijodining badiiy takomil bosqichlarida hikoyalardan qissalarga, qissalardan romanlarga qarab yuksak cho‘qqilarni bosib o‘tar ekan, har bir asarida shu prinsip, shu maqsad, shu g‘oya bilan yashaydi. Yozuvchining so‘nggi asari “Qiyomat” romanida esa bu g‘oya ayniqsa serqirra va teran tarzda gavdalanadi. Insonning ma’naviy-ruhiy olami, ma’naviy-axloqiy holati, fojiasi teran falsafiy mushohada orqali tasvirlanadi. Romandagi falsafiy g‘oyalar o‘quvchida faol ichki munosabatni uyg‘otishga, uni ma’naviy safarbar etishga, har qanday tashqi sabablar bo‘lishiga qaramay chinakam insoniy qadriyatlarni himoya qilishga qaratiladi. Roman qahramonlarining hayotga, tabiatga munosabati, fikrlari, falsafiy qarashlari, o‘xshash taqdirlari, zamon bilan uyg‘unligi – bularning barchasi o‘quvchini hayajonlantirmay qolmaydi. Asar borliqning mazmun-mohiyati, hayotimizga yot bo‘lgan, insonning tabiiy rivojlanishiga behisob zarar yetkazuvchi axloqsizlikka qarshi murosasiz kurash haqida fikr yuritishga asos bo‘ladi. Insonning ma’naviy-axloqiy yuksalishi yoki fojiasiga sabab bo‘luvchi obyektiv va subyektiv omillarni romanda qattiq tanqid qilinadi. Yozuvchi insonning insoniylikdan chiqishi faqatgina uning xarakteri yoki o‘ziga bog‘liq emasligini, bunga uning atrofdagilari, yaqinlari, ijtimoiy holati, butun bir jamiyat ham aybdor ekanligini romanda har bir qahramon misolida, har bir obraz misolida, ularning fojialari misolida o‘quvchiga yaqqol ko‘rsatib bera olgan. Yozuvchi o‘zi yashab turgan jamiyatning ma’lum kamchiliklarini, insonlar hayotini izdan chiqishiga sabab bo‘luvchi bir qancha muammolarni ilgari suradiki, bu esa har bir insonni, har bir jamiyatni ogohlikka da’vat etadi. Yozuvchi hayqirig‘i inson jamiyat-tabiatning birlashishiga, magar birlashmasa falokat bo‘lishligi muqarrar ekanligini anglatadi. Asarda bir necha g‘oya atrofida voqealar rivoji birlashadi. Bugungi yoshlar o‘rtasida ijtimoiy kasallikka aylanib borayotgan giyohvandlik muammosiga chuqur to‘xtalib, jamoatchilikni unga qarshi kurashishga chaqiradi. Romanning falsafiy ma’nosi keng talqin qilish imkoniyatidan dalolat beradi, har bir tasvir va detallar ramziy bo‘lib, bir emas, ko‘p ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Romanda bir qancha syujet va kompozitsion yo‘nalishlar mavjud: Avdiy Kallistratov, Bo‘ston Urkunchayevning shaxsiy taqdiri; xunta olomoni, giyohvandlar; Bo‘rilar oilasining taqdiri asarning mustaqil ko‘rinadigan qismlaridir. Biroq, shunga qaramay, ular bir-biriga bog‘langan holda, qo‘yilgan muammolarning umumiyligi bilan bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib, ma'lum bir yaxlitlikni tashkil qiladi.

Asarda bir necha qahramonlarning ma’naviy-axloqiy fojiasi ko‘zga tashlanadi. Birinchisi, ko‘p planli asarning syujet yo‘nalishlaridan birida bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo‘lgan giyohvandlik va uning savdosiga berilgan jinoyatchilarning ma’naviy-axloqiy fojiasi. Avdiy bu guruh ichiga kirar ekan “bu odamlarni yomon yo‘ldan qaytarsam, ko‘zlarini ochsam, ular o‘zlariga boshqacha, ochiq bir nazar bilan qarab ko‘rsalar, hayotlarini zaharlab turgan qo‘rqinchdan va shu qo‘rqinchning ta’qibidan xalos, deb orzu qiladi” . Jinoyatchilar to‘dasini bu yo‘ldan qaytarishga urinadi. Grishan ushbu guruhning yetakchilaridan biri Avdiy bilan tortishar ekan, “Men odamlarga shodlik bag‘ishlayman. Ular kayfda Xudoning visoliga yetadilar. Men beradigan narsani ular na sizning pand-nisihatlar, na va’zlar va na duoyu ibodatlardan topadilar... Men o‘z odamlarimni Xudoga boshqa har kimdan ko‘ra tezroq yetkazaman... Bas! Diydiyo qilma! Dunyoda hamma narsa sotiladi va olinadi, jumladan, sening Xudoying ham. Lekin men odamlar mazza qilib kayf sursinlar deyman. Sizlar so‘zda va buning ustiga narigi dunyoda va’da qilgan narsalarga men bu dunyoning o‘zida muyassar etaman. Yolg‘iz kayf rohat-farog‘at bag‘ishlaydi, olamda o‘zingni qushday erkin his qilasan, ko‘klarga uchasan. Mayli, bu rohat, bu lazzat ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketsin. Mayli, u faqat ro‘yo bo‘lsin. Lekin unda baxtiyorlik, unda saodat va unga faqat hushni yo‘qotib yetish mumkin. Siz, taqvodorlar esa, hatto mana shu ro‘yodan ham mahrumsizlar” - deya so‘z qotadi.

Asardagi yana bir ma’naviy-axloqiy fojia sayg‘oqchilar to‘dasi orqali badiiy ifodasini topadi. Ober Kandalov: “Bizni Xudo bilan qo‘rqitolmaysan. Sen o‘ylagan odamlar boshqa, qanjiq! O‘zing kimsan? Biz bu yerda davlatning topshirig‘ini ado etyapmiz, sen, qanjik, rejaga qarshisan, viloyatga qarshisan. Bundan chiqadiki, sen, iflos, xalq dushmanisan, xalq va davlat dushmanisan. Senga o‘xshagan dushmanlarga, zararkunandalarga, qo‘poruvchilarga yer yuzida o‘rin yo‘q! Hey, cherkov kalamushi, sen qilayotgan ishingni bilasanmi? Sen hammasini barbod qilmoqchisan! Topshiriqqa g‘ov qo‘yyapsan! Hammamizning yuzimizni yerga qaratmoqchisan. Hey, men seni xalq dushmaniday bo‘g‘ib o‘ldiraman. Menga rahmat deydilar. Chunki sen imperializmning ayg‘oqchisisan, iflos! Stalin yo‘q, xohlagan ishimizni qilamiz deysan-da a? Sen popning gazandasi, qani, tiz cho‘k, hoziroq tiz cho‘k. Mana, men senga hokimman. Qayt Xudodan! Tanimayman, bilmayman de! Voz kech! Aksincha, asfalasofilinga jo‘naysan, iflos!

- Gapir, iflos, bo‘kirardi Ober-Kandalov - Xudodan yuz o‘gir! Ayt! Xudo yo‘q, deb ayt!”

Asarning syujet yo‘nalishlaridan Bo‘ston va Bozorboy o‘rtasidagi murosasiz kurashda esa Bozorboyning ma’naviy-axloqiy fojiasi o‘z bo‘y-bastini ko‘rsatadi: “Qayerga shoshyapsan, itvachcha? Bozorboy shahd tu- rib, engashdi-da, g‘azabdan o‘zgarib ketgan betini Bo‘stonga yaqinlashtirdi. Qayerga shoshyapsan, ablah? Sen bilan hali bo‘rilar to‘g‘risida gaplashib olmadik. Sen axir direktorning kabinetidagi majlisda hammaning o‘rtasida meni ig‘vogar debsan, men tufayli bo‘rilar quturib qo‘ylarni bo‘g‘izlayotgan emish. Ig‘vogar nima degani, meni

bilmaydi deb o‘ylaysanmi? Seningcha, men yomon, faqat sen ichimizda vijdonli, halol ekansan-da?”

Xulosa qilib aytganda, Akademik B.Nazarov “Chingiz Aytmatov asarda o‘z badiiy tahayyulini erkin qo‘yib, bizning zamonamizda Mo‘yinqum cho‘llarida vahshiy ober-Kandalovchilar sodir etayotgan sayg‘oqlar qirg‘inini tasvirlaydimi, Issiqko‘l atrofidagi Bo‘ston ishlaydigan chorvachilik sovxozi cho‘ponlari hayotini aks ettiradimi, voqealarni Uchquduq” sovxozi tevaragidagi nashazorlarga olib o‘tadimi, - ularning barchasida ishtirok etuvchi qahramonlarning kimligini bildiruvchi asosiy xususiyat sifatida iymon muammosiga e’tiborni qaratadi . Bu obrazlar o‘zlaridagi iymonning sustligi, iymonning mo‘rtligi oqibatida nafaqat o‘zlarining balki jamiyatning boshqa kishilari hayotining ham izdan chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Iymon muammosi asar qahramonlarining ma’naviy-axloqiy fojiasining obyektiv omili sanadi. Lekin romanda ochiq aytilmagan bo‘lsada, bu qahramonlar hayotining tubdan izdan chiqishi, ulardagi ma’naviy-axloqiy fojianing asosiy sababchilar o‘zlari emas, balki ularning atrofidagi kishilar, ularning atrofini o‘rab turgan jamiyat, ularning shu holatga tushishlariga majbur qilayotgan yuqori tabaqa vakillari, ma’naviy fojiasiga befarq qarab turgan davlatdagi buyruqbozlik, inson qadr-qimmatining kamsitilish kabi omillar bu qahramonlar fojiasiga subyektiv omil sifatida o‘z ahamiyatini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chingiz Aytmatov, “Asrga tatigulik kun”. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2005. 122-bet.
2. O‘zbek adabiyoti. 11-sinf uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 1995-yil. 347-349-betlar.
3. A.Rashidov. Chingiz Aytmatov olami. –T.: ”O‘qituvchi”, NMIU. 2011. 256 -b.
4. Ch.Aytmatov, M.Shoxonov. Cho‘qqida qolgan ovchining ohi-zori. –T.: ”Sharq”, NMKBT. 1998.432- b.



Hayitgul ABDURAHMONOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
guli.abdurakhmonova@gmail.com

BALZAK IJODIDA QISHLOQ HAYOTI

Annotatsiya: ushbu maqolada fransuz adabiyotining yirik vakili bo‘lgan yozuvchi Onore de Balzakning “Qishloq hayoti manzaralari” to‘plamiga kiruvchi asarlarida qishloq hayoti tasvirlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu asarlarning uslubiy o‘ziga xosliklari va misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *qishloq hayoti, peyzaj, utopiya, qishloq xo‘jaligi, dehqonlar.*

Аннотация: в данной статье анализируются образы сельской жизни в произведениях писателя Оноре де Бальзака, крупного представителя французской литературы, вошедших в сборник «Пейзажи сельской жизни». Также представлены стилистические особенности и примеры этих произведений.

Ключевые слова: *сельская жизнь, пейзаж, утопия, сельское хозяйство, крестьяне.*

Annotation: this article analyzes the images of rural life in the works of the writer Honore de Balzac, a major representative of French literature, included in the collection "Scenery of Rural Life". Also, the stylistic peculiarities and examples of these works are presented.

Key words: *rural life, landscape, utopia, agriculture, peasants.*

Ushbu maqolada Balzak ijodida qishloq hayoti tasvirlariga to‘xtalishdan oldin, XIX asr boshidagi dehqonlar turmush tarzi haqida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. XVIII asrning ikkinchi yarmi uzoq vaqt davomida saqlanib kelgan tuzumni o‘zgartirib yuboradigan voqealarga boy bo‘ldi. Birinchidan, dehqonchilik usullarini tubdan o‘zgartiruvchi ilmiy inqilob bo‘lgan bo‘lsa; keyin barcha dehqonlar o‘rtasida yerni qaytadan taqsimlash imkonini beradigan siyosiy inqilob sodir bo‘ldi. Bu islohotlar, albatta, adabiyot dunyosiga ham o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatdi.

Shu davrgacha qishloq xo‘jaligi dunyosi kamdan-kam hollarda yozuvchilar tomonidan tasvirlangan bo‘lsa, XIX asrning boshlarida u o‘ziga xos mavzuga aylandi va dehqonlar endilikda roman qahramonlariga aylangan edi. Biz o‘z asarlarining bir qismini qishloq dunyosiga bag‘ishlagan mualliflardan biri Balzak ijodida qishloq tasviri haqida to‘xtalib o‘tamiz.

1855-yilda, Balzakning o‘limidan so‘ng nashr etilgan “Dehqonlar” asarida uning parijlik huquqshunos Silven Pyer Bonaventurga yozgan maktubi ham ilova qilinadi. Unda yozuvchi maktubdoshiga yuridik va moliyaviy maslahatlar beradi hamda o‘zining tematik tanlovini asoslab beradi. Shuningdek, fransuz inqilobidan keyingi davrda dehqonlarning ijtimoiy ahvoli, “nihoyat dehqonlarni tasvirlashning

ayni payti” ekanini, “xalqning bu asosiy qatlami uzoq vaqt davomida ijodkorlar yodidan ko‘tarilgan”ligini ta’kidlaydi. Balzak xuddi Jan-Jak Russo kabi o‘z davrining axloqiy tarixchisi bo‘lish niyatida edi. Shu sababdan ham, u o‘zining "Inson komediyasi" nomli buyuk asarida XIX asr boshlarida fransuz aholisining deyarli 80 foizini tashkil etgan dehqonlarni e’tiborsiz qoldira olmadi. Balzak o‘zining fransuz qishloq turmush tarziga bunday yondashuvini, “adabiyotda peyzaj haqidagi muhim savolga to‘xtalish” uchun ham imkon deb hisobladi.

Balzakda «Dehqonlar» romanini yozish istagi 1833-yil oxirlarida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, bir qancha tugallanmagan qoralamalardan so‘ng, 1838-yilda u bu vazifani bajarishga astoydil kirishdi. Asarning birinchi boblari La Presse gazetasida ketma-ket nashr etildi, ammo nashr tezda to‘xtab qolgan. Balzak ushbu asarni yozib tugatish uchun kurashgan, biroq kitobxonlar fransuz dehqonlari haqidagi bunday tasvirlarning birinchi sahifalaridan norozi bo‘lishgan.

Bu davrda Balzak yana uchta romanini nashr etdi: “Qishloq tabibi” (1833), “Vodiydagi nilufar” (1836) va “Qishloq ruhoniysi” (1841). Ushbu asarlar “Dehqonlar” romani bilan birgalikda “Qishloq hayoti manzaralari” to‘plamini tashkil qiladi. Ushbu uchta kitobning har birida Balzakning qishloq turmush tarziga bag‘ishlagan o‘rinlarini topish mumkin. Ushbu asarlarda asosiy mavzudan tashqari, qishloq turmush tarzi masalasi ham ko‘rib chiqiladi.

“Qishloq tabibi” va “Qishloq ruhoniysi” asarlarini odatda adabiy tanqidchilar utopik romanlar deb bilishadi. “Qishloq tabibi” Grenobl yaqinidagi Alp tog‘laridagi kantonda nafaqaga chiqqan, hayot sinovlaridan jabrlangan Doktor Benassis haqida hikoya qiladi. Sivilizatsiyadan uzoqda joylashgan Grande Chartreuse vodiysi unchalik ham taraqqiy etmagan bo‘lib, u shu yerga hokim bo‘lishga muvaffaq bo‘ladi. Bir necha yil ichida zamonaviy taraqqiyot usullarini (iqtisodiy, agrotexnika, tarkibiy va h.k.) qo‘llash orqali vodiyni obod qilishga erishadi.

“Qishloq ruhoniysi”da Limogeslik boy bankirning bevasi Veronik Graslin shaharni tark etib, qurg‘oqchil yerlarda joylashgan Montegnak nomli kichik shaharchaga joylashadi. Keyin u o‘z boyligining bir qismini daryo ustida to‘g‘on qurishga bag‘ishlashga qaror qiladi, bunday usulda suvni ushlab turish qishloq xo‘jaligi yerlarini unumdor qiladi va aholini boyitadi.

Agar biz faqat qishloq xo‘jaligi masalalariga oid parchalarga e’tibor qaratsak, har ikki asar ham utopik ekanligi ayon bo‘ladi. Misol uchun, hech qanday agrotexnik bilimga ega bo‘lmagan doktor Benassis bir necha yil ichida Alp tog‘larining chekka bir hududini unumdor va obod vodiyga aylantira olishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Veronik Graslin bilan ham xuddi shunday holatni kuzatish mumkin: hattoki, kerakli muhandislar chaqirilganda ham "yigirma avlod tomonidan hosilsiz deb hisoblangan" Montegnak tekisligini unumdor yerga aylantirdi.

Utopiya, XVI asrda Tomas More tomonidan ta’rif berilganidek, xayoliy sayohat hikoyasi va ideal jamiyatni tasvirlovchi adabiy janrdir. Balzakning ikkita romani ushbu ta’rifga juda mos keladi. Albatta, Benassis va Veronik Graslin xayoliy joylarga sayohat qilmaydi, lekin ular amalga oshiradigan loyihalar ideal jamiyat qurishga qaratilgan.

Bu ikki romanda Doktor Benassis va Veronik Graslin falsafiy, axloqiy, diniy sabablarga ko‘ra xayrixohlardir va ular yaxshiroq dunyoga erishish uchun foydalanadigan vositalar har xil tabiatga ega. Yerdan foydalanish rejimini modernizatsiya qilishni amalga oshirish tavsifi ilmiy aniqlikni talab qiladi. Biz keltirgan qisqacha parchalar bunga misoldir. Balzak yaqinda agronomlar tomonidan tavsiya etilgan zamonaviy madaniy amaliyotlarni tilga olib o‘tadi: "ekinlarni almashtirish", "irrigatsiya", "urug‘li o‘tloqlar"; u qishloq xo‘jaligi sohasidagi ilmiy lug‘atdan foydalanadi, turli usullardan foydalanadigan xorijiy davlatlarga (Shvetsariya, Italiya va h.k.) ishoralar keltiradi.

“Vodiydagi nilufar” romani, “Qishloq hayoti manzaralari” to‘plamiga kiruvchi uchinchi asar hisoblanadi. Ushbu romanda Feliks de Vandeness va undan yoshi katta bo‘lgan, ikki farzandning onasi hamda o‘zini butunlay oilasiga bag‘ishlagan Mortsof grafinyasi o‘rtasidagi imkonsiz muhabbat hikoyasi tasvirlanadi. Shuningdek, asardan qal’a hayoti sahnalari, ikki sevishgan o‘rtasidagi sayrlar, suhbatlar sahnalari hamda qishloq manzaralari tasvirlari ham o‘rin olgan. Jumladan, grafinya o‘zi egalik qiladigan mulkni qanday qilib qayta tashkil etganligi sahnalari o‘sha davrda Fransuz inqilobidan keyingi yerni qayta taqsimlash usullarini tasvirlaydi: “O‘n yillik sa’y-harakatlardan so‘ng, grafinya Mortsof o‘z yerlarida ekin yetishtirish usulini o‘zgartirdi: unga ko‘ra dehqonlar har to‘rt yilda faqat bug‘doy ekishadi”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Honore de Balzac, Les Paysans, Paris, Gallimard, Folio, 1975.
2. BALZAC, Honoré de, Le Lys dans la vallée, Paris, Gallimard, Bibliothèque de la Pléiade, tome IX, 1978, p. 922.
3. BALZAC, Honoré de, Le Médecin de campagne, Paris, Gallimard, Folio, 1974.
4. BALZAC, Honoré de, Le Curé de village, Paris, Gallimard, Folio, 1975.



Lobar ARALOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDAGI BA’ZI FE’LLAR XUSUSIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada XI asr yodgorligi bo‘lgan “Devonu lug‘otit turk” asaridagi ba’zi fe’llar tadqiq qilindi. Ushbu fe’llarning semantik tahlili amalga oshirildi, shevalarga va hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati o‘rganildi. Ayrim so‘zlarning etimologiyasini izohlash orqali ularning kelib chiqish ildizi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *“Devonu lug‘otit turk”, sheva so‘zlar, semantik maydon, o‘g‘uz lahjasi, etimologiya, ma’no kengayishi, ma’no torayishi.*

Annotation: in this article, some verbs from the 11th century monument "Divan Lughat al-turk" were studied. The semantic analysis of these verbs was carried out, their relation to dialects and the modern Uzbek literary language was studied. By explaining the etymology of some words, their origin was determined.

Key words: *"Divan Lughat al-turk", dialect words, semantic field, Oghuz dialect, etymology, expansion of meaning, narrowing of meaning.*

Аннотация: в данной статье были изучены некоторые глаголы из памятника XI века «Диван Лугат ат-Турк». Проведен семантический анализ этих глаголов, изучено их отношение к диалектам и современному узбекскому литературному языку. Путем выяснения этимологии некоторых слов было установлено их происхождение.

Ключевые слова: *«Диван Лугат ат-Турк», диалектные слова, семантическое поле, огузский диалект, этимология, расширение значения, сужение значения.*

“Devonu lug‘otit turk” asari tilshunoslikning ko‘plab sohalarini qamrab olgan bo‘lib, unda o‘sha davr xalqlarining tili, ularning fonetikasi, morfologiyasi hamda leksikasi haqidagi ma’lumotlar batafsil yoritilgan. Shuning uchun bu asar O‘rta Osiyo xalqlari tarixini yoritish uchun, xususan, til tarixini o‘rganish uchun benihoyat muhim manbadir.

Ma’lumki, til taraqqiy etar ekan, tildagi o‘zgarishlar uning turli sathlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Natijada, so‘zlarning fonetik qurilishida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, semantikasida ma’no ayriliklar kuzatiladi. Yodnomadagi ba’zi fe’llarni tahlil qilganimizda shu narsaga amin bo‘ldikki, qariyb o‘n asr o‘tsa-da, ba’zi so‘zlar xuddi o‘sha davrda anglatgan ma’nosidek bir xil ma’no kasb etadi, ayrimlari ma’nosida farqliliklar kuzatiladi, shuningdek, hozirgi kunga kelib ular faol va passiv holatda qo‘llaniladi. Buni quyida amalga oshirilgan qiyosiy tahlil jarayonida ham kuzatish mumkin.

Mahmud Koshg‘ariy tadqiq etilayotgan toŋ leksema xususida quyidagilarni bayon qiladi: toŋ – to‘ng, to‘ngigan. Sovuqdan muzlab qotgan go‘shtga كـنُت ُتـأ toŋ ät deyish ham shundan olingan. Boshqasi ham shunday [ДЛТ, III, 368]. Tomlïdï – muzladi, suv tomlïdï – suv muzladi. She’rda shunday kelgan:

Kördï mäni ämläjü, Baqtï mäŋä imläjü.
Qaldïm köŋül tomlïju, Qadğu mäŋï turğurur.

Seviklim menga imladi, nazar qildi, bir oqish bilan menga davo qildi. Menga salom bilan ishorat qildi. Uning izida yotgan alamlardan dilim qaltirab qoldi, qayg‘u meni yaralayotir [ДЛТ , III, 310].

Alisher Navoiy asarlarida atama “muz”, “sovuq, qattiq sovuq” ma’nolarida ishlatilgan:

Ohu ashkidin erur o‘t-u suv ichra oshiq
Zohido, ne g‘am anga gar qizig‘ o‘lg‘il, gar to‘ng [АНАТИЛ, IV, 269].

Bundan ko‘rinadiki, XV asrga kelib atamaning ma’nosi kengaygan. Mazkur istiloh Xorazm viloyatining shimoliy qismidagi o‘zbek shevalari, xususan, Gurlan, Mang‘it, Yangibozor shevasida hamda janubiy qismidagi Qoramurt shevasida toŋğmaq shaklida ishlatiladi [ЎХШЛ, 260]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ushbu leksema quyidagi ma’nolarda ishlatiladi: To‘ng. 1. Yoqimsiz, qo‘pol, dag‘al. 2. Yoqimsiz muomalali; qo‘rs. 3. To‘ngib, muzlab qolgan. Echki go‘shtining yog‘i oq tusda va to‘nglaydigan bo‘ladi [ЎТИЛ, IV, 238]. Aynan “Devon”dagi ma’no hozirgi kunda kam qo‘llanilib, uni ayrim shevalarda va oddiy so‘zlashuv nutqida uchratishimiz mumkin. Bizning nazdimizda, “to‘ng‘illab gapirmoq”, “to‘ng‘illamoq” so‘zlarining zaminida to‘ng so‘zining ildizi bordek.

Eski turkiy tilda qïrtïšlamoq so‘zi teri yuzini qirib tozalash hamda yerning yuzi ma’nosida izohlangan: ol sağrïnï qïrtïšladï – u teri yuzini qirtishladi [ДЛТ, III, 362]; jer qïrtïšï – yer qobig‘i, yuzi [ДЛТ, I, 428]. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zning har narsaning yuzasiga nisbatan qo‘llanmasligini ta’kidlagan. Navoiyda esa bu so‘z hatto daraxtga nisbatan ham qo‘llangan:

Naxli ayshim qo‘ng‘ordi o‘yla g‘aming,

Kim makonida qolmadi qirtish. (Rohatim daraxtini g‘aming shunchalar qattiq qo‘pordiki, daraxt o‘rnida qirishga loyiq biror narsa ham qolmadi). Shuningdek, “biror narsaning yuza qismini qirganda chiqadigan chiqit, qirindi” ma’nosida Navoiy asarlarida mazkur atamani qo‘llagan:

Ul gul harimi gulshanida bir giyoh edim,

Nav’e qo‘ng‘ardi hajrki, qolmadi qirtishim [АНА-ТИЛ, IV, 54].

Hozirda mazkur so‘zning Qarnoq shevasida qirchimaq fonetik varianti “qirtishlamoq, taqir qilmoq” ma’nolarini anglatishi “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da e’tirof etilgan: yomushqani qirchib ordiq [ЎХШЛ, 162]. Bugungi kunga kelib mazkur so‘zning ma’nosi toraygan bo‘lib, “yaxshilab, top-toza qilib qirmoq” va “batamom tozalamoq, sira qoldirmay, tag-tugi bilan yo‘q qilmoq” ma’nolarida qo‘llanadi [O‘TUL]. Izohdan ko‘rinadiki, so‘zning “yerning yuzi” ma’nosi hozirgi kunda iste’moldan chiqqan.

Mangzamak “o‘xshamoq” [ДЛТ, III, 41]) barcha o‘g‘uz tillarida, o‘zbek tili o‘g‘uz shevalarining ikkala tarmog‘ida ham bu so‘z shu shakl va ma’noda qo‘llanadi: qizil gullər oyim-oyim, qizil gulə mənzər boyim [ЎХШЛ, 179].

Atlan- fe’li XI asr turkiy xalqlar orasida 1) otga minmoq; 2) (biror yerga) chiqmoq ma’nolarida qo‘llangan [Индекс, 27]. XVII asr yodgorligi “Kelurnoma” asarida ham atlanmoq “otga minmoq” ma’nosini bildirishi ko‘rsatilgan [Келурнома, 30]. Bugungi kunda o‘g‘uz shevasida otlanmoq so‘zining ma’nosi kengayib, “yo‘lga chiqish uchun umuman tayyorgarlik ko‘rmoq” ma’nosini bildiradi.

Til taraqqiyoti natijasida ma’nosi kengaygan so‘zlardan biri sifatida kerilmoq so‘zini misol qilib keltirish mumkin. Qipchoq shevasi vakillari nutqida kerilmoq va shu so‘z asosidagi bir qancha so‘zlar mavjud: keriguv – qanotini yozmoq, gavdasini kermoq; keriluv – bo‘ynini cho‘zmoq, so‘zilmoq, gerdaymoq; kerildi – cho‘zdi, kengaytirdi, esnab qanotini yozdi kabi. Ko‘rinib turibdiki, barcha so‘zlar asosida “cho‘zilish” sememasi mavjud: aynaŋ uyxudan turg‘annan soŋ bosag‘ag‘a chig‘ip kerilibedi, chinachaqayi arqasidan kelayatqan inisiniŋ burnig‘a tiyip qanap qaldi [ЛДЛ, 125]. Bu so‘z “Devon”da “esnab kerishish” sifatida uchraydi: bu er ol telïm kerïlgän – bu odam har vaqt esnaydi va kerishadi [ДЛТ, I, 477]. So‘zlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kerilmoq so‘zi hozirgi kunga kelib “Devon”da anglatgan ma’nosidan kengroq ma’no ifodalaydi.

Alqindi – er alqindi – odam o‘ldi [ДЛТ, I, 253]. Shevada alqindi – sovun qoldig‘i.

Kiyimlarga nisbatan o‘ngimoq so‘zi qo‘llanadi. Izohli lug‘atda keltirilishicha, o‘ngimoq “rangi yo‘qolmoq”, “asl rangi o‘zgarmoq”, “tusi o‘chmoq” ma’nolariga ega. Masalan,

Bunday bo‘yoq bilan bo‘yalgan mato o‘ngib ketmaydi. “Fan va turmush”.

Ustidagi gimnastyorkasi yomg‘irda yuvilib, oftobda o‘ngib, oqarib ketgan edi. I.Rahim, “Chin muhabbat” [O‘TUL].

Ushbu so‘zning aslida qaysi so‘zdan kelib chiqqani va asosi nima ekanini “Devonu lug‘otit turk” orqali aniqlik kiritamiz. Asarda “öŋdi” leksemasi “o‘zgardi, rangi ketdi, aynidi” [ДЛТ, I, 185] ma’nosida kelishi haqida aytib o‘tilgan: Barčïn buduğï öŋdi – ipak kiyimning rangi aynidi. Boshqalarga ham bu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘zning öŋüqti tallaffuzi ham borligi ta’kidlangan. Hozirgi kunda ushbu so‘z Toshkent shevasida unniqti tarzida istifoda etib kelinmoqda. So‘zning etimologiyasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “rangi o‘zgar-” ma’nosini anglatgan oŋ- // öŋ- fe’lidan [ЭСТЯ, I, 460; Девон, I, 185; ДС, 367, 386] kuchaytirish ma’nosini ifodalovchi -(u)q qo‘shimchasi bilan hosil qilingan bo‘lib [Девон, I, 185], asli “rangi kuchli darajada o‘zgar-” ma’nosini bildirgan, rangning salbiy tomonga o‘zgarishini hisobga olib ma’noda torayish voqe bo‘lgan, faqat “qorayib ket-” ma’nosini anglata boshlagan; -(u)q qo‘shimchasi qo‘shilgandan keyin so‘z boshlanishidagi o unlisi u unlisiga almashgan [Девон, I, 403], so‘ngra ŋ undoshi n undoshiga almashgan va bu undosh qatlangan: oŋ + uq = oŋuq > onnuq > unnuq–.

Ko‘rinib turibdiki, XI asrda qo‘llangan so‘zlarning aksariyati bugungi kunga kelib o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishda bo‘lmasa-da, turli lahjalarda ishlatilib kelinmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, tilimizning tarixi, shevalarimizdagi so‘zlarning tub ildizi qadimiy o‘zanlarga borib tutashishidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraimov Sh. O‘zbek tilining universal lug‘ati (imlo, izohli lug‘at). 2019.
2. Абдураҳмонов Ғ.А., Муталлибов С. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. –Б.536.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV. – Тошкент: ФАН, 1983-1985.
4. Муталлибов С.М. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони /Девону луғотит турк/. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. –Т.1. – Тошкент: ЎзССР ФА, 1960. –Б. 499.
5. Муталлибов С.М. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони /Девону луғотит турк/. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. –Т.3. – Тошкент: ЎзССР ФА, 1963. –Б.466.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. IV жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёт. 2006. –Б.608.
7. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971. –Б.471.

Nodirbek AHMEDOV,
Xitoy Xalq Respublikasi Liaoning normal universiteti talabasi

IJTIMOIY MEDIA SIYOSIY NUTQI TA'SIRI OSTIDA XITOY TILINING O'ZGARISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy media siyosiy voqelik sharoitida qanday rol o'ynashini ko'rib chiqdik. Tilni o'zgartirishning sabablari va mohiyatini aks ettiruvchi uchta asosiy darajani ajratib turadigan konsepsiyani izohladik.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy media, tashqi omillar ta'siri, nutq darajasi, senzura, cheklash vositalari, til jihatlari.*

Аннотация: в этой статье мы рассмотрели, какую роль социальные сети играют в контексте политической реальности. Мы пояснили понятие, которое выделяет три основных уровня, отражающих причины и характер изменения языка.

Ключевые слова: *социальные сети, влияние внешних факторов, уровень дискурса, цензура, средства ограничения, языковые аспекты.*

Annotation: in this article, we examined how social media plays a role in the context of political reality. We have commented on the concept that distinguishes three main levels, reflecting the reasons and essence of language change.

Keywords: *social media, influence of external factors, speech level, censorship, means of restriction, language aspects.*

Internetning rivojlanishi nafaqat globallashuv sohasida, balki lingvistik sohada ham muhim jarayondir. Shunga ko'ra, muloqotga ta'siri juda kuchli. Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy jamiyat hayotini shakllantirishda texnologiya sohasi muhim rol o'ynaydigan ilg'or davlatdir [1]. Shunday qilib, Internet va texnologiyalarning jadal rivojlanishi Xitoy tiliga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Gap shundaki, Internet paydo bo'lishi bilan kuchayib borayotgan senzura axborot jamiyatida ommaviy axborot vositalari va umuman jamiyat faoliyati qanday ishlashiga ta'sir qiladi [2]. Bularning barchasi tilning tuzilishi qanday o'zgaruvchanligida aks etadi, bu ona tilida so'zlashuvchilarga turli xil ijtimoiy-siyosiy hodisalarga nisbatan o'z pozitsiyalarini bildirishga imkon berishga intiladi. Til murakkab tizim bo'lib, tashqi sharoitlarning ta'siriga juda bog'liq. Odamlar har doim turli xil hodisalarga duch kelishadi, bu ularni qandaydir tarzda aloqa usullarini o'zgartirishga majbur qiladi. Shunday qilib, biz mavjud bo'lgan ijtimoiy kontekstga bevosita bog'liq bo'lgan nutq hodisasini tasavvur qilamiz. Ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy xarakterdagi voqealar atrofida sodir bo'layotgan voqealarga munosabatimiz, avvalambor, tilda namoyon bo'ladi, chunki bu fikrlarni namoyish etish vositasidir [3]. Internetning rivojlanishi bilan odamlar yagona axborot makoniga ko'proq integratsiyalashadilar, shu bilan ma'lum ijtimoiy va munozarali amaliyotlar doirasida jamiyat fikr almashadi. Bundan tashqari, muhim tafsilot – bu bizga ta'sir qiladigan hodisalarning tabiati, bu ularning til deformatsiyalariga ta'sir qilish darajasini tavsiflashi mumkin. Biroq, ushbu tadqiqotda savol tilning qanday o'zgarishi bilan bog'liq emas, ya'ni uning grammatik, fonetik va morfologik o'zgarishlari hisobga olinmaydi. Asosiysi, tilni uning imkoniyatlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishga imkon beradigan, tashuvchiga tashqi omillarni yengish vositasini taqdim etishga imkon beradigan ba'zi bir konsepsiyani yaratish. Albatta, tilning yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlari muhimdir, chunki ular tufayli zarur o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

1. Tashqi omillarning ta'siri. Muloqotning dialogik tomonini ko'rsatish qobiliyatini cheklovchi sifatida ifodalangan tashqi sharoitlarning ta'siri bo'lmagan tabiiy o'zgarishlar darajasi. Bunday holda, asosiy nuqta shundaki, bu yerda siyosiy metaforalar ham fuqarolar, ham siyosatchilar tomonidan voqelikni idrok etishni aks ettiradi. Ya'ni, ushbu darajada ishlatiladigan so'zlar, masalan, iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy siyosatdan norozilik, urush va boshqa hodisalar kabi voqelikning "tabiiy" holatlariga reaksiya tufayli namoyon bo'ladi. Bunday holda, odamlar o'zlarining atrofida sodir bo'layotgan voqealarni aks ettiradigan so'zlarni, shu bilan birga hissiy yoki ekspressivlikdan iborat bo'lgan boshqa jihatlarni kiritishga intilishadi. Bunday holda, nutq hech qanday tarzda cheklanmaydi va kommunikatorlar bir-biri bilan to'siqsiz muloqot qilishlari mumkin. Misollar sifatida quyidagi iboralarni ajratib ko'rsatish mumkin: tǎngpíng ("yolg'on gapirish" va intilishni to'xtatish, xitoylik yoshlar ijtimoiy harakatchanligining umidsizligi, muvaffaqiyat va baxtga erishish haqidagi pessimizmi), 破防 pòfáng (psixologik travma), 内卷 nèijuǎn (involyutsiya, irratsional raqobat) va boshqalar.

2. Nutq darajasi. Undan keyin cheklash vositalari, ya'ni senzura ta'siri tufayli nutq sezilarli o'zgarishlarga duchor bo'lgan daraja keladi. Ijtimoiy media odamlar tomonidan turli siyosiy voqealar haqida asosiy ma'lumot manbai sifatida ishlatiladi, shuningdek, sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida fikr almashish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi [4]. Shunga ko'ra, agar biror kishi senzura tufayli gapirish mumkin bo'lmagan biror bir hodisa haqida gapirishga intilsa, u vaqtinchalik yechimlarni

topishga intiladi. Bu ilgari aytib o‘tilgan aloqa dialogizmi bilan bog‘liq bo‘lib, buning natijasida odamlar mustaqil ravishda nutq almashishga intilishadi. Ya’ni, bu jihatdan tashqi holatlar monologizm, ya’ni avtoritar nutqni yaratishga intilish vazifasini bajaradi. Bunday holda, ijtimoiy media aloqalarining mohiyatini hisobga olgan holda, odamlar turli xil imkoniyatlardan foydalanishga intilishadi. Biroq, bu yerda shuni tushuntirish kerakki, bu holda ushbu darajadagi hosilalar unda qoladi, chunki ular faqat siyosiy metaforaga xos bo‘lgan to‘liq aks ettirmaydigan almashtirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi sababli uni yuqori darajaga ko‘tarolmaydilar.

3. Til jihatlari. Til siyosiy nutqning turli omillari tufayli tez-tez o‘zgarib turadigan asosiy jihatlardan biridir. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, uning o‘zgarishiga nafaqat partiya va siyosiy arboblar faoliyatida namoyon bo‘ladigan tashqi omillar, balki dialogizmga intilayotgan odamlarning o‘zlari, ya’ni o‘z fikrlari va pozitsiyalarini bildirishlari ham ta’sir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar siyosiy nutq doirasida o‘zaro ta’sir o‘tkazish uchun asosiy platformaga aylanganligi sababli, tilning o‘ziga xos xususiyatlari yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi, chunki ular ushbu ikki tomonning bevosita ta’siri ostida.

Ushbu tadqiqotning asosiy natijasi bu – tilni o‘zgartirishning sabablari va mohiyatini aks ettiruvchi uchta asosiy darajani ajratib turadigan konsepsiyani belgilab oldik. Birinchi darajada bu – haqiqatga munosabatni ifoda etish istagi, ikkinchisida – fikr yoki pozitsiyani ifoda etish uchun tashqi cheklovlarni chetlab o‘tish istagi, uchinchisida – tilni aks ettirishning asosiy usuli va senzura cheklovlarini bartaraf etish vositasi sifatida ishlatish asosiy o‘rinda turadi. Binobarin, ijtimoiy media siyosiy voqelik sharoitida qanday rol o‘ynashini aniqlashga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jiang Min. Chinese social media and big data: big data, big brother, big profit? / Min Jiang // Special issue: social media and big data in China. 2018. T. 4, № 10. C. 372-392.

2. Нуриева Л. Ф. Цензура и способы её «Обхода» в современной прессе Китайской Народной Республики / Л. Ф. Нуриева, Д. Р. Ибрагимова // Modern oriental studies. 2019. T. 2, № 1. C. 11–17.

3. Солопова О. А. Политическая метафорология: дискурсивный поворот / О. А. Солопова, А. П. Чудинов, Э. В. Будаев. Москва: ФЛИНТА, 2020. 234 с.

4. Romanov A. A. Chelovek mediinyy kak setevoy tsentr informatsionnogo krugovorota ot ya-media k my-media [The media man as a network center of the information cycle from I-media to we-media] / A. A. Romanov // Yazykovoy diskurs v sotsialnoy praktike. 2019. № 1. S. 24–36.

Bo‘ritosh NURBADALOVA
bnurbadalova@gmail.com

BOBUR G‘AZALLARIDA MUJARRAD QOFIYANING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur devonidagi g‘azallarda qo‘llanilish jihatidan yetakchi o‘rinda turuvchi mujarrad qofiyaning o‘rni va vazn xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi. Maqolada qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turi – mujarrad qofiya umumiy va badiiy jihatdan raqamlar kesimida tahlil qilingan

Kalit sozlar: *Bobur, qofiya, mujarrad, vazn, hijo, o‘zak, g‘azal.*

Annotation: in this article, information is provided about the position and weight of the single rhyme, which is the leading use in the ghazals of the court of the king and poet Zahiriddin Muhammad Babur.

Key words: *Babur, rhyme, mujarrad, weight, syllable, stem, ghazal*

Аннотация: в этой статье представлена информация о положении и весе одиночной рифмы, которая является ведущим использованием в газелях двора короля и поэта Захириддина Мухаммада Бабура.

Ключевые слова: *Бабур, рифма, мурдаф, вес, слог, основа, газель.*

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek she’riyatida alohida o‘rin tutuvchi shoirlardan biri hisoblanadi. Undan bizgacha boy adabiy meros saqlanib qolgan.

Hind devonida g‘azal, qit’a, tuyuq, fard, muammo, masnaviy kabi janrlar mavjud. Tabiiyki, ular orasida g‘azal asosiy o‘rinni egallaydi. Bobur g‘azallarida qofiya tanlash masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Uning g‘azallaridagi musiqiylikni, jozibadorlikni ta’minlab beruvchi asosiy omillardan biri ham qofiyadir.

Mujarrad qofiya Bobur g‘azallarida yetakchiligi bilan ahamiyatli. Boburning 119 g‘azalidan 58 tasi mujarrad qofiyaga mansub. Qo‘llanilishi jihatidan murdaf qofiyadan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Masalan,

Ko‘ngulga bo‘ldi ajoyib balo qaro soching,
Shikasta ko‘ngluma ermish qaro balo soching.

Bu g‘azalda ham “o” cho‘ziq unlisi raviy bo‘lib kelgan. Qofiyani esa qaro, balo to, mango so‘zlari yuzaga keltirgan.

Yoki

Keltursa yuz baloni o‘shal bevafo manga,
Kelsun agar yuzimni evursam balo manga.

Ushbu g‘azalda bevafo, balo, jafo, oshno, havo kabi so‘zlar qofiyani yuzaga keltirgan.

Yana ko‘z uyida ma’vo qilibsen,
Ko‘ngul koshonasida jo qilibsen.

Yuqorida keltirilgan g‘azalda ham raviy cho‘ziq “o” unlisi. Qofiyani yuzaga keltirgan so‘zlarda qofiya ayblari uchramaydi, g‘azal ma’nosiga mos tarzda qofiyalar tanlangani, uning badiiy qimmatining oshishiga xizmat qilgan.

G‘urbatqa soldi charx meni yuz jafo bila,
Yod ayla men g‘aribni gohi duo bila.

Yuqoridagi bayt bilan boshlanuvchi g‘azalda ham cho‘ziq “o” unlisi mujarrad qofiyani yuzaga keltirgan.

G‘ayrga necha vafo qilg‘aysen?
Jonima necha jafo qilg‘aysen?

Bu baytda ham oshiqning ma’shuqasidan yozg‘irishlari sodda ravon uslubda chiroyli tashbehlar vositasida ochib berilgan.

Mujarrad qofiyaning ikkinchi turi undosh bilan tugallanib, shu undosh raviy bo‘lib hisoblanadi, undan oldin esa istagan qisqa unli kelishi mumkin. Bu unli tavjih deb yuritiladi. Demak, mujarrad qofiyaning bu turi bir qisqa unli bir undoshdan tashkil topadi. Masalan, Boburning

Ul parining tig‘idan qo‘rqutma meni, ey raqib
Ishqida boshimg‘a mening har ne kelsa yo nasib.

Ushbu baytda “raqib”, “nasib” “g‘arib”, “yosanib” so‘zlari qofiyadoshdir. Raviy “b” undoshi bilan yakunlanib undan oldin qisqa “i” unlisi kelgan.

Yoki:

Bo‘lmadim umrimda bir dam xotiri xurram bila,
Gar iliktin kelsa bir damni kechurmang g‘am bila.

Ushbu bayt bilan boshlanuvchi g‘azalda “m” undoshi raviy harfi bo‘lib xizmat qilgan. Raviydan oldin qisqa “a” unlisi kelgan.

Boburning devonidagi g‘azalida ham quyidagi baytlar uchraydi.

Eshigingda bosh urarmen telbalar yanglig‘ yurub,
Ey pari yo‘l ber visolingg‘aki,ketmay bosh urub.

Ushbu g‘azal qofiyalanishi yuqorida keltirilgan g‘azallardan biroz farqli bo‘lib, yurub, urub, sindurub, o‘lturub so‘zlarida raviy “r” undoshidir. Raviydan oldin qisqa “u” unlisi kelgan va mazkur qofiyani yuzaga keltirgan.

Quyidagi g‘azalda ham mujarrad qofiyaning namunasini uchratishimiz mumkin.

Shukrlillah,aysh yuzlandiyu mehnat qolmadi,
Yetti ayyomi visolu shomi furqat qolmadi.

Ushbu g‘azalda raviyni “t” undoshi yuzaga keltirgan. Raviydan oldin qisqa “a” unlisi kelgan.

Xulosa qilib aytganda, Bobur g‘azallarida qo‘llanilgan qofiyalar o‘zaro mutanosib va olimning yuksak did, so‘z tanlash qobiliyati hamda iste’dodini ko‘rsatib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2017.
2. Bobur Zahiriddin. Devon. – T.: Sharq, 1996.
3. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998.
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.

Shahribonu ABDUVOHIDOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti
princess13082001@gmail.com

KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK YO‘NALISHNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya: kommunikativ-pragmatik yo‘nalish tilni ijtimoiy muloqot vositasi sifatida o‘rganishga qaratilgan va tilshunoslikdagi muhim bir yo‘nalishdir. U tilning funksiyalarini, shuningdek, til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: *pragmatika, kommunikatsiya, pragmatika yo‘nalishlari, til va jamiyat, til funksiyalari.*

Аннотация: коммуникативно-прагматическая направленность ориентирована на изучение языка как средства вневременной коммуникации и в лингвистике является важным направлением. Она играет важную роль в понимании функций языка, а также взаимозависимости между языком и обществом.

Ключевые слова: *прагматика, коммуникация, направления в прагматике, язык и общество, функции языка.*

Annotation: communicative-pragmatic direction is focused on learning language as a means of social communication and considered as an important direction. It plays an important role in understanding the functions of language as well as the relationship between language and society.

Key words: *pragmatics, communication, language and society, functions of the language.*

Pragmalingvistika zamonaviy tilshunoslik tarmog‘i sifatida inson nutqiy faoliyati, bu jarayonda amal qiluvchi nolisoniy va lisoniy omillar uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratadi. “Pragmatika” (yunoncha: pragma – ish, harakat)

aslida falsafiy tushuncha bo‘lib, uni dastlab J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o‘zlashtirishgan. Natijada, falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan.

Mazkur yo‘nalishning asosiy taraqqiy davri XIX–XX asrlarni o‘z ichiga olgan. Pragmatizm g‘oyalari targ‘ibi, ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida kuchaygan. Pragmalingvistikada til birliklarining pragmatik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, nutqiy jarayonda pragmatik kompetentlikka erishish masalasiga ham alohida ahamiyat beriladi, nutqiy aktlarning semantik va pragmatik xususiyatlari, tagma’noning ifodalanishi, nutqning ta’sir mexanizmi tahlil qilinadi. [2]

Pragmatika tilshunoslik va semiotikaning kichik sohasi bo‘lib, u kontekstga hissa qo‘shish usullarini o‘rganadi. Pragmatika nutq akti nazariyasini, so‘zlashuv implikaturasini, o‘zaro ta’sirdagi nutqni o‘z ichiga oladi. Falsafa, sotsiologiya, tilshunoslik va antropologiyada til xulq-atvoriga boshqa yondashuvlar. Ma’lum bir tilda an’anaviy yoki "kodlangan" ma’noni tekshiradigan semantikadan farqli o‘laroq, pragmatika ma’noning uzatilishi nafaqat strukturaviy va lingvistik bilimlarga bog‘liqligini o‘rganadi. So‘zlovchi va tinglovchining (masalan, grammatika, leksika), balki so‘z kontekstiga, ishtirokchilar haqida oldindan mavjud bo‘lgan bilimlarga, so‘zlovchining taxminiy niyatiga va boshqa omillarga bog‘liq. Shu munosabat bilan, pragmatika til foydalanuvchilari ko‘rinadigan noaniqlikni qanday yengib o‘tishlari mumkinligini tushuntiradi, chunki ma’no tilga tayanadi. Gapning usuli, joyi, vaqti va hokazo.

Pragmatika so‘zlovchiga bog‘liq bo‘lgan ma’no va tildan foydalanish jihatlarini o‘rganadi. Adresat va nutq kontekstining boshqa xususiyatlari. Masalan, o‘zbek tilida: rangsiz yashil g‘oyalar darg‘azab uxlashmoqda. Bu misolni Chomskiy yozgan, u bu pragmatikani o‘z nutqida ishlatgan va haqiqiy pragmatik ekanligini isbotladi.

Ma’no bir vaqtning o‘zida tilning eng aniq xususiyati va o‘rganish uchun eng noaniq jihati bo‘lib tuyuladi. Bu ravshan, chunki biz tildan nima maqsadda foydalanamiz – bir-birimiz bilan muloqot qilish, "nima demoqchi bo‘lganimizni" yetkazish samarali. Lug‘atlar tilda so‘zlashuvchilarga uning so‘zlar zaxirasi haqidagi bilimlarini kengaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari ta’lim orqali ikkinchi tilni egallashga yordam beradigan materiallarni yaxshilaydi.

Milliy mentalitet bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy odobga xos til birliklari o‘rganiladi, ifodaning modal aspektiga xos baho kategoriyasining lingvistik reallashuvi masalasi ham pragmalingvistik tadqiqotlar sirasiga kiradi. Dunyo va o‘zbek tilshunosligida pragmalingvistikaning nazariy asoslarini o‘z ichiga olgan bir qator tadqiqotlar bor. Xususan, asosiy pragmatik kategoriyalar, nutqiy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, diskurs, pragmatik kontekst, nutqiy strategiya, nutqiy akt tuzilishi va boshqalar. [3]

T.A.Van Deykning izlanishlari alohida o‘ringa ega. Olim “Язык. Познание. Коммуникация” (“Til. Bilim. Muloqot”) asarida pragmatik kontekst va uning intrepretatsiyasi, diskursning kognitiv va pragmatik tomonlarini batafsil ilmiy tahlil qiladi. [4] U o‘z tadqiqotlari davomida matn faqat gaplarning o‘zaro bog‘lanishidan emas, balki nutqiy aktlarning ham o‘zaro munosabatidan tashkil topadi, degan xulosaga keladi, matnning pragmatik xususiyatlari, nutqiy akt, presuppozitsiya masalalariga chuqur yondashadi.

Amerika faylasufi va tilshunosi J.Serl izlanishlari pragmalingvistik nazariyalar rivojida katta ahamiyatga ega. Olim nutqiy akt nazariyasi va tasnifi, nutqiy akt illokutiv va propozitsional mazmuni o‘rtasidagi farqli jihatlar masalasida asosli fikrlarni ilgari suradi. J.Serlning tadqiqotlari bugungi kunda ham ifodaning semantik va pragmatik tuzilishi, nutqiy aktlar tasnifi borasida muhim nazariy manba sifatida xizmat qilmoqda. Ma’lumki, leksik birliklar matnni semantik tashkil qiluvchi, uning ta’sir xususiyatlarini reallashtiruvchi muhim tarkibiy qismdir. [5] Leksik birliklarning pragmatik xususiyatlari bir qator izlanuvchilar e’tiborini jalb qilgan. Jumladan, rus olimlaridan E.Aznaurova pragmatik ma’noni so‘z semantik strukturasining bir uzvi sifatida tadqiq etib, uning lingvistik maqomi, pragmatik mazmunni tahlil qilish tamoyil va tendensiyalarini atroflicha tahlil qiladi. Olima badiiy so‘z pragmatikasiga bag‘ishlangan monografiyasida pragmalingvistikaning asosiy tushunchalari sanaluvchi nutqiy muloqot tushunchasiga oid fikrlarini ham bayon qiladi.

Nutq va matnning lingvopragmatik va uslubiy tahlili o‘rtasidagi nomutanosiblik yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab beradi. Monografiyada ikki tomonlama kommunikativ akt lingvopragmatik tahlil predmeti ekanligi haqidagi fikr diqqatga sazovordir. Chunki pragmalingvistikaning asosiy masalalari qatorida qo‘llanilayotgan so‘zning ta’sir etuvchi elementlari, bu ta’sir turlari, murojaat qiluvchining javob reaksiyalari kiradi. Hatto zamonaviy davrda ham nutq aktining so‘zlovchi, tinglovchi so‘rovi va uning javobi bilan bir qatorda perlokatsion ta’siri sezilarli. Zamonaviy rus tilshunosligida A.Maslova antroposentrik paradigmaga xos yo‘nalishlar: lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, madaniyatlararo aloqa, nutqiy ta’sir nazariyasiga oid izlanishlari bilan mashhur. Olimaning “Введение в прагмалингвистику” (“Pragmalingvistikaga kirish”) o‘quv qo‘llanmasida mazkur sohaning asosiy tamoyil va tushunchalari chuqur yoritib berilgan.[7]

Bunday sharoitlarda to‘g‘ri muloqot qilish uchun, og‘zaki yoki yozma tildan foydalanamiz. “Menga kitobni bering!”, “Menga kitob bermoqchimisan?” Shuningdek, ma’lum sohalardagi leksikaga ham tegishli. Boshqa o‘zbek tilidagi misol: “Dars qilmaysanmi?” so‘roq gapi. Talaffuzidan turli ma’nolarni anglatishi mumkin holatlar: talab, ogohlantirish, taklif va boshqalar. “Dars qilmaysanmi, deb so‘rayapman (sendan)”; “Dars

qilmaysanmi? Buni sendan talab qilaman” (o‘qituvchi nutqi); “Dars qilmaysanmi? “Dars qilmaysanmi? (kel, darslarga taklif qilyapman)”

XX asrning 90-yillaridan o‘zbek tilshunosligida lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishidagi pragmatik jihatlar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar salmog‘i orta boshladi. Jumladan, pragmalingvistikaning muhim masalalaridan sanaluvchi til birliklarining konnotativ funksiyasi M.Mamadaliyeva [6], matnning ta’sir vazifasi, kulgi qo‘zg‘atuvchi vositalarning maqsadli tagma’noli matn hosil qilishdagi ahamiyati Sh.Abdurahmonov tomonidan monografik planda o‘rganildi [1].

Mazkur tadqiqotlar til birliklarining nutqiy jarayondagi qo‘shimcha ma’no qirralari, nutq idrok etilishining nutqiy vaziyat bilan bog‘liqligi borasidagi nazariy fikrlar va amaliy tahlillar umumlashgani bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda tilshunosligimizda pragmalingvistika alohida soha sifatida shakllanib ulgurdi. Mazkur o‘quv qo‘llanmada kommunikativ-pragmatik yo‘nalishning shakllanishi, pragmatikaning lisoniy-semiotik tizimdagi ustuvorligi, pragmalingvistikaning predmeti, nutqiy akt nazariyasi, semantika va pragmatika munosabati, pragmatik mazmunni shakllantiruvchi hodisalar, samarali muloqot tamoyil va qoidalari, deyksis va nutqiy muloqot matni, diskursning tuzilishi va uning tahlili masalalari jahon pragmalingvistikasiga oid qator manbalarni qiyoslagan holda nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Sh. O‘zbek badiiy nutqida kulgi qo‘zg‘atuvchi lisoniy vositalar: Filol. fan. nomzodi ... diss. – Toshkent, 1997. 147-bet.

2. Азнаурова Э. С. Прагматика художественного слова. − Ташкент: Фан, 1988. − С. 20.

3. Boymirzayeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fanlari d-ri... diss. avtoreferati. − Toshkent, 2010. 49-bet.

5. Ibragimova E. O‘zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari: Filol. fan. nomzodi ... diss. − Farg‘ona, 2001. 20-b.

6. Mamadaliyeva M. O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. − Toshkent, 1998. 29-bet.

7. Маслова А. Введение в прагмалингвистику. – Москва: Флинта. − С. 38.

8. Pazilova. “O‘zbek va ingliz metaforalarini qo‘yishda tekshirish”. “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari va chet tillarini o‘qitishda yondashuvlar”. Farg‘ona davlat universiteti fakulteti. 25-may, 2022-yil.



Gulsanam QAYUMOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi
Email: qayumovagulsanam111@gmail.com

XXI ASR QISSA VA HIKOYALARIDA YANGILANISH TAMOYILLARI

(Xayriddin Sultonov ijodi misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada Xayriddin Sultonov qissa va hikoyalari tahlili orqali XXI asr o‘zbek nasrining yangilanish tamoyillari ochib berilgan, shuningdek, hikoyalarning mazmun-mohiyati, yozuvchi mahorati va obrazlar haqida so‘z boradi. Hikoyalardagi realizm, psixologizmning ifodasi, o‘zbek hikoyalari bo‘yicha qilingan tadqiqotlar misolida bayon qilingan, mulohazalar yuritilgan. Yozuvchi hikoyalaridagi ilgari surilgan g‘oya bugungi kun muammolari doirasiga kirganligi, hayotiy voqealarni qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: *qissa, hikoya janri, hikoyachilik, nasr, realizm, pafos, talqin va tahlil, yozuvchi mahorati.*

Аннотация: в данной статье раскрываются принципы обновления узбекской прозы XXI века посредством анализа повестей и повестей Хайриддина Султанова. Описаны реализм в рассказах, выраженность психологизма, приведены примеры исследования узбекских рассказов и даны комментарии. Идея, выдвигаемая в рассказах писателя, значима, поскольку является частью сегодняшних проблем и освещает события жизни.

Ключевые слова: *рассказ, жанр рассказа, повествование, проза, реализм, пафос, интерпретация и анализ, писательское мастерство.*

Annotation: this article reveals the principles of renewal of 21st century Uzbek prose through the analysis of Khayriddin Sultanov's short stories and stories. Realism in the stories, the expression of psychologism, the examples of the research on Uzbek stories are described and comments are made. The idea advanced in the writer's stories is significant because it is part of today's problems and covers life events.

Key words: *short story, story genre, storytelling, prose, realism, pathos, interpretation and analysis, writer's skill.*

Hikoya badiiy adabiyotda eng kichik epik janrlardan biri hisoblanadi. Epik asar (masalan, roman, qissa va hikoya)da tasvirlangan hayot bo‘lib o‘tgan voqealar haqida taassurot qoldiradi (hozirgi zamon, bugungi kun haqida yozilgan epik asarda ham tasvir etilgan voqeani biz kecha bo‘lib o‘tgan hodisadek fahmlaymiz. [1;155] Yaqin o‘tgan davr mobaynida hikoya janri ko‘plab ilmiy kuzatishlarning obyekti bo‘lib keldi. Bu borada akademik M.Qo‘shjonov, N.V.Vladimirova, X. Do‘stmuhammedov, Sh.Doniyorova, G.Sh.Tavaldiyeva, G.Sattorova, S. Matyoqubov kabi olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovor. Bu olimlar o‘z tadqiqotlarida hikoya janrining o‘ziga xos xususiyatlari, g‘oyaviy-badiiy rivojlanish yo‘llari, pafosning aks etishi, milliy xarakter yaratish muammolari, yozuvchilarning o‘ziga xos uslubi kabi bir qator masalalarni o‘rganishgan. Adabiyotshunos va adabiy tanqidchilarning fikriga ko‘ra, har qanday badiiy xazinani ochuvchi – yozuvchi shaxsini va asarlarini tushunish, kashf etish, baholash kaliti – pafosdir. [2; 172]

Keyingi yillarda hikoya janrining rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan yozuvchilardan biri Xayriddin Sultonovdir. Adib zamonaviy inson ruhiyatini tasvirlaydi, qahramonning xatti-harakati, gap-so‘zlari, ichki dunyosi, o‘y fikrlarini tabiiy tarzda ochib berishga harakat qiladi. Qissa va hikoyalari o‘ziga xos uslubda yozilgan. Yozuvchining “Odamlardan tinglab hikoya” asarida keltirilgan voqealarni ham bevosita o‘zi ko‘rgan va eshitgan, ayrim qahramonlari bilan suhbatda bo‘lgan deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, yozuvchining “Ishonch telefoni” asari XXI asr badiiy nasr qissa va hikoyachiligida tom ma’nodagi yangilik asar bo‘ldi. Ushbu asarda xalqimizning yaxshi-yomon kunlarida yelkadosh bo‘lgani, bir-birini qo‘llab-quvvatlagani yoki har bir insonga Alloh bergan sinov va muammolar oldida sabrli bo‘lishi lozimligi uqtirilgan. Ma’rifatga, madaniyatga, odob-axloqqa va insoniylikka undovchi fikr-mulohazalar oddiygina suhbat tarzida yozilgan voqealar rivoji bilan yorqin ifodalab berilgan.

Bir inson o‘z hayotining qaysi nuqtasida turishi ko‘p jihatdan o‘tmishdagi qarorlariga bog‘liqdir. Asar aynan shunisi bilan qulay va qimmatliki, unda o‘ndan ortiq shaxsning hayoti kelib qolgan nuqtasidan turib, o‘z tilidan hikoya qilinadi. Qissada Maqsuda opa hikoya qilganidek, nohaq jabrlanganlarni, Qobilov kabi pastkash va muttahamlarni, Begmat Rajabovich kabi imoni butun soddadillarni, Telman Po‘latov kabi qariganda quyulganlarni uchratishimiz mumkin. Shuningdek, asarda Behro‘z kabi qilmishlaridan pushaymon, ammo kechikkan kimsalarni ko‘rib achinsak, Abduazim kabilarning soddaligi sabab yolg‘on merosga ishonib chuv tushgan, bor-yo‘g‘idan ayrilgan laqmalarni ko‘ramiz. Yozuvchi Elzod Eminov timsolida butun san’at ahlining hayotini, bu sohaning og‘ir mashaqqatlari borligini, noni qattiqligini ko‘rsatib beradi. Ilhom Soliyev orqali shifokorlik kasbining o‘ta mas’uliyatli ekanligini, ammo hozirgi kunda shifokorlar qadrlanmayotganini tushuntirmoqchi bo‘ladi. Har qanday yozuvchi ma’lum bir asarni to‘la-to‘kis, tushunarli hamda ma’no-mazmunli qilib yozishi uchun keltirayotgan kichik bir jumlasi ustida ham o‘ylanadi, izlanish olib boradi. Shifokor yoki huquqshunosni, oddiy aravakashni tasvirlash, obrazini yaratish uchun, ularning kasb-kori, hayotini o‘rganishi, muammo va qiyinchiliklarini his etishi lozim bo‘ladi. Shu sababli adabiyotshunoslik boshqa soha vakillari bilan chambarchas bog‘liqdir. “Ishonch telefoni” qissasi har bir qatlam soha vakillarini qamrab olganligi bilan jamiyatga tegishli asardir.

Qissadagi keltirilgan Behro‘zning otasi tom ma’noda jamiyatdagi barcha otalarga o‘rnak sifatida gavdalanadi. Ammo o‘z vaqtida oilasining qadriga yetmagan Behro‘z, qamoqda vijdon azobida qiynalishga majbur. Uning otasi haqida qisqacha aytadigan bo‘lsak, u to‘g‘ri va yuragi toza, farzandlari taqdiri xususida nihoyatda e’tiborli edi:

“Kimlar bilan o‘rtoq ekanimni, qayerlarda yurib-turishimni, darslarimni nihoyatda qattiq nazorat qilardi”.

Qanchalik ishi ko‘p bo‘lmasin, farzandlari uchun doimo vaqt topgan:

“Ishi qanchalik ko‘p bo‘lmasin, fursat topib haftada ikki marta meni havorang “kopeyka” “Jiguli”siga o‘tqazib, repetitorlarga olib borardi… Otam mashg‘ulot tugaguncha issiq-sovuqqa qaramasdan, tashqarida sabr-toqat bilan kutib o‘tirar edi”.

Faqat bir farzandining emas, hamma farzandining hayotiga e’tiborli bo‘ldi:

“Faqat men emas, ukam bilan singlimning ham o‘qib odam bo‘lishi uchun otam qo‘lidan kelgan hamma ishni qildi”

Insonning ustidagi haqlarini unutmagan. Xususan, jamiyat va boshqa insonning haqqini:

“O‘g‘lim, sening o‘qishing uchun hukumatimiz o‘ttiz besh ming dollar sarflagan, kelib besh yil davlatga ishlab berishing kerak, bo‘lmasa, Akram Asadovichning oldida yuzim shuvut bo‘lib qoladi, – dedi”.

Yomon bo‘lsa eng yomoni, yaxshi bo‘lsa, eng yaxshisi bo‘lishga urinadigan:

“O‘zining johiliyat davrida ichkilikka qanday berilgan bo‘lsa, endi dinga ham shunchalik berilib ketdi”[3]

Ammo hikoya so‘ngida farzandlari undan yuz o‘girishi, qarovsiz qoldirishi yoki shunday xorlikka tashlab qo‘yishiga ota loyiqmidi? Ko‘rinib turganidek, har bir hikoya qahramonidan bir necha xulosalar chiqarishimiz, o‘rni kelganda ulardan o‘rnak olishimiz lozim.

“Odam bo‘lgan odam” hikoyasi. Bir qarashda ushbu hikoya minglab oddiy insonlar orasidan ko‘z yumib tanlab olingan vrachning hayotida sodir bo‘lgan voqealar haqida yozilgan oddiy hikoyadek ko‘rinadi. Bosh qahramon Zikrilla Egamberdiyevning boshidan kechirgan qiyinchiliklari: ota-onasi ajrashib ketgani uchun yetimlikning nonini yeyishi, sovet tuzumi davrida “Xudo yo‘q” deb insonlarning ongiga singdirishlariga qaramasdan, boshqalardan yashirib bo‘lsada, o‘z

dinidan vos kechmasligi, ota-bobolarimizdan qolgan milliy urf-odatlarni ya'ni o'g'liga qilingan sunnat to'yni qamalib ketmasligi uchun yashirincha bajarishi, qari ota-onasi, xotini va yosh bolalarining o'zidan boshqa boquvchisi yo'qligiga qaramasdan urushga ketishga majbur bo'lishini o'quvchiga o'ta oddiy voqeadek aytib berishidan, Zikrillaning har qanday vaziyatda qayg'u va alamlar qilmasdan, shukronalik hissi bilan to'lib-toshgan inson ekanligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, har bir ota-ona farzandi uchun qayg'urishi, o'ylashi, qo'lidan kelgancha yordamini ayamasligi, boshqa ota-onalardagi kabi mehr-muhabbatli ekani Zikrilla Egamberdiyevning ota-onasi timsolida gavdalanadi. Ular o'g'li kichiklik vaqtidan ajrashib ketishganiga qaramasdan, uni hamisha yaxshi ko'rishadi. Onasi vaboga chalingan vaqtda ham bir marta hushiga kelib, "Zikrilla qani?" deydi-yu, yana hushidan ketadi.

Hikoya bosh qahramoni Zikrilla medtexnikumda o'qib yurgan vaqtlarida, komsomol byurosidan komissiya kelib, har bir talabaga "Xudo bormi, yo'qmi?" degan savol beradi. "Yo'q" desa, komsomol a'zoligiga o'tkazib, o'qishda qoldirishadi, bor desa o'qishdan haydashadi. Shunday vaziyatda Zikrilla tushkunlikka tushib qoladi. Otasi unga quyidagicha maslahat beradi:

"Bu dunyoda o'limdan boshqa hamma narsaning iloji bor, – dedi dadam. –Hech ko'nglingni buzmasdan, ertaga to'g'ri kamsomoningni (komsomolni shunday deb aytdi) majlisiga boraver. "Xudo bormi, yo'qmi?" deb so'rasa, kalimai shahodatni aytib javob ber".

– "La ilaha illolloh" degani "Xudodan boshqa Xudo yo'q" degani. Sen "Xudodan boshqa" degan so'zni dilingda aytasanda, "Xudo yo'q" degan so'zni komissiyaga eshittirib, tilingda aytasan. Tamom-vassalom. Xudoning oldida ham, komissiyani oldida ham gunohkor bo'lmaysan". [4;286] Ko'plab qiyinchiliklarga qaramasdan hayotida bor narsalar uchun hamisha shukr qilolgan Zikrilla Egamberdiyev, urushda duch kelgan qiyinchiliklarini ham mardonavor, hech qanday tashvishga tushmasdan bosib o'ta oladi. Boshiga snaryad qadalib qolgan askarni joni qil ustida turgan holatda operatsiya qiladi. Nemis samolyoti tashlagan bombadan so'ng, tuni bilan halokatga uchragan poyezd vagonidan qochib ketgan otlarni quvlab tutishga uringanlarini oddiy holdek gapirib beradi. Hikoyada ko'plab voqealarning qisqa, lo'nda va dard-alamlarsiz aytib berilishi, asardagi badiiy psixologizmni shakllantirgan. Badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishdagi muhim unsurlardan biri badiiy psixologizm sanaladi. Badiiy psixologizm deyilganda personaj ruhiyatining ochib berilishi, uning xatti-harakatlari, gap-so'zlarning psixologik jihatdan asoslanishi tushuniladi. [5;74] Zikrilla obrazining hikoyani osoyishta va oddiy yo'sinda tasvirlab berishi o'qiguvchida qahramonga bo'lgan hurmat hissini uyg'otadi. Hamisha yaxshiliklarga ishonishga, qiyinchiliklar kelganda to'xtab qolmaslikka, doimo olg'a yurishga undaydi.

"Millatchining jazosi" hikoyasi. Ko'p hollarda tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarni yozuvchi mas'ul shaxslarning mas'uliyatsizligi, savodsizligi sabab ism-familiyalar xato yozilib, o'zgarishsiz qolayotganining guvohi bo'lamiz. Mana shunday og'riqli nuqtamizni yozuvchi Xayriddin Sultonov o'zining "Millatchining jazosi" hikoyasi orqali achchiq kinoya tarzida ko'rsatib beradi. Ushbu hikoyani realizmning yaqqol dalili sifatida keltirishimiz mumkin. "Voqelikni to'g'ri tushunish va uni hamma ziddiyatlari bilan badiiy obrazlarda haqqoniy in'ikos ettirish realizm deb ataladi. Realizm hayotdan nusxa ko'chirish emas, hayotni fikr "elagi"dan o'tkazib, uning "mag'zini chaqib" tasvirlashni talab qiladi." [1;249] Hikoyada Jamolitdin Buzrukov ismli qahramon pasportini yangilash uchun tegishli idoraga boradi va Nazimov Batir Yuldashevich atalmish mas'ul bilan talashib-tortishib, yangi pasportiga ismini "Jamoliddin" deya o'zgartirib yozdiradi. O'zini g'olib sanab, millatning jonkuyari hisoblab idoradan chiqadi. Hamma balo shundan so'ng boshlanadi. Katta bir idoraga bo'lim boshlig'i bo'lib tayinlanish arafasida pasport va diplomi ikki xil bo'lib, pattasini qo'liga tutadi. Undan so'ng uy ham "Jamolitdin" nomida bo'lib, Jamoliddin ismi tan olinmaydi. O'ylab ko'rsa, o'ttizdan ortiq nomni pasportga qo'shib almashtirishi kerak edi.

Shuncha muammoli vaziyatdan gangigan Jamoliddin yana qayta "Jamolitdin" bo'lish uchun bosh egib, Batir Yuldashevichning yoniga boradi. Uzr so'rab Jamolitdinlikka qaytadi. Bilsaki, Batir Yuldashevichning o'zi ham ism-familiyasi, hatto otasining ham ismi noto'g'ri yozilganini bilar, ammo buni to'g'rilasa, cheksiz muammolarga duch kelishini anglab o'z holicha qoldirishga majbur ekan…

Xayriddin Sultonovning yuqorida keltirilgan qissa va hikoyalarida inson qalbidagi iztiroblar, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar, inson tafakkurining badiiy talqini o'z ifodasini topgan. Yozuvchining mahorati shundaki, hikoyalari uzoq o'yga toldiradi, hayotning ma'no-mazmuni haqida mushohada qilishga undaydi. Hikoya tili sodda va xalqchil. Hozirda o'zbek qissa va hikoyachiligi mavzuning badiiy talqini, odamning orzu-umidlari, shaxsning kechinmalari, inson psixologiyasini tahlil etish yo'lidan bormoqda. Mohiyatga evrilgan badiiy talqinlarda o'zlikni anglashga intilish kuchli, bu Xayriddin Sulton hikoyalarida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2005.
2. Hotam Umurov. Adabiy ijod asoslari. – Samarqand: SamDU nashri, 2019.
3. Xayriddin Sulton. Ishonch telefoni. Qissa. – Toshkent, 2024.
4. Xayriddin Sulton. Odamlardan tinglab hikoya. Hikoyalar to'plami. – Toshkent: "Adabiyot", 2020.
5. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

Yulduz SHAYMANOVA,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi



ERKIN VOHIDOV POEZIYASIDA O‘ZLASHMA FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI HAQIDA

Annotatsiya: maqolada frazeologizmlar, o‘zlashma iboralarning o‘ziga xos xususiyatlari, erkin va turg‘un birikmalarning E.Vohidov she’rlari misolida qo‘llanilishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *poeziya ,frazeologik ma’no, metafora, o‘zlashma iboralar, baho berish funksiyasi, emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikni ifodalash vositasi, kinoya, kesatiq, ta’sirchanlik doirasining oshishi.*

Annotation: the article discusses the use of phraseologisms, specific features of borrowed expressions, free word combinations and collocations in the example of E. Vahidov‘s poems.

Key words: *poetry, phraseological meaning, metaphor, idioms, evaluation function, means of expressing emotional-expressive coloring, irony, sarcasm, increase in affectivity.*

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы употребления фразеологизмов, особенности заимствованных выражений, свободных словосочетаний и словосочетаний на примере стихотворений Э. Вахидова.

Ключевые слова: *поэзия, фразеологическое значение, метафора, идиомы, оценочная функция, средства выражения эмоционально-экспрессивной окраски, ирония, сарказм, повышение аффективности.*

Shoir Erkin Vohidov poeziyasida erkin birikmalarni ko‘chma, frazeologik ma’noda qo‘llash asosida yuzaga kelgan o‘zlashma iboralar, ayniqsa, kuchli uslubiy maqsad ifodalashi bilan alohida ajralib turadi. Bunday iboralar shoir asarlarida jonli, original metaforalardek tasavvur uyg‘otadi: *Qaddini kamon etib, yuzda tabassum izi //Kechasi sukunatga quloq tutar yangi oy* [1-tom,47]; *Olam sirdoniga kalit topganlar// Qalb uyin ochganlar bo‘lgan xoru zor* [2-tom,303]; *Zulm qo‘rganiga qila ber hujum // Bilki, biznikidir, nihoyat, zafar// Dunyoda bor ekan eng so‘nggi mazlum // Sharqiy sohillarda o‘lmas mash’allar* [2-tom, 124] kabilar.

Erkin Vohidov she’riyatida qo‘llangan o‘zlashma iboralarning ma’lum qismi biror predmet yoki voqea-hodisani nomlash bilan birga ularga salbiy yoki ijobiy baho berish funksiyasini ham bajaradi. Masalan, “Sharqiy qirg‘oq” nomli she’ri (1979) da *“ko‘ngli cho‘kmoq”, “charxi kajraftor”, “hokisor qilmoq”* singari bir qator o‘zlashma iboralar bir band tarkibida qo‘llanib, lirik qahramon ichki kechinmalarini baholash funksiyasini bajarishga xizmat qilgan: *//Boqib ko‘nglim cho‘kdi necha martaba // Nega bunda qilding, charxi kajraftor ?// Bir sohilga berib yuksak martaba // Boshqa bir sohilni qilding xokisor*? [2-tom, 222].

O‘zbek tilidagi ko‘pgina o‘zlashma iboralar uchun ekspressiv emotsional bo‘yoqdorlik ajralmas xususiyat sanaladi. Masalan, shoir ijodida “baxti boqiy bo‘lsin”, “baxti butun bo‘lsin”, “ baxti qaro bo‘lmoq”, “baxti qaro qilmoq” singari o‘zlashma iboralar ham xuddi shunday emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikni ifodalash vositasi sifatida qo‘llanilgan: *Baxti boqiy bo‘lsin//, “Ammo bu jannat”// Qadrin bilarmikan hozirgi yoshlar!* [2-tom, 31]; *Baxti butun bo‘lsin // Toleyi bekam //Shularning borligi mening iqbolim* [2-tom, 34]; *Shafqat etmay baxtim qaro qilganlar // Shafqatga zor, baxti qarolar bo‘lgay // Meni vatanimdan judo qilganlar //Vatanda vatandan judolar bo‘lgay* [3-tom, 108] kabilar.

Umuman olganda, o‘zlashma frazeologizmlarning ma’no tuzilishi so‘znikiga nisbatan ancha murakkab, chunki o‘zlashma frazeologizmdagi ma’no munosabatlari bilan uning komponent tarkibi o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud. Masalan, E.Vohidov poeziyasida *“bag‘ir”, “bosh”, “bo‘yin”, “manglay” (“peshona”), “dil”, “yelka”, “jigar”* singari kishi a’zolarining nomlari – somatizmlar ishtirok etgan o‘zlashma iboralarning asosiy qismi shaxsning turli xil tavsifini ifodalaydi va xilma-xil uslubiy maqsadlar uchun xizmat qiladi. Jumladan, etimologik jihatdan mo‘g‘ulcha bo‘lgan *“manglay”* [O‘TIL,1,445] somatizmi yordamida *shakllangan “manglayiga bitmoq”, “manglayiga sig‘maslik”, “manglayi sho‘r”, “manglayi qora”* singari o‘zlashma iboralar shoir E.Vohidov asarlarida shaxsning turli xil tavsifini ifodalash uchun muhim uslubiy vosita vazifasini bajargan: *Bir mo‘minga doim bir qotil // Esh bo‘lganday yorug‘ dunyoda // Manglayiga bitgandi xotin // Azroildan o‘n bor ziyoda [2-tom, 146]; Qadam qo‘ygan eding shaxmat shoxining // Qarorgohi ostonasiga // Otang manglayiga sig‘mading // Sig‘mading o‘zbekning peshonasiga* [2-tom, 163]; ... *Oxirat men - // manglayi sho‘r - // Nima deyman // So‘roq kun* ?[2-tom,202]; *Savod yo‘qligidan tushunmay, e voh // Nabiralar ko‘rgan manglayi qora // Turmush – taqdir ishi, tabarruk nikoh // Ko‘ngil ishi, deya bildi bechora* [3-tom, 114] kabilar.

Shoirning “Chiston” sarlavhali quyidagi she’riga diqqat qilaylik: *Ul adib kimdirki, doim // Katta pinjida yurar // Mansabu unvon mukofot // Mulk ilinjida yurar // Tushsa ham otdan va lek // Hargiz egardan tushmagay // Gar tramvay minsa ham // Nomer birinchida yurar* [3-tom, 79]. Bu matnda *“pinjida yurmoq”* o‘zlashma iborasi birovning panohida, soyasida yurib, ishni bitiradigan kimsalar xatti-harakatini nomlaydi *“nomer birinchi yurmoq”* o‘zlashma iborasi esa lirik qahramonning manmanlik, takabburlik xislatlarini ta’kidlash uchun xizmat qilgan.

Shuni inobatga olish lozimki, ayrim o‘zlashma iboralar E.Vohidovning “Donishqishloq latifalari”da

personajlar nutqini, uning so‘zlash ohangidagi yumoristik yoki satirik ohangni ta’kidlash uchun vosita vazifasini bajargan. Masalan, “Matmusaning Amerika ochishi” she’rida *“xalq yo‘li – haq yo‘li”, “suv kelsa simirmoq, tosh kelsa kemirmoq”, “Amerika ochmoq”* o‘zlashma iboralari Matmusa nutqi tarkibida soddalik, g‘ayriodatiy ishonuvchanlik xislatlarini achchiq kinoyasi sifatida jaranglaydi: *Lekin u yo‘ldan qaytmas // Der, bu yo‘l haq yo‘lidir // Xalq uni tanlagan, bas // Demak, u xalq yo‘lidir // simiramiz suv kelsa // Tosh kelsa kemiramiz // Ochamiz Amerika // So‘ng uni yemiramiz* [3-tom, 185]

She’riy nutq tarkibida ba’zan o‘zlashma frazeologizm bilan oddiy so‘z yonma - yon kelib, uyushiq bo‘lak vazifasini bajarishi so‘z ifodalaydigan ekspressiv ma’noni kuchaytirishga, gradatsiyani vujudga keltirishga xizmat qilishi mumkin. Masalan, “Palatkada yozilgan doston”da “*unu kepakka ajralmoq*” va *“sarak-sarakka-yu, puchak-puchakka ajralmoq”, “jonim xalqimga fido bo‘lsin”* va “jon xalqumga kelib qoldi” o‘zlashma iboralarning bir matnda yonma-yon qo‘llanilishi kuchli gradatsiya ifodasi uchun xizmat qilgan: *Odamlar ajraldi // Unu kepakka // Sarak – sarakka-yu // Puchak- puchakka // Bir do‘stim so‘zlardi // Minbardan turib // Burch, vijdon haqida // Ko‘ksiga urib // Dedi: fido bo‘lsin || Jonim xalqimga... // Bu kun kelib qoldi // Joni xalqumga // Qalbim payvand derdi // O‘sgan yerimga // Tonggi reys bilan // Uchdi Qrimga ...* [1-tom,332]. Quyidagi misolda ham o‘zlashma iboralar takrori yordamida gradatsiya hosil qilingan: *Bozorimiz o‘sha bozor // Oloy, Eski Jo‘vamiz // Maqol o‘sha, pul bo‘lsa gar // Changaldadir sho‘rvamiz // Bir to‘rva pul bilan tushsak // To‘lib chiqmas to‘rvamiz // Barakalla, epchil yig‘it // Qandingni ur, Mirvaqqos // Kasbing o‘sha, nafsing o‘sha // Eski hammom, eski tos* ... [3-tom, 65] kabi.

Ma’lumki, she’riy nutqda qofiya bir -biriga ohangdosh so‘zlarning birin-ketin tizilib kelishi va shu asosda ohangdoshlik, musiqiylikni vujudga keltirishni ifoda etadi. Shoir Erkin Vohidov ham ayrim she’rlarining qofiyasini o‘zlashma iboralar takrori asosiga quradi, bu esa musiqiylikning kuchayishini ta’minlaydi. Masalan, adabiy tilda “*sho‘rini quritmoq*” o‘zlashma iborasi bo‘lib, “baxtsizlikka yo‘liqtirmoq, xarob qilmoq” ma’nolarini bildiradi (O‘TFL, 298). Shoir yetti baytli “Amaldorlar talashib o‘rin” she’ri (1988) ning har bayti oxirida “*sho‘rini quritmoq*” o‘zlashma iborasini keltirib, uning biror yangi qirrasini, semasini namoyon qilishga intiladi. Achchiq zaharxandaga asoslangan bu she’rda amaldor, shaxmatchi, olim, qassob, shoir singari kasb vakillarining bir-biriga azob berishi, sho‘rini quritishga intilishi asosli ifodasini topgan: *Amaldorlar talashib o‘rin // bir-birining quritar sho‘rin // Tentak bermay tentakka to‘rin // Quritadi tentakning sho‘rin // Shaxmatchilar izlashib zo‘rin // Bir – birining quritar sho‘rin // Olim topib olimning g‘o‘rin // Kasbdoshining quritar sho‘rin ...* [3-tom, 72].

Adabiy tilda xursandlik, shod-xurram bo‘lib, yallo qilib yurish ma’nosini bildirish uchun “*do‘ppisini yarimta qilib”, “do‘ppisi osmonda*” iboralari qo‘llaniladi (O‘TFL,79). Shoir Erkin Vohidov xuddi shu ma’noni ifodalash uchun “*do‘ppisini dol qo‘ndirmoq*” o‘zlashma iborasidan foydalanadi. “Do‘ppisini yarimta qilib yurmoq” umumtil iborasi tarkibidagi “yarimta” so‘z – komponentini arabcha harfni ifodalovchi “dol” (O‘TIL,1,232) bilan almashtirish asosida yuzaga kelgan bu o‘zlashma ibora kitobiylik, ta’sirchanlik doirasining oshishiga vosita bo‘lgan: *Qahramonim // O‘ltiribsan sen // Ro‘paramda kamtarin, dono // O‘z ishingni do‘ndiribsan sen // Do‘ppini dol qo‘ndiribsan sen // Tuproqda zar undiribsan sen ...* [2-tom, 19].

Shunday qilib, o‘zlashma frazeologizmlar badiiy va publitsistik matnlarda turli xil uslubiy maqsadlarda qo‘llanilmoqda. Bu jihatdan taniqli shoir Erkin Vohidov alohida mahorat ko‘rsatgan. Shoirning bu sohadagi badiiy mahoratini tadqiq etish o‘zbek uslubshunosligi va frazeologiyasining dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov X . O‘zbek tili stilistikasi . – Toshkent: O‘qituvchi,1983.248- b .
2. Shukurov N. Jonim – she’riyatim (Erkin Vohidov adabiy portretiga shtrixlar) // Shukurov N.So‘z sehri, she’r mehri (adabiy – tanqidiy maqollar). – Samarqand: “Zarafshon” nashriyoti, 1992.151-172-betlar.
3. Vohidov E. Saylanma.Birinchi jild. Ishq savdosi. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2000. 416- b.
4. Vohidov E. Saylanma. Ikkinchi jild. She’r dunyosi. –Toshkent: “ Sharq” nashriyoti- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001. 352-b.
5. Vohidov E. Saylanma. Uchinchi jild. Umrim daryosi. –Toshkent: “Sharq” nashriyoti- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.400-b.
6. Baho mazmunini ifodalovchi birliklarning gap tarkibida ifodalanishi
S Yulduz Qishloq Xo‘jaligi, Atrof-Muhit Va Barqaror Rivojlanish Milliy Konferensiyasi …
7.O‘zbek Tilidagi Neologizmlarning Tasnifi Classification Of Neologisms In The Uzbek Language Y Shaymanova, Z Qarshiboyeva
Qishloq Xo’jaligi, Atrof-Muhit Va Barqaror Rivojlanish Milliy Konferensiyasi …
8. RUS OLIMI AN SAMOYLOVICHNING SHARQ TILLARINI O’RGANISHGA QO’SHGAN HISSASI YT Shaymanova, ZA Qarshiboyeva

9. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2 …
Rus olimi AN Samoylovichning Sarq tillariga qo'shgan hissasi SY Toshniyazovna
QISHLOQ XO'JALIGI, ATROF-MUHIT VA BARQAROR RIVOJLANISH MILLIY KONFERENSIYASI …
10.Theoretical Substantiation of the Formation of the Language Competence of Students in the Course of Studying Syntactic Norms
SY Toshniyazovna, EM Beknazarovna
Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities 18, 63-65

O'g'iloy NAIMOVA,
BuxDPI IV bosqich talabasi



JAHON KULGI MADANIYATINING BADIIY ADABIYOT TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy adabiyot janrlari syujetida kuzatiladigan xalq maydon kulgi san'ati bilan bog'liq kinoya, piching, makoronizm, paralingvistizm, florionim, faunim, vulgar so'zlar, qochirim kabi kulgi vositalari orqali satirik va yumoristik matn yaratish tamoyillari aniqlangan.

Kalit so'zlar: *askiya, lof, latifa janrlar, yozma adabiyot, ta'sir, o'rganish, masala, Demokrit, kulgi, falsafa, dunyoni o'ylash, xususiyat, Uyg'onish davri va hokazo.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются принципы создания сатирико-юмористического текста средствами смеха, такие как сарказм, качка, макаронизм, паралингвистика, флорионим, фауним, вульгарные слова и шутки, относящиеся к искусству публичного смеха, наблюдаемые в определяются сюжеты современных литературных жанров.

Ключевые слова: *анекдоты, анекдотические жанры, письменная литература, влияние, исследование, материя, Демокрит, смех, философия, мышление о мире, характер, Возрождение и др.*

Annotation: in this article, the principles of creating a satirical and humorous text through the means of laughter, such as sarcasm, pitching, makoronism, paralinguistics, florionym, faunim, vulgar words, and jokes related to the art of public laughter observed in the plot of modern literary genres, are determined.

Key words: *witticism, fictitious, anecdotal genres, written literature, influence, study, matter, Democritus, laughter, philosophy, thinking about the world, character, Renaissance, etc.*

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifa bo'lib qoldi. Gap madaniy qadriyatlar, ma'naviy meros haqida ketar ekan, ulug' ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy merosni o'rganish va asrab avaylashga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish zarurligi oydinlashadi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi adabiyotshunoslikda ham, jumladan, askiya, lof, latifa janrlarining yozma adabiyotga ta'sirini o'rganish masalasida bosib o'tilgan yo'lni kuzatish, erishilgan yutuqlarni saralash, ularni yangicha mafkura, yangi nuqtayi nazardan baholash zarurati yuzaga keladi.

Badiiy adabiyot musiqa san'atiga xos bo'lgan tovush va ohang imkoniyatlaridan ham, rassomlik san'atida qo'llanadigan rang va tasvir usullaridan ham, ilm-fan sohasidagi kuzatish, tanlash, baho berish, tahlil etish, xulosa chiqarish kabi prinsiplardan ham foydalanishi mumkin. Lekin xalqning yurak ohanglariga benihoya mos bo'lgan folklor adabiyoti ta'sirida yozilgan zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalarida lutf-u nazokat beqiyosdir.

Kulgilik – insonning voqea va hodisalarga o'ziga xos munosabatidir.Bunday qarashni mavjud voqelik va uning beo'xshov tomonlari tashkil etadi.

Mixail Baxtinning ta'kidlashicha, "Fransua Rablening o'zi xalq kulgisi nazariyasini asosan, Gippokratga bag'ishlangan romanining to'rtinchi kitobi eski va yangi muqaddimasida ishlab chiqdi" .

O'sha davrda kulgi nazariyotchisi sifatida Gippokratning roli juda katta edi. Shu bilan birga, ular nafaqat uning tibbiyot risolalarida shifokor va bemorlarning quvnoq va xushchaqchaq kayfiyatining kasalliklarga qarshi kurashdagi ahamiyati haqidagi mulohazalariga tayangan. Bu "Gippokrat to'plami"ga ilova qilingan Gippokratning "Demokritning jinniligi" haqidagi yozishmalari, uning kulgisida ifodalangan. Gippokrat romantikasida Demokritning kulgisi falsafiy,

dunyoni o‘ylash xususiyatiga ega bo‘lib, uning mavzusi sifatida inson hayoti va xudolar, keyingi hayot bilan bog‘liq barcha diniy-falsafiy mulohazalardan iborat. Gippokrat bu yerda kulishni yaxlit dunyoqarash sifatida, yetuk va uyg‘ongan shaxsning o‘ziga xos ruhiy munosabati sifatida asoslaydi. "Gippokrat romani"ning kulgining shifobaxsh kuchi haqidagi ta’limoti va kulgi falsafasi dars sifatida Monpelyedagi tibbiyot fakultetida alohida e’tirof etilgan va o‘qitilgan.

Abu Ali Ibn Sino “bemor kulayotgan lahzalarda yuz foiz sog‘lom odam holatida bo‘ladi”. Ushbu fakultetning a’zosi, mashhur shifokor Loran Juber 1560-yilda kulgiga oid maxsus risolasini xarakterli sarlavha ostida nashr etdi. Buyuk yunon fotihi Aleksandr Makedonskiy (mil.avv. 356-323)ning ustozi, ulug‘ faylasuf Aristotelning mashhur formulasi bor: “Barcha tirik mavjudotlar ichida faqat odam kulishga qodirdir”. Bu formula Rabele davrida juda mashhur edi va bu boshqa mavjudotlarga erishib bo‘lmaydigan insonning eng ruhiy imtiyozi hisoblanadi. Kulgi Xudoning bir odamga in’omi sifatida bu yerda insonning butun olam ustidan qudrati bilan, uning aqli va ruhi bilan bog‘liq holda berilgan, bunday xususiyat boshqa jonzotlarda mavjud emas. Aristotelning so‘zlariga ko‘ra, bola tug‘ilgandan keyingi qirqinchi kunidan kula boshlaydi. U faqat o‘sha paytdan boshlab birinchi marta erkak bo‘ladi. Rable va uning zamondoshlari ham Pliniyning dunyoda faqat bir kishi tug‘ilgandanoq kula boshlagani haqidagi gapini bilishgan – Zardusht; bu uning ilohiy hikmatining alomati sifatida qabul qilingan. Nihoyat, Uyg‘onish davri kulgi falsafasining uchinchi manbai – Lusian, ayniqsa, uning keyingi hayotda kulayotgan Menippus obrazi.

Bu davrda, ayniqsa, mashhur bo‘lgan Lukianning "Menippus" yoki "Yer osti dunyosiga sayohat" asaridir. Bu ish Fransua Rablega, ya’ni Epistemonning yer osti dunyosida qolishi epizodiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi ("Pantagruel"). Uning “O‘liklar olamidagi suhbatlar” asari ham xalq kulgisining yozma adabiyotga kirib kelishida ilk qadamlar vazifasini o‘tadi.

Mana bu oxirgi qismdan ba’zi xarakterli parchalar. "Menippus Diogen maslahat beradi; agar siz yer yuzida sodir bo‘layotgan voqealarga yetarlicha kulib qo‘ygan bo‘lsangiz, bizga (ya’ni oxiratga) boring, u yerda kulish uchun yanada ko‘proq sabablarni topishingiz mumkin; Yer yuzida sizni ba’zi shubhalar kulishingizga to‘sqinlik qildi, masalan: "Qabrdan keyin nima bo‘lishini kim biladi?" "Mana, men kulganimdek, siz ham tinmasdan va hech ikkilanmasdan kulasiz” . Bu Uyg‘onish davri kulgi falsafasining eng mashhur uchta qadimiy manbalari.

Ular nafaqat Juberning risolalarini, balki gumanistik va adabiy muhitda mavjud bo‘lgan kulgi, uning ma’nosi va ahamiyati haqidagi mulohazalarini ham aniqladilar. Uchala manba ham kulgini universal, dunyoni o‘ylaydigan, shifo beruvchi va jonlantiruvchi, mohiyatan so‘nggi falsafiy savollar bilan, ya’ni Montagin o‘zi haqida o‘ylagan "hayot va o‘limni tartibga solish" savollari bilan bog‘liq deb belgilaydi. Yana bir bor ta’kidlab o‘tamizki, kulgining Uyg‘onish nazariyasi (shuningdek, biz tavsiflagan qadimiy manbalar) kulgi ortida ijobiy, jonlantiruvchi, ijodiy ahamiyatga ega ekanligini tan olish bilan tavsiflanadi.

Bu kulgining keyingi nazariyalari va falsafalaridan keskin ajratib turadi, jumladan, kulgida o‘zining salbiy funksiyalarini ilgari surgan Bergsongacha. Biz tavsiflagan qadimiy an’ana Uyg‘onish davri nazariyasi va kulgi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kulgi adabiy an’anasi yozma adabiyot sahifalariga ko‘chib, uni gumanistik g‘oyalarning asosiy oqimiga kiritdi. Uyg‘onish davri kulgining xuddi shu badiiy amaliyoti, birinchi navbatda, o‘rta asrlarning xalq kulgi madaniyati an’analari bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O‘rta asrlarda rasmiy kult va dunyoqarashdan siqib chiqarilgan qahqaha har bir bayram tomi ostida norasmiy, ammo deyarli qonuniy uyaga aylandi. Shuning uchun, har bir bayram, uning rasmiy-diniy va dunyoviy tomoni yonida, shuningdek, ikkinchi, xalq-karnaval, kvadrat tomoni bor edi, uning tashkiliy boshlanishiga ijtimoiy asos kulgidir. Nihoyat, kulgi va moddiy-jismoniy tamoyil bayramlar, ko‘chalar, maydonlar va uydagi o‘yin-kulgilarda qonuniylashtirildi, ma’naviy ehtiyoj sifatida badiiy adabiyot tanasiga singa boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshonqulov L.N. “Yoshlar estetik tafakkurini shakllantirishda hajviylikning kognitiv ahamiyati. Fals.fan.bo‘y. fals.dokt.disser.avtoreferati. – Samarqand, 2022. 15-bet.
2. Baxtin M.M. “Rable I istoriya smexa”. – Moskva. Xudojestvennaya literature. 1965. Str-76
3. Aristotel. “O dushe”.kn. III. gl. Str 10.
4. Zelenskiy, Bogayevskiy. Asarlar. I jild. – Moskva: Nauka, 1915. 188-bet.

Мохчехра АБДУСАЛОМОВА,
преподаватель Самаркандского Государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий



Савлат ГАФУРОВА,
преподаватель Самаркандского Государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий



МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУППАХ ВУЗОВ И В ШКОЛЕ

Аннотация: методика русского языка в национальной школе и вузе должна подготовить возможность для сознания специфики родного языка в каждом конкретном случае изучения явления русского языка, но прямое обращение к родному языку должно быть строго нормированным. Статья посвящена актуальным вопросам методики преподавания русского языка как неродного, в условиях среднего и высшего образования, а также рассматриваются условия становления языковой личности и роль методической науки в развитии коммуникационных способностей.

Ключевые слова: *коммуникативные умения, языковая система, лингвистика, двуязычие, речевые умения, русист, речевая деятельность.*

Annotatsiya: maktab va universitetlarda rus tili metodologiyasi rus tili fenomenini o‘rganishning har bir aniq holatida ona tilining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish imkoniyatini tayyorlashi va ona tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilishni qat'iy standartlashtirish kerak. Ushbu maqola o‘rta va oliy ta'lim sharoitida rus tilini ona tili sifatida o‘qitish usullarining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda til shaxsini shakllantirish shartlari va muloqotni rivojlantirishda metodologiya fanining o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *muloqot qobiliyatlari, til tizimi, tilshunoslik, ikki tillilik, nutq qobiliyati, rus mutaxassisi, nutq faoliyati.*

Annotation: the methodology of the Russian language in national schools and universities should prepare the opportunity for awareness of the specifics of the native language in each specific case of studying the phenomenon of the Russian language, but direct reference to the native language should be strictly standardized. The article is devoted to topical issues of methods of teaching Russian as a non-native language in the context of secondary and higher education, and also examines the conditions for the formation of a linguistic personality and the role of methodological science in the development of communication abilities.

Keywords: *communication skills, language system, linguistics, bilingualism, speech skills, Russian specialist, speech activity.*

Введение

Быстрые темпы научно-технического прогресса выдвигают всё более сложные требования, в настоящее время может только успешно работать тот педагог, который эффективно обучает и воспитывает молодежь, который хорошо знает основы и современное состояние преподаваемой науки, развитие комплекса умений и навыков, связанных с основными видами речевой деятельности (чтение, говорение, аудирование, письмо) в общественно-политической, социально-культурной сферах общения [1]. В содружестве народов русский язык фактически стал языком межнационального общения, и его роль в укреплении их единства и сотрудничества постоянно повышается. Овладение русской речью в школе и в вузе – это не столько усвоение готовых образцов, запоминание модели, произнесение заученных текстов (хотя и очень важно, особенно в младших классах), сколько умение применить усвоенный языковой материал.

Литература и методология

Учителя русского языка, преподаватели-русисты были и остаются инициаторами нововведений в обучении и воспитании молодежи. На них смотрят как на образец, берут с них пример. Всё это свидетельствует о наличии духа русского языка, который необходимо беречь, умение передавать будущим учителям русского языка [2]. Этот дух выражается в общей культуре учителей русской словесности, всех тех, кто владеет русским языком, проявляется в их искренности, трудолюбии, кругозоре и еще во многих других положительных качествах.

В основе преподавания методики русского языка в любой национальной школе лежит взаимосвязанное изучение устной и письменной речи как двух основных форм речевой деятельности. Во-первых,

овладение устной и письменной речью происходит в результате выполнения последовательных взаимосвязанных операции; во-вторых, исключение какой-то формы коммуникации не только обедняет педагогический процесс, но и отрицательно сказывается на развитии других видов речи; в-третьих, нельзя недооценивать различия в структуре и функциях обоих форм общения [3].

Результаты

При обучении второму языку необходимо моделировать все параметры и условия формирования навыков по всем видам речевой деятельности на родном языке и стремиться к соблюдению этих условий в формировании навыков посредством материальных единиц второго языка. Добиться полной адекватности условий не удастся, ибо ребенок к моменту поступления в школу успевает овладеть родной речью, «средством познания окружающего мира, планирование действия», и с его помощью удовлетворяет возникающие потребности общения [4]. Далее, если для формирования необходимых навыков при овладении родной речью дается довольно продолжительное время, то процесс обучения второму языку строго регламентирован.

Формирование коммуникативных умений является конечной целью и завершающим этапом работы по русскому языку в национальной школе и вузе. Но только ли завершающим? «В настоящее время наблюдается тенденция ставить коммуникативные задачи уже на начальной стадии отработки материала» [5].

